

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI

O‘ZBEKISTON XALQARO ISLOM AKADEMIYASI



MARG‘UBA MIRQOSIMOVA
ZEBO KASIMOVA
FERUZA RASULOVA

UMUMIY PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA

DARSLIK

TOSHKENT- 2022

Mazkur darslik Xalqaro islom akademiyasi “O‘quv-uslubiy Kengashi”ning 2022-yil dagi “___”-son qarori hamda “Din psixologiyasi va pedagogika” kafedrasining 2022-yil dagi №__-sonli majlis qarori asosida nashrga tavsiya qilingan. Ushbu darslik O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi “Dinshunoslik” va “Islomshunoslik” yo‘nalishlarida tahsil olayotgan bakalavriat ta‘lim yo‘nalishi talabalari uchun “Umumiy pedagogika va psixologiya” fani bo‘yicha tasdiqlangan o‘quv va ishchi dasturlari asosida tayyorlangan.

Taqrizchilar:

O.Jamolddinova – O’DJTU “Pedagogika va psixologiya” kafedrası professori,p.f.d.

R.Niyozmetova – O’zDTA universiteti professori, p.f.d.

M.F.Alimova – O’zXIA “Dinshunoslik” kafedrası mudiri, tarix fanlari nomzodi, dotsent.



1-mavzu. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA TA’LIM TIZIMINI RIVOJLANTIRISHNING KONSEPTUAL ASOSLARI.

Reja:

1. O‘zbekiston Respublikasida ta’lim tizimini rivojlantirishning konseptual asoslari.
2. Pedagogika fani va uning vazifalari.
3. Pedagogika fanining boshqa fanlar bilan o‘zaro aloqadorligi.

Tayanch so‘zlar: ta’lim tizimi, ta’lim islohotlari, ta’lim turlari, umumiy o‘rta ta’lim, professional ta’lim ta’limi, oliy ta’lim, oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim, kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish. tamoyillar, pedagogika fani.

Uzluksiz ta’lim kadrlar tayyorlash tizimining asosi, O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini ta’minlovchi, shaxs, jamiyat va davlatning iqtisodiy, ijtimoiy, ilmiy-texnikaviy va madaniy ehtiyojlarini qondiruvchi ustuvor soha bo‘lib, ijodkor, ijtimoiy faol, ma’naviy boy shaxsning shakllanishi va yuqori malakali raqobatbardosh kadrlarning jadal tayyorlanishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi.

Uzluksiz ta’lim jarayoni shaxsning har tomonlama qaror topishi uchun eng qulay davr sanaladi. Mazkur davrda shaxs fan asoslari hamda zaruriy ma’lumotlarini o‘zlashtiradi, yuksak ma’naviy-axloqiy sifatlarga ega shaxs va malakali kadr sifatida kamol topib boradi. Unda muayyan dunyoqarash shakllanadi.

Bugungi kundagi ta’lim islohotlari, bilimli va salohiyati kadrlar tayyorlash masalalariga e’tibor qaratish zarurligini namoyon etmoqda. Joriy yilning 23-sentabrida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tomonidan “Ta’lim to’g’risida”gi qonunning yangi tahriri imzolangani mazkur yo’nalishdagi islohotlar uchun fundamental asos bo‘lib xizmat qiladi. Mazkur qonun 11 ta bob 75 moddadan iborat.

1-modda.

Ushbu Qonunning maqsadi ta’lim sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

Qonunning asosiy vazifalari:

Ta'lim tizimining ishlashi va rivojlanishi uchun huquqiy kafolatlar va mexanizmlarni yaratish;

Ta'lim olish jarayonida ta'lim oluvchilar uchun teng imkoniyatlar yaratish va shaffoflikni ta'minlash;

O'zbekiston respublikasi ta'lim tizimini xalqaro ta'lim standartlari darajasigacha takomillashtirish;

Ta'lim sohasida davlat hokimiyati va davlat boshqaruvi organlari hamda mahalliy davlat hokimiyati organlari vakolatlarini belgilash va ular o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solish;

Ta'lim sohasida yuridik va jismoniy shaxslarning huquqlari, majburiyatlari va javobgarligini hamda ularning o'zaro munosabatlarini huquqiy jihatdan tartibga solishdan iborat.

Davlat ta'lim olish huquqini quyidagilar orqali ta'minlaydi:

Ta'lim tashkilotlarini rivojlantirish;

Ta'lim tashkilotlarida innovatsion faoliyatni va ta'lim dasturlarini innovatsion texnologiyalar yordamida amalga oshirishni qo'llab-quvvatlash;

Yetakchi klassik oliy ta'lim muassasalari maqomini belgilash va ularni qo'llab-quvvatlash;

Ishlab chiqarishdan ajralgan (kunduzgi) va ajralmagan holda (sirtqi, kechki, masofaviy, dual) ta'lim olishni tashkil etish;

Kadrlar tayyorlash va ta'limga oid davlat dasturlari asosida o'qitish;

Umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'limni bepul olish;

Oilada yoki o'zi mustaqil ravishda bilim olgan, shuningdek, majburiy umumiy o'rta ta'limni to'liq olmagan fuqarolarga akkreditatsiyadan o'tgan davlat ta'lim muassasalarida eksternat tartibida attestatsiyadan o'tish huquqini berish;

Ta'lim muassasalarida kadrlar tayyorlash bo'yicha davlat buyurtmalarini mehnat bozorining talablariga muvofiq shakllantirish.

Xorijiy mamlakatlarning fuqarolari O'zbekiston Respublikasida xalqaro shartnomalarga va qonun hujjatlariga muvofiq ta'lim olish huquqiga ega.

O'zbekiston Respublikasida doimiy yashab turgan fuqaroligi bo'lmagan shaxslar ta'lim olishda O'zbekiston Respublikasi fuqarolari bilan teng huquqlarga ega.

Ta'lim to'g'risidagi qonunning 4-moddasida ta'limning quyidagi asosiy prinsplari belgilab berilgan:

ta'lim ustuvorligining tan olinishi;

ta'lim olish shaklini tanlash erkinligi;

ta'lim sohasida kamsitishlarga yo'l qo'yilmasligi;

ta'lim olishga doir teng imkoniyatlarning ta'minlanishi;

ta'lim va tarbiyaga milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarining singdirilganligi;

ta'lim va tarbiyaning insonparvarlik, demokratik xususiyati;

ta'limning uzluksizligi va izchilligi;

o'n bir yillik ta'limning hamda olti yoshdan yetti yoshgacha bo'lgan bolalarni bir yil davomida umumiy o'rta ta'limga tayyorlashning majburiyligi;

davlat ta'lim standartlari va davlat ta'lim talablari doirasida ta'lim olishning hamma uchun ochiqligi;

o'quv dasturlarini tanlashga doir yondashuvning yagonaligi va tabaqalashtirilganligi;

insonning butun hayoti davomida ta'lim olishi;

jamiyatda pedagoglarni ijtimoiy himoya qilishning kafolatlanganligi;

ta'lim tizimining dunyoviy xususiyatga egaligi;

bilimlilik, qobiliyatlilik va iste'dodning rag'batlantirilishi;

ta'lim tizimida davlat va jamoat boshqaruvining uyg'unligi;

ta'lim faoliyati sohasidagi ochiqlik va shaffoflik.

O'zbekiston Respublikasida uzluksiz ta'lim Davlat ta'lim standartlari hamda o'quv dasturlari talablariga muvofiq tashkil etiladi.

Uzluksiz ta'lim quyidagi **ta'lim turlarini** o'z ichiga oladi:

1. Maktabgacha ta'lim va tarbiya;
2. Umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim;
3. Professional ta'lim;
4. Oliy ta'lim;
5. Oliy ta'limdan keyingi ta'lim;
6. Kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish;
7. Maktabdan tashqari ta'lim

8-modda. Maktabgacha ta'lim va tarbiya

Maktabgacha ta'lim va tarbiya bolalarni o'qitish va tarbiyalashga, ularni intellektual, ma'naviy-axloqiy, etik, estetik va jismoniy jihatdan rivojlantirishga, shuningdek bolalarni umumiy o'rta ta'limga tayyorlashga qaratilgan ta'lim turidir.

Maktabgacha ta'lim va tarbiya olti yoshdan yetti yoshgacha bo'lgan bolalarni boshlang'ich ta'limga bir yillik majburiy tayyorlashni ham nazarda tutadi. Maktabgacha ta'lim va tarbiyani tashkil etish tartibi ushbu Qonun, shuningdek «Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni bilan belgilanadi.

9-modda. Umumiy oʻrta va oʻrta maxsus taʼlim

Umumiy oʻrta va oʻrta maxsus taʼlim umumtaʼlim oʻquv dasturlarini, zarur bilim, malaka hamda koʻnikmalarni oʻzlashtirishga qaratilgan.

Umumiy oʻrta taʼlim (I — XI sinflar) bosqichlari quyidagilardan iborat:

- boshlangʻich taʼlim (I — IV sinflar);
- tayanch oʻrta taʼlim (V — IX sinflar);
- oʻrta taʼlim (X — XI sinflar).

Umumiy oʻrta taʼlim tashkilotining birinchi sinfiga bolalar ular yetti yoshga toʻladigan yilda qabul qilinadi.

Boshlangʻich taʼlim taʼlim oluvchilarda umumiy oʻrta taʼlimni davom ettirish uchun zarur boʻlgan savodxonlik, bilim, malaka va koʻnikmalar asoslarini shakllantirishga qaratilgan.

Tayanch oʻrta taʼlim oʻquv dasturiga muvofiq taʼlim oluvchilarga bilim, malaka va koʻnikmalarning zaruriy hajmini beradi, ularda mustaqil fikrlash va tahlil qilish qobiliyatini rivojlantiradi.

Tayanch oʻrta taʼlim doirasida (VII sinfdan soʻng) taʼlim oluvchilarda kasblar boʻyicha birlamchi bilim va koʻnikmalarni shakllantirish uchun ularni professional tashxislash va kasb-hunarga yoʻnaltirish boʻyicha choralar amalga oshiriladi.

Oʻrta taʼlim oʻquv dasturiga muvofiq taʼlim oluvchilar tomonidan zarur bilim, malaka va koʻnikmalar oʻzlashtirilishini, shuningdek taʼlimning keyingi turi tanlanishini hamda yuqori malaka talab qilinmaydigan kasblar egallanishini taʼminlaydi.

Professional tashxislash va kasb-hunarga yoʻnaltirish, shuningdek taʼlim oluvchilarni yuqori malaka talab qilinmaydigan kasblarga tayyorlash tartibi qonun hujjatlarida belgilanadi.

Umumiy oʻrta taʼlim umumiy oʻrta taʼlim tashkilotlarida uzluksiz tarzda, majburiy boʻlgan oʻn bir yil davomida amalga oshiriladi.

Oʻrta maxsus taʼlim akademik litseylarda toʻqqiz yillik tayanch oʻrta taʼlim asosida ikki yil mobaynida amalga oshiriladi va taʼlim oluvchilarning intellektual qobiliyatlarining jadal rivojlanishini, shuningdek chuqur, tabaqalashtirilgan, kasb-xunarga va shaxsga yoʻnaltirilgan taʼlim olishini taʼminlaydi.

Nodavlat taʼlim tashkilotlarida umumiy oʻrta va oʻrta maxsus taʼlim toʻlov-shartnoma asosida amalga oshirilishi mumkin.

Iqtidorli va isteʼdodli bolalarning qobiliyatini rivojlantirish uchun Prezident, ijod va boshqa ixtisoslashtirilgan maktablar, shuningdek maktab-internatlar tashkil etilishi mumkin.

Jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari boʻlgan bolalar, shuningdek uzoq vaqt davolanishga muhtoj boʻlgan bolalar davlat ixtisoslashtirilgan taʼlim muassasalarida, umumiy oʻrta va oʻrta maxsus taʼlim tashkilotlarida inklyuziv shaklda yoki uy sharoitlarida yakka tartibda taʼlim oladi.

10-modda. Professional ta'lim

Professional ta'lim egallanadigan kasb va mutaxassislik bo'yicha quyidagi darajalarni o'z ichiga oladi:

- boshlang'ich professional ta'lim;
- o'rta professional ta'lim;
- o'rta maxsus professional ta'lim.

Boshlang'ich professional ta'lim kasb-hunar maktablarida IX sinf bitiruvchilari negizida bepul asosda kunduzgi ta'lim shakli bo'yicha umumta'lim fanlarining va mutaxassislik fanlarining ikki yillik integratsiyalashgan dasturlari asosida amalga oshiriladi.

O'rta professional ta'lim kollejlarda davlat buyurtmasi yoki to'lov-shartnoma asosida kasblar hamda mutaxassisliklarning murakkabligidan kelib chiqqan holda, davomiyligi ikki yilgacha bo'lgan kunduzgi, kechki va sirtqi ta'lim shakllari bo'yicha umumiy o'rta, o'rta maxsus ta'lim hamda boshlang'ich professional ta'lim negizida amalga oshiriladi.

O'rta maxsus professional ta'lim texnikumlarda umumiy o'rta, o'rta maxsus, boshlang'ich professional va o'rta professional ta'lim negizida davlat buyurtmasi yoki to'lov-shartnoma asosida kasblar hamda mutaxassisliklarning murakkabligidan kelib chiqqan holda, davomiyligi kamida ikki yil bo'lgan kunduzgi, kechki va sirtqi ta'lim shakllari bo'yicha amalga oshiriladi.

Ushbu Qonun kuchga kirguniga qadar o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi (to'qqiz yillik umumiy o'rta va uch yillik o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi) olgan fuqarolar ham o'rta professional va o'rta maxsus professional ta'lim olish huquqiga ega.

Kasb-hunar maktablari, kollejlari va texnikumlar ta'lim oluvchilarning o'zi tanlagan kasbga va mutaxassislikka ega bo'lishini ta'minlaydi.

11-modda. Oliy ta'lim

Oliy ta'lim bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari bo'yicha yuqori malakali kadrlar tayyorlanishini ta'minlaydi.

Oliy ma'lumotli kadrlarni tayyorlash oliy ta'lim tashkilotlarida (universitetlar, akademiyalar, institutlar, oliy maktablar) amalga oshiriladi. Umumiy o'rta (o'n bir yillik ta'lim), o'rta maxsus (to'qqiz yillik tayanch o'rta va ikki yillik o'rta maxsus ta'lim), boshlang'ich professional ta'lim (to'qqiz yillik tayanch o'rta va ikki yillik boshlang'ich professional ta'lim) olgan shaxslar, shuningdek ushbu Qonun kuchga kirguniga qadar o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi (to'qqiz yillik umumiy o'rta va uch yillik o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi) olgan shaxslar oliy ma'lumot olish huquqiga ega.

Oliy ta'lim ikki bosqichga — bakalavriat va magistratura bosqichiga ega.

Bakalavriat oliy ta'lim yo'nalishlaridan biri bo'yicha chuqurlashtirilgan bilim, malaka va ko'nikmalar beradigan, o'qish davomiyligi kamida uch yil bo'lgan tayanch oliy ta'limdir.

Magistratura tegishli bakalavriat negizidagi aniq mutaxassislik bo'yicha o'qish davomiyligi kamida bir yil bo'lgan oliy ta'limdir.

Magistratura mutaxassisliklarining va ularga muvofiq bo'lgan bakalavriat ta'lim yo'nalishlarining ro'yxati ta'lim sohasidagi vakolatli davlat boshqaruvi organi tomonidan belgilanadi.

Fuqarolar shartnoma asosida ikkinchi va undan keyingi oliy ma'lumotni olish huquqiga ega.

12-modda. Oliy ta'limdan keyingi ta'lim

Oliy ta'limdan keyingi ta'limni oliy ta'lim va ilmiy tashkilotlarda olish mumkin. Oliy ta'limdan keyingi ta'lim doktorlik dissertatsiyasini tayyorlash va himoya qilish maqsadida mutaxassislikni chuqur o'rganishni va ilmiy izlanishlar olib borishni nazarda tutadigan tayanch doktorantura, doktorantura va mustaqil izlanuvchanlik asosida ilmiy darajaga ega ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlashni ta'minlaydi.

Tayanch doktorantura falsafa doktori (Doctor of Philosophy (PhD) ilmiy darajasiga da'vogar izlanuvchilar uchun ishlab chiqarishdan ajralgan holda tashkil etiladigan oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar ixtisosligi bo'yicha oliy ta'limdan keyingi ta'lim shakli hisoblanadi.

Doktorantura fan doktori (Doctor of Science (DSc) ilmiy darajasiga da'vogar izlanuvchilar uchun ishlab chiqarishdan ajralgan holda tashkil etiladigan oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar ixtisosligi bo'yicha oliy ta'limdan keyingi ta'lim shakli hisoblanadi.

Mustaqil izlanuvchilik falsafa doktori (Doctor of Philosophy (PhD) yoki fan doktori (Doctor of Science (DSc) ilmiy darajalariga da'vogar izlanuvchilar uchun ishlab chiqarishdan ajralmagan holda tashkil etiladigan oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar ixtisosligi bo'yicha oliy ta'limdan keyingi ta'lim shakli hisoblanadi.

Ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash, ilmiy darajalar va ilmiy unvonlar berish tartibi, shuningdek harbiy, tibbiyot va boshqa ta'lim tashkilotlarida oliy ta'limdan keyingi ta'lim olish xususiyatlari qonun hujjatlarida belgilanadi.

Oliy ta'limdan keyingi ta'limning davom etish muddati qonun hujjatlarida belgilanadi.

13-modda. Kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish

Kadrlarni qayta tayyorlash tayanch mutaxassisliklar va kasblarga muvofiq bo'lgan yo'nalishlar bo'yicha faoliyatni amalga oshirish uchun qo'shimcha kasbiy bilim, malaka va ko'nikmalarning zarur hajmi egallanishini ta'minlaydi.

Kadrlar malakasini oshirish kasbiy bilim, malaka va ko'nikmalarning chuqurlashtirilishi hamda yangilab borilishini ta'minlaydi, kadrlarning toifasi, darajasi, razryadi va lavozimi oshishiga xizmat qiladi.

Kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish shakllari va muddatlari tegishli davlat ta'lim talablari bilan belgilanadi.

14-modda. Maktabdan tashqari ta'lim

Bolalarning ehtiyojlarini qanoatlantirish, bo'sh vaqti va dam olishini tashkil etish uchun davlat organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari, shuningdek tijorat tashkilotlari madaniy-estetik, ilmiy, texnikaviy, sport yo'nalishidagi maktabdan tashqari ta'lim tashkilotlarini tashkil etishi mumkin.

Maktabdan tashqari ta'lim bolalarga uzluksiz ta'lim berishning tarkibiy qismi sifatida ularning iste'dodi va qobiliyatini rivojlantirishga, ma'naviy ehtiyojlarini qanoatlantirishga qaratilgan.

Maktabdan tashqari ta'lim tashkilotlari jumlasiga bolalar, o'smirlar ijodiyoti saroylari, uylari, klublari va markazlari, «Barkamol avlod» bolalar maktablari, bolalar-o'smirlar sport maktablari, bolalar musiqa va san'at maktablari, studiyalar, axborot-kutubxona hamda sog'lomlashtirish muassasalari kiradi.

Maktabdan tashqari ta'lim berish tartibi ta'lim sohasidagi vakolatli davlat boshqaruvi organi tomonidan belgilanadi.

Qonunga ko'ra, davlat oliy ta'lim, o'rta maxsus, professional ta'lim muassasalari va ularning filiallari, shuningdek, davlat ishtirokidagi oliy, o'rta maxsus, professional ta'lim tashkilotlari va ularning filiallari Prezident yoki hukumat qarorlari bilan tashkil etiladi.

Nodavlat ta'lim muassasalarini tashkil etish ularning ta'rischilari tomonidan amalga oshiriladi. Nodavlat ta'lim tashkilotlariga litsenziya Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi tomonidan beriladi.

Tarbiya nazariyasi pedagogikaning muhim tarkibiy qismlaridan biri bo'lib, tarbiya jarayoni mazmuni, shakl, metod, vosita va usullari, uni tashkil etish muammolarini o'rganadi

Pedagogika fani shaxsni rivojlantirishning ikki muhim jihati, uni o'qitish va tarbiyalashga e'tiborni qaratadi. Didaktika (ta'lim nazariyasi) va tarbiya nazariyasi "Pedagogika nazariyasi"ning muhim tarkibiy qismlari hisoblanadi. Pedagogika fanining muhim tarkibiy qismlaridan yana biri – bu tarbiya nazariyasi sanaladi. Tarbiya nazariyasi bevosita tarbiya jarayonini o'rganadi. Ijtimoiy tarbiya aqliy, axloqiy, jismoniy, mehnat, estetik, iqtisodiy, huquqiy, ekologik va jinsiy tarbiya kabi yo'nalishlarda tashkil etiladi.

Pedagogika fanining vazifalari. Pedagogika (yunoncha paidagogike bo'lib, paida – «bola» va gogike – «yetaklayman») ijtimoiy tarbiyaning umumiy qonuniyatlari, muayyan jamiyatda yagona ijtimoiy maqsadga muvofiq yosh avlodni tarbiyalash hamda unga ta'lim berishning mohiyati va muammolarini o'rganadigan fan. Pedagogika ijtimoiy fanlar tizimiga kiruvchi fan sanalib, yosh avlod hamda kattalarni milliy istiqloq g'oyalari asosida tarbiyalash, unga ta'lim berish muammolarini o'rganadi.

Pedagogika fani shaxsni rivojlantirishning ikki muhim jihati – uni o'qitish va tarbiyalashga asosiy e'tiborni qaratganligi bois didaktika (ta'lim nazariyasi) va tarbiya nazariyasi fanning muhim tarkibiy qismlari hisoblanadi.

Didaktika (ta'lim nazariyasi, yunoncha didaktikos «o'rgatuvchi», didasko «o'rganuvchi») ta'limning nazariy jihatlari, ta'lim jarayonining mohiyati, qonun va qonuniyatlari, tamoyillari, o'qituvchi va o'qituvchi faoliyati, ta'limning maqsadi, mazmuni, shakl, metod, vositalari, natijasi, ta'lim jarayonini takomillashtirish yo'llari kabi masalalarni tadqiq etadi. Tarbiya nazariyasi – pedagogikaning muhim tarkibiy qismlaridan biri bo'lib, tarbiya jarayonining mazmuni, tarbiya turlari, shakl, metod, vosita va usullari, uni tashkil etish masalalarini o'rganadi.

Ijtimoiy tarbiya fuqarolik, aqliy, axloqiy, jismoniy, mehnat, estetik, huquqiy, iqtisodiy, ekologik tarbiya kabi yo'nalishlarda tashkil etiladi.


Pedagogika fani shaxsni shakllantirishdek ijtimoiy buyurtmani bajarish asosida jamiyat taraqqiyotini ta'minlashga alohida hissa qo'shadi. Pedagogika fani maqsadi va vazifalarining belgilanishida ijtimoiy munosabatlar mazmuni, davlat va jamiyat rivojlanish strategiyasi, uning hayotida yetakchi o'rin tutuvchi g'oyalar mohiyati muhim ahamiyatga ega.

O'zbekiston Respublikasida demokratik, insonparvar hamda huquqiy jamiyatni barpo etish sharoitida mazkur fan yuksak ma'naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlarni tarbiyalash tizimini ishlab chiqish, ilg'ot xorijiy tajribalar asosida ta'lim va tarbiya nazariyasini rivojlantirish vazifasini hal etadi.

Pedagogika fanining maqsadi va vazifalarini belgilashda ijtimoiy munosabatlar, davlat va jamiyat qurilishi, uning hayotida yetakchi o'rin tutuvchi g'oyalar muhim ahamiyatga ega.

O'zRda pedagogika fani yuksak ma'naviy-axloqiy sifatlarga ega yuqori malakali kadrlarni tarbiyalash tizimini ishlab chiqish, ta'lim va tarbiya nazariyasini

milliy istiqlol g'oyasi asosida ijodiy rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu jarayonda quyidagi **vazifalar** bajariladi:



Pedagogika fanining vazifalari

Pedagogika fanining asosiy kategoriyalari. Bizga yaxshi ma'lumki, har bir fan o'zining tayanch tushunchalari, qonuniyatlari, tamoyillari, qoidalari tizimiga ega. Aynan mana shu holat uning fan sifatida e'tirof etilishini kafolatlaydi.

Bizga yaxshi ma'lumki, har bir fan o'zining tayanch tushunchalari, qonuniyatlari, tamoyillari, qoidalari tizimiga ega. Aynan mana shu holat uning fan sifatida e'tirof etilishini kafolatlaydi. Fanning mohiyatini ochib beruvchi eng muhim, asosiy tushuncha **kategoriya** deb ataladi.

Pedagogika fanining asosiy kategoriyalari shaxs kamolotini ta'minlash, ta'lim va tarbiya samaradorligiga erishishga qaratilgan jarayonlarning umumiy mohiyatini yoritadi. Eng muhim katego-riyalar sirasiga quyidagilar kiradi: shaxs, tarbiya, ta'lim (o'qitish, o'qish), bilim, ko'nikma, malaka, kompetensiya, ma'lumot, shakllantirish, rivojlantirish

Pedagogika fanining **asosiy kategoriyalari** (kategoriyalar matnda qoraytirilib ko'rsatilgan) quyidagilar hisoblanadi:

Shaxs-psixologik jihatdan taraqqiy etgan, shaxsiy xususiyatlari va xatti-harakatlari bilan boshqalardan ajralib turuvchi, muayyan xulq-atvor va dunyoqarashga ega bo'lgan jamiyat a'zosi

Tarbiya muayyan, aniq maqsad va ijtimoiy tajriba asosida yosh avlodni har tomonlama o‘stirish, uning ongi, xulq-atvori va dunyoqarashini tarkib toptirish jarayoni

Ta’lim o‘quvchilarni nazariy bilim, amaliy ko‘nikma va malakalar bilan qurollantirish, ularning bilish qobiliyatlarini o‘stirish va dunyoqarashlarini shakllantirishga yo‘naltirilgan jarayon

Bilim shaxsning ongida tushunchalar, sxemalar, ma’lum obrazlar ko‘rinishida aks etuvchi borliq haqidagi tizimlashtirilgan ilmiy ma’lumotlar majmui

Ko‘nikma shaxsning muayyan faoliyatni tashkil eta olish qobiliyati

Malaka muayyan harakat yoki faoliyatni bajarishning avtomatlashtirilgan shakli

Ma’lumot ta’lim-tarbiya natijasida o‘zlashtirilgan va tizimlashtirilgan bilim, hosil qilingan ko‘nikma va malakalar hamda tarkib topgan dunyoqarash majmui

Rivojlanish shaxsning fiziologik va intellektual o‘shida namoyon bo‘ladigan miqdor va sifat o‘zgarishlar mohiyatini ifoda etuvchi murakkab jarayon

Pedagogikaning boshqa fanlar bilan aloqasi. Shaxs kamolotini ta’minlash, uning intellektual, ma’naviy-axloqiy hamda jismoniy jihatdan rivojlanishiga erishishda turli yosh davrlari, har bir davrning o‘ziga xos jihatlari, shuningdek, bolaning fiziologik, psixologik holatini inobatga olish maqsadga muvofiqdir. Shu bois yaxlit pedagogik jarayon muayyan turkumni tashkil etuvchi pedagogik fanlar tomonidan o‘rganiladi. Ular quyidagilardir:

Umumiy pedagogika – pedagogikaning konseptual masalalari va amaliy jihatlari tadqiq etadi.

Pedagogika nazariyasi – pedagogikaning umumnazariy masalalari, qonuniyatlari va tamoyillari hamda tasniflashga oid masalalarni o‘rganadi.

Pedagogika tarixi – pedagogik fikrlarning taraqqiy etishi, maktab va ta’lim turlarining davriy xususiyatlari, o‘ziga xos jihatlari va ahamiyatini tadqiq etadi.

Pedagogik mahorat – o‘qituvchilarni pedagogik faoliyatga samarali tayyorlash taktikasi, pedagogik qobiliyatlarni shakllantirish, pedagogik madaniyat va texnikani tarkib toptirish hamda nutq texnikasini egallash yo‘llarini o‘rganadi.

Maktabgacha ta’lim pedagogikasi – maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarni tarbiyalash, ularni intellektual, ma’naviy-axloqiy va jismoniy jihatdan kamolotga yetkazish masalalarini o‘rganadi.

Boshlang‘ich ta’lim pedagogikasi – boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini tarbiyalash, ularga ta’lim berish, ularning o‘ziga xos psixologik hamda fiziologik xususiyatlarini tadqiq etish, shuningdek, ularni intellektual, ma’naviy-axloqiy va jismoniy jihatdan kamolotga yetkazish masalalarini o‘rganadi.

Korreksion (maxsus) pedagogika – jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalarni tarbiyalash va o‘qitish bilan bog‘liq muammolarni o‘rganadi.

Metodika – xususiy fanlarni o‘qitish mazmuni, qonuniyatlari, tashkiliy shart-sharoitlarini tadqiq etadi.

Pedagogik texnologiya – ta‘lim va tarbiya jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llash, texnologik yondashuv asosida ta‘lim va tarbiya jarayonining samaradorligini oshirish muammolarini o‘rganadi.

Ta‘lim menejmenti – ta‘lim muassasalarining faoliyatini tashkil etish, boshqarish, nazorat qilish hamda istiqbollarini belgilash masalalarini o‘rganadi.

Ijtimoiy pedagogika – shaxs ijtimoiylashuvi, ijtimoiy me‘yordan og‘ishishning pedagogik diagnostikasi, korrektsiyasi va rehabilitatsiyasi hamda ijtimoiy-pedagogik faoliyatni tashkil etish masalalarini tadqiq etadi.

Oila pedagogikasi – oilaviy ta‘lim-tarbiya, oilada bolalarni yuksak ma‘naviy-axloqiy sifatlar asosida tarbiyalash, ota-onalarning pedagogik madaniyatini oshirish masalalarini o‘rganadi.

Xalq pedagogikasi – xalq og‘zaki ijodi, urf-odatlar, marosimlar, milliy va bolalar o‘yinlari, o‘yinchoqlari kabilarda saqlanib qolgan pedagogik ma‘lumotlar va milliy tarbiyaga doir tajribalar majmuidir.

Qiyosiy pedagogika – qiyosiy aspektda turli davlat, hudud, umuman dunyo miqyosida, turli tarixiy davrlarda pedagogika nazariyasi va amaliyotining mavjud holati, rivojlanish tendensiyalari va qonuniyatlarini o‘rganadigan pedagogik fan sohasi.

Pedagogik innovatika – pedagogik innovatsiyalarning yuzaga kelishi va rivojlanishi qonuniyatlarini o‘rganadigan, shuningdek pedagogik an‘analar bilan istiqboldagi ta‘lim loyihalarining o‘zaro aloqadorligini ta‘minlaydigan fan.

Pedagogik aksiologiya ta‘lim oluvchi va ta‘limni qadriyat deb e‘tirof etgan holda, ta‘limiy qadriyatlarni o‘rganish hamda ta‘lim-tarbiyaga aksiologik yondashuvni qaror toptirishga xizmat qiluvchi pedagogik bilimlar sohasidir.


Neyropedagogika – bu bosh miya (o‘ng va chap miya yarim sharlari) faoliyati va tuzilishidagi funksional tafovutlar to‘g‘risidagi bilimlar hamda mazkur bilimlarni ta‘lim-tarbiya jarayonida qo‘llay olish haqidagi amaliy fan sohasi.

Muzey pedagogikasi – pedagogika, psixologiya va muzeyshunlikning o‘zaro uyg‘unligi natijasida shakllangan fan sohasi bo‘lib, muzey muhitida ta‘lim-tarbiya berish yo‘llarini tadqiq etadi. Muzeydagi mazkur ma‘rifiy yo‘nalish bilan shug‘ullanadigan xodim muzey pedagogi deb ataladi.

Pedagogik antropologiya – falsafiy, ijtimoiy, psixologik antropologiya qonuniyatlariga asoslangan holda ta‘lim oluvchi uchun qulay va individual shart-sharoitlarni yaratish hamda ta‘limning antropologik modeli va texnologiyasini o‘rganuvchi fan sohasi.


Pedagogik akmeologiya – barcha yosh davrlari psixologiyasi bilan bog‘liqlikda jadal rivojlanayotgan shaxsnig yetuk rivojlanish cho‘qqisi – «akme

shaxs» darajasiga yetkazish qonuniyatlari, texnika va texnologiyasini tadqiq etadi.



Pedagogikaning boshqa fanlar bilan aloqasi

Pedagogika fanlari tizimi. Shaxs kamolotini ta'minlash, uning intellektual, ma'naviy-axloqiy hamda jismoniy jihatdan rivojlanishiga erishishda turli yosh davrlari, har bir davrning o'ziga xos jihatlari, shuningdek, bolaning fiziologik, psixologik holatini inobatga olish maqsadga muvofiqdir. Yaxlit pedagogik jarayon muayyan turkumni tashkil etuvchi pedagogik fanlar tomonidan o'rganiladi. Ya'ni:



Pedagogika turkum fanlar

Islomiy odob va an'anaga ko'ra, dastlab ta'lim berishning o'ziga xos ulug' fazilatlariga tegishli oyat va hadislariga murojaat qilamiz. Buyuk Alloh ta'lim berishning fazilatlarini haqida bunday marhamat qiladi:

(Ey, Muhammad!) **Rabbingizning yo‘li (dini)ga hikmat va chiroyli nasihat bilan da’vat eting. Ular bilan eng go‘zal uslubda munozara qiling. Albatta, Parvardigoringizning o‘zi Uning yo‘lidan chalg‘igan kimsalarni yaxshi biluvchi va hidoyat topganlarni ham U biluvchiroqdir** (Nahl, 125).

Bu oyatda Alloh taolo Rasululloh sollalohu alayhi va sallamni ta‘lim berishga targ‘ib qilmopqda va qay yo‘sinda ta‘lim berishlarini ham aytmoqda. Jumlada, shariat ilmlarini ta‘lim berish ba‘zi shaxslarga, guruhlariga, toifalarga emas, avvalo faqat xolis Allohning yo‘lida bo‘lishi, ikkinchidan, bu ish hikmat bilan amalga oshirilishi kerak. Bunda insonlarning ijtimoiy, madaniy saviyasi va boshqa omillarni e‘tiborga olib, og‘ir kelmaydigan yo‘sinda o‘rgatish lozim. Uchinchidan, ta‘lim yaxshi mav‘iza orqali yo‘lga qo‘yilmog‘i kerak. Insonlarni qiziqtirish, rag‘batlantirish uchun chiroyli so‘z va gaplarni topib gapirish zarur bo‘ladi. Ularni nafratlantirmaslik lozim¹.

Nazorat uchun savollar:

1. O‘zbekiston Respublikasi ta‘limga oid davlat siyosati tamoyillari?
2. Kadrlar tayyorlash milliy modelining asosiy tarkibiy qismlari nimalardan iborat?
3. Uzluksiz ta‘lim tizimining mohiyatini yoritib bering.
4. Pedagogika fan sifatida shakllanish tarixi.
5. Pedagogikaning ilmiy-tadqiqot metodlarini izohlab bering.
6. Oliy o‘quv yurtidan keyingi ta‘lim mazmunini izohlab bering.

Asosiy adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni. // Harakatlar strategiyasi asosida jadal taraqqiyot va yangilanish sari. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2017. – 92 b.

2. O‘zbekiston Respublikasining “Ta‘lim to‘g‘risida”gi Qonuni // O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi tomonidan 2020 yil 19 mayda qabul qilingan.Senat tomonidan 2020-yil 7-avgustda ma’qullangan.

3. Xodjayev B.X. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti.Darslik – T.: SANO-STANDART, 2017.

4. Xodjayev B.X., Choriyev A., Saliyeva Z.T. Pedagogik tadqiqotlar metodologiyasi. Darslik. – T.: IQTISODIYOT DUNYOSI, 2018.

¹ Qudratulloh qizi G., Ishmuhamedov R., Normuhammedova M. “An’anaviy va noan’anaviy ta‘lim”. – Samarqand. “Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi”, 2019. 9-bet.

5. Mutalipova M.J., Xodjayev B.X. Qiyosiy pedagogika. Darslik. – T.: TDPU, 2015.
6. Pedagogika / Nopedagogik oliy ta’lim muassasalari uchun darslik. U.Inoyatov, N.Muslimov, D.Ro‘zieva, M.Usmonboeva. – T.: TDPU, 2013.
7. Yuzlikayeva E., Axmedova M., Qurbonova G., Sh.Tashmetova. Umumiy pedagogika. Darslik.– T.: TDPU, 2012.
8. Pedagogika. // M.Toxtaxodjaevaning umumiy tahriri ostida.Darslik. – T.: O`zbekiston Faylasuflari Milliy jamiyati, 2010.
9. Hoshimov K., Nishonova S., Inomova M., Hasanov R. Pedagogika tarixi. – T.: O`qituvchi, 1996.
10. Hashimov K., Nishonova S. Pedagogika tarixi. – T.: O`zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2005.
11. Alex Moore. Teaching and Learning: Pedagogy, Curriculum and Culture. USA, 2012 Routledge.
12. Neil Selwyn. Education and Technology: Key Issues and Debates. Australia, 2011 Continuum.
13. Heather Fry, Steve Ketteridge, Stephanie Marshall. A Handbook for Teaching and Learning in Higher Education. USA, 2009 Routledge.



Qo‘shimcha adabiyotlar:

1. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. –T.:O`zbekiston, 2017.
2. 2017-2021 yillarda O`zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo`nalishi bo`yicha Harakatlar strategiyasini “Xalq bilan muloqot va inson manfaatlarini yili” da amalga oshirishga oid Davlat dasturini o`rganish bo`yicha ilmiy-uslubiy risola. – Toshkent: Ma`naviyat, 2017. -26B.
3. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O`zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O`zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag`ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo`shma majlisidagi nutq /Sh.M. Mirziyoev. - Toshkent: “O`zbekiston”, 2016.-56 b.
4. Mirziyoev Sh.M. Qonun ustuvorligi va manfaatlarini ta`minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. Toshkent. O`zbekiston nashriyoti, 2017.
5. Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat`iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo`lishi kerak. Toshkent. O`zbekiston nashriyoti, 2017.
5. Niyozov G`, Axmedova M. Pedagogika tarixidan seminar mashg`ulotlari. – T.: NOSHIR, 2011.



2-mavzu. PEDAGOGIKA FAN SIFATIDA. PEDAGOGIKANING ILMYIY-TADQIQOT METODLARI.

Reja:

1. Pedagogikaning fan sifatida shakllanishi.
2. Ilmiy-pedagogik tadqiqotlar metodologiyasi.
3. Pedagogik tadqiqot metodlari

Tayanch soʻzlar: taʼlim tizimi, taʼlim islohotlari, taʼlim turlari, umumiy oʻrta taʼlim, professional taʼlim, oliy taʼlim, oliy oʻquv yurtidan keyingi taʼlim, kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish, tamoyillar, shaxs tarbiyasi, shaxsning rivojlanishi, ilmiy-pedagogik tadqiqotlar metodlari.

Pedagogika fani rivojining hozirgi bosqichida alohida dolzarb metodologik masalalarni hal etish bilan chegaralanmasdan xususiy bilimlar tizimi sifatida pedagogika fani metodologiyasini aniq belgilab olish zarur. Bu birinchidan, pedagogik nazariyalarning ishonchliligini taʼminlasa, boshqa tomondan metodologik bilimlarsiz pedagogik tadqiqotlarni samarli tashkil etish va oʻtkazish mumkin emasligini uqtiradi.

Qurʼoni karim Rasululloh sollallohu alayhi va sallamning nafaqat sahroyi savodsiz kishilarga, balki butun bashariyatga, ham muallim ekanliklarini isbotlaydi. Alloh taolo Jumʼa surasining 2-oyatida bunday deydi: U (Alloh) omilar savodsiz kishilar orasiga oʻzlaridan boʻlgan, ularga (Uning) oyatlarini tilovat qiladigan, ularni (shirk va jaholatdan) poklaydigan hamda ularga Kitob (Qurʼon) va Hikmat (Hadis)ni oʻrgatadigan (bir) paygʻambarni (Muhammadni) yuborgan zotdir. Haqiqatan, (ular paygʻambar kelishidan) ilgari aniq zalolatda edilar.

Taʼlim berishning oʻziga xos ulugʻ fazilatlarini bor. Buyuk Alloh taʼlim berishning fazilatlarini haqida bunday marhamat qiladi: (Ey Muhammad!) Rabbingizning yoʻli (dini)ga hikmat va chiroyli nasihat bilan daʼvat eting! Ular bilan eng goʻzal usulda munozara qiling! Albatta, Parvardigoringizning oʻzi Uning yoʻlidan chalgʻigan kimsalarni yaxshi biluvchi va hidoyat topganlarni ham U biluvchiroqdir (Nahl, 125-oyat)².

Ijodiy jarayonda bugungi kunda pedagogika fani metodologiyasiga, uning predmetiga nisbatan turlicha yondashuvlar vujudga kelmoqdaki, ularning mohiyatini qisqacha tushuntirishga harakat qilamiz.

² Qudratulloh qizi G., Ishmuhammedov R., Normuhammedova M. “Anʼanaviy va noanʼanaviy taʼlim”. – Samarqand. “Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi”, 2019. 12-bet.

Metodologiya alohida fan sifatida ikkita funksiyani bajaradi: deskriptiv (ifodalovchi) va perskriptiv (me'yorlovchi). Birinchisi – obyektini nazariy jihatdan ifodalashni ko'zlasa, keyingisi – tadqiqotchi uchun aniq mo'ljallanishga shart-sharoit yaratadi. Bu ikki vazifaning mavjudligi pedagogika metodologiyasini ham ikki guruhga ajratishni taqozo etadi – nazariy va me'yoriy.

Pedagogikaning nazariy metodologiyasiga quyidagilarni kiritish mumkin: «metodologiya» tushunchasi ta'rifi; fan metodologiyasining umumiy tavsifi, uning darajalari; metodologik bilimlar va faoliyat tizim sifatida; pedagogika sohasidagi tadqiqiy faoliyatni metodologik ta'minlash manbalari; pedagogik tadqiqot obyekti va predmetining metodologik tahlili.

Me'yoriy asos quyidagi savollar doirasini qamrab oladi:

pedagogikani obyektiv borliqni ma'naviy jihatdan o'zgartirishning boshqa shaklidan farqli tomonlarini ilmiy asoslash;

pedagogika sohasidagi ishlarni fanning fundamental asoslariga muvofiqligini aniqlash;

maqsadning aniqligi; maxsus tadqiqot obyekti ajratish; maxsus bilish metodlari va vositalarini qo'llash; atamalarning bir xil qo'llanilishi;

pedagogik tadqiqotlarni tizimlashtirish;

tadqiqot asosnomasi: muammo, mavzu, uning dolzarbligi, tadqiqot obyekti, predmeti, maqsad va vazifalari, farazi, himoya qilinadigan holatlar, ilmiy yangiligi, ilmiy-amaliy ahamiyati;

pedagogik tadqiqotning tarkibi va mantiqiy ketma-ketligi;

pedagogik fanlar tizimi, ularning o'zaro aloqasi.

Tadqiqot muammosi bo'yicha qabul qilingan direktiv va me'yoriy hujjatlar ham bevosita metodologiyaning me'yoriy asosini tashkil etadi.

Falsafiy nuqtai nazardan metodologiya nazariy va amaliy faoliyatni tashkil etish prinsiplari va usullari tizimi, shuningdek, bu tizim haqidagi ta'limot (nazariya) sifatida qabul qilinadi. Aniqrog'i, metodologiya predmeti – faoliyatni tashkil etish haqidagi nazariya demakdir.

Ko'rinib turibdiki, bu ta'rifda ilmiy bilishning ikki jihati – bilimlar tizimi va ilmiy-tadqiqiy faoliyat qamrab olingan. Yoki ikki faoliyat turi – metodologik tadqiqot va metodologik ta'minot hisobga olinyapti. Agar birinchisining vazifasi pedagogika fanlari rivojining qonuniyatlari va yo'nalishlari, pedagogik tadqiqotlarning sifat va samaradorligini oshirish prinsiplari, ularning tushunchalari tarkibini aniqlashtirsa, ikkinchisi – metodologik bilimlardan tadqiqot dasturlarini asoslashda va sifatini baholashda foydalanishni anglatadi.

Shu bilan birgalikda pedagogik muammolarning umumnazariy muammolar bilan almashtirishga yo'l qo'yib bo'lmaydi. Chunki, birinchisi «qanday qilib metodologiyani pedagogikaga qo'llash mumkin» degan savolni aniqlashtirsa, ikkinchisi – umumnazariy savollar esa pedagogikaning predmeti, uning boshqa

fanlar bilan aloqasi, ta'lim va tarbiya mohiyati kabi umumiy savollar yechimiga qaratiladi.

Pedagog kadrlar tayyorlash sifatini oshirish masalasi respublikamiz va jahon miqyosida tadqiqotchilarning diqqat markazida bo'lib kelmoqda. Mazkur muammo ta'lim mazmunini modernizatsiyalash, ta'lim jarayonini tashkil qilish texnologiyalari va usullarini optimallashtirish bilan chambarchas bog'langan. Ularning to'laqonli hal etilishiga esa pedagogik tadqiqotlarni amalga oshirishda yanada moslashuvchan va taraqqiyparvar yondashuvlarni keng joriy etish orqaligina erishish mumkin. O'z navbatida pedagogika fani boshqa fanlar kabi yangi-yangi faktlar, yuqori natijalarga erishish imkonini beruvchi texnologiyalar asosida rivojlanib boradi. Buning uchun esa ilmiy asoslangan tadqiqot metodlariga tayanish talab etiladi. Ilmiy tadqiqot metodlari esa o'z navbatida metodologiya tushunchasi bilan ataluvchi nazariy prinsiplar majmuasiga bog'liq bo'ladi.

Pedagogik metodologiya sohasida amalga oshirilgan ilmiy ishlar tahlili «metodologiya», shuningdek, «pedagogik metodologiya» tushunchasiga nisbatan turlicha yondashuvlar mavjudligini ko'rsatadi. Pedagogika fanida metodologiya tushunchasining gnoseologik talqini ko'proq ustuvorlik kasb etadi. Mazkur yondashuvga ko'ra «metodologiya» tushunchasi, mazmunan «gnoseologiya» (bilish to'g'risidagi fan), «nazariy bilish» kabi tushunchalarga yaqin turadi. Ushbu yo'nalish tarafdorlari masalaga bir tomonlama yondashib, metodologiyani faqat «bilish metodlari to'g'risidagi ta'limot» yoki hodisalarni bilish jarayoni sifatida talqin qiladilar. Shu o'rinda, ushbu tushunchaning «borliqni o'zgartirish metodlari to'g'risidagi ta'limot» ekanligini e'tibordan chetda qoldiradilar va metodologiyani gnoseologik qolip bilan cheklab qo'yadilar.

Pedagogika fani rivoji muayyan pedagogik muammolarni tadqiq etish maqsadida olib borilgan tadqiqot ishlarining g'oyasi, mazmuni hamda natijalari hisobiga ta'minlanadi. Ijtimoiy va ishlab chiqarish jarayonining keskin rivojlanishi shaxsni har tomonlama kamol toptirish imkonini beruvchi omil hamda pedagogik shart-sharoitlarni aniqlash, jamiyat va shaxs ma'naviyatiga ziyon yetkazuvchi holatlarni bartaraf etishni taqozo qiladi. Tarbiya jarayonlarining mohiyatini anglash ularni keng yoki tor doirada o'rganish, mavjud ko'rsatkichlar vositasida ularning sodir bo'lish sabablarini o'rganish, zarur chora-tadbirlarni belgilash ilmiy izlanishlarni tashkil etish zaruriyatini yuzaga keltiradi. Pedagogik izlanishlarning samarali kechishi bir qator obyektiv va subyektiv omillarga bog'liq. Mazkur jarayonda maqsadga muvofiq keluvchi, maqbul, ayni vaqtda samarali bo'lgan metodlarni tanlay olish ham muhimdir.


Pedagogik ilmiy-tadqiqot metodlari shaxsni tarbiyalash, unga muayyan yo'nalishlarda chuqur, puxta ilmiy bilimlarni berish tamoyillari, obyektivi va subyektiv omillarini aniqlovchi pedagogik jarayonning ichki mohiyati, aloqa va qonuniyatlarini maxsus tekshirish va bilish usullaridir.

Ayni vaqtda, O‘zbekiston Respublikasida pedagogik yo‘nalishda olib borilayotgan ilmiy izlanishlar dialektik yondashuvga asoslanadi. Pedagogik hodisa, voqelik va ularning qonuniyatlarini aniqlashga bunday yondashuv pedagogik hodisa va jarayonlarning umumiy aloqasi, ularning izchil, uzluksiz rivojlanishi, bolaning fiziologik rivoji uning psixologik, intellektual jihatdan takomilashtirib borishini ta‘minlashi, qarama-qarshiliklarning shaxs kamolotini ta‘minlashdagi o‘rni va roli, shuningdek, dialektika kategoriyalarining ahamiyatini e‘tirof etadi.

Pedagogik ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish murakkab, muayyan muddatni taqozo etuvchi, izchillik, uzluksizlik, tizimlilik hamda aniq maqsad kabi xususiyatlarga ega bo‘lgan jarayon bo‘lib, uning samarali bo‘lishi uchun bir qator shartlarga rioya etish zarur. Ular quyidagilardir: muammoning dolzarbligi va mavzuning aniq belgilanganligi; ilmiy farazlarning to‘g‘ri shakllantirilganligi; vazifalarning tadqiqot maqsadi asosida to‘g‘ri belgilanganligi; tadqiqot metodlar tizimiga nisbatan obyektiv yondashuv; tajriba-sinov ishlari jarayoniga jalb etiluvchi respondentlarning yosh, psixologik va shaxsiy xususiyatlari, shuningdek, shaxs rivojlanishi qonuniyatlarining to‘g‘ri hisobga olinganligi; tadqiqot natijalarini oldindan tashxislash va uning natijalarini bashorat qilish; tadqiqot natijalarining kafolatlanganligi.

Zamonaviy sharoitda, pedagogik yo‘nalishda tadqiqotlarni olib borishda quyidagi metodlardan foydalanilmoqda:

1. Pedagogik kuzatish metodi.
2. Suhbat metodi.
3. Anketa metodi.
4. Intervyu metodi.
5. Ta‘lim muassasasi hujjatlarini tahlil qilish metodi.
6. Test metodi.
7. Pedagogik tahlil metodi.
8. Bolalar ijodini o‘rganish metodi.
9. Pedagogik tajriba metodi.
10. Matematik-statistik metod.



Pedagogik tadqiqot metodlari

Pedagogik kuzatish metodi. Uni qo'llash jarayonida ta'lim muassasalarining o'quv-tarbiya ishlari jarayonini o'rganish asosida tadqiq etilayotgan muammo holati aniqlanadi, tajriba avvali va yakunida qo'lga kiritilgan ko'rsatkichlar o'rtasidagi farq to'g'risidagi ma'lumotga ega bo'linadi. Pedagogik kuzatish murakkab va o'ziga xos xususiyatlarga ega. Kuzatish aniq maqsad asosida, uzluksiz, izchil va tizimli amalga oshirilsa, kutilgan natijani qo'lga kiritish mumkin. Olib borilayotgan pedagogik kuzatish ta'lim-tarbiya sifatini oshirish, o'quvchi shaxsini shakllantirishga xizmat qilsa, mazkur metodning ahamiyati yanada oshadi.

Pedagogik kuzatuvni tashkil etishda xatoga yo'l qo'ymaslik muhimdir. Buning uchun tadqiqotchidan quyidagilar talab etiladi:

- 1) kuzatuv jarayonida aniq maqsadga egalik;
- 2) kuzatishni tizimli ravishda yo'lga qo'yish;
- 3) kuzatishning har bir bosqichida muayyan vazifalarni hal etish;
- 4) har bir holatning mohiyatini sinchiklab o'rganish;
- 5) xulosa chiqarishga shoshilmaslik.

Suhbat metodi. Bu metod pedagogik kuzatish jarayonida ega bo'lingan ma'lumotlarni boyitish, mavjud holatga to'g'ri baho berish, muammoning yechimini topishga imkon beruvchi pedagogik shart-sharoitlarni yaratish, tajriba-sinov ishlari subyektlari imkoniyatlarini muammo yechimiga jalb etishga yordam beradi. Suhbat maqsadga muvofiq holda individual, guruhli hamda ommaviy shaklda o'tkaziladi. Suhbat jarayonida respondentlarning imkoniyatlari to'la-to'kis namoyon bo'lishga erishish muhimdir. Uning samarali bo'lishi uchun quyidagilarga amal qilish maqsadga muvofiq:

- 1) maqsaddan kelib chiqqan holda suhbat uchun belgilanuvchi savollarning mazmunini aniqlash hamda savollar o'rtasidagi mantiqiylik va izchillikni ta'minlash;
- 2) suhbat joyi va vaqtini aniq belgilash;
- 3) suhbat ishtirokchilarining soni xususida ma'lum to'xtamga kelish;
- 4) suhbatdosh to'g'risida avvaldan muayyan ma'lumotlarga ega bo'lish;
- 5) suhbatdosh bilan samimiy munosabatda bo'lish;
- 6) suhbatdoshning o'z fikrlarini erkin va batafsil bayon etishi uchun sharoit yaratish;
- 7) savollarning aniq, qisqa va ravshan berilishiga erishish;
- 8) olingan ma'lumotlarni o'z vaqtida tahlil qilish.

Anketa metodi (fransuzcha – tekshirish). Ushbu metod yordamida pedagogik kuzatish va suhbat jarayonida to'plangan dalillar boyitiladi. Anketa metodi ham tizimlangan savollar asosida respondentlar bilan muloqotni tashkil etishga asoslanadi. Anketa savollariga javoblar, ko'p hollarda, yozma ravishda olinadi.

O'rganilayotgan jarayon mohiyatidan kelib chiqqan holda anketa savollari quyidagicha bo'ladi:

1) ochiq turdagi savollar (respondentlarning erkin, batafsil javob berishlari uchun imkon beruvchi savollar);

2) yopiq turdagi savollar (respondentlar «ha», «yo'q», «qisman» yoki «ijobiy», «qoniqarli», «salbiy» va hokazo tarzdagi javob variantlarini tanlash orqali savollarga javob beradilar).

Anketa metodini qo'llashda ham bir qator shartlarga amal qilish zarur. Ular quyidagilardir:

1) anketa savollari tadqiq etilayotgan muammoning mohiyatini yoritishga xizmat qilishi lozim;

2) anketa savollari yirik hajmli va noaniq bo'lmasligi kerak;

3) anketa savollari o'quvchilarning dunyoqarashi, yosh va psixologik xususiyatlarini inobatga olish asosida tuzilishi zarur;

4) anketa savollari respondentlar tomonidan to'la javoblar berilishini ta'minlovchi vaqtni kafolatlay olishi zarur;

5) anketa o'quvchilarning pedagogik va psixologik tavsifnomalarini tuzish manbaiga aylantirib yuborilmasligi zarur;

6) anketa javoblari muayyan mezonlar asosida puxta tahlil etilishi shart.

Intervyu metodi respondent tomonidan tadqiq etilayotgan muammoning u yoki bu jihatini yorituvchi hodisaga nisbatan munosabat bildirilishini ta'minlaydi. Intervyu respondent e'tiboriga turkum savollarni havola etish asosida o'tkaziladi. Intervyu jarayonida olingan savollarga nisbatan tadqiqotchi tomonidan munosabat bildirilishi uning samarasini oshiradi.

Ta'lim muassasasi hujjatlarni tahlil qilish metodi. Pedagogik hodisa va dalillarni tekshirish maqsadida ta'lim muassasalari faoliyati mazmunini yorituvchi ma'lumotlarni tekshirish maqsadga muvofiqdir. Mazkur metod O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi qonuni hamda «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» talablarining ta'lim muassasalari amaliyotidagi bajarilish holatini o'rganish, bu boradagi faollik darajasi, erishilgan yutuq hamda yo'l qo'yilgan kamchiliklarni aniqlash, ilg'or tajribalarni ommalashtirish va ta'lim muassasasi pedagogik tajribasini oshirish maqsadida qo'llaniladi.

Ta'lim muassasasi faoliyati mohiyatini yorituvchi hujjatlar quyidagilardan iborat: o'quv mashg'ulotlarining jadvali, o'quv dasturi, guruh (yoki sinf) jurnallari, o'quvchilarning shaxsiy varaqalari, buyruqlar, Pedagogik Kengash yig'ilishi bayonnomalari yozilgan daftar, Pedagogik Kengash qarorlari, ta'lim muassasasi smetasi hamda pasporti, tarbiyaviy ishlar rejasi, o'quv-tarbiya ishlarini tashkil etish borasidagi hisobotlar, ta'lim muassasasi jihozlari (o'quv partalari, stol stullar, yumshoq mebellar va hokazo-lar) qayd etilgan daftar va hokazolar.

Mazkur metod muayyan yo'nalishlarda o'quv-tarbiya ishlari samaradorligi darajasi, o'quvchilarda hosil bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar hajmi, ilg'or

pedagogik tajribalar mazmunini o'rganishda muhim ahamiyatga ega.

Test metodi. Ushbu metod respondentlar tomonidan muayyan fan sohasi yoki faoliyat (shu jumladan, kasbiy faoliyat) bo'yicha o'zlashtirilgan nazariy bilim va amaliy ko'nikma, malakalar darajasini aniqlashga xizmat qiladi. Test o'z mohiyatiga ko'ra quyidagi savollardan iborat:

1) ochiq turdagi savollar (respondentlarning erkin, batafsil javob berishlari uchun imkon beruvchi savollar);

2) yopiq turdagi savollar (respondentlar «ha», «yo'q», «qisman» yoki «ijobiy», «qoniqarli», «salbiy» va hokazo tarzdagi javob variantlarini tanlash orqali savollarga javob beradilar).

3) to'g'ri javob variantlari qayd etilgan savollar (respondentlar o'z yondashuvlariga ko'ra to'g'ri deb topgan javob variantini belgilaydilar).

Test metodini qo'llashda aniqlanishi zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarni turkum asosida berilishiga e'tibor berish maqsadga muvofiqdir. Ushbu metodning afzalligi respondentlar javoblarini aniq mezonlar bo'yicha tahlil etish imkoniyati mavjudligi hamda vaqtning tejaliishi bilan tavsiflanadi. Biroq metod ayrim kamchilikdan ham holi emas. Chunonchi, aksariyat holatlarda javoblar yozma ravishda olinadi, shuningdek, respondent taklif etilayotgan javob variantlaridan birini tanlashi zarur. Shu bois respondent o'z fikrini batafsil ifoda etish imkoniyaga ega emas.

Pedagogik tahlil metodi. Tadqiqotni olib borish jarayonida ushbu metodni qo'llashdan ko'zlangan maqsad tanlangan muammoning falsafiy, psixologik hamda pedagogik yo'nalishlarda o'rganilganlik darajasini aniqlashdan iborat bo'lib, tadqiqotchi ilgari surayotgan g'oyaning nazariy jihatdan haqqoniyligini asoslashga xizmat qiladi.


Bolalar ijodini o'rganish metodi. Mazkur metod o'quvchilarning muayyan yo'nalishlardagi layoqati, qobiliyati, shuningdek, ma'lum fan sohalari bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalari darajasini aniqlash maqsadida qo'llaniladi. Uni qo'llashda o'quvchilarning ijodiy ishlari – kundaliklari, insholari, yozma ishlari, referatlari, hisobotlari muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Metodning afzalligi shundaki, u ma'lum o'quvchiga xos bo'lgan individual imkoniyatni ko'ra olish, baholash va uni rivojlantirish uchun zamin yaratadi.

Bolalar ijodini o'rganishning quyidagi shakllari mavjud:

- 1) bilimlar bellashuvi;
- 2) fan olimpiadalari;
- 3) turli mavzulardagi tanlovlar;
- 4) maktab ko'rgazmalari;
- 5) festivallar;
- 6) musobaqalar.

Pedagogik tajriba (eksperiment – lotincha «sinab ko'rish», «tajriba qilib ko'rish») metodi. Pedagogik tajriba metodidan muammo yechimini topish imkoniyatlarini o'rganish, mavjud pedagogik sharoitlarning maqsadga erishishning

kafolatlay olishi, ilgari surilayotgan tavsiyalarning amaliyotda o'z in'ikosiga ega bo'la olishi hamda samaradorligini aniqlash maqsadida foydalaniladi. Muayyan muammo yechimini topishga yo'naltirilgan pedagogik tajriba ma'lum doirada, soni aniq belgilangan respondentlar ishtirokida amalga oshiriladi. Mazkur metoddan foydalanish tadqiqotchi tomonidan ilgari surilayotgan maxsus metodkaning samaradorligini aniqlay hamda unga baho bera olishi zarur.



Pedagogik tajriba turlari

Pedagogik tajriba samaradorligini ta'minlovchi shartlar: tajribaning maqbul loyiha (dastur) asosida uyushtirilishi; tadqiqot ilmiy farazining puxta asoslanishi; tadqiqot ob'ektlari va usullarining to'g'ri tanlanishi; tajriba o'tkazilish vaqti hamda davomiyligining aniqlanishi; zarur pedagogik shart-sharoitlar (asbob-uskuna, jihozlar, vositalar)ning yaratilganligi; tajriba ma'lumotlarini umumlashtirish, tahlil qilish va natijalarni qayta ishlash

Pedagogik tajriba yakunida olingan natijalarga asoslanib umumiy xulosaga kelinadi va ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Matematik statistika tajriba-sinov ishlari, shuningdek, umumiy holda tadqiqotning samaradorlik darajasini aniqlash maqsadida qo'llaniladi. Muammo holatini ifodalovchi ko'rsatkichlar maxsus matematik formulalar yordamida qayta tahlil etiladi. Yakuniy qiymat tadqiqot samarasini ifodalovchi asosiy ko'rsatkich hisoblanadi. Ayni vaqtda pedagogik yo'nalishda tadqiqotlar olib borishda Styudent, Rokich, V.Bespalko va V.Grechixin metodlaridan keng foydalanilmoqda.



Nazorat uchun savollar:

1. O'zbekiston Respublikasi ta'limga oid davlat siyosati tamoyillari?
2. Kadrlar tayyorlash milliy modelining asosiy tarkibiy qismlari nimalardan iborat?
3. Uzluksiz ta'lim tizimining mohiyatini yoritib bering.
4. Pedagogika fan sifatida shakllanish tarixi.
5. Pedagogikaning ilmiy-tadqiqot metodlarini izohlab bering.
6. Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim mazmunini izohlab bering.



Asosiy adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni. // Harakatlar strategiyasi asosida jadal taraqqiyot va yangilanish sari. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2017. – 92 b.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni // O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi tomonidan 2020 yil 19 mayda qabul qilingan. Senat tomonidan 2020-yil 7-avgustda ma’qullangan.
3. Xodjayev B.X. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. Darslik – T.: SANO-STANDART, 2017.
4. Xodjayev B.X., Choriyev A., Saliyeva Z.T. Pedagogik tadqiqotlar metodologiyasi. Darslik. – T.: IQTISODIYOT DUNYOSI, 2018.
5. Mutalipova M.J., Xodjayev B.X. Qiyosiy pedagogika. Darslik. – T.: TDPU, 2015.
6. Pedagogika / Nopedagogik oliy ta’lim muassasalari uchun darslik. U.Inoyatov, N.Muslimov, D.Ro‘zieva, M.Usmonboeva. – T.: TDPU, 2013.
7. Yuzlikayeva E., Axmedova M., Qurbonova G., Sh.Tashmetova. Umumiy pedagogika. Darslik.– T.: TDPU, 2012.
8. Pedagogika. // M.Toxtaxodjaevaning umumiy tahriri ostida. Darslik. – T.: O‘zbekiston Faylasuflari Milliy jamiyati, 2010.
9. Hoshimov K., Nishonova S., Inomova M., Hasanov R. Pedagogika tarixi. – T.: O‘qituvchi, 1996.
10. Hashimov K., Nishonova S. Pedagogika tarixi. – T.: O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2005.
11. Alex Moore. Teaching and Learning: Pedagogy, Curriculum and Culture. USA, 2012 Routledge.
12. Neil Selwyn. Education and Technology: Key Issues and Debates. Australia, 2011 Continuum.
13. Heather Fry, Steve Ketteridge, Stephanie Marshall. A Handbook for Teaching and Learning in Higher Education. USA, 2009 Routledge.



Qo‘shimcha adabiyotlar:

1. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. –T.:O‘zbekiston, 2017.
2. 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini “Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili” da amalga oshirishga oid Davlat dasturini o‘rganish bo‘yicha ilmiy-uslubiy risola. – Toshkent: Ma’naviyat, 2017. -26B.
3. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali

marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutq /Sh.M. Mirziyoev. - Toshkent: "O'zbekiston", 2016.-56 b.

4. Mirziyoev Sh.M. Qonun ustuvorligi va manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. Toshkent. O'zbekiston nashriyoti, 2017.

5. Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. Toshkent. O'zbekiston nashriyoti, 2017.

6. Xasanboev J., To'raqulov X., Xaydarov M., Hasanboeva O. Pedagogikafanidanizohlilug'at. – T.: Fanvatexnologiya, 2008.

6. Niyozov G., Axmedova M. Pedagogika tarixidan seminar mashg'ulotlari. – T.: NOSHIR, 2011.



3-mavzu. SHAXS, UNING RIVOJLANISHI, TARBIYASI VA IJTIMOIYLASHUVI.

Reja:

1. Shaxs rivojlanishi haqida tushuncha.
2. Shaxs rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar.
3. Rivojlanishning yosh va o'ziga xos xususiyatlari.

Tayanch so'zlar: shaxs, shaxsning rivojlanishi, shaxsning ijtimoiylashuvi, yosh davrlari, biologik va ijtimoiy omillar, individ, shaxs, individuallik, shaxs faoliyati.

Shaxs rivojlanishi haqida tushuncha. Shaxs tushunchasi insonga taalluqli bo'lib, psixologik jihatdan taraqqiy etgan, shaxsiy xususiyatlari va xatti-harakatlari bilan boshqalardan ajralib turuvchi, muayyan xulq-atvor va dunyoqarashga ega bo'lgan jamiyatning a'zosini ifodalashga xizmat qiladi.

Kadrlar tayyorlash sohasidagi davlat siyosati insonni intellektual va ma'naviy-axlohiy jihatdan tarbiyalash, uning har tomonlama rivojlangan shaxs sifatida namoyon bo'lishiga erishishni nazarda tutadi. Mazkur ijtimoiy talabning amalga oshirilishi har bir fuqaroning bilim olish, ijodiy qobiliyatini namoyon etish, intellektual jihatdan rivojlanishi hamda muayyan kasb yo'nalishi bo'yicha mehnat qilish huquqni kafolatlaydi.

Shaxs psixologik jihatdan taraqqiy etgan, shaxsiy xususiyatlari va xatti-harakatlari bilan boshqalardan ajralib turuvchi, muayyan xulq-atvor va dunyoqarashga ega bo'lgan ijtimoiy mavjudot

Individ (lotincha “individuum” sʻzidan olingan bʻlib, “bʻlinmas”, “ягона” maʼnolarini anglatadi) xatti-xarakatlarini shartli refleks yordamidagina

Shaxsning individual xususiyatlari shaxsning yoʻnalganligi, qiziqishlari, xarakteri, uni boshqalardan ajratib turadigan aqliy kamoloti va faoliyatining oʻziga xos, barqaror, muhim xususiyatlari

Shaxs rivojlanishi. Odamning ijtimoiy mavjudot sifatida shaxsga aylanishi uchun ijtimoiy muhit sharoitlari va tarbiya kerak boʻladi. Ana shular taʼsirida odam inson sifatida rivojlanib boradi va shaxsga aylanadi.

Rivojlanish shaxsning fiziologik va intellektual oʻsishida namoyon boʻladigan miqdor va sifat oʻzgarishlari mohiyatini ifoda etuvchi murakkab jarayondir. Rivojlanish mohiyatan oddiydan murakkabga, quyidan yuqoriga, eski sifatlardan yangi holatlarga oʻtish, yangilanish, yangining paydo boʻlishi, eskining yoʻqolib borishi, miqdor oʻzgarishining sifat oʻzgarishiga oʻtishini ifodalaydi. Rivojlanishining manbai qarama-qarshiliklarni oʻrtasidagi kurashdan iboratdir.

Bola shaxsining rivojlanishi inson ijtimoiy mavjudotdir degan falsafiy taʼlimotga asoslanadi. Ayni vaqtda inson tirik, biologik mavjudot hamdir. Demak, uning rivojlanishida tabiat rivojlanishining qonuniyatlari ham muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, shaxs bir butun mavjudot sifatida baholanar ekan, uning rivojlanishiga biologik va ijtimoiy qonuniyatlar birgalikda taʼsir etadi, ularni bir-biridan ajratib boʻlmaydi.

Chunki shaxsning faoliyati, hayot tarziga yoshi, bilimi, turmush tajribasi bilan birga boshqa fojiali holatlar, kasalliklar ham taʼsir etadi.

Inson butun umri davomida oʻzgarib boradi. U ham ijtimoiy, ham psixik jihatdan kamolga yetadi, bunda bolaga berilayotgan tarbiya maqsadga muvofiq boʻlsa, u jamiyat aʼzosi sifatida kamol topib, murakkab ijtimoiy munosabatlar tizimida oʻziga munosib oʻrin egallaydi. Chunki rivojlanish tarbiya taʼsiri ostida boradi.

Shaxsning fazilatlarini toʻgʻri koʻrish va bexato baholash uchun uni turli munosabatlar jarayonida kuzatish lozim.

Demak, shaxsni rivojlantirish vazifasini toʻgʻri hal etish uchun uning xulqiga taʼsir etuvchi omillar hamda shaxs xususiyatlarini yaxshi bilish zarur.

Tarbiya bolaga samarali taʼsir etishi uchun oʻsish va rivojlanish qonuniyatlarini bilish va hisobga olish maqsadga muvofiq. Shunday qilib, rivojlanish va tarbiya oʻrtasida ikki tomonlama aloqa mavjud.

Shaxs rivojlanishiga taʼsir etuvchi omillar. Fanda odamning shaxs sifatida rivojlanishiga biologik va ijtimoiy omillarning taʼsiri oʻrtasidagi munosabatni belgilashga oid munozara koʻpdan buyon davom etmoqda.

Insonning shaxs sifatida, rivojlanishida ijtimoiy hodisalarning ta'siri kuchli bo'ladimi? Yoki tabiiy omillar yetakchi o'rin tutadimi? Balki tarbiyaning ta'siri yuqoridir? Ular o'rtasidagi o'zaro munosabat qanday?

Fanda biologik yo'nalish deb nomlangan nuqtai nazar yetakchi o'rinlardan birini egallab, uning vakillari Aristotel, Platonlar tabiiy-biologik omillarni yuqori qo'yadi. Ular tug'ma imkoniyatlar, taqdir, tole har kimning hayotdagi o'rnini belgilab bergan, deydilar.

XVI asr falsafasida vujudga kelgan **preformizm** oqimi namoyandalari esa shaxs rivojlanishidagi naslning roliga katta baho berib, ijtimoiy muhit va tarbiyaning rolini inkor etadi.

Xorij psixologiyasidagi yana bir oqim – **bixeviorizm** XX asr boshlarida yuzaga kelgan bo'lib, uning namoyandalari, ong va aqliy qobiliyat nasldan-naslga o'tib, insonga u tabiatan berilgan, deyiladi. Mazkur ta'limot vakili amerikalik olim E.Torndaykdir.

Pragmatizm oqimi va uning vakillari D.Dyui, A.Kombe ham shaxs rivojlanishini biologik nuqtai nazardan asoslaydilar. Ular rivojlanishni faqat miqdoriy o'zgarishdan iborat, deb qaraydilar. Naslning rolini absolyutlashtirib, uni inson taqdirida hal qiluvchi ahamiyatga ega deb biladilar.

Demak, bir guruh xorijiy olimlar rivojlanishni biologik (nasliy) omilga bog'laydilar.

Biologik oqimga qarshi falsafiy oqim vakillari rivojlanishni ijtimoiy omil bilan belgilaydilar. Bu oqim vakillari bola shaxsining jismoniy, psixik rivojlanishi u yashaydigan muhitga bog'liq deb ko'rsatadilar.

Muhit deganda odam yashaydigan sharoitdagi barcha tashqi ta'sir tushuniladi. Shu nuqtai nazardan tarbiya tufayli bolani o'zi yashaydigan ijtimoiy sharoitga moslashtirish mumkin, degan xulosa kelib chiqadi.

Ular ijtimoiy muhitning rolini hal qiluvchi omil deb hisoblaydilar. Demak, odam bolasining shaxs sifatida rivojlanib, taraqqiy etib borishi, uning shaxs bo'lib kamolga yetishida nasl (biologik omil), ijtimoiy muhit (bola yashaydigan sharoit), shuningdek, maqsadga muvofiq amalga oshadigan tarbiya ham birdek ahamiyatga ega. Bu omillarning ta'sirini aniqlashda ilg'or pedagogik olimlar, psixolog va faylasuflar ta'limotiga suyaniladi.

Falsafada shaxsni jamiyat bilan bog'liq bo'lgan ijtimoiy hayotdagi murakkab voqelik deb qaraladi. Ular individning ma'naviy boyligi uning munosabatlariga bog'liq, deb hisoblaydilar.

Falsafiy-antropologik yondashuv o'zining tadqiqotchilik va tarbiyaviy funksiyasiga ko'ra o'quvchining ma'naviy dunyosiga yo'naltirilgandir. Ana shu sababli mazkur yondashuv pedagogikadagi mavjud boshqa ilmiy yoki gnoseologik yondashuvlardan farqli ravishda muloqot va o'zaro bir-birini tushunish asosida ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishni talab etadi.

Mazkur yondashuvning o'ziga xosligi ta'lim-tarbiya jarayonining barcha subyektlariga nafaqat dunyoqarash ko'rinishida, balki mavjudlik usuli tarzida qarashni talab etadi. Mazkur mavjudlik usulini birinchi navbatda borliqni anglab

etish sifatida tushunish lozim. Ikkinchidan, mazkur mavjudlik usulini uzluksiz ravishda o'z-o'zi, boshqalar va boshqa madaniyatlar bilan muloqot tarzi sifatida aniqlashtirish maqsadga muvofiqdir.

Shaxsga ijtimoiy muhitning ta'siri ham muhim. Bu **tarbiya** orqali amalga oshiriladi.

Birinchi, tarbiya ta'sirida muhit bera olmagan bilim, ma'lumot egallanadi, mehnat va texnik faoliyat bilan bog'liq ko'nikma va malakalar hosil bo'ladi.

Ikkinchi, tarbiya tufayli tug'ma kamchiliklar ham o'zgartirilib, shaxs kamolga etadi.

Uchinchi, tarbiya yordamida muhitning salbiy ta'sirini ham yo'qotish mumkin.

To'rtinchi, tarbiya kelajakka qaratilgan maqsadni belgilaydi.

Demak, tarbiya bilan rivojlanish bir-biriga ta'sir etadi, bu tarbiya doimiy va uzluksizdir.

Shunday qilib, bola shaxsining rivojlanishida tarbiya ham yetakchi o'ringa ega bo'lib, tarbiya tufayli nasl-nasabi, oila muhiti, ijtimoiy muhit ta'sirida har tomonlama rivojlanishga qodir, degan xulosani chiqarish mumkin.

Zamonaviy pedagogikada shaxs shakllanishiga doir **to'rt yondashuv** qaror topgan:

1. **Biologik yondashuv** – inson tabiiy mavjudot bo'lib, uning butun xatti-harakatlari tug'ma instinkt va ehtiyojlar natijasidir. Inson jamiyat talablariga bo'ysunishga majbur, shu bilan birga tabiiy ehtiyojlarini ham namoyon qilib boradi.

2. **Ijtimoiy yondashuv** – inson biologik mavjudot sifatida tug'iladi, faqat hayotiy faoliyati davomida boshqalar bilan doimiy muloqot va ijtimoiy guruhlarining ta'siri ostida ijtimoiylashadi.

3. **Psixologik yondashuv** – insondagi psixik jarayonlar (sezgi, idrok, fikrlash kabilar) tabiiy tavsifga ega, insonning yo'nalganligi – qiziqishlari, qobiliyatlari ijtimoiy hodisa sanaladi.

4. **Yaxlit yondashuv** – shaxs yaxlit tavsifga ega bo'lib, uning rivojiga nafaqat uning faoliyatidagi o'ziga xosliklar, balki turmush tarzi ham ta'sir ko'rsatadi. Shu bilan birga ijtimoiy hayot natijalari – motiv, maqsad, qiziqish kabilar ham uning rivojlanishida muhim rol o'ynaydi.

Rivojlanishning yosh va o'ziga xos xususiyatlari. Muayyan bir yosh davriga xos bo'lgan anatomik, fiziologik (jismoniy) va psixologik xususiyatlar **yosh xususiyatlari** deb ataladi. Ana shu yosh xususiyatlarni hisobga olgan holda ta'lim va tarbiya ishi tashkil etiladi. Shunda bola rivojlanishiga tarbiya ta'siri kuchli bo'ladi.

Bolalarning tarbiyasiga to'g'ri yondashish, uni muvaffaqiyatli o'qitish uchun bola rivojlanishidagi turli yoshdagi davrlariga xos xususiyatlarni bilish va uni hisobga olish muhimdir. Chunki bola organizmining o'sishi ham, rivojlanishi ham, psixik taraqqiy etishi ham turli yosh davrlarida turlicha bo'ladi. Abu Ali Ibn Sino,

Yan Amos Komenskiy, Abdulla Avloniy ham bolani tarbiyalash zarurligini uqtirib o'tganlar.


Bolaning o'ziga xos xususiyatini hisobga olish juda murakkab. Chunki bir xil yoshdagi bolalar ham psixik jihatdan turlicha bo'lishi mumkin.

Masalan, ko'rish va eshitish qobiliyati, faolligi, tez anglash, sust fikr yuritishi, hovliqma yoki vazminligi, sergap yoki kamgaplighi, serg'ayrat yoki g'ayratsizligi, yalqov yoki tirishqoqligi, palapartish va chala ishlaydigan, erinchoqligi yoki ishga tez kirishib ketishi kabilar nerv faoliyati tizimining ta'siri bo'lib, o'qituvchi yoki tarbiyachi ularni bilishi zarur.

Bolaning individual – o'ziga xos xususiyatini bilish uchun temperamentning umumiy tiplari va bolaning o'ziga xos xususiyatini o'rganish, metodikasini bilish muhim. Temperament lot. «temperamentum» «qismlarning bir-biriga munosabati» ma'nosini anglatib, shaxsning individual psixologik xususiyatlari majmuidir.

Shuningdek, turli yosh davrlarining o'ziga xos rivojlanish qonuniyatlari ham mavjud. Bolaning jismoniy va psixik kamoloti quyidagi davrlarga bo'linadi:

1. Go'daklik davri – chaqaloqlik (1 oy) davri tugagandan to bir yoshgacha bo'lgan davr.
2. Bog'chagacha bo'lgan yosh davri – 1 yoshdan 3 yoshgacha.
3. Maktabgacha bo'lgan yosh davri – 3 yoshdan 7 yoshgacha.
4. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilar (bolalar) – 7 yoshdan 11–12 yoshgacha.
5. O'rta va katta maktab yoshidagi o'quvchilar (o'smirlar, ilk o'spirinlar) – 12–17 yosh.



Maktabgacha yoshdagi bolaning jismoniy va psixik kamoloti shartli ravishda quyidagi davrlarga bo'linadi:

realn

- ilk yosh (1–2 yosh);
- ilk yosh guruhi (2–3 yosh);
- kichik yosh (3–4 yosh);
- o'rta yosh (4–5 yosh);

–katta yosh (5–6 yosh);

–maktabga tayyorlov davri (7 yosh, majburiy ta’lim).

Kichik maktab yoshida o‘yin faoliyatining o‘rnini endi o‘qish faoliyati egallaydi. Bu juda qiyin o‘tish davri bo‘lib, bolaning bo‘yi, og‘irligi jihatdan uning tashqi ko‘rinishi kam farq qiladi. Suyaklari qotmagani tufayli tez shikastlanadi. Muskullari tez o‘sishi tufayli serharakat bo‘ladi. Bosh miyasi tez rivojlanadi.

Jismoniy o‘shiga xos bu xususiyatlar tarbiyachidan ehtiyotkorlikni talab etadi. Bu yoshda bola bilim olish va o‘rganishga qiziquvchan bo‘ladi.

O‘rta va katta maktab yoshi (o‘smirlik, ilk o‘spirinlik 12–17 yosh). O‘smirlikning murakkabligi anatomik-fiziologik va psixologik xususiyatdagi kuchli o‘zgarishlar bilan bog‘liqdir. Bolaning o‘shisi tezlashadi. Bu davrni o‘tish davri ham deyiladi. Bu davrda jinsiy yetilish davri boshlanadi. Bu bolaning fe‘l-atvoriga ta’sir etadi. O‘smir hayotida mehnat, o‘yin, sport va jamoat ishlari katta rol o‘ynaydi. Ba’zilarining o‘zlashtirishi pasayadi, intizomi bo‘shashadi.

Ilk o‘spirinlik balog‘atga yetgan davridir. Mazkur davrda jinsiy yetilish tugaydi. Ularda mustaqillik sezila boshlaydi. O‘spirin yoshlar hayotga kelajak nuqtai nazaridan qaray boshlaydilar. Madaniy darajasini orttirishga intilish kuchaya boradi, his-tuyg‘ularida ham o‘zgarish yuz beradi. O‘z-o‘zlarini tarbiyalashga kirishadilar. Ideal tanlash va unga ergashish kuchayadi. Bu davrda ular o‘rtasida munozaralar o‘tkazish yaxshi natija beradi. O‘spirinlar o‘z guruhiga intiladi. Shuning uchun ham o‘spirinning barcha intilishlari ma’lum maqsadga yo‘naltirilgan bo‘lishi zarur. Ularda o‘quv fanlarini tanlashga nisbatan ehtiyoj kuchaya boradi.

O‘spirinlik – bu aqliy faoliyatning ham rivojlanish davri sanaladi. Ular o‘z fikrlarini mustaqil ifodalashga harakat qilib, shaxslik xislatlarini namoyish eta boshlaydilar. Shunda o‘qituvchilar va katta yoshlilar ularning hali g‘o‘r fikrlari va dunyoqarashlarini to‘g‘ri yo‘naltirishlari muhim. Zero, bu davrda o‘z-o‘zini anglash, ma’naviy-axloqiy, ijtimoiy xislatlari tez shakllanadi.

Bunga uning faoliyati, jamoada va jamoat joylarida o‘zini tutishi, odamlar bilan tez muloqotga kirishishi ham turtki bo‘ladi. O‘zini kattalardek his etish, o‘ziga xosligini namoyon etish, boshqalarning diqqatini o‘ziga qaratishga harakat qiladi. Axloqiy muammolarni o‘z qarashlari nuqtai nazaridan hal eta boshlaydi. Hayot mohiyati, baxt, burch, shaxs erkinligini o‘z qiziqishlari bilan o‘lchaydilar. Shu bois ularga katta yoshlilarning beg‘araz, to‘g‘ri yo‘nalish berishlari o‘ta muhim.

Mazkur davrda yoshlar xulqi ham tarkib topa boshlaydi. Bunda shaxsning jamoadagi mavqei, jamoadagi shaxslar bilan muomala-muloqoti muhimdir.

Albatta, bu borada ta’lim muassasasida faoliyat ko‘rsatayotgan yoshlar ijtimoiy harakati ta’siri katta ahamiyatga ega. Chunki o‘spirin-yoshlar mustahil

hayot ostonasida bo'lib, ularning bu hayotga to'g'ri qadam qo'yishi uning jamiyatning faol fuqarosi bo'lishining muhim shartidir.

Shaxs rivojlanishining gender xususiyatlari. Gender» atamasi 1968-yilda amerikalik psixolog olim Stoller tomonidan ilmiy iste'molga kiritilgan bo'lib, «jins» ma'nosini bildiradi. Jinsiy munosabatlar ilgari ham psixologiyada faol o'rganilgan bo'lsa-da, yangi atamaning paydo bo'lishi ijtimoiy fanlarda yangi oqimlarni yuzaga keltirdi. «Gender tarixi», «Gender psixologiyasi», «Falsafaning gender tomonlari», «Gender antropologiyasi», «Gender sotsiologiyasi», keyinchalik esa «Gender pedagogikasi» kabi fan tarmoqlari shakllandi. «Gender» tushunchasi, avvalo, erkak va ayol, o'g'il va qiz bolalar munosabatlarining ijtimoiy-psixologik hamda pedagogik tomonlarini qamrab oladi.

Adabiyotlarda gender tushunchasining bir necha xil talqini mavjud. Jumladan, faylasuflar uni quyidagicha tavsiflaydilar: «Gender» inglizcha so'z bo'lib, jinsga mansublikning ijtimoiy jihatlari ma'nosini anglatadi... Bu tushuncha erkaklar va ayollar o'rtasida nafaqat biologik farqni, balki jamiyatning jinsiy taqsimotida ijtimoiy va madaniy tavsiflarning butun majmuini hisobga oladi. Erkaklar va ayollarga tegishli ijtimoiy bog'liqlik, xulq-atvor va kutilgan natijalarni ifodalaydi. Psixologlar ham gender tushunchasiga o'ziga xos tarzda yondashganlar: psixikaning gender asoslari jins va u bilan bog'liq ijtimoiy stereotiplar, shaxsning psixologik ko'rinishidir. Olimlar orasida bu xususiyatlarning qaysi biri tug'ma, qaysi biri esa ta'lim va tarbiya jarayonida rivojlanganligi to'g'risida keskin munozaralar bormoqda. O'g'il va qiz bolalarning har bir xalq madaniyatida har xil tarbiyalanishi tufayli, ular maktabga kelgan davrdan boshlab jinslarning psixologik farqlari ma'lum bo'ladi. Bu farqlar orasida psixologlar (A.E.Taras, 2002) qizlar o'g'il bolalardan matematik va vizual qobiliyatlari bilan ustunroq deb ta'kidlashadi. O'g'il bolalarda qizlarga qaraganda o'ziga ishonch hissi kuchliroqdir. Qiz bolalar bir xillikka asoslangan qiziqarsiz faoliyatni yengilroq qabul qilishadi. O'zgaruvchan muhitga tez moslashishadi. O'g'il bolalar har bir holatni umumiy tarzda baholashsa, qizlar yaxshilab tekshirib, o'rganib, keyin unga baho berishadi.

Bugungi kunda o'g'il va qiz bolalarning rivojlanishidagi fiziologik, axloqiy, emotsional, xulq-atvorga oid farqlar to'liq o'rganilgan. Ana shu asosdan kelib chiqib, o'quvchilarning rivojlanishida hisobga olish lozim bo'lgan quyidagi gender xususiyatlarni sanab o'tish mumkin:

qiz bolalar o'g'il bolalarga qaraganda ikki marta ko'proq savol berishadi;

qizlar to'g'ridan-to'g'ri o'zining istaklari haqida gapirmaydi, lekin tezda kelishib ketadi; o'g'il bolalar esa, hal qiluvchi fikrni ayta olishadi va o'z huqtai nazarida qolishni afzal ko'rishadi;

mustaqil hal etish bilan bog'liq vazifalarni bajarishda o'g'il bolalar sifati, qiz bolalar esa hajmini hisobga olishadi;

o'g'il bolalar ko'proq falsafiy fikr yuritadi, fikrning mantig'iga e'tibor berishadi; qizlarga ko'proq psixologiya, adabiyot yoqadi;

o'g'il bolalar dialog, munozarani afzal ko'rishadi; qiz bolalar monologlikka moyil, eshitishni va o'zida aks ettirishni yoqtiradi;

o'g'il bolalar ko'proq virtual(mo'jiza)likka, xayolotga qiziqishadi; qiz bolalar o'g'il bolalarga qaraganda ratsional va pragmatik. Ular o'z tanlovlarini foydalilik nuqtai nazaridan, ya'ni tanlanayotgan narsa qanchalik maqsadga erishishga imkon berishiga qarab amalga oshirishadi;

o'g'il bolalar o'z tuyg'ularini ochiq bayon etishadi; qiz bolalar o'z xohish va istaklarini yashirishadi, aytish uchun uzoq vaqt kutishadi.

Shaxs ijtimoiylashuvi. Ijtimoiylashuv insonning madaniyat, kommunikatsiya ta'siri ostida shakllanish jarayoni, bir-birlari bilan muloqotda bo'lishlarini ifodalasa, ijtimoiylashtirish tushunchasi esa, jamiyatning muvafaqqiyatli rivojlanishi uchun zarur bo'lgan namunali xulq, psixologik mexanizm, sotsial norma va qadriyatlarni o'zlashtirish jarayonidir. Ijtimoiy-falsafiy, psixologik va pedagogik tadqiqotlar jarayonida shaxs ijtimoiylashuviga xos bo'lgan quyidagi holatlar aniqlangan:

- shaxsning ijtimoiylashuvida ayrim davrlarning va bir davrdan ikkinchi davrga o'tish jarayonida ro'y beruvchi ijtimoiy omillar (mega omillar, makro omillar, mezo omillar, mikro omillar), voqeliklar hamda ularning ta'siri yetakchi o'rin tutadi;

- bolaning kamol topishi, shaxs bo'lib shakllanishida ijtimoiy, xususan, ota-onalar va bola o'rtasidagi munosabatlar, ularning o'zaro hissiy birligi muhim ahamiyatga ega;

- shaxs muayyan sxemalar hamda kognitiv tuzilmalar yordamida boshqariladi; shu sababli uning ana shu sxema va kognitiv tuzilmalarga moslashuvi ijtimoiylashuv mohiyatini anglatadi;

- shaxs ijtimoiy ta'sirlar yordamida ilmiy bilimlar hamda kishilik madaniyati unsurlarini o'zlashtiradi, ularning negizida esa u aqliy jihatdan kamol topadi va axloqiy sifatlarga ega bo'ladi – mazkur holat shaxs ijtimoiylashuvining ustuvor jihati hisoblanadi;

- shaxsning ijtimoiylashuvi turli ijtimoiy tuzumlar, jamiyat rivojining muayyan davrlarida bir xil kechmaydi; har bir davrda shaxsning ijtimoiylashuvida o'ziga xos ko'rinishda namoyon bo'ladi;

- ijtimoiylashuv bolalikkagina xos xususiyat bo'lmay, shaxs hayotining barcha davrlarini qamrab oladi.

Ma'lumki, ijtimoiylashuv shaxsning jamiyatdagi qadriyatlarni qabul qilishi va zaruriy darajada ijtimoiy, fuqaroviy va shaxsiy yetuklikka erishishi asosida jamiyatga kirib borishidir. Shaxsning ijtimoiylashuvi esa, inson o'zini jamiyatda shaxs sifatida anglab borishi jarayonidir. Bu tarbiya, ta'lim, o'z-o'zini tarbiyalash jarayonida yuzaga kelib, inson qachonki, o'z maqsadlarini mustaqil aniqlay olsa va

ularga erishish yo'llarini belgilay olganida, o'z qadr-qimmatini anglab yetganida, jamiyatdagi o'z o'rniga ishonch hosil qilgan taqdirda amalga oshadi.

Ijtimoiylashuv jarayoni o'zining sifat xususiyatlariga, tarkibiga, qonuniyatlariga, omillariga, shart-sharoitlariga, boshqarilishiga va ijtimoiylashgan insonda namoyon bo'lishiga (uning xususiyatlari, sifatlari, o'ziga xosliklari) ko'ra murakkabdir. Ana shu sababli u o'zida turli fanlar tomonidan ko'rib chiqiladigan ijtimoiylashuvning xilma-xil – madaniy, axloqiy, huquqiy, mehnat, psixologik ko'rinishlarini aks ettiradi. Pedagogika haqida gap ketganda esa, bu sohadagi ijtimoiylashuv jarayoni pedagogikaning predmeti, sohasi va ehtiyojlarining o'ziga xosligini hisobga olib, pedagogik ijtimoiylashuv turi sifatida alohida e'tibor bilan qarab o'tiladi. Bu insonning dunyoga kelgan vaqtdan boshlab ijtimoiy belgilangan va muhim pedagogik yangidan shakllanuvchi tajribalarni – tarbiyalanganlik, ta'lim olganlik, ma'lumotlilik va rivojlanganlik hamda ularning kelgusidagi butun umri mobaynida muttasil o'zgarib borishi (mukammallashuvi) jarayoni va yuzaga kelish natijasidir.

Bu holda shaxsga nisbatan sust ravishda yondashuv kuzatilmaydi, balki u ijtimoiy munosabatlarning va pedagogik tizimning subyekti sifatida, tajriba egallashda faollik va mustaqillikni namoyon qiluvchi hamda o'z-o'zini shakllantiruvchi, shu bilan birga o'z hayot yo'li uchun javobgarlikni his etuvchi subyekt sifatida qaraladi. Pedagogikaning vazifasi – insonga fikrlovchi shaxs, ijtimoiy faol fuqaro bo'lib yetishishiga, jamiyatda o'z o'rnini va xulq-atvorini, o'z istak-maqсадlarini yo'nalishini angelaydigan, pedagoglar va jamiyatdagi pedagogik tizim bilan birgalikda umuminsoniy qadriyatlarni saqlash va mustahkamlashga yo'nalgan shaxs bo'lishiga yordam berishdir.

Ijtimoiylashuvning quyidagi umumiy mexanizmlari mavjud:

ana'naviy – oila va yaqin muhit orqali o'quvchilarni ijtimoiy faollikka jalb etish, faoliyat va muloqotda maqbul shar-sharoitlarni yaratish;

institutsional – ijtimoiy institutlar va ta'lim muassasalari tomonidan o'quvchilarning rivojlanishi uchun zaruriy shart-sharoit va imkoniyatlarni yaratish;

shaxslararo – o'quvchilarni ijtimoiy aloqalar tizimiga jalb etish, ularda muloqotmandlik malakalarini rivojlantirish;

refleksiv – o'z-o'zini anglash, o'z-o'zini baholash, o'z-o'zini loyihalashni pedagogik qo'llab-quvvatlash orqali individual ongni taraqqiy ettirish.

O'quvchilarni ijtimoiylashtirishning muhim sharti ularda ijtimoiy kompetentlikni qaror toptirishdir. Ijtimoiy kompetentlik insondan ijtimoiy vaziyatlarga yo'nalganlik va boshqarish qobiliyatini talab etuvchi boshqa kishilar bilan kommunikatsiyani yo'lga qo'yishda o'z ifodasini topadi. Ijtimoiy kompetentlikning asosiy funksiyalariga moslashuv, ijtimoiy orientatsiya, shaxs integratsiyasi va umumijtimoiy tajriba kabilar kiradi.

Faoliyatga yo'naltirilgan yondashuv nuqtai nazaridan ijtimoiy tajriba o'quvchining boshqa kishilar, atrof-muhit bilan o'zaro harakati natijasida yuzaga keluvchi ma'naviy-axloqiy qadriyatlar va ustanovkalar yig'indisini o'zida aks

ettiradi. Ana shu sababli shaxsda o'z-o'zini tashkillashtirish va o'z-o'zini korrektsiyalash madaniyatini shakllantirishga yo'naltirilgan «o'z-o'zini boshqarish tajribasi»ni ijtimoiy tajribaning komponenti sifatida qarash maqsadga muvofiqdir. O'z-o'zini boshqarish tajribasini shakllantirishning asosiy ijtimoiy sohalar sifatida individni subyekt-subyekt munosabatlariga jalb etish; subyektda tashabbuskorlikni shakllantirish; hayotiy faoliyat jarayonida o'z-o'zini tashkillashning universal namunalarini qabul qilish kabilarni kiritish mumkin.

Aksiologik yondashuv nuqtai nazaridan shaxsda ijtimoiy tajribani shakllantirish ikkita o'zaro aloqador yo'nalishda amalga oshadi. Birinchidan, inson hayotining mazmuni, shaxslararo munosabatda ma'naviy-axloqiy me'yor va qoidalar sifatida individda qadriyatga yo'naltirilgan orientatsiyani shakllantirish, ikkinchi tomondan shaxsiy nuqtai nazardan yuqori mavqega ega o'z-o'zini boshqarishda aks etuvchi o'zaro birgalikdagi faoliyat jarayonidagi xatti-harakatlar, ijtimoiy va hayotiy ahamiyat kasb etuvchi xulq-atvor me'yorlarini o'zlashtirish bilan bog'liqlikni o'zida aks ettiradi.

O'quvchilarni o'z-o'zini boshqarishga yo'naltirish pedagogik hodisa sifatida shaxs salohiyatini rivojlantirish bilan bog'liq intellektual, emotsional-hissiy va faoliyatga yo'naltirilgan sohalar uyg'unligini talab etadi hamda o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini yuqori darajada rivojlantirish asosida ijtimoiy faolligini oshirishga xizmat qiladi.

MT yoshidagi bolaning hissiyotga berilavchanligiuning faolligida, katchanligida ko'rinadi. Bu yoshda bola o'ynay boshlaydi, uning o'yinlari asosan katta yoshdagi kishilar, o'zidan katta bolalarning **Shaxs rivojlanishida faoliyatni o'rni**. Shaxs rivojlanishida irsiyat, muhit, tarbiya bilan bir qatorda inson faoliyati ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bu degani inson qanchalik mehnat qilsa, uning rivojlanishi shunchalik yuqori bo'ladi. Faoliyat o'zi nima?

Faoliyat ijtimoiy hayotni maqsadga muvofiq tashkil etish yo'lida shaxs tomonidan amalga oshirilayotgan kundalik va kasbiy xatti-harakatlarning muavvan shakli

Faoliyat jarayonida inson shaxsi, har tomonlama va bir butun, yaxlit holda rivojlanadi. Lekin faoliyatni maqsadga muvofiq amalga oshirishi uchun uni to'g'ri tashkil etish lozim. Insonning qobiliyati va yoshi u tomonidan tashkil etilayotgan faoliyat mohiyatiga ko'ra belgilanadi. Lekin ko'p holatlarda shaxsning rivojlanishi uchun imkoniyatlar yaratilmaydi, tarbiyalanuvchilarning ijtimoiy mehnat, bilish faoliyatlari cheklangan bo'ladi. Shaxsni shakllantirishda faoliyat samaradorligiga erishish uchun mazkur jarayonini pedagogik jihatdan to'g'ri uyushtirish talab etiladi.

Faoliyat faol va sust (passiv) bo'lishi mumkin. O'smir faoliyati muhit va tarbiya ta'sirida faollashishi yoki susayishi mumkin. Inson shaxsining rivojlanishida uning butun vujudi bilan sevib, o'z imkoniyatlarini namoyon etib, mehnat qilish, o'zini shaxs sifatida ko'rsata olishi unda o'z faoliyatidan qoniqish hosil qiladi. Uning ijtimoiy mehnatdagi ishtirokida faollik ko'zga tashlanadi. Faollik ko'rsatishning asosini esa hamma vaqt ehtiyoj tashkil etadi. Ehtiyojlarning xilma-xilligi

faoliyatining ham turlarini kengaytiradi. Shunga ko'ra, o'quvchining turli yosh davrlarida ularning faoliyati turlicha bo'ladi. O'smir va o'spirinlar faoliyatining asosiy turlari o'yin, o'qish va mehnatdan iborat bo'lib, faoliyatga kirishishning asosiy shakli muloqot sanaladi. Faoliyat yo'nalishlari shaxs o'quvchilar tomonidan o'zlarining qiziqish va ehtiyojlariga ko'ra tanlanadi.

O'smir hayotida mehnat, o'yin, sport va jamoat ishlari katta rol o'ynaydi. Ba'zilarining o'zlashtirishi pasayadi, intizomi bo'shashadi.

Ammo yuqoridagilar bilan bir qatorda o'smir xarakterida murakkab qarama-qarshiliklar ham mavjud bo'ladi. Bu o'smir faoliyati, xulqida yangi xislatlarning shakllanishida ko'rinadi. O'smirlar kattalar oldida o'zlarining erkinliklarini namoyish etishga harakat qiladilar. O'z-o'zini tarbiyalashga bo'lgan talab o'sadi. O'smir yoshida o'g'il va qiz bolalar o'rtasida farq kuchayadi. VII sinfdan intellektual malakalar pasayadi. Shuning uchun bu davrda o'quvchilarning rivojlanishlariga katta e'tibor berish lozim. O'z-o'zini tarbiyalash natijasida o'g'il bolalar kuchli, erkin, e'tiborli, jasur; qizlar esa o'ta ko'nikuvchan, kamtar va jiddiy bo'la boshlaydilar. O'smirda o'z vaqtini rejalashtirishda yordam berish zarur. 13-14 yoshgacha o'smirda burch hissi, mas'uliyatni his etish, vazminlik paydo bo'la boshlaydi.

Shaxsning ijtimoiylashuvi uzoq davom etadigan murakkab jarayondir. Har qanday jamiyatning rivojlanish jarayonida ijtimoiy-axloqiy qadriyatlar, ideallr, axloqiy me'yorlar va qoidalar tizimini ishlab chiqiladi. Ijtimoiylashuv davrida har bir jamiyat a'zosi mazkur qadriyat, ideal, me'yor va qoidalarning mohiyatini anglaydi, ularga rioya qilish asosida faoliyat yuritadi.

Ijtimoiylashuv jarayoni ichki qarama-qarshiliklarga ega. Ijtimoiylashgan shaxsning xatti-harakatlari, xulq-atvori jamiyat talablariga mos kelishi, u bilan o'zaro uyg'unlasha olishi, salbiy ijtimoiy hodisalarga, individual rivojlanishiga to'sqinlik qiluvchi hayotiy holatlarga qarshi turishi kerak. Lekin hayotda ba'zan aksi ham bo'ladi: to'liq ijtimoiylashgan, jamiyatga kirishib ketadigan, ammo muhitda ba'zi salbiy holatlarga qarshi kurashishda faollik ko'rsatmaydigan odamlar ham mavjud. Bu holat ko'p jihatdan butun jamiyat, tarbiya muassasalari, o'qituvchilar hamda ota-onalarga ham taalluqli. Tarbiyada qarama-qarshilik insonparvarlik g'oyasi yordamidagina bartaraf etilishi mumkin. Zero, O'zRning "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi"da ham ta'kidlab o'tilganidek, uzluksiz ta'limni tashkil etish, rivojlantirish hamda ta'limning ijtimoiylashuviga erishish dolzarb masaladir. Ta'lim oluvchilarda estetik boy dunyoqarashni shakllantirish, ularda yuksak ma'naviyat, madaniyat va ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish kabilar muhim ijtimoiy talablar hisoblanadi.

Shaxs tarbiyasiga ta'sir etuvchi omillar. Fanda odamning shaxs sifatida rivojlanishiga biologik va ijtimoiy omillarning ta'siri o'rtasidagi munosabatni belgilashga oid munozara ko'pdan buyon davom etmoqda.

Insonning shaxs sifatida rivojlanishida ijtimoiy hodisalarning ta'siri kuchli bo'ladimi? Yoki tabiiy omillar yetakchi o'rin tutadimi? Balki tarbiyaning ta'siri yuqoridir? Ular o'rtasidagi o'zaro munosabati qanday?

Fanda biologik yo'nalish deb nomlangan nuqtai nazar yetakchi o'rinlardan birini egallab, uning vakillari Aristotel, Platonlar tabiiy-biologik omillarni yuqori qo'yadi. Ular tug'ma imkoniyatlar, taqdir, tole har kimning hayotdagi o'rnini belgilab bergan, deydilar. XVI asr falsafasida vujudga kelgan preformizm oqimi namoyandalari esa shaxs rivojlanishidagi naslning roliga katta baho berib, ijtimoiy muhit va tarbiyaning rolini inkor etadi. Xorij psixologiyasidagi yana bir oqim – bixeviorizm XX asr boshlarida yuzaga kelgan bo'lib, uning namoyandalari, ong va aqliy qobiliyat nasldan-naslga o'tib, insonga u tabiatan berilgan, deyiladi. Mazkur ta'limot vakili amerikalik olim E.Torndaykdir.

Pragmatizm oqimi va uning vakillari D.D'yul, A.Kombe ham shaxs rivojlanishini biologik nuqtai nazarda asoslaydilar. Ular rivojlanishni fahat miqdoriy o'zgarishdan iborat, deb qaraydilar. Naslning rolini absolyutlashtirib, uni inson taqdirida hal qiluvchi ahamiyatga ega deb biladilar. Demak, bir guruh xorijiy olimlar rivojlanishni biologik (nasliy) omilga bog'laydilar.

Biologik oqimga qarshi falsafiy oqim vakillari rivojlanishi ijtimoiy omil bilan belgilaydilar. Bu oqim vakillari bola shaxsining jismoniy, psixik rivojlanishi u yashaydigan muhitga bog'liq deb ko'rsatadilar. Muhit deganda odam yashaydigan sharoitdagi barcha tashqi ta'sir tushuniladi. Shu nuqtai nazardan tarbiya tufayli bolani o'zi yashaydigan ijtimoiy sharoitga moslashtirish mumkin, degan xulosa kelib chiqadi. Ular ijtimoiy muhitning rolini hal qiluvchi omil deb hisoblaydilar. Demak, odam bolasining shaxs sifatida rivojlanib, taraqqiy etib borishi, uning shaxs bo'lib kamolga yetishida nasl (biologik omil), ijtimoiy muhit (bola yashaydigan sharoit), shuningdek, maqsadga muvofiq amalga oshadigan tarbiya ham birdek ahamiyatga ega. Bu omillarning ta'sirini aniqlashda ilg'or pedagogik olimlar, psixolog va faylasuflar ta'limotiga suyaniladi.

Falsafada shaxsni jamiyat bilan bog'liq bo'lgan ijtimoiy hayotdagi murakkab voqelik deb qaraladi. Ular individning ma'naviy boyligi uning munosabatlariga bog'liq, deb hisoblaydilar.

Haqiqatdan ham, shaxs mehnat faoliyati zaminida rivojlanadi, kamolga yetadi. Inson sharoitni, sharoit esa odamni yaratadi. Bu esa o'z navbatida inson faolligini namoyon etadi. Zero, shaxs ma'lum ijtimoiy tuzum mahsulidir. Jamiyat shaxs kamolotining muayyan imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishi yoki yo'q qilishi mumkin. Faylasuflar shaxsni tabiatning bir bo'lagi deb baholaydilar. Bu insondagi layoqat kurtaklari bo'lib, uning rivojlanishi uchun tarbiya kerak, degan g'oyani ifodalaydi.

Jamiyat taraqqiyoti shaxs rivojlanishi uchun keng imkoniyatlarni yaratadi. Demak, shaxs bilan jamiyat o'rtasida ham uzviy aloqa mavjud. Shunday qilib, odam shaxsining jamiyatdagi rivojlanishi tabiat, muhit, inson o'rtasidagi murakkab aloqa ta'siri ostida ro'y beradi, inson ularga faol ta'sir etadi va shu yo'l bilan hayoti va o'z tabiatini o'zgartiradi.

Shaxsga ijtimoiy muhitning ta'siri ham muhim. Bu tarbiya tizimi orqali amalga oshiriladi. Ya'ni, birinchidan, tarbiya ta'sirida muhit bera olmagan bilim, ma'lumot egallanadi, mehnat va texnik faoliyat bilan bog'liq ko'nikma va malakalar hosil bo'ladi. Ikkinchidan, tarbiya tufayli tug'ma kamchiliklar ham o'zgartirilib, shaxs kamolga yetadi. Uchinchidan, tarbiya yordamida muhitning salbiy ta'sirini ham yo'qotish mumkin. To'rtinchidan, tarbiya kelajakka qaratilgan maqsadni belgilaydi. Demak, tarbiya bilan rivojlanish bir-biriga ta'sir etadi, bu tarbiya doimiy va uzluksizdir. Shunday qilib, bola shaxsining rivojlanishida tarbiya ham yetakchi o'ringa ega bo'lib, tarbiya tufayli nasl-nasabi, oila muhiti, ijtimoiy muhit ta'sirida har tomonlama rivojlanishga qodir, degan xulosani chiqarish mumkin. Shaxs rivojlanishida faoliyatning o'rni. Shaxs rivojlanishida irsiyat, muhit, tarbiya bilan bir qatorda inson faoliyati ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bu degani inson qanchalik mehnat qilsa, uning rivojlanishi shunchalik yuqori bo'ladi. Faoliyat o'zi nima? Faoliyat shaxs tomonidan tabiiy va ijtimoiy hayotni maqsadga muvofiq tashkil etiluvchi kundalik, ijtimoiy yoki kasbiy harakatlarning muayyan shakli, ko'rinishi. Insonning qobiliyati va yoshi u tomonidan tashkil etilayotgan faoliyat mohiyatiga ko'ra belgilanadi. Faoliyat jarayonida inson shaxsi, har tomonlama va bir butun, yaxlit holda rivojlanadi. Lekin faoliyatni maqsadga muvofiq amalga oshirishi uchun uni to'g'ri tashkil etish lozim. Lekin ko'p holatlarda shaxsning rivojlanishi uchun imkoniyatlar yaratilmaydi, tarbiyalanuvchilarning ijtimoiy mehnat, bilish faoliyatlari cheklangan bo'ladi. O'smir va o'spirinlar faoliyatining asosiy turlariga o'yin, o'qish va mehnat kiradi. Ular yo'nalishiga ko'ra bilishga doir, ijtimoiy, sport, badiiy, texnik, hunarmandchilik hamda shaxsiy qiziqishga ko'ra tanlangan sohalardan iborat. Faoliyatning asosiy turi – muloqotdir.

Faoliyat faol va passiv bo'lishi mumkin. O'smir faoliyati muhit va tarbiya ta'sirida faollashishi yoki susayishi mumkin. Inson shaxsining rivojlanishida uning butun vujudi bilan sevib, o'z imkoniyatlarini namoyon etib, mehnat qilish, o'zini shaxs sifatida ko'rsata olishi unda o'z faoliyatidan qoniqish hosil qiladi. Uning ijtimoiy mehnatdagi ishtirokida faollik ko'zga tashlanadi.

Ta'lim jarayonida faollik o'quvchiga bilimlarni chuqur va mustahkam egallashga, o'z qobiliyatini namoyon etishga yo'llaydi. Bilishga bo'lgan faollik o'quvchining intellektual rivojlanishini ta'minlaydi. Faollik ko'rsatishning asosini esa hamma vaqt ehtiyoj tashkil etadi. Ehtiyojlarning xilma-xilligi faoliyatining ham turlarini kengaytiradi. Shunga ko'ra, o'quvchining turli yosh davrlarida ularning faoliyati turlicha bo'ladi. Ta'lim muassasasida hamma vaqt bir xil talab shaxs rivojlanishida ijobiy natija beravermaydi. Turli yosh davrlarida faoliyatning turlari va mohiyati o'zgarib turishi kerak.

Payg'ambarimiz sollallohu alayhi va sallamning ta'lim berishlari metodik usullarning xilma-xilligi bilan ajralib turgan. Rasululloh sollallohu alayhi va sallam

ta'lim berishda qalbgga tez jo bo'ladigan, aql ko'tara oladigan farosat yetadigan eng chroyli va afzal usulni tanlar edilar. Biron narsani ta'lim bermoqchi yoki bayon qilmoqchi bo'lsalar, gapni go'zal muqaddima bilan boshlardilar. Sahobalarga hadis aytsalar, uni turli usullarda yetkazardilar: goh savol bilan, gohida javob bilan, goh savolning o'ziga javob berardilar, goh ziyoda ham qilardilar, goh misol keltirardilar, goh yozib, goh chizib ta'lim berardilar, ba'zan tashbeh keltirardilar, ba'zan o'z fikrlarini ochiq aytardilar, gohida esa unga ishora qilardilar, goh masalani yechimiga olib borish uchun savol berib sahobalarni imtihon qilsalar, gohida esa savolsiz ham ta'lim berardilar³.

Insonning ijtimoiy faolligi, qobiliyati barcha muvaffaqiyatlarining garovidir. Chunki har bir inson o'z mehnati, g'ayrati, intilishi bilangina faollashadi. O'qituvchi qanchalik yaxshi o'qitmasin yoki tarbiya bermasin, tarbiyalanuvchining o'zi harakat qilmasa, rivojlanish muvaffaqiyatli kechmaydi. Zero, barcha ma'naviy-axlohiy kamchiliklarning asosiy sababi ham insonning o'z faoliyatini to'g'ri yo'lga qo'yaganligidadir. Shuning uchun ham inson faoliyati uning rivojlanishi natijasi hamdir. Demak, shaxs faolligi asosida ijtimoiy faollik, tashabbuskorlik, ijodkorlik xislatlarini shakllantirish – uning shaxslik imkoniyatlarini namoyon etishi orqali faoliyatini rivojlantirish muhim sanaladi. Rivojlanishning yosh va o'ziga xos xususiyatlari. Muayyan bir yosh davriga xos bo'lgan anatomik, fiziologik (jismoniy) va psixologik xususiyatlar yosh xususiyatlari deb ataladi. Ana shu yosh xususiyatlarni hisobga olgan holda ta'lim va tarbiya ishi tashkil etiladi. Shunda bola rivojlanishiga tarbiya ta'siri kuchli bo'ladi. Bolalarning tarbiyasiga to'g'ri yondashish, uni muvaffaqiyatli o'qitish uchun bola rivojlanishidagi turli yoshdagi davrlariga xos xususiyatlarni bilish va uni hisobga olish muhimdir. Chunki bola orginizmining o'sishi ham, rivojlanishi ham, psixik taraqqiy etishi ham turli yosh davrlarida turlicha bo'ladi. Abu Ali Ibn Sino, Yan Amos Komenskiy, K.D.Ushinskiy, Abdulla Avloniyilar ham bolani tarbiyalash zarurligini uqtirib o'tganlar.

Bolaning o'ziga xos xususiyatini hisobga olish juda murakkab. Chunki bir xil yoshdagi bolalar ham psixik jihatdan turlicha bo'lishi mumkin. Masalan, ko'rish va eshitish qobiliyati, faolligi, tez anglash, sust fikr yuritishi, hovliqma yoki vazminligi, sergap yoki kamgapligi, serg'ayrat yoki g'ayratsizligi, yalqov yoki tirishqoqligi, pala-partish va chala ishlaydigan, yig'inchoqligi yoki ishga tez kirishib ketishi, qobiliyati kabilar nerv faoliyati tizimining ta'siri bo'lib, o'qituvchi yoki tarbiyachi ularni bilishi zarur.

³ Qudratulloh qizi G., Ishmuhamedov R., Normuhammedova M. "An'anaviy va noan'anaviy ta'lim". – Samarqand. "Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi", 2019. 13-bet.



Asosiy adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni. // Harakatlar strategiyasi asosida jadal taraqqiyot va yangilanish sari. – T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2017. – 92 b.
2. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1997 y., 9-son, 225-modda; 2013 y., 41-son, 543-modda.
3. O'zbekiston Respublikasining "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi to'g'risida"gi Qonuni // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1997 y., 11-12-son, 150-modda; 2013 y., 41-son, 543-modda.
Xodjayev B.X. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. Darslik – T.: SANO-STANDART, 2017.
4. Xodjayev B.X., Choriyev A., Saliyeva Z.T. Pedagogik tadqiqotlar metodologiyasi. Darslik. – T.: IQTISODIYOT DUNYOSI, 2018.
5. Mutalipova M.J., Xodjayev B.X. Qiyosiy pedagogika. Darslik. – T.: TDPU, 2015.
6. Yuzlikayeva E., Axmedova M., Qurbonova G., Sh.Tashmetova. Umumiy pedagogika. Darslik. – T.: TDPU, 2012.
7. Pedagogika. // M.Toxtaxodjaevaning umumiy tahriri ostida. Darslik. – T.: O'zbekiston Faylasuflari Milliy jamiyati, 2010.
8. Hoshimov K., Nishonova S., Inomova M., Hasanov R. Pedagogika tarixi. – T.: O'qituvchi, 1996.
9. Hashimov K., Nishonova S. Pedagogika tarixi. – T.: O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2005.
10. Pedagogika / Nopedagogik oliy ta'lim muassasalari uchun darslik. U.Inoyatov, N.Muslimov, D.Ro'zieva, M.Usmonboeva. – T.: TDPU, 2013.
11. Alex Moore. Teaching and Learning: Pedagogy, Curriculum and Culture. USA, 2012 Routledge.
12. Neil Selwyn. Education and Technology: Key Issues and Debates. Australia, 2011 Continuum.
13. Heather Fry, Steve Ketteridge, Stephanie Marshall. A Handbook for Teaching and Learning in Higher Education. USA, 2009 Routledge.



Qo'shimcha adabiyotlar:

1. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: O'zbekiston, 2017.
2. 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini "Xalq bilan muloqot va inson

manfaatlari yili” da amalga oshirishga oid Davlat dasturini o‘rganish bo‘yicha ilmiy-uslubiy risola. – Toshkent: Ma’naviyat, 2017. -26B.

3. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo‘shma majlisidagi nutq /Sh.M. Mirziyoev. - Toshkent: “O‘zbekiston”, 2016.-56 b.

4. Mirziyoev Sh.M. Qonun ustuvorligi va manfaatlarini ta‘minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. Toshkent. O‘zbekiston nashriyoti, 2017.

5. Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat‘iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. Toshkent. O‘zbekiston nashriyoti, 2017.

7. XasanboevJ, To‘rakulovX., XaydarovM., HasanboevaO. Pedagogika fanidan izohli lug‘at. – T.: Fan va texnologiya, 2008.

8. Niyozov G‘., Axmedova M. Pedagogika tarixidan seminar mashg‘ulotlari. – T.: NOSHIR, 2011.



4-mavzu. YAXLIT PEDAGOGIK JARAYON TUSHUNCHASI.

REJA:


1. Yaxlit pedagogik jarayon, o‘quv jarayoni, tizimli yondashuv tushunchalarining tahlili.
2. Pedagogik aksioma.
3. Oliy maktab o‘qituvchisiga qo‘yiluvchi talablar.

Tayanch tushunchalar: ta‘lim jarayoni, asosiy kategoriyalar, ta‘lim paradigmatlari, ta‘lim tamoyillari, ta‘lim qonuniyatlari, yaxlit pedagogik jarayon, tizim, ta‘lim jarayoni tizimlili, ta‘lim funksiyalari, hamkorlik pedagogikasi.

Pedagogik jarayonning yaxlitligi uning tizimlili bilan uzviy bog‘liq. Tizim (mustaqil tushuncha sifatida) o‘zaro bog‘langan ko‘plab elementlar (tarkibiy qismlar) o‘rtasidagi mustahkam birlik va o‘zaro yaxlitlikdir.

Ta‘lim yaxlit tizim sifatida o‘zaro bog‘liq quyidagi elementlarni o‘z ichiga oladi: ta‘lim maqsadi, o‘quv axborotlari, o‘qituvchi va talabalarning ta‘limiy faoliyatlari, o‘qitish shakllari, pedagogik muloqot vositalari, shuningdek, ta‘lim jarayonini boshqarish usullari.

Ta‘lim jarayonini boshqarish quyidagi bosqichlardan iborat:



Ta'lim jarayonida talabalar faoliyatini boshqarish ularni to'g'ri yo'naltirishni nazarda tutadi. Nazorat qilish esa talabalar faoliyatining maqsadga muvofiq, samarali tashkil etilishini ta'minlaydi. Natijalarni baholash va tahlil qilish ta'lim jarayonining qanday kechganligini bilish, yutuqlar omillarini o'rganish va yo'l qo'yilgan kamchiliklarni bartaraf etish choralarini belgilashda muhim ahamiyatga ega.

Ta'lim jarayoni negizini o'qituvchi va talabalarning o'quv faoliyatlari tashkil etadi.

Ta'lim funksiyalari. "Funksiya" tushunchasi "ta'lim vazifalari" tushunchasiga yaqindir. Ta'lim funksiyasi ta'lim jarayoni mohiyatini ifoda etadi, vazifasi esa ta'limning komponentlaridan biri hisoblanadi.

Didaktika (ta'lim jarayoni)ning quyidagi uchta funksiyasini ajratib ko'rsatadi: ta'lim berish, rivojlantirish va tarbiyalash.

Ta'lim jarayonining ta'lim berish funksiyasi
o'quvchilarda bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishdan iborat

Ta'lim natijasi sifatida bilimlarning to'laligi, chuqurligi, tizimliliigi, anglanganligi, mustahkamligi va amaliy xususiyat kasb etishi muhimdir. Bu kabi holatlar ta'lim jarayonining metodik jihatdan to'g'ri tashkil etilganligini ifodalaydi.

Ta'lim jarayonida talabalarda ular tomonidan o'zlashtirilgan nazariy bilimlar asosida hosil qilingan amaliy ko'nikma va malakalarning shakllanishi ham alohida ahamiyatga ega.

Umumiy ko'nikma va malakalarga og'zaki va yozma nutqni bilish, axborot materiallaridan foydalana olish, o'qish, manbalar bilan ishlash, referat yozish,

Ta'limning rivojlantiruvchi funksiyasi ta'lim jarayonida bilimlarni o'zlashtirish jarayonida o'quvchining rivojlanishi sodir bo'lishini ifodalaydi


Rivojlanish quyidagi yo'nalishlarda sodir bo'ladi: nutq, fikrlash, sensorli-harakatli va hissiy-irodaviy sohalarning rivojlanishi. To'g'ri tashkil etilgan ta'lim shaxsni har doim rivojlantiradi.

Ta'lim jarayoni tarbiyalovchi xususiyatga ham ega. Tarbiya va ta'lim o'rtasidagi bog'liqlik ob'ektiv va qonuniy hisoblanadi. Biroq, shaxsni ta'lim jarayonida tarbiyalash tashqi omillar (oila, mikromuhit va b.sh.)ning ta'siri tufayli qiyin kechadi.

Ta'limning tarbiyalash funksiyasi turli ijtimoiy tuzum va sharoitda ham yaqqol namoyon bo'lib, ta'lim mazmuni, shakli, metodlari mohiyati bilan belgilanib, o'qituvchi hamda o'quvchilar o'rtasida munosabatlarni tashkil etishda yetakchi o'rin tutadi

Ta'lim jarayonida shaxsning ma'naviy-axloqiy va estetik tasavvurlari, xulq-atvori va dunyoqarashi shakllantiriladi.

Ta'lim jarayoni yaxlit tizim sifatida quyidagicha namoyon bo'ladi:



Ta'lim jarayonida tarbiyaning ikkinchi omili pedagogik jarayonga o'qituvchining rahbarligi hisoblanadi.

O'qituvchi faoliyatining vazifasi va tuzilishi. O'qituvchi faoliyatining vazifasi talabalarning ijtimoiy borliqni ongli va faol idrok etishga yo'naltirilgan faoliyatlarini boshqarishdan iboratdir.

O'qituvchi faoliyatini rejalashtirish bosqichi kalendar-tematik yoki darslar rejalarini tuzish bilan yakunlanadi. O'qituvchi talabalarning tayyorgarlik darajasi, ularning o'quv imkoniyatlari, moddiy baza holati, shaxsiy (kasbiy) imkoniyatlarini o'rganib chiqishi, o'quv materialini mazmunini belgilashi, dars olib borish shakli va metodini o'ylab ko'rish kerak bo'ladi.

Talabalar faoliyatini tashkil etish talabalar oldiga o'quv masalalarini qo'yish, ularni bajarish uchun sharoit yaratishdan iborat bo'ladi.


Ta'lim jarayonida talabalarning faoliyati. Bilim olish faoliyatning o'ziga xos ko'rinishi bo'lib, muayyan qonuniyatlarga ega. Bilim olish borliqni idrok etish, o'rganish, mashq qilish va muayyan tajriba asosida xulq-atvor hamda faoliyat ko'nikma, malakalarining mustahkamlanib, mavjud bilimlarning takomillashib, boyib borish jarayoni

Bilim olishning muhim sharti motiv (ta'limiy xarakterdagi harakat, faoliyatni tashkil etishga rag'batni his etish, ehtiyojning yuzaga kelishi)dir.

Har qanday bilimni o'zlashtirishda talabalardan idrok etish madaniyatiga ega bo'lish va o'quv materialini anglab yetish talab etiladi.

Bilimlarni o'zlashtirish jarayonining tuzilishi. Talabalarning o'quv faoliyatlarini samarali boshqarish uchun bilimlarni o'zlashtirish jarayonining mohiyati hamda bilimlarning egallash bosqichlaridan yetarlicha xabardor bo'lish. Bilimlarning egallash quyidagi bosqichlarda kechadi:

Bilimlarni egallashda o'zlashtirilgan ilmiy ma'lumotlar bosqichma-bosqich boyib va mustahkamlanib boradi. Bu holat bilimlarni egallashning dinamik xarakterini ifodalaydi. Jarayonni sxema yordamida quyidagicha ifodalash mumkin:



Bilimlarni egallashning dinamik xarakteri

1-bosqich: idrok etish (aniq maqsadga yo'naltirilgan anglash jarayoni) bo'lib, u tanlash xususiyatiga ega. Shu bois talabalarga mavzuni, ya'ni, ularning nimani o'rganishlari (masalani qo'yish)ni tushuntirib berish orqali o'quv materiali bilan dastlabki tanishish amalga oshiriladi.

2-bosqich: o'quv materialini anglab yetish bo'lib, u ma'lumotlarning nazariy jihatlarini ajratib olish va tahlil qilishdan iborat. Bunda asosiy mazmuni topish, tushunchani ajratib olish, ularning belgilarini asoslab berish, tushuntirish materialning xususiyatini aniqlab olish, misollar va tushuntiruvchi dalillar to'plamini o'rganib chiqishi kerak.

3-bosqich: eslab qolish va mustahkamlash bo'lib, o'zlashtirilgan bilimlarni uzoq vaqt davomida saqlab qolishdan iborat. Unda idrok etish faoliyati ko'proq mashqlar, mustaqil va ijodiy masalalar xususiyatiga ega bo'ladi. Bosqich yakunida talabalar nazariy materiallarni biladilar va ulardan mashqlarni bajarish, masalani yechish, teoremani isbotlashda foydalanishni biladilar (amaliy ko'nikma, malakalar shakllanadi).

4-bosqich: bilimlarni amaliyotda qo'llashdan iborat. Bilimlarni qo'llash o'rganilayotgan materialning mazmuni xususiyatiga qarab faoliyat turli shakl (o'quv mashqlari, laboratoriya ishlari, tadqiqot topshiriqlari, maktab yer maydonidagi ishlar)larda amalga oshirilishi mumkin.

Pedagogik aksioma nima? Aksioma [yunoncha *axyut a* — asosiy qoida] o'z-o'zidan aniq-ravshanligi sababli isbot talab qilmaydigan, isbotsiz qabul qilinadigan holat, fikr degan ma'noni anglatadi. «Kollektiv — katta kuch» degan aksioma bor. Tabiiy hayotiy qarashlar majmui aksioma deyiladi. Aniqrog'i, aksioma tushunchasi bugungi tilimizda ma'lum ob'ekt to'g'risidagi fikrlar majmuasi ma'nosida bemalol ishlatilishi mumkin. Biz "pedagogik aksioma" iborasini qo'llaganda me'yoriy xujjat sifatida emas, balki ob'ektni har tomonlama o'rganish va rivojlantirish

uchun zarur bulgan shart-sharoitlar, ularni vujudga keltirish omillari haqidagi xulosalarning ilmiy asoslanishini tushunamiz.

Antik davrdagi maktablar Sparta, Afina va Rim tarbiya tizimining muhim tarkibiy qismi sifatida faoliyat olib borganlar. Qadimgi Yunonistonda bunday joylar akademiya deb nomlangan. «Akademiya» soʻzi afsonaviy qahramon Akadema nomidan kelib chiqqan. Eramizdan avvalgi V asrda Afina yaqinidagi akadema soʻzi bilan nomlanuvchi joyda Aflotun oʻz shogirdlariga maʼruzalar oʻqigan boʻlib, keyinchalik taʼlim-tarbiya berish uchun tashkil etiluvchi maskanlar ham shunday nom bilan atala boshlangan. Qadimgi Yunonistonda bolalarga taʼlim-tarbiya berish faylasuflar zimmasiga yuklatilgan edi.

Ular notiqlik sanʼatining yetuk namoyondalari boʻlib, oʻzlarining chiroyli soʻzlari, baland va taʼsirchan ovozlari bilan taʼlim oluvchilarning tafakkuriga, ongiga kirib borganlar, taʼlim va tarbiyada ulkan yutuqlarga erishganlar. Shu sababli, notiqlik sanʼati va nutq madaniyatining nazariyasiga, uning cheksiz tarbiyaviy ahamiyatiga ilk marotaba qadimgi Yunonistonda asos solinganligi ilmiy adabiyotlarda bayon etiladi. Yunonistonda epos, lirika, drama, haykaltaroshlik, musiqa va meʼmorchilik sanʼati bilan birga notiqlik sanʼati ham murakkab va muhim sanʼat asari sifatida tan olingan. Notiqlik sanʼatini davlatning muhim ijtimoiy-siyosiy ishlariga taalluqli faoliyatdagi ahamiyati uchun hamda yosh avlodni tarbiyalashda ular ongi va tafakkuriga qizgʻin taʼsir etuvchi murakkab vosita sifatida rivojlantirganlar.

Eramizdan avvalgi V asr Yunonistonda yoshlarga taʼlim-tarbiya berish va ularni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning eng takomillashgan davri boʻlgan. Shu sababli “Notiqlik sanʼati” ham qizgʻin rivojlangan davr hisoblanadi. Bu davrda notiqlikning uchta qonuniyati umumiy shior sifatida eʼtirof etilgan:

- talabalarga tushuntirish (maʼlum bir mavzuni);
- talabalar ongini uygʻotish (inson tafakkurini, ongini, maqsadini);
- har bir talabaga huzur-halovat va qoniqlik uygʻotish.

Yunonistonda notiq ushbu qonuniyatlarga amal qilgan holda talabalarga, yaʼni “talabalarga halovat bagʻishlash” orqali ularni ezgulikka, adolatparvarlikka, vatan oldidagi burchga sadoqatli boʻlishga, yaxshi amallarni bajarishga, axloq va odob qoidalariga rioya qilishga chorlar edi. Bu uning jamiyat oldidagi asosiy vazifasi hisoblanardi. Notiqlik sanʼatini chuqur egallagan, oʻzlarining goʻzal va chiroyli nutqlari bilan jamiyatda hurmat va eʼtibor qozongan Dinarx, Giperid, Gorgiy, Sokrat, Isey, Esxil, Demosfen kabi namoyondalar mashhur davlat arboblari boʻlib etishganlar.

Yunon faylasuflari oʻqituvchilarning taʼlim va tarbiya berishda ogʻzaki nutqning shakl va qonuniyatlarini, mulohaza va isbot kabi mantiq ilmi qoidalarini chuqur oʻzlashtirishlari lozimligini qatʼiy talab qilganlar. Shuning uchun pedagog oʻqituvchilar oʻz fikrlari va tuygʻularini talabalar hamda talabalar tafakkuri va ongiga chuqur singdira olganlar va keskin taʼsir oʻtkazganlar. Har bir pedagog

o'zlarining notiqlik san'ati ustida tinimsiz mashg'ulotlar olib borganlar, sehrli ovoz sohibi bo'lish uchun nutq texnikasining barcha qonuniyatlariga amal qilganlar. Ular o'z nutqlarini mafkuraviy va siyosiy kurash hamda yosh avlodni tarbiyalash quroli deb hisoblaganlar.

Mashhur faylasuf olim Suqrot (eramizdan avvalgi 469—399) talabalar bilan savol-javob usuli orqali ta'lim-tarbiya berishning suhbat metodiga asos solgan. Suqrotning shogirdi Aflotun o'z ustozini g'oyalarini davom ettirib, talabalar bilan savol-javob usulini notiqlik san'atining bir shakli sifatidagi ahamiyati cheksiz ekanligini bayon etadi hamda uni inson tafakkuri va ongini, dunyoqarashini og'zaki nutq bilan boyituvchi noyob uslub sifatida baholaydi.

Yunonistonda yoshlarga ta'lim-tarbiya berishda notiqlik san'atining ahamiyatini yoritib berish hamda uning rivojlanishi faylasuf olim Demosfen (eramizdan avvalgi 384-322) nomi bilan uzviy bog'langan. U yoshlik yillaridanoq notiqlik san'atiga qiziqdi. Tug'ma duduq bo'lishiga qaramasdan, talaba va talabalarning istehzolariga bardosh berib, qizg'in va shiddatli mehnati bilan notiqlik mahoratini namoyish eta olgan. Barcha dunyoviy bilimlarni faqat notiqlik san'atining olijanob qudrati asosida talabalar tafakkuriga yetkazish mumkin deb ta'kidlagan edi faylasuf. Faqat Demosfen Yunonistonda notiqlik san'atining yetuk namoyondasi, ya'ni elitasi sifatida mashhur bo'ldi. U davlat tribunasi siyosiy va mafkuraviy kurash maydoniga aylantirdi.

O'qituvchining kasbiy mahoratini takomillashtirish to'g'risidagi muammolar Yevropa olimlari Ya.A.Komenskiy, Djon Lokk, G.Pestalossi, A.Disterveg, K.D.Ushinskiy kabilarning asarlarida o'z ifodasini topgan. Jumladan, chex olimi, mashhur pedagog Ya.A.Komenskiy o'qituvchining eng muhim xususiyatlari qatoriga bolalarni sevishi, yuksak axloqi, bilimdonligi, iqtidori, qobiliyati kabilarni kiritadi va ularning mohiyatini mukammal tavsiflab beradi.

Yan Amos Komenskiy o'z davrida o'qituvchilarning bola dunyoqarashini rivojlantirishdagi rolga yuqori baho berib, o'qituvchilik «yer yuzidagi har qanday kasbdan ko'ra yuqoriroq turadigan juda fahrli kasb» ekanligini ta'kidlaydi. Muallifning fikricha, o'qituvchi o'z burchlarini chuqur anglay olishi hamda o'z qadr-qimmatini to'la baholay bilishi zarur. Ya.A.Komenskiy o'qituvchi obrazini tasvirlar ekan, uning shaxsida quyidagi fazilatlar namoyon bo'lishi maqsadga muvofiqligini ta'kidlaydi: vijdonli, ishchan, sabotli, axloqli, o'z ishini sevuvchi, talabalarga mehr bilan muomala qiluvchi, ularda bilimga havas uyg'otuvchi, talabalarni o'z ortidan ergashtiruvchi va diniy e'tiqodni shakllantiruvchi.

I.G.Pestalossi o'qituvchining kasbiy sifatlariga baho berish bilan birga, asosan uning xalq ta'limi tarmog'ini takomillashtirishdagi roli hamda fan asoslarini egallashdagi ahamiyati va vazifalariga to'xtalib o'tadi.

A.Disterveg o'qituvchining ta'limdagi rolga yuqori baho berib, u o'z faoliyatini chuqur bilib, pedagogik mahoratini oshirib borishi talabalarni qalbdan yoqtirishi natijasida yuzaga keladi deb uqtiradi. O'qituvchi bolalarning individual

xususiyatlarini, qobiliyatini, faoliyatini mukammal bilishi uchun muayyan darajada psixologik bilimlarga ham ega bo'lishi kerakligini takidlab o'tgan.

Pedagog olim Djon Lokk o'qituvchi psixologiyasining eng muhim jihatlarini ishlab chiqqan. Ular orasiga mo'tadillik, g'ayrat-shijoatlilik, ehtiyotkorlik kabi hislatlarni kiritib, o'qituvchining pedagogik faoliyatidagi rolini asarlarida yoritib bergan.

A.I.Gersen, L.N.Tolstoy, I.G.Chernishevskiy, K.D.Ushinskiy kabi rus pedagog olimlari g'arb mutafakkirlari g'oyalarining vorislari sifatida mazkur muammolarga o'z mulohazalarini bildirganlar. Jumladan, A.I.Gersen mulohazalariga ko'ra, o'qituvchining asosiy hislati – bu uning bolalar bilan munosabatda bo'layotganligini sezishda, bolalar ruhiy dunyosini tushuna olishida, axloqiy qobiliyatining mavjudligida, chunki u shunday iste'dodga ega bo'lmog'i zarurki, unga har qaysi o'qituvchi erisha olmaydi.

Taniqli rus pedagogi K.D.Ushinskiy ta'lim-tarbiya jarayonida o'qituvchining roli va shaxsiga yuqori baho berib, o'qituvchi kasbiga oid ilmiy mulohazalarida hech bir Qonun yoki Programma, ta'lim-tarbiya to'g'risidagi metod yoki tamoyillar o'qituvchi shaxsining pedagogik faoliyatdagi mahorati o'rnini bosa olmaydi deb hisoblaydi.

K.D.Ushinskiy o'qituvchi ma'naviyati va kasbiy faoliyatiga yuqori baho beradi hamda ularning kasbiy malakalarini doimiy ravishda takomillashtirib borish maqsadga muvofiq ekanligi to'g'risidagi g'oyani ilgari suradi. Mazkur g'oyaning ijtimoiy ahamiyatini tasdiqlovchi tizim – o'qituvchilarni qayta tayyorlovchi kurslar tizimini tashkil etishni u ilk bor asoslab bergan.

K.D.Ushinskiy o'qituvchining mashaqqatli mehnatini ta'riflab shunday deydi: “Hali yetilmagan va fikri xayoli tarqoq bo'lgan o'ttiz yoki qirqta o'quvchining ongini butun dars davomida mashg'ul qilib turish uchun o'qituvchi o'z so'zlari va bergan masalalari to'g'risida ko'p bosh qotirishi, serdiqqat bo'lishi kerak. Mana shu sababdan bilimi bo'lgan har bir kishi o'qituvchi bo'lishga layoqatli bo'lavermaydi. Jamiyat tomonidan hamma vaqt ham yetarlicha ta'rif qilinmaydigan bu vazifani insof bilan ado qilmoq uchun zo'r matonat va mahorat talab qilinadi”.

K.D.Ushinskiyning ta'kidlashicha, o'qituvchi qalbining bolalarga nisbatan mehrini bildiruvchi axloqiy hislatlaridan biri, muallimning tarbiyaviy kuchini va qobiliyatini ko'rsatadigan ma'naviy oynasi ijtimoiy qimmatga ega bo'lib, barkamol shaxsni tarbiyalab voyaga yetkazishda namoyon bo'ladi. Pedagogik faoliyatning yana bir muhim tarkibiy qismi o'qituvchining xarakteri va his-tuyg'ularida, uning talabalar bilan muloqotga kirishish usulida namoyon bo'luvchi pedagogik-psixologik takt (odob, axloq) xususiyatlarini qo'llashdir. Uning fikricha, psixologik takt (odob, axloq) hayotimizning barcha jabhalarida g'oyatda keng qo'llaniladigan faoliyat turi, shuning

uchun ushbu taktlarga ega bo'lmagan, odamlar orasida hech qanday muloqot va nutq qobiliyatining o'zi ham bo'lishi mumkin emas, deb ta'kidlaydi.

«Aqlli, fikran boy, bag'ri keng insonchalik hech narsa yoshlarni qiziqitirmaydi, o'zining ortidan ergashtira olmaydi ham..., aql – aql bilan tarbiyalanadi, vijdon – vijdon bilan, vatanga sadoqatlilik – bevosita vatan uchun xizmat qilish bilan..., – deb ta'kidlagan edi mashhur rus pedagogi V.A.Suxomlinskiy, - o'qituvchi o'zining butun borlig'i, kundalik hayoti, ma'naviy madaniyati bilan hamkasblari va talabalarga o'rnatilgan bo'ladi va ularni o'z ortidan ergashtiradi».

O'qituvchida pedagogik mahoratni shakllantirishning ilmiy – nazariy asoslari pedagog olim V.A.Slastyonin tomonidan ham tadqiq qilingan. U kasbiy – pedagogik tayyorgarlik, o'qituvchining shaxsi va kasbiy shakllanish yo'nalishi va bunda pedagogik mahorat to'g'risida so'z yuritib, shunday yozadi: “O'qituvchi muntazam ravishda pedagogik nazariyalarga tayansagina, o'qituvchilik mahoratini egallaydi. Chunki, pedagogik amaliyot doimiy ravishda pedagogik nazariyaga murojaat qilishni taqozo etadi. Birinchidan, ilmiy nazariyalar – taraqqiyotning umumiy qonuniyatlari, tamoyillari, qoidalarini aks ettiruvchi ilmiy bilimlardir, amaliyot bo'lsa, doimo aniq vaziyatga asoslanadi. Ikkinchidan, pedagogik faoliyat – falsafa, pedagogika, psixologiyaga oid bilimlar sinteziga asoslanuvchi yaxlit jarayondir. Bu bilimlar sintezsiz pedagogik amaliyotni maqsadli qurish juda mushkul”. Demak, o'qituvchidan nafaqat pedagogik mahoratni mukammal egallash talab etiladi, balki, pedagogik amaliyotni to'g'ri va maqsadli tashkil qilish uchun chuqur ilmiy-nazariy ma'lumotlarga ham ega bo'lish lozim.

Maxsus fanlarni o'qitishga tizimli yondashuv boskichma-boskich amalga oshiriladi. Bunda har bir qadam o'quv elementi sifatida qaraladi. O'quv elementi o'z ichiga quyidagilarni qamrab oladi: faoliyatning aniq elementlarini o'rgatish bilan bog'liq bo'lgan nazariy va amaliy axborotlar, ta'lim uchun zarur bulgan faoliyatni ta'minlovchi materiallar haqidagi ma'lumotlar, maqsadlar identifikatsiyasi, ya'ni ta'lim oluvchilarni harakatlantiruvchi maqsadlar, o'quv materiallari va o'quv sharoitini nazorat qilish uskunalari, chunonchi, talabalarning ko'zlagan natijalarga erishishlari uchun zarur bo'lgan shart-sharoitlar, testlar va boshqalar.

Bularning bari o'qitish jarayonining loyihasi (ta'lim texnologiyasi)da o'z aksini topishi lozim.

Ta'lim texnologiyasi umumiy maqsadi bir necha darajalarda oydinlashadi:

Birinchi - ta'lim muassasasining maqsadi hamda pedagog xodimning faoliyat identifikatsiyasi, ikkinchisi – o'quv fanining maqsadi, pedagog va uning metodik faoliyati identifikatsiyasi, uchinchisi – ushbu model (o'quv elementi)ning maqsadi va uning o'quvchilar faoliyatidagi identifikatsiyasi. Shunday kilib,

ta'limning umumiy maqsadi alohida model ham, uning tashxis qilinadigan oxirgi natijalariga ham o'tkaziladi.

Tizimli yondashuvning aniq an'anaviy metodlaridan ta'lim texnologiyasiga o'tish keng ko'lamdagi ishlarni amalga oshirishni taqozo qiladi. Shu jumladan, metodik majmualar yaratish, ta'lim jarayonini didaktik, metodik va tashkiliy jihatdan ta'minlash nazarda tutiladi. Shularni hisobga olib, modellashtirilgan pedagogik texnologiya ishlab chiqiladi. Modellashtirilgan pedagogik texnologiyani ishlab chiqish tartibi quyidagi ketma-ketlikdagi bosqichlarni o'z ichiga oladi: analitik, konseptual (fikir, tushuncha) maqsadli, mazmunli va jarayonli.

Pedagogik texnologiyani ishlab chiqishning analitik bosqichlariga, kadrlar tayyorlash milliy dasturi va kadrlar tayyorlashning milliy modeli, o'quv fanlari bo'yicha DTS'lari, ulardan kelib chiqadigan xulosalar va yosh avlodning garmonik tarzda rivojlanishiga yo'naltirilgan ta'lim mazmunini tanlash holatlari, tegishli mashg'ulotning umumiy, aniq maqsadiga erishishi uchun ta'limning tashkiliy shaklini tanlash hisobga olinadi.

Pedagogik texnologiyani ishlab chiqishning konseptual bosqichida ta'lim konsepsiyalari, ta'lim tizimi bosqichlarida nazarda tutilgan asosiy g'oyalar, ifodalangan xulosalar hisobga olinadi. Modelning tarkibiy tuzilishi umumiy o'rta ta'lim, akademik litsey, kasb-hunar kolleji, bakalavriyat, magistratura, umuman tarkib sifatida ifodalanadi. Bu ayniksa, bosqichli ta'lim tizimining alohida elementlari uchun xarakterlidir.

Pedagogik texnologiyani ishlab chiqishning maqsadli bosqichida ta'lim muassasalari (o'rta maktab, akademik litsey, kasb-hunar kolleji, institut yoki universitet)ning uzoq muddatga mo'ljallangan maqsadi, ta'lim sohalari va shu blokda alohida o'quv fanlarning istiqboldagi maqsadi, shuningdek, alohida olingan o'quv predmeti tarkibidagi aniq bir blokning ifodalanishi maqsadi hisobga olinadi.

Pedagogik texnologiyani ishlab chiqishning mazmunli bosqichida ta'lim sohalari, shuningdek, shu blok tizimidagi o'quv fanlari mazmunini tanlash tamoyillari va mezonlari aniqlanadi. Bloklar xamda ular tarkibidagi alohida elementlarning, ya'ni aniq fanlarning mazmuni alohida olingan maqsad bilan bog'liq tarzda identifikatsiyasi o'quv fanlari mazmunini tashkil etadigan yirik mavzularda aks etishi kerak. Pedagogik texnologiyani ishlab chiqishning jarayonli bosqichida ukituvchining vazifalari, shuningdek, o'quvchilarning o'quv faoliyatini boshqarishlariga yunaltirilgan ta'lim turi namoyon buladi. Bu jarayonning pedagogik texnologiyasida o'qituvchi va o'quvchilarning o'zaro munosabatlarida demokratik usullar, tashkiliy shakllar va ta'lim vositalarini tanlashga alohida o'rin beriladi.

Shunday kilib, maxsus fanlarni o'qitishga tizimli yondashuv loyihalashtirilgan ta'lim-tarbiya jarayonining o'zida metodlar tizimini, ta'limning metodik usullarini o'qituvchi va o'quvchilarning birgalikda faoliyat ko'rsatish

imkoniyatlari va vositalarini, o'quvchilarning ijobiy shaxsiy sifatlarini rivojlantirish maqsadini, yakuniy natijalarga erishish instrumentariysini mujassamlashtiradi.

Zamonaviy sharoitda pedagogning roli shaxsning o'z kasbiga doir qadriyatlarni yuzaga chiqarishda va pedagogik madaniyatni egallash jarayoni sifatida mazkur qadriyatlarning interiorizatsiyasida to'liq namoyon bo'ladi.

V.A.Slastyoninning fikriga ko'ra, "Pedagogik faoliyatga doir qadriyatlarning interiorizatsiyasi o'qituvchilarning kasbiy madaniyati uchun tamal toshini qo'yadi"⁴.

O'qituvchining ongida mustahkamlangan pedagogik qadriyatlar uning shaxslararo muloqotida, ijodiy faoliyatida, bola shaxsining rivojlanishida, kasbiy hamkorlikda, ma'naviy qadriyatlar almashinuvidagi kasbiy yo'nalishlari tizimini hosil qiladi.

Olimlar tomonidan pedagogik qadriyatlarning ikki jihati alohida tadqiq etilgan:

- o'qituvchiga uning moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondirishiga imkon beruvchi va ijtimoiy ahamiyatli insonparvar maqsadlarga erishishga qaratilgan uning ijtimoiy va kasbiy faolligida yo'l ko'rsatuvchi belgi bo'lib xizmat qiladigan o'ziga xos jihatlari⁵;

- pedagogik faoliyatni tartibga soluvchi me'yorlar va ta'lim hamda pedagogik faoliyat sohasidagi vujudga keladigan ijtimoiy dunyoqarash orasida vosita va bog'lovchi bo'g'in bo'lib keluvchi bilish-faoliyat tizimi⁶.

Pedagogik faoliyatning aksiologik xarakteri uning insonparvarlik mazmunida aks etadi. O'z navbatida, pedagogik qadriyatlar – bu pedagogik faoliyatning shunday o'ziga xosligiki, ular nafaqat pedagogik ehtiyojlarni qondirishga imkon beradi, balki uning ijtimoiy va kasbiy faolligini mo'ljalga olishga xizmat qiladi. Pedagogik qadriyatlar hayotda o'z-o'zidan tasdig'ini topmaydi. Ular jamiyatdagi ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy aloqalarga bog'liq. Ana shu jihadni hisobga olib, Z.I.Ravkin pedagogik qadriyatlarni quyidagicha tasnif etadi:

1) ijtimoiy-siyosiy qadriyatlar: ta'limning hamma uchun ochiqligi va bepulligi, millatidan qat'i nazar, barcha fuqarolarning bilim olishdagi teng huquqliligi, talabalarni va ota-onalarning ta'lim muassasasini tanlash erkinligi;

2) intellektual qadriyatlar: bilishga ehtiyoj, bilishga qiziqish va faollik, talabalarning ijodiy faoliyati, fikrning go'zalligi va so'z bilish faoliyati vositasi sifatida;

⁴ Слостёнин В.А., Чикагова Г.И. Введение п педагогическую аксиологию. – М.: Академия, 2003. – С.93.

⁵ Скворцов В.Н. Социально-экономические проблемы теории непрерывного образования. – СПб.: Петрополис, 2004. – Б.92.

⁶ Слостёнин В.А., Исаев И.Ф., Мищенко А.И., Шиянов Й.Н. Педагогика. – М.: Школьная пресса, 2005. – С.116.

3) axloqiy qadriyatlar: talabaning burch va shaxsiy majburiyatlari, uning pedagogik jarayonning sub'ekti bo'lish huquqi, bilimlarni egallashdagi axloqiy rag'batlar va motivlar, vatanparvarlik va fuqarolik, mehnat va boshqa kishilarning mehnatini hurmat qilish;

4) kasbiy-pedagogik faoliyatga doir qadriyatlar: o'qituvchi-tarbiyachini mehnat qilishga chorlash, tanlagan kasbga mas'uliyat bilan yondashuv, pedagogning mahorati, uning izlanishli-tadqiqotchilik, innovatsion faoliyati, kommunikativ qobiliyati, talabalar bilan muloqotdagi ijobiylik, pedagogik mahorat⁷.

V.A.Slastenin esa, kasbiy yo'nalganlik tizimiga asoslangan holda, Ta'lim jarayoni yaxlit tizim sifatida ni quyidagicha tasnif etadi:

1) maqsadli qadriyatlar: shaxsiy Men va kasbiy Men yig'indisidagi bo'lg'usi o'qituvchining shaxsiy konsepsiyasi;

2) vositali qadriyatlar: pedagogik muloqot, texnika va texnologiya, monitoring, innovatika, intuitsiya tizimi;

3) munosabatli qadriyatlar: pedagogik jarayon ishtirokchilarining munosabati, kasbiy-pedagogik faoliyatga munosabat;

4) sifat qadriyatlari: shaxsning xulq-atvor, faoliyatga doir xilma-xil sifatleri.

5) bilishga oid qadriyatlar⁸.

N.M.Egamberdieva pedagogik madaniyatning shakllanishida ijtimoiy-pedagogik va shaxsiy-pedagogik qadriyatlar muhim o'rin tutishini alohida ta'kidlab o'tadi. Olimaning fikricha, ijtimoiy-pedagogik qadriyatlar turli ijtimoiy tizimlarda ish olib boruvchi va ijtimoiy ongda namoyon bo'luvchi qadriyatlarning tavsifi va mazmunini aks ettiradi. Bu ta'lim sohasidagi jamiyat faoliyatini tartibga soluvchi g'oyalar, tushunchalar, me'yorlar, qoidalar, an'analar majmuidir.

Shaxsiy-pedagogik qadriyatlar esa, ijtimoiy-psixologik ta'lim sifatida yuzaga chiqib, ularda o'qituvchi shaxsining maqsadlari, motivlari, ideallari va boshqa dunyoqarashga oid xususiyatlari aks etadi. Bu xususiyatlar majmui uning qadriyatlar yo'nalishi tizimini tashkil etadi. Qadriyatlar yo'nalishi sifatidagi aksiologik "Men" nafaqat kognitiv(bilishga doir) tarkibiy qismlarni, balki insonning ichki yo'nalganligida muhim o'rin tutuvchi hissiy-irodaviy tarkibiy qismlarni ham o'z ichiga oladi. Unda ham ijtimoiy-pedagogik, ham pedagogik qadriyatlarning individual-shaxsiy tizimiga asos bo'lib xizmat qiluvchi kasbiy-jamoaviy qadriyatlar o'rin olgan.

Pedagogik qadriyatlarning individual-shaxsiy tizimi quyidagilarni o'z ichiga oladi:

⁷ Kaldibekova A., Xodjayev B. Pedagogik aksiologiya. – T.: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2009. – B.49-50.

⁸ O'sha manba.

- shaxsning ham jamiyatda, ham kasbiy muhitdagi o'zini namoyon etishi bilan bog'liq qadriyatlar (pedagog mehnatining ijtimoiy ahamiyatligi, pedagog faoliyatining nufuzi, kasbning yaqin shaxsiy doiradagilar tomonidan tan olinishi va b.);

- muloqotga bo'lgan ehtiyojlarni qondiruvchi va uning doirasini kengaytiruvchi qadriyatlar (bolalar, hamkasblar, mansabdor shaxslar bilan muloqot, bolalarga bo'lgan mehr va g'amxo'rlik, ma'naviy qadriyatlar almashinuvi va b.);

- shaxsning ijodiy individualligini rivojlantirishga qaratilgan qadriyatlar (kasbiy-ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish imkoniyatlari, jahon madaniyatiga qo'shilish, sevimli mashg'ulot bilan shug'ullanish, doimiy kamolotga intilib borish va b.);

- o'zini ishga safarbar etishga imkon beruvchi qadriyatlar (pedagog mehnatining ijodiy xarakteri, pedagoglik kasbining hissiyotga boyligi va maroqliligi, ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalarga yordam bera olish imkoniyati va b.);

- pragmatik (amaliy) ehtiyojlarni qondirishga imkoniyat beruvchi qadriyatlar (davlat tomonidan kafolatlangan ish, ish haqi, ta'til, xizmat pog'onasining oshib borishi va boshqalarga erishish)⁹.

Yuqorida keltirilgan pedagogik qadriyatlar ijtimoiy va kasbiy tarkibiy qismlarni o'z ichiga oladigan, predmetli mazmuniga ko'ra farq qiluvchi shaxsiy va vositali ko'rinishlarga ajraladi. Shaxsiy qadriyatlar – bu pedagog mehnatining ijodiy xarakterini, nufuzlilik, ijtimoiy ahamiyatlilik, davlat oldidagi mas'uliyat, o'z-o'zini namoyon qilish imkoniyati, bolalarga mehr va g'amxo'rlikni o'z ichiga oluvchi maqsadli qadriyatlardir. Bu turga xos qadriyatlar o'qituvchi, ta'lim oluvchilarning rivojlanishi uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Maqsadli qadriyatlar boshqa pedagogik qadriyatlar tizimida hal qiluvchi aksiologik funksiyalar sifatida namoyon bo'ladi, chunki uning maqsadida o'qituvchi faoliyatining asosiy mazmun-mohiyati aks ettirilgan.

Pedagog pedagogik faoliyat maqsadlarini amalga oshirish yo'llarini qidirar ekan, o'zini va o'zgalarni rivojlantirish yo'lidagi o'z kasbiy strategiyasini tanlab oladi. Binobarin, maqsadli qadriyatlar davlatning ta'lim siyosatini va pedagogika ilmining rivojlanish darajasini aks ettiradi. Bu qadriyatlar sub'ektlashgan holda pedagogik faoliyatning ahamiyatli omillariga aylanadi va vositali qadriyatlarga ta'sir ko'rsatadi. Ular nazariya, metodologiya, pedagogik texnologiyalarni egallash natijasida shakllanib, pedagogning kasbiy ta'limi asosini tashkil etadi.

Shaxs uchun zaruriy qadriyatlar quyidagi maqsadli qadriyatlarni o'zida aks ettiradi: o'qituvchi mehnatining ijodiy va serqirralilik tavsifi, uning nufuzi va ahamiyatligi, jamiyat olidagi yuksak ma'suliyat, o'zini namoyon qilish, bolalarga

⁹ Egamberdiyeva N.M. Shaxsiy-insonparvarlik yondashuv asosida talabalarni shaxsiy va kasbiy ijtimoiylashtirish: Pedagogika fanlari doktori. ... diss. – T., 2010. – B. 132-133.

mehr va boshqalar. Bunday qadriyatlar ta'lim oluvchi va ta'lim beruvchi shaxsining, ta'lim oluvchilar jamoasi va pedagogik jamoaning rivojlanishi bilan bog'liq pedagogik faoliyatda o'z ifodasini topadi.

Vositali qadriyatlar maqsadli qadriyatlarga erishishda vosita bo'lib xizmat qiladi (mehnat natijalarining jamiyatda tan olinishi, shaxsning qiziqishlari va qobiliyatlarini pedagogik faoliyat tavsifiga muvofiqligi, kasbiy o'sish va b.).

Shuningdek, pedagogik faoliyatga doir qadriyatlar pedagog nuqtai nazarini ham belgilab beradi.

Pedagogning nuqtai nazari – bu uning faolligining manbai hisoblangan olamga, pedagogik voqelik, pedagogik faoliyat va xususiy holatlarga irodaviy va hissiy-baholovchi munosabati. Bu bir tomondan, jamiyatning unga qo'yadigan va taqdim qiladigan talablari, umidlari, imkoniyatlari bilan aniqlanadi. Boshqa tomondan esa, uning doirasida ichki, shaxsiy faollik manbalar – mayllar, kechinmalar, faoliyat motiv va maqsadlari, qadriyatlar tizimi, dunyoqarash, ideallar amal qiladi.

Pedagogning nuqtai nazarida uning shaxsi, ijtimoiy yo'nalishi tavsifi, fuqarolik xulq-atvori va faoliyati namoyon bo'ladi.

Pedagogning ijtimoiy nuqtai nazari umumta'lim maktabi chog'laridayoq, qarashlar, qadriyatlar tizimi tarzida shakllanib, rivojlanib boradi. Ularning asosida kasbiy tayyorgarlik jarayonida pedagoglik kasbiga, pedagogik faoliyatning maqsad va vositalariga nisbatan qadriyatli munosabat tarkib topadi. Pedagogik faoliyatga nisbatan qadriyatli munosabat, keng ma'noda o'qituvchi shaxsining negizini tashkil etuvchi yo'nalganlikni ifodalaydi.

Pedagogning ijtimoiy nuqtai nazari ko'p jihatdan uning kasbiy qarashini ham belgilab beradi. Biroq, bu yerda hech qanday to'g'ridan-to'g'ri bog'liqlik yo'q, chunki tarbiya doim shaxsga ko'rsatiladigan o'zaro ta'sirlardan hosil bo'ladi. Pedagogning kasbiy nuqtai nazarini tanlanishida ko'plab omillar ta'sir ko'rsatadi. Ammo ular orasida hal qiluvchi rolni kasbga doir me'yorlar, shaxsning individual-tipologik xususiyatlari, temperament va xarakteri egallaydi.

Oliy maktab o'qituvchisining samarali faoliyati uning chuqur va rang-barang kasbiy bilimlari, dars berish metodikasini egallanganligi, o'z mehnatining psixologik asoslarini hisobga olishi bilan bog'langan.

Bu vazifalarning hal qilinishida pedagog shaxsiga muhim ahamiyat beriladi.

Oliy maktab o'qituvchisi shaxsiga jiddiy talablar qo'yiladi. Ular pedagoglar va psixologlar tomonidan chuqur o'rganilgan. O'qituvchi shaxsiga qo'yiladigan eng muhim talab uning yuqori malakali bo'lishidir, balki uningsiz pedagogik faoliyat yuritib bo'lmaydi. Oliy maktab o'qituvchisi ham shunday talablarga javob berishi kerakki, bunday talablar uni yuksak darajada bo'lg'usi mutaxassisni shakllantiradigan shaxs darajasiga ko'tarsin.

Oliy maktab o'qituvchisiga quyidagi muhim va doimiy talablar qo'yiladi:

- *jamiyat rivojlanishining siyosiy, sotsial va iqtisodiy yo'nalishlarini to'g'ri baholay olishi;*

- *muayyan taraqqiyot davrida jamiyat uchun zarur bo'lgan bo'lg'usi mutaxassisni shakllantirish standartlarini egallagan bo'lishi;*

- *pedagogik faoliyatni sevishi;*
- *o'z sohasi bo'yicha maxsus bilimlarga ega bo'lishi;*
- *zakovatli bo'lishi;*
- *pedagogik tuyg'u;*
- *yuksak yetuklik;*
- *umumiy madaniyat va axloqning yuksak darajasi;*
- *pedagogik texnologiyalarni mahorat bilan egallagan bo'lishi.*

Pedagog shaxsiga qo'yiladigan qo'shimcha talablar: *kirishib keta olish, san'atkorlik, quvnoqlik, yaxshi did va boshqalar.*

Yuqorida sanab o'tilganlar pedagog shaxsiga xos bo'lgan tug'ma xislatlar emas, balki ular pedagogning o'z ustida muntazam va betinim mehnati, ulkan xizmatlari natijasida yuzaga keltiriladi.

Kompetentlik tushunchasi deganda ma'lum bir sohada talaba (masalan, bo'lajak o'qituvchi) tomonidan egallangan kompetensiya, ya'ni ma'lum bir sifatning to'liq shakllangan majmui tushuniladi¹⁰. Kompetentlik tushunchasi (lotinchadan *competentia*, *competere* so'zidan olingan bo'lib – "birgalikda erishaman, qozonaman, mos kelaman, to'g'ri kelaman" degan ma'noni beladi) lug'atlarda esa "nimadir to'g'risida fikr yuritishga yo'l beradigan bilimlarga ega bo'lish", "xabardor bo'lmoq, huquqli bo'lmoq" degan ma'noni bildiradi. Amalda barcha lug'at tuzuvchilar "kompetentlik" va "kompetensiya" kategoriyalarini chegaralab qo'yadi. Kompetentlik ta'rifi o'xshash va bir-birini o'rnini egallaydi (to'ldiradi), shu bilan bir vaqtda kompetensiya so'zi uchun yagona izohlash yo'q, bu tushuncha "vakolatlar yig'indisi (huquq va majburiyatlar) qandaydir organ yoki lavozimli shaxsning qonun, nizomlar bilan belgilab qo'yilgan ushbu organ yoki boshqa holatlar", "nimanidir to'g'risida fikr yuritishga yo'l beradigan bilimlarga ega bo'lish (egallik qilish)", "kimdir yaxshi xabardor bo'lgan savollar to'plami (sohasi)"¹¹ tushuniladi.

Nabiy sollalohu alayhi va sallam ilm o'rgatishda sahobalar va ta'lim oluvchilar bilan ularning holatlari va vaqtlarini kelishib olardilar. Ta'lim berayotganlarida sahobalarni malollantirmay, o'rtacha mo'tadillik yo'lini tutardilar.

¹⁰ Алиев И.Т. Педагогнинг касбий компетентлиги // Узлуксиз таълим тизимида ўқитувчиларни касбий-педагогик компетентлигини ривожлантириш муаммолари ва истиқболлари: Респ. илмий-амалий анжумани материаллари. – Тошкент: Низомий номидаги ТДПУ, 2013. – 444 б. – Б. 55.

¹¹ Маннопов Ж., Холматова А. Касб таълими ўқитувчисининг мустақил педагогик фаолият юрита олиш компетентлигини шакллантириш // Узлуксиз таълим тизимида ўқитувчиларни касбий-педагогик компетентлигини ривожлантириш муаммолари ва истиқболлари: Респ. илмий-амалий анжумани материаллари. – Тошкент: Низомий номидаги ТДПУ, 2013. – 444 б. – Б. 209-210.

Ilm talab qilayotgan insonning vaqti asosan ilm uchun ajratiladi. Lekin hayotda boshqa yumushlarimiz ham ko'pligi bois ilm tolibi ilm olishi uchun ma'lum bir vaqtni ajratib qo'yishi kerak. Shunday qilsa, unga keladigan zararlarning ham oldi olinadi. Ya'ni, ilmdan malollanish bo'lmaydi. Agar ilm tolibi ilmdan malollansa, u ilmdan uzoqlashishni istab qoladi. Natijada uning ilm olishi uzilib qoladi va ilmdan chetlanganlar safiga kirib qoladi.

Ilm talab qilayotgan har bir inson beshikdan to qabrgacha tehsil olishi mumkin. Masalan Imom Abu Hanifaning shogirdi Hasan ibn Ziyod 80 yoshida fiqhni o'rganishga kirishadi va fatvo berish darajasiga yetadi.

Ta'lim oluvchi kishi umrining ko'p vaqtida ilm bilan mashg'ul bo'lishi lozim. Eng mukammal ta'lim olish vaqtlari: sahar (tong) vaqti, shom va xufton orasidan vaqt.

Abdulloh ibn Mas'ud roziyallohu anhu odamlarga payshanba kuni ta'lim berar edi. Bir kishi u zotga: "Ey Abdulloh, har kuni ta'lim berishingizni juda ham istardik", - dedi. Abdulloh: "Sizlarga malol kelib qolishini istamaganim har kuni ta'lim berishimdan qaytaradi. Rasululloh sollallohu alayhi va sallam bizlarga vaqti-vaqti bilan ta'lim berganlaridek, men ham vaqti-vaqti bilan sizlarga ta'lim beraman", - dedilar" (Imom Buxoriy rivoyati).

Anas ibn Molik roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi: Nabiy sollallohu alayhi va sallam: "Oson qiling, qiyinlashtirmang. Xushxabar bering, cho'chitmang", - dedilar (Imom Buxoriy rivoyati).

Abu Muso Ash'ariy roziyallohu anhu aytadi: "Rasululloh sollallohu alayhi va sallam sahobalaridan birini ish bilan yuborsalar, ularga: "Xushxabar bering, cho'chitmang, oson qiling, qiyinlashtirmang", - der edilar" (Imom Muslim rivoyati).

Abu Hurayra roziyallohu anhu aytadi: "Bir a'robiy turib, masjidga bavl qildi. Insonlar uni malomat qilishdi. Nabiy sollallohu alayhi va sallam ularga: "Uni tinch qo'ying va bavlga bir chelak suv quytinglar. Albatta, sizlar osonlashtiruvchi bo'lib yuborildingiz, qiyinlashtiruvchi emas", dedilar (Imom Buxoriy rivoyati).¹²

Hazrat Navoiy pedagogik faoliyat egalarining, avvalo, o'z kasb sohasining haqiqiy bilimdoni bo'lishini, ularning kelgusida amaldor bo'lish orzusida ilm olmasliklari hamda yetuk insoniy fazilatlar sohibi bo'lishini va shu bilan birga barcha sohada o'zgalarga o'rnak bo'lishlarini ehtirom bilan bayon qiladi. Chunki, pedagog o'z kasbiy bilim ko'nikma va malakalari ustida tinmay g'amxo'rlik qilishlari bilan o'zlari dars beradigan fanlarning mahoratli egasi bo'lishlari, o'zlarining shaxsiy, insoniy, ma'naviy axloqiy fazilatlarini bilan jamoatchilik, xalq orasida mustahkam obro'ga ega bo'lishiga harakat qilishlari lozim, deb biladi. Zero, pedagogning ijtimoiy – madaniy mavqei, obro'si, uning pedagogik faoliyati mahsuldorligiga ham katta ta'sir ko'rsatadi.

¹² Qudratulloh qizi G., Ishmuhamedov R., Normuhamedova M. "An'anaviy va noan'anaviy ta'lim". – Samarqand. "Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi", 2019. 18-bet.



Nazorat uchun savollar:

1. Yaxlit pedagogik jarayon nimani anglatadi?
2. Ta'lim maqsadi qanday belgilanadi?
3. Pedagogik aksioma nima?
4. Pedagogning shaxs sifatidagi fazilatlari qanday bo'lishi lozim?
5. Maxsus fanlarni o'qitishga tizimli yondashuv qanday tarzda amalga oshiriladi?
6. Maxsus fanlarni o'qitishda pedagogik texnologiyalar qanday bosqichlarda loyihalashtiriladi?
7. Zamonaviy sharoitda pedagogik qadriyatlar interiorizatsiyasi o'qituvchining pedagogik mahorati uchun qanchalik zarur deb hisoblaysiz?
8. Pedagogik kompetentlik tushunchasining mohiyati nimada?



Tavsiya qilinuvchi adabiyotlar:

1. Azizxo'jaeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. Toshkent, 2006.
2. Abu Ali ibn Sino. Ziynat. Toshkent: Sharq, 1992.
3. Alisher Navoiy. Mahbub ul-hulub. Asarlar 15-tom. Toshkent, 1996.
4. Amir Temur o'g'itlari /To'plam. Tuzuvchilar: B.Ahmedov, A.Aminov. Toshkent: Navro'z, 1992. – 64 b.
5. Farberman B.L., Musina R.G., Jumaboeva F.A. Oliy o'quv yurtlarida o'qitishning zamonaviy usullari. -Toshkent, 2002.
6. Xoliqov A. Pedagogik mahorat. – T.: IQTISOD-MOLIYA, 2011.



Qo'shimcha adabiyotlar:

6. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. –T.:O'zbekiston, 2017.
7. 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini "Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili" da amalga oshirishga oid Davlat dasturini o'rganish bo'yicha ilmiy-uslubiy risola. – Toshkent: Ma'naviyat, 2017. -26B.
8. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutq /Sh.M. Mirziyoev. - Toshkent: "O'zbekiston", 2016.-56 b.
9. Mirziyoev Sh.M. Qonun ustuvorligi va manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. Toshkent. O'zbekiston nashriyoti, 2017.

10. Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. Toshkent. O'zbekiston nashriyoti, 2017.

9. Xasanboev J., To'raqulov X., Xaydarov M., Hasanboeva O. Pedagogika fanidan izohli lug'at. – T.: Fan va texnologiya, 2008.

10. Niyozov G., Axmedova M. Pedagogika tarixidan seminar mashg'ulotlari. – T.: NOSHIR, 2011.



5-mavzu. DIDAKTIKA – PEDAGOGIKANING TA'LIM NAZARIYASI QISMI SIFATIDA.

REJA:

1. Didaktika pedagogikaning tarkibiy qismi sifatida.
2. Didaktikaning asosiy kategoriyalari.
3. Zamonaviy ta'lim paradigmalari.
4. O'qitish jarayoni mohiyati va uning vazifalari.

Tayanch tushunchalar: didaktika, Ya.A.Komenskiy, «Buyuk didaktika», didaktikaning vazifalari, kategoriyalar, o'rgatish, o'rganish, o'qitish, ta'lim, bilim, ko'nikma, malaka, kompetensiya.

Didaktika pedagogikaning tarkibiy qismi sifatida. Didaktika pedagogika nazariyasining nisbatan mustaqil qismi bo'lib, unda o'qitish jarayonining umumiy qonuniyatlari ochib beriladi. Didaktikaning so'zma-so'z tarjimasida «ta'lim nazariyasi» ma'nosini anglatadi. Didaktika «yunoncha» so'zdan olingan bo'lib, «didaktikos» – o'rgatish, o'qitish ma'nosini bildiradi.

Bu atamani nemis pedagogi V.Ratke (1571–1635) fanga kiritgan, deb hisoblanadi. Didaktika nomi ostida u fanni nazariy va metodologik asoslarini tadqiq qiladigan ilmiy sohani tushundi. Didaktikaning fundamental ilmiy asoslari ilk bor Ya.A.Komenskiy tomonidan ishlab chiqilgan. 1657-yilda u chex tilida «Buyuk didaktika» asarini yozdi. Didaktikani Komenskiy «hammani hamma narsaga o'rgatish san'ati» deb tushuntirdi.


Didaktika (ta'lim nazariyasi: yunoncha “didaktikos” o'rgatuvchi, “didasko” esa o'rganuvchi) ta'limning nazariy jihatlari (ta'lim jarayonining mohiyati, tamoyillari, qonuniyatlari, o'qituvchi va o'quvchi faoliyati mazmuni, ta'lim maqsadi, shakl, metod, vositalari, natijasi, ta'lim jarayonini takomillashtirish yo'llari va hokazo muammolar)ni o'rganuvchi fan

Didaktikada ta'limni tashkil etishning umumiy masalalari, o'qitish jarayonining mohiyati, ta'limning mazmuni, o'qitish qonuniyatlari, o'qitish tamoyillari, metodlari, uning tashkiliy shakllari yoritiladi.

O'qitish jarayoni pedagogning o'rgatuvchilik faoliyatini va o'quvchilarning maxsus tashkil etilgan bilish faoliyatini o'z ichiga oladi. Shu o'rinda bu jarayonlarning tahliliga e'tibor qarataylik. Ta'limda o'qituvchining boshqaruvchilik roli o'z kasbining ijtimoiy asoslaridan kelib chiqib, ajdodlarining boy tajribasini, insoniyatning asrlar davomidagi bilish, mehnat, muloqot, umumiy aloqalar, estetik hamda axloqiy qarashlar jarayonida qo'lga kiritgan yutuqlarni egallashni shart qilib qo'yadi.

Didaktika (ta'lim nazariyasi)ning predmeti o'qitish (o'qituvchi faoliyati) va bilim olish (o'quvchining o'rganish faoliyati)ning o'zaro bog'liqligi

Didaktikaning **vazifalari** quyidagilardan iborat:



Didaktikaning asosiy vazifalari

Bularning barchasi o'qituvchining ta'limiy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi vazifalarini amalga oshirishida o'z aksini topmog'i lozim. Ana shu asosdan kelib chiqib aytish mumkinki, ta'lim jarayonida o'qituvchi o'quvchilariga qo'lga kiritilgan bilimlarni o'rgatadi. O'quv faoliyatida ularni ko'nikma va malakalar bilan qurollantiradi. Shu bilan bir paytda u o'quvchilarda dunyoqarash va axloq normalarini hosil qiladi, qiziqish va qobiliyatlarni shakllantiradi, ularning bilish faolligini oshiradi. O'qituvchining faoliyati o'quvchi shaxsining maqsadga muvofiq shakllanishiga katta imkoniyatlar ochib beradi. Yanada aniq qilib aytsak, butun o'quv jarayonini rejalashtiradi, ushbu jarayonda o'quvchilar bilan birgalikdagi faoliyatni tashkil etadi. O'quvchilarga qiyinchiliklarni yengib o'tishda yordam beradi hamda ularning bilimlarini va butun ta'lim jarayonini tashxis qiladi. O'z navbatida o'quvchilarning faoliyati o'quv jarayonida o'rganishga, bilim, ko'nikma hamda malakalarni egallashga, o'zini jamiyatga foydali faoliyatga

tayyorlashga yo'naltiradi. Ta'lim jarayonida o'quvchilarning faoliyati ko'p qirrali yo'nalgan harakatni ifodalaydi va bu harakat bilishga doir vazifalarni hal qilishda ularga katta yordam beradi.

Didaktika va metodika mustahkam aloqa va o'zaro bog'liqlikda joylashadi. Didaktika o'qitishning umumiy qonuniyatlarini o'rganadi. Aniq bir predmetni o'qitishning o'ziga xos xususiyatlari xususiy metodikalarda ishlab chiqiladi.

Didaktikaning asosiy kategoriyalari. Muayyan fanga xos bo'lgan tushunchalarda insoniyat tomonidan ijtimoiy taraqqiyot jarayonida to'plangan bilimlar aks etadi.

O'rgatish – o'qitish maqsadini amalga oshirish bo'yicha pedagogning tartiblangan faoliyati.

O'rganish – anglash, mashq qilish va egallangan tajribalar asosida xulq-atvor va faoliyatning yangi shakllarini egallash jarayoni, oldin egallanganlari o'zgaradi.

O'qitish – qo'yilgan maqsadga erishishga yo'naltirilgan pedagog bilan o'quvchilarning tartiblangan o'zaro harakati.

Ta'lim – o'qitish jarayonida egallanadigan bilim, ko'nikma, malakalar, kompetensiya va fikrlash usullari tizimi.

Bilim – ma'lum bir fanni nazariy o'zlashtirishni aks ettiradigan inson g'oyalari yig'indisi;

Ko'nikma – egallangan bilimlarning aniq xatti-harakatdagi ifodasi, o'zlashtirilgan bilimlarni amaliyotga qo'llash usullarini egallash.

Malaka – avtomatlashgan, biror bir usul bilan bexato bajarish, ko'nikmaning takomillashgan darajasi.

Kompetensiya – egallangan bilim, ko'nikma va malakalarni kundalik va kasbiy faoliyatda qo'llay olish layoqati.

Maqsad – o'qitishning nimaga qaratilganligi, uning kuchlari kelgusida qay yo'sinda safarbar etilishi.

Mazmun – o'qitish jarayonida egallanishi lozim bo'lgan ilmiy bilim, amaliy ko'nikma va malakalar, faoliyat, fikrlash usullari tizimi.

Tashkil etish – qo'yilgan maqsadni samarali amalga oshirish uchun unga zaruriy shaklni taqdim etadigan, aniq mezonlar bo'yicha tartiblangan didaktik jarayon.

Shakl – o'quv jarayonining tashqi ifodasi, uning ichki mohiyati, mantig'i, mazmuni uchun qobiq.

Metod – o'qitishning maqsad va vazifalariga erishish (amalga oshirish) yo'li.

Vosita – o'quv jarayonining predmetli qo'llab-quvvatlanishi, yangi materialni o'zlashtirish jarayonida o'qituvchi va o'quvchilar tomonidan foydalaniladigan obyekt.


Natija – o'quv jarayonining so'nggi mahsuli, belgilangan maqsadlarning amalga oshganlik darajasi.

Zamonaviy ta'lim paradigmalari. Paradigma (grekcha, paradeigma) so'zining o'zi keng ma'noda turmush va fikrlashining biror sohasining fundamental asoslarini aniqlab beruvchi o'ziga xos tuzilishga ega nazariya deb izohlanadi.

Ta'limning yangi paradigmasining paydo bo'lishi faqat ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar bilan bog'liq bo'lmasdan, u butun madaniy rivojlanish jarayonida yuzaga kelgan. Uning shakllanishida insonparvarlik falsafasi va psixologiyasi asosiy o'rin egallaydi. Mazkur konsepsiyaning asosiy nuqtai nazari – har bir alohida inson hayotining o'ziga xosligi, har bir shaxs noyob, individual, shartsiz qadriyat ekanligini e'tirof etish. Insonparvar falsafa va psixologiya o'z-o'zini realizatsiyalash, o'z-o'zini rivojlantirish ehtiyojini insonning yuksak ehtiyoji deya e'tirof etib, insonning o'z noyobligini asrash va rivojlantirish, insonning erkinlikka erishish mexanizmi sifatida individual shaxsiy tanlovni amalga oshirishni o'zida namoyon etish, qilingan tanlov uchun javobgarlikni bo'yniga olishda ularni amalga oshirishning muhim shartini ko'radi. Shuning uchun shaxsning rivojlanishi va insonning shakllanishi boshqalar bilan hamjihatlikda, ishonch, oshkoralik, sevgiga asoslangan insonparvar munosabatlarni o'rnatish jarayonida sodir bo'ladi.

Asosida ta'limga yangicha yondashuv yotadigan g'oyalarning rivojlanishida psixologlar ham muhim hissa qo'shishgan: yaqin zonadan rivojlanish va inson rivojlanishida birgalikdagi faoliyatni roli haqidagi ta'limot, shaxsning hayotiy faoliyatdagi vazifalari, fikriy soha, insonning reflektiv imkoniyatlarining rivojlanishi, o'quv faoliyati jarayonida uning psixik rivojlanish qonuniyatlari haqidagi tadqiqotlar, shular jumlasidandir.

Zamonaviy pedagogik fanlardagi maqsadiga (ta'limiy, tarbiyaviy), ta'limning bosh maqsadi – madaniyatga yondashuvga, o'quv-tarbiya jarayoni doirasida hal etiladigan vazifalariga, pedagog va o'quvchilar orasidagi o'zaro ta'sir etish tavsifiga ko'ra paradigmalar farqlanadi.



Ta'lim paradigmalari

An'anaviy (bilimga yo'naltirilgan) paradigma. Bilimga yo'naltirilgan paradigmadagi ta'limning bosh maqsadi: «Istalgan qiymatdagi bilim, bilim va yana bilimdir». Shuning uchun ta'lim muassasasining roli insoniyat sivilizatsiyasi

madaniy merosining ko‘proq mavjud unsurlari – ham individual, xuddi shunday ijtimoiy tartibni saqlab qoluvchi, individual rivojlanishga imkon beradigan zaruriy, xilma-xil, muhim bilim, ko‘nikma va malakalar, bundan tashqari ideal va qadriyatlarni uzatish va saqlashda namoyon bo‘ladi. Shuning uchun o‘quv dasturlari mazmuni tayanch, asosiy, bilim, ko‘nikma va malakalarni egallash vaqtida sinovdan o‘tuvchi, shaxsning funksional savodxonligi va ijtimoiyligini ta‘minlashga asoslanadi.

Bixevioristik (ratsionalistik) paradigma. Ratsionalistik paradigma an’anaviy paradigmaga qarama-qarshi o‘laroq, o‘zining diqqat markazida mazmuni emas, o‘quvchilarning turli turdagi bilimlarni o‘zlashtirishining samarali usullarini qo‘yadi. Ratsionalistik ta‘lim paradigmasi asosida ijtimoiy injeneriya bixevioristik konsepsiyasi turadi. Ta‘lim muassasasining maqsadi – ta‘lim oluvchilarda ijtimoiy me‘yorlar, milliy madaniyat talablari va natijalariga muvofiq, moslashuvli «xulq-atvor majmui»ni shakllantiradi. Suning uchun «xulq-atvor» atamasi «barcha turdagi reaksiyalar, insoniy xususiyatlar – uning fikrlashi, his-tuyg‘usi va harakati»ni bildiradi.

Mazkur paradigma ta‘lim muassasasiga ta‘lim oluvchilarning maqbul xulq-atvorini shakllantirish maqsadida bilimlarni o‘zlashtirish yo‘li sifatida qaraydi, ya‘ni har qanday ta‘lim muassasasi – bu yashash muhitiga moslashtirishning ta‘limiy mexanizmi. Bunday o‘qitishning asosiy metodlariga o‘rgatish, trening, test nazorati, individual o‘qitish, korrektsiyalash kiradi.

Insonparvarlik (fenomenologik) paradigmasining diqqat markazida o‘z-o‘zini rivojlantirish ehtiyojiga ega bo‘lgan, hayot subyekti, shaxs erkinligi va ma‘naviyati sifatidagi ta‘lim oluvchi turadi. U bolaning ichki dunyosini rivojlantirish, shaxslararo muloqot, ijod, dialog, shaxs o‘sishi uchun yordamga yo‘naltirilgan. Insonparvarlik paradigmasi vakillari yagona qarash bilan ajralib turmaydi. Uning doirasida ta‘limning xilma-xil modeli amalga oshadi. Ularni bola va inson hayotining tengsiz davri sifatida bolalikka qadriyatli munosabat, ya‘ni ta‘lim muassasasining bosh vazifasi bolani rivojlantirish (aqliy, axloqiy, jismoniy, estetik) ekanligini e‘tirof etish yagona yo‘nalishda birlashtiriladi. Insonparvarlik paradigmasi doirasida harakatlanuvchi har bir ta‘lim tizimi ijodiy izlanishga asoslanib, ta‘lim va tarbiyaning sof mazmuni, metod va vositalaridan joy oladi. Insonparvarlik paradigmasi ham o‘qituvchi, ham o‘quvchilarning erkinligi va ijodkorligini talab etadi.

Pedagogik faoliyatning insonparvarlik tamoyiliga asoslanuvchi paradigmasi quyidagi mezonlarga tayanadi:

–ta‘limning ijtimoiylashuvi – o‘qituvchilarni tayyorlash jarayoniga nisbatan texnokratik yondashuvdan voz kechish, ular tomonidan nisbatan o‘zlashtiriladigan bilimlar majmuasining pedagogik hamda psixologik xususiyat kasb etishini

ta'minlash, o'qituvchilarda umuminsoniy, umummadaniy qadriyatlar mazmunida ilgari surilgan g'oyalarga asoslangan ijtimoiy tafakkurni shakllantirish;

–milliy hamda jahon madaniyati asoslari va ularning mohiyatidan xabardor bo'lish;

–ta'lim va tarbiya jarayonini tashkil etishda milliy istiqlol g'oyalariga asoslanish;

–shaxsning o'z-o'zini rivojlantirish hamda mustaqil ta'lim olishga bo'lgan layoqatiga tayanish va uni takomillashtirish;

–o'qituvchilarning kasbiy jihatdan shakllantirish jarayonida o'qituvchi hamda o'quvchilarning o'zaro hamkorlikda faoliyat olib borishlariga erishish;

–ta'lim jarayonida o'quv dasturlarining talabalar qobiliyati hamda qiziqishlariga ko'ra tanlab olinishi borasidagi imkoniyatning mavjudligi;

–pedagogik ta'limning fundamental xususiyat kasb etishi, ya'ni, o'quvchilar tomonidan o'zgaruvchan sharoitlarda shaxs ijodiy rivoji asosini ta'minlovchi invariant bilimlarning o'zlashtirilishiga erishish;

–mehnat bozori hamda ijtimoiy jarayonlarda yuzaga keluvchi hamda doimiy ravishda o'zgarib turuvchi ehtiyojlarga to'laqonli javob bera oladigan ta'limni shakllantirish shu asosda kasbiy moslashuvchan mutaxassislarni tarbiyalash;

–ta'limning uzluksizligi, ta'limning har bir jarayon bosqichining natijalanishini ta'minlovchi kasbiy ta'lim (kadrlar malakasini oshirish hamda ularni qayta tayyorlash) dasturlarining tizimining yaratish va rivojlantirish, muayyan dasturni ta'limning u yoki bu bosqichida o'qitilishi yoki o'qishni boshqa tipdagi o'quv muassasida davom ettira olish imkoniyatini bera olishi;

–ta'limning ekvivalentligi, ya'ni uning davlat ta'lim standarti, milliy madaniyati va mentalitet, shuningdek, xalqaro me'yorlarga muvofiq darajasi.

Ilmiy-texnik, texnokratik paradigmaning bosh maqsadi amaliy takomillashtirish uchun zarur «aniq» ilmiy bilimlarni uzatish va o'zlashtirishdan kelib chiqadi. «Bilim – kuch», shuning uchun inson qadr-qimmatini uning bilish imkoniyatlari aniqlab beradi. Inson o'zini o'zicha emas, faqat aniq belgilangan etalon (o'rtacha namuna, standartlashgan)dagi bilish yoki xulq-atvor sohibi sifatidagina baholaydi. Texnokratik paradigma sharoitida o'quv-tarbiya jarayonining istalgan natijasi «ha – yo'q», «biladi – bilmaydi», «tarbiyali – tarbiyasiz», «egallagan – egallamagan» tizimida baholanishi mumkin. Bu yerda tayyorgarlik, ma'lumotlilik, tarbiyalanganlik darajasi tekshirib aniqlanadigan qandaydir etalon, ideal mavjud bo'ladi.

Ezoterik paradigma. Bu bizning sayyoramizdagi eng qadimiy ta'limiy paradigmalardan biri. Mazkur so'zning yunonchadan so'zma-so'z tarjimasi «sirli», «yashirin» ma'nolarini bildiradi. Uning mohiyatini abadiy va o'zgarmas Haqiqatga munosabat tashkil etadi. Ushbu paradigma tarafdorlarining fikricha, haqiqatni shunchaki bilish mumkin emas, unga vijdon pokligi orqali erishish mumkin. Pedagogik faoliyatning oliy maqsadi o'quvchining tabiiy kuch va imkoniyatlarini yuqori darajadagi ongga ega bo'lish, Kosmos bilan muloqot uchun sarf etish va

rivojlantirishda namoyon bo‘ladi. Shuning uchun o‘qituvchining muhim muhofaza qiluvchi funksiyasi ta’lim oluvchilarning axloqiy, jismoniy, psixik tayyorgarligini amalga oshirish va mavjud kuchlarini rivojlantirishdir.

O‘qitish jarayoni mohiyati va uning vazifalari. **O‘qitish** – o‘qituvchi va o‘quvchilarning maqsadga qaratilgan birgalikdagi faoliyati jarayoni bo‘lib, bu jarayonda o‘quvchilarni rivojlantirishni amalga oshiradigan bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalar yuzaga chiqadi.

O‘qitish jarayoni uchta vazifani bajaradi: ta’limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi.

O‘qitish jarayonining **ta’limiy vazifasi** o‘quvchilarda bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalarni shakllantirishdan iborat. O‘qitish natijasi sifatida bilimlarining to‘liqligi, chuqurligi, tizimliliigi, anglanganligi, mustahkamligi va amaliy xususiyat kasb etishi muhimdir. Bu kabi holatlar ta’lim jarayonining metodik jihatdan to‘g‘ri tashkil etilganligini ifodalaydi.

Ta’lim jarayonida o‘quvchilarda ular tomonidan o‘zlashtirilgan nazariy bilimlar asosida hosil qilingan amaliy ko‘nikma va malakalar hamda kompetensiyaning shakllanishi ham alohida ahamiyatga ega.

O‘qitishning **tarbiyaviy vazifasi** ta’lim jarayonida shaxsning ma’naviy-axloqiy va estetik tasavvurlari, xulq-atvori va dunyoqarashi shakllantirilishida o‘z ifodasini topadi. Ta’limning tarbiyaviy xususiyati, eng avvalo, ta’lim mazmunida aks etadi. O‘qitish jarayonida tarbiyaning ikkinchi omili o‘qituvchi va o‘quvchilarning munosabatlari, sinfdagi psixologik muhit, o‘qitish jarayoni ishtirokchilarining o‘zaro munosabatlari, o‘quvchilarning idrok etish faoliyatlariga o‘qituvchining rahbarligi hisoblanadi.

O‘qitishning **rivojlantiruvchi vazifasi** o‘quvchi nutqining, fikrlashi, shaxsning sensorli va harakatlanish sohalari, emotsional-irodaviy, intellektual sohasini rivojlantirishda o‘z aksini topadi. O‘qitish jarayonida o‘quvchini aqliy rivojlantirish, aqliy faoliyat usullari, analiz qilish, taqqoslash, tasniflash, kuzatish, xulosa chiqarish, obyektlarning muhim belgilarini ajrata bilish, faoliyat maqsadi va usullarini aniqlashni bilishga o‘rgatish, uning natijalarini tekshirish malakasini rivojlantirishga erishiladi.

O‘qitish jarayonining bosqichlari. O‘qitish o‘qituvchi rahbarligida o‘quvchining o‘quv materiallarini rejali ravishda bilib olish jarayonidir. Bu jarayonni bilish bosqichidan iborat bo‘lgan tarkibiy qismlarga (yoki komponentarga) ajratish mumkin. O‘quvchi bilmaslikdan bilish, uddasidan chiqqa olmaslikdan uddulay olish, malakalar hosil qilish yo‘lidan borib, ushbu bosqichlardan o‘tishi kerak.

O‘qitish jarayoni 4 ta asosiy bosqichdan iborat:

- 1) o‘zlashtirilishi lozim bo‘lgan materialni idrok etish;
- 2) uni fahmlab olish, tushunchalarning hosil bo‘lishi;

3) bilimlarni mustahkamlash va takomillashtirish, ko‘nikma va malakalarning hosil bo‘lishi;

4) hosil qilingan ko‘nikma va malakalarni amaliyotda qo‘llash (kompetentsiyalarni tarkib toptirish).

Har bir bosqich uchun o‘quvchilarning muayyan xarakterdagi bilish faoliyati xarakterlidir. Bu faoliyat o‘qituvchi tomonidan alohida rahbarlikni talab etadi.

O‘rganilayotgan materialni idrok qilish. O‘quvchilarning o‘rganilayotgan (yoki o‘rganilishi lozim bo‘lgan) materialni idrok qilishini tashkil etar ekan, o‘qituvchi ularning hayotiy tajribasi va tayyorgarlik darajasini hisobga olgan holda material to‘g‘risida umumiy tasavvur hosil qilib, oldindan uni butunligicha tushuntiradi va ko‘rsatadi.

O‘rganilayotgan materialni fahmlab olish. O‘rganilayotgan obyekt haqidagi umumiy tasavvur asosida uni tushunishni ta‘minlovchi, asta-sekin chuqurlashib boruvchi anglash jarayoni davom etadi. O‘qitishning bu zvenosining maqsadi ilmiy tushunchalarni tarkib toptirishdir.

Bilimlarni mustahkamlanishi, ko‘nikma va malakalarning hosil bo‘lishi. O‘quv materialini idrok etish va faqqlab olish jarayonida o‘zlashtirish keyinchalik uni mustahkamlash va takomillashtirishni talab etadi.

Bilim, ko‘nikma va malakalarni amalda qo‘llay olish (kompetentsiyalarni shakllantirish). Bilim, ko‘nikma va malakalarni amalda qo‘llash jarayoni ta‘limning yakuniy mustaqilligini asta-sekin va izchillik bilan oshirib borish.

O‘qitish va o‘qish jarayonlari tavsifi, o‘quv jarayonida ularning o‘zaro bog‘liqligi. Inson faoliyatining hamma asosiy turlari (mehnat, fan, san‘at, o‘yin, sport) uning tevarak-atrof olamni va o‘z-o‘zini bilish bilan bog‘langan. O‘qish tevarak-atrofdagi olamni bilishning maxsus tashkil etilgan va o‘qituvchi rahbarlik qiladigan alohida turidir. Bu jarayonning mohiyati – bilim, ko‘nikma malaka va kompetentsiyalarni hosil qilish, o‘quv fanlari mazmunini o‘zlashtirib olish va bilish kuchlarini rivojlantirishdir.

O‘rgatuvchilik faoliyati yoki o‘qitish, o‘quvchilarning o‘quv faoliyatini boshqarishdan iborat bo‘ladi va ularni mashg‘ulotlar uchun uyushtirishda, ularning diqqati, tafakkuri, hatti-harakati va hokazolariga rahbarlik qilishda, ular oldiga ularning faoliyatini tobora murakkablashtirilgan vazifalarni izchillik bilan qo‘yib borishda, ularni tekshirib borish kabilarda o‘z ifodasini topadi.

O‘quv faoliyati yoki o‘qish bilim, ko‘nikma va malakalarni egallab olishning murakkab jarayoni bo‘lib, o‘quvchilarning intellektual, irodaviy va jismoniy kuch-g‘ayratini talab etadi hamda ularning rivojlanishini rag‘batlantiradi. O‘qituvchining oqilona biror maqsadga qaratilgan rahbarligi va o‘quvchilarning esa faol ongli ishtirokisiz, ta‘lim jarayonida ijobiy natijalar bo‘lishi mumkin emas. Ta‘lim jarayonining bu ikki tomoni (o‘qitish va o‘qish) bir maqsad: ta‘limning xilma-xil

vositlari va metodlaridan foydalangan holda o'quv materialni egallab olish maqsadi bilan birlashgandir.

O'quvchilarning bilish faoliyati va uning tuzilishi. Ma'lumki, bilish faoliyatining subyekti o'quvchi sanaladi. Shu bois ijtimoiy-pedagogik asoslarga ega ta'lim markazida uning shaxsi, ongi, ham o'rganilayotgan olamga, ham bilish faoliyatidagi hamkorlariga: o'quvchilar va uning ta'lim olishini tashkil etuvchi va yo'naltiruvchi o'qituvchilar munosabati yotadi. Bu masala barcha davrlarda birdek ahamiyat kasb etib kelgan.

Ta'limda o'quvchilarning faoliyati haqida gap borganda o'quvchining bilish faolligi tushunchasi alohida ahamiyat kasb etadi. O'quvchining bilish faolligi uning bilish jarayonidagi intellektual mulohazasida, umumiy va alohida topshiriqlarni bajarishida namoyon bo'ladi. Bu xususiyatlar o'quvchilarning faqatgina yuqori darajadagi bilim olishini kafolatlab qolmay, balki uning hayotiy faoliyati, ya'ni o'quvchi shaxsining shakllanishi, uning amaliyotga, hayotga bo'lgan faol munosabati uchun harakterlidir. Shu sababli bilish faolligini oshirish insonning faol hayotiy qarashlarini shakllantirish deb bermalol aytish mumkin.

O'quvchining bilish faoliyatining yana bir farqli xususiyati uning kechish xarakteridir. O'quvchining bilish faoliyati maqsadi ham, mazmuni ham, usullari ham dasturga kiritilganligi bois, o'quvchi jalb etilayotgan ta'lim jarayoni turlicha kechishi; subyekt (o'quvchi) kuchi faolligi, mustaqilligi, turlicha sarf etilishi bilan borishi mumkin. Ayrim hollarda uning jarayoni taqlidiy reproduktiv, boshqalarda izlanishli, uchinchisida ijodiy xarakterga ega bo'lishi mumkin. Aynan faoliyat jarayonining kechish xakteri – uning oxirgi natijasi egallangan bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalari xakteriga ta'sir etadi.

O'quvchining bilishi xuddi yetuk ilmiy bilish yo'li kabi haqiqat o'qituvchi tomonidan fandagi faktlar, ilmiy kashfiyotlarni o'rganish ularning tarixiy yo'lini o'zlashtirish yordamida kechadi.

Insonning asl ijtimoiy mulki sifatida faoliyatining muhim belgisi faoliyat subyekting atrof-muhit bilan o'zaro ta'siri va muhim boyliklar yaratuvchi faoliyatining qayta aloqasidir. O'quvchilarning ta'lim muassasasidagi bilish faoliyatining xakteri shundaki, uning natijasi hamma vaqt ham moddiylashgan mahsulga ega emas va o'quvchining o'zi hamma vaqt ham his etmaydi – javobi uchun yomon baho olgan o'quvchining xafa bo'lib, «men o'qidim, o'rgandim! Adolatdan emas» degan fikrni qat'iy takrorlashi bejiz emas.

Bilishga qiziqish o'qishning eng muhim va eng qimmatli motivi sifatida bolani maktabga, darslarga, o'z bilish faoliyatiga nisbatan ijodiy munosabatiga ko'maklashadi.

O'quvchilarning bilishga qiziqishi motiv sifatida rivojlanishi o'ziga xos uzoq yo'liga ega bo'lishi mumkin. Ayrim o'quv-harakatlari ta'sirchisidan to butun faoliyatning ustuvor motivigacha. Hatto o'qishning yetakchi motivlaridan biriga

aylanib, qiziqish shaxsning ma'naviy boyishiga ko'maklashuvchi umumiy yo'nalganligining ahamiyatli qismiga aylanishi mumkin. Har qanday motiv singari bilishga qiziqish ajralgan holda rivojlanmaydi, uning tiklanishi boshqa motivlar (axloqiy, ijtimoiy, o'quv va h.k.) bilan birga kechadiki, qiziqish ular bilan boyiydi va ularga ijobiy ta'sir etadi.

Ma'lumki, o'quv jarayoni modeli o'zida uch tarkibiy qismni aks ettiradi: o'qituvchi faoliyati, o'quvchi faoliyati hamda o'qituvchi va ta'lim oluvchilarning jadal o'zaro faoliyati. O'qituvchining o'quvchilar bilan o'zaro harakatini konstruktiv pedagogika nuqtai nazaridan qator belgilariga ko'ra tasnif etish mumkin: yo'nalganligiga ko'ra (qayta aloqalar bilan yoki qayta aloqalarsiz); axborot jarayonining turiga ko'ra (o'zaro harakatni tashkil etishda axborot jarayonining yo'nalganlik darajasi); boshqarish va axborotlarni uzatish vositalari turiga ko'ra.

O'quvchilar bilimlarni o'zlashtirish jarayonida turli darajadagi faollikni namoyon etishadi. Ana shu sababli, o'quvchilarga bilimlarni sust ravishda qabul qiladi kabi nuqtai nazardan qarash to'g'ri bo'lmaydi. Shu sababli bilish faoliyatiga quyidagicha yondashish zarur: o'quv faoliyatining inkor etilmagan tavsifi asosida unga munosabat o'zgaradigan bilishning quyi darajasi; quyidan mo'tadillashgan bosqichga o'tish sifatidagi vaziyatli faoliyat; o'quv jarayonida ijro etuvchilik faoliyati; o'quvchining subyektiv nuqtai nazarini maksimal darajada ochishga imkon beruvchi ijodiylik.

Yuqorida aytilganlarni umumlashtirib, bilish faolligi ko'rsatkichi sifatida mo'tadillik, ishtiyoq, o'rganishning anglanganligi, ijodiy namoyon bo'lishi, nostandart o'quv vaziyatlaridagi xulq-atvor, o'quv vazifasini hal etishdagi mustaqillik va boshqalarni aytib o'tish mumkin (4-rasm).

O'quvchilarning o'quv jarayonidagi ishtiroki va faolligining namoyon bo'lishi – bu rivojlanib boruvchi, o'zgaruvchan jarayon. O'qituvchi yordamida o'quvchilarning bilish faolligi quyi darajadan vaziyatli-faollikka, undan faol ijrochilikka o'tib boradi. Ko'p jihatdan o'quvchining bilish faolligi ijodiylik darajasiga ko'tarilishi yoki ko'tarilmasdan qolishi o'qituvchiga bog'liq.

Didaktlarning ishlarida shu narsa yaqqol ko'rinadiki, o'quv jarayonida o'qituvchi va o'quvchilar orasidagi munosabat subyekt-subyekt tavsifiga ega bo'lishi zarur. Bundan kelib chiqib aytish mumkinki, ta'lim – bu keng tarzda sotsiumning bo'lajak a'zosini umumiy mehnat, hamkorlikka o'rgatish uchun zarur bo'lgan birgalikdagi faoliyat.

Hamkorlikdagi faoliyatga tayyorlash nuqtai nazaridan zamonaviy ta'lim jarayonini ko'rib chiqish asosida o'quvchilarning rollar orqali namoyon bo'lishi quyidagicha ko'rinish kasb etadi:

- o'quv jarayoni bilan dastlab tanishishda tomoshabin, kuzatuvchi;
- guruhli faoliyatning ishtirokchisi;
- namuna bo'yicha uy vazifasini mustaqil bajargandan so'ng faoliyat egasi;
- faoliyatning shaxsiy namunasini yaratishda faoliyat egasi + fikr egasi;

- o‘z faoliyati natijasida yuzaga keladigan o‘z-o‘zining faoliyati egasi.

Ta’lim jarayoni qonuniyatlari. Pedagogikada qonuniyatlar – bu qonunlarning aniq sharoitlaridagi harakat ifodasi. Ularning asosiy xususiyati qonuniyatlar pedagogikada ehtimoliy-statistik xarakter berishida aks etadi, qonunlarni esa ta’lim jarayonida amalga oshirishni hamma holatlarda ham aniq ko‘rib bo‘lmaydi.

Ta’limning umumiy qonuniyatlariga quyidagilar kiradi:

ta’limning maqsadi jamiyatning rivojlanish sur’ati va darajasi; jamiyatning talablari va imkoniyatlari; pedagogika fani va amaliyotining rivojlanganligi va imkoniyatlari bilan bog‘liqlikda aniqlashtiriladi;

ta’lim mazmunini belgilashda ta’limning ijtimoiy ehtiyojlari va maqsadlari; ijtimoiy va ilmiy-texnik taraqqiyot sur’ati; o‘quvchilarning yoshi imkoniyatlari; ta’lim nazariyasi va amaliyotining rivojlanish darajasiga asoslaniladi;

ta’limning sifati avvalgi bosqich mahsuldorligi va hozirgi bosqichda erishilgan natijalar; o‘rganilayotgan material xususiyati va hajmi; o‘quvchilarga tashkiliy-pedagogik ta’sir ko‘rsatish: o‘quvchilarning bilim olishga qobiliyatlari va ta’lim vaqtiga bog‘liq;

ta’lim metodlari samaradorligi ta’lim maqsadiga; o‘quvchilarning yoshi, ta’lim olish imkoniyatlariga; ta’lim muassasasining moddiy-texnik ta’minotiga bog‘liq;

ta’limni boshqarish samaradorligi ta’lim tizimida qayta aloqalarning intensivligi va korrektsiyaga, ta’sir ko‘rsatishning asoslanganligiga bog‘liq;

ta’limda rag‘batlantirish samaradorligi ichki va tashqi stimullarning o‘zaro uyg‘unligiga bog‘liq.

Shuningdek, pedagogikada ta’limning xususiy qonuniyatlari ham mavjud: **gnoseologik:** ta’lim natijalari o‘quvchilarning o‘zlashtirish ko‘nikmalariga; ta’lim samaradorligi o‘quvchilarning o‘quv faoliyati hajmiga; bilim va ko‘nikmalarni o‘zlashtirish samaradorligi ularning amalda qo‘llanilishiga; o‘quvchilarning aqliy rivojlanishi o‘zaro aloqador bilim, ko‘nikma va malakalarning o‘zlashtirilish hajmiga to‘g‘ridan to‘g‘ri bog‘liq;

psixologik: ta’lim samaradorligi o‘quvchilarning o‘quv faoliyatiga qiziqishiga; fikrlash darajasi, kuchi, jadalligi va o‘ziga xosligiga; xotiraning rivojlanganlik darajasiga; bilish faolligi darajasiga bevosita bog‘liq;

kibernetik: ta’lim samaradorligi qayta aloqalarning tezligi va hajmiga; bilimlarning sifati nazoratning to‘g‘ri olib borilishiga; ta’lim sifati o‘quv jarayonini boshqarish sifatiga; boshqaruvning samaradorligi boshqaruvga doir axborotlarning soni va sifatiga bevosita bog‘liq;

sotsiologik: individning rivojlanishi u bevosita va bilvosita muloqotda bo‘ladigan indvidlarning rivojlanishiga; ta’lim samaradorligi «intellektual muhit»ning mavjud holatiga, o‘zaro bir-biriga o‘rgatishning jadalligiga; o‘qituvchi va o‘quvchilar muloqotining sifatiga bevosita bog‘liq;

tashkiliy: ta’lim natijasi o‘quvchining o‘quv mehnatiga, o‘zining o‘quv majburiyatlariga munosabatiga; o‘quvchining ishchanlik qobiliyatiga; o‘quvchilarning aqliy faolligini oshirish o‘quv mashg‘uloti jadvalining tuzilishi,

unda jismoniy tarbiya va mehnat mashg'ulotlarining joylashtirilishiga bevosita bog'liq.

Ta'lim tamoyillari. Ta'lim qonuniyatlaridan uni samarali tashkil qilishga nisbatan muayyan muhim talablar kelib chiqadi.

Ta'lim tamoyillarini shartli ravishda ikki guruhga ajratish mumkin: ta'limning mazmunga aloqador va tashkiliy-metodik tamoyillari.

Ta'limni insonparvarlashtirish – uning mazmuni, tamoyillari, shakl va metodlarini yangilash, ularning o'zaro aloqasi va birligini ta'minlash orqali shaxsni har tomonlama shakllantirish va rivojlantirishga yo'naltirishdir.

Shaxsning rivojlanishi va o'quvchilarning ijtimoiy ahamiyatga ega sifat va qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan ta'limning insonparvarlik mazmuniga yaqinlashish, ularni hayotda faol ishtirok etishga jalb etish, uning bilish bilan qo'shiluvi va madaniyatni o'zlashtirishi hamma-hammasi so'nggi yillarda sezilarli shakllandi. Mazkur yo'nalishda so'nggi yillarda tarbiyalanuvchilar ongidagi aldam-qaldamlik, ularning xulq-atvorini haddan tashqari qat'iy belgilash, ularga qattiq ta'sir etish, tanqidiy fikrlash tarziga ega bo'lmagan qarashlardan voz kechish yordamida ko'plab innovatsiyalar yo'naltirildi. Bunday aqidaparastlikka qarama-qarshi o'laroq, milliy va chet el pedagogikasida tarbiyalanuvchi shaxsini hurmat qilishga yo'naltirilgan, unda mustaqillikni shakllantiruvchi, tarbiyachi va tarbiyalanuvchilar orasida insonparvar, ishonchga asoslangan munosabatlarni tarkib toptirish qoidalaridan foydalanish, «ta'limni insonparvarlashtirish», ya'ni insonparvarlik tamoyili yuzaga chiqadi. Bunday asosga qurilgan ta'lim esa, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim deb nomlanadi.

Ta'limning tabiat bilan uyg'unligi tamoyili. Ya.A.Komenskiy tomonidan fanga kiritilgan bo'lib, tabiatda hayot bahordan boshlangani kabi ta'lim olish jarayoni uchun eng qulay davr bolalik ekanligi g'oyasiga asoslanadi. O'quvchilarga ularning yosh davrlarini inobatga olgan holda bilimlarning berilishi ushbu bilimlarning ular uchun tushunarli bo'lishini ta'minlaydi. Umuman olganda, ta'lim jarayoni bolaning rivojlanishi, ya'ni tabiati bilan uyg'un bo'lishi lozim.

Ta'limning madaniyat bilan uyg'unlik tamoyili. Ta'limni azaldan mazmuni inson ongida nafaqat olam manzarasini, balki insondagi rivojlanish, yuksaklikka harakat va o'sish holatida bo'lgan o'zining shaxs sifatidagi qiyofasini shakllantirishdan iborat. Ta'lim butun umr davom etadi va ta'lim olish chegaralanmaydi. U insonga o'z dunyosi va boshqa madaniyatlarni anglash, mazkur madaniyat vakillari fikrini eshita olish, ularni qadrlash, ularning dunyosini tushunish, o'zining shaxsiy fikriga tayanish, o'zining bu yorug' olamdagi mavjudligini anglash va o'zining hayotdagi, madaniyatdagi o'rnini aniqlash imkonini beradi. Ta'limning bugungi kundagi ma'no-mantig'i ham ana shundadir.

Ta'lim o'zini madaniyatlar dunyosida faraz qilish orqali insonda olam manzarasini yaratish, insonning tabiat, boshqa odamlarga, jamiyat, o'z-o'ziga bo'lgan munosabatlar tizimini shakllantirish sifatida qaraladi. Inson o'zining ongi, irodasi, his-tuyg'usi, bilish imkoniyatlari orqali madaniy qadriyatlarni o'zlashtiradi, buning natijasida individual ijodiylik shakllanadi. Bunday

individuallikning namoyon bo'lishining o'ziyoq nafaqat madaniyatning merosiyligi, iste'mol qilinishi, balki rivojlanishini ham anglatadi. Bunday tushunish pedagogikadagi yangi paradigma – shaxsga yo'naltirilgan ta'lim asosini tashkil etuvchi jamiyatlardagi yangicha qadriyatlar – shaxsning o'zini-o'zini rivojlantirishi, o'ziga-o'ziga ta'lim berish va o'zini-o'zi loyihalashning namoyon bo'lishini aks ettiruvchi madaniyat bilan uyg'unlik tamoyilini shakllanishiga olib keladi.

Ta'limning ilmiylik tamoyili – o'quvchining o'quv materialidagi qonuniyatlarni aks ettirishi, tushunishi va o'zlashtirishi uchun to'g'ri shart-sharoit yaratish maqsadi uchun zarur ahamiyat kasb etadi. Bu tamoyil ta'lim mazmunini zamonaviy fan va texnika rivojlanish darajasi, jahon sivilizatsiyasi to'plagan tajribaga mos kelishini ifodalaydi. Bu tamoyil ta'lim vaqtida va o'qishdan tashqari vaqtda amalga oshiriladigan ta'lim mazmuni o'quvchilarni obyektiv ilmiy dalillar, hodisalar, qonunlar, zamonaviy yutuqlar va rivojlanish istiqbollarini ochib berishga yaqinlashtirib, u yoki bu sohaning asosiy nazariya yoki konsepsiyalari bilan tanishtirishga yo'naltirilgan bo'lishini talab etadi.

Ta'limning fundamentalligi va amaliy yo'nalganligi tamoyilining ahamiyati shundaki, umumiy o'rta ta'lim maktablaridayoq o'quvchilar chuqur nazariy va amaliy tayyorlikdan o'tadilar. Mazkur holat an'anaviy didaktikada ta'limning hayot bilan, nazariyaning amaliyot bilan bog'liqligi tamoyili sifatida ifoda etiladi. O'qishda fundamentallik bilimlarning ilmiyligi, to'liq va chuqur bo'lishini ko'zda tutadi. U yuksak intellektual salohiyat, fikrlash layoqatining tadqiqotchilik ko'rinishda bo'lishi, bilimlarini doimiy ravishda to'ldirib borish istagi va malakalarini talab etuvchi zamonaviy ilmiy-texnik taraqqiyotga asoslanganlik bilan tavsiflanadi. Fundamental bilimlar aniq bilimlarga qaraganda sekin eskiradi, shuningdek, inson va xotirasiga emas, ko'proq uning fikrlash layoqatiga bog'liq bo'ladi. Ta'limning fundamentalligi bilimlar mazmunining muntazamligi, nazariy va amaliy jihatdan o'zaro nisbatda bo'lishni talab etadi.

Ta'lim va tarbiyaning uyg'unligi tamoyili yaxlit pedagogik jarayonda ta'lim va tarbiyaning birligi qonuniyatlariga tayanadi. Bu tamoyil ta'lim jarayonida barkamol rivojlangan shaxsni shakllantirishni ko'zda tutadi. Ta'lim jarayonida tarbiyalashning samarali kechishi shaxsning intellektual rivojlanishi, birinchi navbatda, o'quvchilarning qiziqishlari, idrok etish hamda individual qobiliyatlarining hisobga olinishi bilan bog'liq.

Ta'limning tizimliliigi va izchillik tamoyili bayon qilinayotgan o'quv materialini mustahkamlash va ilgari o'tilgan materiallarni to'ldirishga xizmat qilishini, o'quvchilarning uzluksiz va tizimli sur'atda mustaqil ish olib borishlarini, o'quvchilarning o'zlashtirgan bilim va hosil bo'lgan ko'nikma, malakalarini hisobga olib borishni ham o'z ichiga oladi.

Izchillik ta'lim mazmuni, uning shakli va usullari, o'quv jarayoni ishtirokchilari bo'lgan subyektlarning o'zaro munosabatlariga taalluqli. U alohida parsial (yunoncha partialis – qisman) va xususiy o'quv vaziyatlari, predmet va

hodisalar o'rtasidagi bog'liqlik, aloqadorlik qonuniyatlarini asta-sekin o'zlashtirish asosida ularni yagona yaxlit o'quv jarayoniga birlashtirishga imkon beradi.

Izchillik ta'lim jarayonining ma'lum tizim va ketma-ketlik asosida bo'lishini nazarda tutadi, zero, murakkab masalalarni oddiy masalalarni o'rganmay turib hal etib bo'lmaydi.

Tizimlilik va ketma-ketlik u yoki bu o'quv materialini o'zlashtirish sur'ati, uning elementlari o'rtasidagi o'zaro mosligini tahlil qilishga imkon beradi. Ta'limning tizimliliigi va ketma-ketligi ma'lum fanlar bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirish, borliqni yaxlit idrok etish o'rtasidagi qarama-qarshilikni hal etishga imkon beradi. Ushbu holatlar birinchi navbatda dastur va darsliklarni muayyan tizimda yaratish, fanlararo hamda fanlar ichidagi bog'liqlikni ta'minlash evaziga namoyon bo'ladi.

Ta'limda onglilik, faollik va mustaqillik tamoyili o'qitishni shunday tashkil etishni nazarda tutadiki, bunda o'quvchilar ilmiy bilimlarni hamda ularni amalda qo'llash usullarini ongli va faol egallab olishlari lozim. Bilimlarni ongli ravishda o'zlashtirish quyidagi omil va shartlarga bog'liq: o'quv motivlari, o'quvchilarning faollik darajasi, o'quv-tarbiyaviy jarayonning samarali tashkil etilishi, o'qituvchi tomonidan qo'llanuvchi ta'lim metodlari va vositalarining samaradorligi va boshqalar. O'quvchilarning faolliklari reproduktiv va ijodiy xarakterga ega bo'lishi mumkin. Mazkur tamoyil o'quvchilarning tashabbuskorliklari va mustaqil faoliyatlarini nazarda tutadi.

Ta'limda ko'rsatmalilik tamoyili o'qitish jarayoni sifatini oshiradi, o'quvchilarning bilim olishlarini osonlashtiradi. Ya.A.Komenskiy uni didaktikaning «oltin qoidasi» deb atagan. Unga binoan ta'limda inson sezgi orgalaridan foydalanish kerak. «Agarda biz o'quvchilarda haqiqiy va aniq bilimlar paydo qilishni istasak, unda biz umuman hamma narsaga shaxsiy kuzatish va sezib ko'rish bilan ta'limga intilishimiz kerak – deb ta'kidlaydi u – agarda qandaydir predmetni baravariga bir necha sezgi organlari bilan qabul qilish mumkin bo'lsa, mayli ular baravariga bir necha sezgilari bilan o'rganilsin».

Tajribalar asosida o'rganilayotgan narsani namoyish etish va jarayon mohiyatini hikoya qilib berish o'zlashtirish darajasini birmuncha oshiradi. Xususan, axborotlarni eshitib qabul qilish samarasi 15%, ko'rib qabul qilish esa – 25%ni tashkil etadi. Ta'lim jarayonida, ularni bir vaqtda ishtirok etishi natijasida ma'lumotlarni qabul qilish samaradorligi 65 % gacha ortadi.

Ko'rgazmalilikdan o'quv jarayoni barcha bosqichlarida foydalanish mumkin: yangi materialni o'zlashtirish, uni mustahkamlash, mashqlarni tashkil qilish hamda o'quvchilarning dastur materiallarini o'zlashtirishlarini tekshirish va baholashda.

Ta'limning o'quvchilarga mos bo'lish tamoyili deganda o'quv materiallarining mazmuni uning hajmi, xarakteri, u yoki bu sinf o'quvchilarining jismoniy rivojiga, umumiy tayyorgarligiga – saviyasi va imkoniyatlariga loyiq bo'lishi tushuniladi.

Yoshiga muvofiq yondashish o'quvchilarning psixik xususiyatlari, shaxsiy rivojlanganlik darajasi, ma'naviy-axloqiy sifatleri, ijtimoiy yetukligini baholay

olishni nazarda tutadi. Agarda qo‘yilayotgan talablar yoki ta‘limning tashkiliy tuzilishi o‘quvchilarning yoshi imkoniyatlaridan ortda qolsa yoki ilgari ketse, o‘quv faoliyatining samarasi pasayadi. Individual yondashish o‘quvchilarning murakkab ichki dunyosini o‘rganish, yuzaga kelgan munosabatlar tizimini tahlil qilish va shaxs shakllanishi sodir bo‘ladigan ko‘p turdagi sharoitlarni aniqlashni talab etadi.

Ta‘lim tamoyillari o‘qitish asosidagi ta‘lim va uni tashkil etish jarayonini tashkil etish mazmuni, shakl, metod va vositalar tanlanishini belgilaydigan boshlang‘ich asoslardir

Ta‘lim jarayonida quyidagi tamoyillar ustuvor xarakter kasb etadi: ijtimoiy-g‘oyaviylik; onglilik va faollik; ilmiylik va tushunarliklik; ko‘rgazmalilik; mustahkamlik; tarbiyalovchi xarakterga egalik; fundamentallik va amaliy yo‘nalganlik (ta‘limning hayot bilan, nazariyaning amaliyot bilan bog‘liqligi); tabiat bilan uyg‘unlik; madaniy taraqqiyot bilan uyg‘unlik; ta‘limning o‘quvchilar yoshi va individual xususiyatlariga mos kelishi; insonparvarlik; oqilona talabchanlik bilan bola shaxsini hurmat qilishning muvofiqliligi; pedagogik hamkorlik.



Nazorat uchun savollar:

1. Yaxlit pedagogik jarayon tushunchasini tavsiflab bering.
2. Didaktikaning predmeti va ob‘ekti nimalardan iborat?
3. Pedagogikaning asosiy kategoriyalarini sanab bering?
4. Qanday ta‘lim paradigmalari bor?
5. Ta‘lim qonuniyatlari va tamoyillarini izohlab bering?



Asosiy adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni. // Harakatlar strategiyasi asosida jadal taraqqiyot va yangilanish sari. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2017. – 92 b.

2. O‘zbekiston Respublikasining “Ta‘lim to‘g‘risida”gi Qonuni // O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1997 y., 9-son, 225-modda; 2013 y., 41-son, 543-modda.

3. O‘zbekiston Respublikasining “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi to‘g‘risida”gi Qonuni // O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1997 y., 11-12-son, 150-modda; 2013 y., 41-son, 543-modda. Xodjayev B.X. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. Darslik – T.: SANO-STANDART, 2017.

4. Xodjayev B.X., Choriyev A., Saliyeva Z.T. Pedagogik tadqiqotlar metodologiyasi. Darslik. – T.: IQTISODIYOT DUNYOSI, 2018.

5. Mutalipova M.J., Xodjayev B.X. Qiyosiy pedagogika. Darslik. – T.: TDPU, 2015.
- Pedagogika / Nopedagogik oliy ta’lim muassasalari uchun darslik. U.Inoyatov, N.Muslimov, D.Ro’zieva, M.Usmonboeva. – T.: TDPU, 2013.
6. Yuzlikayeva E., Axmedova M., Qurbonova G., Sh.Tashmetova. Umumiy pedagogika. Darslik.– T.: TDPU, 2012.
7. Pedagogika. // M.Toxtaxodjaevaning umumiy tahriri ostida.Darslik. – T.: O`zbekiston Faylasuflari Milliy jamiyati, 2010.
8. Hoshimov K., Nishonova S., Inomova M., Hasanov R. Pedagogika tarixi. – T.: O`qituvchi, 1996.
9. Hashimov K., Nishonova S. Pedagogika tarixi. – T.: O`zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2005.
10. Alex Moore. Teaching and Learning: Pedagogy, Curriculum and Culture. USA, 2012 Routledge.
11. Neil Selwyn. Education and Technology: Key Issues and Debates. Australia, 2011 Continuum.
12. Heather Fry, Steve Ketteridge, Stephanie Marshall. A Handbook for Teaching and Learning in Higher Education.USA, 2009 Routledge.



Qo‘shimcha adabiyotlar:

1. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. –T.:O‘zbekiston, 2017.
2. 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini “Xalq bilan muloqot va inson manfaatlarini yili” da amalga oshirishga oid Davlat dasturini o‘rganish bo‘yicha ilmiy-uslubiy risola. – Toshkent: Ma’naviyat, 2017. -26B.
3. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo‘shma majlisidagi nutq /Sh.M. Mirziyoev. - Toshkent: “O‘zbekiston”, 2016.-56 b.
4. Mirziyoev Sh.M. Qonun ustuvorligi va manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. Toshkent. O‘zbekiston nashriyoti, 2017.
5. Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. Toshkent. O‘zbekiston nashriyoti, 2017.
11. XasanboevJ, To‘rakulovX., XaydarovM., HasanboevaO. Pedagogikafanidanizohlilug‘at. – T.: Fanvatexnologiya, 2008.
12. Niyozov G`, Axmedova M. Pedagogika tarixidan seminar mashg`ulotlari. – T.: NOSHIR, 2011.



REJA:

1. Ta'lim mazmuni.
2. Ta'lim mazmuni aks etuvchi me'yoriy hujjatlar.
3. Davlat ta'lim standarti.

Tayanch tushunchalar: ta'lim mazmuni, kompetensiya, Davlat ta'lim standarti, o'quv reja, o'quv dasturi, malaka talablari, o'quvmetodik majmua.

Ta'lim mazmuni tushunchasi. Ta'lim mazmuni deganda o'quvchilarning egallashi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarning aniq belgilangan hajmi va ko'lami tushiniladi.

Ta'lim mazmuni takomillashib borish tavsifiga ega bo'lib, uni aniqlovchi asosiy omillarga quyidagilarni kiritish mumkin: 1) jamiyatda fan, texnika va madaniyatning rivojlanganlik darajasi; 2) jamiyat tomonidan qo'yiladigan ijtimoiy buyurtma; 3) ta'limning maqsad va vazifalari; 4) innovatsion rivojlanish darajasi; 5) axborotlarning hajmi va ko'lami; 6) o'quvchilarning yosh xususiyatlari. Zamonaviy sharoitda fan va texnika rivoji ta'lim va uning natijalariga qo'yiladigan talablarni tubdan o'zgartirishni talab etmoqda va ana shu asosdan kelib chiqqan holda ta'lim mazmunini modernizatsiyalashni davrning o'zi pedagoglarning oldiga muhim vazifa qilib qo'ymoqda. Hozirgi vaqtgacha ta'lim mazmunini loyihalash tizimli-faoliyatli yondashuvga asoslangan bo'lsa, umumiy o'rta ta'lim maktablarining maqsadini o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirish tarzidan o'z-o'zini rivojlantirishga qaratilgan kompetensiyalarni kompetentli-faoliyatli yondashuvga asoslanishdan kelib chiqqan holda belgilash talab etilmoqda. Chunki umumiy o'rta ta'lim maktablarida tashkil etilayotgan o'quv-tarbiya jarayonining mohiyati o'quvchilarning ta'lim mazmuni tarkibida quyidagilar aks etadi: olam va inson haqidagi bilimlar; faoliyatni amalga oshirish usullari; ijodiy faoliyat tajribasi; atrof-muhitga emotsional-faoliyat tajribasi. Ehtiyojlari va qobiliyatlarini rivojlantirish emas, balki o'quv fanlari bo'yicha asosan bilimlarni axborot-verbal tarzda yetkazish, ko'nikma va malakalarni shakllantirishdan iborat bo'lib qolmoqda. Bunday reproduktiv tarzda o'zlashtirilgan ma'lumotlar o'quvchining amaliy faoliyat tajribasini rivojlantirishga yetarlicha imkon bermaydi. Oqibatda o'quvchilarda juda ko'p axborotlarning behuda jamg'arilayotganligi, ta'limning samarasi past bo'lishi va uning real voqelikka mos kelmasligi kabi tafovutlar ko'zga tashlanmoqda. Aniqrog'i, o'quvchi real hayotdan uzoqlashib qolgandek, uning oldiga faqat ilgaridan to'plangan axborotlarnigina o'zlashtirish maqsadi qo'yilgandek tuyuladi.

Ta'limning maqsadini bunday tarzda belgilash o'quvchining faolligini cheklab qo'yadi, oqibatda uning ham shaxsiy, ham ijtimoiy jihatdan anglangan ma'nosi yo'qoladi. Bunday muammoli vaziyatdan chiqishning yagona yo'li umumiy o'rta ta'limda yangicha, ya'ni kompetent yondashuvni joriy etishdir. Albatta, umumiy o'rta ta'lim tizimiga kompetent yondashuvni joriy etish, eng avvalo, uni ilmiy jihatdan har tomonlama chuqur o'rganishni taqozo etadi. Garchi umumiy o'rta ta'lim uchun kompetent yondashuvni fenomen sifatida talqin etish mumkin bo'lsada, u pedagogika fanida chuqur anglab yetilganligi va o'z o'rniga ega ekanligini alohida ta'kidlab o'tish lozim. Ayniqsa, so'nggi vaqtlarda ta'limga doir muammolarni tahlil etishda «kompetensiya», «kompetentlik», «tayanch kompetensiyalar» kabi atamalardan keng foydaniqlanilmoqda. Pedagogik hamjamiyatda kompetensiya va kompetentlik, ulardan qaysi biri tanyach (universal) hisoblanishi, ularni shakllantirish va baholash usullarini aniqlash jarayoni jadallik bilan bormoqda, mazkur tushunchalarni aniqlashtirish bo'yicha qizg'in munozaralar davom etmoqda. Kompetent yondashuv o'quvchidan alohida-alohida bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirishni emas, balki ularni yaxlitlikda egallashni talab etadi. Mazkur talab bilan bog'liqlikda o'z navbatida o'qitish metodlarini tanlash tizimi ham o'zgarishga uchraydi. O'qitish metodlarini tanlash va amaliyotda qo'llash o'z navbatida ta'lim jarayonida qo'yiladigan talablarga muvofiq keladigan kompetensiya va funktsiyalarni takomillashtirishni talab etadi.

Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, kompetent yondashuv umumiy o'rta ta'limni modernizatsiyalash nuqtai nazaridan yangi pedagogik voqelik hisoblanadi. Mazkur yondashuv doirasida amaliy faoliyat tajribasi, kompetensiya va kompetentlikni didaktik birliklar sifatida ko'rib chiqish hamda ta'limning an'anaviy uch elementi (triada) – «Bilim – Ko'nikma – Malaka»ni oltita birlik (sikstet) – «Bilim – Ko'nikma – Malaka – Amaliy faoliyat tajribasi – Kompetensiya – Kompetentlik» tarzida tahlil etilishi talab etiladi.

Umumiy o'rta ta'limda kompetent yondashuvni tatbiq etish haqida gap ketganda, kasbiy ta'limdan farqli ravishda «umumta'limiy kompetensiya» tushunchasini ta'lim amaliyotiga tatbiq etish maqsadga muvofiqdir. Chunki umumta'lim maktabi o'quvchisi hali ma'lum bir kompetensiyani o'zida to'liq aks ettira olmasa ham, uning ayrim komponentlarini amalga oshirishga qodirdir. Umumta'limiy kompetensiya shaxsiy va ijtimoiy ahamiyatli produktiv faoliyatni amalga oshirish zarur bo'lgan real voqelikning aniq belgilangan ob'yektlariga munosabatini taqozo etuvchi o'quvchining semantik (ma'no-mazmun) yo'nalganligi, bilim, ko'nikma va malakalari hamda faoliyat tajribalari majmuida aks etuvchi ta'limiy tayyorgarlikka qo'yiladigan talabdir. O'quvchi uchun kompetensiya – bu uning kelajak obrazi, o'zlashtirish uchun aniq mo'ljal (orientir). Biroq maktab ta'limi davrida o'quvchida «yuksak» kompetensiyalarning ayrim elementlari shakllanadi, nafaqat u kelgusi faoliyatga tayyorgarlik, balki hozirgi bosqichda muvaffaqiyatli ijtimoiylashuv uchun mazkur kompetensiyalarni umumta'limiy nuqtai nazardan o'zlashtiradi.

Kompetentsiyaviy yondashuvda ta'limning an'anaviy uch elementi (triada) – «Bilim – Ko'nikma – Malaka»ni oltita birlik (sikstet) – «Bilim – Ko'nikma – Malaka – Amaliy faoliyat tajribasi – Kompetensiya – Kompetentlik» tarzida tahlil etish talab etiladi.

Umumta'limiy kompetensiyalar maktabda o'qitiladigan fanlarni o'zlashtirishga yo'naltirilgan faoliyatning tarkibiy qismi sifatida qaralishi hamda uning maqsadini to'liq ro'yobga chiqarishni ta'minlay olishini e'tirof etish maqsadga muvofiqdir. Yana shuni alohida ta'kidlab o'tish joizki, maktab ta'limi davrida o'quvchi eng asosiy – fuqarolik kompetensiyasini o'zlashtiradi va ta'limning keyingi bosqichlarida ham mazkur kompetensiyaning yetakchilik roli saqlanib qolishi zarur. Ta'lim mazmunini loyihalash tamoyillari va mezonlari. Ta'lim mazmunini loyihalash quyidagi umumiy tamoyillarga muvofiq amalga oshiriladi: Ta'lim mazmunining barcha elementlarining jamiyat, fan, madaniyat va shaxs rivojlanishi talablariga mos bo'lishi tamoyili. Bu tamoyil ta'lim mazmuniga an'anaviy bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar bilan birga jamiyatning rivojlanganligi, ilmiy bilim, madaniy hayot darajasi va shaxsning rivojlanish imkoniyatlarini aks ettiruvchi fanlarni kiritishni talab etadi. Ta'lim mazmunining tashkiliy-jarayon bilan aloqadorlik tamoyili. Bu tamoyil ta'lim mazmunini tanlashda bir tomonlama yondashishni rad etadi. U aniq bir o'quv jarayonini amalga oshirish bilan bog'liq tashkiliy shart-sharoitni hisobga olishni ko'zda tutadi. Bu umumiy o'rta ta'lim mazmunini loyihalashtirish jarayonida taqdim etish va o'zlashtirish tamoyillari, texnologiyasi, darajasi va u bilan bog'liq xatti-harakatlarni hisobga olish kerakligini anglatadi. Ta'lim mazmunining yaxlit strukturaga aloqadorlik tamoyili. Bu tamoyil ta'lim tizimining turli bosqichlarida nazariy bilimlarning berilishi, o'quv fani, o'quv material, pedagogik faoliyat, o'quvchi shaxsi kabi komponentlarining o'zaro mosligini ko'zda tutadi. Ta'lim mazmunini insonparvarlashtirish tamoyili. Bu tamoyil birinchi navbatda o'quvchilarning umuminsoniy va milliy madaniyatni faol ijodiy va amaliy o'zlashtirishlari uchun shartsharoitlar yaratish bilan bog'liqdir. Buning uchun insonparvar g'oyalar umumiy ta'lim mazmuniga singdirilishi kerak. Bu esa o'z navbatida ijtimoiy-gumanitar va tabiiy-ilmiy fanlarning o'zaro bog'liqligi va o'zaro munosabatlari tamoyilining o'zgartirilishini talab etadi, uning asosini shaxsga yo'nalganlik tashkil etishi zarur. Ta'lim mazmunini fundamallashtirish tamoyili ta'limni insonparvarlashtirishdagi to'siqlarni yo'qotishga imkon beradi. U ijtimoiy-gumanitar va tabiiy-ilmiy bilimlarni birlashtirish, ketmaketlikni o'rnatish va fanlararo aloqalarni o'quvchilarning idrok etishi va amaliy faoliyat metodologiyasining mohiyatini anglab yetishlariga tayanishni talab etadi. Ta'lim mazmunining ketma-ketligi tamoyili. Mazkur tamoyil ta'lim mazmunini o'sib boruvchi yo'nalishda rejalashtirishdan iborat bo'lishini anglatadi, bunda birinchi navbatda har bir yangi bilim avvalgisiga tayanadi va undan kelib chiqadi. Ta'limning mazmuni muntazamligi tamoyili. Ushbu tamoyil o'rganilayotgan bilimlar va shakllantirilayotgan malakalar va kompetensiyalarni yagona tizimdagi o'rni, umumiy o'rta ta'lim, barcha o'quv kurslari va yaxlit mazmunning bir-biriga

hamda umuminsoniy, milliy madaniyat tizimi aloqadorlikda ko'rib chiqishni ko'zda tutadi. Ta'lim mazmunining o'quvchilar yosh xususiyatlariga mosligi tamoyili. Mazkur tamoyil ta'lim mazmunini loyihalashda o'quvchilarning yosh xususiyatlari va tayyorgarlik darajasini hisobga olishni ko'zda tutadi. Ma'lum bir yosh davriga mos bilim, ko'nikma, malaka va kompetentsiyalar tizimi ta'lim mazmunida aks ettiriladi. Ta'lim mazmunini loyihalashtirishda quyidagi mezonlarga asoslaniladi: ta'lim mazmunini mustaqil fikr yuritish va axborot iste'moli madaniyatini shakllantirish ehtiyojiga muvofiq loyihalashtirish; ta'lim mazmunining aniq ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etishi; ta'lim mazmunining murakkablik darajasini hisobga olish, o'quvchilar imkoniyatlarining mavjud o'quv dasturlariga mosligi; ta'lim hajmining uni o'rganishga ajratiladigan vaqtga mosligi; ta'lim muassasalari moddiy-texnik bazasining zamonaviy talablarga javob berishi; ta'lim mazmunini loyihalashda ilg'or xorijiy tajribalarni hisobga olish.

Ta'lim mazmunini belgilovchi me'yoriy hujjatlar. Ta'lim mazmunini belgilab beruvchi eng asosiy me'yoriy hujjat Davlat ta'lim standartidir. O'quv reja, o'quv dasturi, malaka talablari umimg tarkibiy qismiga kiradi. «Standart» ingliz tilidan tarjima qilinganda «me'yor», «namuna», «andoza», «model» ma'nolarini anglatadi. Standart yordamida, respublika miqyosidagi turli ta'lim muassasalarida ta'limning barqarorlik darajasini ta'minlashga erishiladi, o'quv ishlari normativlari moslashtiriladi, o'quvchilarning bilimlarini baholash mezonlari ishlab chiqiladi.

Davlat ta'lim standartining vazifalari quyidagilardan iborat: umumiy o'rta ta'lim mazmuni va sifatiga qo'yiladigan talablarni belgilash; milliy, umuminsoniy va ma'naviy qadriyatlar asosida o'quvchilarni tarbiyalashning samarali shakllari va usullarini joriy etish; o'quv-tarbiya jarayoniga pedagogik va zamonaviy axborotkommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish, umumiy o'rta ta'lim muassasalarining o'quvchilari va bitiruvchilarining malakasiga qo'yiladigan talablarni belgilash; kadrlarni maqsadli va sifatli tayyorlash uchun ta'lim, fan va ishlab chiqarishning samarali integratsiyasini ta'minlash; ta'lim va uning pirovard natijalari, o'quvchilarning malaka talablarini egallaganlik darajasini tizimli baholash tartibini, shuningdek ta'lim-tarbiya faoliyati sifatini nazorat qilishning huquqiy asoslarini takomillashtirish;

Davlat ta'lim standartining maqsadi – umumiy o'rta ta'lim tizimini mamlakatda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, rivojlangan xorijiy mamlakatlarning ilg'or tajribalari hamda ilm-fan va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan holda tashkil etish, ma'naviy barkamol va intellektual rivojlangan shaxsni tarbiyalashdan iborat. Davlat ta'lim standartlari talablarining ta'lim sifati va kadrlar tayyorlashga qo'yiladigan xalqaro talablarga muvofiqligini ta'minlash. Davlat ta'lim standarti quyidagi asosiy prinsiplarga asoslanadi: o'quvchi shaxsi, uning intilishlari, qobiliyati va qiziqishlari ustuvorligi; umumiy o'rta ta'lim mazmunining insonparvarligi; davlat ta'lim standartining ta'lim sohasidagi davlat va jamiyat talablariga, shaxs ehtiyojiga mosligi; umumiy o'rta ta'limning boshqa ta'lim turlari va bosqichlari bilan uzluksizligi va ta'lim mazmunining uzviyligi; umumiy o'rta ta'lim

mazmunining respublikadagi barcha hududlarda birligi va yaxlitligi; umumiy o'rta ta'limning mazmuni, shakli, vositalari va usullarini tanlashda innovatsiya texnologiyalariga asoslanilganligi; o'quvchilarda fanlarni o'rganish va ta'lim olishni davom ettirish uchun tayanch va fanlarga oid umumiy kompetensiyalarni rivojlantirishning ta'minlanganligi; rivojlangan xorijiy mamlakatlarning ta'lim sohasida me'yorlarni belgilash tajribasidan milliy xususiyatlarni hisobga olgan holda foydalanish. Davlat ta'lim standarti quyidagi tarkibiy qismlardan iborat: umumiy o'rta ta'limning tayanch o'quv rejasi; umumiy o'rta ta'limning o'quv dasturi; umumiy o'rta ta'limning malaka talablari; baholash tizimi. Umumiy o'rta ta'limning tayanch o'quv rejasi umumiy o'rta ta'lim muassasalarida o'qitiladigan o'quv fanlari nomi, o'quv yuklamasining minimal hajmi hamda ularning sinflar bo'yicha taqsimoti belgilangan hujjat hisoblanadi.

Tayanch o'quv reja umumta'lim fanlari bo'yicha belgilangan ta'lim mazmunini o'quvchiga yetkazish uchun ajratilgan o'quv tayanch o'quv reja umumiy o'rta ta'lim muassasalarining dars jadvalini ishlab chiqish uchun asos hisoblanadi. soatlari (davlat ixtiyoridagi va maktab ixtiyoridagi soatlar)ning minimal hajmini belgilaydi. Pedagog kadrlar salohiyati hamda moddiy-texnika bazasi etarli bo'lgan umumiy o'rta ta'lim muassasalarida Qoraqalpog'iston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, Toshkent shahar xalq ta'limi bosh boshqarmasi va viloyatlar xalq ta'limi boshqarmalarining ruxsati bilan umumiy o'rta ta'lim muassasalarining pedagogik kengashlariga dars jadvalini tuzishda tayanch o'quv rejadagi umumiy soatlar hajmidan oshmagan holda, ma'lum bir fanlarni chuqurlashtirib o'qitish maqsadida 15%gacha o'zgartirish kiritish huquqi beriladi.

O'quv dasturi O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi tomonidan ishlab chiqiladi va tasdiqlanadi. Umumiy o'rta ta'limning malaka talablari umumta'lim fanlari bo'yicha ta'lim mazmunining majburiy minimumi va yakuniy maqsadlariga, o'quv yuklamalari hajmiga hamda ta'lim sifatiga qo'yiladigan talablardan iborat.

Baholash tizimi – davlat ta'lim standarti bo'yicha umumiy o'rta ta'limning malaka talablarini o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilishi

Umumiy o'rta ta'limning o'quv dasturi tayanch o'quv rejaga muvofiq o'quv fanlarining sinflar va mavzular bo'yicha hajmi, mazmuni, o'rganish ketma-ketligi va shakllantiriladigan kompetensiyalari belgilangan hujjat hisoblanadi.

Umumiy o'rta ta'limning malaka talablari quyidagilardan tashkil topadi: bilim – o'rganilgan ma'lumotlarni eslab qolish va qayta tushuntirib berish; ko'nikma – o'rganilgan bilimlarni tanish vaziyatlarda qo'llay olish; malaka – o'rganilgan bilim va shakllangan ko'nikmalarni notanish vaziyatlarda qo'llay olish va yangi bilimlar hosil qilish; kompetensiya — mavjud bilim, ko'nikma va malakalarni kundalik faoliyatda qo'llay olish qobiliyati.

Darslik – davlat ta'lim standartlariga muvofiq o'quv dasturi asosida didaktik, metodik, pedagogik-psixologik, estetik va gigienik talablarga javob beradigan, o'quv fanining mavzulari to'liq yoritilgan, uning asoslari mukammal o'zlashtirilishiga qaratilgan, o'quv fanining maqsad va vazifalaridan kelib chiqqan

holda ta'lim oluvchilarning yoshi va psixofiziologik xususiyatlarini hisobga olgan holda ishlab chiqiladigan, nazariy ma'lumotlardan tashqari amaliy-tajriba va sinov mashqlarini qamrab olgan kitob shaklidagi o'quv nashri. Darslik o'quvchilarning ta'lim jarayonida, ongli ravishda va faol ishtirok etishlari, o'quv materialini to'la o'zlashtirishlarini ta'minlashi kerak. Ana shu masalalarni hal etish yo'lida darsliklar quyidagi vazifalarni bajaradi: motivatsion vazifa - bu vazifa o'quvchilarni ushbu fanni o'rganishga yo'naltiradigan, ularda ishga pozitiv munosabati va qiziqishini shakllantiruvchi rag'bat (sabab)larni hosil qilishdan iborat; axborot vazifasi o'quvchilarga axborotlarni etkazish, samarali usullar yordamida ularning bilimlari hajmini kengaytirishga imkon beradi; nazorat-tuzatish (mashq qilish) vazifasi – ta'lim jarayoni, uning natijalarini tekshirish, o'quvchilarda o'zini baholash va tuzatish layoqati hamda zarur bo'lgan ko'nikma, malakalarni shakllantirish uchun o'rganish mashqlarini tavsiya etishni nazarda tutadi.

O'quv-metodik majmua – darslik, mashq daftari, o'qituvchi uchun metodik qo'llanma, darsliklarning multimediali ilovasidan iborat majmua hisoblanib, muvofiqlashtirish vazifasi material ustida ishlash jarayonida ta'limning boshqa vositalari (xaritalar, ko'rgazmali materiallar, diapozitiv va boshqalar)ni jalb etishni ifodalaydi; rivojlantiruvchi-tarbiyalovchi vazifasi darslik mazmunining o'quvchilarga ma'naviy-axloqiy ta'sir ko'rsatishi, kitoblar bilan ishlash jarayonida ulardan mehnatsevarlik, faol fikrlash, ijodiy qobiliyat kabi sifatlarni shakllantirishdan iborat; o'qitish vazifasi darslik bilan ishlashda mustaqil bilim olish uchun zarur bo'lgan konpekt yozish, umumlashtirish, asosiysini ajratib ko'rsatish, mantiqiy eslab qolish kabi malaka va ko'nikmalarni rivojlantirishga yordam berishida ko'zga tashlanadi. Mashq daftari – darslikning tarkibiy qismi hisoblanadigan, davlat ta'lim standartlariga muvofiq o'quvchilar tomonidan egallangan bilim va ko'nikmalarni mustahkamlash hamda o'quv fanining mavzulariga mos ravishda ishlab chiqilgan, mantiq va tafakkurni rivojlantirishga qaratilgan (krossvordlar, boshqotirmalar, mantiqiy fikrlashga undovchi topshiriqlar va hokazo) topshiriqlardan iborat bo'lgan didaktik vosita. O'qituvchi uchun metodik qo'llanma – darslikdagi har bir mavzuni samarali o'qitish metodikasi, qo'shimcha sinov topshiriqlari va o'qituvchining darsni qiziqarli tashkil etishiga oid boshqa metodik ko'rsatmalar berilgan, har bir darsning maqsadi, darsda foydalaniladigan vositalar va ulardan foydalanish usullari, darsning mazmuni, amaliy mashg'ulotlar, qo'shimcha topshiriqlar va boshqalar haqida metodik ko'rsatmalar aniq bayon qilingan kitob shaklidagi o'quv nashri. Darsliklarning multimediali ilovalari – axborotkommunikatsiya texnologiyalari yordamida o'quv faniga oid materiallarni davlat ta'lim standarti va o'quv dasturiga mos ravishda yoritilgan, o'quv fanini samarali o'zlashtirishga, o'quvchilarning mustaqil ta'lim olishiga ko'maklashuvchi hamda video, ovoz, animatsiya, jadval, matn va lug'atlarni o'z ichiga olgan, bilimlarni nazoratdan o'tkazish va mustahkamlashga yo'naltirilgan, o'quv fanining asosiy mazmunini boyitadigan qo'shimcha

materialga ega bo'lgan yoki shu kabi manbalarga murojaatlarni o'z ichiga olgan interaktiv elektron axborot-ta'lim resursi.



Nazorat uchun savollar:

1. Ta'lim mazmuni deb nimaga aytiladi?
2. Ta'lim mazmunini belgilashga doir qanday yondashuvlar mavjud?
3. Kompetensiyaviy yondashuv deganda nima tushiniladi?
4. Ta'lim mazmunini loyihalash tamoyillariga izoh bering.
5. Ta'lim mazmunini loyihalashda qanday mezonlarga asoslanish lozim?



Asosiy adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni. // Harakatlar strategiyasi asosida jadal taraqqiyot va yangilanish sari. – T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2017. – 92 b.
2. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1997 y., 9-son, 225-modda; 2013 y., 41-son, 543-modda.
3. O'zbekiston Respublikasining "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi to'g'risida"gi Qonuni // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1997 y., 11-12-son, 150-modda; 2013 y., 41-son, 543-modda.
Xodjayev B.X. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. Darslik – T.: SANO-STANDART, 2017.
4. Xodjayev B.X., Choriyev A., Saliyeva Z.T. Pedagogik tadqiqotlar metodologiyasi. Darslik. – T.: IQTISODIYOT DUNYOSI, 2018.
5. Mutalipova M.J., Xodjayev B.X. Qiyosiy pedagogika. Darslik. – T.: TDPU, 2015.
Pedagogika / Nopedagogik oliy ta'lim muassasalari uchun darslik. U.Inoyatov, N.Muslimov, D.Ro'zieva, M.Usmonboeva. – T.: TDPU, 2013.
6. Yuzlikayeva E., Axmedova M., Qurbonova G., Sh.Tashmetova. Umumiy pedagogika. Darslik.– T.: TDPU, 2012.
7. Pedagogika. // M.Toxtaxodjaevaning umumiy tahriri ostida. Darslik. – T.: O'zbekiston Faylasuflari Milliy jamiyati, 2010.
8. Hoshimov K., Nishonova S., Inomova M., Hasanov R. Pedagogika tarixi. – T.: O'qituvchi, 1996.
9. Hashimov K., Nishonova S. Pedagogika tarixi. – T.: O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2005.
10. Alex Moore. Teaching and Learning: Pedagogy, Curriculum and Culture. USA, 2012 Routledge.

11. Neil Selwyn. Education and Technology: Key Issues and Debates. Australia, 2011 Continuum.
12. Heather Fry, Steve Ketteridge, Stephanie Marshall. A Handbook for Teaching and Learning in Higher Education. USA, 2009 Routledge.



Qo‘shimcha adabiyotlar:

1. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. –T.:O‘zbekiston, 2017.
2. 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini “Xalq bilan muloqot va inson manfaatlarini yili” da amalga oshirishga oid Davlat dasturini o‘rganish bo‘yicha ilmiy-uslubiy risola. – Toshkent: Ma’naviyat, 2017. -26B.
3. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo‘shma majlisidagi nutq /Sh.M. Mirziyoev. - Toshkent: “O‘zbekiston”, 2016.-56 b.
4. Mirziyoev Sh.M. Qonun ustuvorligi va manfaatlarini ta‘minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. Toshkent. O‘zbekiston nashriyoti, 2017.
5. Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat‘iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. Toshkent. O‘zbekiston nashriyoti, 2017.
6. Xasanboev J., To‘rakulov X., Xaydarov M., Hasanboeva O. Pedagogikafanidanizohlilug‘at. – T.: Fanvatexnologiya, 2008.
7. Niyozov G., Axmedova M. Pedagogika tarixidan seminar mashg‘ulotlari. – T.: NOSHIR, 2011.



7-mavzu. TA‘LIM SHAKLLARI. DARS – TA‘LIMNING ASOSIY TASHKILY SHAKLI SIFATIDA.

REJA:

1. Ta‘limni tashkil etishning shakllari.
2. Dars- ta‘limning asosiy shakli. Darsning turlari va tuzilishi.
3. Ta‘limni tashkil etishning yordamchi shakllari.

Tayanch so‘zlar: tashkil etish, shakl, ta‘limni tashkil etish shakli, ta‘limni tashkil etish tizimi, dars, darsning turlari, ta‘limni tashkil etishning yordamchi shakllari.

Ta'limni tashkil etishning shakllari. Ta'limni tashkil etish shakli – bu o'qituvchi va o'quvchining belgilangan tartibda, muayyan maqsadga muvofiq ma'lum rejimda tashkil etiladigan o'quv-bilish faoliyatining tashqi ifodasidir. Jahon pedagogika fani va amaliyotida ta'limni tashkil etishning turli shakllari mavjud. Jamiyat rivojining har bir yangi bosqichi ta'limni tashkil etishga o'z ta'sirini o'tkazadi. Ayni vaqtda ta'limning quyidagi shakllari ajratib ko'rsatiladi: individual, individual-guruhli, sinf-dars, leksiya-seminar va sinfdan tashqari, auditoriyadan tashqari, maktabdan tashqari. Ular o'quvchilarni qamrab olishi, o'quvchilar faoliyatini tashkil etishi, jamoaviy va individual shakllarining nisbatlari, mustaqilligi darajasi va o'qish jarayoniga rahbarlik qilish xususiyatlari kabi belgilariga ko'ra quyidagi uch asosiy turga ajratiladi: individual; sinf-dars; ma'ruza-seminar. Qadim zamonlarda mavjud bo'lgan o'qitishning eng qadimgi shakli ta'limning individual shakli hisoblanadi. O'qishni tashkil etishning individual shakli antik davr va o'rta asrlarda yagona usul bo'lgan, undan ba'zi mamlakatlarda XVIII asrgacha keng foydalanilib kelingan. Afzalliklari Kamchiliklari 1) o'quv faoliyati mazmuni, metodi va sur'atini to'la individualashtirish imkoniyatining mavjudligi; 2) aniq bir masalani hal etishda ta'lim oluvchining har bir harakati va operatsiyalarini kuzatib borishga imkon berishi. 1) vaqtning tejamli emasligi; 2) o'qituvchi ta'sirining cheklanganligi (o'qituvchining vazifasi o'quvchiga topshiriq berish va uni bajarilishini tekshirishdan iborat); 3) boshqa o'quvchilar bilan hamkorlikda ishlash imkoniyati cheklanganligi (bu holat ijtimoiylashuv jarayoniga salbiy ta'sir ko'rsatadi); 4) jamoada ishlash tajribasining shakllanmasligi.

XVI asrdan boshlab individual o'qitish shaklining ahamiyati pasayib, uning o'rnini ta'limning individual-guruhli shakli egallashiga imkon berdi.

Ulardan biri bolalarning guruhli (jamoali) ta'limi sanaladi. U G'arbiy Rossiya (hozirgi Belorussiya va Ukrainaning g'arbiy qismlari) birodarlik maktablarida ilk bor qo'llanilgan va u sinfdars shaklining asosi bo'lib qolgan. Bu tizimlar XVII asrda Yan Amos Komenskiy tomonidan "Buyuk didaktika" asarida nazariy jihatdan asoslab berildi va ommaviylashtirildi. Olim pedagogikaga o'quv yili, o'quv kuni, dars, mashg'ulotlar orasidagi tanaffus, o'quv ta'tillari kabi tushunchalarni kiritdi. Sinf-dars tizimi garchi 350 yil avval asoslangan bo'lsada, bugungi kunda ham keng ko'lamda qo'llanilib kelinmoqda. Afzalliklari Kamchiliklari 1) yaxlit o'quv-tarbiyaviy jarayonning tartibli ketishini ta'minlovchi aniq tashkiliy tizim; 2) jarayonlarning oddiy boshqarilishi: muammoning jamoa bo'lib muhokama qilinishi, masalaning echimini birgalikda izlash jarayonida bolalar o'rtasida o'zaro munosabatlarning shakllanish imkoniyati; 3) o'qituvchining o'quvchilar va ularning tarbiyasiga doimiy emotsional ta'sir ko'rsatishi; 4) ta'limning emotsionalligi (zero, o'qituvchi bir vaqtning o'zida o'quvchi-larning katta guruhi bilan ish olib boradi), o'quv faoliyatiga musobaqalashish elementlarini kiritish uchun sharoitning yaratilishi; 5) bilimsizlikdan bilimlarni o'zlashtirish sari harakatlarning muntazamligi va ketma-ketligi. 1) tizimning asosan bilimlarni o'rtacha darajada o'zlashtiruvchi

o'quvchilar uchun mo'ljallanganligi; 2) bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchilar uchun qiyinchiliklarning yuzaga kelishi va kuchli o'zlashtiruvchi o'quvchilar qobiliyatlarining rivojlanish sur'atining ortga surilishi; 3) o'qituvchi uchun o'qitish mazmuni va o'qitish sur'atlari hamda metodlari bo'yicha individual ishlarni tashkil etish, shuningdek, o'quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olishda qiyinchilikning yuzaga kelishi; 4) katta va kichik yoshli o'quvchilar o'rtasidagi munosabatlarning qaror topmasligi.

XIX asr oxiri XX asr boshlarida, aqliy rivojlanishida farqi bo'lgan o'quvchilarni o'qitishda individuallashtirishga ahamiyat qaratish masalasi ayniqsa dolzarb xususiyat kasb etdi. Shunga mos ravishda tanlab o'qitish shakli yuzaga keldi (AQShda Batov, Yevropada Mangeym tizimi). Yevropa va AQShda, XX asr boshida o'quvchilarning individual, faol, mustaqil o'quv ishlarini ta'minlashga qaratilgan ko'plab ta'lim tizimlarining samaradorligi sinab ko'rilgan. 1905 yili Dalton shahrida (Massachusetts shtati) o'qituvchi Elena Park Xerst tomonidan birinchi bor qo'llanilgan ta'limning individuallashtirilgan tizimi ular orasida eng radikal hisoblangan. Bu tizim dalton-reja nomi bilan pedagogika va maktab tarixiga kirdi. U ba'zan laboratoriya yoki ustaxonalar tizimi deb ham ataydilar. Birinchi universitetlar paydo bo'lishi bilan ta'limning ma'ruzaseminar tizimi yuzaga kela boshlaydi. U yaratilgan paytdan beri hali deyarli hech bir katta o'zgarishlarga ega emas. Ma'ruza, seminar, amaliy va laboratoriya ishlari, konsultatsiya va tanlagan kasbi bo'yicha amaliyot hozirgacha leksiya-seminar tizim sifatida o'qishning asosiy shakllaridan biri bo'lib kelmoqda. Leksiyaseminar tizimi o'zining sof ko'rinishida oliy va oliy maktabdan keyingi ta'lim amaliyotida qo'llaniladi.

Dars – ta'lim tashkil etishning asosiy shakli. Dars bevosita o'qituvchi rahbarligida aniq belgilangan vaqt davomida muayyan o'quvchilar guruhi bilan olib boriladigan ta'lim jarayonining asosiy shakli sanaladi. Darsda har bir o'quvchi xususiyatlarini hisobga olish, barcha o'quvchilarning mashg'ulot jarayonida o'rganilayotgan fan asoslarini egallab olishlari, ularning idrok etish qobiliyatlari va ma'naviy-axloqiy sifatlarini tarbiyalash hamda rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratiladi. Dars ta'limning boshqa shakllaridan farq qiluvchi o'ziga xos belgilarga ega, chunonchi: o'quvchilarning doimiy guruhi, o'quvchilar faoliyatiga ularning har biri xususiyatlarini hisobga olish bilan rahbarlik qilish, o'rganilayotgan fan asoslarini bevosita darsda egallab olish (bu belgilari darsning faqat mazmunini emas, balki o'z xususiyatini ham aks ettiradi).

Darsning turlari va tuzilishi. Darsning quyidagi turlari mavjud:

- Aralash (kombinatsion dars).
- Yangi bilimlarni bayon qilish darsi.
- O'rganilganlarini takrorlash va mustahkamlash darsi.
- O'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini nazorat qilish darsi.
- Laboratoriya darslari.
- Amaliy darslar. Aralash darsning tuzilishi: a) tashkiliy qism; b) o'tilgan mavzuni takrorlash (uy vazifasini tekshirish); v) yangi mavzuni bayon

qilish; g) o'rganilgan materialni mustahkamlash; d) o'quvchilarni baholash; e) uy vazifasini berish. Yangi bilimlarni bayon qilish darsining tuzilishi: a) tashkiliy qism; b) yangi mavzuni bayon qilish; v) o'rganilgan materialni mustahkamlash; d) uy vazifasini berish. O'rganilganlarni takrorlash va mustahkamlash darsining tuzilishi: a) tashkiliy qism; b) o'rganilgan mavzularga doir savol-javob o'tkazish; v) o'rganilgan mavzularga doir amaliy topshiriqlarni bajarish; g) o'quvchilarni baholash. O'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini nazorat qilish darsining tuzilishi: a) tashkiliy qism; b) o'rganilganlarni umumiy tarzda takrorlash (yodga tushirish); v) nazorat ishini o'tkazish; g) uy vazifasi (o'rganilganlarni qayta takrorlash maqsadida). Laboratoriya darslarining tuzilishi: a) tashkiliy qism; b) nazariy materiallarni mustahkamlash; v) laboratoriya ishini o'tkazish; g) o'quvchilarni baholash; d) uy vazifasi.

- Amaliy darslarning tuzilishi: a) tashkiliy qism; b) nazariy materiallarni mustahkamlash; v) amaliy ish topshiriqlarini bajarish; g) o'quvchilarni baholash; d) uy vazifasi. Darsga qo'yiladigan talablar. Har bir dars quyidagi uchta asosiy maqsadga erishishga yo'naltiriladi: o'qitish, tarbiyalash, rivojlantirish. Ana shularni hisobga olib darsga umumiy talablar didaktik, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi talablarda aniq ifodalanadi.

Didaktik (yoki ta'lim)iy talablarga har bir darsning ta'lim vazifalarini aniq belgilash, darsni axborotlar bilan boyitish, ijtimoiy va shaxsiy ehtiyojlarni hisobga olish bilan mazmunini optimallashtirish, idrok etish eng yangi texnologiyalarini kiritish, turli xildagi shakli, metodlari va ko'rinishlaridan mos ravishda foydalanish, dars tuzilishini shakllantirishga ijodiy yondashish, jamoaviy faoliyat usullari bilan birga o'quvchilar mustaqil faoliyatlarini turli shakllaridan birga foydalanish, operativ qayta aloqani ta'minlash, amaliy nazorat va boshqaruvni amalga oshirish, ilmiy mo'ljal va darsni mahorat bilan o'tkazishni ta'minlash kabilar kiradi. Darsga nisbatan qo'yiladigan tarbiyaviy talablar o'quv materialining tarbiyaviy imkoniyatlarini aniqlash, darsdagi faoliyat, aniq erishilishi mumkin bo'lgan tarbiyaviy maqsadlarni shakllantirish va qo'yish, faqat o'quv ishlari maqsadlari va mazmunidan tabiiy ravishda kelib chiqadigan tarbiyaviy masalalarni belgilash, o'quvchilarni umuminsoniy qadriyatlarda tarbiyalash, hayotiy muhim sifatlar (tirishqoqlik, tartibliylik, mas'uliyatlilik, intizomlilik, mustaqillik, ish bajarishga qobiliyatlilik, e'tiborlilik, halollik va boshqalar)ni shakllantirish, o'quvchilarga diqqat-e'tiborli munosabatda bo'lib, pedagogik odob talablariga amal qilish, o'quvchilar bilan hamkorlik va ularning muvaffaqiyat qozonishlaridan manfaatdor bo'lishdan iborat.

Barcha darslarda doim amalga oshirilib boriladigan rivojlantiruvchi talablarga o'quvchilarda o'quv-o'rganish faoliyati ijobiy sifatleri, qiziqish, ijodiy tashabbuskorlik va faollik shakllantirish hamda rivojlantirish, o'quvchilarning idrok etish imkoniyatlari darajasini o'rganish, hisobga olish, "rivojlanishning yaqin zonasini loyihalashtirish", "o'zib ketish" darajasidagi o'quv mashg'ulotlarini tashkil etish, rivojlanishidagi yangi o'zgarishlarni rag'batlantirish, o'quvchilarning

intellektual, emotsional, ijtimoiy rivojlanishlaridagi «sakrash»larni oldindan ko'ra bilish, boshlanayotgan o'zgarishlarni hisobga olish asosida o'quv mashg'ulotlarini operativ qayta qurish kabilar kiradi. O'qituvchining darsga tayyorgarligi. O'qituvchining darsga tayyorgarligida quyidagi to'rtta bosqich ko'zga tashlanadi: tashxislash, bashoratlash, loyihalashtirish va rejalashtirish. Algoritmi amalga oshirish aniq sharoitlarni tashxislash bilan boshlanadi. Tashxis didaktik jarayon kechadigan barcha sharoitlarni oydinlashtirish, uning natijalarini belgilashdir. Unda o'quvchilarning imkoniyatlari, ularning faoliyatlari va xulqlari, motivlari, talab va layoqatlari, qiziqish va qobiliyatlari, bilimdonlik darajasi, o'quv materialining xususiyati, uning amaliy ahamiyati, dars tuzilishi, yangi axborotni o'zlashtirish, mustahkamlash va tizimlashtirish, bilim, ko'nikma va malakalarini nazorat qilish hamda tuzatish kabi holatlar namoyon bo'ladi. Bashoratlash bo'lajak darsni tashkil etilishining turli varianlarini baholash va ulardan qabul qilingan mezonlarga muvofiq eng ma'qulini tanlab olish. Loyihalashtirish va rejalashtirish o'quvchilarning o'quv faoliyatini boshqarish dasturini yaratish bo'lib, u darsga tayyorlanishning yakuniy bosqichi hisoblanadi. Loyiha (boshqarish dasturi) qisqa va aniq, erkin tuzilgan, pedagog o'zi uchun boshqarish jarayoni muhim vaziyatlari (kimdan va qachon so'rash, qayerda mavzuni kiritish, mashg'ulot keyingi bosqichiga qanday o'tish, oldindan ko'zda tutilmagan qiyinchiliklar yuzaga kelganida jarayonni qaysi sxema bo'yicha qayta o'zgartirish)ni belgilab olishga imkon beruvchi hujjatdir.

Hozirgi kunda o'quv jarayonini qiziqarli tashkil etish, unda foydalanilayotgan interfaol metod va pedagogik texnologiyalarning samarasi ta'lim oluvchilarning sinf xonasida qanday joylashib o'tirishlariga bogliq ekanligi ta'kidlanmoqda. Talabalarning bir-birlariga qarab, yuzlanib o'tirishlari xonada erkin harakat qilishlari, fikr bildirishlari, hamkorlikda ishlashlari uchun juda mos keladi. Shuningdek, ta'lim beruvchi uchun talabalarning diqqatini jamlash, ular bilan turli munozara, muzokaralar o'tkazishda bu usul juda qulay. Rasululloh sollalohu alayhi va sallamning sahobalari "halqa" shaklida joylashtirib ta'lim berishlari ham behikmat emas ekan, albatta¹³.

Ta'limni tashkil etishning yordamchi shakllari. Ta'limning yordamchi shakllari: to'garak, konferentsiya, maslahat (konsultatsiya), fakultativ mashg'ulot, o'quv ekskursiyalari, o'quvchilarning mustaqil uy ishlari va boshqalar sanaladi. Maktabdan tashqari mashg'ulotlarning asosiy va barqaror turlariga o'qish jarayonining tarkibiy qismi sifatida qaraladigan, o'quvchilarning mustaqil uy ishlari kiradi. Uning asosiy maqsadi – darsda o'zlashtirilgan bilim, ko'nikma va malakalarini kengaytirish, chuqurlashtirish, ularni esdan chiqarishning oldini olish, o'quvchilarning individual layoqati, iste'dod va qobiliyatini rivojlantirishdan iborat. Fan to'garaklari yo'nalishi, mazmuni, ish metodi, o'qish vaqti va boshqa jihatlari bilan ajralib turadi. Ular o'quvchilarning qiziqish va qobiliyatlarini

¹³ Qudratulloh qizi G., Ishmuhammedov R., Normuhammedova M. "An'anaviy va noan'anaviy ta'lim". – Samarqand. "Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi", 2019. 6-bet.

rivojlantirish, o'qishga ijobiy munosabatni shakllantirishga yordam beradi.. Ta'limning yordamchi shakllariga ekskursiyalar ham kiradi. Ular ommaviy, guruhli va kichik guruhli bo'lishi mumkin. O'quv ekskursiyalari alohida fanlar hamda bir qancha fanlar bo'yicha ham rejalashtiriladi. Ekskursiyani muvaffaqiyatli o'tkazish uchun o'qituvchi unga puxta tayyorlanishi: ob'ekt va mashrut bilan oldindan tanishib chiqishi, to'la rejani ishlab chiqishi, o'quvchilarni bo'lajak topshiriqlarni bajarishga jalb eta olishi kerak. O'quv rejasi turli fakultativ va tanlov bo'yicha kurslarni tashkil etishni ko'zda tutadi. Ular o'quvchilar, ularning ota-onalari istak va qiziqishlarini hisobga olish bilan bog'liqlikda ishlab chiqiladi. Fakultativ va tanlov fanlari ro'yxatini aniqlashda faqat o'quvchilar istaklari emas, balki ijtimoiy talablar va maktab imkoniyatidan kelib chiqiladi. Fakultativ va tanlovi bo'yicha mashg'ulotlar majburiy va umumiy o'rta ta'lim fanlari bilan uzviy bog'liqlikda o'tkazilishi kerak. Maslahat (konsultatsiya - o'quv suhbatiga) talablar ko'pincha o'quvchilarning ma'lum o'quv material yoki topshirig'i ustida mustaqil ishlashi sababli yuzaga keladi. Bunda ko'proq o'quvchi savol beradi. To'g'ri tashkil etilgan konsultatsiya o'quvchilarga o'quv materialini egallashda qiyinchiliklarni engishga yordam beradi. Konsultatsiya davomida o'qituvchi o'quvchilar faoliyatini u yoki bu masalani to'g'ri tushunishga mustaqil keladigan, ular uchun qiyin topshiriqni tushunib oladigan qilib, o'rganilayotgan materialni mohiyatini ochishga o'rganadigan qilib yo'naltiradi. Konsultatsiya o'qituvchiga o'quvchilar bilimlaridagi kamchiliklarni aniqlash, alohida e'tibor berishni talab etuvchi vaziyatlarga ularning diqqatini jalb etishga imkon beradi. To'g'ri tashkil etilgan konsultatsiya o'quvchilarda o'zini nazorat qilish, bilimlarga tanqidiy ko'z bilan qarashni tarbiyalaydi. O'qimishlilik darajasini to'g'ri aniqlashga yordam beradi.



Nazorat uchun savollar:

1. Hozirgi vaqtda ta'limni tashkil etishning qanday shakllari keng tarqalgan?
2. Ta'limni tashkil etishning individual tizimiga izoh bering.
3. Sinf-dars tizimining afzalligi va kamchiliklari nimalarda namoyon bo'ladi?
4. Ma'ruza-seminar tizimining o'ziga xosligini izohlang.
5. Dars deb nimaga aytiladi?



Asosiy adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni. // Harakatlar strategiyasi asosida jadal taraqqiyot va yangilanish sari. – T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2017. – 92 b.

2. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni // O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1997 y., 9-son, 225-modda; 2013 y., 41-son, 543-modda.
3. O‘zbekiston Respublikasining “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi to‘g‘risida”gi Qonuni // O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1997 y., 11-12-son, 150-modda; 2013 y., 41-son, 543-modda.
- Xodjayev B.X. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. Darslik – T.: SANO-STANDART, 2017.
4. Xodjayev B.X., Choriyev A., Saliyeva Z.T. Pedagogik tadqiqotlar metodologiyasi. Darslik. – T.: IQTISODIYOT DUNYOSI, 2018.
5. Mutalipova M.J., Xodjayev B.X. Qiyosiy pedagogika. Darslik. – T.: TDPU, 2015.
- Pedagogika / Nopedagogik oliy ta’lim muassasalari uchun darslik. U.Inoyatov, N.Muslimov, D.Ro‘zieva, M.Usmonboeva. – T.: TDPU, 2013.
6. Yuzlikayeva E., Axmedova M., Qurbonova G., Sh.Tashmetova. Umumiy pedagogika. Darslik.– T.: TDPU, 2012.
7. Pedagogika. // M.Toxtaxodjaevaning umumiy tahriri ostida. Darslik. – T.: O‘zbekiston Faylasuflari Milliy jamiyati, 2010.
8. Hoshimov K., Nishonova S., Inomova M., Hasanov R. Pedagogika tarixi. – T.: O‘qituvchi, 1996.
9. Hashimov K., Nishonova S. Pedagogika tarixi. – T.: O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2005.
10. Alex Moore. Teaching and Learning: Pedagogy, Curriculum and Culture. USA, 2012 Routledge.
11. Neil Selwyn. Education and Technology: Key Issues and Debates. Australia, 2011 Continuum.
12. Heather Fry, Steve Ketteridge, Stephanie Marshall. A Handbook for Teaching and Learning in Higher Education. USA, 2009 Routledge.



Qo‘shimcha adabiyotlar:

1. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. –T.:O‘zbekiston, 2017.
2. 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini “Xalq bilan muloqot va inson manfaatlarini yili” da amalga oshirishga oid Davlat dasturini o‘rganish bo‘yicha ilmiy-uslubiy risola. – Toshkent: Ma’naviyat, 2017. -26B.
3. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo‘shma majlisidagi nutq /Sh.M. Mirziyoev. - Toshkent: “O‘zbekiston”, 2016.-56 b.
4. Mirziyoev Sh.M. Qonun ustuvorligi va manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. Toshkent. O‘zbekiston nashriyoti, 2017.

5. Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. Toshkent. O'zbekiston nashriyoti, 2017.

6. XasanboevJ, To'raikulovX., XaydarovM., HasanboevaO. Pedagogikafanidanizohlilug'at. – T.: Fanvatexnologiya, 2008.

7. Niyozov G`, Axmedova M. Pedagogika tarixidan seminar mashg'ulotlari. – T.: NOSHIR, 2011.



8-mavzu: TA'LIM METODLARI VA VOSITALARI.

REJA:

1. Ta'lim metodi tushunchasi.
2. Ta'lim metodlarining mohiyati va mazmuni.
3. Ta'lim vositalari.

Tayanch tushunchalar: metod, ta'lim metodi, ta'lim usuli, qoida, intrefaol metod, metodika, texnologiya, didaktik vosita, ta'limning texnik vositalari. Metod, usul va texnologiya.

Ta'lim metodi tushunchasi anchagina murakkabdir. Shu bois pedagogikada uning tobora aniq talqini xususida munozara haligacha davom etmoqda. Biroq bu tushunchaga beriladigan didaktlarning turli ta'riflariga qaramay, ularning nuqtai nazarlarini yaqinlashtiradigan qandaydir umumiylikni ham ta'kidlash mumkin. Ko'pchilik mualliflar ta'lim metodini o'quvchilarning o'quv bilish faoliyatini tashkil etish usuli, deb hisoblashga moyildir. Shu qoidani boshlang'ich nuqta bilib, mazkur tushunchani yanada batafsil ko'rib chiqish va uning ilmiy ta'rifiga kelishga harakat qilamiz.

Metod so'zi yunoncha tadqiqot, maqsadga erishish yo'li, usuli deganidir. Metod – eng umumiy ma'noda – maqsadga erishish usuli, ma'lum tarzda tartibga solingan faoliyat. Ko'rinadiki, bu o'rinda ham o'qituvchining o'rgatuvchi ishi va u tashkil etgan o'quvchilarning faol o'quv-bilish faoliyati uyg'unlashadi.

Daktikada, shuningdek, ta'lim usullari atamasi ham keng qo'llanadi. Ta'lim usuli – ta'lim metodining tarkibiy qismi yoki alohida tomoni. Metodlar bilan usullar munosabati o'zaro bir-biriga bog'langan. Usul va metod butun va qism sifatida bir-biriga bog'lanadi. Usullar yordamida faqat pedagogik yoki o'quv vazifasining bir qismi hal qilinadi. Xuddi shu metodik usullar turli metodlarda foydalanilgan bo'lishi mumkin. Va aksincha, xuddi shu metod turli o'qituvchilar tomonidan turli usullarda ochib berilishi mumkin.

Masalan, o'qituvchilar tomonidan ko'p qo'llaniladigan mashq manbasiga ko'ra amaliy metod hisoblansa, uni qo'llash esa bir nechta usullar (mashqning qoidasini o'qib berish (1-usul), bittasini namuna sifatida bajarib ko'rsatish (2-usul), o'qituvchining namunasi asosida o'quvchilar tomonidan mashqning bajarilishi (3-

usul), o'quvchilar tomonidan bajarilgan mashqlarni tekshirish va xatolarini tuzatish (4-usul) va boshqalar) yordamida amalga oshiriladi. O'qituvchilarning ayrimlari esa, "metod" tushunchasining o'rniga "uslub" tushunchasini ham qo'llaydilar. Ta'lim metodlari deyilganda, o'rganilayotgan materialni egallashga qaratilgan turli didaktik vazifalarni hal etish bo'yicha o'qituvchining o'rgatuvchi ishi va o'quvchilarning o'quv-bilish faoliyatini tashkil etish usullari yig'indisi tushuniladi. Ta'lim usuli – o'qitish metodining tarkibiy qismi yoki alohida tomoni. Usul va metod butun va qism sifatida bir-biriga bog'lanadi. Usullar yordamida faqat o'quv vazifasining bir qismi hal qilinadi. "Metod" atamasining mohiyatini o'zida to'liq aks ettira olmaydi. Chunki uslub ko'proq xususiy (so'z borayotgan holatda aynan o'qituvchiga xoslikni ifoda etadi) tavsifga ega bo'lib, aniq maqsadga erishish yo'li sifatida xizmat qila olmaydi.

Ta'lim amaliyotida "pedagogik texnologiya" tushunchasi uch darajada qo'llaniladi: Umumpedagogik (makro) daraja. Mazkur darajaga muvofiq keladigan texnologiyalar yaxlit pedagogik jarayonga tegishli bo'lib, ularga muammoli, tabaqalashtirilgan, integratsion, shaxsga yo'naltirilgan, rivojlantiruvchi, modulli, masofali o'qitish texnologiyalarini misol sifatida keltirish mumkin. Mazkur texnologiyalar innovatsiya tavsifiga ega bo'lib, novator o'qituvchilar, olimlar va izlanuvchilar tomonidan ishlab chiqiladi hamda samaradorligi kafolatlanganidan va amaliyotga keng tatbiq etish imkoniyatiga ega bo'linganidan so'ng uni amaliyotchi o'qituvchilar o'z faoliyatida qo'llaydilar. Xususiy-metodik (mezo) daraja. Ushbu daraja o'zida ma'lum bir o'quv fanini o'qitish jarayonini loyihalash va rejalashtirishni o'zida aks ettiradi. Masalan, boshlang'ich sinf o'qituvchisi o'qish darsini har safar texnologik modeli va xaritasini tuzib kelishi kerak. Hozir ko'p ta'kidlanayotgan texnologik model loyihalashga, texnologik xarita rejalashtirishga to'g'ri keladi. Natijada har bir fanni o'qitish texnologiyasi yuzaga keladi. Lokal daraja (mikro). Mazkur darajaga tegishli texnologiyalar o'quv-tarbiya jarayonining ma'lum tarkibiy qismi, alohida shaxs sifatlarini shakllantirish, maxsus o'quv ko'nikma va malakalarini tarkib toptirishga xizmat qiladi. Masalan, o'quvchilarning mantiqiy fikrlashini shakllantirish texnologiyasi, o'quvchilarning aqliy qobiliyatini rivojlantirish texnologiyasi va boshqalar.

Pedagogik texnologiya – bu muayyan loyiha asosida tashkil etiladigan, aniq maqsadga yo'naltirilgan hamda ushbu maqsadning natijalanishini kafolatlovchi pedagogik faoliyat japyoni mazmunidir.

"Metodika" va "texnologiya" tushunchalarining bahs doirasi bilan ham bog'liqlikda ayrim farqli jihatlarni ajratib ko'rsatish mumkin. Jumladan, metodik tizim "Qanday o'qitish?", "Nima uchun o'qitish?", "Nimaga o'rgatish?" kabi savollarga javob izlaydi, texnologiya esa, "Qanday tarzda samarali o'qitishga erishish mumkin?" degan savolni markazga qo'yadi. Metodika o'quv jarayoninin qanday tarzda tashkil etish lozimligini nazarda tutsa, texnologiya qay yo'sinda o'quv jarayonini eng qulay, maqbul tarzda amalga oshirishga diqqat-e'tiborni qaratadi. Zamonaviy didaktikada ta'lim metodlari tasnifiga turlicha yondashuvlar. Didaktik tadqiqotlar ko'rsatadiki, ta'lim metodlari nomenklaturasi (nomlanishi) va

tasnifi ularni ishlab chiqishda tanlangan yondashuvga bog'liq holda juda xilma-xil ekanligi bilan xarakterli. Ulardan eng muhimlariga to'xtalamiz. Ta'lim metodlari tasnifi: An'anaviy (manbasiga ko'ra) ta'lim metodlari (E.I.Golant, N.M.Verzilin va bosh.)

Metodika – qat'iy ketma-ketlikka (algoritmik xarakterga), ilgari o'rnatilgan reja (qoida), tizimga aniq rioya qilish bo'lib, biror bir ishni maqsadga muvofiq o'tkazish metodlari, yo'llari majmuasi. “Metodika” tushunchasi turli fanlarni o'qitish bilan ham bog'liqlikda qo'llanilib, ma'lum sohani o'qitish jarayoni, mazmuni, qonuniyatlari, tamoyillari, shakl, metod va vositalari yig'indisini o'zida ifoda etadi.

Ta'lim metodlarining mohiyati va mazmuni. Hikoya – o'qituvchi tomonidan mavzuga oid dalil, hodisa va voqealarning yaxlit yoki qismlarga bo'lib, tasviriy vositalar yordamida obrazli tasvirlash yo'li bilan ixcham, qisqa va izchil bayon qilinishi. Metodning samarasi ko'p jihatdan o'qituvchining nuqt mahorati, so'zlarni o'z o'rnida, ifodali bayon qilishi, shuningdek, o'quvchilarning yoshi, rivojlanish darajasini inobatga olgan holda yondashuviga bog'liq. Shu bois hikoya mazmuni o'quvchilarning mavjud bilimlariga tayanishi, ularni kengaytirishga xizmat qilishi zarur. Hikoyaning axborotlar bilan boyitilishi maqsadga muvofiqdir. Hikoya qilinayotgan materialni samaralash maxsus reja asosida amalga oshiriladi. O'qituvchi har bir darsda uning maqsadini aniq belgilab oladi, undagi asosiy tushunchalarga alohida urg'u berishga e'tiborni qaratadi. Suhbat – savol va javob shaklidagi dialogik ta'lim metodi bo'lib, u fanga qadimdan ma'lum, xatto undan o'z faoliyatida Suqrot ham mohirona foydalangan. Suhbat ta'lim jarayonida ko'p funktsiyalar (aqliy fikrlash, hozirjavoblik, muloqot madaniyati va boshqa sifatlarni shakllantiradi) bajaradi, ammo asosiysi o'quvchida faollikni yuzaga keltiradi. Suhbat o'qituvchi fikriga mos harakat qilish, natijada yangi bilimlarni bosqichma-bosqich egallashga imkon beradi. Suhbat – faoliyatni endigina boshlagan o'qituvchi uchun murakkab ta'lim metodi hisoblanadi, binobarin, savollarni tayyorlash, ularning ketma-ketligini ta'minlash ko'p vaqt talab etadi, uni tashkil etishda esa barcha o'quvchilarning diqqatini jalb etish talab qilinadi. O'qituvchi oddiy savollar berishi, o'quvchilarga ular yuzasidan batafsil o'ylash uchun vaqt ajratishi, o'quvchilarning javoblarini esa diqqat bilan tinglashi, zarur o'rinlarda ularni sharhlashi lozim. Shu bois suhbatda bilish deduktiv yoki induktiv yo'l bilan amalga oshadi. Deduktiv suhbat o'quvchilarga oldindan ma'lum bo'lgan qoidalar, tushunchalar, hodisalar, jarayonlar asosida tashkil etilib, o'quvchilar tahlil yordamida xususiy xulosalarga keladilar. Suhbatning induktiv shaklida alohida dalillar, tushunchalarning tahlil asosida umumiy xulosaga kelinadi.

Abdulloh ibn Umar roziyallohu anhumo aytadi: “Nabiy sollallohu alayhi va sallam huzurlarida o'tirgan edik. U zot alayhissalomga xurmo yog'i olib kelishdi. Rasululloh sollallohu alayhi va sallam undan yedilar va: “Albatta, bir yashil daraxt bor, u musulmon barakoti (foydasi, yaxshiligi) kabi barakotlidir. Uning bargi to'kilmaydi. (Vaqt o'tishi bilan yemirilmaydi.) Har vaqt Rabbisining izni bilan meva beradi. Albatta, u musulmonlarga o'xshaydi. Menga ayting-chi, u nima?” –

deb so‘radilar. Sahobalarning xayoliga “bavodiy” daraxti keldi. Qavm bu daraxt, bu daraxt deb gapirdi. Men, albatta, bu xurmo deb o‘yladim. Agar yoshim katta bo‘lganida aytgan bo‘lar edim. Men gapirish uchun yaqinroq bordim. Lekin hali yosh bola edim. So‘ng burilib qaradim, men qavm ichida eng kichigi, ular ichida o‘ninchi edim. Abu Bakr va Umarga qaradim. Ular gapirmayotgan edi va men ham gapirmadim. Ikkovlari ham gapirishmagach, odamlar: “Yo Rasululloh, u nima, bizga ayting”, - deyishdi. Rasululloh sollallohu alayhi va sallam: “U xurmodir”, - dedilar. Turganimizdan keyin otam (Umar)ga: “Allohga qasamki, ota, men uning xurmo ekanini bilardim”, - dedim. Umar roziyallohu anhu: “Seni gapirishdan nima to‘sdi?” – dedi. Men: “Sizlar gapirmayotganingizni ko‘rdim. Abu Bakr ham, siz ham gapirmadingiz va men yosh bolaman. Hayo qilganim sababidan biror gap aytishni istamadim va jim turdim”, - dedim. Umar roziyallohu anhu: “Agar sen gapirganingda menga bu, bu narsalardan ham mahbubroq bo‘lar edi”, - dedi” (Imom Buxoriy rivoyati). Mazkur hadisda Nabiy sollallohu alayhi va sallam ta‘lim berish jarayonida qo‘llagan usullari sahobalar tomonidan bildirilgan erkin fikr va mulohazalarni to‘plab, ular orqali ma‘lum bir yechimga kelinadigan eng samarali usul hisoblanadi. Aynan mana shu kabi usul 1941 yili amerikalik Aleks Osborn tomonidan o‘ylab topilgan bo‘lib, u “Aqli hujum” metodi deb nomlanadi. Aqliy hujum metodidan foydalanilganda talabalarning barchasini jalb etish imkoniyati bo‘ladi, shu jumladan, o‘quvchilarda muloqot qilish va munozara olib boorish madaniyati shakllanadi. Metod samarasi fikrlar xilma-xilligi bilan tavsiflanadi va hujum davomida ular tanqid qilinmaydi, qaytadan ifodalanmaydi. Bildirilgan fikrlar baholanmasligi talabalarda turli g‘oyalar shakllanishiga olib keladi. Bu metod talabalarda ijodiy tafakkurni rivojlantirish uchun xizmat qiladi. Aqliy hujum tugagach, muhimlik jihatiga ko‘ra eng yaxshi takliflar generatsiyalanadi (qayta ishlanadi) va muammoni yechish uchun zarurlari tanlanadi. Ko‘rib turganimizdek, Rasululloh sollallohu alayhi va sallamning bundan 14 asr oldin qo‘llagan usullari bilan Aleks Osborn taklif qilgan “Aqliy hujum” metodi juda o‘xshash¹⁴.

Suhbat ko‘proq o‘quvchilarni yangi bilimlar bilan tanishtirish, bilimlarni tizimlashtirish va mustahkamlash, nazoratni tashkil etish hamda o‘zlashtirilgan bilimlarni tashxislashda ijobiy natijalarni beradi. Suhbat turli ko‘rinishlarda, ya‘ni, kirish, yakuniy, individual va guruhli suhbat tarzida tashkil etiladi. Tushuntirish o‘quv materialini mazmunini isbot, tahlil, umumlashma, taqqoslash asosida bayon qilishdir. Bu metod hikoyaga nisbatan birmuncha keng qo‘llaniladi. Undan odatda, nazariy materiallar hamda murakkab masalalarni o‘rganishda foydalaniladi. Tushuntirish jarayonida o‘quv materialining bir qadar qiyin unsurlari ko‘zga tashlanadi va shu asosda materialning mohiyati ochib beriladi. Tushuntirish samarasi ko‘p hollarda o‘qituvchining ko‘rgazmali vositalardan oqilona foydalanishiga bog‘liq bo‘ladi. Ma‘ruza – yirik hajmdagi o‘quv materialini og‘zaki

¹⁴ Quadratulloh qizi G., Ishmuhammedov R., Normuhammedova M. “An‘anaviy va noan‘anaviy ta‘lim”. – Samarqand. “Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi”, 2019. 5-bet.

bayon qilish metodi sanalib, uning o'ziga xos xususiyatlari quyidagilardan iborat: qat'iy mantiqiy ketma-ketlik, uzatilayotgan axborotlarning ko'pligi, bilimlar bayonining tizimlilik. Maktab ma'ruzasi mazmunini murakab tizimlar, hodisalar, obyektlar, jarayonlar, ularning sababli-oqibatli bog'lanishlari, qonun va qoidalar tashkil etadi. Shu bois ma'ruza maktab sharoitida yuqori sinflardagina qo'llaniladi. Chunki u butun dars jarayonini qamrab olishi mumkin. Ma'ruza metodi tushuntirish va suhbatning asta-sekin kengayib borishidan vujudga keladi va bir vaqida o'quvchilarni qisqacha yozib olish (konspektlash)ga o'rgata boradi. Ta'lim sifati va samaradorligini ta'minlashda ko'rgazmali metodlar ham alohida ahamiyatga ega. Tasvir (illyustratsiya) metodi namoyish metodiga chambarchas bog'liq bo'lsada, didaktikada alohida o'rganiladi. Ilyustratsiya narsa, hodisalar va jarayonlarni ularning ramziy ko'rinishlari – chizma, port, rasm, fotosurat, yassi modellar va boshqalar yordamida ko'rsatishni taqozo etadi. Namoyish (demonstratsiya) metodi o'rganilayotgan obyekt harakat dinamikasini ochib berishda qo'l keladi va ayni chog'da predmetning tashqi ko'rinishi va ichki tuzilishi haqida to'laqonli ma'lumot berishda keng qo'llaniladi. Tabiiy obyektlarni namoyish qilishda odatda uning tashqi ko'rinishi (shakli, hajmi, miqdori, rangi, qismlari, ularning o'zaro munosabatlari)ga e'tibor qaratiladi, so'ngra ichki tuzilishi yoki alohida xususiyatlarini o'rganishga o'tiladi. Ko'rsatish ko'p holatlarda o'rganilayotgan obyektlarning subyekt yoki chizmasi yordamida kuzatiladi. Amaliy metod – o'zlashtirilgan bilimlarni amaliy masalalar echimini topishga yo'naltirilgan jarayonda qo'llashni taqozo etadi. Bunda nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llash ko'nikmasi hosil qilinadi. Amaliy ishlar sinfda yoki tabiiy sharoitlar – maktab er maydoni, issiqxona, geografik maydonlarda amalga oshiriladi. Ularni amalga oshirishda sodir etiladigan harakatlar o'qituvchi tomonidan nazorat qilinadi va zarur hollarda yo'riqnoma yoki maxsus ko'rsatmani o'quvchilar e'tiboriga havola etadi. Mashq – aqliy yoki amaliy (jismoniy) harakatlarni bajarish ko'nikmalarini egallash yo'lidagi ko'p marta takrorlanishlar bo'lib, mashqsiz ko'nikma hamda malakalarni shakllantirish mumkin emas. Mashqlar og'zaki, yozma, gradikaviy (texnik jarayonlar mohiyatini ifodalash), ijtimoiy-foydali, jismoniy va boshqa turlarga bo'linadi. Laboratoriya ishlari o'quvchilarning jihoz, maxsus uskuna, qurol hamda turli texnikaviy qoliplardan foydalangan holda tajribalarni o'tkazish metodlari bo'lib, ular ko'proq tabiiy fanlar asoslarini o'rganishda qo'llaniladi. Bu metod o'quvchilarning asbob-uskunalar bilan ish ko'rish, o'lchash ishlarini amalga oshirish va ularning natijalariga ishlov berish kabi ko'nikmalarini tezkor shakllantirishga imkon beradi. Laboratoriya ishlarini bajarish maxsus qurilma va jihozlar, shuningdek, materiallar hamda vaqtni sarflash, ularni ishga tayyor holatga keltirishni talab etadi. Biroq bu harakatlar o'quvchilarning yuqori darajadagi faolligi asosida mustaqil ravishda tajriba va o'lchash ishlarini tashkil etish bilan takomillashtirilib boriladi. Didaktik o'yin o'rganilayotgan ob'yekt, hodisa va jarayonlarni modellashtirish asosida o'quvchining bilishga bo'lgan qiziqishi va faollik darajasini rag'batlantiruvchi o'quv faoliyati turi. Ayni vaqtda o'yin ham ijtimoiy faoliyat ko'rinishi sanaladi.

Ta'lim metodlarini tanlash. Pedagogika fanida, o'qituvchilarning amaliy tajribasini o'rganish va umumlashtirish asosida ta'lim metodlarini tanlashga o'quv-tarbiya jarayoni kechayotgan shart-sharoitlar va aniq holatlarga bog'liq muayyan yondashuvlar vujudga keladi.

Ta'lim metodlarini tanlashda quyidagi holatlar inobatga olinishi lozim:

- Ta'limning umumiy maqsadlari.
- Fanning va o'rganilayotgan mavzuning mazmuni hamda o'ziga xosliklari.
- Biror fanni o'qitish metodikasining o'ziga xosliklari.
- Materialni o'rganishga ajratilgan vaqt.
- O'quv mashg'ulotining maqsadi, vazifalari va mazmuni.
- O'quvchilarning yoshi va bilish imkoniyatlari.
- O'quvchilarning tayyorgarlik darajasi.
- Ta'lim muassasasining moddiy ta'minlanganligi.
- O'qituvchining nazariy, amaliy va metodik tayyorgarligi, pedagogik mahoratni egallaganlik darajasi. Ta'lim vositalari. Ta'lim metodlari ta'lim vositalari bilan birgalikda qo'llaniladi. Ta'lim vositalari – bu yangi bilimlarni o'zlashtirish uchun o'qituvchi va o'quvchilar tomonidan foydalaniladigan ob'yekt. Ta'lim vositalari katta ahamiyatga ega. Ta'limning barcha vositalari ta'lim maqsadlarini muvaffaqiyatli amalga oshiradi.

Ta'lim vositalari o'zida o'quv-tarbiyaviy maqsadga erishish uchun zarur bo'lgan moddiy yoki ma'naviy qadriyatlarni aks ettiradi. Odatda ular ta'lim metodlariga mos holatda foydalaniladi. Biroq agar metodlar «qanday o'qitish» savoliga javob bersa, vositalar esa, «uning yordamida niamani o'qitish» savoliga javob beradi. An'anaviy ravishda qo'llaniladigan ta'lim vositalariga darslik, rasmlar, jadvallar, nutq, o'quv-ustaxonasi jihozlari, laboratoriyalar. Didaktik vositalar deganda, o'quv va ko'rgazmali qo'llanmalar, namoyishli qurilmalar, texnik vositalar tushuniladi. Axborot vositalari, o'quv jarayonini tashkil etish va boshqarish vositalari kiradi. Didaktik vositalar metodlar singari ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi funksiyalarni bajaradi. Bundan tashqari o'quvchilarning o'quv-bilish faoliyatini hosil qilish, boshqarish va nazorat qilish vazifalarini bajaradi. Didaktik vositalar audivizuallik tafsilotida motivatsion, axborot, ta'lim jarayonini boshqarish, optimallashtirish funksiyalarini bajaradi. Fanni o'qitish bilan bog'liq holda ta'lim vositasi tanlanadi. O'qituvchi o'zining ixtiyori bo'yicha ko'rgazmali material, o'quv qo'llanmadan foydalanishi mumkin. Ta'lim vositasini qo'llashning yana bir jihati albatta ta'lim jarayonining tarkibiy qismi sifatida aks ettirishidir. Ta'lim vositasini tanlab olish ta'lim metodini tanlab olish bilan bog'liq. Agar ta'limning faol metodi(kitob bilan ishlash, mashqlar) foydalanilsa, u holda o'quv qo'llanmalari, darsliklar va ta'limning texnik vositalaridan foydalaniladi. Aynan ta'limning aktiv-texnik vositalari amaliy metodlarda foydalaniladi. Ta'limning faollikni nisbatan kam talab etadigan metodlari(o'quvchilar eshitadi, ya'ni hikoya, ma'ruza, tushuntirish, ekskursiya) ta'limning ko'rgazmali vositalaridan

foydalaniladi. Ta'limning ko'rgazmali vositalari pedagogning o'zi tomonidan tuzilgan bo'lishi mumkin. Vositalarning istalgan turidan foydalanishda o'lchov va mutanosiblikka e'tibor berish kerak. Masalan, ko'rgazmali vositalarning soni etarli bo'lmasligi bilimlarning sifatiga ta'sir ko'rsatadi, bilishga qiziqishni pasaytiradi, obrazli idrok etishni rivojlantirmaydi. Ulardan haddan tashqari foydalanish o'quvchilarning o'rganilayotgan fanga engil-elpi qara-shiga olib keladi. Murakkab mavzularni o'rganishda 4-5 demonstratsiya optimal hisoblanadi. Ta'lim vositalari tasnifi aniq va yagona bo'lishi mumkin emas. Ta'lim vositasining ahamiyatli tomoni ularning birgalikda qo'llanilishidir va hech qachon bir-birini inkor etmaydi. O'qituvchining vazifasi – dars jarayonini faollashtirish uchun ta'limning samarali vositasini tanlab olishdir. Ta'lim vositalarini tasniflashda turli asoslarga ko'ra yondashish mumkin: - faoliyat sub'yektiga ko'ra; - faoliyat ob'yektiga ko'ra; - o'quv axborotiga munosabatiga ko'ra; - o'quv jarayonidagi vazifasiga ko'ra. Faoliyat sub'yekti bo'yicha ta'lim vositalari o'rgatish va o'rganishga bo'linadi. O'rgatish vositalari. Masalan, namoyishli-tajriba qurollari. Bunday qurollar o'qituvchi tomonidan mavzuni tushuntirish va mustahkamlash uchun qo'llaniladi. O'rganish vositalari. Masalan, laboratoriya-praktikum qurollari. Bunday vositalar o'quvchilar tomonidan yangi bilimlarni egallash uchun qo'llaniladi. Didaktik vositalar o'qituvchi va o'quvchi uchun xosligiga qarab, ikkiga bo'linadi. Birinchisiga ko'ra, narsalar o'qituvchi tomonidan ta'limning maqsadlarini samarali realizatsiyalash uchun qo'llanilsa, ikkinchisi – bu o'quvchilarning individual vositalari, darsliklar, daftarlar. Bundan tashqari didaktik vositalar o'qituvchi va o'quvchilar faoliyat turiga ko'ra sport qurollari, botanika va geografiya maydonchasi, kompyuterlarga ham bo'linadi. Faoliyat ob'yektlari bo'yicha ham ta'lim vositalari ikkiga bo'linadi: Material ta'lim vositalari. Bu o'quv qo'llanmalari, darsliklar, jadvallar, maketlar, modellar, o'quv-texnik vositalar, mebel, o'quvlaboratoriya qurilmalari, ko'rgazmali vositalar bo'lishi mumkin. Ideal ta'lim vositalari – bular pedagog va o'quvchilar yangi bilimlarni egallashda qo'llaydigan vositalar: chizmalar, sxemalar, diagrammalar, tasviriy, san'at, nutq, xat va boshqalar. Ideal vositalar – bu «fikrlar haqidagi fikrlar»: o'qituvchi ularni o'rgatish uchun belgilangan shaklda ko'rsatishi zarur. Masalan, materializatsiya – abstrakt simvollar tarzida ko'rsatiladigan vosita (grafiklar, jadvallar, chizmalar), verbalizatsiya – nutq bayoni tarzida ko'rsatiladigan vosita (tahlil, muhokama qilish, dalil keltirish).

Material va ideal vosita bir-birini to'ldiradi. Material vosita qiziqish va diqqatni uyg'otish, amaliy harakatlarni amalga oshirish bilan bog'liq bo'lsa, ideal vositalar – mantiqiy muhokama. Materialni tushuntirish, nutq madaniyati, yod olish bilan bog'liq. O'quv axborotiga munosabatiga ko'ra ta'lim vositalari yangi materialni o'rganish vositalari, takrorlash, mustahkamlash, umumlashtirish vositalari, bilimlarni nazoart qilish vositalari, o'quv jarayonini tashkil etish vositalari, boshqarish vositalari va axborot vositalariga bo'linadi. O'quv jarayonidagi vazifasiga ko'ra ta'lim vositalari kommunikatsiya (muloqot) va o'quv ishlari vositalariga tasnif etiladi. O'quv ishi vazifa, muammo, masalalarni hal etish, turli

mashqlarni bajarish jarayonidir. Ta'lim – kommunikatsiya (muloqot) o'qituvchi va o'quvchilarning o'quv faoliyati sanaladigan kommunikativ-faoliyatli jarayon. Kommunikatsiya – bu kodlash (o'qituvchi nutqidagi atamalarda), uzatish (yozilish) va o'quvchilarning axborotni qabul qilishi (tushunish va dastlabki eslab qolish). Didaktik vositalar his qilish, sezish uchun foydalanishiga ko'ra ham tasnif qilinadi. Bunday bog'liqlikka ko'ra didaktik vositalar vizual (ko'rish) – haqiqiy(original) narsalar yoki turli obrazli ekvivalentlari, diagrammalar, kartalar; audial(eshitish) – radio, magnitofon, musiqa asboblari; audioizual(ko'rish-eshitish) – ovozli filmlar, televidenie, kompyuterlar, didaktik mashinalar, elektron darsliklar. Ta'limning texnik vositalari. TTV – bu o'zida o'quvaxborotlarini ekranli-ovozli aks ettiruvchi asbob va moslamalardir. Ularga quyidagilar kiradi: o'quv kinofilmlari; diafilmlar; kompyuterlar; magnitofon tasmalari; radioeshittirish; teleko'rsatuvlar.

Ta'limning texnik vositalarini quyidagi turlarga ajratish mumkin: axborot; aralash(kombinatsion); trenajyor; bilimlarni nazorat qilish vositalari; audiovizual vositalar.

Ta'limning texnik vositalari quyidagi funksiyalarni bajaradi:

- ta'limning sifati va samaradorligini oshiradi;
- o'quv jarayonining jadallashuvini ta'minlaydi;
- o'quvchilarni idrok qilishga yo'naltiradi;
- o'quvchilarda bilimlarni egallashga nisbatan katta qiziqish hosil qiladi;
- dunyoqarashni, ishonchni, o'quvchilarning axloqiy qiyofasini shakllantirishga yordam beradi;
- o'quv ishiga nisbatan o'quvchilarda emotsional munosabatni oshirishni ta'minlaydi;
- bilimlarni nazorat, o'zini-o'zi nazorat qilishni ta'minlaydi.



Nazorat uchun savollar:

1. Ta'lim metodlari deb nimaga aytiladi?
2. «Ta'lim usuli», «pedagogik texnologiya», «metodika» tushunchalariga izoh bering.
3. Ta'lim metodlari tasnifini izohlang.
4. Ta'lim metodlarining mazmun-mohiyatini bayon eting.



Asosiy adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni. // Harakatlar strategiyasi asosida jadal taraqqiyot va yangilanish sari. – T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2017. – 92 b.

2. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni // O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1997 y., 9-son, 225-modda; 2013 y., 41-son, 543-modda.
3. O‘zbekiston Respublikasining “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi to‘g‘risida”gi Qonuni // O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1997 y., 11-12-son, 150-modda; 2013 y., 41-son, 543-modda.
- Xodjayev B.X. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. Darslik – T.: SANO-STANDART, 2017.
4. Xodjayev B.X., Choriyev A., Saliyeva Z.T. Pedagogik tadqiqotlar metodologiyasi. Darslik. – T.: IQTISODIYOT DUNYOSI, 2018.
5. Mutalipova M.J., Xodjayev B.X. Qiyosiy pedagogika. Darslik. – T.: TDPU, 2015.
- Pedagogika / Nopedagogik oliy ta’lim muassasalari uchun darslik. U.Inoyatov, N.Muslimov, D.Ro‘zieva, M.Usmonboeva. – T.: TDPU, 2013.
6. Yuzlikayeva E., Axmedova M., Qurbonova G., Sh.Tashmetova. Umumiy pedagogika. Darslik.– T.: TDPU, 2012.
7. Pedagogika. // M.Toxtaxodjaevaning umumiy tahriri ostida. Darslik. – T.: O‘zbekiston Faylasuflari Milliy jamiyati, 2010.
8. Hoshimov K., Nishonova S., Inomova M., Hasanov R. Pedagogika tarixi. – T.: O‘qituvchi, 1996.
9. Hashimov K., Nishonova S. Pedagogika tarixi. – T.: O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2005.
10. Alex Moore. Teaching and Learning: Pedagogy, Curriculum and Culture. USA, 2012 Routledge.
11. Neil Selwyn. Education and Technology: Key Issues and Debates. Australia, 2011 Continuum.
12. Heather Fry, Steve Ketteridge, Stephanie Marshall. A Handbook for Teaching and Learning in Higher Education. USA, 2009 Routledge.

Qo‘shimcha adabiyotlar:

1. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. –T.:O‘zbekiston, 2017.
2. 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini “Xalq bilan muloqot va inson manfaatlarini yili” da amalga oshirishga oid Davlat dasturini o‘rganish bo‘yicha ilmiy-uslubiy risola. – Toshkent: Ma’naviyat, 2017. -26B.
3. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo‘shma majlisidagi nutq /Sh.M. Mirziyoev. - Toshkent: “O‘zbekiston”, 2016.-56 b.

4. Mirziyoev Sh.M. Qonun ustuvorligi va manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. Toshkent. O'zbekiston nashriyoti, 2017.
5. Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. Toshkent. O'zbekiston nashriyoti, 2017.
6. Xasanboev J., To'raqulov X., Xaydarov M., Hasanboeva O. Pedagogika fanidan izohli lug'at. – T.: Fan va texnologiya, 2008.
7. Niyozov G., Axmedova M. Pedagogika tarixidan seminar mashg'ulotlari. – T.: NOSHIR, 2011.



2- MODUL

9-mavzu: ENG QADIMGI DAVRLARDAN VII ASRGACHA TA'LIM-TARBIYA VA PEDAGOGIK FIKRLAR TARIXI.

REJA :

1. “Pedagogika tarixi” fanining maqsad va vazifalari.
2. Pedagogika tarixini o'rganish manbalari.
3. Pedagogika tarixini davrlashtirish.
4. Eng qadimgi yozma manbalarda ta'lim-tarbiya masalalarining yoritilishi

Tayanch so'zlar: fanning maqsad va vazifalari, manbalar, davrlashtirish, Xalq pedagogikasi, eng qadimgi yozma manbalar, Zardo'shtiylik axloqi.

“Pedagogika tarixi” fanining maqsadi – eng qadimgi zamonlardan to hozirgi kungacha turli tarixiy davrlarda tarbiya, maktab va pedagogik fikrlar taraqqiyotini tizimli yondashuv asosida o'rganishdan iborat. Maktab va pedagogika ko'p asrlik tarixiy yo'lni bosib o'tgan. Mazkur davrda pedagogika fani ko'plab g'oyalari va kontseptsiyalar bilan boyib bordi. “Pedagogika tarixi” faning predmeti - eng qadimgi zamonlardan to hozirgi kungacha tarbiya, maktab va pedagogik fikrlarning rivojlanish jarayoni.

“Pedagogika tarixi” fanining vazifalari:

- 1) milliy o'z-o'zini anglash, kasbiy rivojlanish bilan bog'liqlikda umumiy va pedagogik madaniyatni shakllantirish;
- 2) pedagogik fikrlar rivojini tahlil etish va tizimlashtirish;
- 3) pedagogik g'oyalarni tahlil etish asosida ularni o'quv-tarbiya jarayoniga tatbiq etish.

Pedagogika tarixini o'rganish manbalari:

- 1) arxeologik yodgorliklar;
- 2) qo'lyozmalar;
- 3) xalq og'zaki ijodi;

- 4) adabiy yodgorliklar;
- 5) hujjatlar;
- 6) badiiy adabiyot;
- 7) memuarlar;
- 8) Sharq va G'arb mutafakkirlarining asarlari.

Pedagogika tarixini davrlashtirish muammosi. Pedagogika tarixini davrlashtirishga doir xilma-xil yondashuvlar mavjud. So'nggi yillarda O'zbekistonda pedagogika tarixini o'rganishga doir eng keng tarqalgan davrlashtirish o'zida quyidagi bosqichlarni aks ettiradi:

- 1) eng qadimgi davrlardan O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgunga qadar;
- 2) mustaqillikka erishilgandan to hozirgi kungacha O'zbekistonda pedagogik fikrlar rivoji;
- 3) jahon pedagogik fikrlari rivoji (eng qadimgi davrlardan hozirgi kungacha).

Biroq pedagogika tarixini insoniyat tarixi bilan bog'liqlikda o'rganish maqsadida quyidagi tarzda davrlashtirish maqsadga muvofiq:

- 1) eng qadimgi davrlardan VII asrgacha ta'lim-tarbiya va pedagogik fikrlar;
- 2) VII asrdan XIV asrning birinchi yarmifacha O'rta Osiyoda tarbiya, maktab va pedagogik fikrlar;
- 3) Sharq Uyg'onish davrida pedagogik fikrlarning rivojlanishi;
- 4) XIV asrning ikkinchi yarmi va XVI asrda Movaraunnahrda tarbiya va maktab;
- 5) XIV asrning ikkinchi yarmi va XVI asrda Movaraunnahrda pedagogik fikrlar rivoji;
- 6) XVII asrdan XIX asrning yarmigacha tarbiya, maktab va pedagogik fikrlar rivoji;
- 7) XIX asrning 2-yarmi – XX asr boshida Turkiston o'lkasida tarbiya, maktab va pedagogik fikrlar;
- 8) 1917-1991 yillarda O'zbekistonda ta'lim tizimi va pedagogik fikrlar rivoji;
- 9) Mustaqil O'zbekiston ta'lim tizimi. Mustaqillik yillarida pedagogik fikrlar rivoji;
- 10) eng qadimgi davrlardan XIX asrning birinchi yarmida jahon pedagogika fanining rivojlanish tarixi;
- 11) XIX asrning 2-yarmi – XX asrda jahon pedagogika faning rivoji;
- 12) hozirgi davrda jahon mamlakatlari ta'lim tizimi va pedagogika fani rivoji.

Ibtidoiy jamoa tuzumida tarbiya

Ibtidoiy jamiyat insoniyat tarixining dastlabki davri bo'lib, mazkur davrda yozma manbalarning saqlanib qolmaganligi ushbu davrda tarbiyaning amalga oshirilishini arxeologik manbalarga asoslangan holda tahlil etishni talab etadi. Ibtidoiy jamoa tuzumi ikki davrga bo'linadi: 1) ibtidoiy to'da; 2) o'rug'chilik jamoasi.

Qadimgi tosh asri	Peleolit: ilk o'rta so'nggi	mil. av. 700/500-100 ming yilliklar. mil. av. 100-40 ming yilliklar. mil. av. 40-12 ming yilliklar.
O'rta tosh asri	Mezolit	mil. av. 12 – 7 ming yilliklar.
Yangi tosh asri	Neolit	mil. av. 6-4 ming yilliklar.
Mis-tosh asri	Eneolit	mil. av. 4-3 ming yilliklar.
Bronza davri	Bronza davri	mil. av. 3-1 ming yilliklar.
Temir asri	Ilk temir asri	mil. av. X-VIII asrlar.
	So'nggi temir asri	VII–IV asrlar

Insoniyat faoliyatining asosiy turi sifatida tarbiyaning yuzaga kelishi mil.av. 40-35 ming yilliklarda zamonaviy qiyofadagi odamlar ("*homo sapiens*"- "*ongli odam*")ning paydo bo'lishi bilan bog'liq. Ibtidoiy jamoa tuzumi davrida mehnat tarbiyasi yetakchi o'rin tutgan. Ana shu asosga ko'ra mehnat bilan bog'liqlikda kishilar uch guruhga bo'lingan: 1) bolalar va o'smirlar; 2) ijtimoiy hayot va mehnatda to'la ishtirok etuvchilar; 3) keksalar.

Co'nggi paleolitda insoniyat o'z taraqqiyotida yana bir bosqich yuqori ko'tarildi. Odamlar ilk to'da tarzida yashamay qo'ydilar va qarindosh-urug'chilik jamoalariga bo'lindilar. Jamiyatda juft oilalar paydo bo'ldi, ular ayrim urug'larni birlashtirib, urug' jamoasini tashkil etdilar. Odamlar g'orlardan tashqari erto'la va chaylasimon uylarda ham yashashga o'rgandilar. Juft oilalarning paydo bo'lishi haqida kichik uy-joylarning tarqalishi darak beradi.

O'sha zamon jamoasida ona-ayolning ijtimoiy o'rni baland bo'lib, urug' uning nomi bilan boshlangan. Ayollar uy, o'choq va muqaddas olovning egasi sifatida uy xo'jaligida hamda bolalarni tarbiyalash jarayonida, o'choqda o'zni saqlashda, ovqat pishirishda, ro'zg'or buyumlarini, mehnat qurollarini qo'riqlash, uy-boshpanani asrash paytida muhim vazifalarni bajarganlar.

Mezolit davrida O'zbekistonda qoyatosh suratlari kashf etilgan. Ularning ba'zisi rang berib cheqilgan, ba'zilari o'yib ishlangan. Surxondaryo viloyatidagi Zarautsoy qoya tasvirlari mezolit davriga oid. Ular qadimgi odamning fikru o'ylari, atrof-muhit haqidagi tasavvuri, qanday hayvonlarni ovlagani, qaysi mehnat va ov qurollarini qo'llagani haqida fikr yuritish imkonini beradi.

Neolit davrida ona urug'i matriarxat o'z taraqqiyotining yangi bosqichiga o'tadi. Urug' jamoalari kattalashadi va ularni bir joyda boqish amri mahol bo'lib qoladi. Oqibatda urug' jamoasidan mayda guruhlar-kichik oilalar ajralib chiqib boshlaydi.

O'rta Osiyo hududida bronza davri miloddan avvalgi 3-mingyillik o'rtalaridan boshlanadi va miloddan avvalgi 2-mingyillikka kelib o'z rivojining yuksak darajasiga etadi.

Patriarxat urug'chilikka o'tish patriarxal oilaning vujudga kelishiga olib keladi. Sunday oila bir-biriga qarindosh ota urug'i bo'yicha yuritiladigan bir necha avlodlardan iborat bo'ladi.

Xalq pedagogikasi – empirik bilimlar sohasi sifatida.

Xalq pedagogikasi xalq ommasi orasida hukmronlik qiluvchi tarbiyaning maqsadi va vazifalariga bo'lgan qarashlarni ifodalovchi amaliy pedagogik bilimlar va tajribasining sohasidir.

Xalq pedagogikasining tarbiyaviy imkoniyatlari deganda xalq tarbiya tajribasidan joy olgan empirik pedagogik bilimlar, ma'lumotlar, malakalar va ko'nikmalarning zamonaviy maktab va oila tarbiyaviy sistemasida bolalar va o'quvchi-yoshlarni tarbiyalash maqsad va vazifalarini hal etish uchun zarurligi (qulay shart-sharoit yaratishi) tushuniladi.

Xalq pedagogikasining didaktik imkoniyatlari deganda xalq ommasining yoshlarga bilimlar va amaliy ko'nikmalar berish, ularni ijodiy ishlash uslublari bilan qurollantirish, dunyoqarashlarini o'stirish va axloqiy nafosat g'oyalarini egallashlarida qo'llab kelgan empirik pedagogik tajribasini zamonaviy milliy maktab o'qitish jarayonida qo'llash uchun qulayligi tushuniladi. Masalan, milliy amaliy san'atga o'rgatishning xalq orasida tarkib topgan uslubiyotini xalq pedagogikasining didaktik imkoniyatlari doirasiga kiritish mumkin. Xususan, ganch va yog'och o'ymakorligi, zardo'zlik, musiqa asboblari yasash, kulolchilik va boshqa ko'plab amaliy san'at turlarini egallashning xalq ustalari va chevarlari tomonidan tajribada yaratilgan o'z usullari, uslub va vositalari mavjud. Ulardan milliy maktabdagi mehnat ta'limi darslarida yoki to'garak mashg'ulotlarida o'quvchilarga bilimlar va amaliy ko'nikmalar berishda foydalanish mumkin.

O'zbek xalq poetik ijodida bolalarni oilada va bola yashab turgan muhitda insoniy fazilatlarni tarbiyalashning juda uzoq zamonlardan beri davom etib kelayotgan o'ziga xos xilma-xil metod va vositalari mavjud ekanligi ko'rinadi.

Yuqorida aytib o'tilganidek, xalq ijodi ham shu orqali xalq pedagogikasida qo'llaniladigan: tushuntirish, namuna ko'rsatish, odatlantirish (o'rganish, mashq qildirish), iltimos qilish, tilak-istak bildirish, yolvorish-iltijo qilish, maslahat berish, ko'ndirish, undash, ma'qullash, rahmat aytish, duo qilish, olqish (oq yo'l tilash), taqiq qilish, ta'na (gina, o'pka) qilish, mashara - mazax qilish, majbur qilish, tanbeh berish, koyish, qarg'ash, qo'rqitish, uzr so'rash, ont - qasam ichirish, la'natlash, so'kish, urish, kaltaklash metodlari bo'lsa-da, yoshlarning insoniy fazilatlarini tarbiyalashda asosan: o'git-nasihati, ibrat ko'rsatish, ma'qullash va maqtash, alqash, mukofotlash, qoralash - qarg'ish, jismoniy jazo berish kabi metodlardan foydalanilgani ko'zga tashlanadi.

Eng qadimgi yozma manbalarda ta'lim-tarbiya masalalarining yoritilishi.

“Avesto”dagi ta'limiy-axloqiy g'oyalar. “Avesto” – zardushtiylik dinining muqaddas kitobi hisoblanib, dastlabki Sharq falsafiy qarashlarini o'zida aks ettiruvchi manbadir. Unda insonni kamolotga erishuvda mehnat, ezgulik, insoniylik, soflik, bag'rikenglik kabi sifatlarning ahamiyati chuqur ifodalangan.

Zardushtiylik dinining nomi ushbu din asoschisi *Zardusht* (turli tillarda Zaratushra, Zoroastr) ismidan olingan. Uning tug'ilgan joyi noma'lum. Zardusht miloddan avvalgi 1-mingyillikning birinchi choragida yashagan.

Zero, zardushtiylikda axloqiylikning asosi, sahovatlilik belgisi - mehnat deb ko'rsatilsa, ishyoqmaslik barcha nuqsonlarni keltirib chiqaruvchi sabab ekanligiga urg'u beriladi.

Zardushtiylik yoyilayotgan davrda ibodatxona ham, maxsus ilohiy kitoblar ham bo'lmagan. Diniy marosimlar ochiq havoda, gulxan yonida ado etilgan. Keyinchalik kohinlar Zardusht va'zlarini yozib borganlar. Zardusht dini kohinlari bunday diniy matnlarni yod bilganlar va ibodat paytida o'qiganlar. Zardusht vafotidan bir necha asr o'tgach barcha diniy marosimlar, madhiya va duolar kitob holiga keltirildi. Bu zardushtiylik muqaddas kitobi «Avesto» edi. «Avesto» so'zi «qat'iy qonunlar» ma'nosini bildiradi.


Zardusht diniga ko'ra, atrofdagi dunyo ikki qismdan tashkil topgan: yaxshilik va yomonlik. Bular o'rtasida azaldan kurash ketadi. Masalan, nur bilan qorong'ulik, hayot bilan o'lim, ezgulik bilan yomonlik, qonun bilan qonunsizlik o'rtasida.

Zardushtiylik hayotining asosiy mazmuni xayrli ish, shirin so'z, olijanob o'y-fikrdan iborat bo'lgan. Insonning asosiy burchi adolatli turmush tarzi bo'lmog'i kerak. Yaxshilikning yomonlik ustidan g'alaba qilishini ko'zlab yashash kerak: yolg'on gapirmaslik, so'zning ustidan chiqmoq, faqat yaxshilik qilmoq.

Zardusht dini bo'yicha har bir inson hayot yo'lini o'zi belgilaydi; kimga yon bosmoqlik, kimni himoya qilishni o'zi hal qiladi.

Zardushtiylikda olov, er, suv va havo muqaddas sanaladi. Ularni yomon, yovuz narsalar bilan aralastirmaslik lozim.

Zardushtiylik axloqining asosiy uchligi



O'rxun-Enasoy yozma yodgorliklarida ta'lim-tarbiya masalalari. VII – VIII asrlarda qabr toshlariga turk-runiy yozuvida o'yib bitilgan «Urxun-Enasoy» bitiglarida ham bolalarni vatanparvar, xalqparvar, tadbirkor, uddaburon, oqil qilib tarbiyalash masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. Jumladan, Qultegin bitigida turk xalqini uzoqni ko'ra olmaganligi natijasida Tabg'ach eliga qaram bo'lib qolganligi, kelgusi avlodlar bunday xatoliklarni takrorlamasliklari zarurligi quyidagicha uqtiriladi: «So'zimni tugal eshitgil, keyindagi inim, urug'im, xalqim..... bu so'zlarni yaxshilab eshit, diqqat bilan tingla.... Tabg'ach xalqining so'zi shirin, ipak kiyimi nafis....ekan. Shirin so'zi, ipak kiyimi bilan aldab, yiroq xalqni shu holda birlashtirar ekan... Yaxshi dono kishini, yaxshi alp kishini yo'latmas ekan. Biror kishi adashsa, urug'i, xalqi, uyi, yopinchi'igacha qo'yimas ekan. Shirin so'ziga, nafis ipagiga aldanib, ey turk xalqi, o'lding».

Pedagog olimi A.S.Kaldibekovning fikricha, bu bitiktoshlarda bolalarni baynalmilallik ruhida tarbiyalash masalasiga ham e'tibor qaratilgan. Bitiktoshlarda turk xalqining Tabg'ach xonligiga qarshi olib borgan urushlari ham ifoda etilgan. Biroq turk xonlari (To'nyuquq, Qultegin, Bilga hoqon, Eltarish hoqon) Tabg'ach xonlarining botirligi, siyosatdonligi, ishbilarmonligi, vatanparvar hamda elsevarligini inkor etmaydi. Ayni shu jihatlarni turk xalqida mujassam bo'lishini chin dildan istaydi. Shu bilan birga Tabg'ach xonlarining boshqa xalqlar ozodligi, iqtisodiyoti, madaniy hayotiga xavf solayotgani oshkora ko'rsatib berilgan. Agar ular bu qusurlarni bartaraf etishsa, ular bilan har tomonlama aloqalarni yo'lga qo'yish foydali ekanligi ta'kidlanadi.



Nazorat savollari:

1. "Pedagogika tarixi" fanining maqsad va vazifalarini izoxlay olasizmi?
2. Eng qadimgi davrlardan VII asrgacha Sug'diyona, Baqtriya, Xorazm davlatlarida ta'lim-tarbiya va pedagogik fikrlar taraqqiyoti qanday edi?
3. Xalq maktablari, san'at maktablari haqida nimalarni bilasiz?
4. "Avesto" da ilgari surilgan g'oya ni yoriting.
5. VII-XI asrlarda yaratilgan qanday didaktik asarlarni bilasiz?



Tavsiya qilinuvchi adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. –T.: O'zbekiston, 2008.
2. Hasanboev J., Hasanboeva O., Homidov H. Pedagogika tarixi. – T.: O'qituvchi, 1997.
3. Hoshimov K., Safo Ochil. O'zbek pedagogikasi antologiyasi. – T.: O'qituvchi, 2010.
4. Ataeva N., Rasulova F., Hasanov S. Umumiy pedagogika (Pedagogika tarixi). – T.: "Fan va texnologiya", 2011.



Qo'shimcha adabiyotlar:

1. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. –T.:O'zbekiston, 2017.
2. 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini "Xalq bilan muloqot va inson manfaatlarini yili" da amalga oshirishga oid Davlat dasturini o'rganish bo'yicha ilmiy-uslubiy risola. – Toshkent: Ma'naviyat, 2017. -26B.
3. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali

marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutq /Sh.M. Mirziyoev. - Toshkent: "O'zbekiston", 2016.-56 b.

4. Mirziyoev Sh.M. Qonun ustuvorligi va manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. Toshkent. O'zbekiston nashriyoti, 2017.

5. Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. Toshkent. O'zbekiston nashriyoti, 2017.

6. Xasanboev J., To'raikulov X., Xaydarov M., Hasanboeva O. Pedagogika fanidan izohli lug'at. – T.: Fan va texnologiya, 2008.

7. Niyozov G., Axmedova M. Pedagogika tarixidan seminar mashg'ulotlari. – T.: NOSHIR, 2011.



10-mavzu: VII ASRDAN XIV ASRNING BIRINCHI YARMIGACHA O'RTA OSIYODA TARBIYA, MAKTAB VA PEDAGOGIK FIKRLAR

REJA:

1. Musulmon maktablari va unda ta'lim-tarbiya mazmuni.
2. Qur'oni Karim – axloqiy-falsafiy ta'limotlar manbai.
3. Hadis ilmining paydo bo'lishi. Muhaddislar (Imom Ismoil al-Buxoriy, Imom Iso at-Termiziy va boshqalar)ning hadis ilmi rivojiga qo'shgan hissasi.

Tayanch so'zlar: Islom dinining tarqalishi, musulmon maktablari, axloqiy-falsafiy ta'limotlar, ta'lim-tarbiya mazmuni, Hadis ilmi, didaktik adabiyot.

Islom dinining tarqalishi va uning ta'lim-tarbiyaga ta'siri. Ma'lumki, jahon madaniyati xazinasining tarkibiy qismlaridan biri hisoblangan arab tilidagi adabiyot faqatgina arablar emas, balki ko'pgina xalqlar namoyandalari tomonidan yaratilgan o'lmas yodgorlik bo'lib, u o'z taraqqiyotida uzoq va murakkab yo'lni bosib o'tdi. Abbosiy xalifalar /750-1258/ davrida, ayniqsa dastlabki, uch asrda fan va adabiyot, shuningdek, tarixnavislik ham ravnaq topdi. Xalifalikning poytaxti Bag'dod shahri adabiyot va ilmiy tafakkurning markazlaridan biriga aylanib, arab tili esa ilm va fan ahllari uchun asosiy vosita rolini o'ynadi.

Chunonchi, G.N.Sharbatov ta'kidlaganidek, "arablar hamda madaniyat va ilmu fanda arab tilini xalqaro til tariqasida qo'llagan O'rta Osiyo, Eron, Kavkaz va Sharqning boshqa xalqlari tomonidan yaratilgan ko'pdan-ko'p badiiy, tarixiy, jug'rofiy, ilmiy va diniy asarlar ham mana shu davrning mahsulidir".

Nabiy sollallohu alayhi va sallam siyratlariga nazar tashlasak, u kishi ta'lim berishda tartibga, ketma-ketlikka rioya qilar edilar. Ilmni qabul qilish oson bo'lishi,

qalbda u haqida tushuncha mustahkam o‘rnashuvini o‘ylab, sahobalarga shar‘iy ilmni bo‘lib-bo‘lib ta‘lim berardilar.

Jundub ibn Abdulloh roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi: “Nabiy sollallohu alayhi va sallamning yonlarida bo‘lar edik. Biz o‘spirin yigitlar Qur‘onni o‘rganishdan oldin imondan, so‘ng Qur‘ondan ta‘lim oldik. Va imonimizni u (Qur‘on) bilan ziyoda qildik” (Ibn Moja rivoyati).

Ibn Abbos roziyallohu anhudan: “Nabiy sollallohu alayhi va sallam Muoz roziyallohu anhuni Yamanga yuborayotib, unga dedilar: “Albatta, sen ahli kitobdan bo‘lgan qavmga borasan, ularni Allohdan boshqa iloh yo‘qligi va men Allohning elchisi (rasuli) ekanimga chaqir, agar ular itoat qilsalar, ularga bildirginki, ularga Alloh sadaqa (zakot)ni farz qildi. Boylaridan olinib, kambag‘allariga beriladi. Bunga ham itoat qilsalar, sen ularning molidan ortiqchasiga ehtiyot bo‘lgin, mazlumning duosidan qo‘rq. Albatta, uning duosi bilan Alloh o‘rtasida parda yo‘qdir”, - dedilar” (*Imom Buxoriy va Muslim rivoyati*)¹⁵.

Islom dinida ta‘lim va tarbiya inson diqqatini o‘ziga tortadigan, uni yo‘lga soladigan, tarbiyalaydigan, izlanishga va fitratida mavjud ma‘rifatga intilish rag‘batini oshiradigan ruhiy boshqarish turlaridan biri deb hisoblangan. Ta‘lim ibodatning bir turi deb qaralgan. Darslarni basmala, hamdu sano, salavot va Qur‘oni karim oyatlarini tilovat qilish bilan boshlaganlar. Ta‘lim beruvchi ustoz ma‘rifatga boshlovchi kishi sifatida ehtirom etilgan. Bolaning shaxs sifatida ulg‘ayib kamol topishida tarbiyaning o‘rni beqiyosdir. To‘g‘ri tarbiya bolaning jismoniy va ruhiy rivojlanishiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi. O‘sib-ulg‘ayib kelayotgan bolaning jismoniy quvvatini oshirish, iqtidori, mahoratini rivojlantirish, go‘zal xulqlar va odobni o‘zlashtirishida tarbiyaning foydasi beqiyosdir.

Aqliy rivojlanish borasida ham to‘g‘ri tarbiya shaxsning iste‘dodi, istak-intilishlari, aqliy imkoniyatlarini rivojlantirishda kata yordam beradi.

To‘g‘ri tarbiya bolaning nafsiy rivojlanish borasida ham turli sharoitlarda unga his-hayajonlarini nazorat qilish, tartibga solish, kuch-quvvatga to‘ldirish, unga yaxshilik sari intiluvchanlikka rag‘bat uyg‘otishda yordam beradi. Uni foydali, savobli amallarga undaydi. Oqibatda bola bu amallar tufayli ijobiy o‘zgarishlarga, jamiyatda o‘z o‘rnini topishga va baxtli saodatli bo‘lishga erishadi¹⁶.

Musulmon maktablari va unda ta‘lim-tarbiya mazmuni. VII asrdan XIV asrning birinchi yarmigacha O‘rta Osiyoda bir nechta turdagi ta‘lim muassasalari (*maktab, madrasa, qorixona, daloilxona*) mavjud edi.

¹⁵ Qudratulloh qizi G., Ishmuhamedov R., Normuhamedova M. “An‘anaviy va noan‘anaviy ta‘lim”. – Samarqand. “Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi”, 2019. 17-bet.

¹⁶ Qudratulloh qizi G., Ishmuhamedov R., Normuhamedova M. “An‘anaviy va noan‘anaviy ta‘lim”. – Samarqand. “Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi”, 2019. 17-bet.

Maktablar boshlang'ich ta'lim muassasasi hisoblanib, unda bolalarga yozish va o'qish o'rgatilgan, din haqida dastlabki ma'lumotlar berilgan. Madrasalar yuqori turuvchi o'quv muassasasi hisoblangan, *qorixona* va *daloilxona* («*Daloil al-xayrot*») quyi diniy xizmatchilarni tayyorlagan.

Maktablardagi ta'lim tizimi bir qancha bosqichli va puxta tashkil etilgani bois savod o'rganish ko'p vaqtni olar edi. Chunonchi, faqatgina alifboni o'rganishga 3-4 oydan bir yilgacha, ba'zida undan ham ko'p vaqt sarflanar edi. O'quvchilar dastlabki o'qish ko'nikmalarini egallaganlaridan so'ng «*Haftiyak*»ni (fors. "Qur'onning ettidan bir qismi") o'qishni boshlaganlar

Maktabni tamomlagan o'quvchilar ta'limni davom ettirish uchun madrasalarga kirganlar.

Madrasa odatda ikki bo'limdan, ya'ni: quyi (*ibādat al-'islām*) va yuqori (mas'ola) bo'limlardan iborat bo'lgan. Lekin barcha madrasalarda ham bo'limlar shunday nomlanmaganini qayd etish lozim. Masalan, Buxoro madrasalarida quyi bo'lim «*mushkulāt*» deb yuritilgan.

Qur'oni Karim – axloqiy-falsafiy ta'limotlar manbai. «Qur'on» - dunyo madaniyatining ulkan boyligi, barcha musulmonlarning muqaddas kitobi bo'lib, arab tilida «qiroat» ma'nosini anglatadi. Qur'on 114 suradan iborat. Qur'on kishilarni birodarlikka, tinch-totuv yashashga, ezgulikka undaydi. Shuning uchun ham u katta axloqiy ahamiyatga ega. «Qur'on»ning axloqiy qimmatini haqida fikr yuritilar ekan, uning insonning ma'naviy kamolga etishida qay darajada muhim o'ringa ega ekanligiga amin bo'lamiz.

Yuqorida ta'kidlanganidek, «Quron»da uylanish, er-xotin, ota-ona va farzandalar munosabatlari, farzand tarbiyasi masalalariga katta ahamiyat berilgan. Jumladan, har bir muslim va muslimaning oila qurishi Ollohning farzi ekanligi ta'kidlanib, «Qur'oni Karim»ning «Baqara» surasi 223-oyatida shunday bayon etiladi: «Hotinlaringiz sizlarning ekinzor erlaringiz bo'ladi. Ziroat erlari urug' sepganda Samara beradi. Xotin ham ekinzordir va hosili farzand. Bas o'z xotinlaringiz farzand niyatida aloqa qiling va kelajakda o'zlaringiz uchun farzand tarbiyalang. Xudodan qo'rqing, uning nazariga ilinmangiz. Bas, tug'ilish va visol uchun berilgan quvvatni bekor qoldirmang va zoye qilmang. Ey, Muhammad saodat mujdasini iymonlilarga bergin».

Hadis ilmining paydo bo'lishi. Muhaddislar (Imom Ismoil al-Buxoriy, Imom Iso at-Termiziy va boshqalar)ning hadis ilmi rivojiga qo'shgan hissasi. Islom olamida Qur'ondan keyingi o'rinda turuvchi hadislar ishonchli axloqiy manba hisoblanadi. Haqiqiyliги puxta o'rganib chiqilgan ishonchli hadislar sahih deyiladi. Sahih so'zining ma'nosi sog'lom, to'g'ri, xatosiz degani. Hadisni rivoyat qiluvchi kishi isnod, hadislarini to'plagan muallif esa muhaddis deb yuritiladi.

Hadislarini to'plash ishlari VIII asrdan boshlangan. Payg'ambar alayhissalomni ko'rgan va bilganlardan yozib olingan ma'lumotlarga qaraganda, dastlabki hadis

to'plovchilar ibn Shahob az-Zuhriy, Yahyo ibn Sa'd al-Ansoriy, Ibn Jurayj kabilar bo'lgan. Dunyoga mashhur muhaddislar Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy, Imom Muslim ibn Hajjoj, imom Nisoiy, imom ibn Majj' Kazviniy, Abu Iso Muhammad as-Samarqandiy, imom at-Termiziylardir. Yuqorida nomlari zikr qilingan muhaddislarning hadis to'plashdagi xizmatlari juda katta. Bu ulug' alloma birgina "Al-jome' as-sahih" ("Ishonchli majmua") asari ustida o'n olti yil ish olib borgan. Va olti yuz ming hadisni to'plab, 7275 tasini tanlab olgan. Shuningdek, "Al-jome' as-sahih" asaridan odob-axloq mavzuiga bag'ishlangan hadislarni tanlab olib, alohida kitob holiga keltirgan. Bu kitob Al-adab al-mufrad ("Adab durdonalari") deb nomlangan bo'lib, bu asar 1322 ta hadisni o'z ichiga olgan. Quyida mazkur to'plamga kirgan hadislardan namunalar keltiramiz: Abu Hurayra roziyallohu anhu ikki kishini ko'rib, ulardan bittasiga: "Bu kishi senga kim bo'ladi?"- deb so'radilar. U: "Bu- otam bo'ladilar", degan edi, Abu Hurayra roziyallahu anhu : " Unday bo'lsa otangni ismini aytib chaqirma, yurishda undan ilgari yurma va undan yuqori joyda o'tirma", deb nasihat qildilar.

Abu Hurayra roziyallohu anhu aytadilar: "Rasululloh sallolohu alayhi vasallam : " Uch toifa kishilarning duosi hech shubhasiz Alloh taolo huzurida qabul qilinadi: mazlumning duosi (garchi u boshqa dinda bo'lsa ham), musofirning duosi, ota-onaning farzandi uchun qilgan duosi", - dedilar.

Abu Kurayma Miqdod ibn Ma'di karib Kindiy roziyallohu anhudan rivoyat qiladilar: u kishi Rasululloh sallolohu alayhi vasallamdan eshitdilar: "Alloh taolo sizlarga onalaringizga yaxshilik qilishni buyurdi". Bu so'zni Rasululloh sollallohu alayhi vasallam uch marotaba takror qildilar. Keyin: " Otalaringizga va undan keyin yaqinroq bo'lgan qarindoshlaringizga ham yaxshilik qilishni buyurdi", - dedilar.

Miqdom ibnMa'di karib roziyallohu anhu Rasululloh sollallohu alayhi vasallaning shunday deganlarini eshitganini aytadilar: "O'zing yeganing bolalaringga, xotiningga va xizmatchilaringga yedirganing hammasi sening qilgan sadaqang, xayr-ehsoning hisoblanadi".

Abdulloh ibn Avn roziyallohu anhu aytadilar: "Rasulloh sollallohu alayhi vasallam:"Oralarida silai rahm qilmaydigan kishi bo'lgan qavmlarga Alloh taoloning rahmati tushmaydi", - dedilar".

At-Termiziyning ijodiy faoliyatida yaratgan asarlari ichida, "Al-Jomi' as-sahiyh" ("Ishonchli to'plam") eng asosiy o'rinni egallaydi. Ushbu asar yuqorida qayd qilganimizdek "al-Jomi' al-kabiyr" ("Katta to'plam"), "Sahiyh at-Termiziy", "Sunan at-Termiziy", ("Termiziy sunnatlari") kabi nomlar bilan ham yuritiladi. Tarixchi ibn Hojar al-Asqaloniyning yozishicha at-Termiziy ushbu asarini 270 hijriy (884 melodiy) yilda, ya'ni qariyb oltmish yoshlarida, ilm-fanda katta tajriba orttirib, imomlik darajasiga erishgandan keyin yozib tugatgan.

Abu Iso at-Termiziy yozib qoldirgan “al-Jome’ as-sahiyh”, “ash-Shamoil an-nabaviya” kabi asarlarida keltirilgan hadisi shariflar katta tarbiyaviy ahamiyatga ega bo’lib, insonlarni halol, adolatli, e’tiqodli, diyonatli, pokiza, mehnatsevar, muruvvatli, rahm-shafqatli, ota-ona, ayollarga nisbatan hurmatda va e’tiborli bo’lishga chorlaydi.

Ta’lim va tarbiyaga oid hadislardan namunalar:

Jahl ibn Muoz roziyollohy anhy aytdilar: Rasyullohu sollohu alayhi vassallam: “ kimki ota-onasini rozi qilsa, unga Tubo nasib bo’ladi va Alloh taolo yning umrini ziyoda qiladi”,- dedilar.

Abdulloh ibn Mas’ud roziyollohy anhydan rivoyat qilinadi: Rasyullohu sollohu alayhi vassallam sahobiylardan so’radilar: “Sizlar kimni pahlavon deb hisoblaysiz? Ular: “Biz kurashda hech kimdan yiqilmaydigan kishini pahlavon deb bilamiz,- deyishdi.” Rasyullohu sollohu alayhi vassallam: “ Unday emas, jahli chiqqan vaqtda ham o’zini tiya oladigan kishi pahlavondir,-“ dedilar.

Jobir ibn Abdulloh roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi u kishi aytadilar: “Rasululloh sollallohu alayhi vasallam: “Yaxshi deb hisoblanadigan har bir ish sadaqa bo’ladi”, - dedilar”.

Aby Barza Aslamiy roziyallohu anhu Rasululloh sollallohu alayhi vasallamga: “Yo Rasululloh! Menga bir amal yuborginki, o’shani qilsam jannatga kirishga sazovor bo’lay”, - dedilar. Rasululloh sollallohu alayhi vasallam: “ Yo’ldan odamlarga ozor beradigan narsalarni olib tashlasang, jannatga kirasan”, - dedilar.

Abu Hurayra roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi:” Rasululloh sollohu alayhi vassallam : “Odamlarning qilgan yaxshiligi uchun tashakkur aytmaydigan kishi Alloh taologa ham shukr aytmaydi”.- dedilar. (Manba: Tarbiyaga oid hadislar. To’plam.O’z XIA nashri.-T.: 2019. 10-13-b.)

Islom tarixida madrasa muallimlariga berilgan tavsiyalar. Allohga va Uning elchilariga, kitoblariga, farishtalariga, oxirat kuniga va bu kun o’z ichiga oladigan hashr, hisob, jazolarga hamda Allohning qazoi qadariga kuchli va mustahkam imon keltirish zarur. Diniy ta’limotlarni yaxshi bilish, buyruq va qaytariqlarni o’ziga lozim tutish, farzlarni ado qilish, risoladagidek xulq-axloqlar bilan xulqlanish keral. Hayotini izga soladigan, to’g’ri yo’lni ko’rsatadigan diniy, axloqiy, tarbiyaviy falsafani chuqur o’rganish lozim. Sog’lom fikrga ega bo’lish, jamiyat bilan hamnafas yashash darkor. Madrasa muallimi arab tilida o’qish va yozishni, so’zlashishni yaxshi o’zlashtirishi kerak. Negaki, bu til Qur’on tili, nabaviy hadislar yozilgan til hamda deyarli barcha mo’tabar kitoblar, islomiy merosimiz bo’lgan noyob qo’lyozmalar tasnif etilgan Alloh tanlagan tildir. Muallim atrofida bo’layotgan voqealarni to’g’ri tahlil qila bilishi, barcha sohalardan xabardor, nihoyatda ma’rifatli, zukko, ilg’or fikrli, zamonasining yetuk ma’rifatchisi bo’lishi kerak. Muallim ta’lim jarayonini rivojlantirishni, uning sifatini oshira bilishni, ta’limda eng zamonaviy uslublarni sohaga joriy qilishni

eplay olishi zarur. Talabalarning ta'lim olishga bo'lgan ishtiyoqini kuchaytirishi, ularni ilmga, bilgan narsalariga amal qilishga targ'ib qilishi darkor. Muallim shogirdlari, hamkasb do'stlari bilan aloqani mustahkamlashi zarur. O'z kasbining fidokori bo'lishi, hayotini dars berish, ziyo tarqatishga bag'ishlashi va shu kabi bir qator mas'uliyatli vazifalarni to'la anglab yetishi juda muhim.

Muallim xulqining go'zalligi bilan sifatlangan, ruhiy tarbiya bilan ziynatlangan, madaniyati yuksak, chuqur ma'lumotli, dars o'tadigan talabalarning maylarri, hojatlari, ularning xos xislatlarini yaxshi fahmlaydigan shaxs bo'lishi lozim. O'z darsiga rag'bat qilgan holida yangi uslub va vositalar bilan ta'lim bera olishi, shu bilan birgalikda, muallimlarning mehnatini qadrlashi, ularning izzat-ikromlarini joyiga qo'yishi, ularning iqtisodiy va ijtimoiy holatlarini yaxshilashga ham e'tibor qaratishi zarur bo'ladi¹⁷.



Nazorat savollari:

1. Islom dini tarqalgandan keyin ta'lim tizimi va mazmuni qanday tashkil etildi?
2. Maktab va madrasalarda ta'lim qanday tashkil etilgan edi? "Hadis" va "sunna" tushunchalarining mazmunini tushuntirib bering.
3. Qur'onning shu kundagi ahamiyatini yoritib bering.
4. Imom Ismoil al – Buxoriy va at – Termiziylarning ibratli hayot yo'li haqida so'zlab bering?
5. Daftaringizga turli mavzudagi saxix hadislardan namunalar yozib, hadislarda ilgari surilgan odob – axloq masalalarini izohlang.



Tavsiya qilinuvchi adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O'zbekiston, 2008.
2. Hasanboev J., Hasanboeva O., Homidov H. Pedagogika tarixi. – T.: O'qituvchi, 1997.
3. Hoshimov K., Safo Ochil. O'zbek pedagogikasi antologiyasi. – T.: O'qituvchi, 2010.
4. Ataeva N., Rasulova F., Hasanov S. Umumiy pedagogika (Pedagogika tarixi). – T.: "Fan va texnologiya", 2011.
5. Abu Abdulloh ibn Ismoil al – Buxoriy. "Al – adab al – mufrad". T., O'zbekiston, 1990.



¹⁷ Qudratulloh qizi G., Ishmuhammedov R., Normuhammedova M. "An'anaviy va noan'anaviy ta'lim". – Samarqand. "Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi", 2019. 55 -bet.

Qo‘shimcha adabiyotlar:

1. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. –T.:O‘zbekiston, 2017.
2. 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini “Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili” da amalga oshirishga oid Davlat dasturini o‘rganish bo‘yicha ilmiy-uslubiy risola. – Toshkent: Ma’naviyat, 2017. -26B.
3. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo‘shma majlisidagi nutq /Sh.M. Mirziyoev. - Toshkent: “O‘zbekiston”, 2016.-56 b.
4. Mirziyoev Sh.M. Qonun ustuvorligi va manfaatlarini ta‘minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. Toshkent. O‘zbekiston nashriyoti, 2017.
5. Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. Toshkent. O‘zbekiston nashriyoti, 2017.
6. Xasanboev J., To‘rakulov X., Xaydarov M., Hasanboeva O. Pedagogika fanidan izohli lug‘at. – T.: Fan va texnologiya, 2008.
7. Niyozov G‘., Axmedova M. Pedagogika tarixidan seminar mashg‘ulotlari. – T.: NOSHIR, 2011.



11-mavzu. ShARQ UYG‘ONISH DAVRIDA PEDAGOGIK FIKRLARNING RIVOJLANISHI.

REJA:

1. Abu Abdulloh Xorazmiyning didaktik qarashlari.
2. Abu Rayhon Beruniyning ilmiy-pedagogik qarashlari.
3. Abu Ali ibn Sinoning ta‘lim-tarbiyaga doir qarashlari.
4. Didaktik adabiyot namunalarida tarbiya masalalarining yoritilishi.

Tayanch so‘zlar: Xorazmiyning didaktik qarashlari, ibn Sino, ta‘lim-tarbiya, pedagogik qarashlar, Qoshg‘ariy, Kaykovus, didaktik adabiyot.

Muallimning jamiyat va millatga nisbatan vazifa va odoblari. Islom tarixida muallim o‘z jamiyati va millatiga o‘zining aql-zakovati, ilmi, madaniyati umuman unga berilgan moddiy va ma‘naviy ilohiy imkoniyatlarini ishga solib xolis xizmat qilishi kerak. Ular doimiy ravishda jamiyatining iqtisodiy, madaniy, siyosiy, ijtimoiy rivojlanishi va taraqqiy etishi uchun bor kuchini ayamay sarflashga targ‘ib etiladi.

Amri ma'ruf va nahyi munkar qilishda ham muloyim bo'lib, odobga ko'ra ish tutish muhim sanaladi. Alloh taolo Oli Imron surasining 159-oyatida bunday marhamast qiladi: "Allohning rahmati tufayli (Siz, ey Muhammad,) ularga (sahobalarga) muloyimlik qildingiz. Agar dag'al va toshbag'ir bo'lganingizda, albatta, (ular) atrofingizdan tarqalib ketgan bo'lur edilar. Bas, ularni afv eting, (gunohlari uchun) kechirim so'rang va ular bilan kengashib ish qiling! (biror ishga) azmu qaror qilsangiz, Allohga tavakkul qiling, zero, Alloh tavakkul qiluvchilarni sevar".

Hadislarda: "Din muomaladir"; "Odamlarning eng yaxshisi kishilarga manfaatlirog'idir"; "Ogoh bo'lingkim, odamlarni urmanglar, ularni ularni xo'rlagan bo'lasizlar, ularni (zo'rlab) to'plamanglar, yo'qsa qochaveradilar. Huquqlarini poymol qilmang, kufrga ketib qoladilar", - deb ta'kidlangan¹⁸.

Islom tarixida madrasa muallimlariga berilgan tavsiyalar. Allohga va Uning elchilariga, kitoblariga, farishtalariga, oxirat kuniga va bu kun o'z ichiga oladigan hashr, hisob, jazolarga hamda Allohning qazoi qadariga kuchli va mustahkam imon keltirish zarur. Diniy ta'limotlarni yaxshi bilish, buyruq va qaytariqlarni o'ziga lozim tutish, farzlarni ado qilish, risoladagidek xulq-axloqlar bilan xulqlanish kerak. Hayotini izga soladigan, to'g'ri yo'lni ko'rsatadigan diniy, axloqiy, tarbiyaviy falsafani chuqur o'rganish lozim. Sog'lom fikrga ega bo'lish, jamiyat bilan hamnafas yashash darkor. Madrasa muallimi arab tilida o'qish va yozishni, so'zlashishni yaxshi o'zlashtirishi kerak. Negaki, bu til Qur'on tili, nabaviy hadislar yozilgan til hamda deyarli barcha mo'tabar kitoblar, islomiy merosimiz bo'lgan noyob qo'lyozmalar tasnif etilgan Alloh tanlagan tildir. Muallim atrofida bo'layotgan voqealarni to'g'ri tahlil qila bilishi, barcha sohalardan xabardor, nihoyatda ma'rifatli, zukko, ilg'or fikrli zamonasining yetuk ma'rifatchisi bo'lishi kerak. Muallim ta'lim jarayonini rivojlantirishni, uning ma'rifatchisi bo'lishi kerak. Muallim ta'lim jarayonini rivojlantirishni, uning sifatini oshira bilishni, ta'limda eng zamonaviy uslublarni sohaga joriy qilishni eplay olishi zarur. Talabalarning ta'lim olishga bo'lgan ishtiyoqini kuchaytirishi, ularni ilmga, bilgan narsalariga amal qilishga targ'ib qilishi darkor. Muallim shogirdlari, hamkasb do'stlari bilan aloqani mustahkamlashi zarur. O'z kasbining fidokori bo'lishi, hayotini dars berish, ziyo tarqatishga bag'ishlashi va shu kabi bir qator mas'uliyatli vazifalarni to'la anglab yetishi juda muhim.

Muallim xulqining go'zalligi bilan sifatlangan, ruhiy tarbiya bilan ziynatlangan, madaniyati yuksak, chuqur ma'lumotli, dars o'tadigan talabalarning mayllari, hojatlari, ularning xos xislatlarini yaxshi fahmlaydigan shaxs bo'lishi lozim. O'z darsiga rag'bat qilgan holda eng yangi uslub va vositalar bilan ta'lim bera olishi, shu bilan birgalikda, muallimlarning mehnatini qadrlashi, ularning

¹⁸ Qudratulloh qizi G., Ishmuhamedov R., Normuhamedova M. "An'anaviy va noan'anaviy ta'lim". – Samarqand. "Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi", 2019. 68-bet.

izzat-ikromlarini joyiga qo'yishi, ularning iqtisodiy va ijtimoiy holatlarini yaxshilashga ham e'tibor qaratishi zarur bo'ladi¹⁹.

Abu Abdulloh Xorazmiyning didaktik qarashlari. Asarlari: «Al jabr va al-muqobala», «Hind arifmetikasi xaqida kitob», «Er satxini o'lchash», «Quyosh soatlari to'g'risida», «Yaxudiylar tarixi va ularning bayramlarini belgilash» va boshqalar.

Didaktik qarashlari:

○ Al-Xorazmiy bilish nazariyasiga muxim hissa qo'shdi. U birinchilardan bo'lib, induksiya, deduktsiya, sinov-kuzatish va sinov metodlariga asos soldi.

○ U birinchi marta insonlar o'rtasidagi munosabatlarni matematik shakllarda ifodaladi.

○ Hindlarning o'nlik raqamlari Xorazmiy tufayli «Arab raqamlari» nomi bilan butun dunyoga yoyildi.

○ Xorazmiy xindlarning falakiyot jadvallarini tahlil etib, «Xorazmiy ziji» nomi bilan mashxur astronomik jadvallar tuzdi.

Abu Nasr Forobiyning asarlaridagi pedagogik fikrlar. Asarlari: «Baxt-saodatga erishuv to'g'risida», «Fozil odamlar shahri», «Aql ma'nolari haqida», «Shaharni o'rganish haqida» va boshqalar.

Pedagogik qarashlari:

• Forobiy birinchi bo'lib ta'lim va tarbiyaga ta'rif bergan olimdir: Ta'lim – so'z va o'rganish bilangina amalga oshiriladi. Tarbiya – esa amaliyot, ish-tajriba bilan amalga oshiriladi.

• Ta'lim-tarbiya ikki yo'l bilan amalga oshiriladi: qanoatbaxsh, ilxomlantiruvchi so'zlar va majbur etish.

• Har kimki ilm, hikmatni desa, uni yoshligidan boshlasin, so'zining ustidan chiqsin, yomon ishlardan saqlanadigan bo'lsin, hiyonat, makr va hiylalardan uzoq bo'lsin, diyonatli bo'lsin, ilm va ahli ilmdan mol-dunyosini ayamasin.

• Inson yaxshi tarbiya ko'rmagan va turmushda yaxshi tajriba orttirmagan bo'lsa, u ko'p narsalarni nazarga ilmay va ulardan jirkanadi. Bunday narsalar unga noo'rin bo'lib ko'ringan narsalar zaruriy bo'lib chiqadi.

Abu Rayhon Beruniyning ilmiy-pedagogik qarashlari. Asarlari: «Minerologiya», «Geodeziya», «Hindiston», «Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar», «Saydana» va boshqalar.

Ilmiy-pedagogik qarashlari:

• Beruniy insonni tabiatning eng oliy kamoloti deb qaraydi. U insonning ma'naviy qiyofasidagi barcha axloqiy xislatlarni yaxshilik va yomonlik kabi ikki turga bo'ladi.

¹⁹ Qudratulloh qizi G., Ishmuhamedov R., Normuhamedova M. "An'anaviy va noan'anaviy ta'lim". – Samarqand. "Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi", 2019. 68-69-betlar.

• Beruniy ta'limotiga ko'ra inson kamolotida uch narsa muxim rol' o'ynaydi:
1. Irsiyat. 2. Muhit. 3. Tarbiya.

• Beruniyning ilmiy bilimlarni egallash yo'llari, usullari xakidagi fikrlari xozirgi davr uchun ham dolzarbdir. U o'kuvchiga bilim berishda:

- o'quvchini zeriktirmaslik;

- bilim berishda bir xil narsani yoki bir xil fanni o'rgatavermaslik;

- uzviylik, izchillik;

- yangi mavzularni qiziqarli, asosan, ko'rgazmali bayon etish va xokazoga e'tibor berish kerakligini uqtiradi.

Abu Ali ibn Sinoning tarbiya 111ori 'lim haqida. Asarlari: «Tadbir al-Manozil», «Tib qonunlari» «Axloq haqida risola», «Burch haqida risola», «Al-konun», «Ishq hakida risola», «Xay ibn-Yakzon», «Donishnoma» va boshqalar.

Ta'lim-tarbiyaga doir qarashlari:

• Ibn Sinoning fikricha insonlar xulq-atvorida birmuncha nuqsonlar bor. Bular: aldash, rashk, o'ch olish, adovat, bo'xton, irodasizlik kabilardir.

• U fanlar tavsifi xakida ham fikr bildirgan. Olim birinchi o'ringa tibbiyot fanlarini ko'yadi. Falsafani esa ikki guruhga-nazariy va amaliy guruhga bo'ladi. U birinchi guruhga etika, iqtisod, siyosatni kiritadi. Ikkinchi guruhga fizika, matematika, metafizika dunyo qonuniyatlarini o'rganuvchi barcha fanlarni kiritgan.

Ibn Sino bilim olishda bolalarni jamoa bo'lib maktabda o'kitish zarurligini ko'rsatadi va ta'limda kuyidagilarga rioya etish zarurligini ta'kidlaydi: 1) bolaga bilim berishda birdaniga kitobga band kilib ko'ymaslik; 2) ta'limda engildan qiyinga 111ori shorkali bilim berish; 3) olib boriladigan mashqlar bolalar yoshiga mos bo'lishi; 4) o'qitishda jamoa bo'lib maktabda o'qitishga e'tibor berish; 5) bilim berishda bolalarning mayli, qiziqishi va qobiliyatini hisobga olish; 6) o'qitishni jismoniy mashqlar bilan ko'shib olib borish.

Didaktik adabiyot namunalarida tarbiya masalalarining yoritilishi.

Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu lug'otit-turk" asarida ta'lim-tarbiya masalalari. Maqollar:

«Odamning olasi ichida – yilqiniki tashqi(sirti)da».

«Ho'kizning ortin oyog'i bo'lguncha, buzoqning boshi bo'lgan yaxshiroq»

«Tirishqoqning labi yog'liq, erinchoqning boshi qonlik».

«Odobning boshi – til»

«Ilon o'zining egriligini bilmay, tuyaning bo'ynini egri deydi»

«Ko'kka suzsa yuzga tushun».

«Bir qarg'a bilan qish kelmas».

«Keng to'n to'zimas, kengashli bilig artamas».

«Kichikda qatiqlansa ulg'adu sevinur».

«Erdamsizdan qurt chertilur».

Yusuf Xos Xojibning "Qutadg'u bilik" asari – pandno-ma asar sifatida.

«Qutadg' u bilig» - baxt-saodatga eltuvchi bilim, ta'lim degan ma'noni bildiradi. Demak asar nomidan ham uning pand-nasixat, ta'lim-tarbiyaga oid etuk didaktik asar, xar tomonlama etuk insonni tarbiyalaydigan darslik ekanligi yaqqol ko'rinib turibdi. «Qutadg' u bilig» asari Sharqda pandnoma turkumidagi an'anaviy kitob tuzish tartibiga rioya kilingan xolda tuzilgan.

Avval nasriy muqaddima, so'ng 73 bobdan iborat kitobning mundarijasi beriladi. Dastlabki o'n bir fasli debocha bo'lib, xamda, na't va Qoraxonni madh etish, ta'lim maqsadi, o'n ikki burj, tilning axamiyati, muallifning uzri, ezgulik xaqida, bilim olishning axamiyati, kitobga nom berilishi, keksalikdan afsuslanish kabi fasllardan iboratdir. O'n ikkinchi fasldan boshlab asosiy voqea bayoni e'tirof etiladi. Lekin asarda to'rt qaxramon – Kuntug'di – adolat ramzi, vazir — Oyto'ldi – davlat va baxt ramzi, vazirning o'g'li O'g'dulmish – aql ramzi, sifatida, O'zgurmish – vazirning qarindoshi – qanoat timsoli o'rtasidagi munozara asosida xayotiy masalalar bir-biriga bog'langan xolda bayon etilib, kitobni yozishdan o'z oldiga ko'ygan maqsadga bo'ysundiriladi.

- O'quv qayda bo'lsa, ulug'lik bo'lar,
- Bilim kimda bo'lsa, buyuklik bo'lar.
- O'quv qut beradi, bilim – shon-sharaf,
- Shu ikkov tufayli ulug'dir inson.
- Yaxshi nom oladi, ko'r, ezgu kishi,
- Yomonlar nasibi – el-yurt qarg'ishi.
- Kishiga chiroydir uyat-andisha,
- U asrar nojo'ya ishdan hamisha.
- Yomonlik qilganning ulushi – o'kinch,
- Yomonga yaxshi bo'l, mayli har qachon.
- Oq sut bilan kirs qaysi bir qiliq,
- O'lim tutmaguncha o'zgaras yo'riq.

Ahmad Yugnakiyning “Hibat ul-haqoyiq” asarida didaktik qarashlar.

Asar o'n to'rt bobdan iborat. Dostonning dastlabki to'rt bobi an'anaga ko'ra muqaddima bo'lib, beshinchi bobdan asosiy qism boshlangan. Bu boblarda, asosan, bilimning axamiyati, jaxolatning zarari, til odobi, dunyoning foniyligi, saxovat va baxillik, kamtarlik hamda axloqlilikning eng muxim xususiyatlari tarannum etiladi.

Asarda boshqa ta'limiy-axloqning asarlar kabi insonni barkamol etishning asosiy belgisi bu uning xushxulqligidir, deyiladi. Shuning uchun adib asarda axlokiy tarkibiy kismi sanalgan tilni tiyish, mol dunyoga muxabbat qo'iishning oqibatlarini, saxovat va baxillik, kamtarlik, jinoyat yo'lidan saklanish xaqida, xarom va xalollikning farzlari, ularni bir-biridan farklay olish, e'tiqod va sadoqat kabi muxyam masalalar ustida fikr yuritadi.

Ulug'likka etsang unutma o'zing,

Agar atlas kiysang, unutm bo'zing.
Qora bosh yag'isi qizil til turur,
Necha bosh edi u, yana ham eyur.
Ming er do'sting ersa o'qish ko'rmagil,
Bir er dushman ersa, ani ozlama.
Ulug'lar ne bersa, emasmen dema,
Ilig sur, og'iz ur, emasang ema.
Tiling bekta tutg'il tishing sinmasun,
Qolu chiqssa bekta tishing siyur.
Harislik ma erg'a yovuz xislat bo'l,
Harislik so'ng g'am, o'kinch hasrat ul.

Kaykovusning “Qobusnoma” asarining tarbiyaviy ahamiyati.

Kaykovusning o'zi ta'kidlaganidek, butun bir asar oxirgi bobda ta'rif berilgan javonmardlar tarbiyasiga bag'ishlangan. Kaykovus «... barcha fikr va tushunchalarim sening uchun kitobga yozdim va har bir ilm, har hunar va har peshakim bilur edim, hammasini qirq to'rt bobda bayon etdim», deyish bilan har bir yoshning aqliy, axloqiy, jismoniy tarbiyasiga oid turmush tajribasi bilan bog'langan holda kamolga etkazish yo'llari va usullarini bayon etgan. Kitobda javonmardlar egallashi zarur bo'lgan quyidagi yo'nalishlarda ta'lim-tarbiya berish nazariyasi ko'zda tutilgan:

1. Bilim olish haqida.
2. Hunar va turli kasb egalari haqida.
3. Turmush va xulq-odob qoidalari haqida.
4. Jismoniy etuklik haqida.

Chunki har bir javonmard uchun tan, jon, havas va maoni, ya'ni ham sipohiylik, ham ma'rifat, ham donishmandlikka ega bo'lish zarur bo'lib, bu xislatlar ana shu yuqoridagi to'rt yo'nalishda zikr etilgan.

Kaykovus Pifagor aytgan quyidagi o'n xislatni har bir kishi o'zida tarkib toptirishini ta'kidlaydi. Bular: o'zidan zo'r kishi bilan urishmaslik; hasadchi kishi bilan birga jamoat o'rtasida o'tirmaslik: riyokor, ikki yuzlamachi kishi bilan do'st bo'lmaslik: yolg'onchi kishi bilan muomala qilmaslik: baxil bilan suhbatda bo'lmaslik; g'ayr, dushman kishi bilan sharob ichmaslik; xotinlar bilan bir erda o'tirmaslik; kishilarga sir aytmasslik; biror kishi aybingni aytsa, shu aybni yo'qotishga harakat qilish; biror kishini ortiqcha maqtash yoki ortiqcha yomonlamaslik; muxtoj bo'lgan odamni gina, qahr bilan qo'rqitmaslik; gunohkorning gunohini avf etish; kichiklarga mehribon bo'lish; bir ishni ikki kishiga buyurmaslik kabi hayotiy tavsiyalarni keltiradiki, inson o'z hayotida har bir daqiqada bunday hatti harakatlarga duch keladi.



Nazorat savollari:

1. Sharq uygʻonish davri olimlari pedagogik gʻoyalarini yoriting.
2. “Devonu lugʻotit-turk” asarida taʼlim-tarbiya masalalari.
3. “Hibat ul-haqoyiq” asarida qanday gʻoya ilgari surilgan?
4. Kaykovusning “Qobusnoma” asarini pedagogik tahlil qiling.



Tavsiya qilinuvchi adabiyotlar:

1. Oʻzbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. –T.: Oʻzbekiston, 2008.
2. Hasanboev J., Hasanboeva O., Homidov H. Pedagogika tarixi. – T.: Oʻqituvchi, 1997.
3. Hoshimov K., Safo Ochil. Oʻzbek pedagogikasi antologiyasi. – T.: Oʻqituvchi, 2010.
4. Ataeva N., Rasulova F., Hasanov S. Umumiy pedagogika (Pedagogika tarixi). – T.: “Fan va texnologiya”, 2011.
5. Abu abduллоh ibn Ismoil al – Buxoriy. “Al – adab al – mufrad”. T., Oʻzbekiston, 1990.



Qoʻshimcha adabiyotlar:

1. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. –T.:Oʻzbekiston, 2017.
2. 2017-2021 yillarda Oʻzbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yoʻnalishi boʻyicha Harakatlar strategiyasini “Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili” da amalga oshirishga oid Davlat dasturini oʻrganish boʻyicha ilmiy-uslubiy risola. – Toshkent: Maʼnaviyat, 2017. -26B.
3. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik Oʻzbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bagʻishlangan Oliy Majlis palatalarining qoʻshma majlisidagi nutq /Sh.M. Mirziyoev. - Toshkent: “Oʻzbekiston”, 2016.-56 b.
4. Mirziyoev Sh.M. Qonun ustuvorligi va manfaatlarini taʼminlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. Toshkent. Oʻzbekiston nashriyoti, 2017.
5. Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qatʼiy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi boʻlishi kerak. Toshkent. Oʻzbekiston nashriyoti, 2017.
6. Xasanboev J., Toʻrakulov X., Xaydarov M., Hasanboeva O. Pedagogika fanidan izohli lugʻat. – T.: Fan va texnologiya, 2008.



12-mavzu: XIV-XVI asrlarda Movaraunnahrda tarbiya va maktab, pedagogik fikrlar rivoji

REJA:

1. Ijtimoiy hayotning ta'lim-tarbiya, maktab va pedagogik fikrlar rivojiga ta'siri.
2. So'fiylik ta'limotining ma'naviy hayotga ta'siri.
3. Movaraunnahrda Amir Temur tomonidan markazlahgan davlat barpo etilishi va uning fan, madaniyat va ma'rifat rivojiga qo'shgan hissasi.
4. Mirzo Ulug'bek, Zahiriddin Muhammad Bobur va Alisher Navoiyning pedagogik g'oyalari va ma'rifatparvarlik xizmatlari.

Tayanch so'zlar: ta'lim-tarbiya, maktab va pedagogik fikrlar, . So'fiylik ta'limoti, markazlahgan davlat, "Temur tuzuklari", madrasa ta'limi islohotlari, komil inson g'oyasi.

Ijtimoiy hayotning ta'lim-tarbiya, maktab va pedagogik fikrlar rivojiga ta'siri. Movarounnahr mo'g'ul urug'lari va qabilalarining ijtimoiy hayotida yuz bergan katta o'zgarish, ularning mahalliy ijtimoiy tuzumini qabul qilishlari, xo'jalik va madaniy hayotdagi o'zgarishlar mo'g'ullarning etnik xususiyatlarini ham o'zgartirib yuboradi. Mamlakat aholisining ijtimoiy hayotida sodir bo'lgan jiddiy o'zgarishlar, shubhasiz uning iqtisodiy jihatdan jonlanishiga turtki ham bo'ldi.

XIII asrning ikkinchi yarmi va XIV asr boshlarida shahar va qishloqlarda xo'jalik hayotining jonlanishi bilan shubhasiz mo'g'ullar istilosi va bosqini davrida kuchli zarbaga uchrab inqirozga yuz tutgan fan, adabiyot, ma'rifat va madaniyatning ayrim tarmoqlari ham tiklana boshlaydi.

Garchi yozma manbalarda bizgacha aniq ma'lumotlar etarli darajada etib kelmagan bo'lsa-da, har qalay bu davrda ilm va ma'rifat ham ayrim yirik hunarmandchilik va savdo-sotiq markazlarida jonlanadi. Buxoroda bino qilingan «Mas'udiya» va «Xoniya» kabi madrasalarning har birida mingtagacha tolibi ilm ahli tahsil ko'radi.

So'fiylik ta'limotining ma'naviy hayotga ta'siri. So'fiylar inson ma'naviy-ruhiy komillikka erishish yo'llarida to'rt bosqichni o'tishi kerak, deydi.

Birinchi bosqich – **shariat**. Diniy marosimlar va shariat aqidalarini, taqvolarini aynan, izchil bajarish, chunki shariat qonun bo'lib, bu qonun vujudni va qalbni tarbiyalaydi.

Ikkinchi bosqich – **tariqat**: nafsni tiyish, xushnudlik, xudoni o'ylash, xilvat, ma'naviy muhabbatni chuqurlashtirib, xudo to'g'risida o'ylash, ya'ni tariqat – fano, o'zdan kechish, ko'ngilni poklab, ruhni nurlantiruvchi yo'l, faoliyat shakli.

Uchinchi bosqich – **ma'rifat**: hamma narsaning, butun borliqning asosi – xudo ekanini, o'zining mohiyati xudo mohiyati bilan birgaligini bilish va anglash. Bunda odam uchun barcha kibr-u havo, manmanlik, shon-shuhrat bema'ni bo'lib ko'rinadi, shunda u orif, ya'ni bilimli, xudoni tanigan bo'ladi.

To'rtinchi bosqich – **haqiqat**. Bunda so'fiy xudoning dargohiga erishadi, vasliga vosil bo'ladi, u bilan birlashadi, shu orqali inson foniy, ya'ni «anahq» bo'la oladi.

Movaraunnahrda Amir Temur tomonidan markazlahgan davlat barpo etilishi va uning fan, madaniyat va ma'rifat rivojiga qo'shgan hissasi. Amir Temur hayotlik davridayoq uning harbiy san'ati va davlat boshqarish uslubiga bag'ishlangan maxsus asar yaratilib, u «Temur tuzuklari» nomi ostida shuhrat topadi. Bu asar shaxsan Temurning og'zidan yozib olingan deb hisoblanadi. Unda davlatni boshqarishda kimlarga tayanish, toj-u taxt egalarining tutumi (yo'nalishi) va vazifalari, (vazir va qo'shin boshliqlarini saylash, sipohlarning maoshi) mamlakatni idora etish tartibi, davlat arboblari va qo'shin boshliqlarining burchi va vazifalari, amirlar, vazirlar va boshqa mansabdorlarning toj-u taxt oldida ko'rsatgan alohida xizmatlarini taqdirlash tartibi va boshqalar xususida bayon etiladi.

Amir Temur umr bo'yi quyidagi o'n ikki tamoyilga amal qilgan:

- Har erda va har vaqtda islom dinini qo'llab-quvvatlagan.
- Davlat ishlarini kengash asosida boshqargan.
- Salatanat ishlarini murosayu madora orqali yurgizgan.
- Davlat ishlarini qonun-qoida va tuzuklarga asoslanib boshqargan.
- Amirlar va sipohiylarga hurmat ko'rgazgan.
- Adolat va insofga tayangan.
- Fuqarolarga izzat-hurmat ko'rgazgan.
- Azmu jazm bilan ish tutgan.
- Raiyat ahvolidan doimiy ogoh bo'lgan.
- Turku tojik, arabu ajamning turli toifalariga hurmat ko'rsatgan.
- Do'stlarni unutmagan va ularga yordam bergan.
- Har joyda sipohiylarni hurmat qilgan.

“Temur tuzuklari”dagi hikmatlardan namunalar:

1. Adovat emas, adolat engadi.

2. So'zlaguvchi gar nodon erur, tinglaguvchi dono o'lsin.
3. Ota bo'lmagan, ota qadrini bilmas.
4. Do'shmandan qo'rqma, munofiqdan qo'rq.
5. Ishon. Ammo shubha qil.
6. Kuch – adolatdadir.
7. Do'stlik sinovda chiniqadi.
8. Filning dumi bo'lguncha, chumolining boshi bo'l.
9. Toy mingan – ot ham minadi.
10. Botir jangda bilinar, dono – mashvaratda.
11. Birliksiz kuch bo'lmas.

Mirzo Ulug'bekning pedagogik g'oyalari va ma'rifatparvarlik xizmatlari. Samarqandda o'z atrofida to'plangan olimlarning bevosita ishtiroki va yordamida Ulug'bek 1424-1428-yillarda shahar yaqinida Qbirahmat anhuri bo'yida rasadxona qurdirdi. Doira shaklida bino qilingan bu ulkan imoratning aylanasi 47 metr, balandligi 31 metr edi. Bobo'ning yozishicha, u uch qavatli bo'lgan. Binoning sirti koshin va sirli parchinlar bilan qoplangan. Binoning ichki sahni sudsi faxriy (sekstant) va koridorlar bilan to'rt qismlarga ajratilgan. Rasadxona ichki devorlarida koinot-u Er sharining umumiy manzarasi tasvirlangan bo'lib, shu tufayli bu mavzu aholi o'rtasida «Naqshi jahon» degan nom bilan shuhrat topadi. Samarqandda Ulug'bek rahbarligida barpo etilgan bu ilmiy dargoh matematika, ayniqsa astronomiya sohasida ilmiy dunyoda olamshumul ahamiyat kasb etgan natijalarga erishadi. Rasadxonada olib borilgan kuzatish va tadqiqotlar tufayli 1018 sobita (qo'zg'almas) yulduzlarning o'rni va holati aniqlanib, ularning astronomik jadvali tuziladi. O'rta Osiyo, YAqin va O'rta SHarq mamlakatlari bo'ylab joylashgan 683 geografik punktlarning Samarqand kengligiga nisbatan koordinatalari belgilab chiqildi. Rasadxonada olib borilgan tadqiqotlarning natijalari asosida matematika va astronomiyaga oid qator nodir asarlar yaratildi. «Ziji jadidi Ko'ragoniy» dan tashqari Ulug'bek «Tarixi arba' ulus» (To'rt ulus tarixi) nomli tarixiy asar hamda musiqa ilmiga bag'ishlangan beshta risola yozgan.

Ulug'bek davrida maktab islohoti. Ulug'bek Movarounnahr shaharlarini, xususan Samarqand va Buxoroni ilm-u ma'rifat dargohiga aylantirishga intiladi. Uning farmoni bilan 1417-yilda Buxoroda, 1417-1420-yillarda Samarqandda va 1433-yilda G'ijduvonda madrasalar qad ko'taradi. Hatto Buxoro madrasasining darvozasiga «Bilim olish har bir musulmon ayol va erkakning burchidir» degan kalima o'yib yozib qo'yiladi.

Alloma o'z davlatida ta'lim sohasida jiddiy islohotlarni tashkil etdi. U madrasalarni davlat ta'minotiga o'tkazdi, mudarris (o'qituvchi)larga oylik ish haqi belgilagan, shogird (talaba)larga stipendiya ajratgan. Muhammad Tarag'ay Ulug'bek madrasa o'quv rejasiga quyidagi fanlar: arab tili, adabiyot, Qur'on, Hadis, ritorika, mantiq, falsafa, fikh (qonunchilik), metafizika, matematika,

astronomiya, tibbiyot, geografiya, tarix kabi fanlarni kiritadi. Mutafakkir tomonidan barpo etilgan hamda o'zi bevosita ta'lim bergan madrasalarda o'qish quyidagi bosqichlardan iborat bo'lgan:

1. «Anda» (kichik) – o'qish muddati 2 yil.
2. «Aust» (o'rta) – o'qish muddati 3 yil.
3. «A'lo» (oliy) – o'qish muddati 3 yil.

Bunday yondashuvda, bugungi kun nuqtai nazaridan aytganda, bakalavriat va magistratura ko'zga tashlanadi. Ayni vaqtda ular o'rta asr Yevropa universitetlari uchun ham xos bo'lgan.

Zahiriddin Muhammad Boburning pedagogik fikrlari. Bobur 1526-yilning 21-aprelida Dehli hukmdori Ibrohim Lo'diy qo'shinlarini tor-mor keltirdi. Bu g'alaba natijasida Bobur SHimoliy Hindistonni egalladi. 1526-yilning 27-aprelda Dehli shahrida Bobur podshoh nomiga xutba' o'qildi. Shu tariqa, yangi saltanat Boburiylar saltanatiga asos solinadi. Bobur podshoh Hindistonda bir-biri bilan dushmanlik kayfiyatida bo'lgan mayda mustaqil rojalarni (hukmdorlarni) ham qilich, ham siyosat yo'li bilan birlashtiradi va 1530 yilgacha markazlashgan yirik saltanatini barpo etadi. Bu saltanat 332 yil (1526-1858-yillar), ya'ni Hindistonni Buyuk Britaniya to'liq bosib olgunga qadar hukm surdi. Bobur xayotiy esdaliklar yozish maktabini «Boburnoma» asari orkali boshlab berdi. «Muxtasar», «Mubayyin», «Volidiya», «Xatti Boburiy» kabi asarlarida ta'lim-tarbiya masalalariga alohida e'tibor qaratgan. Uning ijodiga mansub bo'lgan «Xatti Boburiy» uzoq yillar davomida maktablarda, madrasalarda savod o'rgatish kitobi sifatida foydalanilgan. Bobur nafaqat buyuk davlat arbobi, mohir sarkarda, shoir, bastakor, ayni paytda mashhur tarixchi olim hamdir. Bu borada uning nomini abadiylikka muhrlagan asar - «Boburnoma»dir.

Alisher Navoiyning asarlarida tarbiya va insonparvarlik masalalari. Navoiy ijodining asosini inson va uning ma'naviy dunyosi, muhabbat va go'zallik tushunchalari haqidagi chuqur uy-xayollar, hayot mazmuni haqidagi fikrlar tashkil etadi. Shoir nazarida muxabbat – bu insonni yomonliklardan va ehtiyojga berilishdan forig' etuvchi ulug'-vor axloqiy kuch. U o'zida olijanoblik va mardonavor ruhni, vafodorlik-ni, insondagi barcha imkoniyatlar va ma'naviy kuchlarning faol namoyon bo'lishi yo'llarini aks ettiradi. Inson ruhining go'zallikka intilishi va bu go'zallik uchun axloqiy jasorat ko'rsatishga tayyorlik Navoiyda shoirning ijodiy tasavvurida yaratilgan yuksak ulug'vorlik ko'rinishida tasvirlanadi.

Alisher Navoiyning yozishicha, faqat inson Allohning ilmu hikmatiga oshno qilingan («Qilding ani orifi ul ma'rifat»), faqat odamga ma'rifat ganji ishonib topshirilgan. Navoiy Qur'on oyatlariga ishora etib, inson ulug'ligini bunday ta'rif etadi:

“Karramno” – keldi manoqib anga

“Ahsani taqvim” – munosib anga.

Alisher Navoiy insonga birinchi navbatda hayotdagi kirdikoriga qarab baho bergan. Inson jamiyatga naf keltirishi, foydali ishlari bilan qadrlil. Boshqalarga ziyon etkazadigan, jamiyat tengligi va osoyishtaligini buzadigan, siyrati suratiga to’g’ri kelmaydigan kimsalar chin inson emas. U jamiyatning har bir a’zosidan – shohmi, gadomi – inson nomiga munosib bo’lishlikni talab etadi. Navoiyning fikricha, yaxshilikning, odamiylikning mezoni – bu xalq g’am tashvishi bilan yashashdir:

Odamiy ersang, demagil odamiy

Oniki, yo’q xalq g’amidin g’ami.

Alisher Navoiy “qanoat” to’g’risida. Qanoat buloqdur-suvi olgan bilan kurimaydi; xazinadir – naqdisi sochgan bilan kamaymaydi, ekinzordir – urug’i izzat va shavkat mevasi beradi; daraxtdir – shoxi tortinchoqlik va hurmat mevasi etkazadi.

Kimki, qanoatga odatlansa, shoh va gadoy bordi-keldisidan ozod bo’ladi... Qanoat qo’rg’ondir, u erga kirsang nafs yomonligidan qutularsan, tog’likdir – u yerga chiqsang dushman va do’stga qaramlikdan xalos bo’larsan; tubanlashishdir – natijasi yuksaklik; zoriqishlikdir – foydasi ehtiyotsizlik urug’ining mevasi farovonlik...

Alisher Navoiy “sabr” to’g’risida. Sabr achchiqdir – ammo foyda beruvchi, qattiqdir – ammo zararni daf etuvchi... Sabr shodliklar kalitidir va bandlar ochqichidir.

U o’rtoqdir – suhbat zerikarli, ammo maqsadga olib boruvchi; ulfatdir – umidi uzun, ammo oxiri estakka eltuvchi.

Ulovdir – yurishi taxir, ammo manzilga eltuvchi; tuyadir – qadami og’ir, lekin bekatga tushirguvchi.

Achchiq so’zli nasixatchiday tabiat undan olinadi, lekin zaminda maqsad xosil bo’ladi. Badxo’r dori beruvchi tabibday kasal undan qiynaladi, ammo so’ngida sog’lik yuz beradi.

Alisher Navoiy “muruvvat va saxovat ” to’g’risida. Saxovat insoniyat bog’ining borvar shajaridur (boqiy ildizidir), balki ul shajarning mufid samaridur (hosilasidur). Odamiylik kishvarining bahri mavjvari (odamiylik dengizining mavjlari), balki ul mavj bahrining samin gavhari... Ma’dumlikda (insoniy fazilat sifatida) muruvvat karamning urug’ qayoshidur (qarindoshidir), balki tav’amon (umuman) qarindoshidur... Sohibi muruvvat (muruvvatli kishi) sharif xalqidin ayrilmaydurkim, u qayda bo’lsa Tengri panohida bo’lsin – izzat va sharaf oromgohida.

Muruvvat – barcha bermakdur, emak yo’q, // Futuvvat – barcha qilmoqdur, demak yo’q. SHoir nazdida muruvvat odamgarchilik yuzasidan qilingan yaxshilik, saxovat, himmatdir, o’zida bor narsalarni muhtojlarga berish, emay edirish, kiymay

kiydirishdir. Futuvvat esa barchaga yaxshilik ko'rsatish, ammo evaziga hech narsa talab va ta'ma qilmaslikdir

Navoiyning maktab va madrasalar rivojiga qo'shgan hissasi. O'rta asrning buyuk adibi Alisher Navoiyning turkiyzabon xalqlar, xususan o'zbek xalqining ma'naviy ravnaqi yo'lidagi mamlakat obodonchiligi, el-yurtning farovonligi yo'lidagi faoliyati beqiyosdir. Mirzo Muhammad Haydarning yozishicha, Navoiyning har yilgi daromadi o'n sakkiz ming "*shohruhiy*" dinorga teng bo'lgan. Bu mablag'ning deyarli hammasini u xayrli ishlarga, shu jumladan jamoat qurilishlariga sarf etgan. U birgina Hirot shahri yaqinida Injil anhuri bo'yida bir qancha binolar: "*Ixlosiya*" madrasasi, uning qarshisida "*Xolisiya*" xonaqohi, "*Qudsiya*" jome' masjid, "*Shifoiya*" davolash uyi, "*Safoiya*" hammomi, va ular qoshiga toshhovuz qurdiradi. Binokorlik ishlari Hirotning qator mohir me'mor, muhandis, banno va naqqoshlari tomonidan bajariladi. "*Ixlosiya*" madrasasi va "*Xolisiya*" xonaqohida bir necha ming kishi istiqomat qilib, fan, adabiyot va san'at bilan mashg'ul bo'lgan. O'sha davr tarixchisi Xondamirning yozishicha "*Xolisiya*" xonaqohida har kuni zaifa saqlab qolish, fursat boy berilgan davrlarda esa istiqol uchun xalqimiz birdamlik bilan oyoqqa turdi, "yo hayot, yo mamot" shiori ostida qahramonona kurashdi.

Navoiyning o'qituvchi (mudarris) to'grisidagi fikrlari. Mudarris kerakki, g'arazi mansab bo'lmasa va bilmas ilmni aytishga urinmasa, manmanlik uchun dars berishga havas ko'rgazmasa va olg'irlik uchun gap-so'z va g'avg'o yurgizmasa, nodonlikdan sallasi katta va pechi uzun bo'lmasa, gerdayish uchun madrasa ayvoni boshi unga o'rin bo'lmasa. ... Yaramasliklardan qo'rqsa va nopoklikdan qochsa, nainki, o'zini olim bilib, necha nodonga turli xil fisq ishlarni mumkin, balki halol qilsa, qilmas ishlarni qilmoq uchun sodir bo'lsa va qilar ishlarni qilmaslik unga qoida va odat bo'lib qolsa. Bu mudarris emasdir, yomon odatni tarqatuvchidir".

"Uning ishi odam qo'lidan kelmas, odam emas, balki dev ham qila bilmas. Bir kuchli kishi bir yosh bolani saqlashga ojizlik qilardi, u esa bir to'da bolaga ilm va adab o'rgatadi, ko'rkim bunga nima etsin.

Shunisi ham borki, u to'dada fahm-farosati ozlar bo'ladi, unday kishiga yuzlarcha mashaqqat kelsa qanday bo'ladi. Har qanday bo'lsa ham, yosh bolalarga uning haqqi ko'pdir. Agar shogird podshohlikka erishsa ham unga (muallimga) qulluq qilsa arziydi.

Haq yo'lida kim senga bir harf o'qitmish ranj ila,

Aylamak bo'lmas ado oning haqin yuz ganj ila.

Abdurahmon Jomiyning pedagogik qarashlari. Jomiy uchta lirik devon, etti dostonon iborat "*Haft avrang*" ("*Etti taxt*"), ta'lim-tarbiyaga oid "*Bahoriston*" asarlari bilan jahon madaniyati taraqqiyotida munosib o'ringa ega bo'ldi.

Jomiyning ‘Lujjat ul-asror’ (“Sirlar dengizi”, 1475), “Ashiat ul-lamoat” (“Yiltillagan nur”, 1476) diniy-falsafiy qasidasi Ibn Sinoga bag’ishlangan. Dostonlarida xalq ommasining eng yaxshi orzu-umidlarini kuylagan. 7 dostonidan iborat “Haft avrang” (“Etti taxt” yoki “Katta ayiq”, 1480—87)dagi “Silsilat uz-zahab” (“Oltin zanjir”, 1472), “Tuhfat ul-ahror” (“Nuroniylar tuhfası”, 1481—82), “Sibhat ul-abror” (“Taqvodorlar tasbehi”, 1482— 83) dostonlarida yuksak xulq-atvor mezonlarini targ’ib qilgan, kishilarni ma’rifatga, yurtparvarlikka, to’g’rilik, insof va iymonga chaqirgan.

Abdurahmon Jomiyning ta’limiy-axloqiy qarashlari Sa’diyning Guliston asari uslubida yozilgan “Bahoriston” asari va “Xaft avrang”ga kirgan “Tuhfatul axror” hamda “Silsilatuz zahab” (“Oltin zanjir”) va boshqa dostonlarida ifodalangan.

Bu dostonlarda va “Bahoriston”da Jomiy hakiiy kamolotga erishgan inson haqidagi qarashlarini bayon etadi.

Jomiy o’zining mashhur “Silsilatuz zahab” (“Oltin zanjir”) dostonida esa “Sevimli aziz farzandga nasihat” bobida, avvalo har bir yosh bilim olishi zarurligi, chunki inson umri juda qisqa bo’lib, bu ulfni behuda o’tkazmasligi, ammo bilim olgandan so’ng unga almal qilish lozimligini ta’kidlaydi va amaliyotsiz ilm ham behuda ekanligini alohida uqtiradi.

Abdurahmon Jomiy hikmatlaridan

Hammadan avval farzand, bilimdan bahramand bo’l,
Nodonlik yurtidan chiq, bilim tomon ol yo’l.
Har bir kishiga bu so’z, oyna kabi ayondir,
Dono tirik hamisha, nodon o’liksimondir.

Eng zarur bilimni qunt bilan o’rgan,
Zarur bo’lmaganin axtarib yurma.
Zarurini hosil qilgandan keyin,
Unga amal qilmay umr o’tkurma.
Kimning qalb diliga kirdi qanoat,
Hirs bilan ta’madan qutuldi bori.
Qanoat gilami to’shalgan erda,
Sindi ochko’zligu ta’ma bozori.

Qoldiray desang jahonda yaxshi nom,
Yaxshilik qil, yaxshilik qilgil mudom...

Jaloliddin Davoniyning axloqiy qarashlari. Jaloliddin Davoniy (to’la nomi Jaloliddin Muhammad ibn Asad as Siddiqiy ad Davoniy) (1427 — Davon qishlog’i, Eron — 1502) — sharq olimi, faylasufi. Yoshligidan ilm-fanga, xususan fiqhshunoslikka qiziqadi. Maktabni bitirgach, Sherozga kelib madrasada tahsil

ko'radi. So'ng Sheroz shahri qozisi etib tayinlanadi. Qozilikdan iste'foga chiqqach, mudarrislik qiladi. Umrining oxirida o'z qishlog'iga qaytib, ilmiy ish bilan band bo'ladi. Davoniy Eron, Hindiston, Iroqning ko'p shaharlarida bo'lib, olim va shoirlar bilan uchrashdi. Forobiy, Ibn Sino, Nasriddin Tusiy va boshqalarning dunyoqarashini o'rgandi, Temur va temuriylar davrida yashagan mutafakkirlar asarlaridan unumli foydalandi. U falsafa, axloqshunoslik, mantiq, fiqh, falakiyot, riyoziyot va handasa fanlari muammolarini tadqiq qilib asarlar yozdi. Bu asarlarida inson va uning kamoloti, ilm-fan va uning jamiyatdagi o'rni, kasb-hunar, yuksak insoniy fazilatlarni egallash haqida fikr yuritdi. Davoniyning asosiy asarlari: «Axloqi Jaloliy», «Risolatul-xuruf» («Harflar haqida risola»), «Risolayi isboti vojib» («Zaruriyatning isboti haqida risola»), «Risola ul-mufradot» («Moddalar haqida risola»), «Risolayi fi tavjix ultashbih» («Majoz talqini xaqida risola»), «Risola dar elm un-nafs» («Ruhshunoslik to'g'risida risola»), «Tariqati tarbiyat ul-avlod» («Bolalarni tarbiyalash usuli») va b. Davoniyning fors va arab tilida bitilgan qo'lyozma hamda toshbosmada bosilgan risolalari dunyoning ko'p kutubxonalarida, shu jumladan O'zbekiston Fanlar akademiyasi Abu Rayxon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutida saqlanadi.

“Axloqiy Jaloliy” asarining pedagogik fikrlar rivojidagi o'rni. Davoniyning axloqiy tarbiyaga bag'ishlangan “Axloqi Jaloliy” asari dunyoning ko'p tillariga tarjima qilingan. Asar uch qismdan iborat. Birinchi qism – axloq faniga, ikkinchi qism – “Odamning ichki holati” oilaviy hayotiga, uchinchi qism – “Shahar (davlat)ni boshqarish va podshohlar siyosati” deb nomlanib, unda muhim ijtimoiy-siyosiy masalalar ko'tariladi.

Davoniy inson o'zining aqliy qobiliyatini tarbiyalash uchun quyidagilarga amal qilish lozimligini uqtiradi: 1) zehn o'tkirligi; 2) fahmlilik; 3) zehn ravshanligi; 4) bilimni tez egallash qobiliyati; 5) qo'yilgan muammoni tezda anglashi; 6) yodlash qobiliyati; 7) xotira.

Davoniy insonga foyda keltiradigan kasb-hunarni uchga bo'ladi: 1) inson aqliy faoliyati bilan bog'liq; 2) ta'lim-tarbiya natijasida vujudga keladigan; 3) kishilarning shijoati, jasurligi bilan bog'liq.

Davoniy insoniy fazilatlarni to'rtga bo'ladi: donolik, adolat, shijoat, iffat.

Davoniy g'azabni eng og'ir ruhiy kasallik deydi. G'azab kishining katta nuqsoni, kamchiligi, aqlsizligidir, agar aql g'azab va hissiyotga bo'ysunsa, kishi hayvon darajasiga tushib qolishi mumkin, chunki hayvonning aqli bo'lmaganligi tufayli u g'azab va quvvatini o'ziga buysundira olmaydi. Inson aqli bo'la turib g'azabni buysundira olmasa, buni hech qachon kechirish mumkin emas.



Nazorat savollari:

1. So'fiylik ta'limotining ma'naviy hayotga ta'sirini yoriting.

2. Naqshbandiya tariqati namoyondalari haqida taqdimot materiallari tayyorlang.
3. Amir Temur tuzuklarini mustaqil o'qib o'rganing va sohibqironning tarbiyaga oid qarashlarini to'plang.
4. "Axloqi Davoniy" da qanday pedagogik fikrlar ilgari surilgan?



Tavsiya qilinuvchi adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O'zbekiston, 2008.
2. Hasanboev J., Hasanboeva O., Homidov H. Pedagogika tarixi. – T.: O'qituvchi, 1997.
3. Hoshimov K., Safo Ochil. O'zbek pedagogikasi antologiyasi. – T.: O'qituvchi, 2010.
4. Ataeva N., Rasulova F., Hasanov S. Umumiy pedagogika (Pedagogika tarixi). – T.: "Fan va texnologiya", 2011.
5. Jaloliddin Davoniyning axloqiy qarashlari, "Axloqiy Jaloliy".



Qo'shimcha adabiyotlar:

1. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: O'zbekiston, 2017.
2. 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini "Xalq bilan muloqot va inson manfaatlarini yili" da amalga oshirishga oid Davlat dasturini o'rganish bo'yicha ilmiy-uslubiy risola. – Toshkent: Ma'naviyat, 2017. -26B.
3. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutq /Sh.M. Mirziyoev. - Toshkent: "O'zbekiston", 2016.-56 b.
4. Mirziyoev Sh.M. Qonun ustuvorligi va manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. Toshkent. O'zbekiston nashriyoti, 2017.
5. Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. Toshkent. O'zbekiston nashriyoti, 2017.
6. Xasanboev J., To'raqulov X., Xaydarov M., Hasanboeva O. Pedagogika fanidan izohli lug'at. – T.: Fan va texnologiya, 2008.
7. Niyozov G., Axmedova M. Pedagogika tarixidan seminar mashg'ulotlari. – T.: NOSHIR, 2011.



13-mavzu. XVII ASRDAN XIX ASRNING YARMIGACHA TARBIYA, MAKTAB VA PEDAGOGIK FIKRLAR RIVOJI. XIX ASRNING 2-YARMI XX ASRNING 1-CHORAGIDA TURKISTON ULKASIDA TARBIYA, MAKTAB VA PEDAGOGIK FIKRLAR.

Reja:

1. Buxoro amirligi, Qo‘qon va Xiva xonliklarida ta‘lim-tarbiya.
2. Maktab va madrasalarda ta‘lim mazmuni.
3. XVII-XIX asrlarda pedagogik fikrlar rivoji.

Tayanch so‘zlar: ta‘lim va tarbiya, xonliklardagi ijtimoiy-ma‘naviy muhit, madrasa, qorixona, daloilxona, otnoyilar maktablari, yangi usul maktablar, ta‘lim tizimi, darsliklar, “*Odob as-solihin*” asari mazmuni.

XVII-XIX asrlarda O‘rta Osiyoda bir nechta turdagi talim muassasalari (maktab, madrasa, qorixona, daloilxona, otnoyilar maktablari) mavjud edi. Ayniqsa Qo‘qon, Toshkent, Buxoro kabi shaharlarda ularning soni tez ko‘paygan.

Maktablar boshlang‘ich talim muassasasi hisoblanib, unda bolalarga yozish va o‘qish o‘rgatlgan, din haqida dastlabki malumotlar berilgan. Madrasalar yuqori turuvchi o‘quv muassasasi hisoblangan, qorixona va daloilxona («Daloil al-xayrot») quyi diniy xizmatchilarni tayyorlagan.

XIX asrdagi Qo‘qon xonlari arxivlarida beklar va xonlar saroylarida sag‘ir (etm)lar uchun ochilgan maktablar haqidagi malumotlar saqlanib qolgan. Bunday maktablar davlat mablag‘lari hisobiga faoliyat yuritgan. **Maktab va madrasalarda ta‘lim mazmuni.** Maktablardagi talim tizimi bir qancha bosqichli va puxta tashkil etlgani bois savod o‘rganish ko‘p vaqtni olar edi. Chunonchi, faqatgina alifboni o‘rganishga 3-4 oydan bir yilgacha, bazida undan ham ko‘p vaqt sarflanar edi. O‘quvchilar dastlabki o‘qish ko‘nikmalarini egallaganlaridan so‘ng «Haftyak»ni (fors. “Quronning ettdan bir qismi”) o‘qishni boshlaganlar

O‘quvchilar «Haftyak»ni tugatganlaridan so‘ng «Chor-kitob» (To‘rt kitob)ni o‘qishga kirishganlar. «Chor-kitob» fors-tojik tilida yozilgan bo‘lib, uning birinchi qismida diniy marosimlar (tahorat olish, namoz o‘qish, ro‘za tutsh va h. q.) shery usulda bayon etlgan, ikkinchi qismida yuqoridagi masalalar katexizis (izoh) shaklda ancha keng yoritlgan parchalar o‘rin olgan. “Chor-kitob”ning “Musulmonlikning muhim masalalari” deb nomlangan uchinchi qismi o‘quvchilarni shariatning asosiy ustuni -musulmon diniy huquqlari bilan tanishtirgan. Kitobning “Pandnoma” (Nasihatchi kitobi) deb nomlangan va XIII asrda yozilgan to‘rtinchi qismida Quroni karimdan olingan odob-axloq masalalariga oid qoidalar shery shaklda bayon etlgan.

Shundan soʻng oʻquvchilar mutlaq din masalalariga bagʻishlangan “Sabotul ojizin” kitobini oʻqishni boshlaganlar. Ushbu asar koʻpincha uning muallifining nomi bilan, yani – “Soʻfi Olloyor” deb yuritladi. Bu sof diniy asar boʻlib, unda diniy masalalar shery usulda bayon qilingan.

Maktabni tamomlagan oʻquvchilar talimni davom ettirish uchun madrasalarga kirganlar.

Madrasa odatda ikki boʻlimdan, yani: quyi (ibādat al-ʻislām) va yuqori (masola) boʻlimlardan iborat boʻlgan. Lekin barcha madrasalarda ham boʻlimlar shunday nomlanmaganini qayd etish lozim. Masalan, Buxoro madrasalarida quyi boʻlim «mushkulāt» deb yuritlgan.

Birinchi boʻlimda talabalar din ahkomlarini oʻrganganlar. Ikkinchi boʻlimda esa – Quroni karimga muvofiq holda bayon etilgan islomning asosiy qonunlari oʻqitilgan. Bundan tashqari, arab tilshunosligi, mantq, tarix, sher yozish ilmi, metafizika va boshqa fanlar ham oʻqitilgan. Madrasalarda barcha mashgʻulotlar arab tilida olib borilgan. Madrasa talabalarini shartli ravishda uchta kursga boʻlish mumkin.

Birinchi, yani boshlangʻich kurs adnā (quyi), ikkinchi kurs – avsat (oʻrta) va uchinchi kurs – aʻlo (yuqori) deb nomlangan. Biroq, kurslarning nomlari hamma madrasalarda ham bir xil boʻlmagan. Shu oʻrinda bunday kurslarga ajratish faqat yirik madrasalarda mavjud boʻlgani, talabalar soni 20 kishiga etmagan kichik madrasalarda esa talabalarning barchasi faqat bitta mudarrisga mashgʻulotga qatnaganlarini qayd etish lozim.

Madrasada darsni tashkil etish tartibi quyidagicha boʻlgan: bitta darslikdagi aynan bir bobni oʻrganayotgan 10-15 nafar talaba bir sinf xonasiga toʻplanishgan va oʻzlariga oqsoqol (sardor) saylab olishgan. Bu guruh «jamo», uning oqsoqoli esa «qori jamo» deb nomlangan. Darsni boshlash uchun oqsoqol mudarrisning huzuriga borar va undan mazkur guruh bilan mashgʻulot oʻtkazish uchun izn soʻrardi.

Qizlar maktabi va unda taʻlim mazmuni. Masjid va xonaqohlar qoshida ochilgan maktablarda faqat oʻgʻil bolalar oʻqitilgan. Qiz bolalar oʻz davrining oʻqimishli ayollari tomonidan uylarida ochilgan maktablarda oʻqitilgan. Ayol muallimani oʻlkaning turli hududlarida “otnoyi”, “otnbibi”, “bibiotn”, “bibixalifa” deb ataganlar. Qizlar maktabi oʻgʻil bolalar maktablariga nisbatan ancha kam boʻlgan, koʻp hollarda maktabdorlarning, imomlarning xotnlari maktabdorlik qilgan. Qizlar maktabi haqida K. E. Bendrikov “Turkistonda xalq maorifi tarixidan ocherklar” asarida quyidagilarni yozadi: “Qizlar ishqiy maktublarga berilmasinlar deb, qizlar maktabida yozuvga oʻrgatilmagan”. Professor U. Dolimovning fikricha, bu soʻzlar haqiqatdan ancha yiroq. Oʻzbek xalqi – oʻtmishda eng koʻp shoiralar etshtirgan xalq, agar yozuvga oʻrgatilmaganida edi, podshohlar saroyiga mansub boʻlgan Gulbadanbegim, Zebunisobegim,

Nodirabegimlarni qo‘ya bering, XIX asrning o‘zida Uvaysiy, Mahzuna, Dilshodi Barno, Muazzamxon, Muattarxon, Anbar otin, Qamarniso, Nozimaxon kabi o‘nlab mashhur shoirlar qaerdan etshib chiqqan,!

O‘rta Osiyoda faoliyat yuritgan qizlar maktabining yirik namoyondalaridan biri – Jahon Otn Uvaysiydir. O‘zining butun faoliyat davomida xalqimiz orzu-umidlarini ro‘yobga chiqarishga harakat qilgan Jahon otn xalqimizning oqila qizlarini tarbiyalash, go‘zal hayotga erishishning birdan-bir yo‘li deb o‘ylab, o‘zining butun umrini yosh qizlarga talim-tarbiya berish bag‘ishladi.

O‘z maktabida qizlarga boshlang‘ich talim berar ekan, Jahon Otn ularning zehni o‘strishga katta ahamiyat beradi. Otn o‘z shogirdlariga savod o‘rgatbgina qolmay, ular orasidan iqtidorli qizlarni tanlab sharq shariyat bilan tanishtradi. Qizlarni nazm bo‘stoniga etaklaydi.

Atoqli zullisonayn shoira Dilshodi Barno 50 yildan ortq muallimalik qilib, qizlarga xat-savod o‘rgatdi, tabi nazm qizlarga shariyat ilmidan dars berdi.

Dilshod o‘z maktabida yosh qizlarni tarbiyalab, ularga xat-savod o‘rgatar va ularni chuqur bilim egasi qilib chiqarishga intlar edi. Shu bilan birga, yosh istedodli qizlarga o‘zbek, tojik mumtoz adabiyot namoyondalarining asarlarini ham o‘rgatar va ularni nafosat ruhida tarbiyalab, o‘z zamonasining ilg‘or kishilari qilib ettirishga harakat qilgan.

Munis Xorazmiyning “Savodi ta’lim” asari – husnixatga doir dastlabki qo‘llanma sifatida. Munis o‘z davrining yetuk murabbiy shoiri sifatida bolalarning savodxonligini va husnixatni yaxshilash yo‘lida ko‘p izlanadi va yoshlarga husnixatdan talim berib, “bilgancha surib qalamni har yon, talim ishin aylar erdi oson” deydi. “Bilimning eshigi alifbe” deganlaridek, Muis ham ta’limdagi muvaffaqiyatlarning garovi savod ekanligini tushungan va shuning uchun “umumiy arqom” yozuv ilmini yaratishga bel bog‘lagan.

Munisning “Savodi talim” asari ana shu tarzda 1804 yil 6 dekabrda vujudga keladi. Mazkur risola nazariy malumotlar va mashqlarni o‘z ichiga olgan. Risola ikki qismdan tarkib topgandir. U “Savodi talim”ning nazariy qismida o‘zigacha mavjud bo‘lgan bolalarga xat-savod o‘rgatuvchi risolalarning barcha nuqson va kamchiliklarni ochib tashlaydi va eski risola bilan o‘zi yaratayotgan risolani bir-biri bilan taqqoslab, eski risolaning o‘sha kungi talablarga javob bera olmasligini ilmiy-nazariy jihatdan asoslab beradi. Risolaning ikkinchi qismida arab alifbosidagi har bir harfning yozilish uslubini marifiy-didaktik nuqtai nazardan soddalash qilib tushuntrishga harakat qiladi.

Muhammad Sodiq Qoshg‘ariyning “Odob as-solihin” asari – yuksak ma’naviy-axloqiy sifatlarni yorituvchi manba. Muhammad Sodiq Qoshg‘ariyning “Odob as-solihin” (“Yaxshi kishilar odobi”) asari kundalik turmushimizda har kuni har daqiqada bilish zarur bo‘lgan turmush odobiga oid

xulq-odob qoidalarining majmuidir. Asar turkiy tilda yozilgan bo'lib, muqaddima, yetti bob va xotmadan iborat.

Asarning muqaddimasida uning maqsadi sifatda insonga yaxshi xulq egallashi zarurligi takidlanadi va u odob qoidalarini egallab olmasa va yaxshi xulq bilan odobli va toza bo'lmasa, nafaqat o'ziga, balki butun dunyoga yomonlik tarqatadi, deydi va quyidagi masnaviyini keltiradi:

Adabsiz na o'zi uchun yomonlik qiladi,

Balki butun dunyoga o't qo'yadi.

“Odob as-solihin” asarida bayon etilgan botiniy va zohiriy qoidalar:

1. Salomlashish va ruxsat so'rash odobi.
2. Muloqot odobi.
3. Uxlash va yo'l yurish odobi.
4. Suhbatlashish odobi.
5. Er-xotn odobi.
6. Tozalik qoidalari.
7. Mehmon kutsh odobi.
8. Ziyofat va ovqatlanish odobi.
9. Safar qoidalari.

XIX asrning 2-yarmida Turkistonda maktablar tizimi. O'lkani Rossiya imperiyasi bosib olgandan so'ng 1870 yillarda qizlar talimi bo'yicha bazi malumotlar mavjud. Turkistonda shahar va qisman qishloqlarda qizlar uchun boshlang'ich maktablar ham mavjud bo'lgan. Qishloq joylarda qizlar maktabi juda kam hollarda uchrar edi. Ba'zi hududlarda 100 ta maktabga bitta qizlar maktabi ham to'g'ri kelmas edi. Biroq bazi shaharlarda qizlar maktablarining soni o'g'il bolalar maktablarining chorak qismiga teng kelgan. Toshkent rus qo'shinlari tomonidan egallangan paytda shaharning bazi qismlarida qizlar maktablari va o'quvchilari soni o'g'il bolalar maktablarining 1/2 qismiga to'g'ri kelgan va ularda o'quvchilar soni nisbatan kam bo'lgan.

A. P. Xoroshxin va Toshkent shahrida yashovchi mullalarning xabar berishicha, 1864 yilda ruslar bilan bo'lgan urush uchun soliq joriy etish bo'yicha ro'yxatga olish o'tkazilganda, 8000 ming nafar o'quvchi bolalar, 4000 nafar o'quvchi qizlar qayd etilgan. Birgina Sebzor dahasida 25 nafar o'g'il bolalar va 15 nafar qizlar, Shayxontohur dahasida esa 20 ta o'g'il bolalar va 10 ta qizlar maktablari mavjud bo'lgan. O'tnbibi maktabida o'quvchi qizlar bilan birgalikda o'g'il bolalar ham birga talim olgan hollari ham bo'lgan. Qizlar maktablaridagi mashg'ulotlarda asosan fors-tojik va turkiy tldagi asarlar o'rgatilgan. Ushbu talim muassasalarida “Ta’limi bayonot”, “Muosharat odobi”, “Tarbiyali xotun” va boshqa Sharq axloqiy madaniyatni o'z ichiga oluvchi fanlar o'qitilgan. A. P. Xoroshxinning 1876 yildagi malumotga ko'ra, qizlar 7-11 yoshdan o'qitilgan, 11-15 yoshdan esa tikuvchilikka o'rgatilgan. Bundan shu narsa kuzatiladiki, qizlar

maktablaridagi talim dasturlari o'g'il bolalar maktablari dasturlariga nisbatan kam qamrovli bo'lgan. O'rta Osiyoda o'g'il va qiz bolalar birga talim oluvchi aralash maktablar bo'lganligi haqida malumotlar deyarli uchramaydi. 1906 yil Kaspiyort viloyat maktablarining ahvoli haqida malumot bergan N. P. Ostroumov turkmanlar orasida, bazi joylarda o'g'il va qiz bolalar birga talim oluvchi maktablar mavjud bo'lganligi, ularda atgi ikki yoki uch yil davomida talim berilishi haqida malumot beradi. Mustamlakachilik tzimini o'rnatilishi va o'lkada rus aholisi soni o'sib borishi bilan rus tilida so'zlashuvchi aholi qizlarini talimiga bo'lgan ehtyoj o'sib bordi. Qizlar uchun gimnaziya, Mariin bilim yurtlari kabi talim muassasalarini tashkil etldi va mazkur maskanlarda mahalliy aholi vakillarini talim olishlariga imkon berilishi kam miqdorda bo'lsada, qizlar talimiga ijobiy tasir o'tkazdi. XIX asr 70 yillarida Toshkent va Shimkentda qizlar uchun bo'lim hamda hunarmandchilik sinflari, Kazalinskda qizlar uchun yakshanba sinflari bo'lgan boshlang'ich bilim yurtlari tashkil etldi. Ushbu bilim yurtlarining barchasi muayyan rejalarsiz, asosan, o'lkadagi rus aholisining talim olishga bo'lgan ehtiyojini qondirish maqsadida tashkil etlgan edi.

Chor Rossiyasining ta'lim siyosati. Chor Rossiyasining xalqning aksariy qismi, ba'zi rusparast boy-zodagonlarni hisobga olmaganda, o'z bolalarini rus-tuzem maktablariga berishning oqibatlaridan cho'chir edi. Bu maktablarda birinchi navbatda pravoslav mahzabining asoslari, rus tili, podshoni ulug'lovchi madhiyalar o'rgatilgani uchun mahalliy xalq bu ochiqdan-ochiq dinbuzarlikdan qochib o'z farzandlarini rus-tuzem maktablariga bermasdi. Buni o'z vaqtida Sirdaryo viloyatidagi rus maktablarini taftish etgan chor amaldori N. K. Smirnov ham qayd etgan edi. U ruslashtirishga yo'naltirilgan ta'lim siyosatining muvaffaqiyatsizligi sabablarini quyidagicha izohlaydi va yozadi:

- yerli aholining shaharlardagi rus maktablarining qabul qilmaganligi sababi ularning dasturlarida musulmoncha savod darslari yo'qligi, darslar bolalar uchun tushunarsiz bo'lgan rus tilida olib borilishi va o'qituvchilarning mahalliy tillarni bilmasligi,

- (rus) bolalariga pravoslav dini asoslarini musulmon bolalar huzurida o'rgatish.

Shuningdek, ruscha xat-savod oddiy turkistonlikka foyda keltirmas edi, chunki o'lkaning musulmon aholisi barcha narsani - xatlar, hisob-kitoblar va boshqa yozishmalarni mahalliy tillarda va arab yozuvida amalga oshirar, musulmoncha xat-savodli kishi bunda, tabiiy, ko'proq yutar edi.

Turkistonda rus maktablarining ochilishi. Yorlik aholi uchun rus-tuzem maktablarining tashkil etilishi. O'rta asr musulmon maktablarini isloh qilishdan bosh tortgan chorizm, ruslar o'rnatilgan erlarda ochilgan rus maktablarini Turkistonda maorif sohasida o'z siyosatning quroli qilib olishga harakat qildi (Toshkentda dastlabki rus maktabi 1866 yilda ochilgan edi). Rus

maktablariga ruslar bilan birga o'qish uchun mahalliy aholi bolalari ham qabul qilinardi. Turkistondagi boshlang'ich rus maktablarida hunarga Rossiyaning Yevropa qismidagiga qaraganda, ancha ko'proq o'rgatlar edi, bundan maqsad mahalliy aholining bolalarini maktabga ko'proq jalb qilish edi.

Turkistonda dastlabki rus o'rta o'quv yurtlari 1870 yillardan ochila boshladi: 1876 yili Toshkentda, Verniyda (hozirgi Olmaotada) erlar va Xotn-qizlar gimnaziyalari. 1879 yili esa Toshkentda o'qituvchilar seminariyasi ochildi. Gimnaziyalarga ham erli aholining bolalari qabul qilinardi. O'qituvchilar seminariyalarida esa mahalliy aholi bolalariga 1/3 o'rin ajratilgan edi.

1880 yillarning boshlariga kelib rus maktablarida o'qiydigan o'zbek va tojik bolalari uchun islom dinini o'qitish kerak, toki ota-onalari bu maktablardan qo'rqmasinlar, degan fikr tarqalgan edi. Turkiston mamurlari bu fikrning qanchalik to'g'ri ekanligini tekshirishga qaror qildilar. 1884 yil 19 dekabrda Toshkentda, «eski shahar» qismida sinab ko'rish uchun birinchi rus-tuzem maktabi ochilgan edi. 10 yillardan keyin Toshkentda bunday maktablar soni to'rttaga ko'paydi. Bu turdagi maktablar o'lkadagi yirik shaharlar hamda qishloqlarda ham tashkil etla boshladi. O'lkada rus, rus-tuzem maktablari ilk bor XIX asrning 70 – yillarida yuzaga kelgan bo'lsa, 1904 yilga kelib ularning soni 57 taga etdi.

Rus-tuzem maktablarida o'quvchilarga rus muallimi rus tlini hamda arifmetkani va boshqa fanlarni o'rgatar, buning uchun o'qish vaqtning yarmi ajratb qo'yilgan edi. O'qish vaqtning qolgan yarmi «Musulmon domla» ixtiyoriga berib qo'yilgan bo'lib, u eski usul maktablaridagidek bolalarga diniy darslar o'qitsh bilan shug'ullanardi.

Rus-tuzem maktablarida faqat o'g'il bolalar o'qitlar edi. Ota-onalar qizlarini bunday maktablarga bermas edilar. 1903 yilda Turkiston pedagogika to'garagi, Toshkentda qizlar uchun rus-tuzem maktabi ochildi. Lekin bu maktabning faoliyat uzoqqa cho'zilmay, ikki yildan keyin yopilib qoldi.

Turkistonda jadidchilik harakati. Yangi usul maktablarining ochilishi. Jadidlar harakat ijtimoiy-tarbiyashunoslik tafakkurining alohida bir oqimi sifatida Turkistonda yashovchi xalqlar orasida shakllandi. Turkistondagi jadid (jadid so'zi arabcha “yangi usul”, “yangilik”, demakdir) maktablarining yuzaga kelishi mashhur qrim-tatar arbobi Ismoilbek Gaspirali nomi bilan bevosita bog'liqdir. 1851 yilda tavallud topgan Ismoilbek Gaspirali ilg'or demokratk g'oyalarni musulmonchilikning diniy asoslari bilan birlashtrish yo'lida qizg'in kurash olib bordi. Turkiy xalqlarning milliy mustaqilligi uchun kurashgan Ismoilbek Gaspirali o'z navbatda jadidchilik oqimining asoschisi sifatida dunyoga tanildi. Ko'p yurtlarda safarda bo'lgan Ismoilbek Gaspirali xalq taraqqiyoti birinchi navbatda maorifga bog'liq ekanligini anglab yetib, jamiyatdagi tub o'zgarishlarni amalga oshirishni yangi usuldagi maktab tuzishdan boshladi. Gaspirali tomonidan ochilgan yangi usuldagi maktab tez orada shuhrat qozondi. Jadid maktablarining

ommaviy tus olishiga asosiy sabab I. Gaspirali tomonidan 1883 yildan boshlab nashr etla boshlangan “Tarjimon” gazetasi bo‘ldi. Shu bilan birga Ismoilbek Gaspirali o‘zi tashkil maktab uchun bir qator darsliklar va o‘quv qo‘llanmalari ham yaratdi. Uning yangi usuldagi maktab hayotga bag‘ishlangan asarlari jumlasiga “Hujai Subyona”, “Qirsat turki”, “Rahbari muallimin” kabi darslik va o‘quv qo‘llanmalarini kiritsa bo‘ladi. Gaspiralinig ushbu asarlari o‘quv jarayonini tashkil etsh, darsliklarga qo‘yiladigan talablar, musulmon o‘quv adabiyotda qo‘llaniladigan didaktik va metodik ko‘rsatmalar bilan jadid maktablari taraqqiyotga ulkan hissa qo‘shdi. I.Gaspirali boshqa turkiy xalqlar qatori o‘zbek millatdagi ijtmoyi fikrlar taraqqiyoti va shu jumladan, haqiqiy vatanparvar o‘zbek ziyolilari, pedagoglarining kamol topishida ham o‘chmas iz qoldirdi.

1893 yili Ismoil Gaspirali Turkistonga kelib, chor huqumat amaldorlarini va Buxoro amiri Abdulahadni musulmon maktablarini isloh qildirishga ko‘ndirmoqchi bo‘ladi.

Ismoil Gaspirali Buxorodan so‘ng poezdda Samarqandga borgan, undan Toshkentga kelib, Turkiston general-gubernatorligidagi, amaldorlar bilan o‘z niyat-maqсадlarini o‘rtoqlashgan. Biroq, Toshkentda uni yaxshi kutb olishmadi, loyihasi esa etborsiz qoldi rildi. 1893 yil 8 iyunda u yana Samarqand orqali Buxoroga qaytb borgan va amir bilan uchrashib, E. J. Laxzarining ko‘rsatishicha, uni yangi usuldagi bir maktab ochishga ko‘ndirgan. Ikkinchi usuli jadid maktabini 1898 yilda Qo‘qonda Salohiddin domla ochdi. Shu yili To‘qmoqda ham yangi usul maktabi paydo bo‘ldi. 1899 yili Andijonda Shamsiddin domla va Toshkentda Mannon qori yangi usul maktabini ochdilar. 1903 yilda, umuman, Turkistonda 102 ta boshlang‘ich va 2 ta o‘rta jadid maktabi bor edi. Bulardan 6 tasi Buxoro amirligida va 8 tasi Xiva xonligi hududida edi.

Mahmudxo‘ja Behbudiy, Munavvar Qori, Abdulla Avloniy, Abduqodir Shakuriylarning yangi usul maktablarini tashkil etishdagi ma‘rifatparvarlik xizmatlari. XX asr boshlarida Toshkent, Samarqand, Buxoro, Farg‘ona vodiysi shaharlarida o‘nlab “usuli jadid” maktablari ochildi. Uni bitrganlar orasidan Turkiston manaviy-marifiy dunyosini milliy uyg‘onishiga kuchli ijobiy tasir qiladigan zabardast namoyandalari yetishib chiqdilar. Mustamlakachilikning chorizm va sho‘ro ko‘rinishlarini ayovsiz fosh qiluvchi marifiy, siyosiy arbob, tolmas kurashchi, jadidchilik harakatning yirik namoyandasi **Munavvar qori** ham “usuli saviya” maktabiga ixlos bilan qarab, chor hukumat Turkiston o‘lkasidagi aholini qanday manaviy-madaniy uzlatda saqlayotganini va undan qutulish choralari faqat maktab talim-tarbiyasidagi keskin islohotga bog‘liqligini to‘g‘ri tushuygan holda chor hukumatning mustamlakachilik boshqaruv usuliga qarshi kurashda faollik ko‘rsatdi: mana shu maqsad yo‘lida Toshkentda ilg‘or fikrli ziyolilar va turli guruhlardan iborat “Turon” jadidlar jamiyatni tashkil etdi, O‘zi takidlaganidek: “Chor hukumatni yo‘qotish jadidlarning tilagida bor edi. Siyosiy vazifamiz va maqsadimiz ham shundan iborat bo‘lishn yashirin emas”. Munavvar qori ochgan yangi usul «Namuna» maktabida bir necha yuz bola o‘qigan. Bu maktabda tayyorgarligi

ancha jiddiy bo'lgan istedodli yoshlar o'qituvchilik qilishgan. Munavvar qorining o'zi esa jadid maktablari uchun yangi tovush («usuli savtya») usulida darsliklar - «Adibi avval» («Birinchi adib», 1907)) alifbosi va «Adibi soniy» («Ikkinchi adib», 1907), «Er yuzi» («Jug'rofiya»), «Havoyijon diniya» (1907) kitoblarini yozib chop ettirgan. Bular o'lkadagi jadid maktablari uchun asosiy darslik sifatda bir necha bor qayta nashr etldi.

Abduqodir Shakuriy (1875-1943) Samarqand shahri yaqinidagi Rajabamin qishlog'ida 1901 yilda yangi usuldagi maktabni tashkil qiladi. Yangi usuldagi bu maktabda arifmetka, tabiatshunoslik kabi dunyoviy fanlar o'qitlardi. Shakuriy o'zi ochgan yangi usuldagi maktabida arab tilining qoidalari va harflarni o'qitishga jiddiy e'tibor bergan holda, o'quvchilarni so'z bo'g'inlari bilan tanishtirar va shu bo'g'inlar asosida bolalar uchun tushunarli sodda so'zlarni tuzardi.

Shakuriy 1907 yilda bolalarning yosh xususiyatga muvofiq tarzda axloq, odob va turmush qoidalaridan dastlabki malumot berish maqsadida «Jomeul – hikoyat» («Hikoyalar to'plami») nomli ikkinchi kitobini tuzadi. Bu kitob boshlang'ich maktabning II, III sinflari uchun terma kitobdir. Kitobdan 48 ta kichik-kichik odob-axloq mavzusidagi hikoyalar va 15 ta sheriyy asarlar o'rin olgan. Uning uchinchi o'qish kitobi «Zubdatul ashor» deb ataladi. Muallifning bu o'qish kitobini tuzishdan asosiy maqsadi o'quvchilarning olgan bilimlarini takomillashtirish va mustahkamlash bilan birga ularda sheriyyatni o'rganishga havas uyg'otish va ularni (o'zbek, tojik, ozarbayjon) klassik adabiyot namunalari bilan tanishtirishdan iborat edi.

Muallim Shakuriy o'z o'quvchilari uchun yilda bir marta umumiy imtihon **Abdulla Avloniy** (1878-1934) «Tarjimai holi»da yozadi: «1900 yilda uylanib, oila boshlig'i bo'lib qoldim. Chu yilda otam o'lib, o'gay onam bilan bir ukam meni qaramog'imda menga boqim bo'lib qoldi. Bu vaqtda butun oilani boqmoq uchun qish kunlarida ham ishlamoqqa to'g'ri kelganligidan quvvai muhofazam o'rta darajada bo'lg'on holda madrasani tashlab chiqib ketuvga to'g'ri keldi. Chu choqlarda o'zim mehnat ichida yashag'onlig'imdan boylarga va mullalarga qarshi sherlar yoza boshladim. Madrasadan chiqib kesam ham maorif ishlaridan chiqib ketmadim. Turli gazetalar o'qishga tutndim. Chul zamonlarda Rusiyaning turli shaharlarida chiqqan matbuot – gazeta va jurnallar bilan tanishib, o'qib, malumotimni orttra bordim. «Tarjimon» gazetasini o'qib, zamondan xabardor bo'ldim. Chul zamonda erli xalqlar orasida eskilik — yangilik («jadid-qadim») janjali boshlandi. Gazet o'quvchilari mullalarni «jadidchi» nomi bilan atar edilar. Men ham shul jadidchilar qatoriga kirdim. 1904 yildan jadidchilar to'dasida ishlay boshladim. «Jadid maktabi» ochib, o'qituvchilik ham qildim. Mulla va boylarg'a qarashli eski turmush bilan qat'iy suratda kurasha boshladuk. O'z oramizdan mullalarga qarshi uyushmamiz ham vujudga chiqdi. . . ».

A. Avloniy nashr etgan ro'znomalar ilg'or fikrlar targ'ibotchisi bo'lgani uchun ham uning faoliyat chorizm hukumat tomonidan tez-tez taqiqlanar edi. Chundan so'ng u ilg'or g'oyalarni marifat o'chog'i – maktab orqali xalqqa tarqatishga qaror qiladi va 1903 yilda Toshkentning Mirobod mahallasida yangi

usulda maktab ochadi. A. Avloniy o‘zi ochgan maktabda kambag‘allarning farzandlarini, yetim-yesirlarni o‘qitdi.



Nazorat savollari:

1. XIX asrda maktab va madrasalarda ta’limi mazmunini yoriting.
2. XIX asrning 2-yarmida Turkistonda maktablar tizimi qanday edi?
3. Chor Rossiyasining ta’lim siyosati haqida nimalarni bilasiz?
4. Turkistonda jadidchilik harakati va uning namoyondalaridan kimlarni bilasiz? Ma’rifatparvarlik harakatining bosh maqsadi nima edi?
5. Jadidlarning ma’rifatparvarlik xizmatlari haqida taqdimot materiallari tayyorlang.



Tavsiya qilinuvchi adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O‘zbekiston, 2008.
2. Hasanboev J., Hasanboeva O., Homidov H. Pedagogika tarixi. – T.: O‘qituvchi, 1997.
3. Hoshimov K., Safo Ochil. O‘zbek pedagogikasi antologiyasi. – T.: O‘qituvchi, 2010.
4. Ataeva N., Rasulova F., Hasanov S. Umumiy pedagogika (Pedagogika tarixi). – T.: “Fan va texnologiya”, 2011.
5. Jaloliddin Davoniyning axloqiy qarashlari, “Axloqiy Jaloliy”.



Qo‘shimcha adabiyotlar:

1. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: O‘zbekiston, 2017.
2. 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini “Xalq bilan muloqot va inson manfaatlar yili” da amalga oshirishga oid Davlat dasturini o‘rganish bo‘yicha ilmiy-uslubiy risola. – Toshkent: Ma’naviyat, 2017. -26B.
3. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo‘shma majlisidagi nutq /Sh.M. Mirziyoev. - Toshkent: “O‘zbekiston”, 2016.-56 b.
4. Mirziyoev Sh.M. Qonun ustuvorligi va manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. Toshkent. O‘zbekiston nashriyoti, 2017.
5. Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. Toshkent. O‘zbekiston nashriyoti, 2017.
6. Xasanboev J., To‘rakulov X., Xaydarov M., Hasanboeva O. Pedagogika fanidan izohli lug‘at. – T.: Fan va texnologiya, 2008.



14-mavzu. XIX ASRNING 2-YARMI XX ASRNING 1- CHORAGIDA TURKISTON O'LKASIDA TARBIYA, MAKTAB VA PEDAGOGIK FIKRLAR. MAHMUDXO'JA BEHBUDIYNING PEDAGOGIK FAOLIYATI

R E J A:

1. Mahmudxo'ja Behbudiyning ijtimoiy-siyosiy qarashlari.
2. Behbudiy "Padarkush" dramasida ilgari surgan ma'rifatpatvarlik g'oyasi.
3. Behbudiyning pedagogik faoliyati.

Tayanch so'zlar: ijtimoiy-siyosiy qarashlar, ma'rifatpatvarlik g'oyasi, pedagogik faoliyati, yangi usul maktablari, millatni uyg'otish, ilm-ma'rifatli qilish, qoloqlikdan islohotlar sari, matbuotni rivojlantirish, darsliklar yaratish, kutubxonalar tashkil etish.

“Turkiston jadidlarining otasi Mahmudxo'ja Behbudiy 1875 yilning 19 yanvarida Samarqand yaqinidagi Baxshitepa qishlog'ida ruhoniylar oilasida dunyoga kelgan. Otasi Behbudxo'ja Solixxo'ja o'g'li Ahmad Yassaviy avlodlaridan bo'lib, onasi esa asli xorazmlik bo'lgan. Otasi 1898 yil vafot etgach, u tog'asi, qozi Muhammad Siddiq tarbiyasida bo'lib, undan arab, forsiy tllarini chuqur o'rganadi. Behbudiy dastlab Samarqand, so'ngra Buxoro madrasalarida tahsil oladi. Tinimsiz va qunt bilan o'qib, imom-xatib, so'ngra qozi, mufti darajasiga ko'tarilgan. Bu mansablar shariatning yuqori maqomlari hisoblangan. Safardan qaytib kelgach, yangi usul maktablarini ochish yo'lida g'ayrat ko'rsatadi. Shunday maktablardan birini Behbudiy Samarqandda birinchilardan bo'lib 1904 yilda o'z uyida tashkil qildi.

Mahmudxo'ja Behbudiy 1911 yilda "Padarkush" nomli drama yozdi. U bu asarida o'zining sevimli mavzusi — barchani ilm-marifatli bo'lishga chaqirish, ilmsizlik balosini daf qilish g'oyasini qalamga olgan. Behbudiy Vatan va millat fidoyisi, mustamlakachilikning chorizm va sho'ro ko'rinishlarini ayovsiz fosh qiluvchi marifiy, siyosiy arbob, tolmas kurashchi, jadidchilik harakatning yirik namoyandasidir.

Vatanimiz ozodligi va mustaqilligi yo'lida mustamlakachilik va mustabid tuzumga qarshi kurashgan erkparvar, millatparvar fidoyilardan biri — Mahmudxo'ja Behbudiy xayoti va faoliyati ibrat namunasi. Qatag'onlik yillari begunoh aziyat chekkan va "xalq dushmani" tamg'asi bosilib, qatag'on qilingan xalqimizning asl farzandlari ichida adabiyotimizning yetuk namoyondalari Usmon Nosir, Ziyosaid, Abdulla Qodiriy, Fitrat, Cho'lpon va boshqa

ma'rifatparvarlar ham bor edi. Turkiston xalqlarining mustaqilligi uchun boshlangan jadidchilik harakatining karvonboshisi Mahmudxo'ja Behbudiy ham mustabid tuzum qurboniga aylangan.

Xo'sh, nima sababdan ma'rifatparvar o'zbek ziyolilari. xususan, Behbudiy faoliyati Rusiya mustamlakachilarini tashvishga solgan?

“Turkiston jadidchilik harakatining boniysi, buyuk ma'rifatparvar adib, dramaturg, publitsist, din va jamoat arbobi, yangi o'zbek madaniyatining asoschisi Mahmudxo'ja Behbudiy 1875 yili Samarqand yaqinidagi Baxshitepa qishlog'ida muftiy oilasida dunyoga kelgan. Otasi Behbudxo'ja Soliqxo'ja o'g'li turkistonlik Ahmad Yassaviyning avlodlaridan, ona tomondan bobosi Niyozxo'ja urganchlik bo'lib, amir Shohmurod zamonida Samarqandga kelib qolgan. Behbudxo'ja islom huquqshunosligi bo'yicha yirik mutaxassis bo'lib, bu borada ko'plab kitob va risolalar yaratgan. Behbudiyga otasi o'z ta'sirini o'tkazmay qolmaydi, ziyolilar oilasidagi muhit undagi adabiyotga, siyosatga, ma'rifatga bo'lgan qiziqishini oshiradi.

Behbudiyning otasi imom-xatiblik bilan shug'ullanib kelgan Behbudxo'ja 1894 yilda vafot etadi. Yosh Mahmudxo'ja tog'asi qozi Muhammad Siddiqning tarbiya va qaramog'ida o'sib voyaga yetadi. Arab sarfu naqvini kichik tog'asi Odildan o'rganadi. 18 yoshidan qozixonada mirzolik qila boshlaydi. Behbudiy dastlab Samarqand madrasasida, so'ngra Buxoroda yaxshigina tahsil ko'rgan.” Ushbu ma'lumotlarni bayon qilgan professor B.Qosimov Behbudiyning 1995 yilda chop etilgan “Tanlangan asarlar “iga so'zboshisidagi fikrlari Turkistonni Rusiya mustamlakasiga aylantirish maqsadidagi missionerlarni adibning kelib chiqishi, ya'ni tarjimai holi qoniqtirmaganligini anglatadi.

Endi keyingi sabablarni izlab ko'ramiz: “Sharqu G'arbning tarix va madaniyatini chuqur bilgan, arab, fors tillari bilan bir qatorda ingliz, nemis, fransuz tillarida ham erkin so'zlasha olgan bu kishi 1881 yilda rus tilida «Rusiya musulmonligi» kitobini yozgan. Bu kitobda u Rusiyada yashovchi barcha musulmonlarning o'zligini saqlab qolish yo'li bitta, u ham bo'lsa, ma'rifat orqali mamlakatning ijtimoiy - siyosiy, madaniy hayotiga tengma-teng aralashishga erishmoqdir, degan fikrni ilgari surgan. Bu yo'ldagi birinchi qadam «usuli jadid», «usuli savtiya» nomlari bilan tarixga kirgan yangi maktablarni tashkil qilish bo'ldi.” Mazkur fikrlardan ma'lum bo'ladiki, Behbudiy ijtimoiy-siyosiy qarashlarida musulmonlarni ma'rifatli qilish g'oyasiga uzviy birlashib ketuvchi ularning ijtimoiy-siyosiy xaq-xuquqlarini qo'lga kiritish masalasining keskin qo'yilishi va Nijniy Novgorodda 1906 yilning 23 avgustida bo'lib o'tgan Rusiya musulmonlarining turmush va madaniyati muammolariga bag'ishlangan qurultoyda turkistonliklar guruhini boshqarganligi va katta nutq so'zlab, ushbu masalani chuqur yoritishga intilganligidan izlashimiz darkor.

Keyingi sabablardan birini bizningcha, Behbudiyning Yaqin va O'rta Sharqda nomi tanilgan Ismoilbek Gaspirali bilan aloqalaridan izlash joiz. Ustozshogird munosabatlari samimiy do'stlikka aylanganligidan dalolat beruvchi. Behbudiyning xotiralarida ustoz bilan uchrashuvlari ixlos va muhabbat bilan

tilga olingan. 1899-1900 yillarda Mahmudxo‘ja Behbudiy Buxorolik do‘sti Hoji Baqo bilan haj safariga yo‘l oladi. «1318 sanai hijriyasi tavofi Baytullog‘a Kavkaz yo‘li ila Istambul va Misr al - Qohira vositasi-la borib edim. Muddati safarim sakkiz oydan ziyoda cho‘zilub edi», - deb yozadi Behbudiy bu haqda. Uning dunyo ko‘rishi izsiz ketmaydi. Safar yangi maktab haqidagi qarashlarini mustahkamlaydi. “Uning tashabbus va g‘ayrati bilan 1903 yilda Samarqand atrofidagi Halvoyi qishloqlarida yangi maktablar tashkil topadi. Adib ushbu maktablar uchun darsliklar tuzishga kirishadi. Ketma-ket uning «Risolai asbobi savod» (1904), «Risolai jug‘rofiyai umroniy» (1905), «Risolai jug‘rofiyai Rusiy» (1905), «Kitobat ul-atfol» (1908), «Amaliyoti islom» (1908), «Tarixi islom» (1909) kabi kitoblari paydo bo‘ladi. 1903 yilda Halvoyida qurilgan maktab binosi hozir ham saqlanib kelmoqda. Shakuriy maktabini esa Behbudiy 1908 yilda Samarqandga o‘z hovlisiga ko‘chirib olib borgani ma‘lum.

Toshkentda, Farg‘ona vodiysida yangi maktablar tashkil topa boshlaydi. Ibrat, Munavvarqori, Abdulla Avloniy, So‘fizoda nomlari tilga tushadi. Bular hali kifoya emas, millat bolalarini taraqqiy topgan shaharlarga o‘qishga yuborish kerak. Mirmuhsin Shermuhamedov va bir qator o‘zbeklar markaziy Rusiyaga - Ufadagi «Oliya» madrasasiga yo‘l oladilar.

«Oliya»da o‘ndan ortiq o‘zbeklar o‘qiydilar, 10-yillarda Varshavada, Olmoniyada, Moskva, Peterburgda o‘zbeklar o‘qigani ma‘lum. Mahmudxo‘ja Behbudiy 1903-1904 yillarda Moskva va Peterburgga boradi, 1906 yilda Qozon, Ufa, Nijniy Novgorodda bo‘ladi”, -deya ma‘lumot beradi adabiyotshunos B.Qosimov.

Ushbu ma‘lumotlar Behbudiy faoliyatining asosiy qirralariga e‘tiborimizni tortadi: Turkistondagi jadidchilik harakatining yo‘lboshchisiga aylangan Behbudiy mamlakatni taraqqiy toptirishning birdan bir yo‘li millatni uyg‘otish, ilm-ma‘rifatli qilish, qoloqlikdan ma‘rifat yo‘li bilangina xalos bo‘lish mumkinligini anglatishga kirishdi. Safdoshlarini ham shu yo‘lda kurashga da‘vat etdi. Shu maqsadda “yangi usul maktablar” tashkil qilindi, matbuotni rivojlantirishga, kutubxonalar barpo etishga, kitob savdosini yo‘lga qo‘yishga kirishildi. Savod chiqarish kabi muhim masalalar targ‘ib qilindi. “Dunyoviy taraqqiyotni anglab yetgan Behbudiy Turkistonda ham yangilikni keng joriy etish, yangi maktablar tashkil etish, xalqni o‘zligini anglashi hamda iqtisodiyoti yaxshilanishi uchun nimalar qilish kerakligi haqida matbuotda chiqishlar qila boshladi. Mahmudxo‘ja Behbudiyning Turkiston maktab maorifchiligidagi xizmatlari g‘oyat katta edi. Behbudiy Turkistonda jadidlar harakatining yetakchi vakillaridan biri sifatida savodsizlik, johillik, qoloqlik, madaniyatsizlikka qarshi qizg‘in kurash olib bordi. Behbudiy nashriyotni tashkil etib, unda o‘zbek tilida darsliklar «Turkiston, Buxoro va Xiva haritasi»ni bosib chiqardi. Samarqandda u mahalliy aholi uchun kutubxona va qiroatxona ochishga boshchilik qildi. Behbudiy o‘z kutubxonasini va atrofidagi ziyolilarni ilmiy-adabiy, ijtimoiy-siyosiy adabiyotlar bilan ta‘minlar edi. Shu bois sayohatga borgan joylaridan ko‘plab kitoblarni sotib olib kelardi.”

Millat ozod bo‘lib, o‘zining mustaqil davlatini o‘rnatmaguncha, ijtimoiy adolatni tiklab bo‘lmaydi. Bu Behbudiy kelgan birinchi xulosa edi. Behbudiy har qanday zo‘ravonlikni rad etdi. Uningcha, zo‘ravonlik g‘ayriahloqiy, binobarin, g‘ayriinsoniydir. Ayni qarashlar istibdod va zo‘ravonlikka asoslangan, o‘zga millatlar dini, tili, madaniyatini yo‘qotishga qaratilgan missionerlikning siyosiy maqsadlariga tamomila zid edi. Holbuki, Mahmudxo‘ja Behbudiy Turkiston mustaqilligiga erishishning o‘sha davrdagi uch yo‘nalishdan ikkinchisi - murosa yo‘lini tanlagan va boshqa ma‘rifatparvarlarni ham shu yo‘lda birlashib, kurash olib borishga da‘vat etgan: ruslar yordamida ma‘rifatga erishish, millatni ma‘rifatli qilish orqali o‘z haq-huquqini tanishiga erishish, milliy xususiyatlarini tiklash, bosqichma-bosqich mutaqillikni qo‘lga kiritish (Ismoilbek Gasiprali, Mahmudxo‘ja Behbudiy) uchun yakdillikda harakat qilish. Hamkorlik yo‘li tarafdorlari esa Chor ma‘murlari, so‘ngra esa Sho‘ro hukumati bilan birga ularning ijtimoiy-siyosiy dasturlarida qatnashish va imkon bo‘lishi bilan mustaqillikni qo‘lga olishga kirishishni maqbul yo‘l deb bildilar.. Buning uchun ma‘lum tayyorgarlik ko‘rib borish (Munavvar qori, Hamza, Abdulla Avloniy) zarur deb hisobladilar.

Behbudiy o‘z qarashlarini 1917 yilning 16-23 aprelida Toshkentda bo‘lib o‘tgan Turkiston musulmonlarining 150 vakili ishtirok etgan o‘lka qurultoyidagi hayajonli nutqi orqali bayon qildi. Millatni o‘zaro ixtiloflardan voz kechishga, buyuk maqsad yo‘lida birlashishga, ittifoq bo‘lishga chaqirdi. Ayni harakatlar Behbudiy faoliyatining yuqori “cho‘qqisi”ni tashkil etdi.

1917 yilning bahorida sodir bo‘lgan Buxorodagi fojiali voqealar sabablarini teran tahlil qilib, Toshkentda 9 aprel kuni ish boshlagan Turkiston Ishchi va soldat deputatlari sovetlarining birinchi o‘lka s‘ezdidagi nutqida ro‘yi-rost fosh qilgan. Behbudiy ayrim rus deputatlarining Buxoro fojiasining sababini Samarqanddan «o‘z ixtiyorlari bilan» borgan deputatlarga to‘nkashlari zamirida millatni ich-ichidan qayrash va nizo chiqarish ekanligini ochib tashlaydi.. Behbudiy mazkur s‘ezdda minbarga chiqib, bor voqeani tushuntirib bergan va bu haqda «Buxoro voqealari va daf‘i tuhmat» («Hurriyat» gazetasi, 1917 yil, 1 may) degan maxsus maqola yozgan edi. Mazkur voqealar Behbudiy hayoti va taqdirining “yakuniy kulminatsiyasi”ni yuzaga keltirdi. Behbudiyning so‘nggi kunlariga bag‘ishlangan barcha maqolalarda uning 1919 yil 25 martda Samarqanddan chiqqanligi, «asrorangiz» (sirli ravishda) g‘oyib bo‘lganligi aytiladi. Mazkur voqeaband xotiralar Behbudiy va uning safdoshlari nima sababdan qatag‘on qilinganliklari sabablarini oydinlashtiradi. Behbudiy ijodi ham uning fojiali qismatiga muayyan darajada ta‘sir ko‘rsatganmi?

O‘zining millat erki va ravnaqini ta‘minlash haqidagi g‘oyalarini badiiy asarlari, ilmiy va publitsistik maqolalari orqali yoritishga intilgan Behbudiy “Padarkush”da millat fojiasining sabablarini asosiy qismi savodsiz bo‘lgan xalqqa teatr vositasida sahnada namoyish etishga erishdi. O‘zbek adabiyotiga drama janrini olib kirdi.

Mahmudxo‘ja Behbudiy tilshunos sifatida “Ikki emas, to‘rt til lozim”, “Har millat o‘z tili ila faxr etar”, “Til masalasi”, “Sart so‘zi majhuldir”, “Sart so‘zi ma‘lum bo‘lmadi” singari maqolalar yaratdi. Bu maqollarida davrining muhim masalalari xususida fikr yuritishga harakat qildi: “Ikki emas, to‘rt til lozim” maqolasi 1913 yilda yozilgan bo‘lib, o‘zi tashkil etgan “Oyna” jurnalining 1-sonida chop etilgan. Maqola nomidan ko‘rinib turibdiki, muallif ko‘p tilni bilish har bir turkistonlik uchun shartligi va shu orqali dunyoga chiqish mumkinligini uqtirishga harakat qiladi. Behbudiy har bir millat o‘zbek tilidan tashqari, fors-tojik, arab, rus va hatto Yevropa tillarini bilishi kerakligini ta‘kidlaydi. Maqolada asrlar davomida arab va fors so‘zlaridan foydalanib kelingan millat tili lug‘atidan ularning quvib chiqarilishi yomon oqibatlariga olib kelishi ta‘kidlanadi. Olim voz kechilgan so‘zlar o‘rnini boshqa bir hukmron til so‘zlari egallashi mumkinligidan ogohlantiradi. Mahmudxo‘ja Behbudiyning bu bashorati oradan yigirma yillar o‘tib o‘z isbotini topdi. Sho‘ro davlatining millatlar tiliga qilgan tahdidli siyosati natijasida tilimizdagi fors va arab o‘zlashmalar o‘rnini ruscha so‘zlar egallay boshladi. Mahmudxo‘ja Behbudiy bunday bo‘lishini oldindan ko‘ra bilgan va xalqimizni bundan o‘z vaqtida ogohlantirgan edi: “Bir necha ming sanadan beri forsiy va arab tili va madaniyati va saltanati ta‘siri ostida qolgan turkiyni yana bir necha ming sanada ularni ta‘siridan chiqarmoq nari tursun, balki ma‘nan va moddatan va fannan mahkum millatlarni tili bo‘lgan tilimizga taraqqiy etgan millatlarning lug‘atlari hujum qilur”. Ushbu maqola o‘z davrida Behbudiy tomonidan har bir millatning o‘z til siyosati ham bo‘lmog‘i zarurligi ilmiy asosda yoritib berilganligidan dalolat beradi.

Behbudiy kabi yurt mustaqilligi va millat erki haqidagi ma‘rifatparvar o‘zbek ziyolilari orzulari, zafarlari va g‘alabalari bilan chambarchas bog‘liqdir”,- degan fikrlari alohida e‘tiborga loyiq. Shu nuqtai nazardan qaraganda, XIX asr oxiri XX asr boshlarida Markaziy Osiyoning ijtimoiy-siyosiy hayotida yuksak o‘rin tutgan siymolardan biri – Mahmudxo‘ja Behbudiy “buyuk millatparvar va vatanparvar sifatida o‘zbek ma‘rifatparvarlarining oldingi saflarida” bo‘lib, u o‘z maslakdoshlari singari millatning siyosiy ongi va tafakkurini o‘stirishning asosiy yo‘llari sifatida teatrdan foydalanish, yangi usuldagi maktablar ochish va bu maktablar uchun darsliklar yaratish, matbuotni yo‘lga qo‘yish, kutubxonalar tashkil etish va shu orqali o‘zbek milliy tilini shakllantirish, adabiy til me‘yorlarini yaratishdek eng muhim ishlarga ulkan hissa qo‘shgan, millat erki uchun tolmay kurashgan chin ma‘rifatparvar fidoyilardan biri bo‘lganligini asoslaydi.

Nazorat savollari:

1. XIX asrda maktab va madrasalarda ta‘limi mazmunini yoriting.
2. XIX asrning 2-yarmida Turkistonda maktablar tizimi qanday edi?
3. Chor Rossiyasining ta‘lim siyosati haqida nimalarni bilasiz?
4. Turkistonda jadidchilik harakati va uning namoyondalaridan kimlarni bilasiz? Ma‘rifatparvarlik harakatining bosh maqsadi nima edi?

5. Jadidlarning ma’rifatparvarlik xizmatlari haqida taqdimot materiallari tayyorlang.



Tavsiya qilinuvchi adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O‘zbekiston, 2008.
2. Hasanboev J., Hasanboeva O., Homidov H. Pedagogika tarixi. – T.: O‘qituvchi, 1997.
3. Hoshimov K., Safo Ochil. O‘zbek pedagogikasi antologiyasi. – T.: O‘qituvchi, 2010.
4. Ataeva N., Rasulova F., Hasanov S. Umumiy pedagogika (Pedagogika tarixi). – T.: “Fan va texnologiya”, 2011.
5. Jaloliddin Davoniyning axloqiy qarashlari, “Axloqiy Jaloliy”.



Qo‘shimcha adabiyotlar:

1. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: O‘zbekiston, 2017.
2. 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini “Xalq bilan muloqot va inson manfaatlarini yili” da amalga oshirishga oid Davlat dasturini o‘rganish bo‘yicha ilmiy-uslubiy risola. – Toshkent: Ma’naviyat, 2017. -26B.
3. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo‘shma majlisidagi nutq /Sh.M. Mirziyoev. - Toshkent: “O‘zbekiston”, 2016.-56 b.
4. Mirziyoev Sh.M. Qonun ustuvorligi va manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. Toshkent. O‘zbekiston nashriyoti, 2017.
5. Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. Toshkent. O‘zbekiston nashriyoti, 2017.
6. Xasanboev J., To‘rakulov X., Xaydarov M., Hasanboeva O. Pedagogika fanidan izohli lug‘at. – T.: Fan va texnologiya, 2008.
7. Niyozov G‘., Axmedova M. Pedagogika tarixidan seminar mashg‘ulotlari. – T.: NOSHIR, 2011.



**15-mavzu. 1917-1991 YILLARDA O‘ZBEKISTONDA
TA’LIM TIZIMI VA PEDAGOGIK FIKRLAR RIVOJI.
MUSTAQIL O‘ZBEKISTONDA TA’LIM RIVOJI TA’LIM
TIZIMI. MUSTAQILLIK YILLARIDA PEDAGOGIK
FIKRLAR RIVOJI.**

1. Turkiston o'lkasida ta'lim siyosati (1917-1924 yy).
2. 1924-1945 , 1945-1992 yillarda O'zbekistonda ta'lim tizimi va pedagogika fani rivoji.
3. Mustaqil O'zbekistonda ta'lim sohasida amalga oshirilgan islohotlar.

***Tayanch tushunchalar:** ta'lim siyosati, maktablar faoliyati, ma'naviyat va madaniyat, xalq maorifi, dorilfununlar, dorilmuallimin, mustamlakachilik siyosati, darsliklar, o'qish kitoblari, qizlar maktablari, savod maktablari, o'quv yurtlari, ta'lim-tarbiya dasturlari, o'quv rejalari, qo'llanmalar.*

Turkiston o'lkasida ta'lim siyosati (1917-1924 yy). 1917 yilgi fevral voqealari va oktyabr davlat to'ntarishidan so'ng Markaziy Osiyo xalqlarining hayotida – ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy-mafkuraviy, jumladan xalq maorifi sohalarida keskin o'zgarish yuz berdi.

Turkiston o'lkasida milliy demokratiya vakillari, mashhur ma'rifatparvar ziyolilar tomonidan yangi usuldagi maktablarning keng tarmog'ini yaratish, maktab-maorif borasida zudlik bilan islohotlarni amalga oshirish yuzasidan bir qator takliflar ilgari surildi.

Ammo O'zbekiston xududida ma'naviyat va madaniyat 1917 yildan boshlab murakkab vaziyatni boshdan kechirdi, jiddiy to'siqlar va buzg'unchiliklarga uchradi. Turkistonni qizil imperiya mustamlakasiga aylantirishga kirishgan bolsheviklar siyosati va amaliyotini xalq ommasi, milliy ziyolilar qabul qilmadilar.

Milliy ziyolilar va arboblarning faoliyati keng tus oldi, chuqur ijtimoiy-madaniy mazmun kasb etdi. Jadid ziyolilar, ijod ahli bo'lmish Munavvar Qori, Maxmudxo'ja Bexbudiy, Sadridin Ayniy, Fitrat, Cho'lpon, Abdulla Qodiriy, Abdulla Avloniy va boshqalar bilan bir qatorda XX asr bo'sag'asida tug'ilgan iste'dodli yoshlar Mashriq Yunusov (Elbek), Naim Said, Rafiq Mo'min, Mahmud Xodiev (Botu), Baxrom Xaydariy va boshqa qator ziyolilar madaniyat, maorif soxalarida jonbozlik qildilar, ijtimoiy yo'naltirilgan ijod bilan shug'ullandilar.

Milliy madaniyatimizning eng qadimgi va yirik markazi bo'lgan Samarqandda mashhur ma'rifatparvarlar Maxmudxo'ja Bexbudiy, Abdurauf Fitrat, Akobir Shomansurzoda, Said Axmad (Vasliy), Saidaxmadxo'ja Siddiqiy, Mardonquli Shomhammadzoda zudlik bilan maktab islohotini amalga oshirish fikri bilan maydonga chiqdilar. Ular 1917 yil aprel oyidan boshlab chiqayotgan "Hurriyat" gazetasi sahifalarida yangi usuldagi maktablarning keng tarmoqlarini yaratish zarurligi hakidagi fikrni ilgari surdilar. "Anjumani maorif" jamiyatining mablag'lariga "Rushdiya" maktabi ochildi, unda bepul o'qitilar edi. Abdurauf Fitrat bilan Kamol Chams bu maktabda o'quvchilarga islom diniy ta'limotini, islom tarixini, musulmon huquqini, turk, arab va fors tillarini, arifmetika, geometriya, geografiya, tabiatshunoslik, tarixni o'kitar edilar. Yoz faslida Samarqandning o'zida tanikli ma'rifatparvar, shoir va dramaturg Hoji Muxsin

Shukrullo “Tarbiyat” maktabini ochdi. 1918 yilning yozida Samarqandda “Musulmon o‘qituvchilari uchun pedagogik kurslar” ochildi. O‘sha yilning kuzida Toshkentda Toshkent uezdining tub axolisi uchun maktab o‘qituvchilari kurslari ochildi. 1918 yil 9 aprelda Munavvar qori uyida to‘plangan jadidlar Turkiston Xalq dorilfununining musulmon bo‘limini tashkil etish maqsadida 9 kishidan iborat tashkilot komissiyasini tuzadi. Ular 22 kun ichida musulmon bo‘limi dasturlarini tuzadilar. Dorilfununning musulmon bo‘limi xam O‘rus bo‘limi kabi uch bosqichdan iborat bo‘lishi belgilandi: yuqori bosqich — dorilmuallimin (o‘qituvchilar kursi, keyinroq oliy o‘quv yurti) o‘rta bosqich — boshlang‘ich maktablarni o‘z ichiga olar edi. Xalq dorilfununi tarkibining bu shaklda bo‘lishi sharoitning o‘zidan kelib chiqqan xolda zamonaviy bilim va savodxonlikka extiyojdan tug‘ilgandi. O‘sha yilning 3 mayida dorilfunununing Musulmon bo‘limi raxbariyatiga saylov bo‘lib, unda Munavvarqori rais (rektor), Iso To‘xtaboev birinchi muovin, Burxon Habib ikkinchi muovin, Abdusamid qori Ziyobov xazinador, Muxtor Bakir sarkotib bo‘lib saylandi. 13 may (yakshanba) kuni Toshkentning eski shaxar qismida Vikula Morozovning sobiq do‘koni binosi (hozirgi o‘zbek yosh tomoshabinlar teatri)da musulmon aholi uchun “Xalq dorilfununi” ochiladi. Bu bo‘lim tez orada o‘ziga xos yirik bilim maskaniga aylandi. Dastlab 9 ta boshlang‘ich maktab ochish mo‘ljallangan bo‘lsa-da, axoli ehtiyojiga ko‘ra, ularning soni 24taga yetdi. Dorilfununning musulmon bo‘limi 15 demokratik tashkilot vakillari uyushgan 45 kishilik kengash tomonidan boshqariladi. Undagi muallimlar soni 18 nafarga yetadi. 1918 yil 2 iyun kuni sobiq seminariya binosida dorilfununining o‘zbeklar uchun maxsus o‘qituvchilar tayyorlovchi bo‘limi – “Dorilmuallimin” ochildi. Unda Fitrat ona tilidan: Kamol Chams arifmetika va geometriyadan, Haydar Shaxsiy gigiena, gimnastika va nemis tilidan, Rahimboev arifmetikadan, Abdurahmon Ismoilzoda san’atdan, Rizaev madaniyat tarixi va siyosiy iqtisoddan, Munavvarqori ona tilidan dars berishadi. Bu bo‘limning ochilish marosimida Munavvarqori nutq so‘zlab, inson ma’rifatli bo‘lib, ko‘zi ochilmaguncha vijdoni uyg‘onmasligini, vijdon uyg‘onmasa na o‘zini, na xalqni erkin muhofaza qila olmasligani, bu imonsizlik ekanini mutafakkirona noziklik bilan ifoda etadi.

Munavvar Qori ovro‘pacha usuldagi bunday xalq dorilfununi tashkil etish bilan bir qatorda, mavjud madrasalarni isloh qilish va ularda dunyoviy fanlar o‘qitib, milliy ziyolilar tayyorlash g‘oyasini xam ilgari suradi. Bu qarashlarini – u 1923 yil iyunda Toshkentda bo‘lib o‘tgan xalq maorifi mudirlari qurultoyidagi ma’ruzasida bayon etgan, 1923 yilda bu yangi usulda 30dan ortiq madrasa va eski maktablarda talabalar o‘qitilganligi ma’lum.

Munavvarqori 1922 yildan Turkiston maorif noziri, keyin esa Toshkentning eski shaxar maorif bo‘limi muboshiri (inspektori) bo‘lib ishladi, o‘sha yili 23-25 martda bo‘lib o‘tgan II- Umumturkiston maorif xodimlari qurultoyida ishtirok etib, maktab bo‘limiga a’zolikka saylandi. Keyinchalik Alisher Navoiy nomli ta’lim-tarbiya bilim yurtida va turli maktablarda o‘zbek tili va adabiyotidan dars berdi.

Do'stlari va shogirdlari Qayum Ramazon va Shorasul Zunnun bilan hamkorlikda uch bo'limdan iborat "O'zbekcha til saboqlari" kitobini (1925 yil) nashr ettirdi.

Xalq ta'limining iste'dodli tashkilotchilari Abduqodir Shakuriy, Ismatulla Raxmatullaev, Isxoqxon Ibrat, O. Dadaxujayev, Abdulla Mustaqov, Xodi Fayziev, Ashurali Zoxiriy, Sobirjon Raximov, Zokirjon Raimiy, Qori Niyoziy, Sayd Rizo Alizoda, To'xtanazar Shermuhamedov, Rafiq Mo'min va boshqalar katta pedagogik ish olib bordilar. Maktablar soni o'sdi. 1918 yil boshida 330 taga, 1920 yilda Farg'ona, Sirdaryo, Samarqand viloyatlarida 1405 taga etdi. Tashkil bo'lgan maktablar, ayniqsa, qishlok joylarida va tumanlarda asosan 1-2 boshlang'ich sinflardan iborat edi. Keyinchalik yuqori sinflar paydo bo'lib bordi. Bunday tartibotdagi qizlar maktablari ham Toshkentda, Andijonda, Qo'qonda va boshqa joylarda birin-ketin ochildi. Ayol muallimlar Solixaxon Muhammadjonova, Muharrama Qodirova, Gulso'm Kopaeva, Fotima Burnasheva, Zebiniso Razzoqova, Zaynab Sadriddinova, Maryam Sharipova va boshqalar ta'lim-tarbiya ishlarini olib borganlar. Keng doiradagi bilimdon ziyolilar qator maktablar faoliyatini namunali darajaga ko'tardilar. 20-yillar boshida Samarqandda Abdulqodir Chakuriy (1875-1943) mudirlik qilgan maktab, 1922 yilda Farg'ona shahrida Xusanxon Niyoziy boshchiligida ochildigan ikkinchi bosqich maktab, qator boshqa maktablar shular jumlasidan edi.

Milliy, jadid maktablari uchun darsliklar, o'qish kitoblarini ziyolilarimiz asr boshidan yozib chiqarib keldilar. 1917 yildan maktablar sonining o'sishi, maorif ijtimoiy darajasining ko'tarilishi darsliklarga talabni oshirdi. Pedagog, olim, davlat arbobi Abdulla Avloniy 1917 yilda "Turkiy guliston yoxud axloq" asarini qayta nashr qildi, shuningdek "Maktab gulistoni" o'qish kitobini, ikki jildlik "Adabiyot yoxud milliy she'rlar" kitoblarini yaratdi va chop etdi. 1920 yildan Toshkentdagi o'lka bilim yurtida, so'ngra o'zbek xotin-qizlar bilim yurtida mudirlik qildi.

Fitrat 1917 yilda «O'quv» kitobini, 1919 yilda Sh. Raximiy va Q. Ramazon bilan birga «Ona tili» darsligini, so'ngra «Imlo masalalari» kitobini yozib chiqardi. 1917 yildayoq Sayd Rizo Alizoda birinchi sinflar uchun «Birinchi yil» o'qish dasturini ishlab chiqdi. Chokirjon Raximiy 1919 yilda birinchi alifbo – "Sovg'a", 1922 yilda «O'zbek alifbosi» darsliklari va boshqa o'quv qo'llanmalarini chiqardi. 1918 yildan u Toshkentda maktab mudiri bo'lgan. Buxoro va Xorazm respublikalarida ham maktablar, ta'limtarbiya maskanlari ochildi. Aholining bolalarni o'qitishga, ilm-ma'rifatga ishtiyoki kuchayib borgan, bunday talablar katta yig'inlarda yangragan. Ammo xo'jalikning parokandaligi, sun'iy to'siqlar oqibatida 20-yillar boshida maktablar soni qisqardi, darsliklar yozish, nashr qilish to'xtadi. 1922 yilga kelib Turkistonda bolalarning 25 foizi maktablarga jalb qilingan edi. Buxoro respublikasida 1921 yilda 175 ta yangi maktab, 11 ming o'quvchi bor edi. Lekin 1924 yil o'rtalariga kelib maktablar 69, o'quvchilar 3563 tani tashkil qildi. Xorazmda 40 ta umumta'lim maktablari va internatlarda 2600 bola ta'lim-tarbiya oldi. O'zbekiston Respublikasi tashkil

bo'lganida turli bosqichdagi 1500 ta maktab bo'lib, ularda 116 ming o'quvchi o'qir edi.

Tashkil bo'layotgan maorif tizimi, boshqa soxalar uchun o'qituvchilar, mutaxassislar tayyorlash choralari ko'rildi. Toshkentning Yangi shaharida 1918 yilda Turkiston davlat universiteti, sharqshunoslik instituti, konservatoriya, texnikumlar ochildi. 1920 yilda universitetga Rossiyadan pedagog-professorlar, kitoblar, o'quv qurollari yetkazib kelindi. Bu maskanlar inqilobiy sinfiylik tamoyili bilan ishladi. Universitetning tayyorlov-ishchilar fakulteti (rabfak)da kambag'al tabaqaga mansub kishilar o'qigan. Yerli xalq vakillari ularga kam qatnagan.

Toshkentning Eski shaharida, Qo'qon va boshqa shaharlarda muallimlar tayyorlash kurslari, 1920 yildan 7 ta dorilmuallimin, bir nechta bilim yurtlari faoliyat ko'rsatdi. 1925 yilga kelib O'zbekiston qishloqlarida 2748 muallimlar ishlab turgan.

1924 yilda Qo'qon bilim yurtini 130 ta yigit-qizlar bitirib chiqdi. Unda keyinchalik O'zbekiston Fanlar akademiyasining birinchi prezidenti Qori-Niyoziy dars berdi, bitirganlardan akademiklar, yirik fan va madaniyat arboblari yetishib chiqdi. Chet mamlakatlar bilan madaniy aloqalar, yoshlarning o'qib kelishlari XX asr boshlaridan kengayib bordi va keyinchalik ham davom etdi. Buxoro respublikasi hukumati tashabbus ko'rsatib, bu ishga tashkiliy tus berdi. 1922 yilda Turkiston, Buxoro va Xorazmdan 70 ga yaqin yoshlar Germaniyaga o'qishga junatildi. Buxoro respublikasi hukumati Berlinda yotoqxona uchun bino sotib oldi, o'quvchilarni moddiy ta'minlab turdi, ularning axvoli, o'qishlaridan ogoh bo'ldi. Yoshlarimiz Germaniyaning turli o'quv yurtlarida muvaffaqiyat bilan o'qidilar, mutaxassislar bo'lib yetishdilar. Afsuski, o'z ona yurtiga qaytgan yigit-qizlarimiz mustabidlik qatag'oniga uchradi.

1924-1945 yillarda ta'lim va pedagogika fani. Ma'lumki, 1924 yilda amalga oshirilgan milliy davlat chegaralanishi natijasida mintaqa kartasi qaytadan tuzildi. Chuni ta'kidlash lozimki, 20-30 yillardagi juda murakkab, siyosiy ijtimoiy va ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar respublikaning milliy madaniyatiga har hil tarzda ta'sir o'tkazdi, barcha sohadagi o'zgarishlarni qarama-qarshi tusga kiritdi va respublika taraqqiyotining asosiy tendensiyalari xamda yo'nalishlarini uzoq yillarga belgilab berdi.

Respublika sharoitlarida madaniy taraqqiyotning zamonaviy rivojlangan darajasiga o'tish haddan tashqari katta qiyinchiliklarni yengish bilan bog'liq bo'lib, keskin mafkuraviy kurash bilan birgalikda davom etib bordi. Chunday bo'lsada, madaniyatni yangidan qurish jarayonlari tobora ustuvor tus oldi. Buning sabablari avvalo o'zbek xalqining azaldan bilimga intilishi, madaniy merosni qadrlashida ko'rinadi. Bundan tashqari oktyabr to'ntarishidan avval madaniy ishlar olib borgan jadid deb atalmish ziyolilar xalqqa yordam berish uchun maorif sohasi, maktablarda ishlab, o'z faoliyatlarini davom ettirdilar. Bu jarayonlar avvalo darslar ona tilida olib boriladigan I (besh yillik ta'lim) va II (to'rt yillik ta'lim) bosqich maktablarni va ularni darsliklar, o'quv qurollari bilan ta'minlash, maorif

institutlari, o'qituvchilarni tayyorlash kurslari va boshqalarni tashkil etishdan iborat bo'ldi. 1924-25 o'quv yilida respublika byudjetining 24 foizi xalq maorifi uchun ajratildi. Bu maktab qurilishini tezlashtirishga imkon berdi. I va II bosqichdagi umumta'lim maktablarining soni 1928-29 o'quv yiliga kelib deyarli 2, 5 mingtaga yetdi.

Shu bilan bir vaqtda katta yoshli aholi o'rtasida savodsizlikni tugatish yuzasidan keng miqyosda kampaniya avj oldirildi. 1921-22 o'quv yilidayoq respublikaning ko'pgina shaharlari va qishloq joylarida mingdan ortiq savod maktablari, savodsizlikni tugatish kurslari va tarmoqlari faoliyat ko'rsatdi, ularda 50 ming kishi xat-savod chiqardi. Savodsizlikni tugatish ishi tiklash davrining dastlabki yillarida kiyinchiliklarga duch keldi: o'qituvchilar, maktab binolari, asbob-jixozlar, o'quv qo'llanmalari, pul mablag'lari etishmas edi. Biroq bu soha, garchi qiyinchilik bilan bo'lsada, izga tusha boshladi, katta yoshli kishilarni o'qitish shakl va usullari takomillashtirildi, savod maktablari tarmog'i birmuncha kengaytirildi, savodsizlikni tugatuvchi mahalliy o'qituvchilar soni oshdi. Bu dastlabki yutuqlar keyingi yillarda savodxonlikni oshirish yuzasidan avj olgan umumxalq harakatining debochasi bo'ldi.

Hamza Xakimzoda Niyoziy, T. Chermuhamedov, T. N. Qori Niyoziy, Ergash Komilov, Abdulqodir Nabixo'jaev, Rozi Nazarov, Muharrama Qodirova, Zebuniso Polvonova, P. Qayumov, K. Abdurashidov va boshqalar yangi maktab yaratish, uni rivojlantirish uchun faol kurashdilar hamda dastlabki o'qituvchilardan bo'lib qoldilar.

Shu yillarda Markaz siyosiy rahbariyati sovet tuzumiga sodiq bo'lgan pedagog kadrlarni ko'p miqdorda, tezkorlik bilan tayerlab, ular orqali aholini, ayniqsa, yosh avlodni kommunistik g'oyalar asosida tarbiyalash maqsadida qarorlar va rejalar ishlab chiqdi. Ularni og'ishmay amalga oshirish uchun zarur mablag'larni ayamadi, bor ma'rifatchilarni hamda partiya, sovet, jamoat tashkilotlarining kuch-quvvatini safarbar qildi. Maktablarning pedagogik kadrlarga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish uchun pedagogika o'quv yurtlarining keng tarmogi yaratildi: texnikumlar, maorif institutlari, o'quv yurtlari ochildi. Ularda jadal sur'atlar bilan ommaviy miqyosda yangi o'qituvchi kadrlar yetishtirib chiqarildi. 20-yillarning oxirlariga kelib ularning soni respublikada deyarli 5, 5 mingtaga etib qoldi. Xalq maorifi rivojlanib bordi.

Xalqning bilimga bo'lgan intilishi kun-sayin kuchayib borishi natijasida umumiy savodxonlik o'sdi, bu narsa millatning ma'naviy imkoniyatlari yuksalishiga, ijodiy faoliyati ortib borishiga yordam berdi.

Chunday bo'lsada, bu jarayonlar partiyaning madaniy sohada zo'rlik ko'rsatishi tufayli mushkulliklarga uchradi. Xalq maorifida bu narsa avvaliga milliy ta'lim shakllari yoyiladigan sohalarni cheklab qo'yish, keyinchalik esa ularni butunlay yo'q qilib yuborishda o'z aksini topdi. Chunonchi, 20-yillarning boshlarida sovet maktablari bilan birgalikda eski usul maktablari, diniy tashkilotlar tomonidan ta'minlab boriladigan vaqf maktablari va madrasalari ham ishlab turar edi. 1925 yilda O'zbekistonda 97 ta vaqf maktablari va 1, 5 mingdan

ortiq eski maktablar bo'lib, ulardan 250 tasi yashirin holda ish olib borgan. Lekin sovet hokimiyatining insonparvarlikka zid siyosati natijasida ular 1928 yilga kelib o'z faoliyatini amalda tugatdilar.

Xalq ma'rifatining yuksalishi yo'lida hamon g'ov bo'lib turgan muammo aholining savodxonligini oshirish bo'lib, savodsizlikka barham berish davr talabi edi. Bu maqsadda ko'plab yangi savod maktablari va kurslar ochildi. Minglab aholi savodli bo'ldi. Chuni aytish joizki, 1930 yili umumiy boshlangich ta'limning joriy etilishi savodsizlik ko'lamlarini qisqartirishga yordam berdi. Ajratilgan mablag'lar maktablar maydonini ancha kengaytirishga, ularning moddiy bazasini mustahkamlashga imkon berdi. Umumiy ta'limni amalga oshirish uchun o'qituvchilar, talabalar, ilm-fan xodimlari, yoshlar jamoalarining katta armiyasi safarbar etildi. 30-yillarning oxirlarida umumiy yetti yillik ta'limni amalga oshirishga kirishildi.

1940 yili respublikada barcha turdagi 5,5 mingdan ortiq umumta'lim maktablari ishlab turdi, ularda 1,3 mln. ga yaqin bolalar o'qidi. Biroq bu davrda maktab yoshidagi hamma bolalarni ham, ayniqsa, qishloq joylarida o'qishga jalb qilishning imkoni bo'lmadi: maktab binolari, uskuna-jihozlar, o'qituvchilar yetishmas edi va hokazo. Maktab ta'limi turli sohadagi bilimlarni egallab olgan, jamoat hayotiga faol qo'shilib keta oladigan, oliy o'quv yurtlari va texnikumlarga kirib o'qiy oladigan savodxon yoshlarni yetishtirib chiqarishni ko'paytirishga imkon bera oladigan jiddiy islohotga muhtoj edi.

Afsuski, xalq ta'limiga buyruqbozlik nuqtai nazaridan turib, ekstensiv ravishda yondashish kuchayib bordi. Buning natijasida sifat muammolari chetga surilib, miqdor ko'rsatkichlari birinchi o'ringa o'tdi. Ahvolni xo'jakursinga yaxshilash orqasidan quvish jamiyatning madaniy holatiga yomon ta'sir o'tkazdi hamda oliy va o'rta maktabga sezilarli darajada zarar yetkazdi.

Respublika taraqqiyotining manfaatlari xalq xo'jaligi va madaniyatining turli sohalari uchun yuqori malakali mutaxassislar tayyorlashni tezlashtirishni talab qilardi. Tabiiyki, buni markaziy hukumat tushunardi, lekin unga O'zbekistonning xalq xo'jaligi barcha tarmoqlarida sotsializm, marksizm-leninizm g'oyalari bilan sug'orilgan itoatguy yuqori malakali mutaxassis kadrlar kerak edi, Chuning uchun oliy o'quv yurtlarining ta'lim-tarbiya dasturlari, o'quv rejalari, qo'llanmalari va hokazolari avvalo kommunistik prinsiplariga asoslangan bo'lib, mutaxassislarni 4-5 yil muddat davomida partiya, sovet davlatiga sadoqatli bo'lish bilan birga sinfiylik ruhida tarbiyalashga qaratilgan edi.

20-yillarning ikkinchi yarmida o'rta maxsus va oliy ma'lumotli kadrlar tayyorlaydigan turli o'quv yurtlari ochildi. Davlat sinfiy tamoyilga amal qilib, bu o'quv yurtlariga ishchi va dehqonlarning kirishi uchun sharoitlarni ta'minlab berdi. Boshqa toifadagi odamlar bu o'quv yurtlariga kira olmas edi. Oliy o'quv yurtlarida o'qish uchun zarur bo'lgan umumiy ma'lumotni qisqa muddat ichida olish maqsadida ishchi fakultetlari tarmogi yaratildi. Chu tufayli 20-yillarning oxiridayoq respublikadagi oliy o'quv yurtlarida asosan ishchi va dehqonlardan iborat 4 ming nafarga yaqin talabalar o'qir edi.

Mutaxassislar tayyorlashda RSFSR va boshqa respublikalar ham O'zbekistonga yordam berdilar. 1927 yili faqatgina Rossiya Federatsiyasidagi oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlarida O'zbekistondan kelgan 300ga yaqin talabalar ta'lim oldi.

O'rta Osiyodagi birinchi oliy o'quv yurti – 1918 yili ochilgan Turkiston davlat universiteti – bu vaqtga kelib oliy ta'limning eng yirik markaziga aylandi. Universitet mutaxassislar yetishtirib chiqarish sur'atlarini yildan-yilga oshirib bordi: uni bitirib chiqqan kishilar soni 1928 yilga kelib 5 baravar ko'paydi. Ammo ular orasida mahalliy xalq namoyandalari hamon kam sonni tashkil etardi.

Sanoat korxonalarining ishga tushirilishi, kolxozlar va sovxozlar tuzilishi, yangi-yangi idoralarning paydo bo'lishi tegishli mutaxassislarga bo'lgan talabni kuchaytirdi. Institutlar va texnikumlarga mutaxassislar etishtirib chiqarishni miqdor jihatidan ko'paytirish vazifasi yuklandi, buning natijasida o'qish muddatlari ancha qisqartirildi. Mavjud institutlar va texnikumlarning bazalarida yangi o'quv yurtlari, jumladan, paxtachilik-irrigatsiya, politexnika, qishloq xo'jaligi, kon qidirish, zooveterinariya, avtomobil yo'llari, to'qimachilik transport, tibbiyot institutlari va boshqa institutlar ochildi. Pedagogik akademiya bazasida 1933 yili Samarqandda O'zbekiston davlat universiteti (hozirgi SamDU) barpo etildi. 30-yillarning oxirlarida respublikada 44 ming talaba o'qiydigan 30 ta oliy o'quv yurtlari va 98 ta texnikumlar ishlab turdi. Institut va texnikumlarni bitirib chiquvchilarning soni bir necha baravar ko'paydi. Bu yangi mutaxassislar xalq xo'jaligi safiga kelib qo'shildi. Mutaxassis kadrlar tayyorlashda asosan ularning soni ko'paytirildi, sifatiga esa e'tibor berilmadi. Institut va texnikumlarda mahalliy millat vakillari kam edi. Yuqori malakali o'zbek professor-o'qituvchilari va o'zbek tilidagi darsliklarni tayyorlashga harakat qilinmasdi.

20-30-yillarda xotin-qizlarning savodini chiqarishga katta e'tibor berildi, ayollarning savodsizligini tugatish bo'yicha maxsus kurslar tashkil qilindi. 1926 yilda respublikadagi 82 ta savodsizlikni bitirish maktablarida 2700 xotin-qiz o'qigan bo'lsa, 1936 yilda 186 ming ayol savodini chiqargan.

Kasb-hunar ta'limi tarmoqlariga xotin-qizlar keng jalb qilindi. Dastlab ayollar orasidan savodsizlikni bitirish kurslari o'qituvchilari, bog'cha, yasli tarbiyachilari, maktab o'qituvchilari tayyorlandi. Masalan, 1928 yilda Samarqand pedagogika kursida 73 nafar ayol o'qigan. 1929 yilda o'ndan ortiq xotin-qizlar pedagogika va meditsina texnikumlari mavjud edi. 1932 yilda respublika oliy o'quv yurtlaridagi talabalarning 20 foizini o'zbek xotin-qizlari tashkil qilgan. 30-yillarda xalq xo'jaligining barcha tarmoqlarida xotin-qizlardan yetishib chiqqan mutaxassislar ishlay boshladi.

1945-1991 Urushning suronli yillarida respublika oliy o'quv yurtlari va texnikumlar o'z faoliyatlarini davom ettirdilar. Katta qiyinchiliklarga qaramay, ular sanoat, qishloq xo'jaligi, maorif, tabobat va boshqa sohalar bo'yicha malakali mutaxassislar tayyorlab beradigan chinakam manba bo'lib qoldi. 1943 yilda respublikada 41 oliy o'quv yurti (ularning 12 tasi ko'chirib kelingan) va 52

oʻrta maxsus bilim yurtlari faoliyat koʻrsatdi. Urush yillari davomida ularda 20 mingdan ziyod oliy va oʻrta maxsus maʼlumotli mutaxassislar yetishtirildiki, bu xalq xoʻjaligini yuqori malakali kadrlar bilan taʼminlash imkonini berdi. Ular oʻz navbatida samarali mehnat qilib, fashizmni tor-mor keltirish ishiga munosib hissa qoʻshdilar. Pedagogik kadrlar tayyorlashga alohida eʼtibor berildi, chunki urush davri sharoitlarida ularga ehtiyoj ayniqsa sezilarli edi. Urush yillari Oʻzbekistonda barcha turdagi qoʻshinlar uchun zobit kadr va mutaxassislar ham tayyorlandi. Toshkeshtga piyodalar bilim yurti ham koʻchirib keltirilib, respublikamizda joylashtirilgan bir necha harbiy bilim yurtlari, oliy oʻuv yurtlarining harbiy fakultetlarida, oʻnlab turli kurslarda kadrlar tayyorlandi.

1945-1992 yillarda Oʻzbekistonda taʼlim tizimi va pedagogika fani rivoji. Respublika aholisi madaniyatining oʻsishida taʼlim nihoyatda muhim ahamiyat kasb etadi. Taʼlim inson shaxsini har tomonlama rivojlantirish, qobiliyatini yuzaga chiqarish, ijtimoiy va shaxsiy manfaatlarning bir-biriga payvasta boʻlib qoʻshilishiga yordam beradi. Ilmiy-texnikaviy, iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotning eng muhim vazifalarini hal qilish aholining bilim darajasiga bogʻliq.

Oʻzbekistonda urushdan keyingi yillarda oʻzbek xalqining saʼy-harakatlari bilan taʼlim sohasida maʼlum yutuqlarga erishildi. 1940-41 oʻquv yilidan 1970-71 oʻquv yiligacha boʻlgan davrda umumtaʼlim maktablaridagi oʻqituvchilar soni 2,5 baravar ortdi. Chunga yarasha umumtaʼlim maktablari tarmogʻi ham kengayib bordi.

Biroq iqtisodiyotdagi qiyinchiliklar, maʼnaviy va madaniy sohani rivojlantirishdagi nuqsonlar taʼlimga ham oʻz taʼsirini oʻtkazdi. Jumladan, koʻpgina maktablar, ayniqsa, qishloq joylarda namunaviy loyihalarsiz qurildi, koʻpgina chala ishlari bilan foydalanishga topshirildi. Qishloq maktablarining 75 foizga yaqini vodoprovod, kanalizatsiyaga, yarmidan ortigʻi markazdan turib isitish moslamalariga ega emas edi.

Respublikadagi talay maktablar zarur jihoz, mebel, asbob-uskunalar bilan yaxshi taʼminlanmasdi. Buning sababi xalq taʼlimiga qoldiq prinsipi asosida mablagʻ ajratilishida koʻrinardi. Fan, madaniyat va xalq taʼlimiga sarf-harajatlar byudjet mablagʻining atigi 2,7 foizini tashkil etardi.

Oʻzbekiston SSR Oliy Sovetining 1957 yil 1 oktyabrdagi sessiyasida “Oʻzbekiston SSRda majburiy etti yillik taʼlimni toʻliq amalga oshirish toʻgʻrisida”gi qonunning qabul qilinishi maktablarda taʼlim tizimini takomillashtirishga qaratilgan dastlabki qadam boʻldi.

Yangi Qonunga koʻra umumtaʼlim maktabi hamma uchun majburiy boʻlgan kamchiliklar barham topmadi. Aksincha, maktab xaqiqiy hayotdan ajralib qoldi, oʻquvchilarga berilayotgan bilimlar fan-texnika taraqqiyoti darajasiga toʻgʻri kelmasdi. Chuning uchun xam 1959 yil martda Oʻzbekiston Oliy Soveti “Maktab xalq taʼlimi tizimini yanada rivojlantirish toʻgʻrisida” yangi qonun qabul qildi. Ammo, sovet mustabid tuzumiga xos boʻlgan boshlangan ishni oxiriga yetkazmaslik odati bu gal ham muammoni hal qilish yoʻlida toʻgʻanoq boʻlib

xizmat qildi, oqibatda xalq ta'limida ahvol o'zgarmadi. O'zbekistonda maktabning turmush bilan bog'lanishini mustahkamlash to'g'risidagi 1959 yilda respublika hukumati qabul qilgan qonunga asosan o'qishni ishlab chiqarish bilan qo'shib olib borish talab etildi. Ushbu munosabat bildn o'n yillik o'rta maktablar qayta tashkil etilib, o'n bir yillik o'rta maktablarga aylantirildi, ularda o'quvchilar fan asoslari bilan birga ishlab chiqarish kasblarini ham o'rgana boshladilar, O'quvchilarga kasb ta'limi berishga yuzlab korxonalar, xo'jaliklar jalb qilindi, maktablarda minglab o'quv kabinetlari, laboratoriyalar, ustaxonalar, o'quv-tajriba, yer uchastkalari tashkil etildi. Chunga qaramay, ishlab chiqarish ta'limini maktablarda joriy qilish katta kiyinchiliklarga duch keldi. Korxonalar, xo'jaliklar bu ishga tayyor emas edilar. Maktablarda ustaxonalarni zarur asbob-uskuna bilan jihozlashga mablar yo'q edi. Mehnat ta'limi o'qituvchilari yetishmasdi. Buning oqibatida islohot kutilgan natijani bermadi va majburiy kasb o'rganish bekor qilindi.

Bu davrda respublika maktablari o'qituvchi kadrlar bilan son jihatidan yetarlicha ta'minlandi. Biroq oliy ma'lumotli pedagog kadrlar 60-yillarda respublikadagi barcha o'qituvchilarning uchdan bir qismini tashkil qilardi, xolos. Ayniqsa, qishloqlarda ahvol og'ir edi. Qishloq maktablarida fizika, matematika, rus tili va chet tili o'qituvchilari yetishmasdi. Aksariyat hollarda o'qituvchilar o'z mutaxassisligiga kirmagan fanlardan dars berardilar.

Sovetlar davrida maktablarning o'quv-tarbiya ishlarida katta nuqsonlar mavjud edi. O'zbek tiliga davlat maqomi berilmaganligi, davlat idoralarida ish yuritish asosan rus tilida olib borilganligi tufayli maktablarda ona tili chuqur o'rgatilmadi. Ona tilini o'rganishga ajratilgan dars soatlari rus tiliga ajratilgan dars soatlarining yarmini ham tashkil qilmas edi. Yoshlar maktabni o'zbek adabiy tilining yozma va og'zaki shakllarini puxta o'zlashtirmay, bitirib chiqib ketardilar. Chuningdek, O'zbekiston tarixi va ma'naviy madaniyati ham maktabda deyarli o'rgatilmadi. Sovetlar davrida "SSSR tarixi" deb nomlangan, aslida Rossiya tarixidan iborat fan o'qitilardi. Unga ilova sifatida "O'zbekiston SSR tarixi" bir necha soatgina o'qitilar, ko'p hollarda bu kurs o'tilmay qolib ketardi.

Maktablarda iqtidorli bolalarni o'qitishga e'tibor berilmas edi. Maktab bolalari qalbida ona-Vatan tuyg'usi, ulug' allomalarimiz va ular qoldirgan ma'naviy meros, o'z ona tili, urf-odatlari bilan faxrlanish hissi shakllantirilmadi.

Maktablarda ayniqsa, ijtimoiy fanlarni o'qitish o'ta siyosatlashtirildi. Ko'zdan kechirilayotgan davrda maorif sohasida erishilgan yutuqlar bilan bir qatorda, yoshlarni milliy an'analar va ma'naviy madaniyat manbalaridan uzoqlashtirish an'anasi ko'zga tashlanib bordi. Ta'lim va tarbiya ishlariga partiyaviylik va sinfiylik prinsiplari asosida yondashish yoshlarning umumbashariy, milliy-madaniy qadriyatlarini, urf-odatlarini o'rganishiga to'sqinlik qildi.

70-yillarga kelib respublikamizda ijtimoiy sohada ro'y bergan kamchilik va muammolar ta'limga ham o'z ta'sirini o'tkazdi. Chunday bo'lsada, bu borada katta qadam tashlandi. O'zbekiston yalpi savodxonlar respublikasiga aylandi.

Umumta'lim maktablarida o'quvchilar soni va shunga yarasha maktablar soni ham yildan-yilga ortib bordi, ularning soni 1985 yilga kelib 7000 dan ortiqni tashkil etdi.

Jamiyatdagi turg'unlik holatlari, ijtimoiy turmush sharoitining yomonlashuvi, iqtisodiyotdagi kiyinchiliklar, ma'naviy va madaniy soha muammolari maorif tizimiga ham jiddiy ta'sir o'tkazdi. Umumta'lim maktablarining ahvoli yomonlashdi. Ayniqsa, 70-yillarda va 80-yillarning boshlarida respublikamiz turmushining boshqa sohalarida bo'lgani kabi, xalq maorifi ishiga ham dabdababozlik, haqiqatni bo'yab ko'rsatish hollari salbiy ta'sir qildi. Yaqin o'tmishda keng yoyilgan ijtimoiy adolat prinsiplarining buzilishi, dinimiz, milliy g'ururimizning kamsitilishi yosh avlod tarbiyasiga ma'naviy zarar yetkazdi. Ularning aksariyat qismida mudroqlik, hafsalasizlik, loqaydlik kayfiyatlari ko'proq kuzatildi.

Yoshlarning zamonaviy texnologiyani yetarli o'zlashtirib olmaganliklari sanoat, qishloq xo'jaligi, fan va madaniyatni yanada taraqqiy ettirishga xalaqit berardi. Bunga asosiy sabab maorifning keng tarmoqli tizimi vujudga keltirilmaganligi, o'qish-o'qitishda sifat o'zgarishining ro'y bermaganligida edi. Masalan, 1980-81 o'quv yilida respublikamizda mavjud 7000dan ortiq umumta'lim maktablarining 60 foizi nobop binolarda joylashgan, 700 tasi avariya holatida edi. Ayniqsa, qishloq maktablarida ahvol og'ir bo'ldi. Ularning 75 foizga yaqini vodoprovod va kanalizatsiyaga, yarmidan ko'prori markaziy isitish moslamalariga, oshxona va sport zallariga ega emas edi. Joy tanqisidigi sababli 5800 ta maktabda o'qish ikki smenada olib borilardi. Madaniy-ma'rifiy soha uchun resurslarni taqsimlash «qoldiq» prinsipida amalga oshirilganligidan maktablar uchun bino yetishmasdi, ular jihozlar, yangi asbob-uskunalar bilan sust ta'minlangan edi. Bu soha uzoq yillar davomida diqqat-ye'tibordan chetda qolib keldi, hayotimizning eng ortda qolgan sohalaridan biriga aylandi. Fan, madaniyat va xalq ta'limiga qilinadigan sarf-xarajatlarni qo'shib hisoblaganda ular byudjet mablag'darining 2, 7 foizidan ortmas edi. Respublikamiz xalq ta'limi oldida turgan asosiy ta'lim-tarbiya ishlari ko'p tomondan o'qituvchi kadrlar sifatiga bog'liq edi. 80-yillarning o'rtalariga kelganda shaharlardagi kunduzgi umumta'lim maktablaridagi o'qituvchilarning 80 foizga yaqini oliy ma'lumotli edi. Qishloqlarda axvol birmuncha yomonroq bo'ldi, ularda ma'lumotli pedagoglar yetishmas edi. Pedagoglar yetishmasligidan bir soha o'qituvchisi boshqa fandan ham dars berishga majbur edi. Bunday hol o'quvchilar bilimlari sifatiga salbiy ta'sir o'tkazdi. O'quvchilarning 3-4 oylab qishloq xo'jalik ishlariga jalb etilishi ta'lim saviyasining pasayib ketishiga, bilimlarning sifati qoniqarsiz ahvolga tushib qolishiga olib keldi. 1985-1990 yillar xalq ta'limi tizimida ayrim siljishlar ruy berdi. Ammo bu davrda ta'lim va tarbiya sohasidagi ziddiyatli holatlar yanada keskinlashdi. Maktab, o'rta maxsus va oliy ta'limda rivojlanishning ekstensiv yo'li o'z imkoniyatlaridan to'liq foydalanib bo'ldi. O'qituvchi va talabalarning ijtimoiy faolligi ortgani sari sovet ta'lim tizimining chirishi kuchaya bordi.

80-yillarning o'rtalaridan boshlangan xalq maorifidagi islohotlar mavjud muammolarni xalq ko'zidan yashirishga o'rinishdan bo'lak narsa emasdi. Islohotdan ko'zlangan maqsad «sovet tizimi»ni yuqori darajaga ko'tarish, mutaxassis va o'quvchilar bilim saviyasini oshirish, ta'limni demokratlashtirishdan iborat edi. Biroq mazkur maqsadga sovet mafkurasi va u olib borayotgan kommunistik yondashuv asosida erishish mumkin emasdi. 80-yillarning o'rtalaridan boshlangan islohotlar moddiy jihatdan ta'minlanmaganligi uchun ham oxiriga yetmadi.

Chunonchi, 1985-1990 yillarda O'zbekistonda 3693 ming o'quvchiga mo'ljallangan yangi o'quv yurtlari talab qilingan holda, Markazning topshirig'i bilan bu raqam 920 ming o'ringa tushirildi. Respublika qishloqlaridagi maktablarning 80 foizi esa moslashtirilmagan binolarda joylashgan edi.

1985 yilda respublika maktablarida o'quvchilar soni 2684 mingga yetdi. Bu raqam 1990 yilga kelib 245 mingga kamaydi. Buning boisi o'qituvchilarni ijtimoiy himoyalash, ularning obro'sini orttirishda davlat rasmiy siyosatidagi xato va kamchiliklarda edi. 1985-1990 yillarda respublikadagi 14 pedagogika instituti va 38 o'rta maxsus bilim yurtlarida yiliga o'rtacha 17 mingdan yosh o'qituvchilar tayyorlangani xolda, maktabda faoliyat ko'rsatuvchilar sonining muttasil kamayishi ta'lim tizimi va hukmron mafkuradagi jiddiy cheklanganlik oqibatida yuz berdi.

1945-1991 yillarda hunar-texnika va oliy ta'lim tizimi. Urushdan keyingi yillarda O'zbekiston sanoati uchun malakali ishchi kadrlar hunar-texnika bilim yurtlarida va bevosita ishlab chiqarish jarayonida yakka tartibda hunar kurslarida tayyorlandi. Respublikadagi xunar maktablari, temir yo'l, binokorlik o'quv yurtlari, yirik korxonalar qoshidagi fabrika-zavod ta'limi (FZO) maktablari sanoatni ri-vojlantirishga katta hissa qo'shdi. 1940-1955 yillarda xalq xo'jaligi uchun jami 143 ming malakali ishchilar tayyorlab berildi. Ishchi kadrlarga ehtiyoj yildan-yilga ortib bordi. Malakali kadrlar tayyorlash ham o'sib bordi. 1966-1970 yillarda hunar-texnika o'quv yurtlari xalq xo'jaligiga 172 ming nafar ishchilarni tayyorlab berdi.

Shu bilan birga, respublika hunar-texnika ta'limida katta kamchiliklar mavjud edi. O'quv yurtlarida o'zbeklar va boshqa tub aholi vakillari, xotin-qizlar soni kam edi. Korxonalarda turar joy va zarur maishiy sharoitlarning yo'qligidan yosh ishchilarning ko'pchiligi ishlab chiqarishda o'rnatilgan qolmasdi. 1962 yilda oziq-ovqat, engil, trikotaj, gaz va neft sanoatidagi o'zbek va boshqa yerli aholidan bo'lgan ishchi va xizmatchilar soni 30 foizdan sal ortiqni tashkil qilardi. Mashinasozlik, metall ishlash sanoati va og'ir sanoatning boshqa sohalarida o'zbek va mahalliy millat vakillari soni juda oz edi. 1963 yili Toshkent asbobsozlik zavodidagi ishchi va xizmatchilar orasida o'zbeklar va boshqa tub millat vakillari ulushi 20 foizni tashkil etdi.

Sanoatni rivojlantirishning muhim omillaridan biri muxandis-texnik kadrlar edi. Oliy va o'rta maxsus bilim yurtlari tayyorlovchi malakali mutaxassislar soni ortib bordi. 1960-1970 yillarda sanoat, qurilish, transport va aloqa sohalarida

bo'yicha oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlaridagi talabalar soni 20 mingdan 63 mingga, ya'ni 3 baravardan ziyod ko'paydi.

Oliy maktabning asosiy vazifasi xalq xo'jaligi va madaniyatning barcha tarmoqlari uchun yuqori malakali mutaxassis kadrlar tayyorlab berishdan iborat. Urushdan keyingi yillarda respublika oliy o'quv yurtlari Markaz ko'rsatmasi, dasturlari asosida o'quv-tarbiya ishlarini olib bordi. Bu davrda oliy maktabda mutaxassis kadrlar tayyorlash son jixatdan o'sdi, lekin ularning sifati talab darajasida bo'lmay keldi.

Talabalar doirasi ancha kengaydi. 1960-61 o'quv yilida O'zbekiston oliy maktablarida 100 ming nafar talaba ta'lim olgan bo'lsa, 1970-71 o'quv yilida ularning soni 230 mingga etdi. Bu davr ichida oliy maktab respublika xalq xo'jaligi uchun etkazib bergan diplomli mutaxassislar soni 2, 5 baravar ortgan.

Oliy o'quv yurtlari soni 1940 yildagi 30 tadan 1970 yilda 38 taga ko'paydi. Xalq xo'jaligining rivojlanishi yangi oliy o'quv yurtlarini ochishni talab qildi. Urushdan keyingi yillarda Toshkent elektrotexnik aloqa institut, Toshkent avtomobil yo'llari instituti, Andijon paxtachilik instituti, Andijon tibbiyot instituti, Andijon tillar pedagogika instituti, Buxoro oziq-ovqat va engil sanoat texnologiya instituti, Farg'ona politexnika instituti va boshqa oliy o'quv yurtlari malakali kadrlarga bo'lgan talabni kondirdi. Maorif, sanoat, qurilish, transport, iqtisodiyot, qishloq xo'jaligi, sog'liqni saqlash, san'at va boshqa soxalarda mutaxassis kadrlar tayyorlandi.

Oliy o'quv yurtlaridagi professor va o'qituvchilar soni ham yildan-yilga oshib bordi. Oliy maktablarda 1958 yili 5 ming ilmiy-pedagog xodim ishlagan bo'lsa, 1965 yilda bu son 8 mingtaga etdi. Oliy o'quv yurtlari olimlari O'zbekiston Fanlar akademiyasi tizimidagi ilmiy-tadqiqot institutlari bilan ijodiy hamkorlikda fan, iqtisodiyot va madaniyat taraqqiyoti uchun katta ahamiyatga ega bo'lgan talay ilmiy ishlar, salmoqli asarlar yaratdilar.

Biroq oliy maktab ham totalitar tartibot ta'siridan chetda qolmadi. Buning natijasida oliy maktabda qator salbiy hodisalar ruy berdi. Miqdoriy, yalpi ko'rsatkichlar ketidan quvish, xalq xo'jaligi talab-yehtiyojlariga mos kelmaydigan mutaxassisliklar bo'yicha o'qitish shular jumlasidandir. Oliy maktabning moddiy-texnik bazasi ham juda zaif bo'lib qoldi.

Respublika oliy o'quv yurtlarida sirtqi va kechki ta'lim keng rivojlandi. Ayniqsa, 1959 yilgi maktabning hayot bilan bog'liqligini mustahkamlash to'g'risidagi qonun asosida ta'limning bu shakllari yanada kengaydi. Respublikaning barcha institutlarida sirtqi va kechki bo'limlar ochildi.

1940 yilda sirtqi va kechki ta'lim tizimida o'qiyotgan talabalar respublika oliy o'quv yurtlaridagi jami, talabalarning 20 foizini tashkil qilgan bo'lsa, 1966 yilda ularning salmog'i 62 foizga etdi. O'sha vaqtda sirtqi va kechki bo'limlardagi talabalarning soni jihatidan mamlakatimiz birinchi o'rinda deb maqtanish rasm bo'ldi. Lekin bu aslida achinarli hol eli. Sirtqi va kechki bo'limlarda ta'lim olgan talabalar ixtisosliklari bo'yicha yetarli nazariy bilimga ega bo'lmasdilar. Ular ko'proq bilim olish uchun emas, diplom uchun o'qirdilar. Bu

yillarda oliy o'quv yurtlari va ular tayyorlagan mutaxassislar soni ko'paydi, biroq sifati pasaydi. Respublika oliy o'quv yurtlarida ta'lim-tarbiya ishlari mafkuralashtirib yuborilganligi sababli kunduzgi bo'limlarda o'qigan talabalarning ko'p vaqti mutlaqo keraksiz bo'lgan ilmiy kommunizm, KPSS tarixi, siyosiy iqtisod, markscha-lenincha falsafa, ilmiy ateizm kabi «fanlar»ni o'rganishga sarflanar edi. Bu hol talabalarning asosiy ixtisosligi bo'yicha fanlarni chuqur, o'zlashtirishiga xalaqit berardi.

Oliy maktablarda milliy kadrlar tayyorlash talab darajasida emas edi. Ko'p fanlardan, ayniqsa, tabiiy fanlardan darsliklar rus tilida chiqarilgandi. Ularni o'zbek tiliga tarjima qilishga ongli ravishda e'tibor berilmasdi. O'zbek talabalari rus tilidagi darslik va qo'llanmalardan foydalanishga majbur edilar. Ayniqsa, qishloqlardan kelgan, rus tilini bilmaydigan talabalar qiynalardilar. Ular ko'pincha rus tilida o'qitiladigan fanlarni o'zlashtira olmay, o'qishni tashlab ketishga majbur bo'lardilar. Bir amallab institutni bitirib chiqqan mutaxassislarning bilim darajalari past bo'lardi. Institutlarda o'zbek guruhlarida rus tilida dars o'tish Markazning O'zbekistonda olib borgan ruslashtirish siyosati natijasi edi.

70-yillarga kelib respublikamizda Respublikaning oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlari xalq xo'jaligi va madaniyat talablariga javob beradigan mutaxassislar tayyorlashda muayyan natijalarni qo'lga kiritdilar. Yildan-yilga talabalar soni ortib bordi. 1971-1975 yillarda oliy o'quv yurtlarini tug'allagan diplomli 182 ming nafar mutaxassis kadrlar respublika xalq xo'jaligiga etkazib berildi. Oliy o'quv yurtlarining soni 1985 yilda 42 taga etdi.

80-yillarning o'rtalarida respublika o'rta maxsus o'quv yurtlarida 282 ming nafar o'quvchi ta'lim oldi. Bu har yili necha o'n minglab malakali mutaxassislar bilan respublika xalq xo'jaligini ta'minlashga imkon berdi. Xalq xo'jaligining boshqa sohalari uchun ham ko'plab mutaxassislar tayyorlandi. Masalan, 1970 yilda oliy maktabni bitirganlar soni 334 mingni tashkil etgan bo'lsa, bu raqam 1990 yilga kelib 508 mingga yetdi. Biroq bular faqat son ko'rsatkichlari edi, xolos. Mutaxassislar saviyasi nuqtai nazaridan mamlakat boshqa davlatlardan ortda qolib kelardi.

Mustaqil O'zbekistonda ta'lim sohasida amalga oshirilgan islohotlar. XX asr globallashuv va chegaralarning barham topish davri, axborot-kommunikasiya texnologiyalari va internet asri, jahon maydonida va dunyo bozorida tobora kuchayib borayotgan raqobat asriga aylanib borayotir.

Bunday sharoitda inson kapitaliga yo'naltirilayotgan investitsiya va qo'yilmalarning o'sishini, hozirgi zamonda demokratik taraqqiyot, modernizatsiya va yangilanish borasida belgilangan maqsadlarga erishishda eng muhim qadriyat va hal qiluvchi kuch bo'lgan bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash vazifasini doimo o'zining asosiy ustuvor yo'nalishlari qatoriga qo'yadigan davlatgina o'zini namoyon eta olishi mumkin.

Avvalo shuni ta'kidlash zarurki, bundan 23 yil oldin qabul qilingan, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" deb nom olgan Ta'lim sohasini isloh qilish

dasturi mamlakatimizda yangi jamiyat qurishning bosqichma-bosqich va tadrijiy rivojlanish prinsipiga asoslangan iqtisodiy va siyosiy islohotlarning biz tanlagan «o‘zbek modeli» - o‘z taraqqiyot yo‘limizning ajralmas tarkibiy qismidir.

Ushbu dastur jiddiy izlanish va tadqiqotlarning, jahondagi taraqqiy topgan ilg‘or mamlakatlar tajribasini umumlashtirishning natijasi sifatida o‘tmishda majburan singdirilgan kommunistik mafkuraning qolip va andozalaridan butunlay voz kechish, odamlarning, birinchi navbatda, unib-o‘tib kelayotgan avlodning ongida demokratik qadriyatlarni mustahkamlashga qaratilgan bo‘lib, qisqacha aytganda, bu dastur o‘z fikriga, o‘zining qarashlari va qat‘iy grajdanlik pozitsiyasiga ega bo‘lgan, har tomonlama yetuk va mustaqil fikrlaydigan shaxsni shakllantirishni maqsad qilib qo‘ygan. Uzoq yillar davomida vujudga kelgan eski ta‘lim tizimini tubdan qayta qurmasdan va isloh etmasdan turib bu maqsadga erishish aslo mumkin emas edi.

Agarki O‘zbekistonda aholining qariyb 35 foizini 16 yoshgacha bo‘lgan bolalar, 60 foizdan ziyodini esa 30 yoshgacha bo‘lgan yoshlar tashkil etishini hisobga oladigan bo‘lsak, bu islohotlarning roli va ahamiyati o‘z-o‘zidan tushunarli va ravshan bo‘ladi.

Qabul qilingan dasturga muvofiq, mamlakatimizda 9+3 sxemasi bo‘yicha 12 yillik umumiy majburiy bepul ta‘lim tizimi joriy etildi. Yurtimizda amalga oshirilayotgan modelning prinsipial xususiyati avvalo shundaki, umumta‘lim maktabidagi 9 yillik o‘qishdan so‘ng o‘quvchilar keyingi 3 yil davomida ixtisoslashtirilgan kasb-hunar kollejlari va akademik litseylarda tahsil olib, ularning har biri umumta‘lim fanlari bilan birga mehnat bozorida talab qilinadigan 2-3 ta mutaxassislik bo‘yicha kasb-hunarlarni ham egallaydi. Ta‘kidlash joizki, O‘zbekistonda 12 yillik ta‘lim barcha uchun majburiy va bepul ekani qonunlarimizda belgilab qo‘yilgan. Bu o‘tib kelayotgan yangi avlodimiz 12 yillik majburiy ta‘lim olish bilan birga aniq mutaxassislik va kasb-hunarga ega bo‘lishini taqozo etadi. Bu, ayniqsa, qizlarimiz uchun muhimdir. Biz bunda har qaysi yangi tashkil bo‘layotgan yosh oilada avvalo qizlarning o‘zi tanlagan muayyan mutaxassislikka, kasb-hunarga, hayotda o‘zining mustaqil fikri va qat‘iy pozitsiyasiga ega bo‘lishi g‘oyat muhim ahamiyat kasb etishini nazarda tutamiz. Chuning uchun ham barcha zarur fanlar bo‘yicha umumiy ta‘lim beradigan maktablardagi 9 yillik tahsildan keyin yoshlarimiz, ayniqsa qizlarimiz majburiy tarzda kasb-hunar kollejlari va akademik litseylarda o‘qishni davom ettirishi, ikki-uchta zamonaviy mutaxassislik bo‘yicha kasb-hunarlarga ega bo‘lishi o‘ta muhimdir.

Mustaqillik yillarida ta‘lim jarayonini yangicha talablar asosida tashkil qilish, takomillashtirish bo‘yicha olib borilgan jiddiy izlanishlar natijasida avvallari faqat aholining umumiy savodxonligini ta‘minlash bilan cheklangan ta‘lim mazmuni tubdan yangilandi.

MDH davlatlari ichida birinchi bo‘lib, Davlat ta‘lim standartlari ishlab chiqildi va joriy etildi. Amaliyot jarayonida ta‘lim turlariaro uzviylikni,

uzluksizlikni ta'minlash maqsadida o'quv fanlari bo'yicha DS hamda o'quv dasturlari takomillashtirilmoqda, muvofiqlashtirilmoqda.

Yurtboshimizning «Darsliklarda millat fikrining, millat tafakkuri va millat mafkurasining eng ilg'or namunalari aks etishi kerak» degan g'oyasidan kelib chiqib darsliklarning yangi avlodi yaratildi. Samarali tashkil etilgan tizim asosida ularni muntazam ravishda, ya'ni 2-3-sinflar uchun har 2 yilda, 5-9-sinlar uchun har 4 yilda takomillashtirish, zarur nusxada yangitdan chop etib borish yo'lga qo'yildi.

Ta'lim muassasalarida 9875 ta fizika, 9487 ta kimyo laboratoriya xonalari, 9390 ta biologiya xonalari tashkil etilib, zamonaviy o'quv-laboratoriya jihozlari bilan to'ldirildi. Chuningdek, barcha ta'lim muassasalaridagi «Ma'naviyat va ma'rifat», kasbga yo'naltirish, chizmachilik, tasviriy san'at va rassomlik, chet tili xonalari hamda faollar zali, tibbiyot xonasi, ma'muriy-metodik xona va barcha turar joylar zamonaviy mebel va maxsus jihozlar bilan bekamu ko'st ta'minlandi.

O'n ikki yillik majburiy ta'limdan so'ng yurtimizdagi yoshlarning har biri, o'z xohishiga ko'ra, bakalavr va magistr darajasini olish uchun oliy ta'lim muassasalarida o'qishni davom ettirishi mumkin.

O'tgan yillar mobaynida ta'lim tizimini tubdan yangilash va isloh etish bo'yicha miqyosi va ko'lamiga ko'ra ulkan ishlar amalga oshirildi. Qariyb 9,5 ming yoki mamlakatimizda faoliyat ko'rsatayotgan maktablarning deyarli barchasi yangitdan qurildi, kapital rekonstruksiya qilindi va zamonaviy o'quv-laboratoriya asbob-uskunalari bilan ta'minlandi. O'quv jarayonini sifat va metodik jihatdan butunlay yangilash bo'yicha ulkan chora-tadbirlar amalga oshirildi. O'zbekistonda maktab ta'limi 7 ta tilda: o'zbek, qoraqalpoq, rus, qozoq, qirg'iz, turkman va tojik tillarida olib borilmoqda.

Mamlakatimizda 1500 dan ortiq yangi kasb-hunar kolleji va akademik litsey barpo etildi. Siz, konferensiya qatnashchilarining ko'pchiligi ushbu bilim maskanlari bilan tanishar ekansiz, ular o'z me'moriy qiyofasi va texnik ta'minotiga ko'ra eng yaxshi oliy ta'lim muassasalaridan aslo qolishmasligiga ishonch hosil qilishingiz mumkin. Kasb-hunar kollejlaridagi zamonaviy o'quv-laboratoriya, kompyuter va ishlab chiqarish asbob-uskunalari o'quvchilar uchun umumiy fanlar bo'yicha nafaqat to'liq bilimlar hajmini egallash, ayni vaqtda ushbu o'quv yurtlaridagi zamonaviy texnika va texnologiyalarni o'zlashtirish imkonini ham beradi.

Ta'lim jarayonini isloh etish va mehnat bozorida talab qilinadigan yuqori malakali kadrlar tayyorlashda oliy ta'lim muassasalari muhim o'rin egallamoqda. O'tgan davr mobaynida ularning soni ikki barobar ortdi va bugungi kunda mamlakatimizdagi 59 ta universitet va oliy o'quv yurtida 230 mingdan ziyod talaba ta'lim olmoqda.

O'zbekistonda Vestminster universiteti, Singapur menejmentni rivojlantirish instituti, Turin politexnika universiteti, Rossiya neft va gaz universiteti, Moskva davlat universiteti, Rossiya iqtisodiyot universiteti kabi

yuksak xalqaro obro‘-ye‘tibor va chuqur tarixiy ildizlarga ega bo‘lgan Yovropa va Osiyoning yetakchi oliy ta‘lim muassasalarining filiallari tashkil etildi va muvaffaqiyatli faoliyat ko‘rsatmoqda. Ushbu oliy ta‘lim muassasalarida mashinasozlik, neft-gaz ishi, axborot texnologiyalari, iqtisodiyot va biznes boshqaruvi, moliyaviy menejment, tijorat huquqi kabi mehnat bozorida talab yuqori bo‘lgan mutaxassisliklar bo‘yicha bakalavr va magistrLAR tayyorlanmoqda va biz uchun g‘oyat muhim jihati shundaki, ularning bitiruvchilari butun dunyoda tan olinadigan diplomlarga ega bo‘lmoqda.

Biz rivojlangan bozor iqtisodiyotiga asoslangan zamonaviy davlat qurish yo‘liga qadam qo‘yib, kuchli davlatdan kuchli fuqarolik jamiyati sari izchillik bilan o‘tishni ta‘minlar ekanmiz, faqat milliy va umumbashariy qadriyatlar uyg‘unligi zaruratini teran anglaydigan, zamonaviy bilimlarni, intellektual salohiyat va ilg‘or texnologiyalarni egallagan insonlarga o‘z oldimizga qo‘ygan strategik taraqqiyot maqsadlariga erishishi mumkin ekanini hamisha o‘zimizga yaxshi tasavvur etib kelmoqdamiz. O‘zbekistonda maktab ta‘limi 7 ta tilda: o‘zbek, qoraqalpoq, rus, qozoq, qirg‘iz, turkman va tojik tillarida olib borilmoqda.

Mamlakatimizda 1500 dan ortiq yangi kasb-hunar kolleji va akademik litsey barpo etildi. Siz, konferensiya qatnashchilarining ko‘pchiligi ushbu bilim maskanlari bilan tanishar ekansiz, ular o‘z me‘moriy qiyofasi va texnik ta‘minotiga ko‘ra eng yaxshi oliy ta‘lim muassasalaridan aslo qolishmasligiga ishonch hosil qilishingiz mumkin. Kasb-hunar kollejaridagi zamonaviy o‘quv-laboratoriya, kompyuter va ishlab chiqarish asbob-uskunalarini o‘quvchilar uchun umumiy fanlar bo‘yicha nafaqat to‘liq bilimlar hajmini egallash, ayni vaqtda ushbu o‘quv yurtlaridagi zamonaviy texnika va texnologiyalarni o‘zlashtirish imkonini ham beradi.

Ta‘lim jarayonini isloh etish va mehnat bozorida talab qilinadigan yuqori malakali kadrlar tayyorlashda oliy ta‘lim muassasalari muhim o‘rin egallamoqda. O‘tgan davr mobaynida ularning soni ikki barobar ortdi va bugungi kunda mamlakatimizdagi 59 ta universitet va oliy o‘quv yurtida 230 mingdan ziyod talaba ta‘lim olmoqda.

O‘zbekistonda Vestminster universiteti, Singapur menejmentni rivojlantirish instituti, Turin politexnika universiteti, Rossiya neft va gaz universiteti, Moskva davlat universiteti, Rossiya iqtisodiyot universiteti kabi yuksak xalqaro obro‘-ye‘tibor va chuqur tarixiy ildizlarga ega bo‘lgan Yovropa va Osiyoning yetakchi oliy ta‘lim muassasalarining filiallari tashkil etildi va muvaffaqiyatli faoliyat ko‘rsatmoqda. Ushbu oliy ta‘lim muassasalarida mashinasozlik, neft-gaz ishi, axborot texnologiyalari, iqtisodiyot va biznes boshqaruvi, moliyaviy menejment, tijorat huquqi kabi mehnat bozorida talab yuqori bo‘lgan mutaxassisliklar bo‘yicha bakalavr va magistrLAR tayyorlanmoqda va biz uchun g‘oyat muhim jihati shundaki, ularning bitiruvchilari butun dunyoda tan olinadigan diplomlarga ega bo‘lmoqda.

Biz rivojlangan bozor iqtisodiyotiga asoslangan zamonaviy davlat qurish yo‘liga qadam qo‘yib, kuchli davlatdan kuchli fuqarolik jamiyati sari izchillik bilan o‘tishni ta‘minlar ekanmiz, faqat milliy va umumbashariy qadriyatlar uyg‘unligi zaruratini teran anglaydigan, zamonTa‘lim tizimini tubdan isloh etish odamlarimizning ongu tafakkuri va dunyoqarashini o‘zgartirish, ularning siyosiy va grajdanlik faolligini, o‘z kelajagiga bo‘lgan ishonchini oshirishning eng muhim omili va mustahkam asosiga aylandi, desak, hech qanday mubolag‘a bo‘lmaydi. Eng muhimi shundaki, bizning yangi avlodimiz, bilimli, o‘tmishning har qanday illatlaridan ozod bo‘lgan yoshlarimiz bugungi kunda mamlakatimizni demokratlashtirish va liberallashtirish, uni yangilash va ishonchli tarzda ravnaq toptirishning hal qiluvchi harakatlantiruvchi kuchiga aylanib bormoqda.

Shu borada o‘tgan davr mobaynida kasb-hunar kollejlari va akademik litseylarni 2 million 300 mingdan ziyod o‘g‘il-qizlarimiz bitirib chiqqani, joriy yilda esa 500 mingdan ortiq o‘quvchi o‘rta toifadagi mutaxassis diplomini olib, o‘qishni tamomlashini aytib o‘tish kifoya. Bu yoshlar nafaqat iqtisodiyotni modernizatsiya va diversifikatsiya qilishning, ayni vaqtda mamlakatimiz kadrlar tarkibini sifat jihatidan yangilashning qudratli omili hisoblanadi.

Zamonaviy bilimlarni, intellektual salohiyat va ilg‘or texnologiyalarni egallagan insonlarga o‘z oldimizga qo‘ygan strategik taraqqiyot maqsadlariga erishishi mumkin ekanini hamisha o‘zimizga yaxshi tasavvur etib kelmoqdamiz.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, “Ta‘lim to‘g‘risida”gi Qonun va “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi” – Respublikamizda ta‘lim-tarbiyani tashkil etish va kadrlar tayyorlashning huquqiy asosi sifatida. O‘zbekistonda ham ta‘lim islohotlarining qadriyatlari yo‘nalishlari qaror topib bormoqda. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 41-moddasida “Har kim bilim olish huquqiga ega. Bepul umumiy ta‘lim olish davlat tomonidan kafolatlanadi. Maktab ishlari davlat nazoratidadir”, deb belgilab qo‘yilgan. 42-moddasida esa, “har kimga ilmiy va texnikaviy ijod erkinligi, madaniyat yutuqlaridan foydalanish huquqi kafolatlanishi, davlat jamiyatning madaniy, ilmiy, texnikaviy rivojlanishiga g‘amxo‘rlik qilishi” ko‘rsatilgan.

O‘zbekiston Respublikasining “Ta‘lim to‘g‘risida”gi Qonunining 4-moddasida bilim olish huquqi qadriyat sifatida quyidagicha ko‘rsatib qo‘yilgan: “Jinsi, tili, yoshi, irqiy, milliy mansubligi, e‘tiqodi, dinga munosabati, ijtimoiy kelib chiqishi, xizmat turi, turar joyi, O‘zbekiston Respublikasi hududida qancha yashaganidan qat‘i nazar, har kimga bilim olishda teng huquqlar kafolatlanadi”.

Bilim olish huquqi:

- davlat va nodavlat ta‘lim muassasalarini rivojlantirish,
- ishlab chiqarishdan ajralgan va ajralmagan holda ta‘lim olishni tashkil etish,
- ta‘lim va kadrlar tayyorlash davlat dasturlari asosida bepul o‘qitish, shuningdek, ta‘lim muassasalarida shartnoma asosida to‘lov evaziga kasb-hunar o‘rgatish,

- barcha ta'lim muassasalari bitiruvchilari keyingi bosqichdagi o'quv yurtlariga kirishda teng huquqlarga ega bo'lishi,

- oilada yoki o'zi mustaqil ravishda bilim olgan fuqarolarga akreditatsiyadan o'tgan ta'lim muassasalarida eksternat tartibida attestatsiyadan o'tish huquqini berish orqali ta'minlanadi.

Boshqa davlatlarning fuqarolari O'zbekiston Respublikasida xalqaro shartnomalarga muvofiq bilim olish huquqiga ega.

Respublikada istiqomat qilayotgan fuqaroligi bo'lmagan shaxslar bilim olishda O'zbekiston Respublikasi fuqarolari bilan teng huquqlarga ega».

Bundan tashqari, mazkur hujjatning 3-moddasida ko'rsatib berilgan ta'lim sohasida davlat siyosatining asosiy tamoyillari ham o'zida muhim aksiologik yondashuvni aks ettiradi.

birinchidan, ta'lim va tarbiyaning insonparvar, demokratik xarakterda ekanligi,

ikkinchidan, ta'limning uzluksizligi va izchilligi,

uchinchidan, umumiy o'rta, shuningdek, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining majburiyligi,

to'rtinchidan, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining yo'nalishini: akademik litseyda yoki kasb-hunar kollejida o'qishni tanlashning ixtiyoriylikligi,

beshinchidan, ta'lim tizimining dunyoviy xarakterda ekanligi,

oltinchidan, davlat ta'lim standartlari doirasida ta'lim olishning hamma uchun ochiqlikligi,

yettinchidan, ta'lim dasturlarini tanlashga yagona va tabaqalashgan yondashuv,

sakkizinchidan, bilimli bo'lishni va iste'dodni rag'batlantirish,

to'qqizinchidan, ta'lim tizimida davlat va jamoat boshqaruvini uyg'unlashtirish.

1997 yilda qabul qilingan «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ning maqsadining o'ziyoq, uning qadriyatli yondashuvga asoslanganligidan darak beradi: "Dasturning maqsadi – ta'lim sohasini tubdan isloh qilish, uni o'tmishdan qolgan mafkuraviy sarqitlardan to'la xalos etish, rivojlangan demokratik davlatlar darajasida, yuksak ma'naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlash Milliy tizimini yaratishdir".

Ta'limiy qadriyatlar yuzasidan tadqiqotlar olib borgan olim Sh. Mardonov "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da quyidagi ijtimoiy va shaxsiy xususiyatga ega ta'limiy qadriyatlarning mohiyati ochib berilganligini ta'kidlab o'tadi:

Birinchidan, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da ta'limning oliy qadriyati sifatida shaxs e'tirof etiladi. Mazkur qadriyat Milliy dasturning uzluksiz ta'lim, uning insonparvarlik va ijtimoiylashishga yo'nalishi ko'rsatmalarini muvaffaqiyatli amalga oshirishni ta'minlashi kerak.

Ikkinchidan, pedagogik jihatdan to'g'ri va samarali tashkil etilgan ta'lim-tarbiya jarayoni talabada mustaqil ta'lim olish, o'z-o'zini tarbiyalash, o'z-o'zini

rivojlantirish layoqatlarini shakllantiradi. Bu jarayon bizning fikrimizcha, yangi ta'limiy qadriyatlarning yuzaga kelishiga sabab bo'ladi...".

Mustaqillik yillarida pedagogik fikrlar rivojining asosiy yo'nalishlari.

Mustaqillik yillarida O'zbekistonda pedagogik fikrlar mazmuni bilan tanishish, ularda ilgari surilgan g'oyalarni umumlashtirish asosida ularning quyidagi asosiy yo'nalishlar bo'yicha rivojlanganligiga guvoh bo'lish mumkin:

Pedagogika fani metodologik g'oyalarining takomillashuvi.

1. Totalitar tuzum davrida o'rganilishi ma'n etilgan milliy-pedagogik qarashlarning o'rganilishi va pedagogika faniga olib kirilishi.

2. Ijtimoiy-g'oyaviy, iqtisodiy va madaniy taraqqiyotda etakchi o'rin tutuvchi g'oyalarning pedagogik qarashlarda o'z ifodasini topishi.

Pedagogik bilimlar ijtimoiy-g'oyaviy asoslarining boyishi.

1. Ta'lim mazmunida milliy istiqloq g'oyasi va mafkurasi asoslari, insonparvarlik va demokratik qarashlarning aks etishi.

2. Milliy-madaniy meros namunalaridan foydalanish, milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligiga erishish orqali yosh avlodni milliy ruhda tarbiyalash.

Shaxsni ijtimoiylashtirish.

1. Yerkin, mustaqil fikrlovchi, ijodkor, ijtimoiy faol shaxsni shakllantirish.

2. Shaxsda yuksak ma'naviy-axloqiy sifatlarni tarkib toptirish.

3. Yosh avlodda ijtimoiy voqelikka ongli munosabatni qaror toptirish.

Yangicha ta'limiy qarashlarning paydo bo'lishi.

1. Yuksak malakali, raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashda tayanch o'rin tutuvchi uzluksiz ta'lim tizimining yo'lga qo'yilishi.

2. Ta'lim sohasida davlat va jamoatchilik boshqaruvining yo'lga qo'yilishi.

3. Ta'lim marketingi va ta'lim xizmatlari sohasining tashkil etilishi.

4. Ta'limning yangi didaktik parametrlarini aniqlash.

5. Yangi o'quv predmeti va o'quv kurslarini o'qitishning yo'lga qo'yilishi.

6. Hamkorlikda o'qitish va mustaqil ta'limning ommalashuvi.

7. Ta'lim olganlikni tashxis etishning yangi vositalari (reyting tizimi, monitoring)ning amaliyotga tatbiq etilishi.

Tarbiya jarayonida ijtimoiy jamoatchilik ta'sirining kuchayishi. 1. Tarbiya jarayonida oila-mahalla-ta'lim muassasasi hamkorligining rivojlanishi.

2. Tarbiya jarayonida nodavlat va notijorat tashkilotlar hamkorligining yo'lga qo'yilishi.

3. Tarbiya jarayonida ommaviy axborot va multimedia vositalarining imkoniyatlaridan keng foydalanish.

Pedagog kadrlarni kasbiy jihatdan tayyorlashning yangi tizimiga asos solinishi.

1. Pedagog kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimining isloh etilishi.

2. Pedagog kadrlarni uzluksiz tarzda mahoratlarini oshirib borish tizimining amalga oshirilishi.

Ta'lim sohasida xalqaro hamkorlikning yo'lga qo'yilishi.

1. Pedagog kadrlarning rivojlangan xorijiy davlatlarda kasbiy malakalarining oshirishlari uchun zarur shart-sharoit yaratish.
2. Talabalarning o'zlarining tanlagan sohalari bo'yicha chet elda ta'lim olishlarini tashkil etish.
3. Uzluksiz ta'lim tizimida xalqaro donor tashkilotlari xizmatlaridan foydalanishning huquqiy asoslarining ishlab chiqilishi.
4. O'zaro tajriba almashinuv dasturlari doirasida ilmiy, ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlashning amalga oshirilishi.

Maxsus pedagogika ilmiy asoslarining boyitilishi.

1. Anomal bolalarni o'qitish, tarbiyalash va rivojlantirishda milliy va xorijiy tajriba uyg'unligiga erishish.
2. Inklyuziv ta'limning yo'lga qo'yilishi va "Ta'lim hamma uchun" dasturining muvaffaqiyatli amalga oshirilishini ta'minlash.

Jamiyatda kechayotgan ijtimoiy islohotlarning samaradorligi uning fuqarolari ega bo'lgan ma'naviyatga bog'liq. Bugungi kunda yosh avlodni yuksak ma'naviyatli shaxs sifatida shakllantirish ta'lim-tarbiya tizimida dolzarb vazifa sanaladi. Yuksak ma'naviyatli shaxs deganda ham aqliy, ham axloqiy, ham jismoniy kamol topgan, moddiy va ma'naviy hayot uyg'unligini o'zida mujassam etgan, mustahkam milliy g'urur va iftixor tuyg'ulariga ega ma'naviy jasorat egasi tushuniladi. Bunday insonning ulg'ayishi va kuch-qudrati manbaini – ma'naviyat tashkil etadi. Shu fikrni mantiqiy davom ettirib, ma'naviyat – insonni ruhan poklanish, qalban ulg'ayishga chorlaydigan, odamning ikki dunyosi, irodasini baquvvat, iymon-ye'tiqodini butun qiladigan, vijdonini uyg'otadigan beqiyos kuch, uning barcha qarashlarining mezonidir, desak, menimcha, tariximiz va bugungi hayotimizda har tomonlama o'z tasdig'ini topib borayotgan haqiqatni yaqqol ifoda etgan bo'lamiz".

"Ma'naviyat" tushunchasi jamiyat hayotidagi g'oyaviy, mafkuraviy, ma'rifiy, madaniy, diniy va axloqiy qarashlarni o'zida ifoda etadi. Shuning uchun ham bu mavzuda fikr yuritganda, mazkur qarashlarning barchasini umumlashtirib, keng ma'nodagi "ma'naviyat" tushunchasi orqali ifoda etish mumkin.

Demak, ma'naviyatli inson bilimli, ma'lum kasb-hunar sohibi, o'z Vatanining sodiq fuqarosidir. O'z davlati qonunlarini biladigan va ularga amal qiladigan, yurti bilan g'ururlana oladigan inson. O'z Vatani boyliklarini saqlaydigan, uni yanada boyitadigan, go'zalliklaridan bahramand bo'ladigan shaxs. U har qanday zararli illatlarga qarashi kurashadigan, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni avaylab asraydigan insondir.

Ma'naviyatning negizi va ma'no-mazmunini belgilaydigan asosiy xususiyatlardan birinchisi – insonning ruhan poklanishi va qalban ulg'ayishidir. Bu dunyoda halol va pok yashashni o'zi uchun hayotiy e'tiqod, oliy maqsad deb biladigan odamlar bilan birga, bunday olijanob fazilatlardan butunlay uzoq bo'lib yashaydigan, o'zini dunyoning haqiqiy egasidek his qiladigan «nafsning quli va o'tkinchi hoyu havas egalari»ning borligi tabiiy bir holdir. Yana peshona teri bilan

halol turmush kechiradigan inson hayotidan mamnun va rozi bo'lib, qalbi va yuragi osoyishta, vijdoni pok, ruhiy olami barqaror bo'lib, elning hurmatini qozonib yashaydi. Ikkinchi tomondan, bu dunyoda engil-yelpi, har xil nopok yo'llarga berilib, insoniy burchini unutib, mol-dunyoga intilib yashagan odam, eng achinarlisi shuki, hayotining so'nggida armon va nadomatlarga botib o'z umrini tugatadi.

Demak, Ollohning o'zi buyurgan komil inson bo'lish, halolik va adolat bilan hayot kechirish kabi olijanob fazilatlarning ma'no-mazmunini chuqur anglash, balki ana shunday xususiyatlarga ega bo'lish, ularga amal qilib yashash – odamzotning ma'naviy boyligini belgilab beradigan asosiy mezondir.

Odamning ichki dunyosi va irodasini baquvvat, iymon-yetiqidini butun qilish ma'naviyatning yana bir muhim xususiyatidir: “Vijdon pokligi va bedorligi asrlar, zamonlar osha inson ma'naviyatning tayanch ustunlaridan biri bo'lib kelmoqda. Jamiyat hayotida adolat va haqiqat, mehr-shafqat, insof-u, diyonat kabi tushunchalarni qaror toptirishda aynan mana shu omilning o'rni va ta'siri beqiyosdir. Vijdoni uyg'oq odam yon-atrofida bo'layotgan voqealarga, yordam va ko'makka muhtoj insonlarning muammolariga, adolatning toptalishiga befarq qaray olmaydi. Ayniqsa, el-yurt manfaatiga zarar etkazadigan yovuz xatti-harakatlarga hech qachon chetdan jim qarab turolmaydi, o'z yurti va xalqiga nisbatan xiyonat va sotqinlikni aslo qabul qilolmaydi. Bunday holatlarni ko'rganda vijdoni qiynaladi, doimo yonib-kuyib yashaydi, qanday qilib bo'lmasin, ularni bartaraf etishga intiladi, kerak bo'lsa, bu yo'lda hatto jonini ham fido qiladi”.

Mustaqil O'zbekistonning taraqqiyoti shu yurtda yashovchi har bir shaxsning, ayniqsa, yoshlarning ma'naviy kamolotiga ko'p jihatdan bog'liqdir. Chunki, ma'naviyat – insonning, xalqning, jamiyatning, davlatning kuch-qudratidir. U yo'q joyda hech qachon baxt-saodat bo'lmaydi. Ilg'or millat va rivojlangan davlat bo'lishning zaruriy shartlaridan biri ham boy va sermazmun ma'naviyatga ega bo'lishdir. Faqat moddiy jihatdan boy hamda ilg'or bo'lish jamiyat norasoligining xolis ko'rsatkichidir. Chu bois, O'zbekistonni barpo etishdagi eng dolzarb masalalardan biri yoshlarimiz ma'naviyatining yuksak bo'lishi ekanligiga katta ahamiyat qaratib kelinmoqda. Ayni zamonda, bugungi bunyodkorlik davrida davlatimiz rahbari o'zining ko'plab nutq va ma'ruzalarida, asarlarida ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etishga azmu qaror qilgan xalqimizning boy merosi, bebaho qadriyatlari, ezgu niyat, orzu-umidlariga, shuningdek, umumbashariy qadriyatlarga asoslangan milliy mafkurani shakllantirish, ommalashtirish, kishilar ongiga chuqur singdirish masalalariga jiddiy e'tibor qaratmoqda. Xususan, prezident Sh.M.Mirziyoev o'qituvchi va murabbiylar kuni munosabati bilan so'zlagan bayram tabrigida bu masalaga alohida e'tiborni qaratdi.

Yoshlarning ma'naviyatini shakllantirish ular tomonidan ma'naviy merosni qanchalik chuqur va teran o'zlashtirilganligiga bog'liqdir. Ma'naviy meros – ma'naviy taraqqiyot mahsuli, inson aql-zakovati bilan yaratilgan, kelajak avlodni ezgu taraqqiyot sari etaklash xususiyatiga ega bo'lgan, kishilarning ongi va

dunyoqarashining o'sishi, olamni bilish va o'zlashtirish borasidagi sa'y-harakatlariga kuch-quvvat beradigan ajdodlardan avlodlarga o'tib kelayotgan azaliy qadriyatlar majmui. Birinchi prezidentimizning "Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch" asarida ta'kidlanganidek, "Har qaysi xalq yoki millatning ma'naviyatini uning tarixi, o'ziga xos urf-odat va an'analari, hayotiy qadriyatlaridan ayri holda tasavvur etib bo'lmaydi. Bu borada, tabiiyki, ma'naviy meros, madaniy boyliklar, ko'hna tarixiy yodgorliklar eng muhim omillardan bo'lib xizmat qiladi".



Nazorat savollari:

1. Turkiston o'lkasining 1917-1924 yillardagi ta'lim siyosatini izohlang.
2. 1924-1945 yillarda ta'lim va pedagogika fani rivoji.
3. 1945-1992 yillarda O'zbekistonda ta'lim tizimi va pedagogika fani taraqqiyotining o'ziga xos xususiyatlari.
4. Mustaqil O'zbekistonda ta'lim sohasida amalga oshirilgan islohotlar.
5. Mustaqillik yillarida pedagogik fikrlar rivojining asosiy yo'nalishlari.



Tavsiya qilinuvchi adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O'zbekiston, 2008.
2. Hasanboev J., Hasanboeva O., Homidov H. Pedagogika tarixi. – T.: O'qituvchi, 1997.
3. Hoshimov K., Safo Ochil. O'zbek pedagogikasi antologiyasi. – T.: O'qituvchi, 2010.
4. Ataeva N., Rasulova F., Hasanov S. Umumiy pedagogika (Pedagogika tarixi). – T.: "Fan va texnologiya", 2011.
5. Jaloliddin Davoniyning axloqiy qarashlari, "Axloqiy Jaloliy".



Qo'shimcha adabiyotlar:

1. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: O'zbekiston, 2017.
2. 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini "Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili" da amalga oshirishga oid Davlat dasturini o'rganish bo'yicha ilmiy-uslubiy risola. – Toshkent: Ma'naviyat, 2017. -26B.
3. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali

marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutq /Sh.M. Mirziyoev. - Toshkent: "O'zbekiston", 2016.-56 b.

4. Mirziyoev Sh.M. Qonun ustuvorligi va manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. Toshkent. O'zbekiston nashriyoti, 2017.

5. Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. Toshkent. O'zbekiston nashriyoti, 2017.

6. Xasanboev J., To'raqulov X., Xaydarov M., Hasanboeva O. Pedagogika fanidan izohli lug'at. – T.: Fan va texnologiya, 2008.

7. Niyozov G., Axmedova M. Pedagogika tarixidan seminar mashg'ulotlari. – T.: NOSHIR, 2011.



16-MAVZU: PSIXOLOGIYA FANINING PREDMETI VA RIVOJLANISH TARIXI

Reja:

1. Psixologiya haqida tushuncha.
2. Miya va psixika.
3. Psixologiya fanining vujudga kelishi.
4. Markaziy Osiyoda psixologik ta'limotlarning rivojlanishi.

Tayanch iboralar: *Psixika, psixik jarayonlar, psixologiya, psixik holatlar, ong, ongsizlik, falsafa, ilmiy yo'nalishlar, miya, nerv tizimi, dualizm, bosh miya katta yarim sharlari, refleks.*

Psixologiya haqida tushuncha. Inson mavjud ekan, u o'z hayotiy tajribasiga asoslanib, u yoki bu holda idrok etish, olamni anglash, narsa va hodisalarni ajratish kabi xususiyatlarga ega ekanligi haqida o'ziga o'zi hisob beradi.

Biz kunda qushlarning sho'x navosini, musiqa asboblarining xonishini, inson nutqini, uchib o'tayotgan samolyot shovqinini eshitamiz, atrofimizni o'rab turgan narsa, daraxt, hayvonlar, mashinalarni ko'ramiz. Ularning rangi va hajmini ajrata olamiz. Mazkur jarayonlar insondagi aks ettirish xususiyati bilan chambarchas bog'liq.

Psixologiya fanining predmetini tahlil qilishda asosiy e'tiborni quyidagilarga qaratish lozim. Jumladan, shaxs haqida fikr yurituvchi va pedagogika fanlarini kiritish mumkin. Shunga ko'ra pedagogika shaxsni ta'lim fanlar sirasiga psixologiya -tarbiya jarayonida kamol topishini tadqiq qilsa, psixologiya shaxsda kechadigan ruhiy jarayonlarni o'rganadi. Shundan xulosa qilishimiz mumkinki, **psixologiya fanining predmetini** – shaxsning psixikasi va uning psixologik xususiyatlari tashkil qiladi.


Psixologiya so'zining lug'aviy ma'nosi grekcha psyuxe – jon, ruh, logos – fan, ta'limot degan ma'noni anglatadi. Psixologiya fan sifatida psixik faktlar, ularning qonuniyatlari va mexanizmlarini o'rganadi.

Psixologiya asosan psixikani keng doirada tadqiq qiladi. Shunga ko'ra psixikaning yuzaga keltiruvchi asosiy psixik faoliyatlari ko'rsatilgan. Aynan psixik faoliyatlar quyidagi jarayonlarni o'z ichiga oladi:

- bilish faoliyatlari: diqqat, nutq, faoliyat;
- bilish jarayonlari: sezgi, idrok, xotira, xayol, tafakkur;

- shaxsning, hissiy, irodaviy sohasi: - hissiyot, iroda;
- shaxsning individual psixologik xususiyatlari: temperament, xarakter, qobiliyat.


Psixikaning paydo bo'lishining asosiy shakllari M.Gamezo va Domashenkolarning "Atlas po psixologii" nomli qo'llanmasida quyidagicha ifodalanadi:



Shunga muvofiq bir qator olimlar tomonidan psixikaga ta'riflar berilib, uning mazmun mohiyati ochib berilgan. Jumladan, professor M.G.Davletshin fikricha, psixika deganda – oliy darajadagi materiyaning (miyaning) xususiyati tushunilib, u ob'ektiv borliqni aks ettirilishida namoyon bo'ladi, sub'ekt faoliyatini ma'lum maqsad asosida yo'naltiradi hamda xulq-atvor negizida shakllanadi, professor V.M.Karimova fikricha psixika – inson ruhiyatining shunday holatiki, u tashqi olamni (ichki ruhiy olamni) ongli tarzda aks ettirishimizni, ya'ni bilishimiz, anglashimizni ta'minlaydi.

Jonsiz materiya uchun aks ettirishning mexanik, kimyoviy va fizik turlari xosdir. Masalan, ko'zguning aks ettirishi, suvdagi ta'sir va boshqalar. Jonli materiya uchun aks ettirishning fiziologik, psixik aks ettirish turlari xos bo'lib, ong va o'zini-o'zi anglash uning eng yuqori bosqichidir. Psixik aks ettirish quyidagi xususiyatlarga ega:

- ob'ektiv borliqni to'g'ri aks ettirish imkoniyatini beradi;
- shaxsning faoliyati davomida mukammallikka erishib boradi;
- doimo rivojlanib va takomillashib boradi.




Miya va psixika. Psixika yuksak darajada tashkil topgan materiyaning alohida xossasi bo'lib, u ob'ektiv olamni alohida bir tarzda aks ettiradi. Yuksak darajada tashkil topgan materiya deganda biz miyani tushunamiz. Demak, inson va hayvonlar psixikasining moddiy asosini markaziy nerv sistemasining eng yuksak qismi bo'lmish bosh miya tashkil etadi. Ammo insonlar miyasi hayvonlar miyasiga qaraganda ancha murakkabroq tuzilgan bo'ladi. Odam miyasi hajmi jihatidan ham katta. Agar maymun miyasining og'irligi 400-500 g bo'lsa, odam miyasining og'irligi o'rta hisobda 1400 g dir. Odamning bosh miyasi kishi psixikasining o'ziga xos takrorlanmas, murakkab organi hisoblanib, u katta yarim sharlar, miyacha, oraliq miya, o'rta miya va uzunchoq miyadan iborat.

Bosh miya orqa miya bilan markaziy nerv tuzilmasini tashkil qilib, odam organizmidagi barcha organlarning o'zaro faoliyati va bir-biri bilan bog'lanishini hamda uning tashqi muhit bilan bo'ladigan aloqasini ta'minlaydi. Psixik faoliyatlarning ko'pgina qismi bir necha qator bo'lib joylashgan nihoyatda ko'p nerv hujayralaridan (15 milliarddan ko'p) tashkil topgan, kulrang modda qatlamidan iborat bo'lgan bosh miya katta yarim sharlari qobig'ining faoliyati bilan bog'liqdir.

Nerv tizimi nerv to'qimasidan tashkil topgan bo'lib, u o'z navbatida nerv hujayralaridan iborat. Har bir nerv hujayrasi, ya'ni neyron yadrosi bo'lgan juda ko'p tarmoqlangan kalta o'simtalar – dendritlar va bitta uzun o'simta - aksondan iborat hujayradan tashkil topgan.

Turli nerv hujayralarining tutashgan joyi sinaps deyiladi va u bir neyrondan boshqasiga impul'slarni o'tkazish (to'xtatish yoki ushlab qolish) ni ta'minlaydi.

Nerv hujayralari to'plami miyaning kulrang moddasini, nerv tolalarining to'plami esa miyaning oq moddasini tashkil etadi. Nerv to'qimasi o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ular qo'zg'aluvchanlik va o'tkazuvchanlik asosiy xususiyatlar hisoblanadi.



1-oldingi 2- tepa 3- chokka va 4- orqa soxalar;

Markaziy nerv tizimi bosh va orqa miyadan iborat. Orqa miya umurtqa pog'onasining kanalida joylashgan bo'lib, nerv to'qimasidan iborat. Orqa miya ikkita yarim, ya'ni o'ng va chap qismlardan iborat bo'lib, ularni uzunasiga ketgan oldingi va orqa kesiklar ajratib turadi.

Orqa miyada nerv tolalarining tutamlari joylashgan bo'lib, skelet muskullari, nerv va shilliq qavatidagi periferik nerv uchlaridan qo'zg'alish nerv impul'slari ko'rinishida, ular orqali miyaga u yerdan esa periferiyaga yetkaziladi.

Orqa miyada ongsiz reflektor harakatlarning gavda va qo'l-oyoqlar muskullarning, shuningdek bir qator fiziologik jarayonlarning tomirlarni harakatlantiruvchi, teri ajratuvchi va boshqa markazlar joylashgan.

Bosh miya qutida joylashgan bo'lib, orqa miyaning ustida joylashganga o'xshaydi. Bosh miyada uzunchoq miya, orqa miya, o'rta miya, oraliq miya va oldingi miya farqlanadi.

Orqa miya, Varoliy ko'prigi va miyachadan iborat bo'lib, uzunchoq miya bilan birgalikda miya sopini tashkil qiladi. Miya sopi orqa miyani davomidek tutashgan.

Uzunchoq miya orqali orqa miyadan bosh miyaning yuqori bo'limlariga impulslar o'tadi va orqaga qaytadi. Uzunchoq miyaning yadrolari murakkab refleks aktlarida ishtirok etadi; so'rish, chaynash, so'lak ajratish va hokazo.

Miyacha tana harakatlarini muvofiqlashtirishda ishtirok etadi. O'rta miya-to'rt tepalik qizil yadro muskul tonusining me'yoriy taqsimlanishini, tovush va yorug'lik qo'zg'atuvchilarini hamda og'irlik kuchiga nisbatan tananing to'g'ri joylashishini idora etadi.

Oraliq miyada sezuvchanlikning oraliq markazlari mujassamlashgan. Oldingi miya va uni qoplab turgan po'stloq bosh miyaning oliy qismlarini tashkil etadi.

Oldingi miya bosh miyaning eng katta qismini deyarli 80 foizini tashkil qiladi va peshona sohasidan ensagacha cho'zilgan yoriq bilan ajrashgan ikkita o'ng va chap yarim sharlardan bir-biri bilan qadoqsimon tana yordamida birikadi.

Yarim sharlarning barcha yuzasi (qariyb 2200 sm) miya po'stlog'i deyiladi. Miya po'stlog'i kulrang moddadan tashkil topgan. Uning qalinligi turlicha bo'lib 4-5 mm.gacha boradi. Bosh miya katta yarim sharlari qobig'ining yuzasi odamda katta sohaga ajratiladi, peshona (eng katta), tepa, ensa va chakkadan iborat. Bir xildagi hujayralar qatlamidan iborat qismlar (qobiq shakli va faoliyatining vazifalari turlicha bo'lgan oltita qatlam hujayralaridan tashkil topgan) qavatlardan (maydon) iborat. Odamda hammasi bo'lib 52 ta maydon mavjud.

Harkatlantiruvchi (motor) nervlar markazdan kelayotgan impulslarni muskullarga va bezlarga yetkazadi. Bu nervlarni markazdan qochuvchi yoki efferent nervlar deb ham ataladi.

Ilmiy psixologiyada miya psixikaning organi sifatidagi o'rganish tarixi ikkita yo'nalishda borgan organizm va muhit munosabatlarini idrok etish asoslarini o'rganish va miyaning alohida tuzilmalarini morfologiyasi va funktsiyasini ochishdan iborat.

R.Dekart tomonidan XVII asrda refleks tushunchasini fanga kiritilishi organizm va muhit ta'siri asoslari ochilishi borasidagi muhim nazariyalardan biri sifatida rol o'ynaydi.

Refleks – organizmning tashqi va ichki ta'sirotlarga markaziy nerv tizimi orqali bergan javob reaksiyasidir. I.M.Sechenov (1829-1905) tomonidan amalga oshirilgan bu tushunchaning rivojlantirilishi va bu mexanizimning barcha psixik jarayonlarga tegishli ekanligi shunga olib keladi-ki, ilmiy psixologiyada determenizm tamoyili uzil-kesil o'z tasdig'ini topdi.

Inson hayotida reflekslarni yuqori baholab, I.M.Sechenov tomonidan quyidagicha ta'rif beriladi: “Ongli va ongsiz hayotning barcha aktlari (harakatlar) kelib chiqishi usuliga (mohiyatiga) ko'ra reflekslardir” .

Reflektor aktda I.M.Sechenov uchta bo'g'imni ajratadi; 1. Birinchi bo'g'imda sezayotgan “to'pning” ta'sirlanishi nerv qo'zg'alishiga aylanadi. 2 qo'zg'alish va tormozlanish jarayonlari asosida o'ziga xos ravishda axborotni qayta ishlash va

qaror qabul qilish ro'y beradi. 3.buyruqni amalga oshiruvchi organlarga (muskullarga va bezlar va hokazo) uzatish.

I.P.Pavlov (1849-1936) I.M.Sechenovning miya reflektor faoliyatini o'rganish borasidagi g'oyasini rivojlantirib, refleks tushunchasiga yangi mazmun kiritdi hamda shartli reflekslarning hosil bo'lish asoslarini yaratdi. Reflekslarning ikki turi farqlanadi: shartsiz va shartli reflekslar.

Shartsiz reflekslar tug'ma bo'lib, hayotning dastlabki kunlaridan va keyinchalik hech qanday tajribasiz (malakasiz) namoyon bo'la boshlaydi. Masalan, igna sanchilganda qo'lni tortib olinishi, ovqatning og'iz bo'shlig'ida tushgandagi so'lakning ajralishi. Shartli ta'sirlagich organizmning hayoti uchun muhim bo'lgan qandaydir hodisalarning mavjudligi haqida, masalan, ovqatning mavjudligi, xavf-xatarning paydo bo'lishi haqida xabar beradi.

Shartsiz reflekslarning markazlari turlichadir – shartsiz reflekslar yoylarning tutashuvchi orqa miyadan va bosh miyaning o'sishidan ro'y beradi. Shartli reflekslarning hosil bo'lish sohasi bosh miya po'stlog'idir.

Shuning uchun I.P.Pavlov bosh miya qobig'i faoliyatini signal faoliyati deb nomladi. I.P.Pavlov shartli reflekslar metodidan foydalanib, shuni aniqladiki, bosh miya katta yarim sharlari faoliyati organizmning ichki muhitidan va tashqi muhitdan nerv tizimiga kelayotgan ko'pgina ta'sirlovchilarning analiz va sintez jarayonlaridan iborat ekan. Analiz va sintez I.P.Pavlov tomonidan analizatorlar deb nomlangan o'ziga xos nerv tizimlari yordamida amalga oshiriladi.

Analizatorlar – bu nerv fiziologik apparat bo'lib, periferiyadagi nerv uchidan (retseptor) sezuvchi nervdan (o'tkazish yo'li) va miya qobig'ining tegishli qo'zg'atuvchini qabul qiluvchi sohasidan iboratdir.

I.P.Pavlovning birinchi va ikkinchi signal tizimlari to'g'risidagi ta'limoti ilmiy psixologiya uchun katta ahamiyatga egadir.

Hayvonlar uchun borliq katta yarim sharlaridagi ta'sirlagichlar va ularning izlari bilan signallashib ular organizmning ko'rish, eshitish retseptorlariga bevosita kelib turadi. Bu birinchi signallar tizimi bo'lib, odam va hayvonlarda umumiydir. So'zlar ikkinchi, maxsus insoniy signal tizimini tashkil etadi. So'zlar narsa va hodisalardan kelayotgan signallarning o'rnini egallagani uchun I.P.Pavlov tomonidan “signallar signali” deb nomlangan. Ikkinchi signal tizimining faoliyati birinchi signal tizimidan ajralmagan holda bevosita bog'liq tarzda boradi. Ikkinchi signallar tizimi tafakkur va nutqning fiziologik asosi hisoblanadi.

Odam bosh miyasi, miya katta yarim sharlarining ixtisoslashgan funksiyalarining mavjudligi haqidagi ma'lumotlar quyidagi jadvalda keltirilgan.

Psixologiya fanining vujudga kelishi.

Insonda jismoniy tanadan tashqari undan farqlanuvchi yana nimadir borligi haqidagi tasavvurlar qadimdan mavjud bo'lgan. Eng qadimgi davrlardayoq inson tush ko'rish hodisasi orqali ayrim odamlarning noyob qobiliyatlari (masalan, ovdagi muvaffaqiyatlar) o'lim va boshqa hodisalarning sabablarini tushuntirishga intilgan. Ammo dastlabki qarashlar mifologik xarakterda edi. Ular fikrlash orqali emas, ko'r-ko'rona ishonch vositasida egallanardi. Ruh haqidagi qarashlar

ko'pincha nafas bilan bog'lanardi, ruhni esa uchar mahluq sifatida tasavvur etardilar.

Psixologiya haqidagi fikrlar qadim zamonlardan beri mavjuddir. Ilk davrlarda psixologik xususiyatlarni jonning ishi deb tushuntirilgan. Jonning o'zi esa odam tanasidagi maxsus ikkilamchi jism deb qaralgan. Bunday tasavvurlar "**animizm**" deb ataladi. **Animizm** so'zi -anima "jon" degan ma'noni anglatadi. Jon o'z mohiyatiga ko'ra olovsimon uchqundan iborat ekanligi **Geraklit** tomonidan, yoki olovsimon atomdan iboratligi **Demokrit** tomonidan ta'kidlangan.

Platonning "ideyalar tug'ma bo'ladi" degan g'oyalari psixologik fikr taraqqiyotiga juda katta hissa qo'shdi. Platon ta'limotiga ko'ra "ideyalar" mohiyati abadiy va o'zgarmas, ularning tabiiy olamdan tashqarida oliy olam mavjud bo'lib, ularni odam ko'zi bilan ko'ra olmaydi.

Platon psixologiyada "**dualizm**" oqimining asoschisi hisoblanadi. **Dualizm** so'zi ikki yoqlamalik yoki ikki mustaqil fikr degan ma'noni anglatadi. Dualizm ta'limoti mohiyati moddiy va ruhiy olam tana va psixikaning bir-biriga bog'liq bo'lmagan holda mavjud bo'lib, azaldan qarama-qarshi narsalar deb tushuntiradi.

Platonning dualizm shogirdi **Arastu (Aristotel)** eramizdan oldingi IV asr 384-322 yillar) tomonidan birmuncha muvaffaqiyatli bartaraf etildi. Aristotelning "**Jon haqida**" asari o'sha davrdayoq psixologiya maxsus fan sifatida maydonga kela boshlaganidan dalolat beradi. Ana shu tufayli psixologiya jon haqidagi fan sifatida maydonga kelgan va hozirgi kunda psixologiya fani o'z mazmunini batamom o'zgartirgan.

Arastu kishilik tafakkuri tarixida birinchi bo'lib ruh va jonli tananing ajralmasligini isbotlab berdi. Unga ko'ra, jon qismlarga bo'linmaydi, lekin u faoliyatimiz davomida oziqlanishi, his etishi va harakatga kelishi, aql-idrok kabi turlarga oid qobiliyatlarda namoyon bo'lishi mumkin. Birinchi qobiliyatlar o'simlik uchun, ikkinchisi va uchinchisi hayvonlarga, to'rtinchisi esa insonlar uchun xosdir. O'simliklar, hayvonlar ruhi va aql idrok odam ruhi ta'limoti bilan Arastu oliy qobiliyatlar va ularning negizida paydo bo'lishini bildiradigan rivojlanish tamoyilini joriy etdi. Arastu organizmning tabiatdan olgan qobiliyatlarni faqat o'zining xususiy faolligi orqali ruyobga chiqarishga asoslangan holda xarakterning faoliyatda shakllanishi to'g'risidagi nazariyani ilgari surdi.

Psixologiyaning fan sifatida yuzaga kelish bosqichlari quyidagi jadvalda o'z aksini topgan.

Geraklit, Demokrit, Aflotun, Arastularning ta'limotlari keyingi asrlarda psixologik g'oyalarni rivojlanishida tayanch nuqta bo'lib hisoblanadi.

Mazkur davrlarda Sharqda ham ilk psixologik qarashlar yuzaga keldi. Sharqda psixologik qarashlarning paydo bo'lishida buyuk Sharq mutafakkirlarining roli katta bo'lgan. Ular orasida Al-Xorazmiy, Al-Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Mirzo Ulug'bek kabilar o'zlarining inson psixikasi va yosh avlodni tarbiyalashga doir boy fikrlar va qarashlarini meros sifatida qoldirganlar. Ular orasida ayniqsa Abu Ali ibn Sinoning mantiq, metafizika, tabiiy fanlar, ayniqsa, tibbiyot haqidagi fikrlari o'sha davr ilmiy

taraqqiyotiga katta hissa qo'shdi. U maxsus psixologik muammolar bilan shug'ullangan olimlardan biridir. Uning ruh, asab tizimi haqidagi qarashlari katta ahamiyatga ega. Ayniqsa, Abu Ali ibn Sinoning temperament xususiyatlariga qarab yondashish zarurligi haqidagi fikrlari ming yildan so'ng ham zamonaviy psixologiyada o'z qimmatini yo'qotmagan. Abu Ali ibn Sino dunyoda birinchi bo'lib psixoterapevtik usullarni qo'llab ko'rgan olimlardan biridir.

Asta-sekin ruh haqidagi tushuncha hayotning barcha ko'rinishlariga emas, faqat hozir biz psixika deb atalgan darajaga nisbatan qo'llana boshlandi. Psixika kategoriyasining negizida idrok va tafakkurdan tashqari ong tushunchasi yuzaga keldi, buning natijasida ixtiyoriy harakatlar va ularni nazorat qilish imkoniyati tug'ildi. Masalan, **Galen** (eramizdan oldingi II asr) fiziologiya va tibbiyot yutuqlarini umumlashtirib, psixikaning fiziologik asoslari to'g'risidagi tasavvurlarini yanada boyitdi. Uning ilgari surgan g'oyalari "ong" tushunchasi talqiniga muayyan darajada yaqinlashadi.

XVII asr biologiya va psixologiya fanlari uchun muhim davr bo'lib hisoblanadi. Jumladan fransiya olimi **Dekart** (1596-1650) tomonidan xulq-atvorning reflektor (g'ayriixtyoriy) tabiatga ega ekanligini kashf etilishi, yurakdagi mushaklarning ishlashi (faoliyati) qon aylanishning ichki mexanizmi bilan boshqarilayotganligini tushuntirilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, **refleks** (lotincha reflexus aks ettirish) organizmning tashqi ta'sirga qonuniy ravishdagi javob reaksiyasi sifatida talqin qilinib, asab-mushak faoliyatini ob'ektiv tarzda bilish vositasiga aylandi. Sezgi, assotsiatsiya, ehtiros yuzaga kelishini izohlashga imkon yaratildi.

Psixologiya fanining ilmiy asosga qurilishida ingliz olimi **Gobbs** (1588-1679) ruhni mutlaqo rad etib, mexanik harakatni yagona voqelik deb tan olib, uning qonuniyatlari psixologiyaning ham qonuniyatlari ekanligini ta'kidladi. Uning negizida - epifenomalizm (yunoncha eri - o'ta, rhainominon –g'ayritabiiy hodisa) vujudga keldi, ya'ni psixologiya tanadagi jarayon-larning soyasi singari ruy beradigan ruhiy hodisalar to'g'risidagi ta'limotga aylandi.

Niderlandiyalik olim **Spinoza** (1632-1677) ongni katta ko'lamga ega materiyadan sira qolishmaydigan voqelik, ya'ni yaqqol narsa deb, tushuntirdi. U determinizm (lotincha demmerminara - belgilayman) tamoyilining, ya'ni tabiat, jamiyat hodisalarining, shu jumladan psixik hodisalarining ob'ektiv sabablar bilan belgilanligi haqidagi ta'limot targ'ibotchisi edi.

XVII asrdagi yirik nemis mutafakkiri **Leybnis** (1646-1716) ning ta'limoti matematika, jumladan, integral va differensial hisoblar kashf etilishiga ta'sir etgan edi. Psixika hayot manzarasi arifmetik yig'indi tariqasida emas, balki integral tarzda namoyon bo'ladi. Leybnis tasavvurlarning uzluksiz chegaralanishi g'oyasiga tayangan holda persepsiya (bevosita ongsiz idrok)ni appersepsiyalar diqqat va xotirani o'z ichiga olgan anglangan idroklardan farqlagan edi. Leybnis psixologiyaga psixikaning faolligi tabiati va uzluksiz rivojlanishi hamda psixikaning onglilik va ongsizlik ko'rinishlari o'rtasidagi murakkab nisbat haqidagi g'oyani olib kirdi.

XVII asrda empirizm va sensualizmni tajriba va his etiladigan bilimning "sof" aql-idrokdan afzalligi haqidagi ta'limotning, ya'ni aqlda hech qanday tug'ma g'oyalari va tamoyillar bo'lishi mumkin emasligi haqidagi ta'limotning oldingi marraga ko'tarilishiga olib keldi. Bu ta'limotni ingliz faylasufi va pedagogi Jon Lokk (1632-1704) astoydil himoya qilib chiqqan edi. Uni empirik psixologiyaning asoschisi deb, hisoblash qabul qilingan. Barcha bilimlarning tajribadan kelib chiqishi haqidagi ta'limoti psixologiya uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan. Chunki u ruhiy hayotning aniq faktlari oddiy hodisalardan murakkab hodisalarga o'tish yo'llari puxta o'rganilishini taqazo etadi. J. Lokkning fikricha, tajribaning ikkita manbai mavjud bo'lib, biri tashqi sezgi a'zolarining faoliyati (tashqi tajriba) va ikkinchisi o'zining xususiy miyani idrok etuvchi aqlning ichki faoliyati (ichki tajriba) dir. Kishi hech qanday g'oyalarga ega bo'lmagan holda dunyoga keladi. Uning ruhi - "toza taxta" bo'lib, keyinchalik unga tajriba yozuvlari bitiladi. Tajriba oddiy va murakkab g'oyalardan tarkib topadi. Bu g'oyalari yo sezgilardan, yo ichki idrok (refleksiya) lardan hosil bo'ladi. Ikkinchi holatda ong real narsalarga emas, balki o'z xususiy mahsuliga yo'naltirilib, o'zi bilan o'zi bo'lib qoladi. J.Lokkning refleksiya ta'limoti kishi psixologik faktlarni interospektiv tarzda bilib oladi degan taxminga asoslangan edi. Bu bilan yana dualizm ta'limoti ilgari suriladi. Ong va tashqi olamni prinsipial jihatdan turlicha usullar yordamida bilish mumkinligi jihatidan ham ular bir-biriga qarama-qarshi qo'yilar edi.

J.Lokkning tashqi va ichki tajriba to'g'risidagi ta'limoti ikki xil xarakterga ega ekanligi ham materialistik ham idealistik ta'limotlarning taraqqiyotiga turtki bo'ldi. Materialistlar Gartli (1705-1784) bosh bo'lgan fransuz, A.N.Radishchev (1749-1802) boshchiligidagi rus materialistlari olamni bilishda tashqi tajribani asos qilib, olib inson psixikasining ichki mazmuni asosida odam atrof-muhit bilan o'zaro munosabati yotadi degan edilar.

XVIII asrga kelib nerv sistemasini tadqiq qilishda ulkan yutuqlarga erishildi (Galler, Proxazka). Buning natijasida psixika miya funksiyasi ekanligi haqidagi ta'limot vujudga keldi. Ingliz tadqiqotchisi Charlz Bell va fransuz Fransua Majandi tomonidan yoyiluvchi va harakat nervlari o'rtasidagi tafovut ochib berildi. Uning negizida psixologiya fanida reflektor yoyi degan yangi tushuncha paydo bo'ldi. Bularning natijasida ixtiyoriy (ongli) va ixtiyorsiz (ongsiz) reflektor turlari kashf qilindi.

Yuqoridagi ilmiy kashfiyotlar ta'sirida rus olimi I.M.Sechenovning (1896-1934) reflektor nazariyasi ruyobga chiqdi va ushbu nazariya psixologiya fanining fiziologik asoslari, mexanizmlari bosh miya reflekslarining o'ziga xos xususiyatlari tabiatini ochib berish imkoniyatini yaratadi.

Aytish kerakki, psixologiya fani borasidagi tadqiqotlar, kashfiyotlar shu bilan tugab qolmasdan, balki bu boradagi ishlar yanada kuchaytirilib samarali natijalarga erishilmoqda.

Markaziy Osiyoda psixologik ta'limotlarning rivojlanishi

VII asrning oxirlarida Movaraunnahr xalqlari asta-sekin arab xalifaligi qaramog'iga o'ta boshlaydi. Islomning har jihatdan mustahkam joriy etilishi esa

asosan IX asrning I choragida boshlangan. Shuning uchun ham Movaraunnahr allomalari arab musulmon madaniyati bilan faqat IX asrning boshidan tanisha boshlaganlar. Chunonchi, Muhammad al-Xorazmiy va Ahmad al-Farg'oniylar Bag'dod akademiyasi "Dorul hikma"ga IX asrning 16-20 yillarida kelganlar. Shu vaqtdan boshlab O'rta Osiyo fani, falsafasi, adabiyoti va madaniyati tarkibida mustahkam bosqich sifatida, ya'ni o'rta Osiyo mahalliy madaniyatining yangi bosqichi sifatida shakllana boshlagan edi. Demak, arab madaniyati va islomning o'rta Osiyo xalqlari madaniyatiga, ruhiyatiga ta'siri haqida ham xuddi mana shu vaqtdan boshlab gapirish mumkin.

Islomning O'rta Osiyo xalqlari ruhiyatidagi ilmi, tafakkuri, dunyoqarashlari roli haqida qisqacha to'xtalamiz.

Bu muammoni bir qancha xarakterli yo'nalishlari bo'yicha qo'yish mumkin. Bular: Movaraunnahr xalqlarining islomga qadar bo'lgan madaniyati va unga islomning munosabati, bu xalqlar madaniyatiga islomning kirishi, keyin shakllangan islom ruhiyati, madaniyatining o'ziga xos xususiyatlari, maorif, ta'lim, tarbiya, dunyoviy fanlar, ilohiyot, falsafa, adabiyot, ahloqiy-huquqiy hayot va uning islom qoidalari asosida boshqarish, me'morchilik va boshqalardan iborat. Bularning hammasida islom ijobiy rol o'ynaydi. Busiz u jamiyatda o'z o'rnini va ko'p asrlar davomida kishilarning turmushi, ruhiyati va ongiga ta'sirini saqlab qola olmagan bo'lar edi. Islomning tarqalishi xalqlarning islomga qadar bo'lgan madaniyati, diniy mafkurasi, otashparastlik, buddiylilik, mazdakiylilik, moniylik bilan bog'liq bo'lgan dunyoqarashlari yo'q qilingan edi.

Abu nasr Forobiy Yaqin va O'rta Sharqda ilg'or ijtimoiy-falsafiy oqimning asoschilaridan biri bo'lib, "Sharq Aristoteli" degan unvonga sazovor bo'lgan mashhur mutafakkirdir. Forobiy dunyoqarashining asosi, ya'ni dunyoning tuzilishi haqidagi tushunchasini «panteistik» degan fikr tashkil etadi. Mavjudot «emonatsiya» yordamida yagona boshlang'ichdan pog'onama-pog'ona vujudga kelgan, yakkalikdan ko'plikka, rang baranglikka borgan. Uning dunyoqarashidagi asosiy maqsadlardan biri ilmiy-falsafiy usulning mustaqilligini nazariy jihatdan asoslab berishga, uning inson tafakkuriga, aqliy bilimiga asoslanganligini isbotlashga intilishdir.

Forobiy bilishning ikki shakli, bosqichini - hissiy va hayoliy, aqliy bilishni bir-biridan farqlaydi. U sezgi roliga to'xtalib, besh turga bo'ladi:

Forobiy sezgini bilishning manbai deb hisoblagan, uning qarashlari Aristotelning «sezmagani odam hech narsani bilmaydi ham, tushunmaydi ham» degan qarashlariga o'xshab ketadi.

Forobiy inson (ruh) jonining bir tandan boshqasiga o'tib, ko'chib yurishi mumkinligini inkor etadi va uni balki tan kabi individual «substatsiyasining birligi» sifatida tushunadi. Uning fikri izchil emas edi. Bunday ikkilanish Aristotelga ham xos bo'lgan. Forobiyning ruhiy jarayonlar, ularning bilish va mantiq tizimi haqidagi ta'limoti o'rta asrlar falsafasining katta yutug'i edi.

Abu Ali ibn Sinoning psixologik falsafiy qarashlari, ilmlar tasnifi, ta'rifi va tarkibi haqidagi fikrlari uning "Tib qonunlari" asarida inson fiziologiyasi va

psixologiyasi asosida talqin etiladi. Ibn Sino sezgini tashqi va ichki sezgilarga ajratadi. Tashqi sezgi insonni tashqi olam bilan bog'laydi, ular 5 ta: ko'rish, eshitish, ta'm - maza bilish, hid va teri sezgisi. Bular insonning ma'lum organlari - teri, ko'z, og'iz, burun va quloq bilan uzviy bog'liq.

Ichki sezgilar - bu umumiy, chunonchi, tahlil etuvchi, ifodalovchi, eslab qoluvchi (xotira), tasavvur etuvchi sezgilardir. Ibn Sino miyani barcha sezgilardan boruvchi nervlar markazi, umuman inson nerv sistemasining markazi ekanligi haqidagi ta'limotni olg'a surgan. Inson tana va jondan tashkil topadi, miya insonni boshqarib turuvchi markazdir.

Abu Hamid Muhammad al G'azzoliy (1058 - 1111) falsafa, tasavvuf ilmiga oid asarlari juda yorqin, ravon va tushunarli uslubda bitilgan. Quyida uning ana shunday asarlaridan ba'zilarini sanab o'tamiz: «Faylasuflarning maqsadlari», «Faylasuflarning raddiyasi», «Din haqidagi fanning tug'ilishi», «Olam javoni» va x.k.

Tirik mavjudotlarning quyi darajadagi turlari: chumoli va chivinlarni ham faqat chumoli hamda chivinlargina anglay oladi. Afsuski faqat insongina o'zi haqida haqiqiy bilimga ega emas. Biz o'zimizni faqat sirdan – u yoki bu qilmishimiz va tashqi qiyofamiz orqali bilamiz. Ruhiiy mohiyatimizni bilimga urinmaymiz.

Uchta olam mavjuddir: ularning biri zohiriy, ikkinchisi botiniy olam bo'lsa, har ikkisinining orasidan yana bir olam – ruhiy olam o'rin olgan.

VIII asrda islomda turli yo'nalishlar paydo bo'ldi. Bulardan mutakallimlar, ularning psixik ta'limotiga ko'ra hissiy bilishning ahamiyatini, bilimlarimizning voqelikka muvofiq kelishini inkor etishdir. Ular nimaiki o'zlari uchun nomaqbul bo'lsa (hissiy bilish bilan bog'liq bo'lgan sezgi ma'lumotlari va bilimni inkor etish yordamida), hammasini inkor etadilar va ularga nimaiki tasdiqlash lozim bo'lsa, hamma tasavvur qilish mumkin bo'lgan narsaga yo'l qo'yish yordamida hammasiga yo'l qo'yish mumkin deb hisoblaydilar.

Mutazaliylar ta'limotida muhim masalalardan biri - inson irodasining erkinligi to'g'risidagi masaladir. Inson o'z hatti xarakterlarida erkindir. Insonning erkin irodasi haqidagi fikr xudoning «oliy qudrati» to'g'risidagi diniy aqidalarga zid keladi. Ollohning o'z yaratganlariga nisbatan majburiyati bilan almashtirdilar. Mutazaliylar taqdirning avvaldan belgilab qo'yilganligi to'g'risidagi ta'limotni - tavakkul ta'limotini inkor etadilar.

So'fizm ta'limotida butun odam xudoning mujassamlanishidan boshqa narsa emas. Xudo hamma ko'rinadigan narsalarda mavjud. Narsalar esa o'z navbatida xudoda mavjud. Dunyo - ruh shaklida butun olamga tarqalgan xudo singari yagonadir. Inson esa ana shu ruhning bir qismi, ertami kechmi u bilan qo'shiladi. Bu qo'shilish xudoga yaqinlashishning asosiy bosqichi - shariat, taraqqiyot, ma'rifat va haqiqat olib keladi. So'fizmga ko'ra xudo bilan qo'shilishning o'zi - eng oliy rohat. So'fizm xudoga aql yordamida ishonish emas, balki unga ichki hissiyot orqali yaqinlashishga katta e'tibor beradi.

Ruh - shamchiroqqa, bilim – ana shu shamchiroqdan taralayotgan yog'duga, Allohning zakosi – moyga o'xshaydi. Shamchiroq yonishdan to'xtamas ekan – sen tiriksan. Agar u o'chsa – sen halok bo'lasan.

Aql tarozusida tortib ko'rilmagan har qanday bilim asossizdir. Shu bois mantiq ilmini o'rganmoq juda muhim.

Chala bilim egasi bo'lishdan ko'ra, bilimsizlik afzalroqdir.



Nazorat savollari.

1. Psixologiya fanining predmeti maqsadi va vazifalarini ko'rsatib o'ting?
2. Psixologiya fanining shakllanish bosqichlari to'g'risida nimalarni bilasiz?
3. Psixologiyaning moddiy asosi nimalar bilan belgilanadi?
4. Ong tushunchasining mohiyatini izohlang?
5. Insonlarda ongsizlik holati qachon ro'y beradi?
6. Inson va hayvon psixikasi o'rtasidagi farqlar nimalarda ko'rinadi?



Tavsiya qilinuvchi adabiyotlar:

1. Лурия С.Л. Общая психология. Москва. 2005.
2. Немов Р.С. Психология. М. 2000.
3. Рогов И. Настольная книга практического психолога. 2005.
4. Хайдаров F.I., Xalilova N.I. Umumiy psixologiya. Elektron darslik. T., 2009.
5. G'oziyev E.G'. Umumiy psixologiya. T., 2011.



17-MAVZU: PSIXOLOGIYA FANINING ILMIY TADQIQOT METODLARI VA FANNING TARMOQLARI

Reja:

1. Psixologiyaning fanlar tizimida tutgan o'rni.
2. Hozirgi zamon psixologiyasining tuzilishi.
3. Hozirgi zamon psixologiyasining ilmiy tadqiqot metodlari.

Tayanch iboralar: *aviasiya psixologiyasi, akmeologiya, biografik metod, boshqarish psixologiyasi, genetik metod, genetik psixologiya, determinizm, din psixologiyasi, differensial psixologiya, - yosh psixologiyasi, zoopsixologiya, intervyu, kuzatish, laboratoriya tajribasi, metod.*

Psixologiyaning fanlar tizimida tutgan o'рни

Psixologiya ko'plab fanlar bilan uzviy bog'liq holda rivojlanib bormoqda. Fanlar orasidagi bog'liqliklar psixologiyaning fanlar tizimidagi o'rnini belgilab beradi. Bizga ma'lumki, mavjud fanlar gumanitar, tabiiy va falsafiy turlarga bo'linadi. Bir qator bir-biri bilan yondosh bo'lgan fanlar mazkur tasniflashga kiritiladi, lekin psixologiya mustaqil fan sifatida namoyon bo'ladi. U inson ruhiy faoliyatining tabiiy, tarixiy va ijtimoiy tomonini o'rganadi. Psixologiya barcha turdagi fanlar orasida muhim o'rinni egallaydi. Psixologiya falsafa, tarix, san'atshunoslik, texnika, pedagogika fanlari bilan uzviy bog'liq. Shunga muvofiq psixologiyani fanlar orasidagi bog'liqligini tahlil qilsak. Ayniqsa psixologiya fanining fanlar tizimida tutgan o'рни xususida quyidagi jadvalda ma'lumotlar keltiriladi:

Psixika asosida yotuvchi miyaning biologik va fiziologik jarayonlarini o'rganuvchi tuzilishi.

**TABIIY FANLAR
BIOLOGIYA,
FIZIOLOGIYA,
XIMIYA . FIZIKA**

KIBERNETIKA

Inson shaxsini o'z-o'zini boshqarish jarayonlarini o'rganadi.

Ijtimoiy psixologiyaga doir masala yechish va ijtimoiy rivojlanishda psixologiyani

SOTSIOLOGIYA

PEDAGOGIKA

Ta'lim tarbiya jarayonida inson shaxsini shakllanishini o'rganadi

Psixikani o'rganish uchun texnik vositalarni ishlab chiqish shuningdek texnik taraqqiyot sharoitida

174

TEXNIK FANLAR

Psixologiya **falsafa** fani bilan chambarchas bog'langan. Bu bog'liqlik ikkala fanning inson va uning hayoti mohiyatini to'la anglash va rivojlantirish an'analarini belgilashdagi o'rni va ahamiyatidan kelib chiqadi.

Tabiat, jamiyat va inson tafakkurini rivojlanishiga oid bo'lgan umumiy qonuniyatlar va tamoyillarni psixologiya falsafaning bazasidan oladi va shu bilan birga o'zi ham inson ongi va tafakkuri qonuniyatlari sohasidagi yutuqlar bilan falsafani boy ma'lumotlarga ega bo'lishiga yordam beradi. Shuni alohida ta'kidlash joizki, mustaqillik mafkurasi va milliy ongni shakllanishiga taalluqli, umumiy, ilmiy qonuniyatlarni tizimlashda bu ikkala fan - falsafa va psixologiyaning hamkorligi bevosita sezilmoqda. Bu bog'liqlik avvalo yangicha tafakkur va dunyoqarashni shakllantirish muammosi ko'ndalang turgan tarixiy davrda milliy istiqlol qoyalarini yurtdoshlarimiz ongi va tafakkurida shakllantirish kabi dolzarb vazifalarni bajarishga xizmat qilmoqda.

Sosiologiya fani ham yangicha munosabatlar sharoitida o'z taraqqiyotining muhim bosqichiga erishar ekan, psixologiya ushbu fan tomonidan qo'lga kiritilgan yutuqlardan foydalanadi hamda ularning qo'llanilishiga, ommalashishiga baholi qudrat xizmat qiladi. Ayniqsa, psixologiyadan mustaqil ravishda rivojlanib, ajralib chiqqan bugungi taraqqiyot davrimizda alohida ahamiyat kasb etgan ijtimoiy psixologiyaning sosiologiya bilan aloqasi uzviy bo'lib, ular jamiyatda ijtimoiy taraqqiyot va rivojlanishni ta'minlash ishiga xizmat qiladi. qolaversa, huquqiy-demokratik davlat qurish ishini sobitqadamlik bilan amalga oshirayotgan O'zbekiston aholisining huquqiy madaniyatini va demokratik o'zgarishlarga psixologik jihatdan tayyorligini amalda ta'minlash bu sohada muntazam tarzda ijtimoiy fikr, insonlar fikr va qarashlaridagi o'zgarishlarni o'rganish, bashorat qilish va taraqqiyot mezonlarini ishlab chiqishda ikkala fan metodologiyasi va metodlarini birlashtirish tadbqiqiy ahamiyat kasb etadi.

Pedagogika bilan psixologiyaning o'zaro hamkorligi va aloqasi an'anaviy va azaliy bo'lib, ularni yosh avlod tarbiyasining zamon talablari ruhida amalga oshirishdagi roli va nufuziga xosdir. O'z-o'zidan ravshanki, bunday aloqa hamisha ham mavjud bo'lib kelgan va buni ilg'or psixologlar va pedagoglar tushuntirib berishga harakat qilishgan. Rus pedagogi va psixologi K.D.Ushinskiy pedagogika uchun o'z ahamiyatiga ko'ra psixologiya barcha fanlar ichida birinchi o'rinda turadi, deb ta'kidlagan edi. Kishini har jihatdan tarbiyalamoq uchun, - deb qayd etgan edi K.D.Ushinskiy, uni har jihatdan o'rganmoq darkor.

Respublikamizda amalga oshirilayotgan yangi "Ta'lim to'g'risida"gi qonun hamda "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi"ni amalga oshirilishi ham ikki fan hamkorligi va o'zaro aloqasini har qachongidan ham dolzarb qilib qo'ydi. Milliy dasturda e'tirof etilgan yangicha modeldagi shaxsni kamol toptirish, uni chuqur bilimlar sohibi bo'lib yetishishi, barkamolligini kafolatlovchi shart-sharoitlar orasida yangi pedagogik texnologiyalarni ta'lim va tarbiya jarayonlariga tadbqiq etishda pedagogikaning o'z uslub va qoidalari yetarli bo'lmaydi. Shuning uchun ham psixologiya u bilan hamkorlikda yosh avlod ongining ta'lim olish davrlaridagi rivojlanish an'analaridan tortib, toki yangicha o'qitish texnologiyalarini bola

tomonidan o'zlashtirilishi va undagi aqliy qobiliyatlarga nechog'li ta'sir ko'rsatayotganligini o'rganish, shu asosda ishni tashkil etish, psixologiyadagi metodlarni didaktik metodlar bilan uyg'unlashtirishni taqozo etadi. Ayniqsa, ma'naviy barkamollik tamoyillarini maktabda va yangi tipdagi ta'lim muassasalarida joriy etish ham shaxs psixologiyasini teran bilgan holda o'qitishning eng ilg'or va zamonaviy shakllarini amaliyotga tadbiiq etishni nazarda tutadi.

Tabiiy fanlar - biologiya, fiziologiya, ximiya, fizika va boshqalar psixik jarayonlarning tabiiy fiziologik mexanizmlarini tushunish va shu orqali ularning kechish qonuniyatlarini ob'ektiv o'rganish uchun materiallar beradi. Ayniqsa, bosh miyaning hamda markaziy asab tizi-mining psixik faoliyatlarini boshqarishda va ularni muvofiqlash-tirishdagi rolini e'tirof etgan holda psixologiya fani tabiiy fanlar erishgan yutuqlar va ulardagi tadqiqot usularidan omilkorona foydalanadi. Masalan, shaxs qobiliyatlarini diagnostika qilish uning tug'ma layoqatlari hamda orttirilgan sifatlarini bir vaqtda bilishni taqozo etganligi sababli unga tabiiy layoqatning xususiyatlarini aniqlashda psixofiziologiyaning qator usullaridan o'z o'rnida foydalanadi va biologiya, anatomiya, fiziologiya, neyrofiziologiya kabi fanlarning shu kungacha erishgan yutuqlaridan foydalanadi. Shuning uchun tabiiy fanlar sohasida erishilgan barcha yutuqlar psixologiya fanining predmetini mukammalroq yoritishga o'z hissasini qo'shgan.

Kibernetika fani sohasidagi erishilgan yutuqlar psixologiya uchun ham ahamiyatli va zarur bo'lib, u inson shaxsining o'z-o'zini boshqarish va psixik jarayonlarni takomillashtirish borasida axborotlar texnologiyasi va kibernetika fani tomonidan qo'lgan kiritilgan yutuqlar va tadqiqot metodlari, maxsus dasturlardan o'z o'rnida foydalanadi. Ayniqsa, ma'lumotlar asri bo'lgan XX-asrda va har bir alohida ma'lumotning qadr-qimmatini oshishi bashorat qilingan XXI-asrda global axboriy jarayonlar va yangi ilg'or texnologiyalarni modellashtirish borasida psixologiya hamda kibernetika hamkorligining salohiyati yanada ortadi. Masalan, oddiy muloqot jarayonini yanada takomillashtirish, har bir so'zning shaxslararo munosabatlardagi ta'sirchanligini oshirish maqsadida, hamda ana shunday ijtimoiy faoliyatli jarayonda shaxs tizimini takomillashtirishda turli kibernetik modellardan o'rinli foydalanish zamonaviy psixologiyaning jamiyatdagi o'rni va rolini oshiradi va maxsus kompyuter dasturlarining keng qo'llanilishi, inson miyasi va ruhiy olami sirlarini tez va aniq o'rganishni kafolatlaydi.

Texnika fanlari bilan psixologiyaning o'zaro aloqasi va hamkorligi ayniqsa, hozirgi kunga kelib yaqqol sezilmoqda. Bir tomondan, murakkab texnikani boshqaruvchi inson muammosini yechishda, ikkinchi tomondan psixik holatni murakkab qirralarini ochishda maxsus texnik vositalardan foydalanish zarurati bu ikki yo'nalishning erishgan yutuqlarini birlashtirishni nazarda tutadi. Masalaning yana bir alohida tomoni ham borki, u ham bo'lsa, texnika taraqqiyotiga bir vaqtda murakkab texnika va mashinalar bilan muloqot qilayotgan shaxs faoliyatini yanada takomil-lashtirish va uning imkoniyatlariga mosligi masalasi ham ana shu hamkorlikda qilinishi lozim bo'lgan masalalardir. Ayniqsa, mustaqil O'zbekiston

uchun murakkab zamonaviy texnika sir-asrorlarini biladigan, uning jamiyat va fan ravnaqiga xizmatini ta'minlash qanchalik dolzarb bo'lsa, ana shu texnikaga qar bir oddiy fuqaro ongi, tafakkuri va qobiliyatlarini moslashtirish va odam-mashina dialogining eng samarali yo'llarini izlab topish juda muhim. Texnika bilan bemalol "tillashadigan" malakali mutaxassislar tayyorlash borasida ham texnika fani pedagogika va psixologiya fanlari metodlaridan foydalana olsagina muvaffaqiyatga erishadi.

Iqtisodiyot bilan psixologiyaning o'zaro aloqasi va hamkorligi XX asrning yangiliklaridan bo'lib, ayniqsa, bozor munosabatlariga bosqichma-bosqich o'tish sharoitida iqtisodiy ong ham iqtisodiy xulqning o'ziga xos namoyon bo'lish qonuniyatlarini o'rganishda ikkala fanga xizmat qiladi.

Prezident I.A.Karimov mustaqillikning dastlabki yillaridanoq fuqarolarning birinchi navbatda onglarida yangicha iqtisodiy tafakkurni shakllantirishning jamiyat iqtisodiy taraqqiyotidagi ahamiyatiga e'tiborni qaratgan edilar. Demak, yangi davr shaxsni tarbiyalash va uning jamiyatga moslashuvi masalasida psixologiya iqtisodiyot fanida qo'lga kiritilgan yutuqlar, yangiliklar va iqtisodiy samaraga erishish amaliyotlarini hisobga olsa, iqtisodiyot o'z navbatida islohotlarning ob'ekti hamda sub'ekti bo'lmish inson olamidagi barcha psixologik o'zgartirishlarni aniqlash, tahlil qilish va shu asnoda bashorat qilish vazifalarini yechishi kerak. Bundan tashqari menejment, marketing boshqaruvi sohasidagi har bir izlanish hoh u iqtisodchi tomonidan amalga oshiriladimi, hoh psixologlar tomonidanmi, baribir ishlab chiqarishning samaradorligini oshirishda shaxsning individual qobiliyatlarini inobatga olish insonlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning sirlarini mustahkamlash bilan inson resurslari masalasiga to'g'ri, odilona yondashishni taqozo etadi. Bu esa o'z navbatida shaxs va guruhlar psixologiyasini bilish va ishlab chiqarishning iqtisodiy omillarini odam qobiliyatiga muvofiqlashtirishni nazarda tutadi.

Psixologiyaning **tabiatshunoslik** bilan aloqasining tobora mustahkamlanishiga quyidagi omil asosiy sabab bo'lgan. Bu jarayon XIX asrning ikkinchi yarmida boshlangan edi. Eksperiment metodining **G.Fexner** tomonidan fanga joriy etilganligi ana shu jumladan bo'lib, bu I. M. Sechenovning "**Bosh miya reflekslari**" kitobi bosmadan chiqqanidan keyin ayniqsa keng tus olgan edi. Bu kitobda psixik hodisalar ham xuddi odam organizmining boshqa barcha funksiyalari kabi tabiiy hodisalar ekanligi, ular sababsiz yuz bermasdan, balki nerv sistemasining reflektor aks etishi faoliyati natijasi ekanligi ko'rsatib berilgan edi. I.M. Sechenovning reflektor nazariyasi psixologik bilimlarning tabiiy-ilmiy negizini tashkil etadi. Bu nazariya keyinchalik I.P.Pavlovning shartli reflekslar haqidagi ta'limotida uning shogirdlari L.A.Orbeli P.K.Anoxin K.M.Bikov, N.I.Krasnogorskiylarning asarlarida, shuningdek, A.A.Uxtomskiy N.A.Bernshteyn I.S.Beritashvili va boshqalarning asarlarida yanada rivojlantiriladi. hozirgi paytda psixologiya fanining tabiiy-ilmiy jihatdan bu xilda asoslanganligi olimlar tomonidan miya faoliyatining neyrofiziologik mexanizmlari o'rganilayotganligi hisobiga tobora kuchaytirilmoqda. Shu tariqa psixik faoliyatning murakkab

fiziologik mexanizmlari tizimini tadqiq qilish borasidagi yutuqlar psixologiya bilan tabiatshunoslik o'rtasidagi aloqalarning aniq natijasi qisqartirib beradi.

Hozirgi zamon psixologiyasining tuzilishi

Hozirgi zamon psixologiya sohalarini hozirgi kunga kelib 300 dan ortiqni tashkil qiladi. Bu sohalar o'ziga xos ob'ektga ega bo'lib, bir-biridan farq qiladi. Shu bois fan sohalarini o'rganish qulay bo'lishi uchun tarmoqlarni ma'lum tizimga keltirish maqsadida ma'lum guruhlariga tasniflash joriy qilingan. Bu borada professor A.V.Petrovskiy psixologiya fan sohalarini quyidagicha tasniflashni ilgari surdi:

- *Aniq faoliyat turlarini o'rganuvchi psixologiya sohalarini.*
- *Rivojlanishning yosh xususiyatlarini o'rganuvchi psixologiya sohalarini.*
- *Shaxs va jamiyatga bo'lgan munosabatni o'rganuvchi psixologiya sohalarini.*

Ψ *Aniq faoliyat turiga ko'ra psixologiyaning quyidagi turlari mavjud:*

-din psixologiyasi dinshunoslik va psixologiya bilimlari zaminida vujudga kelgan bo'lsa xam, o'ziga xos mavzu, maqsad va vazifalarga ega bo'lgan mustaqil fan tarmog'i sifatida shakllanib, rivojlanib kelayapti. Bu fanning ob'ektini inson ruhiyati, diniy guruhlar va tashkilotlar xulqi, inson qalbida joylashgan va turli ko'rinishlarda namoyon bo'luvchi diniy e'tiqod va amallar tashkil etadi. Uning predmeti esa, dinning ruhiy fenomen sifatida kishilar qalbi, xulq-atvori, xayot tarzi, hissiyot va tafakkuriga ko'rsatadigan ta'sirini o'rganishdan iborat. Shuningdek, diniy e'tiqodning shakllanishi va ta'sir etishini, diniy tushunchalar bilan bog'liq bo'lgan tuyg'ular, tasavvurlar, qiziqish va boshqa ruhiy holatlarning yuzaga chiqishini, ularning xulq-atvoriga singishi, e'tiqodlarning yuksalishi va o'zgarishlarini, ularning samimiyligi, chuqurlik darajasi kabi holatlarni tadqiq etish lozim bo'ladi. Bunda psixologiya va boshqa fanlar tomonidan yaratilgan metodlardan foydalaniladi. Din psixologiyasi fani inson va jamiyat qonuniyatlarini o'rganadigan barcha ijtimoiy-gumanitar fanlar bilan bevosita yoki bilvosita bog'liqdir. Ayniqsa, falsafa, etnologiya, antropologiya, tarix, sotsial psixologiya, dinshunoslik, huquqshunoslik kabi fanlar bilan uzviy bog'langan va bu ilmiy bilimlar tizimida o'z o'rniga ega bo'lib bormoqda.

- **mehnat psixologiyasi:** inson mehnat faoliyatining psixologik xususiyatlarini, mehnatni ilmiy asosda tashkil qilishning psixologik tamoyillarini o'rganadi. Mehnat psixologiyasining bir nechta bo'limlari mavjud;

a) muhandislik psixologiyasi - inson bilan mashina o'rtasidagi vazifalarni taqsimlash masalalarini hal qiladi va asosan operatorlarning faoliyatini o'rganadi;

b) aviasiya psixologiyasi- uchishga o'rganish jarayoni va uchish moslamalarini boshqarishda inson faoliyatining psixologik qonuniyatlarini o'rganadi;

v) kosmik psixologiya - vaznsizlik holati, fazoviy tasavvurlar chalkashib ketgan vaqtda va organizmga juda ko'p ortiqcha ta'sirlar yuklangan paytda asab va ruhiy zo'r berish bilan bog'liq bo'lgan alohida holatlar tug'ilganda odam faoliyatining xususiyatlarini o'rganadi.

Pedagogik psixologiya-uning predmeti o'quvchilarga ta'lim-tarbiya berishning psixologik qonuniyatlarini o'rganish, o'quvchilar tafakkurini taraqqiy topishi, intellektual faoliyat malakalari va usullarini o'zlashtirish jarayonini boshqarish masalalarini o'rganadi. Pedagogik psixologiya bo'limlari quyidagilardir:

- a) *ta'lim psixologiyasi;*
- b) *tarbiya psixologiyasi;*
- v) *o'qituvchi psixologiyasi;*

Tibbiyot psixologiyasi shifokor faoliyatining va bemor xulq-atvorining psixologik jihatlarini o'rganadi. Uni quyidagi tarmoqlari mavjud:

- a) **neyropsixologiya** - psixik hodisalar bilan miyadagi fiziologik tuzilishlar o'rtasidagi nisbatni o'rganadi;
- b) **psixofarmakologiya** - dorivor moddalarning shaxs ruhiy holatiga ta'sirini o'rganadi;
- v) **psixoterapiya** - bemorni davolash uchun ruhiy ta'sir vositalarini o'rganadi;

Yuridik psixologiya-xuquq tizimi bilan bog'liq bo'lgan psixologik masalalarni o'rganadi.

Uning quyidagi tarmoqlari mavjud.

- a) **sud psixologiyasi** - jinoiy jarayon ishtirokchilarining xulq-atvorini, ruhiy xususiyatlarini tahlil qiladi;
- b) **kriminal psixologiya** - jinoyatchining xulq-atvori, shaxsining shakllanishiga doir psixologik masalalar, jinoyatning motivlari bilan shug'ullanadi.

Harbiy psixologiya - kishining harbiy harakatlar sharoitidagi xulq-atvori bilan bog'liq hodisalar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarini, psixologik targ'ibot metodlarini, harbiy texnikani boshqarishning psixologik muammolarini o'rganadi.

Sport psixologiyasi - sportchilar shaxsi va faoliyati xususiyatlarini, ularning psixologik jihatdan tayyorligining shart-sharoitlari, musobaqalarni tashkil etish va o'tkazish bilan bog'liq psixologik omillarni o'rganadi.

Savdo psixologiyasi - asosan rivojlangan mamlakatlarda keng taraqqiy etgan bo'lib, kishilar ruhiyatiga tijorat ta'sirini psixologik shart-sharoitini, xaridorlarga xizmat ko'rsatishning psixologik omillarini aniqlaydi. Modalar psixologiyasini tadqiq qiladi.

San'at psixologiyasi - san'at asarlarining yaratilishida faoliyat-ning psixologik tomonlarini, inson tomonidan badiiy asarlarni idrok etilishi, turli hodisalarni paydo bo'lishi va estetik tarbiya muammolari, musiqaviy, badiiy, adabiy qobiliyatlarni shakllantirish va tarbiyalash muammolarini o'rganadi.

Ilmiy ijodiyot psixologiyasi ilmiy faoliyatning psixologik xususiyatlari, ijodiyotda intuisiya va ilhomni tadqiq qiladi.

Ψ Rivojlanishning yosh xususiyatlarini o'rganuvchi sohalar.

A) **yosh psixologiyasi** - inson shaxsining psixologik xususiyatlari va bilish jarayonlarining ontogenezdada rivojlanishini o'rganadi. Yosh psixologiyasi bolalar

psixologiyasi, o'smirlar psixologiyasi, kattalar psixologiyasi, gerontopsixologiya kabi tarmoqlarga bo'linadi.

B) patopsixologiya- miya faoliyati buzilishlari natijasida kelib chiqadigan turli shakldagi ruhiy rivojlanishdan chetlanishni o'rganadi.

Oligofrenopsixologiya - miyaning tug'ma kamchiliklari tufayli paydo bo'ladigan bo'limlarni o'rganadi.

Surdopsixologiya - eshitish faoliyatida jiddiy nuqsonlari bo'lgan bolalarning rivojlanishini o'rganadi.

Tiflopsixologiya - ko'rish qobiliyati past yoki umuman ko'rmaydigan kishi faoliyatini o'rganadi.

Qiyosiy psixologiya -hayotning filogenetik shakllarini o'rganuvchi psixologiya sohasi bo'lib, inson va hayvonlar psixologiyasini solishtirish orqali o'xshashlik va farq qiluvchi tomonlarini aniqlaydi.

Akmeologiya yetuklik darajasiga erishgan shaxs rivojlanishining yuqori darajasi ularning qonuniyatlari va mexanizmlarini, ayniqsa rivojlanishining eng yuqori cho'qqiga erishish xususiyatlarini o'rganadi.

Ψ Inson va jamiyat o'rtasidagi munosabatlarning psixologik tomonlarini o'rganuvchi psixologiya sohalari.

1.Ijtimoiy psixologiya - uyushgan va uyushmagan ijtimoiy guruhlardagi shaxslararo o'zaro tasir jarayonida paydo bo'ladigan psixologik hodisalarni o'rganadi.

2.Differensial psixologiya - shaxs shakllanishining individual psixologik yo'naltirilganligi kabi xususiyatlarni o'rganadi.

3.Din psixologiyasi - inson ongiga diniy qarashlarning tasiri masalalarini o'rganadi.

4.Etnopsixologiya - inson psixologiyasining etnik xususiyatlari, milliy xarakter, milliy tuyg'u, milliy g'oya, o'z-o'zini anglash, etnik stereotip, ularning qonuniyatlari va vujudga kelish xususiyatlarini o'rganadi.

5. Boshqaruv psixologiyasi - bu psixologiya fanining shunday sohasiki, unda inson tomonidan - boshqarishning psixologik tomonlarini o'rganadi.

6.Marketing psixologiyasi - yangi mahsulotlarni ishlab chiqarishda ishlab chiqarish korxonalarini va firmalarni boshqarishni va ular faoliyatini tashkil etishning psixologik muammolarini tadqiq qiladi.

Shu bilan birga psixologiyaning bir qator tadbqiqiy sohalari ham mavjud.

Eksperimental psixologiya - eksperimental metodlar yordamida psixik hodisalarni tadqiq qilishning umumiy sohasi. Psixologiya fan sifatida falsafadan ajralib chiqishida, eksperimental tadqiqotlar o'tkazishda asosiy rol o'ynagan.

Ekstremal psixologiya - insonning o'zgargan muhit shart-sharoitlarida psixik faoliyatning kechishi qonuniyatlarini o'rganadigan psixologiya sohasi.

Psixofiziologiya - odamlarning individual psixologik va psixofiziologik farqlarini tadqiq qiluvchi, psixologiya sohasi.

Siyosiy psixologiya - jamiyatning siyosiy hayotidagi psixologik xususiyatlar, holatlar, qonuniyatlar, ta'sirchanlik va ta'sir ko'rsatish jarayonlari kabi jabhalarni tekshiruvchi psixologiya so'hasi.

Oila psixologiyasi - oila psixologiyasini o'rganuvchi, fanlararo tadqiqot qilishga yo'nalgan psixologiya sohasi.

Parapsixologiya - Hozirgi zamon fanining chegarasidan tashqaridagi, tushuntirish qiyin bo'lgan psixik hodisalarni o'rganadi.

Fan rivojlanib, taraqqiy etib borishi jarayonida uning sohalari ham kengayib bormoqda.

Hozirgi zamon psixologiyasining ilmiy tadqiqot metodlari

Malumki, har qanday fan o'z predmetiga ega. Psixologiyaning predmeti psixika bo'lib, u obektiv olamni psixik hodisalar asosida aks ettirib, yuzaga kelgan va shakllangan obraz subekt faoliyatini, xulq-atvorini maqsad sari yo'naltiradi.

Bundan tashqari har qanday fan qandaydir hodisa qonuniyatlarini bilish uchun malum bir metodlardan foydalanadi. I.P.Pavlov "Metodning qo'lida tadqiqot taqdiri yotadi" degan edi. Metodlar tizimi fanning umumiy metodologiyasiga birlashadi.

Metodologiyani keng manoda oladigan bo'lsak, u malum tizimga ega bo'lgan va bilimlarni izlab topishga qaratilgan, mantiqan ketma-ketlikka ega bo'lgan metodlardir. Ko'pchilik olimlar bu atamani ilmiy metod tushunchasiga mos tarzda tushunadilar va foydalanadilar, metodologiya faqat ilmiy tarzda qabul qilinishi deb takidlaydilar.

Metodologiya (yunoncha methodes - bilish, tadqiq qilish, izlanish yo'li, logos - tushuncha, talimot) amaliy faoliyatini tashkil etish va amalga oshirish tamoyillari, usullari tizimi hamda ushbu tizim haqidagi talimotdir.

Metodlar - psixologiyani o'rganish usullari va yo'llari yig'indisi, "Metod" bu bilish, anglash yo'li bo'lib, bu usul orqali fanning predmeti aniqlanadi. (S.L.Rubinshteyn).

Har bir fan taraqqiyotining asosiy sharoitlaridan biri uning malum darajada mumkin qadar obektiv, aniq ishonchli uslublarga ega ekanligidir. Metod - uslubning manosi biror narsaga borish yo'li demakdir. Umuman psixologiyada inson psixikasini tadqiq qilishda metodlarning turli tasnifi mavjuddir. Tadqiqot metodlarini ilmiy jihatdan tahlil qilgan rus psixologi B.G.Ananov mazkur metodlarni xususiyatlariga qarab klassifikasiya qilgan.

B.G.Ananov psixikani o'rganish metodlarini turli guruhga ajratib, o'rgangan:

- A) tashkiliy guruhga - qiyoslash, longityud, kompleks metodlari kiradi;
- B) emperik guruhga kuzatish, eksperiment, suhbat, so'rovnoma, test, faoliyat mahsulini o'rganish metodi, biografiya, sosiometriya;
- V) natijalarni qayta ishlash yoki statistik metodlar;
- G) sharhlash guruhiga genetik va donalash metodlari kiradi.

B.G.Ananov tomonidan ajratilgan klassifikasiyaga ko'ra, tadqiqot ishlarida foydalaniladigan asosiy metodlar emperik guruh metodlari hisoblanadi. Shunday bo'lsada boshqa guruh metodlariga ham qisqacha to'xtalib o'tamiz.

Tadqiqot metodlarining birinchi tashkiliy guruhi o'z ichiga qiyoslash, longityud (uzluksiz), kompleks (ko'pyoqlama) deb ataladigan turlarni qamrab oladi.

Qiyoslash metodidan umumiy psixologiya, ijtimoiy psixologiyada katta yoki kichik guruhlarini hamda ularning har xil toifalarini o'zaro taqqoslash uchun, medisina psixologiyasida – sog'lom va bemor kishilarning psixik xususiyatlarini qiyoslash maqsadida, sport psixologiyasida sportchilarning holati, o'quvligini va ishchanligini o'zaro taqqoslash maqsadida foydalaniladi.

Qiyoslash metodi turli yoshdagi odamlarning bilish jarayonlari shaxs xususiyatlari, bilimlarni o'zlashtirish, aqliy qobiliyati, salohiyati, rivojlanish dinamikasi, jinslarning tafovutlari va o'ziga xosligini o'rganishda qo'llaniladi. Psixologlardan L.S.Vigotskiy, P.P.Blonskiy, A.A.Smirnov, B.G.Ananov, D.B.Elkonin, P.Galperin va ularning shogirdlari olib borgan tadqiqotlar (chaqaloqlik, go'daklik, ilk bolalik, kichik maktab yoshi, o'smirlik, o'spirinlik yosh davrlarini o'zaro solishtirish) shu metoddan foydalanib amalga oshirilgan.

Longityud metodining boshqa metodlardan farqi bir yoki bir nechta sinaluvchilar uzoq muddat, hatto o'n yillab tekshiriladilar. Longityud metodidan nemis psixologi V.Shtern, fransuz psixologi R.Zazzo, rus psixologlari N.A.Menchinskaya, A.N.Gvozdev, N.S.Leytes, V.S.Muxina va boshqalar ko'p yillardan beri foydalanmoqdalar.

Mazkur metod orqali bir xil jinsli (Hasan-Husan, Fotima- Zuhra yoki aralash jinsli Hasan - Zuhra, Fotima- Husan) egizaklar kuzatilgan. Longityud metodi yordamida sub'ektiv omillarning o'ziga xosligini ob'ektiv shart - sharoitlari va ijtimoiy muhitning sinaluvchiga ta'siri o'rganiladi. Chunonchi egizaklarning o'xshashligi va tafovuti, ta'sirlanishi, his-tuyg'uni o'zgarishi kishilar o'rtasidagi individual farqlar (ishchanligi, temperamenti, oliy nerv faoliyati tizimi va hokazo) bo'yicha ma'lumotlar olish longityud metodi orqali amalga oshiriladi.

Kompleks metodi yordamida o'rganilgan ob'ektdagi o'zgarishlar turli nuqtai - nazardan tahlil qilinadi yoki ularga har xil yondashiladi. Masalan, bolada oddiy bilimlarni o'zlashtirish xususiyati psixologik jihatdan tekshirilayotgan bo'lsa, kompleks yondashish ta'sirida ana shu o'zlashtirishning falsafiy, mantiqiy, fiziologik, ijtimoiy, biologik xususiyatlari yoritiladi. Aytaylik, keksayishning biologik omillarini o'rganish, uning psixologik, fiziologik, mantiqiy jihatlarini yoritishga xizmat qiladi.

Ilmiy tadqiqot metodlarining uchinchi guruhi natijalarni qayta ishlash bo'lib, ular statistik (miqdor) va psixologik (sifat) tahlil turlariga bo'linadi.

Ilmiy tadqiqot metodlarini sharhlash guruhi genetik va donalash metodlaridan iboratdir.

Genetik metod bilan tadqiqot davomida tugallangan ma'lumotlar yaxlit holda, maqsadga muvofiq tarzda sharhlanadi. Bu metoddan foydalanishning asosiy maqsadi sinaluvchida vujudga kelayotgan ichki, jamiki obrazlarning rivojlanishi, faoliyat va bilish jarayonlarining o'zgarishiga tajriba natijasiga suyanib ta'rif va tavsif berishdir. Shuningdek, bunda mazkur fazilat va xususiyatlarning namoyon

bo'lish davri, bosqichi hamda ba'zi mashaqqatli daqiqalarga, holatlarga qo'shimcha sharhlar berish imkoniyati tug'iladi.

Genetik metodga asoslanib psixik o'zgarishlar bilan rivojlanish bosqichlarining bevosita bog'liqligi ildizi aniqlanadi.

Donalash metodi tadqiqot ob'ektiga kirgan shaxs psixikasidagi barcha o'zgarishlardagi o'ziga xoslik, o'zaro aloqa, o'zaro ta'sir va uyg'unlikning o'zaro bog'lanishlari o'rganiladi. Jumladan, inson xulqini idrok qilish uchun sezgi, idrok, xotira, tafakkur jarayonlarining bir paytda, birgalikda tadqiq qilinishi bunga yorqin misoldir. Bunda har bir bilish jarayonining usuli ifodalanadi yoki uning ahamiyati alohida ta'kidlanadi, ularning o'zaro bog'liqligi asoslab beriladi.

Empirik metodlar guruhi o'z navbatida ikkiga, ya'ni **asosiy va yordamchi** metodlarga bo'linadi. Asosiy metodlarga kuzatish va eksperiment metodlari kirsam, yordamchi metodlarga *suhbat, so'rovnomam, test, sosiometriyam va faoliyat natijalarini tahlil qilish* kabi metodlarni kiritish mumkin.

Kuzatish metodi - ikki xil bo'lib, ob'ektiv (tashqi) va sub'ektiv (ichki) kuzatish turlari mavjud. Inson psixikasidagi o'zgarishlarni kuzatish uchun quyidagilar amalga oshiriladi:

- a) kuzatishning maqsad, vazifasi belgilanadi;
- b) kuzatilayotgan ob'ekt tanlanadi;
- v) tadqiqot o'tkazish vaqti rejalashtiriladi;
- g) kuzatish qancha davom etishi qat'iyashtiriladi;
- d) kuzatish insonning qaysi faoliyatida (o'qish, o'yin, mehnat, sport) amalga oshirilishi aniqlanadi;
- e) kuzatishning shakli (yakka, guruh, jamoa) tanlanadi; yo) kuzatilganlarni qayd qilib borish vositalari (kundalik suhbat daftari, kuzatish varaqasi, magnitafon, videomagnitafon) tayyorlab qo'yiladi. Kuzatish orqali turli yoshdagi odamlarning diqqati, his-tuyg'ulari, asab tizimining tashqi ifodalari, imo-ishoralari, sezgirligi, xulq-atvori, nutq faoliyati kabilar o'rganiladi. Ammo o'ta murakkab ichki kechinmalar, yuksak hissiyotlar, tafakkur, mantiqiy xotira va aql zakovatni tadqiq etishga bu metodning imkoni yetmaydi.

Masalan, o'spirin yoshlarning sport faoliyatini kuzatish orqali ularning irodasi, ishchanligi, his-tuyg'usining o'zgarish xususiyatlari, talabga intilish, o'z harakatini idora qila olish yuzasidan materiallarni yig'ish mumkin.

Tashqi kuzatishda ba'zan tafakkur bo'yicha ham ma'lumotlar olish mumkin. Ish ustidagi kayfiyatni, chegradagi tashvish va iztirobni, sinchkovlik kabi ruhiy holatlarni kuzatib, tafakkurdagi o'zgarishni aniqlash mumkin. Bundan tashkari qo'lning titrashi, asabiylashish, nutqning buzilishi ham insonning ruhiyatidagi o'zgarishlar bo'yicha ma'lumotlar beradi. Psixologiyada o'z-o'zini kuzatish, ya'ni introspeksiya metodidan ham foydalaniladi, lekin bu psixologiyaning ilmiy bo'lmagan metodi hisoblanadi.

Tajriba yoki eksperiment metodi - o'z navbatida tabiiy va laboratoriya metodlariga ajratiladi. **Tabiiy tajriba** metodlarining ilmiy asoslarini 1910 yilda rus psixologi **A.F.Lazurskiy** tomonidan ishlab chiqilgan. U kichik maktab yoshidagi

bola shaxsining shakllanishini o'rganish maqsadida ushbu metodni qo'llagan. Tabiiy metoddan ishlab chiqarish jamoalari a'zolarining, ilmiy muassasalar xodimlarining, o'qituvchilar, keksaygan kishilarning psixologik o'zgarishlari, o'zaro munosabatlari, ish qobiliyatlari, mutaxassislikka yaroqliligi muammo-larini hal qilish jarayonida foydalanish nazarda tutiladi. Tabiiy sharoitda inson psixikasini o'rganishdan sinaluvchilarning o'zlari bexabar bo'lishi, ta'lim jarayonida berilayotgan bilimlar tadqiqot maqsadiga muvofiqlashtirilishi, katta yoshdagi odamlarga tarbiyaviy ta'sir o'tkazish, kundalik mehnat doirasida amalga oshirilishi, zavod va fabrikada esa moddiy mahsulot ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga qaratilishi lozim.

Tabiiy eksperiment metodi sirtidan kuzatish metodidan keskin farq qiladi. Sirtidan kuzatish metodida biror psixik jarayon kuzatilayotgan kishi o'sha jarayon qanday yuz bersa, shu holicha tekshiraveradi, lekin bu jarayonning namoyon bo'lishiga aralashmaydi, ya'ni psixik jarayonni yuzaga keltiruvchi sharoitni o'zgartirmaydi. Tabiiy eksprement metodidan foydalanganda esa tekshiruvchi o'rganilayotgan biror psixik jarayonni o'zi vujudga keltiradi, lekin uni tekshirilayotgan odam uchun tabiiy bir sharoitda va unga sezdirmasdan o'tkazadi.

Laboratoriya (klinika) eksperimenti metodining (1879 yili V.Vunt kiritgan) asosiy xususiyati, shundan iboratki bunda o'rganilishi lozim bo'lgan psixik jarayonlarning (masalan idrok, diqqat,xotira kabi) qanday sharoitda qachon yuz berishini kutib o'tirmasdan tekshiruvchi kishi (eksperimentator) sinalayotgan odamda shu jarayonlarni maxsus tarzda ishga soladi. Bundan tashqari laboratoriya eksprementi sharoitida eksperimentator o'rganayotgan har bir psixik jarayonni hohlagan marta, ya'ni takror-takror yaxshilab sinab ko'rishi mumkin. Bu murakkab psixik jarayonlarning tabiatini o'rganishda katta qulaylik tug'diradi. Birinchidan, istalgan psixik jarayonni hohlagan paytda yuzaga keltirish vaqtni tejash imkonini bersa, ikkinchidan har bir psixik jarayonni takror-takror yuzaga keltirib, sinchiklab o'rganish bu jarayonlarning qonuniyatlarini aniqlash imkoniyatini beradi.

Hozirgi kunda odamdagi ayrim psixik jarayonlarning yuz berish tezligini, diqqatning barqarorligi va kengligini, xotiraning xususiyatlarini uquv hamda malakalarning qonuniyatlarini aniq va puxta tekshira oladigan ko'plab maxsus asboblardan mavjuddir. Masalan, elektron xronoskop orqali ayrim psixik (aks ettirish, ko'rish, eshitish, hid bilish, teri sezgilari kabi) jarayonlarning yuzaga kelish tezligini aniq o'lchash mumkin. Elektron taxistoskop orqali diqqatning xususiyatlarini belgilash mumkin, perseptometr orqali idrok qilish xususiyatlarini o'rganish mumkin, audiometr orqali eshitish xususiyatlarini o'rganish mumkin va boshqalar. Umuman, hozirgi kunda texnikaning ildam taraqqiyoti munosabati bilan laboratoriya eksprementining imkoniyati ortib bormoqda.

Shuni esdan chiqarmaslik kerakki, laboratoriya eksperimenti metodi bilan turli yoshdagi insonlarning psixik jarayonlari o'rganiladigan bo'lsa eksperimentni tayyorlash va o'tkazishda ularning yosh xususiyatlarini hisobga olish kerak.

Psixik jarayonlarning moddiy, ya'ni nerv-fiziologik asoslarini ham laboratoriya eksprementi yordami bilan tekshiriladi. Psixik jarayonlarning nerv

fiziologik asoslarini aniqlashda akademik I.P.Pavlovning shartli reflekslar metodi juda katta ahamiyatga ega. Hozirgi vaqtda bu metod bolalarning o'sishini tekshirishda hamda birinchi va ikkinchi signallar tizimlari o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni tekshirishda keng qo'llanilmoqda.

Yordamchi metodlar:

Suhbat metodi bilan inson psixikasini o'rganishda foydalanildi. Uning maqsadi va vazifasi belgilanadi. Suhbatning ob'ekti va sub'ekti tanlanadi, mavzu o'tkaziladigan vaqti aniqlanadi, yakka shaxslar, guruh va jamoa bilan o'tkazish rejalashtiriladi, o'rganilayotgan narsa bilan bog'liq savol-javob tartibi tayyorlanadi. Suhbatning bosh maqsadi ma'lum bir vaziyat yoki muammoni hal qilish jarayonida inson psixikasidagi o'zgarishlarni o'rganishdir. Suhbat orqali turli yoshdagi odamlarning tafakkuri, aql-zakovati, xulq-atvori, qiziqishi, bilim saviyasi, e'tiqodi, dunyoqarashi, irodasi to'g'risidagi ma'lumotlar olinadi. Suhbat chog'ida o'zaro izchil bog'langan savollar beriladi.

Suhbat metodidan to'g'ri foydalanish va undan kutiladigan natijaga erishish suhbat o'tkazish uchun puxta tayyorlanishga bog'liqdir. Suhbat metodi quyidagi shartlarga rioya qilishni talab etadi.

O'tkazilgan suhbatning mavzusi va mazmuni sinaluvchining taraqqiyot darajasi hamda yosh xususiyatlariga mos bo'lishi kerak.

Suhbat paytida sinaluvchilarga berilgan savollar mazmunan yaxshilab o'ylab olinishi lozim.

Suhbat paytida berilgan savollarga "ha", "yo'q" kabi qisqa tarzda emas, balki batafsil javob olishga erishish kerak.

Sinaluvchilar zerikib yoki toliqib qolmasliklari uchun suhbat haddan tashqari cho'zilib ketmasligi lozim.

Suhbat metodining yuqorida ta'kidlangan ijobiy jihatlari bilan birga ayrim zaif tomonlari ham mavjud. Takrorlangan so'zlar, "g'aliz" iboralar nutqning tezligi, fikrning mavhumligi, zerikarliligi, muvaffaqiyatsizlikka sabab bo'ladi. Shuningdek, savol-javobning bir xil shaklda emasligi sinaluvchida o'ziga xos ishlash uslubi oshkoralikning yetishmasligi, iymanish, uyalish atroflicha ma'lumotlar olishni qiyinlashtiradi va shu sababli boshqa metodlarga murojaat qilishga to'g'ri keladi.

Faoliyat mahsulini tahlil qilish metodi

Inson xotirasi, tafakkuri, qobiliyati va xayolining xususiyatlarini aniqlash maqsadida bu metod faoliyat psixologiyasida keng qo'llaniladi. Bolalar chizgan rasmlar, yasagan o'yinchoqlar, modellar, yozgan she'rlarini tahlil qilish orqali ularning mantiqiy xotirasi, tafakkuri, texnik, badiiy va adabiy qobiliyati, ijodiy xayoli yuzasidan materiallarni qo'llash mumkin. Mazkur metoddan foydalanishda mahsulotni yaratgan shaxs bevosita ishtirok etmaydi. Ob'ekt bilan sub'ekt o'rtasida muloqot o'rnatish uchun shaxsning psixikasi to'g'risida sirtdan ma'lum hukm, xulosa chiqariladi.

Ijodiy faoliyat mahsullarini tahlil qilish orqali bolalar, o'quvchilar, talabalar,

konstruktorlar, olimlar, hunarmandlar, ishchilar psixik xususiyatlari to'g'risida ma'lumotlar to'plash mumkin. Lekin insondagi psixik o'zgarishlar kamol topish va ularning kechishini ifodalovchi materiallar yig'ish uchun bu metodning o'zi yetmaydi. Shuning uchun inson psixikasini o'rganish maqsadida boshqa metodlardan ham foydalanish ma'qul.

Test metodi - "Test" inglizcha so'z bo'lib sinash tekshirish demakdir. Shaxsning aqliy o'sishini, qobiliyatini, irodaviy sifatlari va boshqa psixik xususiyatlarini tekshirishda qo'llaniladigan qisqa standart masala, topshiriq test deb ataladi. Test ayniqsa, odamning qanday kasbni egallashi mumkinligi, kasbga yaroqliligi yoki yaroqsizligini, iste'dodlilar va aqli zaiflarni aniqlashda keng qo'llaniladi. Test metodining qimmati tajribaning ilmiylik darajasiga tekshiruvchining mahoratiga va qiziqishiga, yig'ilgan psixologik materiallarning ob'ektivligi va ularni ilmiy tahlil qilishga bog'liqdir.

1905 yildan fransuz psixologi A.Bine va uning shogirdi A.Simon insonning aqliy o'sishi va iste'dod darajalarini o'lchash imkoniyati borligi g'oyasini ilgari surgandan keyin psixologiyada test metodi qo'llana boshladi.

Biografiya (tarjimai hol) metodi - inson psixikasini tadqiq qilish uchun uning hayot faoliyati, ijodiyoti to'g'risidagi og'zaki va yozma ma'lumotlar muhim ahamiyatga ega. Bu borada kishilarning tarjimai holi, xotiralari, esdaliklari, o'zgalar ijodiga bergan baholari, taqrizlari alohida o'rin egallaydi. Shu bilan birga o'zgalar tomonidan to'plangan tarjimai hol haqidagi materiallar, esdaliklar, xatlar, rasmlar, tavsiflar, baholar, magnitafon ovozlari, fotolavhalar, hujjatli filmlar o'rganilayotgan shaxsni to'liqroq tasavvur etishga xizmat qiladi.

Tarjimai hol ma'lumotlari inson psixikasidagi o'zgarishlarni kuzatishda uning suhbat va tajriba metodlari bilan o'rganib bo'lmaydigan jihatlarini ochishga yordam beradi.

So'rovnomma metodi - psixologiyada keng qo'llaniladigan metodlardan biridir. Uning yordamida turli yoshdagi odamlarning psixologik xususiyatlari narsa va hodisalarga munosabatlari o'rganiladi. So'rovnomma odatda 3 xil tuzilishda bo'ladi. Ularning birinchisi anglangan motivlarni aniqlashga mo'ljallangan savollardan tuziladi. Ikkinchi xilida har bir savolning bir nechtdan tayyor javoblari beriladi. Uchinchi turida sinaluvchiga yozilgan to'g'ri javoblarni ballar bilan baholash tavsifa etiladi. So'rovnommadan turli yoshdagi odamlarning layoqatlarini, muayyan sohaga qiziqishlari va qobiliyatlarini, o'ziga, tengdoshlariga, katta va kichiklarga munosabatlarini aniqlashda foydalaniladi.

Sosiometrik metod. Bu metod kichik guruh a'zolari o'rtasidagi bevosita emosional munosabatlarni o'rganish va ularning darajasini o'lchashda qo'llaniladi. Bunga Amerikalik sosiolog Dj.Moreno asos solgan. Mazkur metod yordamida muayyan guruh a'zolarining bir-birlari bilan munosabatini aniqlash uchun uning qaysi faoliyatda kim bilan birga qatnashishi so'raladi. Olingan ma'lumotlar matrisa, grafik, sxema, jadval shaklida ifodalanadi. Ulardagi miqdor ko'rsatkichlar guruhdagi kishilarning shaxslararo munosabatlari to'g'risida tasavvur hosil qiladi. Bu ma'lumotlar guruhiy munosabatlarning tashqi ko'rinishini aks ettiradi.

Shuning uchun hozir Ya.L.Kolominskiy va I.P.Volkov tomonidan sosiometriyaning yosh davri psixologiyasiga moslab o'zgartirilgan yangi turlari ishlab chiqarilgan. Bular shaxsning bir-birini tanlash motivlarini keng ifodalash imkonini beradi. Ayniqsa sosiometriyaning Ya.M.Kolominskiy ishlab chiqqan o'zgartirilgan turi bolalar jamoasidagi shaxslararo munosabatlar haqida to'laroq axborot beradi.



Nazorat savollari

1. Hozirgi zamon psixologiyasi fanining tamoyillarini sanang?
2. Determinizm tamoyilining mohiyatini izohlang?
3. Hozirgi zamon psixologiyasining tuzilishi tarmoqlari xususida fikr yuriting?
4. Hozirgi zamon psixologiyasining tadqiqot metodlarini ko'rsating?
5. Psixologiyaning fanlar tizimida tutgan o'rnini qanday izoqlaysiz?
6. A.V.Petrovskiy bo'yicha psixologiya sohalarini tasnifini keltiring?



Mustaqil ishlash uchun tavsiya etilayotgan adabiyotlar

1. Davletshin M.G Umumiy psixologiya T-2002 y
2. Karimova V.M. Psixologiya T-2002 y
3. Общая психология: Курс лекций/ Сост. Е.И.Рогов.-М.: Владос, 1995
4. Psixologiya qisqacha izohli lug'at T-1998 y
5. Turg'unov Q. Psixologiya terminlarining ruscha-o'zbekcha izohli lug'ati T; "O'qituvchi" nashriyoti 1975 y
6. Umumiy psixologiya (A.V.Petrovskiy tahriri ostida) T; "O'qituvchi" 1992 y
7. G'oziev E.G' Umumiy psixologiya 1-2 kitob T-2002 y



18-MAVZU: XULQ-ATVORNING PSIXOFIZIOLOGIK ASOSI


Reja:

1. Psixikaning filogenetik taraqqiyoti.
2. Hayvonlarning instinktlari.
3. Hayvonlarning intellektual harakatlari.
4. Psixikaning muhit va a'zolar tuzilishiga bog'liqligi
5. Islomda inson ruhiy holatining tushuntirilishi

Tayanch tushunchalar: filogenetik taraqqiyot, materiya, sezuvchanlik, instinkt, intellektual harakatlari, ong, ko'nikma, tasavvuf, nafs, ruh, komillik.

Psixikaning filogenetik taraqqiyoti


Jamiki materiya, jonsiz anorganik materiyadan tortib, to organik materiyaning yuksak hamda murakkab shakli - inson miyasigacha moddiy olamning umumiy xususiyatiga, ya'ni turli ta'sirlarga javob qaytarish qobiliyatiga egadir. Jonsiz tabiatda harakat jism yoki moddalarning o'zaro mexanik, fizik va kimyoviy munosabatlari tarzida namoyon bo'lishi mumkin. Materiyaning aks ettirish shaklini quyidagicha ifodalash mumkin:



Voqelikdagi ta'sirni aks etish qobiliyati-materiyaning umumiy xususiyatidir. Lekin olamda tirik va o'lik tabiatni aks etishi turlichadir. Tirik materiyaning tashqaridan ta'sir etayotgan moddalar almashinuviga javob berishi ta'sirlanuvchanlik deb ataladi. Oddiy ta'sirlanuvchanlik barcha o'simliklarga xos. Evolyusiya jarayonida organizmlar tashqi muhit bilan munosabatlarining umumiy turini o'zgarishi natijasida ta'sirlanuvchanlikning sifat jihatidan yangi bosqichga o'tishi sezuvchanlikni yuzaga kelishiga sabab bo'ladi. A.N.Leontevning faraziga asosan sezuvchanlik "genetik shunday ta'sirlanuvchanlik-ki tashqi muhit ta'siriga organizmni yo'naltiradi va buning natijasida organizm tashqi muhitida signal vazifasini bajaradi.

Demak, **sezuvchanlik** shunday ta'sirlanuvchanlik-ki, uning natijasida hayot uchun zarur ta'sirlar signallashadi. Sezuvchanlikning namoyon bo'lishi, psixikaning paydo bo'lishiga ob'ektiv biologik belgi sifatida xizmat qiladi. Psixik ta'sirlanuvchanlikning o'ziga xos yuqori sifat o'zgarishi -sezuvchanlik-psixik aks ettirishning oddiy turi yuzaga kelganida boshlanadi. hayvonlar evolyusiyasi jarayonidagi psixikaning sifat o'zgarishlarini A.N.Leontev o'zi ifodalagan psixik

rivojlanish bosqichlariga asos qilib oldi. A.N.Leontev bo'yicha psixika rivojlanish bosqichlarining jadval ko'rinishi va ularning sxematik ifodalanishi:



1.Elementar (sodda) sensor psixika bosqichi - A.N.Leontev ta'rificha, tashqi muhit ob'ektning u yoki bu sifatiga qarab javob beraveradi. Bu oddiy sezish bosqichidir. K.E.Fabri fikricha, oddiy sensor psixikaning ikki-past va yuqori darajasiga ajratiladi. Ko'pgina bir hujayralilar hamda ayrim ko'p hujayralilarda psixik rivojlanishning past darajasi kuzatiladi. Bunda psixik faollikning oddiy turlari namoyon bo'ladi. Elementar psixikaning yuqori bosqichida ko'p hujayrali umurtqasizlarda namoyon bo'ladi. Bu hayvonot evolyusiyasining zarur davridir. Nerv tizimi diffuz, to'rsimon ganglioz yoki zanjirsimon bo'lib, ular alohida predmetlarning sifatlarinigina aks eta oladilar. hayvonlar uchun ushbu bosqichda predmet olami mavjud bo'lmaydi, ular ob'ektни idrok eta olmaydilar. Ular psixik aks ettirishi oddiy sezgi tarzida bo'ladi.

2.Perseptiv bosqich bo'lib, u tashqi, ob'ektiv voqelikni yaxlit aks etishi bilan xarakterlanib, alohida oddiy sezish turi emas. K.E.Fabrining fikricha, perseptiv psixikani ham ikki darajasi mavjud. Past darajaga yuqori darajali umurtqasizlar kiradi. Perseptiv psixikaning quyi bosqichida mavjud bo'lgan hayvonlar uchun ijobiy ta'sir etuvchilarni faol izlash xususiyati xosdir. Predmetni idrok etish-perseptiv psixikaning yuqori darajasidir. Ushbu daraja rivojlangan nerv tizimiga ega umurtqalilarga xosdir.

3.Intellektual bosqich - yuksak darajada rivojlangan nerv tizimiga ega bo'lganlar, ya'ni odamsimon maymunlarga xosdir.

Hayvonlarning instinktlari

Instinktlar - hayvoning tabiiy ehtiyojlarini qondirish uchun qiladigan murakkab tug'ma harakatlaridir. Qushlar juda ustalik bilan in yasar ekanlar, material tanlash va inni pishiq qilib qurish yo'lida xilma-xil harakatlarni bajaradilar. Masalan, qaldirg'ochlarning in qurishi, Kalyushka deb ataluvchi baliqning erkagi suv tagida yerdan chuqurcha kovlab, uni mayda suv o'simliklari bilan to'sadi, inning yon devorini quradi va ustini berkitadi buni u yirik'roq o'simliklardan o'z tanasidan elimsimon modda chiqarib yasaydi. Shundan keyin erkak baliq urg'ochi balqni urug' qo'yish uchun haydab kirgizadi va to urug'dan

baliqchalar ochib chiqqunga qadar in atrofini qo'riqlab turadi. Rus zoopsixologi V.A.Vanger (1849-1934) urg'ochi o'rgimchakning nomaqul bo'lib qolgan instinktlari sharotida uning xatti-harakatlarini kuzatgan va tasvirlab bergan edi.

Chunonchi, ko'pincha o'rgimchak pillasining ichidagini zararkunandalar yeb ketgan bo'ladi. Lekin urg'ochi o'rgimchak bo'shab qolgan pillani qo'riqlashda va u yoqdan-bu yoqqa ko'chirishda davom etadi. Shunday hollar ham bo'ladi-ki, urg'ochi o'rgimchak pillani yasab va odatda tuxum qo'yish chog'ida bajariladigan harakatlarni bir necha marta takrorlab, amalda tuxum qo'ymasligi ham mumkin. Shunday bo'lsa-da, u kelgusi bosqichga, ya'ni bo'sh pillani qo'riqlashga va uni u yoqdan - bu yoqqa ko'chirishga o'tadi. Asalarilar reaksiyasining maqsadga muvofiqligi ham nisbiydir. Agar mumkatakning orqa tomoni teshib qo'yilsa, asalari yaroqsiz uyaga ma'lum miqdordagi shirani to'kib bo'lgach, garchi uning ikkinchi tomonidan shira oqib ketadigan bo'lsa ham mum bilan berkitib ketadi. Fransuz tadqiqotchisi K.Fabri yer arisining bir qolipdagi maqsadga muvofiq bo'lmagan xatti-harakatini kuzatgan edi. Yer arisi uyasining oldiga chalajon chigirtkani keltirib, barcha arilar singari uyasini tekshirish uchun kirib ketganida tadqiqotchi uning o'ljasini yiroqqa surib qo'yadi. Ari uyasidan chiqib, uni izlab, shoshib yana uyasining oldiga qo'yadi va tekshirish uchun yana uyasiga kirib ketadi. Fabri arining uyasi oldidan chigirtkani qirq marta chetga surib qo'yadi va ari qirq martasida ham o'ljasini topib, uni olib kirish uchun uyasini tekshirgan. Bu misollar instinktning cheklanganligini ko'rsatadi. Instinktiv harakatlar muayyan shart-sharoitlarga qat'iy bog'liq bo'ladi. Instinktning amal qilish mexanizmi shundan iborat-ki, tashqi shart-sharoitlar reflektor munosabatni bildirishga undaydi, eng oxirida esa navbatdagi munosabat bildirish uchun qo'zg'aydi va hokazo. Shu tarzda reflekslarning butun bir zanjirini harakatga keltiradi va nasliy yo'l bilan mustahkamlangan dasturni amalga oshiradi. Instinktiv harakatlar standart shart-sharoitlar o'zgarishi bilanoq o'zining maqsadga muvofiqligini yo'qotadi. Shunday qilib, xatti-harakatlarning instinktiv shakllari faqat doimiy sharoitlardagina maqsadga muvofiqdir.

Hayvonlarning instinktlari turli xil ko'rinishda namoyon bo'ladi. **Ovqatlanish instinkti** - hayvonlarning o'zi va bolasi uchun ovqat qidirib topish, ovqat g'amlash harakatlaridir.

Himoyalani sh instinkti - hayvon o'z hayotini va omonligini saqlash harakatlarida ifodalanib, u ikki ko'rinishda sodir bo'ladi. Birinchisi dushmanga hujum qilish, ikkinchisi o'zini himoya qilishdir. har bir hayvon dushmandan himoya qilish uchun biror organidan shoxlari, tuyoqlari, tish-tirnoqlari, tikanlari kabi yoki zaharli-qidli suyuqlikdan foydalanadi. Masalan, Afrika kobrasi o'z zahrini 3,5 metr masofagacha ota oladi. Amerikada terisining usti qora jun bilan qoplangan uncha katta bo'lmagan bir yirtqich hayvon yashaydi. U amalda barcha turdagi yirtqich hayvonlarning hujumidan saqlangandir. hayvonlar uni orqasidagi uzun chiziqidan tanib oladi. Bu hayvon skuns deb ataladi. Tabiat skunsga bir bezni ato etganki, u benihoya zaharli, hidli suyuqlik tarqatadi. Salgina xavf tug'ilishi bilanoq, skuns dushmaniga orqasini o'girib, dumini ko'taradi va havoga suyuqlik

purkaydi. Natijada eng katta yirtqichlar ham bir necha soat davomida "qushidan ketib qoladi". Amerika qit'asidagi barcha hayvonlar skunsni chetlab o'tishga harakat qiladilar. Bu hayvonni yangi iqlimga moslashtirishga qaror qilinib, yosh hayvonlarni oldiniga o'ralgan maydonda saqlashdi. Yirtqichlarni parvarish qilishda xizmatchilar qiynalmas-liklari uchun hayvonlardagi mumak bezlari olib tashlandi. Erkinlikka qo'yib yuborilgan skunlar o'rmonlarda bemalol yurishardi. Skunlarga hujum qila boshlanganida, ular qochmasdan, orqalarini o'girib turishaverdi va dushmanlarining yengilgina o'ljasiga aylanishdi. Shundan keyin, skunslarning bezlari kesib tashlanmay, ularni boqishning boshqa usullari topildi.

Nasl qoldirish instinkti - bu ota-onalik instinkti sifatida ko'rinib, nasl - avlod uchun g'amxo'rlik qilish, uni ma'lum vaqtgacha ovqat bilan ta'min etish, xavf-xatardan saqlash o'z bolalarini parvarish qilish tug'ma mahoratiga ega bo'lib, o'z naslining kelajagi haqida g'amxo'rlik qiladi. Jumladan, o'rgimchakning ba'zi turlarida urg'ochilari o'z tuxumi uchun tolalardan pillalar yasaydi. Bu pillani urg'ochi o'rgimchak qo'riqlab va tez-tez ko'chirib yuradi, o'rgimchak bolalari paydo bo'lishi bilan urg'ochi o'rgimchak uyalarini yonidan siljimasdan qo'riqlab turadi. Nasli kattalashgani sari urg'ochi o'rgimchak ham ularga shuncha befarq bo'la boradi va so'ngra esa o'rgimchak bolalari mustaqil harakat qiladigan bo'lib, qolgandan keyin ularni tashlab ketadi.

To'da bo'lib yashash instinkti-bu instinkt hayvonlarning turli usullar bilan o'zaro aloqa qilishida xilma-xil shaklda birgalashib, to'dalashib, poda bo'lib, gala bo'lib yashashlarida zohir bo'ladi. Bu to'dalanish ba'zi hayvonlarda doimiy xarakterga ega bo'lsa (chunonchi, chumolilar, asalarilar), ba'zilar esa o'ziga o'xshash hayvonlar bilan vaqti-vaqti bilan birgalashib yashaydi asosan yirtqich hayvonlar masalan, qoplon eng kuchli va maymun uchun eng qo'rqinchli yirtqich hisoblanadi. qoplon maymunlarga yerda doim mushukdek chaqqon hujum qiladi, Shimpanze doim kuchli hayvon, lekin qoplondan ularga doim kun yo'q. Shimpanzalar qoplanni odatda yomon ko'radilar, uni ko'rishlari bilanoq shimpanze maymunlari to'da bo'lib, vahshiyona bukchayib qo'llarini pastga tushirib, sakrab, baqirishib hayvonni hamma tomonidan qurshab oladilar. Ayrim hollarda shimpanzalar qo'llariga kaltak olib, qoplanni urib haydaydilar. Hashoratlar galasi, kushlar galasi, sut emizuvchilar podasi, yirtqichlar to'dasi, hayvonlarning doimiy to'da bo'lib yashash shaklidir.

Ma'lumki, asalarilar uyasida bitta ona ari, bir necha o'nlab erkak va bir necha yuzlab bepusht ishchi ari (jinsiy organlari yetishmagan)lar bo'ladi. Ishchi arilarning xatti -harakatlari juda ham murakkabdir. Rivojlana borgan sari har bir ishchi asalari uyadagi vazifasini o'zgartira boradi. Oldiniga u asalari bolalarini (gumaklarini) boqadi, uyani tozalaydi, so'ngra uyani qo'riqlaydi, ozuqa topib keladi, katakchalar yasaydi. Yerda yashaydigan arining instiktlari ham juda murakkab harakatlar zanjiridan iboratdir. U o'ziga uya qazib olib, uchib ketishidan oldin har gal uni og'zini tuproq bilan qoplaydi. O'ljasini olib kelganidan keyin ari uni uyaga kiraverishiga qo'yib, haligi tuproqni chetga surib, uyani tekshirib ko'radi, shundan keyingina uni uyaga olib kiradi. Instinktiv harakatlar, tug'ma va

nasldan-naslga o'tadigan ongsiz harakatlardir. Ular hayvonlarning hayot uchun kurashish va muhitga eng muvaffaqiyatli uyg'unlashish jarayonida hosil qilingan holda irsiy yo'l bilan mustahkamlanib qolgan, ongsiz harakatlardir. Bular aql bilan o'ylab bajariladigan oqilona harakatlar emas. Masalan, yangi tug'ilgan sichqon bolalarini cho'miltirib, mushuk oldiga olib kelinsa, u sichqonni o'z bolalaridek mehr bilan boqadi, emizadi, himoya qiladi, ammo uni sichqon bolasi ekanligini anglamaydi. O'rdak tuxumlari tovuqqa bostirilganda, u o'rdak tuxumining farqiga bormasdan, shu tuxumdan chiqqan o'rdak bolalarini boqadi, ular suvga tushib suzganlarida suv labida u yoq, bu yoqqa yurib ularning tovuq jo'jalari emasligini anglamaydi. Demak, instinktlar doimo bir shaklda ko'rinadigan harakatlardir, ammo instinktlar sharoitga muvofiq o'zgarishi mumkin.

Hayvonlarning ko'nikmalari

Taraqqiyotning yuqori bosqichidagi hayvonlarda harakatning instinktiv shakllari bilan bir qatorda, xatti-harakatning individual o'zgaruvchan shakllari - ko'nikma va intellektual harakatlar ham mavjud. **Ko'nikma** - bu hayvonlarda shartli bog'lanishlar asosida yuzaga keluvchi va avtomatik ravishda sodir bo'luvchi harakatlardir, ya'ni biror faoliyatni takrorlanib turishi natijasida asta-sekin hosil qilingan xatti-harakatlardir. Nerv tizimining rivojlanishi jihatidan hayvon qanchalik yuqori o'rinni egalasa, u o'zida shunchalik murakkab ko'nikmalarini hosil qila oladi. Instinktlarga qaraganda, ko'nikma xatti-harakatlarning ancha o'zgaruvchan shakli hisoblanadi. Hayvonlarning ko'nikmalari, ota-onalaridan "o'rganish" yo'li bilan ham hosil bo'ladi. Masalan, bo'rilar bolalarini ovga o'rgatadilar, qari bo'ri qilgan harakatni yosh bo'ri takrorlaydi, bu taqlid qilish instinktiga asoslangan, xatti-harakatlar ko'nikmasidir. Uy hayvonlarini odam "o'rgatganda" ular ko'p ko'nikmalar hosil qiladi. Shuningdek, sirkda o'rgatilgan hayvonlar xilma-xil juda murakkab ko'nikmalarni namoyon etadilar. Ma'lumki, hayvonda odam tomonidan ko'nikmalar hosil qilinishi o'rgatish yoki dressirovka deyiladi. Mashhur hayvon o'rgatuvchi V. Durovning ta'kidlashicha, ma'lum narsaga o'rgatishda hayvonlar kerakli harakatni bajargan paytda ularga ovqat berib, rag'batlantirgan, shu yo'sinda murakkab ishlarni bajarishga o'rgatgan. Masalan, ayiqlarni velosipedda yurishga yoki samovarni stolga qo'yishga, fillarni uyin tushishga va shu kabi murakkab xilma-xil ko'nikmalarga o'rgatgan. Hosil bo'lgan ko'nikmalar hatto ayrim instinktlarni to'xtatib g'o'ya oladi. Jumladan, baliqlarda shartli bog'lanishlar ancha tez hosil bo'ladi. Shartli bog'lanishlarning hosil bo'lishi uchun yorug'lik, rang, narsaning shakli, shuningdek, tovush va ta'm belgilari signal bo'lib xizmat qilishi mumkin. Lekin bu bog'lanishlar tez o'zgarmaydigan bo'ladi.

Hayvonlarning intellektual harakatlari

Aql (intellektual) bosqichi hayvonlarning deyarli murakkab faoliyati bilan tavsiflanib, u aks ettirishning murakkab turidir. "Hayvonlarning borliqni psixik aks etish usuli intellektual faoliyatga o'tishida alohida narsalargina emas, balki ularning munosabatlarini aks ettirish ham vujudga keladi. Hayvonlar rivojlanishning bu bosqichida, narsalar orasidagi bog'lanishlarni aks ettira oladilar.

Nemis zoopsixologi V.Kyolerning tadqiqotlarida maymunlarga yetib bo'lmaydigan joyga xo'rak qo'yiladi. Xo'rakdan yaqinroq, lekin bevosita yetib bo'lmaydigan joyga uzun tayoq qo'yiladi. Bu tayoqqa yetishish uchun qafasda qisqa tayoqcha bilan xo'rakni olib bo'lmaydi. Maymun esa birinchi bosqichda qisqa tayoq bilan uzun tayoqni oladi. Ikkinchi bosqichda esa uzun tayoq orqali xo'rakni olishga muvaffaq bo'ladi.

A.N.Leontevning fikricha, muvaffaqiyatsiz harakatlardan so'ng to'satdan javobni topishi aqliy xatti-harakatlarning yana xususiyatidir. Bu hodisa V.Kyoler tomonidan "insayt"-ravshanlashish deb atalgan.

Aqliy xatti-harakat boshqa ikki xususiyati mavjud bo'lib, bu topilgan muammoning yechimini tez eslab qolish va shu bilan shakllangan operasiyalarni bir faoliyatdan ikkinchi faoliyatga o'tkaza olishdir.

Hayvonot olamining yuksak bosqichidagi vakillari (quruqlikda yashovchilardan, xususan, odamsimon maymunlar, dengiz hayvonlaridan delfinlar) instinkt, ko'nikmalarni egallashdan tashqari yana murakkab harakatlarni bajara oladi, hayvonlarning bunday xatti-harakatlarini intellektual harakatlar desa bo'ladi. Intellektual xatti-harakatlar hayvonning ancha yuksak shakldagi psixik faoliyati bilan bog'liq bo'lib, u tug'ma instinktlar va hayotda hosil qilingan ko'nikmalar hayvonning yashash sharoiti talablariga javob bera olmagan taqdirda yuzaga keladi. Yuksak taraqqiy qilgan hayvonlar ular uchun ma'lum muammolar bilan bir qatorda yangi bo'lgan narsani ham hal qila oladilar. Masalan, tajriba o'tkazilgan asbob ikkita bo'sh naychadan iborat edi. Naychadan bittasiga qarg'aning ko'z o'ngida inga bog'langan xo'rak bir parcha go'sht joylashtirildi. Qarg'a xo'rakning naycha ichiga kirib ketganini ko'radi. Qarg'a shu zahotiy oq ikkinchi naychani oxiriga sakrab boradi va xo'rakning paydo bo'lishini kutib turadi. Shuningdek, maymunlarda o'tkazilgan tadqiqot ham bunga yaqqol misoldir. Qafasning shipiga banan osib, qafas ichiga ikki - uchta yashik yoki bir ikkita qamishli tayoqcha qo'yadilar. Maymun qafas ichiga kirishi bilan mevani olmoqchi bo'ladi, ammo bo'yi yetmaydi. Maymun tevarak-atrofiga ko'z yugurtirib, yerda yotgan qamishni ko'radi, va bu qamish bilan mevani qoqib tushirishga harakat qiladi. Lekin unda ham bo'yi yetmaganidan so'ng qamishlarni olib, bir necha vaqt ular bilan turlicha harakatlarni qilib ko'rib, ular bir-birini ichig kirib, uzunlashadi, keyin maymun bananni qoqib tushiradi. Yoki yerda yotgan yashikni ustma-ust qo'yib uni mevani tagiga surib keltiradi va ustiga chiqib mevani olmoqchi bo'ladi, ammo bo'yi yetmaydi. Shunda maymun yerda yotgan boshqa yashiklarni ustma-ust qo'yib, narvon qiladi va ularning ustiga chiqib mevani olib yeydi.

Kishi ko'ziga maymunlar nechog'li aqli hayvon bo'lib tuyulmasin, ammo ularning tafakkuri nihoyatda tordir. Bu fikrni isbotlash uchun shunday bir tajriba o'tkazilgan. Yashik qo'yilgan meva oldiga spirt lampasi yoqib, yonib turgan spirt lampasining tepasiga suvli - jo'mrakli bak va stakan qo'yiladi. Mevani olish uchun maymun avval olovni o'chirish kerak bo'ladi. Bir odam olovni o'chirib, ovqat olish yo'lini maymunga ko'rsatadi, maymun bakdagi suvdan krujkaga quyib olovga sepadi va so'ng mevani olib yeydi. Keyinchalik suv to'ldirilgan bak boshqa

stolga ko'chiriladi. Maymun bir stoldan, ikkinchisiga o'tish uchun uzun ko'prik yasab ko'prik orqali boshqasiga o'tgan va bakdan krujkaga suv to'ldirib yana org'asiga qaytgan, nihoyat olovni o'chirib, mevani olib yegan. Aynan maymun atrofida suv turib bundan foydalanmagani qiziqdir. Bu maymunda umumlashtirish xususiyati yo'qligidan dalolat beradi, ya'ni har qanday suv olovni o'chira olishini maymun mutloqo tushunmaydi, u o'zi ko'rgan ishini, ya'ni bakdan olingan suv bilan olovni o'chirishnigina qila oladi, xolos. Bulardan ma'lumki, aqlni ishlatish bilan biror bir masalani hal qilishda maymun masalani yechishni barcha zarur shartlarini ko'ra olmaydi, ulardan faqat ayrimlarinigina fahmlaydi, xolos. Maymunlarning intellektual harakatlari har qanday harakatlarni sinab ko'rish jarayonida aniq amaliy tafakkur tarzida sodir bo'ladi. Taqlidchanlik - maymunlar hulq-atvorining xarakterli xususiyatidir. Masalan, maymun supurgi bilan polni supuradi va "lattani ho'llab siqadi", "polni artadi", "yuvadi". Odatda, maymunlar harakatning natijasiga emas, balki harakatning o'ziga taqlid qiladilar. Maymun polni supurar ekan, axlatni bir joydan ikkinchi joyga ko'chirib yuraveradi-yu, lekin axlatni poldan tozalab ola bilmaydi.

Shunday tadqiqot o'tkazilgan uyga bo'sh chelak va quruq latta qo'yilgan. Maymun latta bilan polni artadi va har safar u lattani chelakka tushurib aylantirib siqadi, bu ishni maymun farrosh qilgani kabi bajaradi. Shuningdek, maymun qalam bilan daftarga "yozadi" (chiziqlar chizadi) va unga diqqat bilan qaraydi. Maymunga qalam o'rniga tayoqcha berilsa, qam u "yozishni" davom ettiradi. Intellektual harakatning natijasiga taqlid qilish maymunlarda uchramaydi.

Psixikaning muhit va a'zolar tuzilishiga bog'liqligi

Muhit sharoiti jihatidan nihoyat darajada har xil ekan, bu hol organizmlarning differensiallanishiga olib kelgan. Barcha tirik organizmlar mavjud sharoitga moslashadi. O'z-o'zini boshqarish oddiy ta'sirlanuvchanlikdan boshlanib, o'zining yuksak taraqqiyotiga erishadi.

Aks ettirish usuli qanchalik yuksak bo'lsa, mazkur turdagi hayvon muhitning bevosita ta'siridan shunchalik ozod bo'ladi. Muhitdagi haroratning o'zgarishi bilan organizmdagi kimyoviy reaksiyalar tezligi ham o'zgaradi, harorat ko'tarilsa, reaksiya tezligi oshadi, harorat pasaysa reaksiya tezligi kamayadi. Bordi-yu harorat juda oshib yoki juda tushib ketsa: bir hujayrali organizm halok bo'ladi. Yuksak taraqqiy etgan hayvonlar esa sharoit o'zgarishi bilan bir joydan ikkinchi joyga ko'chishga majbur bo'ladi. Masalan: kemiruvchilar yerni chuqur kavlab ichkariga kirib ketadi. Bunda instinkt ta'sir qiladi. Yozning issiq kunida fil o'ziga suv sepib turadi.

Hayvonlar taraqqiyotining har qanday darajasida ham muhitga bo'lgan bog'liqlikdan batamom qutula olmaydi. Muhit tirik organizmning yashash sharoiti, tirik organizmlar hayotini belgilovchi omildir.

Aks ettirishning adekvat (mos) bo'lishi, avvalo psixikaning moddiy asosi, sezgi a'zolari va asab tizimining tuzilishiga bog'liqdir. Reseptor ma'lum bir turdagi qo'zg'atuvchilar ta'siriga qanchalik to'g'ri reaksiya qilsa, organizmning reaksiyasi ham shunchalik adekvat, ya'ni mos bo'ladi.

Reseptorlarning taraqqiyoti ma'lum darajada biron tipdagi asab tizimi taraqqiyoti bilan bog'liq. Sezgi a'zolari va asab tizimi taraqqiyoti darajasi muqarrar ravishda psixik aks ettirish darajasini belgilaydi. To'rsimon asab tizimiga ega bo'lgan hayvonlar asosan tashqi ta'sirotlarga tug'ma ravishda javob qaytaradilar. Vaqtli aloqalar ularda qiyinchilik bilan yuzaga keladi va yomon saqlanadi.

Taraqqiyotning navbatdagi pog'onasida asab tizimida bir qator sifat o'zgarishlar yuzaga keladi. Tuguncha shaklidagi nerv hujayralari asab tizimining ko'proq miqdordagi qo'zg'atuvchilarni qabul qilish va qayta ishlash imkoniyatini beradi. Chunki bunday asab tizimi uchun muhit qandaydir o'zgarmaydigan doimiy narsa emas.

Islomda inson ruhiy holatining tushuntirilishi

Inson psixikasi bilan eng yuksak taraqqiy etgan hayvon psixikasi o'rtasida katta farq mavjud. Hayvonlar "tili" bilan inson tilini hech bir jihatdan taqqoslab bo'lmaydi. Hayvon o'z to'dasidagi boshqa o'ziga o'xshash hayvonlarga ayni chog'dagi bevosita vaziyat bilan cheklangan hodisalar haqida faqatgina signal berolsa, inson til yordami bilan boshqa odamlarga o'tgan, hozirgi va kelgusi zamondagi narsalar haqida axborot berishi va ularga ijtimoiy tajribani o'tkazishi mumkin.

Hayvon va odam tafakkurining bir-biridan farq qilishi ular tili o'rtasidagi farqqa bog'liqdir. Inson abstrakt tafakkurga, hayvon esa amaliy tafakkurga ega. Odam zaruriyatga mos ravishda ongli suratda ish ko'rish qobiliyatiga ega. Qurol yasash va uni asrash qobiliyatiga egalik odam psixikasi bilan hayvon psixikasining bir-biridan ajratuvchi ikkinchi muhim farq hisoblanadi. Konkret vaziyatdan tashqarida hayvon hech vaqt qurolni boshqa narsalardan farqlab, qurol sifatida ajratmaydi va uni keyinchalik foydalanish uchun saqlab qo'ymaydi. Aniq vaziyatda qurol o'z rolini o'tab bo'lgach, shu zahotiyoq, hayvon uchun qurollik sifatini yo'qotadi. Odam ilgari o'ylab qo'yilgan reja bilan qurol yasaydi, quroldan tegishli maqsadlarda foydalanadi hamda uni saqlab qo'yadi. Odam nisbatan doimiy buyumlar olamida yashaydi. Odam quroldan foydalanish tajribasini boshqalardan o'rganadi va o'zi bu tajribani boshqalarga o'rgatadi. Odam psixik faoliyatining hayvonlar psixikasidagi uchinchi farqi shuki, inson o'zidan keyingi avlodlarga ijtimoiy tajriba qoldiradi.

Odam bilan hayvon o'rtasidagi to'rtinchi g'oyat muhim farq hissiyot o'rtasidagi farqdir. Rivojlanish sharoitlarining turlicha bo'lishi odam psixikasining hayvon psixikasidan ajratuvchi muhim farqlardan hisoblanadi. Agar odam insoniyat tajribasini o'zlashtirmas ekan, o'ziga o'xshagan odamlar bilan munosabatga kirishmas ekan, shaxs sifatida tarkib topmaydi. Inson ongining rivojlanishiga asosiy omil mehnat faoliyati, ya'ni odamlarning birgalikda qurol yasash va undan foydalanish faoliyatlari bo'lgan.

Mehnat faoliyati ijtimoiy munosabatlar taraqqiyotiga ta'sir qiladi, ijtimoiy munosabatlarning rivojlanishi esa mehnat faoliyatining takomillashuviga ta'sir ko'rsatadi. Inson ongi mehnatda rivojlanadi. Inson ongi evolyusion taraqqiyot jarayonida aks ettirishning eng yuksak shakli sifatida maydonga kelib, ong tufayli

odam moddiy dunyodagi narsalarning ob'ektiv, barqaror xususiyatlarini ajrata oladi va shu asosda tevarak-atrofdagi voqelikni o'zgartira oladi. Demak, inson psixikasining oliy bosqichini ong deb atash mumkin.

Abu Xamid G'azzoliy ham insonda ikki ruh bor, deb ko'rsatadi. Biri hayvoniy ruh deb ataladi va uning manbai yurak bo'lib, ko'krakning chap tomonida joylashgan. Inson va hayvonning tirikligi shundandir. Hayvoniy ruh tomirlar harakati vositasida barcha a'zolarga yetib, ularni xarakterga keltiradi. Ikkinchi ruh - Olami Oliy farishtalar javharidan bo'lib, uni insoniy ruh deyiladi. U Haq taolo dargohidan bo'lib, Uning izni bilan osmon farishtalari nurlaridan qabul qiladi. Insoniy ruh moddiy emas va u hajm, shakl, rangdan xoli. Haq taoloning ma'rifati, ruhi insoniyda qaror topadi. Alloh taolo yagona, xajm, shakl va rangga muhtojligi yo'q. Yagonaning ma'rifati ham yagona bo'lib, uning mohiyatini o'zidan boshqa mukammal bilmas. Bu ikki ruh bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lsa ham insoniy ruh hayvoniy ruxga tobe emas. Aksincha, hayvoniy ruh insoniy ruh ulovi vazifasini bajaradi. Uning yordamida ilohiy ma'rifat o'zlashtiriladi. Agar hayvoniy ruh mijozida buzilish bo'lsa, u o'ladi. Insoniy ruh esa o'lmaydi. Lekin ulovsiz, qurolsiz qoladi. Haq taolo ma'rifatini hosil qilgan insoniy ruh uchun ulovning halok bo'lishi yaxshilikdirki, u vujud qafasidan xalos bo'ladi.

Tasavvuf ulamolari insondagi hayvoniy va insonii ruhlarning mohiyati va vazifalarini, o'zaro ta'sirini tahlil etganlar. Hayvoniy ruh vujud ehtiyojlariga xizmat qiladi. Buning uchun u yeb-ichish va boshqa amallarga muhtoj. Uning holati va salomatligini tib ilmi bilan bilish mumkin. Insoniy ruhning ozuqasi ilohiy ma'rifat. Bu narsa ibodat va ilm riyozati bilan qo'lga kiritiladi va uni shariat bilan bilsa bo'ladi. Har bir shaxs insoniy ruh haqiqatini bilishi zarur. Aks holda Haq taoloni tanimay, bilmay qolishi mumkin. Shuning uchun o'zlikni tanish oxiratni tanish bosqichidir, deyiladi. "Ammo insoniy ruh asrorlaridan bir sirki, ani bayon qilmadim. Charoki, ani bayon qilmoqqa ruxsat yo'qturki, hech kishining fahmiga sig'mas",²⁰ deb yozadi G'azzoliy.

Imom G'azzoliy insoniy ruh haqiqati to'g'risida fikr bildirib, ba'zi ulamolarning inson o'lishi bilan ruh ham yo'q bo'ladi. Undan keyin vujudga keltiriladi, degan fikrlariga raddiya beradi. Badanning o'lishi ruh haqiqatini nobud qilmaydi. Buni oyatlar va hadislar mazmunidan bilsa bo'ladiki, inson o'lgandan keyin ham insoniy ruh yashayveradi.

Tasavvuf ilmining yana bir ulkan namoyandasi, yurtdoshimiz **Shayx Aziziddin Nasafiydir** (XIII asrning birinchi yarmi - XIV asr boshlari). Axloqiy, ma'naviy muammo va komil inson masalalari uning "Zubdat ul-xaqoyiq" ("Haqiqatlar qaymog'i"), "Insoni komil" ("Komil inson") kabi asarlarida bayon qilingan. Aziziddin Nasafiy tasavvuf haqida fikr yuritar ekan, inson taraqqiyoti va ruhi to'g'risida shariat ahlining ham, hikmat (falsafa) ahlining ham fikrlarini qayd etib,

²⁰ Abu Xamid G'azzoliy. Kimiyoi saodat. T., 2005,98-bet

ularni uchinchi darajaga -tasavvuf ahli tafakkuriga olib keluvchi yuksak pog'onalar tarzida talqin etadi.

Nasaflik salafimiz ham Arastu izidan borib: "Inson maxluqot turlaridan biridir", - deydi va so'ng shunday davom etadi. " - Ey darvesh, aynan hayvon ruxi tarbiya topib, ta'lim va tahsil ko'rib, bilish, takrorlash, taqvo va zikr tufayli darajalar bo'ylab rivojlanadi...".²¹ Uning fikriga ko'ra, insonda ruh ham bitta, jism ham bitta, faqat ruhning darajalari har xil; jism ruhga, ruh jismga muvofiq, bir-biridan ajralmaydi; jism bilan ruh birga rivojlanadi va komillikka erishguncha kamolot bosqichlaridan ko'tarilib boraveradilar.

Shayx Aziziddinning ta'rifiga ko'ra, komillik - inson degan ulug' nomga munosmblik, Alloh taolo insoniyatni ana shu komil insonlar borligi uchun yaratgan, odamlar orasida komil insonlar borligi uchun jami mavjudot odamzodga sajda qiladi, mavjudotlar ichida komil insondan ulug'roq, donoroq va oliyroq narsa yo'q.

Tasavvufda komillikka erishmoqning bir yo'li, nafs darajalarini bosib o'tish orqali, "o'zlikni anglash"dir. Buni nafsning yetti bosqichi orqali ko'rib o'tamiz:

1. Nafsi ammora - bu bosqichda solik tamoman hayvoniy va shahvoniy orzularning asiridir: jaholat, ochko'zlik, xusumat, gina, masharabozlik, hasad, loqaydlik va boshqalar. Tariqatga yangi qadam qo'ygan solih bu martabada bo'ladi.
2. Nafsi lavvoma - bu bosqichda solik ruhida, yomonliklardan yaxshiliklarga qaytish xohish-istagi tug'iladi. Shu bilan birga o'zidagi munofiq, amalparastlik, tuxmat, yolg'on guvohlik berish kabi illatlar ta'siridan qutilishga qattiq bel bog'laydi. Bu martabadagi kishi "Alloh" ismini zikr qiladi.
3. Nafsi mulhima - solik qilgan zikri, riyozati va mushohadasi soyasida yana bir bosqichni bosib o'tadi. Qalbida haqiqiy zavq va ilohiy ishq olovi yona boshlaydi. Alloxga bo'lgan muhabbati unda sabr-qanoatni, muruvvatni, ilmga, vatanga bo'lgan muhabbatni shakllantiradi. Har bir qilgan zikrining zavqini butun vujudi bilan his etadi.
4. Nafsi mutma'ina - bu martabada inson o'z nafsini batomom jilovlab oladi, o'zida ilohiy ishqni butkul anglab yetadi. Dunyoviy zavq-shavqdan yuz o'giradi, saxiylashadi, nurlanadi va har narsada Alloh tajallisini mushohada etadigan holga keladi.
5. Nafsi roziya - bu martabada solih butkul bashariy sifatlarini yo'qotib, "baqo" holatiga o'ta boshlaydi. Solih Allohdan kelgan barcha ne'matlarga rozi bo'ladi. Shuning uchun bu martaba "roziya" deb ataladi. Bu martabadagi kishi "hay", "somad" va "sabor" ismi bilan zikr qiladi.
6. Nafsi marziya - bu martabadagi kishiga Allohning g'ayb sirlari eshik ocha boshlaydi va "Qayyum" ismini zikr qiladi. Allohdan kelgan barcha sinovlarga rozi bo'ladi va Alloh undan rozi bo'ladi.
7. Nafsi komila - bu maqomga erishgan inson komillik darajasiga erishadi. U o'zining jismi ustidan hukmronligini his etadi. Go'yoki, shaklga kirgan farishta

²¹ Aziziddin Nasafiy. Zubdatul haqoyiq. T.; "Kamalak" 199b. 42-6

kabi mutlaq soflikka erishadi. Bu maqomdagi kishining har qadami hasanot va ibodatdan iborat bo'lib qoladi. Bu maqomda solih "Qahhor" ismini zikr etadi. Yuqorida zikr qilingan tariqatda komillikka erishuvning yetti bosqichi, o'zida nafsni yengish orqali ruhiyatda ma'naviy komillikni shakllantirishga qaratilgan muhabbat yo'lidir. Mutasavviflarning inson va komil inson haqidagi barcha izohlaridan chiqqan natija shuki, inson olamning yaratilish sababidir. U olamdagi mavjudotlar orasida eng kamolga yetganidir. Moddiy tuzilishi jihatidan olamda mavjud har unsur dan bir namunaga egadir. Shu xususiyati sababli insonni "Olami sug'ro" (kichik olam) deyiladi.



Nazorat savollari

1. Inson ongi va hayvon psixikasi o'rtasidagi farqlar.
2. Psixologiyaning moddiy asoslari.
3. Psixika va aks ettirish xususiyatlari
4. Inson va hayvon psixikasi o'rtasidagi farqlar nimalarda ko'rinadi?
5. Psixikaning filogenetik taraqqiyoti nimalar bilan belgilanadi?
6. Hayvonlarning xatti-harakat tiplariga nimalar kiradi?



Tavsiya qilinuvchi adabiyotlar:

1. Davletshin M.G Umumiy psixologiya T-2002 y
2. Karimova V.M. Psixologiya T-2002 y
3. Общая психология: Курс лекций/ Сост. Е.И.Рогов.-М.: Владос, 1995
4. Psixologiya qisqacha izohli lug'at T-1998 y
5. Turg'unov Q. Psixologiya terminlarining ruscha-o'zbekcha izohli lug'ati T; "O'qituvchi" nashriyoti 1975 y
6. Umumiy psixologiya (A.V.Petrovskiy tahriri ostida) T; "O'qituvchi" 1992 y
7. G'oziev E.G' Umumiy psixologiya 1-2 kitob T-2002 y
8. Abu Xamid G'azzoliy. Kimiyoi saodat. T., 2005, 98-b
9. Aziziddin Nasafiy. Zubdatul haqoyiq. T.; "Kamalak" 1999. 42-b.



19-MAVZU: SHAXSNING HISSIY IRODAVIY SOHASI

Reja:

1. Emotsiya turlari va funksiyalari.
2. Hissiy holatlarning ifodalanishi, hislarning kechirish shakllari.
3. Hissiy holatlarning ifodalanishi
4. Irodaviy faoliyatning umumiy hususiyatlari.

Tayanch tushunchalar: *emotsiya, hissiyot, bilish jarayonlari, affekt, stress, muloqot, emotsiyanal xolat, frustrasiya, iroda, interaktiv hamkorlik, o'zaro ta'sir, kommunikatsiya, impressiv.*

Emotsiya turlari va funksiyalari

Odam tashqi muhitdagi turli-tuman narsa va hodisalarni idrok qilar ekan, hech vaqt bu narsalarga batamom befarq bo'lmaydi. Odamning aks ettirish jarayoni doimo faol xarakterga egadir. Aks ettirish jarayoni quyidagilarni qamrab oladi:

- a) shaxsning ehtiyojni qondirish imkoniyatiga egaligini;
- b) qondirishga yordam beradigan yoki qarshilik ko'rsatadigan ob'ektlarga sub'ekt sifatida qatnashishi;
- v) uni harakat qildiruvchi bilimga intiltiruvchi munosabatlar va hokazo.

Chunki odam atrofidagi har turli narsalarni idrok qilib aks ettirar ekan, bu narsalarga nisbatan ma'lum munosabatda bo'ladi. Masalan, bizga ayrim narsalar yoqsa, ya'ni kayfiyatimizni ko'tarib yuborsa, boshqa bir narsalar yoqmaydi va kayfiyatimizni buzib, dilimizni xira qiladi. Ba'zi bir ovqatni odam juda ham yoqtiradi, boshqa bir ovqatni esa mutlaqo ko'rgisi kelmaydi yoki ayrim odamlar bizga xush keladi yoki boshqa bir odamlar esa noxush keladi. Umuman odam atrofidagi hamma narsalarga nisbatan munosabatda bo'ladi va uning munosabatlari ham aks ettiriladi.

Kishilar idrok qilayotgan, ko'rayotgan, eshitayotgan, bajarayotgan, o'ylayotgan, orzu qiladigan narsalarga befarq bo'lmaydilar. Bir xil predmetlar, shaxslar, xarakterlar, voqealar bizni quvontiradi, boshqalari xafa qiladi yana boshqalari g'azab, nafratimizni uyg'otadi. Biz xavf ostida qolganimizda qo'rquvni his qilamiz, dushman ustidan g'alaba qozonish yoki qiyinchilikni yengish zavq uyg'otadi.

Hissiyot tushunchasiga adabiyotlarda turlicha ta'riflar uchraydi jumladan; A.V.Petrovskiy tahriri ostida chiqqan "Umumiy psixologiya" darsligida hissiyot - kishining o'z hayotida nimalar yuz berayotganiga, nimalarni bilib olayotganiga

yoki nima bilan mashg'ul bo'layotganiga nisbatan o'zicha turli xil shaklda bildiradigan kichik munosabatdir. M.Vohidovning "Bolalar psixologiyasi" o'quv qo'llanmasida hissiyot deb - tashqi olamdagi narsa va hodisalarga bo'lgan ichki kechinmalarimizning ongimizda aks ettirilishga aytiladi. Q.Turg'unov muallifligidagi lug'atda hissiyot-shaxsning voqelikdagi narsa va hodisalarga, kishilarga hamda o'z-o'ziga bo'lgan munosabatlarida kelib chiqadigan yoqimli yoki yoqimsiz kechinmalardan iborat. Professor E.G'oziev muallifligidagi "Umumiy psixologiya" darsligida hissiyot- odamda, tirik mavjudotlar miyasida, ya'ni shaxslarning ehtiyojlarini qondiruvchi va unga monelik qiluvchi ob'ektlarga nisbatan uning munosabatlarini aks ettirish ma'nosida qo'llaniladi.

Yuqoridagi ta'riflardan ko'rinib turibdiki, hissiyot bizning tuyg'ularimizning o'ziga xos aks ettirish jarayoni bo'lib, bunda narsa va hodisalarni aks ettirish jarayonida bizda tug'iladigan ichki kechinmalar va munosabatlar aks ettiriladi. Demak, hissiyotlar o'z- o'zidan yuzaga kelmasdan, tashqi olamdagi narsa va hodisalarning ta'siri bilan bog'liq ravishda yuzaga keladi.

Adabiyotlarda hissiyot bilan birga emotsiya tushunchasi ham keng doirada qo'llaniladi. Aynan emotsiya tushunchasining mazmuni nimadan iborat va hissiyot tushunchasi bilan o'zaro bog'liqligi qanday degan savol tug'iladi? Shunga muvofiq emotsiya tushunchasining mazmun mohiyatini yoritadigan bo'lsak; jumladan professor E.G.'G'ozievning "Umumiy psixologiya" darsligida emotsiya-odatda tashqi alomatlari yaqqol namoyon bo'ladigan his-tuyg'ularni, ichki kechinmalarni ifodalanishidan iborat psixik jarayonni yuzaga kelishining aniq shaklidir, deb ta'riflanadi.

Emotsiya - shaxsning voqelikka o'z munosabatini his qilishidan kelib chiqadigan, uning ehtiyoj va qiziqishlari bilan bog'liq bo'lgan yoqimli yoki yoqimsiz kechinmalaridir. Keltirilgan ta'riflardan ko'rinadiki, hissiyot tushunchasi emotsiyaga nisbatan kengroq tushuncha bo'lib, shaxsning kundalik hayoti, turmush tarzidagi barcha jabhalarni qamrab oladi.

Hissiyotlar o'zining yuzaga kelishi nuqtai nazaridan odamning ehtiyojlari, qiziqishlari va intilishlari bilan bog'liq bo'ladi. Masalan, odamning organik ehtiyojlarini qondirishi bilan bog'liq bo'lgan hissiyotlar odamda rohatlanish, qanoatlanish tuyg'usini yuzaga keltiradi. Organik hissiyotlarni qondira olmaslik odamning ruhini tushirib, kayfiyatini buzib, azoblanish, toqatsizlanish hissiga sabab bo'ladi.

Odamning hissiyotlari uning mazmuni hamda shakllari, ijtimoiy-tarixiy sharoit bilan bog'liq bo'ladi. Ijtimoiy tarixiy taraqqiyot davrida odamning ehtiyojlari o'zgarib boradi. Natijada odamda borgan sari yangi, yangi hissiyotlar, chunonchi, ma'naviy, intellektual va estetik hissiyotlar paydo bo'ladi.

Hissiyotlar ham boshqa bilish jarayonlari kabi odamning faoliyatlari davomida namoyon bo'ladi. Masalan, mehnatsevarlik hissini yuzaga keltirish uchun ma'lum muddat davomida ijtimoiy foydali mehnat bilan shug'ullanish kerak. U yoki bu faoliyat davrida yuzaga kelgan hissiyot ana shu faoliyatning o'ziga ta'sir qilib, uni o'zgartiradi. Masalan, hohlamasdan o'zini majbur qilib

ishlayotgan odam bilan o'zi hohlab sitqidildan ishlayotgan odam ishining unumdorligi o'rtasida juda katta farq mavjud. Odamning kayfiyati yaxshi xursand, ruhi tetik bo'lganda ishi ham barakali bo'ladi, aksincha odamning dili ham, qandaydir tashvishli yoki g'amgin bo'lganda qo'li ishga bormaydi. Ana shu jihatdan olganda hissiyotning inson hayotidagi roli juda kattadir. Hissiyot boshqa bilish jarayonlariga ham ta'sir qiladi. Masalan, odamning ruhi tetik, xursand bo'lgan paytda, idroki hali juda jonli, esda olib qolishi, tuyg'ularga boy, tafakkuri o'tkir, nutqi burro bo'ladi.

Hissiyot odamda sodir bo'layotgan hodisa va narsalardan shaxs sifatidagi odam uchun ahamiyatli bo'lganlari haqida darak beruvchi signallar tizimi hisoblanadi. Mazkur holda sezgi a'zolariga ta'sir qiluvchi cheksiz miqdordagi qo'zg'ovchilardan aniq bo'lib ajraladi, ba'zilar bir-birlari bilan qo'shilib ketadi va paydo bo'lgan hissiyot bilan birlashib ketadi. Natijada taassurot uyg'otib, biror hissiy nom bilan ifodalangan xotira obrazlari tariqasida saqlanib qoladi. Buni fiziologik jihatdan shunday tushuntirish mumkin: ma'lum qo'zg'atuvchilar tirik mavjudotlar uchun xotirjamlik haqida darak beruvchiga aylanadi. Hissiy kechinmalar esa insonning shaxsiy tajribasida tarkib topadigan reflekslar tizimini mustahkamlash sifatida namoyon bo'ladi. Hissiyotning mana shu darak beruvchilik vazifasi psixologiyada hissiyotning impressiv tomoni deb ataladi. Impressiv so'zi lotincha taassurot degan ma'noni anglatadi.

I.P.Pavlov tirik mavjudotlarning atrofimizdagi muhitga moslashuvida hosil qiladigan buziladigan dinamik streotiplar orqali biror hissiyot va emosional kechinmalarning ijobiy va salbiy sifatlarini tushuntirib beradi.

Dinamik stereotip deganda tashqi qaytarilish natijasida hosil qilingan shartli reflekslar, nerv bog'lanishlarining barqaror tizimi tushuniladi. Har turli qiyinchiliklar va qarshiliklarga duch kelishi natijasida dinamik streotiplarning "o'zgarishi" salbiy emosional holatni yuzaga keltiradi. Hissiyot bu uning kechirilishining turli shakllari faqat darak vazifasini emas, balki boshqaruvchilik funksiyasini ham bajaradi. Emotsiya harakatlari juda ko'p tana o'zgarishlar ifodalanadi. Odam organizmidagi o'zgarishlar kechirilayotgan hissiyotning ob'ektiv ko'rsatkichi hisoblanadi. Moslashish xarakteriga oid bo'lgan, ya'ni ovozning o'zgarishi, mimika, imo-ishora, organizmda sodir bo'ladigan jarayonning qayta o'zgarishidan iborat ixtiyorsiz va ongli harakatlar psixologiyada emosional harakatlarning **ekspressiv tomoni** deb ataladi.

Hissiyotlar odatda juft-juft bo'lib uchraydi. Masalan, yoqimli- yoqimsiz, xush-noxush, xursand-xafa, g'azab-muhabbat, nafrat kabi ana shunday hissiyotlar sub'ektiv xarakterga ega bo'ladilar, lekin ularning tashqi ifodasi ham bo'ladi. Masalan, hushchaqchaq odam bilan g'amgin odamning yuz ifodasini ko'z oldimizga keltirib ko'rish mumkin. Aynan mazkur jarayon psixologiyada ambivalentlik yoki ikki taraflamalik deb ataladi. **Ambivalentlik** - lotincha har tomonlama kuchga ega ma'nosini anglatib kishining bir ob'ektning o'ziga nisbatan bir vaqtning o'zida paydo bo'ladigan bir-biriga qarama - qarshi emosional irodaviy holatdir.

Hissiyotda ambivalentlik bu rohatlanish va azoblanishni birga qo'shilib va biri ikkinchisiga o'tib ketmaydigan emas, balki bunda birga bo'lish kechiriladigan hissiyotning zarur xarakterli sifatlaridan birini tashkil qiladi. Masalan, rashk hissida muhabbat va nafrat.

Emotsiya turlari

- ✓ Quvonch
- ✓ Taajjub
- ✓ Azob-uqubat.
- ✓ G'azab
- ✓ Nafrat
- ✓ Qo'rquv
- ✓ Uyat
- ✓ Emotsional stress

Hissiy holatlarning ifodalanishi, hislarning kechirish shakllari

Emotsional jarayonlar, holatlar yoki tor ma'noda emotsiyalar hissiy kechinmalarining o'ziga xos xususiyatli shakllaridan bittasidir. Emotsiya- u yoki bu hissiyotning inson tomonidan bevosita kechirilishi (kechishi) jarayonidan iboratdir. Masalan, shaxs tomonidan musiqani sevish emotsiyani vujudga keltirmaydi, balki buning uchun musiqani eshitish, ijrochi mahoratiga tasanno bildirish, undan hayajonlanish yoki asar ijrosi yoqmasa g'azabli hissiy kechinma hosil bo'lishi ijobiy, salbiy emotsiya deyiladi. Qo'rqinch, dahshat hissiy kechinma sifatida ob'ektlarga shaxsning munosabatini aks ettirib turlicha shaklda namoyon bo'lishi mumkin: odam dahshatdan qochadi, qo'rquvdan serrayib qoladi, o'zini idora qila olmay har tomonga uradi, hatto xavf-xatarga o'zini tashlashi ham mumkin.

Ko'pincha emotsiyalar o'zining ta'sirchanligi bilan bir-biridan ajralib turishiga qaramay, bunday sifatli hissiy holatlar stenik (yunoncha sthenos so'zidan olingan bo'lib, kuch degan ma'no anglatadi) xususiyatli deyiladi. Bunday emotsiyalar dadil xatti-harakatlarga, mantiqiy mulohazalarga, ijobiy izlanishlarga kuch-quvvat, qanot bag'ishlaydi. Masalan, xursandchilikdan shaxs «parvoz qiladi», «yulduzni narvonsiz oladi», kimlargadir xolis yordam qilishga shoshadi, faollik, tinib tinchmaslik uning sifatiga aylanadi. Aksariyat hollarda xushxabar, muvaffaqiyat shaxsda stenik xususiyatli emotsiyalarni vujudga keltiradi. Ba'zi hollarda emotsiyalar o'zining sustligi, zaifligi, nursizligi bilan tavsiflanadi, bunday hissiy holat astenik (yunoncha actenia so'zidan olgan bo'lib, kuchsizlik, zaiflik ma'nosini bildiradi) deb ataladi. Bunday hissiyot insonni bo'shashtiradi, uni xayolga cho'mdiradi, xayolparast qilib qo'yadi, shu sababdan favqulodda shaxsdagi rahmdillik befoyda emotsional kechinmaga, uyalish vijdon azobiga, andisha esa qo'rqqoqlikka aylanib qolish xavfi kuchli.

Har qanday vaziyatda ham emotsional xatti-harakat, faoliyat motivlari bo'lishidan tashqari, ular ba'zida faoliyatni tashkillashtiruvchi, goho uni izdan chiqaruvchi omilga ham aylanishi mumkin. Emotsional holatlar yo haddan tashqari

kuchaysa yoki susaysa, xullas me'yori, maromi izdan chiqsa, u holda shaxs faoliyati maqsadga yo'nalishini yo'qotadi, buning natijasida ob'ektlar noto'g'ri aks ettiriladi, ular xolisona talqin qilinmaydi, baholashda mantiqiy nuqsonlarga yo'l qo'yiladi.

Affektlar. Haddan ziyod tez kechirishi bilan miyada paydo bo'luvchi, shaxsni tez qamrab oluvchi, jiddiy o'zgarishlarni yuzaga keltiruvchi, jarayonlar ustidan irodaviy nazoratlarning buzilishiga yetaklovchi (o'zini o'zi boshqarishni zaiflashtiruvchi), organizm a'zolari funksiyasini izdan chiqaruchi emotsional jarayonlarga affektlar deb ataladi. Affektlar qisqa muddatli bo'lib, ular favquloddagi yong'inga, yarqiragan portlashga, to'satdan kelgan do'lga, to'fonga, kutilmagan silkinishga o'xshab ketadi. Mabodo emotsiya ruhiy to'lqinlanish deyilsa, unda affekt holatlari turli bosqichlardan tuzilgan bo'lib, ular o'zaro o'rin almashib turadi. Ma'lumki, vahimaga, tahlikaga, sarosimaga tushib qolgan, o'ta quvongan, kulgi nashidasi bilan band bo'lgan, umidsizlik tuzog'iga ilingan inson turli vaziyatlarda borliqni bir tekis aks ettira olmaydi. Chunki u makur sharoitlarda o'z kechinmalarini har xil ifodalaydi, o'zini turli darajada ushlaydi, harakatlarini esa turlicha boshqaradi. Bunday oraliq miya va miya katta yarim sharlari po'stlog'idagi ma'lum markazlarning kuchli qo'zg'olishini va boshqa markazlarning tormozlanishi me'yordan chiqib ketishi tufayli o'zaro almashinib qoladi. Harakatchanlikning asta-sekin ko'tarilishidan iborat stenik holat astenik holat bilan almashinadi (kuchli holat kuchsiz bilan aralashib ketadi), lekin qayta tiklanishga ulgurmaydi. Masalan, jo'shqin harakatda, ko'z yaltirashida, yuz qizarishida vujudga kelayotgan kuchli jahl ko'rinishlari ko'zning xiralanishi, yuz oqarishi, rang o'chishi bilan bog'lik qattiq g'azabga aylanishi mumkin. Umidsizlik kechinmasida organizmning jo'shqin reaksiyasi ba'zan hushidan ketib qolish holati bilan almashinadi. Ushbu vaziyat lotincha «stupos» stupor, ya'ni serryib qolish, karaxt holati deb psixologiyada qo'llaniladi.

Affekt holati boshlanishida shaxs insoniy qadriyatlarining barchasidan uzoqlashib, o'z hissiyotining oqibati to'g'risida ham o'ylamaydi, hatto tana o'zgarishlari, ifodali harakatlar unga bo'ysunmay boradi. Kuchli zo'riqish natijasida mayda, kuchsiz harakatlar barham topadi. Tormozlanish miya yarim sharlari po'stini to'la egallay boshlaydi, qo'zg'olish po'stloqosti nerv tugunchalarida, oraliq miyada avj oladi, xolos. Buning natijasida shaxs hissiy kechinmasiga (dahshat, g'azab, nafratlanish, umidsizlik va hokazolar) nisbatan o'zida kuchli xohish sezadi.

Ma'lumotlarning ko'rsatishicha, ko'pincha hissiyotlar affektiv shaklda o'tishi tajribalarda sinab korilgan. Jumladan, 1) teatr tomoshabinlarida, 2) tantana nashidasini surayotgan olomonlarida, 3) es-xushini yo'qotgan, telbanoma sevgi afsonalarida, 4) ilmiy kashfiyot lahzasida, 5) tasodifiy qizg'in uchrashuvlarda jo'shqin shodliklar mujassamlashadi.

Affektlar vujudga kelishining dastlabki bosqichida har bir shaxs o'zini tutushini, o'zini ko'lga olishni uddalash qurbiga ega bo'ladi. Ularning keyingi bosqichlarida irodaviy nazorat yo'qotiladi, irodasiz harakatlar amalga oshiriladi,

yo'lanmasdan xatti- harakat qilinadi. Affektiv holatlar mas'uliyatsizlik, axloqsizlik, mastlik alomatida sodir bo'ladi, lekin shaxs har bir xatti- harakati uchun javobgardir, chunki u aql- zakovatli insondir. Affektlar o'tib bo'lganidan keyin shaxsning ruhiyatida osoyishtalik, charchash holati hukm suradi. Ba'zi hollarda holsizlanish, jamiki narsaga loqayd munosabat, harakatsizlik, faollik barham topish, hatto uyquga moyillik yuzaga keladi. Shu bilan birga affektiv shok (frantsuzcha choc zarba degan ma'no anglatadi) holati ham sodir bo'ladi, buning oqibatida organizmning ichki a'zolari funktsiyasi buziladi, hatto yurak xuruji (infarkt-latincha arctus «xavf to'ldirg'ich», miokard yunoncha mys tomir kardia yurak degan ma'no bildirib keladi) yuzaga keladi. Shuni ham unitmaslik kerakki, affektiv qo'zg'olish muayyan davrgacha davom etishi, ba'zan o'qtin-o'qtin kuchayishi yoki susayishi (pasayishi) sodir bo'lib turishi mumkin.

Stress. Stress inglizcha stress so'zidan olingan bo'lib, jiddiylik, keskinlik, zo'riqish degan ma'no anglatadi. XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab keskin vaziyat tufayli vujudga keladigan emotsional holatlarni tadqiq etish psixologiya, fiziologiya, tibbiyot fanlarida keng qo'lamda amalga oshirila boshlandi. Stress-og'ir jismoniy va murakkab aqliy yuklamalar, ishlar me'yoridan oshib ketib, xavfli vaziyatlar tug'ilganida zaruriy chora-tadbirlarni zudlik bilan topishga intilganda vujudga keladigan hissiy zo'riqishlar. Mana shunday sharoitlar va vaziyatlarning barchasini biron bir emotsiya turi ro'yobga chiqaradi. Stress emotsional holatining paydo bo'lishi hamda kechishining psixologik xususiyatlarini aniqlash nafaqat uchuvchilar, kosmonavtlar, dispetcherlar (inglizcha dispatcher ishlab chiqarishni muvofiqlashtiruvchi ma'nosini anglatadi) uchun, balki sudyalalar, korxonalar rahbari, ta'lim tizimi xodimlari uchun alohida ijtimoiy psixologik ahamiyat kasb etadi.

Stress holatida shaxsning xatti-harakatlari o'ziga xos tarzda o'zgaradi, unda qo'zg'alishning umumiy reaktsiyasi paydo bo'ladi, uning harakatlari tartibsiz ravishda amalga oshiriladi. Stressning kuchayishi esa teskari reaktsiyaga olib keladi, natijada tormozlanish, sustlik, zaiflik, faoliyatsizlik ustuvorlik qila boshlaydi. Lekin stress holatida fiziologik o'zgarishlar tashqi tomonidan qariyb ko'zga tashlanmasligi mumkin. Biroq muammoni yechishdagi qiyinchilik, diqqatni taqsimlashdagi sarosimalik stressning tashqi ifodasi deb taxmin qilinsa bo'ladi. Shaxs stress holatida telefon nomerini adashtiradi, vaqtni chamalashda yanglishadi, ong faoliyati yengil tormozlanadi, idrok ko'lamini torayadi va boshqalar.

Kayfiyat. Shaxsning xatti-harakatlariga va ayrim ruhiy jarayonlariga muayyan vaqt davomida tus berib turuvchi emotsional holat kayfiyat deb ataladi. Shaxsning hayoti va faoliyati davomida shodonlik, hazilkashlik, umidsizlik, jur'atsizlik, zerikishlik, qayg'urishlik singari his-tuyg'ular uning ruhiy holatini umumiy tizimiga aylanadi.

Psixologiya fanida asosiy hissiyotlar atamasi ko'chma ma'noda qo'llanilib kelmoqda. Tadqiqotlar ichida K. Izartning tasnifi muayyan qiziqish uyg'otadi, lekin his-tuy'ularning barchasini o'zida qamrab olmaydi. K. Izartning talqinicha: 1) qiziqish – malaka va ko'nikmalar shakllanishiga, o'qishga moyillik uyg'otadigan bilimlarni egallashga yordam beruvchi ijobiy hissiy holatdir;

- 2) quvonch - qondirilishi dargumon bo'lgan yetakchi (hukmron) ehtiyojning qondirilishi mumkinligi bilan bog'liq ijobiy hissiy holatdir;
- 3) hayratlanish – favqulodda ro'y bergan holatlardan hissiy jihatdan ta'sirlanishning ijobiy yoki salbiy jihatdan ifoda etilmagan belgisidir;
- 4) iztirob chekish – hozirgacha qondirilish ehtimoli ozmi yoki ko'pmi mavjud tasavvur qilingan, muhim hayotiy ehtiyojlarning qondirilishi mumkin emasligi to'g'risida ma'lumot olinishi bog'liq salbiy hissiy holatdir;
- 5) g'azablanish – ob'ektiv tarzida kechadigan, shaxs uchun g'oyat muhim ehtiyojni qondirish yo'lida to'siqlarni yengib chiqadigan salbiy hissiy holatdir;
- 6) nafratlanish – ob'ektlarga yaqinlashuv sub'ektning ma'naviy yoki estetik ideallarga zid kelib qolishi oqibatida ro'y beradigan salbiy hissiy holatdir;
- 7) jirkanish – shaxslararo munosabatlarda ro'y beradigan va shaxsning hayotiy nuqtai nazarlari, qarashlari va xulq-atvoriga nomutanosibligi oqibatida hosil bo'ladigan salbiy hissiy holatdir;
- 8) qo'rquv – shaxs o'zining xotirjam hayot kechirishiga ziyon yetishi mumkinligi unga real tahdid solayotgan yoki tahdid solishi mavjud xavf-xatar to'g'risidagi xabarni olish bilan paydo bo'ladigan salbiy hissiy holatdir;
- 9) uyalish – o'zining ezgu maqsadlari, xatti-harakatlari va tashqi qiyofasi, nafrati katta muhit kutilmasiga mos kelmaganligi bilan emas, balki o'ziga loyiq xulq-atvor hamda tashqi siymosi shaxsiy tasavvurlarga ham mos emasligini anglashda ifodalanadigan salbiy hissiy holatdir.

Stress (inglizcha stress so'zdan olingan bo'lib, o'zbekcha bosim, zo'riqish ma'nosini ifodalaydi)-har xil turdagi ekstremal ta'sirlarga javob sifatida vujudga keluvchi inson holatidir.

Frustratsiya

Frustratsiya (lotincha so'zdan olingan bo'lib, aldash, pand berish, ko'ngil qolishi degan ma'noni anglatadi) shaxsni maqsadga erishishi jarayonida to'siqlarga duch kelishi va o'z ehtiyojlarini amalga oshira olmasligi.

Affekt

Lotincha affectus-kechinmalarga mos yuz berish degan ma'nosni anglatib, emotsional holatni qisqa muddatli, keskin va haddan ortiq jadal kechishidir.

Fiziologik:

- qo'zg'alishning yuqori jadalligi;
- Ongning ahamiyatli darajada deorganizatsiyalashuvi;
- harakatlarni boshqara olmaslik;
- fikrardagi bog'liqlikni yo'qolishi va bir fikrning ustunlik qilishi;
- bitta taassurotning saqlanib qolishi

Patologik affect:

- qo'zg'allishning haddan ortiq o'sib ketishi;
- ongning to'liq buzilishi;
- o'z harakati va xatti-harakatlariga javob berish qobiliyatining yuqolishi;
- fikrlarida tartibisizlikni hukmronligi;
- xotiraning to'liq yo'qolganligi.

Hissiy holatlarning ifodalanishi

Hissiy holatlarning ifodalanishi *birinchidan*, ifodali harakatlar (yuz ifodasi, qo'l, oyoq harakatlari), *ikkinchidan* organizmdagi turli hodisalarni, ya'ni ichki a'zolar faoliyatining va holatining o'zgarishida, *uchinchidan* tabiatda, ya'ni organizm qon tarkibidagi va boshqa suyuqliklardagi kimyoviy o'zgarishlarni, shuning bilan birga modda almashinuvida bo'ladigan o'zgarishlarni o'z tarkibiga oladi.

His-tuyg'ularning tashqi ifodasiga yuz ifodasi, imo-ishora, vajohat va qaddu-qomatning o'zgarishi, ayiruv, tashqi chiqaruv bezlarining faoliyati (so'lak, ter ajralishi) va ayrim harakatlar xususiyatlaridagi o'zgarishlarni kiritish mumkin. Bunga nutqning faol o'zgarishlari, "ovoz mimikasi" va gaplar tarkibining sintaksis o'zgarishi, "tutilmasdan gapirish", yoki aloqada "silliqlik" hamda "ifodalilik"ning yuzaga kelishi nihoyat hissiyot o'zining to'la qisman ifodasini topadigan xatti-harakatlarga taalluqlidir. Kishining emosional kechinmalari vaqtida nutqining tezligi o'zgaradi. Ko'pincha nutqning sintaksis tuzilishi buziladi, tezligi va ahamiyati o'zgaradi. O'tkazilgan tekshirishlar shuni ko'rsatadiki, g'amginlik va ma'yuslik hislarini ifodalovchi kishining ovozi beixtiyor pasayib ketadi, so'zlashgan kishining tovushi ham bo'linib-bo'linib chiqadi.

Irodaviy faoliyatning umumiy hususiyatlari


Odam tevarak - atrofdagi narsalarni o'zgartirib o'ziga moslashtirar ekan, yangilik yaratadi, ijod qiladi, shu yangilikni tevarak-atrofdagi voqelikka qo'shadi, voqelikni o'zgartiradi va to'ldiradi. Umuman odam har doim harakat qilmasdan tura olmaydi. Ana shu jihatdan olganda odamning barcha harakatlarini ikki turkumga bo'lish mumkin. Ulardan *birinchisi* ixtiyorsiz harakatlar bo'lsa, *ikkinchisi* ixtiyoriy harakatlardir.

Odamning ixtiyorsiz harakatlari qat'iy bir maqsadsiz, ko'pincha impul'siv tarzda, ya'ni reflektor tarzda yuzaga keladi. Masalan, yo'talish, aks urish, ko'z qovoqini ochib yumilishi va shu kabilar. Bu harakatlarni odam oldindan o'ylab rejalashtirmaydi. Ixtiyorsiz harakatlar har qanday sharoitda yuz berishi mumkin. Ixtiyorsiz harakatlar ba'zan, odamning aqliy faoliyatlari bilan ham bog'liq bo'ladi. Chunonchi, ixtiyorsiz idrok, ixtiyorsiz diqqat, ixtiyorsiz esda olib qolish, ixtiyorsiz esga tushirish holatlari ham bo'ladi. Bunday hollarda odamning ixtiyorsiz harakatlari idrok qilinayotgan narsaning boshqa narsalardan keskin farq qilishi yoki odamning qiziqishlari, ehtiyojlari bilan bevosita bog'liq bo'ladi.

Ixtiyoriy harakatlar iroda bilan bog'liq bo'lgan harakatlardir. Ixtiyoriy harakatlar oldindan belgilangan maqsad asosida to'la ongli ravishda amalga oshiriladigan harakatlardir. Lekin ixtiyoriy harakat deganda, faqat jismoniy harakatlar emas, balki, aqliy harakatlar ham tushuniladi. Shunday qilib, iroda tushunchasiga nisbatan adabiyotlarda turlicha ta'riflar uchraydi. Jumladan,

A.V.Petrovskiy darsligida **iroda** - bu kishining o'z oldiga qo'ygan maqsadlariga erishishida qiyinchiliklarni yengib o'tishga qaratilgan faoliyati va xulq-atvorini ongli ravishda tashkil qilishi va o'z-o'zini boshqarishi demakdir, deb ta'riflanadi. Q.Turg'unov muallifligidagi lug'atda ta'riflanishicha, **iroda** - shaxsning ongli harakatlarida, o'z-o'zini bilishida ifodalanadigan, ayniqsa maqsadga erishish yo'lida uchraydigan jismoniy va ruhiy qiyinchiliklarni yengib chiqishda namoyon bo'ladigan ixtiyoriy faolligidir. M.Vohidov fikricha, **iroda** deganda biz oldindan belgilagan, qat'iy bir maqsad asosida amalga oshiriladigan va ayrim qiyinchiliklarni, to'siqlarni yengish bilan bog'liq bo'lgan harakatlarni tushunamiz. Professor E.G'.G'ozievning "Umumiy psixologiya " darsligida **iroda**-bu tashqi va ichki qiyinchiliklarni yengishni talab qiladigan qiliqlarni va harakatlarni inson tomonidan ongli boshqarilishidir, deb keltiriladi. Umuman olganda iroda shaxs faolligining ko'rinishi hisoblanadi. Shu bois uning yuzaga kelishi bir qator harakatlarni amalga oshirilishi bilan izohlanadi.

Irodaviv harakatlar bosqichlari



Irodaviy harakatlarda har doim maqsad aniq bo'ladi. Odam o'z oldiga qo'ygan maqsadidan kelib chiqadigan natijalarni ham oldindan tasavvur eta oladi. Ana shuning uchun har qanday qiyinchiliklarni yengib bo'lsa ham maqsadini amalga oshirishga intila boradi. Masalan, odam biror imorat solayotgan paytda oxirgi natija qanday bo'lib chiqishini juda yaxshi tasavvur etadi va shuning uchun qanday qiyinchiliklar bo'lsa ham yengib ishni davom ettira beradi. Yoki talaba universitetning birinchi kursiga kirganda qanday mutaxassis bo'lib chiqishini yaxshi biladi va shuning uchun barcha qiyinchiliklarga chidab o'qishni davom ettira beradi.

Umumiy irodaviy faoliyatni yoki alohida akti amalga oshirishning muhim xususiyatlaridan biri amalga oshirilayotgan harakatlarning erkin ekanligini anglashdan iboratdir.

Odamning irodaviy harakati to'la-to'kis determinizmga, ya'ni sababiy bog'lanish qonuniga bo'ysunadi. Shu bilan birga irodaviy faoliyatning bevosita sabablari sharoitida irodaviy harakatlarni belgilab beradigan turli-tuman hayotiy sharoitlar bo'lishi mumkin.

Odamning irodaviy faoliyati ob'ektiv jihatdan bog'langandir. Irodaviy faoliyatning muhim xususiyatlaridan biri, irodaviy harakatlarni odam hamma vaqt shaxs sifatida amalga oshiradi. Xuddi mana shuning bilan bog'liq ravishda irodaviy xarakterlar odam to'la ravishda javob beradigan ish sifatida boshdan kechiriladi. Irodaviy faoliyat tufayli shaxs ko'p jihatdan o'zini ma'lum sharoitda angelaydi, o'z hayot yo'li va taqdirini o'zi belgilashi mumkin.

Irodaning eng muhim xususiyati unda faoliyatni amalga oshirishning puxta o'ylab chiqilgan rejaning mavjudligidir. Avvaldan rejalashtirilmagan xatti-harakatlarni **irodaviy harakat** deb bo'lmaydi. Shu bilan birga iroda avvaldan mavjud bo'lmagan, lekin faoliyatni natijasiga erishishdan so'ng hosil bo'lishi mumkin bo'lgan qoniqishga butun e'tiborini qaratishdan iboratdir.

Ko'p hollarda iroda vaziyat yoki qiyinchilik ustidan g'alaba qozonish emas, balki o'z-o'zini engish hamdir. Bu ayniqsa, muvozanatsiz, hissiy, qo'zg'aluvchan, sust kishilarga xos bo'lib, o'zlarining tabiiy xarakterologik xususiyatlari bilan kurashishga to'g'ri keladi.

Hech bir muammo irodaning ishtirokisiz hal etilmaydi. Inson kuchli irodasiz katta muvaffaqiyatga erisha olmaydi. Odamzod boshqa tirik mavjudotlardan o'zining ongi va aqli bilangina emas, balki irodasining mavjudligi bilan ham ajralib turadi.



Nazorat savollari

1. Hissiyot tushunchasining mazmunini izohlang?
2. His-tuyg'ularning vazifalari nimalarda ko'rinadi?
3. Hissiy holatlarning fiziologik asoslarini nima tashkil qiladi?
4. Insoniy emotsiyalar va hayvonlardagi emotsiyalar o'rtasidagi farqni izohlang?
5. Hissiy holatlarning ifodalanishini qanday izohlaysiz?
6. Hislarni kechirish shakllarini qanday baholaysiz?
7. Iroda tushunchasining mazmunini izohlang?
8. Irodaviy faoliyatning umumiy xususiyatlari nimalarda ko'rinadi?



Tavsiya qilinuvchi adabiyotlar:

1. Davletshin M.G. Umumiy psixologiya Toshkent, 2002 y
2. Джемс В. Психология.- М., 1991

3. Ильин Е. П. Психология воли. — СПб.: Питер, 2000.
4. Karimova V.M. Psixologiya Toshkent, 2002 y
5. Маклаков А.Г. Общая психология М.; “Питер” 2003.
6. F.I.Xaydarov N.I.Xalilova. Umumiy psixologiya. Toshkent, 2009.
7. G’oziev E.G’. Umumiy psixologiya 1-2 kitob. Toshkent, 2002 y



20-MAVZU: FAOLIYAT, MOTIVASIYA VA MULOQOT

Reja:

1. Faoliyat inson hayotining ajralmas qismi sifatida.
2. Shaxslararo muomalaning shaxs taraqqiyotidagi o’rni.
3. Motivatsiya haqida umumiy tasniflar.

Tayanch tushunchalar: faoliyat, motivatsiya, motiv, ehtiyoj, psixologiya, faoliyat, munosabat, muloqot.

Faoliyat inson hayotining ajralmas qismi sifatida

Odam tabiati jihatidan faol mavjudotdir. U ma’lum faoliyatda bo’lmasdan yashay olmaydi. Inson faoliyatining turi juda ko’p bo’lib, ulardan eng muhimi ijtimoiy qiymatga ega bo’lgan ishlab chiqarish mehnatdir. Odam har doim jamoada bo’lib mehnat qiladi va mehnat natijalarini ham jamoa turmush tarzini o’zlashtiradi. har bir tirik organizmning faolligi uning ehtiyojlarini qondirilishiga qaratilgan bo’ladi. Anglab bo’lmaydigan va anglab bo’ladigan tabiiy yoki, madaniy, yoki ma’naviy, shaxsiy yoki ijtimoiy-shaxsiy ehtiyojlar odamda har turli faollik tug’diradi. Ma’lumki, inson faoliyati jarayonida ma’lum bir mahsulotni yaratadi va undan ishlab chiqarish jarayonida foydalanadi. Aynan faoliyatda erishilayotgan muvaffaqiyatini ta’minlovchi bir qator omillar mavjud. Shular jumlasiga ob’ektiv va sub’ektiv omillarni kiritish mumkin va u quyidagi jadvalda aks ettirilgan.

Agar hayvonlarni xatti-harakatlari bevosita tevarak-atrofdagi muhit bilan belgilansa, odamning faolligi esa ilk yoshlik davridan boshlab, butun insoniyatning tajribasi va jamiyat talabi bilan boshqariladi. Shu bois “faoliyat”, “faollik”, “xatti-harakat” tushunchalarining mazmun mohiyatini anglab olish lozim. Shunga ko’ra adabiyotlarda mazkur tushunchalarga berilgan ta’riflarga asosiy e’tiborni qaratish lozim.

A.V.Petrovskiy tahriri ostida chiqqan “Umumiy psixologiya” darsligida: **Faoliyat** - kishining anglangan maqsad bilan boshqarilib turiladigan ichki (psixik) va tashqi (jismoniy) faolligidir - deb ta’riflanadi. M.G.Davletshin muallifligida chop etilgan “Psixologiya” qisqacha izohli lug’atida: **Faollik** - tirik materiyaning umumiy xususiyati, tevarak-atrofdagi muhit bilan o’zaro ta’sirida namoyon bo’ladi. Psixik faollik bu o’zaro ta’sir shu asosda faollik ko’rsatish bilan tavsiflanadi”-deya ta’riflangan.

Faoliyat - insoniyatga xos ong bilan boshqariladigan ehtiyojlar tufayli, paydo bo’ladigan va tashqi olam bilan kishining o’z-o’zini bilishga, uni qayta qurishga yo’naltirilgan faolligidir.

Harakat - maqsadga muvofiq yo’naltirilib, ongli ravishda amalga oshiriladigan harakatlar yig’indisi. Harakat ongli faoliyatlarning tarkibiy qismlari va motivlaridan biridir.

Q.Turg’unovning “Psixologiya” terminlarining qisqacha ruscha-o’zbekcha izohli lug’atida: **Faollik** - shaxsning ehtiyojlarini qondirish uchun voqelikni o’zlashtirishga qaratilgan muhim qobiliyatidir. Faollik ixtiyoriy va ixtiyorsiz bo’lib, kishining faoliyati mehnat, o’qish, o’yin, ijtimoiy hayot, sport, ijod kabilarda yaqqol namoyon bo’ladi”- deb ko’rsatiladi.

Faoliyat - inson hayotining uning voqelikka nisbatan faol munosabatining ro’yobga chiqish shakli. harakat - maqsadga muvofiq yo’nal-tirilib, ongli ravishda amalga oshiriladigan harakatlar yig’indisi ongli faoliyat tarkibiy qismlari va motivlaridan iborat.

V.M.Karimovaning “Psixologiya” o’quv qo’llanmasida quyidagicha ta’riflar uchraydi: **Faollik** - shaxsning hayotdagi barcha xatti-harakatlarini namoyon etishni tushuntiruvchi kategoriyadir. **Faoliyat** - inson ongi va tafakkuri bilan boshqariladigan, undagi turli-tuman ehtiyojlardan kelib chiqadigan hamda tashqi olamni va o’z-o’zini o’zgartirish va takomillashtirishga qaratilgan o’ziga xos faollik shaklidir.

Mazkur ta’riflardan ko’rinadiki, faoliyat tushunchasi o’z tarkibiga shaxsning u yoki bu darajadagi faollik ko’rsata olish darajalarini qamrab oladi va unga umumiy tarzda quyidagicha ta’rif berish mumkin: **Faoliyat**-anglangan maqsad bilan boshqariladigan ichki (psixik) va tashqi (jismoniy) harakatlar yig’indisiga aytiladi.

Adabiyotlarda faollik va harakat tushunchalari o’zaro bir-biriga bog’liq bo’lgani bilan ular o’rtasidagi ayrim farqli belgilar kuzatiladi. Jumladan, faoliyatning mazmuni to’la-to’kis uni yuzaga keltirgan tabiiy-biologik va ma’naviy ehtiyojlar bilan shartlashmaganligi tufayli uning psixologik mexanizmi ham o’zgacha negizda qurilishi mumkin.

Ikkinchidan, faoliyat muvaffaqiyatini ta'minlash uchun psixik narsa va hodisalarning xususiyat ob'ektiv xossalarni aks ettirishi, qo'yilgan maqsadga erishish yo'l-yo'riqlarini aniqlab berish lozim.

Uchinchidan, faoliyat shaxsning xulq-atvorini maqsadga qaratilgan harakatlarni ruyobga chiqarish, yuzaga kelgan ehtiyojlarni va yordamga muhtojligi, faollikning imkonini beradigan boshqarishni uddalash lozim. Shuning uchun faoliyatni bilish jarayonlarisiz, irodaviy zo'r berishsiz amalga oshirish juda mushkul. Aynan ikkala omil o'zaro uzviy aloqaga kirgandagina yaratuvchanlik xususiyatini kasb etadi.

Inson faolligining o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, faoliyatning mazmuni ana shu faoliyatni yuzaga keltirgan ehtiyojning bir o'zi bilan belgilanmaydi. Agar ehtiyoj faoliyatga motiv sifatida madad berib, uni rag'batlantirib tursa faoliyatning shakli va mazmuni ijtimoiy sharoitlar, ijtimoiy talablar hamda tajribalar bilan belgilanadi.

Faoliyatning muhim xususiyatlari	
Hayvonlar faolligi	Inson faoliyati
Instinktiv - biologik faollik	Bilishga va muloqatga bo'lgan ehtiyojlar bilan yo'naltirilgan
Hamkorlikdagi faoliyat emas, biologik maqsadlar, (oziqlanish, himoyalaniş)ga asoslangan to'da bo'lib yurish, .	Kishilik jamiyati hamkorligidagi faoliyat asosida tashkil topgan, har bir harakat inson uchun hamkorlikdagi faoliyatidagi o'rniga ko'ra ahamiyatlidir
Ko'rgazmali - yaqqol vaziyatlar bilan boshqariladi.	Predmet va hodisalarni mavhumlashtirish, ular o'rtasidagi sababiy boqlanish va munosabatlarni aniqlash mumkin.
Irsiy jihatdan mustahkamlangan dastur (instinkt)lar asosidagi xatti-harakatlar, ko'nikmalar yakka tartibda hosil bo'lib hayvonning yashash uchun tashqi sharoitlarga moslashishi sifatida namoyon bo'ladi.	Tajribani berish va o'zlashtirish muloqotning ijtimoiy vositalari (til va boshqa belgilar tizimi) yoki moddiy madaniyat mahsulotlari orqali amalga oshiriladi.
Yordamchi quollar, vositalar yasashi mumkin, ammo undan qurol sifatida doimo foydalanmaydi. Bir qurol yordamida boshqa qurol yasay olmaydi.	Mehnat quollari yasab, uni keyingi avlodlariga ham qoldirishi mumkin. Turli predmet va qurollardan foydalanib, yangi qurol va vositalar yarata oladi.
Tashqi muhitga moslashadi	O'z ehtiyojlariga muvofiq tarzda tashqi dunyoni o'zgartiradi.

Odamni ishlashga majbur qiluvchi motiv uning ovqatlanish ehtiyoji bo'lishi mumkin. Biroq odam, masalan, dastgohni ochlik ehtiyojini qondirish uchun boshqarmaydi. Inson faoliyatining mazmuni jamiyat talab qiladigan biron mahsulotni tayyorlash maqsadi bilan belgilanadi. Faollik manbai bo'lgan faoliyat yaxshi anglab olingan maqsad bilan belgilanadi.

Yuqoridagi jadvalda inson faoliyati bilan hayvonlar xatti-harakati o'rtasidagi farqlar aks ettirilgan. Faoliyat faollikni anglab olingan maqsad bilan boshqaradi. Faoliyatni anglash qanday darajada bo'lmasin maqsadni anglash hamma vaqt ham zaruriy belgi sifatida qolaveradi.

I.M.Sechenov fiziologik organlar va tizimlar faolligi yoki ishi to'g'risida tasavvurga ega bo'lgan, shu sababdan uning asarlarida “Tafakkurning faol shakli”, “Tafakkur faoliyati”, “Miya faoliyati”, “Muskul faoliyati” so'z birikmalar keng ko'lamda joy olganligi I.P.Pavlov tomonidan “Oliy nerv faoliyati”, N.A.Bernshteyn esa “Fiziologik faollikni” atamani fan olamiga olib kirgan. Lekin N.A.Bernshteyn faollik, faoliyat, ish, mehnat tushunchalarini ma'nosiga ko'ra farqlagan bo'lishiga qaramay, u aksariyat hollarda faollikni faoliyat ma'nosida qo'llagan.

Psixofiziologiyada faoliyat faollikni fiziologik ma'nosi sifatida talqin qilingan bo'lsa, ish, mehnat faoliyati, “mehnat faollikni” mazmunida qo'llaniladi. Ijtimoiy psixologiyada “Faoliyat - faollik - ish – mehnat”, “Faoliyat – xulq”, “mehnat - xulq, faoliyat” ko'rinishlari juftligi uchrab turadi. S.L.Rubinshteyn ong va faoliyat birligi tamoyilini ilgari surib, uni atroflicha asoslab berib, faoliyat psixologiyasini yaratish zarurligini tushuntira oldi. Uningcha, mehnat psixologik emas, balki “ijtimoiy kategoriya”, psixologiya esa “mehnat faoliyatining psixologik jabhalarini” tadqiq etadi.

Shaxslararo muomalaning shaxs taraqqiyotidagi o'rni

Muloqot odamlar amalga oshiradigan faoliyatlar ichida yetakchi o'rinni egallab, u insondagi eng muhim ehtiyojni – jamiyatda yashash va o'zini shaxs deb hisoblash bilan bog'liq ehtiyojini qondiradi. Shuning uchun ham uning har bir inson uchun ahamiyati kattadir.

Muloqot – odamlarning birgalikdagi faoliyatlari ehtiyojlaridan kelib chiqadigan turli faolliklari mobaynida bir-birlari bilan o'zaro munosabatlarga kirishish jarayonidir. Ya'ni, har bir shaxsning jamiyatda ado etadigan ishlari (mehnat, o'qish, o'yin, ijod qilish va boshqalar) o'zaro munosabat va o'zaro ta'sir shakllarini o'z ichiga oladi. Chunki har qanday ish odamlarning bir-birlari bilan til topishishini, bir-birlariga turli xil ma'lumotlarni uzatishni, fikrlar almashinuvi kabi murakkab hamkorlikni talab qiladi. Shuning uchun ham har bir shaxsning jamiyatda tutgan o'rni, ishlarining muvaffaqiyati, orttirgan obro'si uning muloqotga kirisha olish qobiliyati bilan bevosita bog'liqdir.

Bir qarashda osonga o'xshagan shaxslararo muloqot jarayoni aslida juda murakkab bo'lib, unga odam hayoti mobaynida o'rganib boradi. Muloqotning psixologik jihatdan murakkab ekanligi haqida B.F.Parigin shunday yozadi:

“Muloqot shunchalik ko'p qirrali jarayonki, unga bir vaqtning o'zida quyidagilar kiradi:

- a) individlarning o'zaro ta'sir jarayoni;
- b) individlar o'rtasidagi axborot almashinuvi jarayoni;
- v) bir shaxsning boshqa shaxsga munosabati jarayoni;
- g) bir kishining boshqalarga ta'sir ko'rsatish jarayoni;
- d) bir-birlariga hamdardlik bildirish imkoniyati;
- y) shaxslarning bir-birlarini tushunishi jarayoni.

Aslida har bir insonning ijtimoiy tajribasi, uning insoniy qiyofasi, fazilatlarini, xattoki, nuqsonlari ham muloqot jarayonlarining mahsulidir. Jamiyatdan ajralgan, muloqotda bo'lish imkoniyatidan mahrum bo'lgan odam o'zida individ sifatlarini saqlab qolishi mumkin, lekin u shaxs bo'lolmaydi. Shuning uchun muloqotning shaxs taraqqiyotidagi ahamiyatini tasavvur qilish uchun uning funkqiylarini tahlil qilamiz.

Har qanday muloqotning eng elementar funktsiyasi – suhbatdoshlarning o'zaro bir-birini tushunishlarini ta'minlashdir. Bu o'zbeklarda samimiy salom-alik, ochiq yuz bilan kutib olishdan boshlanadi. O'zbek xalqining eng nodir va buyuk hislatlaridan biri ham shuki, uyiga biron kirib kelsa, albatta ochiq yuz bilan kutib oladi, ko'rishadi, so'rashadi, xol - ahvol so'raydi. Shunisi xarakterliki, ta'ziyaga borgan chog'da ham ana shunday samimiyatli qabulni his qilamiz.

Uning ikkinchi muhim funktsiyasi ijtimoiy tajribaga asos solishdir. Odam bolasi faqat odamlar davrasida ijtimoiylashadi, o'ziga zarur insoniy xususiyatlarni shakllantiradi. Odam bolasining yirtqich hayvonlar tomonidan o'g'rilanib ketilishi, so'ng ma'lum muddatdan keyin yana odamlar orasida paydo bo'lishi faktlari shuni ko'rsatganki, «mauglilar» biologik mavjudot sifatida rivojlanaveradi, lekin ijtimoiylashuvda ortda qolib ketadi. Bundan tashqari, bunday xolat boladagi bilish qobiliyatlarini ham cheklashi ko'plab psixologik eksperimentlarda o'z isbotini topdi.

Muloqotning yana bir muhim vazifasi – u odamni u yoki bu faoliyatga hozirlaydi, ruhlantiradi. Odamlar guruhidan uzoqlashgan, ular nazaridan qolgan odamning qo'li ishga ham bormaydi, borsa ham jamiyatga emas, balki faqat o'zigagina manfaat keltiradigan ishlarni qilishi mumkin. Masalan, ko'plab tadqiqotlarda izolyatsiya, ya'ni odamni yolg'izlatib qo'yishning uning ruhiyatiga ta'siri o'rganilgan. Masalan, uzoq vaqt termokamerada bo'lgan odamda idrok, tafakkur, xotira, hissiy xolatlarning buzilishi qayd etilgan. Lekin ataylab emas, taqdir taqozosi bilan yolg'izlikka mahkum etilgan odamlarning maqsadli faoliyatlar bilan o'zlarini band etishlari u qadar katta salbiy o'zgarishlarga olib kelmasligini ham olimlar o'rganishgan. Lekin baribir har qanday yolg'izlik va muloqotning yetishmasligi odamda muvozanatsizlik, hissiyotga beriluvchanlik, xadiksirash, xavotirlanish, o'ziga ishonchsizlik, qayg'u, tashvish hislarini keltirib chiqaradi. Shunisi qiziqki, yolg'izlikka mahkum bo'lganlar ma'lum vaqt o'tgach ovoz chiqarib, gapira boshlasharkan. Bu avval biror ko'rgan yoki his qilayotgan narsasi xususidagi gaplar bo'lsa, keyinchalik nimagadir qarab gapiraverish ehtiyoji

paydo bo'lar ekan. Masalan, bir M.Sifr degan olim ilmiy maqsadlarini amalga oshirish uchun 63 kun g'or ichida yashagan ekan. Uning keyinchalik yozishicha, bir necha kun o'tgach, u turgan yerda bir o'rgimchakni ushlab oladi va u bilan dialog boshlanadi. «Biz, deb yozadi u shu hayotsiz g'or ichidagi tanho tirik mavjudotlar edik. Men o'rgimchak bilan gaplasha boshladim, uning taqdiri uchun qayg'ura boshladim...».

Shaxsning muloqotga bo'lgan ehtiyojining to'la qondirilishi uning ish faoliyatiga ham ta'sir ko'rsatadi. Odamlar, ularning borligi, shu muhitda o'zaro gaplashish imkoniyatining mavjudligi fakti ko'pincha odamni ishlash qobiliyatini ham oshirarkan, ayniqsa, gaplashib o'tirib qilinadigan ishlar, birgalikda yonma-yon turib bajariladigan operatsiyalarda odamlar o'z oldida turgan hamkasbiga qarab ko'proq, tezroq ishlashga kuch va qo'shimcha iroda topadi. To'g'ri, bu hamkorlikda o'sha yonidagi odam unga yoqsa, ular o'rtasida o'zaro simpatiya hissi bo'lsa, unda odam ishga «bayramga kelganday» keladigan bo'lib qoladi. Shuning uchun ham amerikalik sotsiolog hamda psixolog Jon Moreno asrimiz boshidayoq ana shu omilning unumdorlikka bevosita ta'sirini o'rganib, sotsiometrik texnologiyani, ya'ni so'rovnoma asosida bir-birini yoqtirgan va bir-birini inkor qiluvchilarni aniqlagan va sotsiometriya metodikasiga asos solgan edi.

Shunday qilib, muloqot odamlarning jamiyatda o'zaro hamkorlikdagi faoliyatlarining ichki psixologik mexanizmini tashkil etadi. Qolaversa, hozirgi yangi demokratik munosabatlar sharoitida turli ishlab chiqarish qarorlarini yakka tartibda emas, balki kollegial – birgalikda chiqarish ehtiyoji paydo bo'lganligini hisobga olsak, odamlarning muomala madaniyati va muloqot texnikasi mehnat unumdorligi xamda samaradorlikning muhim omillaridandir.

Muloqot jarayoni o'ziga xos ravishda murakkab bo'lib, bunda uch xil bosqich mavjud.

Dastlabki bosqich – odamning o'z-o'zi bilan muloqoti. T. Shibutani “Ijtimoiy psixologiya” darsligida: «Agar odam ozgina bo'lsa ham o'zini anglasa, demak, u o'z-o'ziga ko'rsatmalar bera oladi»— deb to'g'ri yozgan edi. Odamning o'z-o'zi bilan muloqoti aslida uning boshqalar bilan muloqotining harakterini va hajmini belgilaydi. Agar odam o'z-o'zi bilan muloqot qilishni odat qilib olib, doimo jamiyatdan o'zini chetga tortib, tortinib yursa, demak u boshqalar bilan suhbatlashishda, til topishishda jiddiy qiyinchiliklarni boshdan kechiradi, deyish mumkin. Demak boshqalar bilan muloqot— muloqotning ikkinchi bosqichidir.

A.N.Leont'ev o'zining “Psixika taraqqiyotidan ocherklar” kitobida muloqotning uchinchi shakli – avlodlar o'rtasidagi muloqotning ahamiyati to'g'risida shunday deb yozadi: «Agar barcha katta avlod o'lib ketganida, insoniyat turi yo'q bo'lib ketmasdi, lekin jamiyatning taraqqiyoti ancha orqaga surilibgina emas, balki yo'qolib ham ketishi mumkin edi». Haqiqatan ham, avlodlararo muloqotning borligi tufayli har bir jamiyatning o'z madaniyati, madaniy boyliklari, qadriyatlarini mavjud bo'ladiki, buning ahamiyatini tushungan insoniyatning eng ilg'or vakillari uni doimo keyingi avlodlar uchun saqlab keladilar hamda ta'lim, tarbiya va kundalik muloqot jarayonida uni avloddan-avlodga uzatadilar.

Muloqotning hayotimizdagi shakl va ko'rinishlariga kelsak uning har bir shaxsning hayotiy vaziyatlarga mos keladigan, o'sha vaziyatlardan kelib chiqadigan ko'rinishlari va turlari haqida gapirish mumkin. Lekin umumiy holda har qanday muloqot yo rasmiy yoki norasmiy tusda bo'ladi. Agar rasmiy muloqot odamlarning jamiyatda bajaradigan rasmiy vazifalari va xulq-atvor normalaridan kelib chiqsa, masalan, rahbarning o'z qo'l ostida ishlayotgan xodimlar bilan muloqoti, professorning talaba bilan muloqoti va hokazo, norasmiy muloqot — bu odamning shaxsiy munosabatlariga tayanadi va uning mazmuni o'sha suhbatdoshlarning fikr-o'ylari, niyat-maqсадlari va emotsional munosabatlari bilan belgilanadi. Masalan, do'stlar suhbatdoshi, poyezdda uzoq safarga chiqqan yo'lovchilar suhbatlari, tanaffus vaqtida talabalarning sport, moda, shaxsiy munosabatlar borasidagi munozaralari. Odamlarning asl tabiatlariga mos bo'lgani uchun ham norasmiy muloqot doimo odamlarning hayotida ko'proq vaqtini oladi va bunda ular charchamaydilar. Lekin shuni ta'kidlash kerakki, odamda ana shunday muloqotga ham qobiliyatlar kerak, ya'ni uning qanchalik sergapligi, ochiq ko'ngilligi, suhbatlashish yo'llarini bilish, til topishish qobiliyati, o'zgalarni tushunishi va boshqa shaxsiy sifatleri kundalik muloqotning samarasiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun hamma odam ham rahbar bo'lolmaydi, ayniqsa, pedagogik ishga hamma ham qo'l uravermaydi, chunki buning uchun undan ham rasmiy, ham norasmiy muloqot texnikasidan xabardorlik talab qilinadi.

Muloqot yo'nalishiga ko'ra, uning:

- ✓ ijtimoiy yo'naltirilgan (keng jamoatchilikka qaratilgan va jamiyat manfaatlaridan kelib chiqadigan muloqot);
- ✓ guruhdagi predmetga yo'naltirilgan (o'zaro hamkorlikdagi faoliyatni amalga oshirish mobaynidagi muloqot – mehnat, ta'lim jarayonidagi yoki konkret topshiriqni bajarish jarayonida guruh a'zolarining muloqoti);
- ✓ shaxsiy muloqot (bir shaxsning boshqa shaxs bilan o'z muammolarini ochish maqsadida o'rnatgan munosabatlari); pedagogik muloqot (pedagogik jarayonda ishtirok etuvchilar o'rtasida amalga oshiriladigan murakkab o'zaro ta'sir jarayoni) turlari farqlanadi.

Muloqotning turi va shakllari turlichadir. Masalan, bu faoliyat bevosita «yuzma-yuz» bo'lishi yoki u yoki bu texnik vositalar (telefon, telegraf va shunga o'xshash) orqali amalga oshiriladigan; biror professional faoliyat jarayonidagi amaliy yoki do'stona bo'lishi; sub'ekt – sub'ekt tipli (dialogik, sheriklik) yoki sub'ekt – ob'ektli (monologik) bo'lishi mumkin.

Har bir muloqot turining o'z qonun-qoidalari, ta'sir usullari va yo'l-yo'riqlari borki, ularni bilish har bir kishining, ayniqsa odamlar bilan doimo muloqotda bo'ladiganlarning burchidir.

Muloqot jarayonining murakkab psixologik tabiatini bilish, turli sharoitlarda samarali munosabatlar o'rnatish malakasini oshirish uchun uning tarkibiga kiruvchi har bir element yoki bo'laklar bilan alohida tanishib chiqamiz.

Muloqot murakkab jarayon bo'lganligi uchun ham ayrim olingan muloqot shaklini analiz qilganimizda, unda juda xilma-xil ko'rinishlar, komponentlar va

qismlar borligini aniqlashimiz mumkin. G.M.Andreyeva muloqotning quyidagi psixologik tuzilishini taklif etadi:

- ✓ Muloqotning kommunikativ tomoni (ya'ni muloqotga kirishuvchilar o'rtasidagi ma'lumotlar almashinuvi jarayoni).
- ✓ Muloqotning interaktiv tomoni (ya'ni muloqotga kirishuvchi tomonlarning xulq-atvorlariga ta'sir jarayoni).
- ✓ Muloqotning pertseptiv tomoni (ya'ni muloqotga kirishuvchi tomonlarning bir-birlarini idrok etishlari va tushunishlari bilan bog'lik bo'lgan murakkab psixologik jarayon).

Bu strukturaning har bir tomonini batafsil ko'rib chiqamiz.

Ko'pgina olimlar muloqotning inson hayotidagi ahamiyatiga to'xtalib o'tar ekanlar, uning qator vazifalari, funktsiyalarini ajratadilar. Masalan, taniqli rus olimi B.F.Lomov uning funktsiyalariga quyidagilarni kiritadi:

- a) ma'lumotlar almashinuvi funktsiyasi;
- b) xulq-atvorni boshqaruv funktsiyasi;
- v) hissiyotlar almashinuvi.

Bu funktsiyalar aslida G.M.Andreyeva ajratgan muloqot qismlariga ham mos keladi, ya'ni har bir muloqot jarayonida Lomov qayd etgan vazifalarni topish mumkin.

Motivatsiya xaqida umumiy tasniflar

Garchand psixologik adabiyotlarda ayniqsa yosh va pedagogik psixologiyaga oid manbalarda motiv va motivatsiya masalasi ko'p bora ko'tarilgan bo'lsa-da, batafsil yoritilmagan. Masalan, ayrim psixologlar maktabgacha yoshda ayrim tarqoq situatsion mayllar ma'lum motivlar tizimlariga aylanib borishini qayd etadilar. Biroq bu fikr atroflicha chuqurroq o'rganilmagan. Shunga muvofiq adabiyotlarda psixologlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar asosida motiv va motivatsiya tushunchasi turlicha talqin qilingan.

Eng keng tarqalgan ta'riflarga ko'ra, motiv – bu kishini faoliyatga undovchi kuch, sabab yoki ehtiyojlar yig'indisidan iboratdir. Motiv tushunchasiga olimlar tomonidan quyidagicha ta'rif beriladi:

A.Maslouning fikricha, motiv bu ehtiyojlar yig'indisidir.

S.L.Rubinshteynning ta'kidlashicha, motiv bu ehtiyojning his qilinishi va qondirilishi.

S.L. Rubinshteyn. «Motivatsiya – bu psixika orqali amalga oshuvchi determinatsiyadir».

A.N.Leont'ev – motivni inson faoliyatiga yo'nalgan aniq ehtiyojlar va uni qo'zg'atadigan voqelik deb hisoblaydi.

Motiv –ma'lum ehtiyojlarni qondirish bilan bog'liq faoliyatga undovchi sabab.

Motivatsiya keng ma'noda inson hayotining (uning xulq-atvori, faoliyatining) murakkab ko'p qirrali boshqaruvchisi deb qaraladi.

Motivatsiya – insonni faoliyatga undashning murakkab, ko'p darajali tizimi bo'lib, u o'zida ehtiyojlarni, motivlarni, qiziqishlarni, ideallarni, intilishlarni, ustanovkalarni, emotsiyalarni, normalarni, qadriyatlarini mujassamlashtiradi.

Motivatsiya – murakkab tuzilma, faoliyatni harakatlantiruvchi kuchlar majmuasi bo'lib, u o'zini mayllar, maqsadlar, ideallar ko'rinishida namoyon qiladi va inson faoliyatini bevosita aniqlab, boshqarib turadi.

Motivatsiya – odamni faol faoliyatga undovchi sabablar majmuidir.

V.S.Merlin motivlar tizimlarining ayrim jihatlarini ancha batafsil yoritib bergan. U motivlar tizimlarining shakllanish jarayonini quyidagicha tasavvur etadi: «turli motivlar bora-bora o'zaro bog'liq va bir-biriga tobe bo'lib boradi hamda oxir oqibatda motivlarning yaxlit tizimi vujudga keladi». V.S.Merlin fikricha, motivlar tizimining shakllanishi jarayonida nafaqat motivlar barqarorligi, balki motivlarni anglash kabi shartlar bajarilishini talab etiladi. Demak, V.S.Merlin bo'yicha motivlari tizimlari o'zaro bog'liq va bir-biriga tobe shaxs motivlarining bir butun yig'indisidan iborat. Ammo V.S.Merlin garchi motivlar tizimlarining ayrimlarini haqiqatdan ham muhim jihatlarini ko'rsatib o'tgan bo'lsa ham, motivlar o'rtasidagi tizimli munosabatlarni motivlar tizimlari va faoliyat ko'rsatish muammosini tadqiq etmagan.

Chet el psixologlari orasida A.Maslou ehtiyojlar iyerarxiyasi nazariyasi bilan mashhurdir. O'z nazariyasida A.Maslou ehtiyojlarning quyidagi iyerarxik qatorini ajratadi: fiziologik ehtiyojlar, xavfsizlikka bo'lgan ehtiyoj, muhabbat va boshqalar bilan bog'liq bo'lish ehtiyoji, hurmatga bo'lgan ehtiyoj, insonning o'z yashirin imkoniyatlarini to'laroq namoyon etish va ro'yobga chiqarish ehtiyoji va boshqalarni kiritadi. A.Maslou fikricha, muayyan ehtiyojning qondirilishi uchun avval iyerarxik qatorda undan oldingi ehtiyoj qondirilgan bo'lishi talab etiladi. Boshqacha qilib aytganda, A.Maslou kontsepsiyasida iyerarxiyada yuqori o'rinni egallovchi ehtiyojlar quyi o'rindagi ehtiyojlarga tobedir. A.Maslou kontsepsiyasida motivatsion jarayonlar boshqaruvida odam ongining ishtiroki, boshqaruvdagi roli e'tiborsiz qoldirilgan. Olim ehtiyojlar iyerarxiyasidagi vertikal munosabatlarni tahlil qilib, bir darajada joylashgan ehtiyojlar orasidagi gorizantal munosabatlar esa o'rganilmagan.

Mashhur nemis olimi Kurt Levin motivlar muammosi, ayniqsa, shaxsdagi ijtimoiy xulq motivlari borasida katta, keng qamrovli tadqiqotlar olib borib, shu narsani aniqlaganki, har bir odam o'ziga xos tarzda u yoki bu vaziyatni idrok qilish va baholashga moyil bo'ladi.

Motivatsiya tushunchasini turlicha ifodalash, motivatsiyaning mazmuni va energetik tomoni haqidagi muhim savol psixologlar tomonidan ifodalab berildi. Xorij psixologlari uchun motivatsiya tushunchasini xarakterli aniq bir tomonlama energetik faollik manbai sifatida qaraladi, ular mazmunli tomoniga e'tibor bermay, aniq mexanizmlar sifatida energiya, boshqaruv va xulq-atvorga taqsimlaydilar.

Ierarxik, darajaviy tuzilish – bu tizimlilik xususiyatiga ega bo'lgan hodisalarning bir jihatidir. Shu tufayli shaxs motivatsion sohasining iyerarxiyasini samarali tadqiq etish uchun uni motivatsion hodisalarning boshqa jihatlarini bilan aloqadorlikda o'rganish zarur bo'ladi. Motivatsion hodisalar tizimlilikini tadqiq etishda asosiy e'tibor esa bu hodisalar o'rtasidagi tizimli munosabatlarni o'rganishga qaratilishi kerak. Bu borada R.S.Vaysmanning shaxs motivatsion

sohasining tizimliliği haqida bildirilgan fikri alohida e'tiborga loyiq. Uning yozishicha, «Motivatsion sohaning tizimliliği – motivatsion o'zgaruvchilar o'rtasidagi aloqadorlik, xilma-xil munosabatlar mavjudligida namoyon bo'ladi. Shunday munosabatlardan biri iyerarxik munosabatdir. Yana bir turdagi munosabatni «ro'yobga chiqarish» munosabati deb atash mumkin. Bu munosabat shuni anglatadiki, har bir ehtiyojning qondirilishida turli motivlar yig'indisining ro'yobga chiqarilishi mumkin. Uchinchi turdagi munosabat shunda namoyon bo'ladiki, har xil ehtiyojlarning qondirilishida bir motiv ishtirok etadi yoki aksincha, bir ehtiyoj qondirilishida turli motivlar qatnashadi. Bunday munosabat «o'zaro tobelik» munosabati nomini oldi.

Geshtal't psixologiya maktabi namoyondalari uchun motivatsiya o'ziga xos talqinga ega bo'lib, uning mohiyatini eksperimental tarzda o'rganishga nisbatan intilish yuqori ko'rsatkichga ega ekanligi bilan boshqalardan ajralib turadi. K.Levin (1890-1947) motivlarni eksperimental o'rganish metodikasini ishlab chiqib, ularni mutlaqo mustaqil holat sharoitida tushuntirishga harakat qilgan va bu borada muayyan muvaffaqiyatlarga erishgan. Geshtal't psixologiya maktabining namoyondalariga obraz tushunchasi qanchalik o'ta ahamiyatli bo'lsa, K.Levinning maydon nazariyasi uchun motiv kategoriyasi xuddi shunday muhim ahamiyat kasb etadi. Obraz va motiv o'zaro aloqasiz hukm surishi ta'kidlanadi, motivatsiyani amalga oshiruvchi vaziyatning predmetli ma'noviy mazmuni esa inkor qilinadi.

K.Levin motivni quyidagicha ifodalaydi: motiv – muayyan muvaffaqiyatli mikrintervalda shaxsning bevosita yaqqol muhit bilan munosabatlaridan kelib chiquvchi voqelikdir. Uning mazkur nazariyasida insonda har xil ma'no anglatuvchi ikkita motivatsion o'zgarish hukm surishi tan olinadi. Geshtal't psixologlarning asarlarida shunday holatlar ham mavjudki, ularda xulq motivatsiyasi muammolari shaxsning muhim xususiyatlarini tahlil qilish negizidan kelib chiqib qaraladi. Ushbu holat G.Olport kontseptsiyasida yaqqol ko'zga tashlanadi. Uningcha, eng muhim jihat bu inson xulqini o'zgarish sabablarini ochishdir. Shuning bilan birga mazkur vaziyatga olib keluvchi motivlar omillarini tekshirishlari ham alohida ahamiyatga ega ekanligini anglab yetish qiyin emas.

Rus psixologlari orasida V.G.Aseyevning tadqiqotlarida motivatsion tizim masalasi ancha chuqur o'rganilgan. Uning fikricha, inson motivatsion sohasining ontogenetik taraqqiyoti davomida bu soha tizimli rivojlanishga nisbatan moyillikni namoyon etadi. Bu moyillik V.G.Aseyev ko'rsatishicha, stixiyali shakllanuvchi, undovchi kuchlarning kattaroq motivatsion birliklarni o'zaro qo'shib hosil qilishda namoyon bo'ladi. Motivatsion tizimning birligi sifatida V.G.Aseyev undovchi kuchlarni qayd etadi. Bu tushuncha doirasiga u motiv, ehtiyoj, qiziqish, intilish, maqsad, ideal, mayl, motivatsion ustanovka va boshqalarni kiritadi. Shunday qilib, V.G.Aseyev turli motivatsion hodisalar, mayl turlari o'rtasida tizimli munosabat mavjud deb hisoblaydi. Demak, bunday yondashuvda motivatsion tizim komponenti mayl bo'lib hisoblanadi.

V.G.Aseyev shaxs motivatsion sohasining tuzilishi muammosiga ham katta e'tibor beradi. Uning qayd etishicha, inson motivatsion sohasining tuzilishi

quyidagi xususiyatlarga ega: situatsion va impulsiv undovchilarning yonma-yon joylashganligi, shaxsiy mayllarning mazmun va dinamik sifatlariga ko'ra bir-biriga yaqinligi. Bu xususiyatlar motivatsiyaning tizimli sifatlarini o'rganishda katta ahamiyatga ega.

Ayrim tadqiqotchilar masalan, V.E.Chudnovskiy, V.I.Kovalev motivlar tizimi va shaxs yo'nalishi o'rtasida aloqadorlik mavjudligini qayd etmoqda. P.T.Yakobson esa xulq-atvor motivatsiyasi muayyan qadriyatlar tizimlari bilan bog'liqligini ta'kidlab, motivlarni shaxs qadriyatlari oriyentatsiyasiga tobe birliklar sifatida o'rganishni taklif etadi. Uning fikricha, bunday izlanish ijtimoiy psixologik yo'nalishda amalga oshirilishi kerak.

Motivlar tizimi tushunchasiga berilgan ancha keng ta'riflarni adabiyotlarda uchratish mumkin. Jumladan, V.S.Morozovning qayd etishicha, «Shaxs motivlar tizimini uning sub'ektiv ehtiyojlari, maqsadlari, g'oyalari, qarashlari, tasavvurlari shuningdek, intilishlari, shakllari va boshqalar tashkil etadi». Bunday ta'rifda «tizim» tushunchasi qanday ma'noda qo'llanilayotgani ancha noma'lum. Uni aniqlashtirish talab etiladi.

Yuqorida tilga olingan muammolar bilan shaxs motivatsion sohasining darajaviy tuzilishi muammosi bevosita bog'liq. Psixik hodisalarning darajaviy tuzilishi g'oyasi psixologiyada keng tarqalgan va tadbiq etib kelinmoqda va bu bejiz emas, zero darajali tuzilish haqidagi tasavvurlar turli psixik hodisalarning muayyan tizimga keltirilgan modellarini hosil qilish imkoniyatini beradi. Shaxs motivatsion sohasida o'z darajasi va murakkabligiga ko'ra turlicha bo'lgan motivatsion hodisalarning mavjudligi darajaviy tuzilishi haqidagi g'oyalarning bu yo'nalishda ham samarali qo'llash uchun sharoit yaratadi.

Inson motivatsion sohasining iyerarxik darajaviy tuzilishi masalasi motivatsiya bilan bog'liq eng o'tkir va keskin bahslarga sabab bo'luvchi muammolardan biridir. Hozirgacha alohida olingan motivatsion hodisalarning iyerarxik tuzilishi ehtiyojlar iyerarxiyasi va boshqalar tadqiq etib kelingan. Ammo barcha motivatsion hodisalarning yagona iyerarxik tuzilishi haqidagi masala yetarlicha o'rganilmagan.

Rus psixologlari orasida motivlar iyerarxiyasi masalasi A.N.Leont'ev, L.I.Bojovich va boshqalar tomonidan o'rganilgan. A.N.Leont'ev XX asrning 40-yillarida maktabgacha yosh davrida shaxs shakllana boshlashini ta'kidlar ekan, bu jarayon bolada motivlar iyerarxiyasi tarkib topishi bilan bog'liqligini uqtirgan edi. A.N.Leont'ev fikricha, sub'ektning tashqi olam bilan birga munosabatlari kengayib borgan sayin motivlarning o'zaro solishtirilishi yuz beradi, buning oqibatida esa ular o'rtasida iyerarxik munosabatlar shakllanadi. Motivlar iyerarxiyasi olimning fikriga ko'ra, motivlar funktsiyalari bilan belgilanadi. Boshqacha qilib, aytganda iyerarxiyada yuqori o'rinni, ma'no hosil qiluvchi funktsiyani bajaradigan motivlar quyi o'rinni esa stimulyativ motiv egallaydi. Demak, A.N.Leont'ev motivlar funktsiyasining ikki darajasini: ma'no hosil qiluvchi va stimulyativ darajalarini ajratadi. Ammo A.N.Leont'ev o'z nazariyasida motivlar iyerarxiyasining shakllanish jarayonida shaxsning sub'ektiv, faol roli qanday bo'lishini ko'rib chiqmaydi.

Shaxsning jamiyatdagi ijtimoiy xulqi va o'z-o'zini qanday tutishi egallagan mavqei ham sababsiz o'z-o'zidan ro'y bermaydi. Faoliyatning amalga oshishi va shaxs xulq-atvorini tushuntirish uchun psixologiyada «motiv», «motivatsiya» tushunchalari ishlatiladi.

Shaxsning jamiyatda odamlar orasidagi xulqi va o'zini tushunishi sabablarini o'rganish tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan narsa bo'lib, masalani yoritishning ikki jihati farqlanadi: a) ichki sabablar, ya'ni holati, harakat egasining sub'ektiv psixologik xususiyatlari nazarda tutiladi (motivlar, ehtiyojlar, maqsadlar, mo'ljallar, istaklar, qiziqishlar va hokazolar); b) tashqi sabablar – faoliyatning tashqi shart-sharoitlari va holatlari, ya'ni bular aynan aniq holatlarni keltirib chiqarishga sabab bo'ladigan tashqi stimullardir.



Nazorat savollari

1. Faoliyat tushunchasining mohiyatini izohlang?
2. Faoliyatning tuzilishi xususida nimalarni bilasiz?
3. Faoliyatning interorizasiyasi va ekstrorizasiyasi tushunchasining mohiyatini izohlang?
4. Muloqot tushunchasiga ta'rif bering.
5. Shaxslararo muomalaning shaxs taraqqiyotidagi o'rni qanday?
6. Muloqotning qanday shakllari va bosqichlari bor ?



Tavsiya qilinuvchi adabiyotlar:

1. Андреева Г. М. Социальная психология: Учеб. пособие. – М., 2008.
2. Введение в практическую социальную психологию/ Под ред. Ю.Жукова, Л.Петровской, О.Соловьевой. – М., 1996.
3. G'oziyev E. G'. Sotsial psixologiya. Toshkent, 2010.
4. Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya. – Toshkent, 2012.
5. Крысько В.Г. Социальная психология. – М., 2010.
6. Майерс Д. Социальная психология. – М., 2010.
7. Парыгин В.Д. Основы социально-психологической теории. М., 2001.
8. Петровский А.В. Социальная психология. – М., 2003.



21-MAVZU: BILISH JARAYONLARI. DIQQAT. SEZGI. IDROK. XOTIRA. XAYOL. TAFAKKUR VA NUTQ.

Reja:

1. Sezgi, diqqat, idrokning inson hayotidagi o'рни.
2. Xotira va xayol bilish jarayonlari sifatida.
3. Tafakkur va nutq inson intellektini rivojlanishidagi roli.

Tayanch tushunchalar: Bilish jarayonlari, diqqat, sezgi, idrok, xotira, xayol, tafakkur, nutq, intellekt, kognitiv, analizator, ekstroreseptiv, interoreseptiv sezgi, proprioseptiv sezgi.

Sezgi, diqqat, idrokning inson hayotidagi o'рни

Ma'lumki bizni o'rab turgan tashqi olamdagi narsa va hodisalarning juda ko'p belgi va xususiyatlari mavjud. Masalan, narsalarning rangi, ta'mi, hidi, qattiq yoki yumshoqligi, g'adir-budur yoki tekisligi, harorat va boshqalar. Ana shu narsa va hodisalarning turli xil belgi, xususiyatlarini biz ham turlicha sezgi a'zolarimiz orqali ongimizda aks ettiramiz.

Tevarak-atrofimizdagi narsa va hodisalarning turli xil belgi hamda xususiyatlari har doim ham bizning sezgi a'zolarimizga ta'sir etib turadi. Natijada bizda turli sezgilar hosil bo'ladi. Chunonchi, nurlarning ko'zimizga ta'sir qilishi natijasida ko'rish sezgisi, har xil tezlik va kuchlanishdagi havo to'lqinlarining quloqimizga ta'sir etishi natijasida eshitish sezgisi, nafas olish paytida havo bilan birga burun bo'shlig'iga kirgan har turli modda zarrachalarining ta'siri natijasida hid sezgisi, biror narsani qo'limiz yoki badanimizga tegib ta'sir etish natijasida teri (taktil - biror narsaning terimizga tegishi) yoki bosim sezgisi va shu kabi sezgilar har doim hosil bo'ladi.

Demak, **sezgi deb**- atrofimizdagi narsa va hodisalarning sezgi a'zolarimizga bevosita ta'sir etishi natijasida ularning ayrim belgi va xususiyatlarini miyamizda aks ettirilishini aytamiz.

Sezgi bilish jarayonlari ichida oddiy psixologik jarayon bo'lib, tashqi olamdagi narsa va hodisalarni aks ettiradi. Tashqi olamdan kelayotgan qo'zg'atuvchilarning muayyan reseptorlarga bevosita ta'sir etish orqali ayrim belgi va xususiyatlarni va organizm ichki holatini aks ettiradi. Ma'lumki, insondan sezishning dastlabki bosqichi hissiy bilishdan boshlanib, keyinchalik u mantiqiy

bilishga o'tadi. Sezgi ham oddiy psixologik jarayon bo'lgani bilan uning yuzaga kelishi o'z-o'zidan hosil bo'lmaydi. Ular jumlasiga quyidagilar kiradi:

- Sezgi a'zolariga ta'sir etadigan narsa va hodisaning bo'lishi.
- Sezuvchi apparat, ya'ni analizatorning mavjud bo'lishi.

Masalan, havoning sovuqligini, temirning qattiqligini, qorning yumshoqligi va boshqalarni sezamiz.

Sezgi idrok bilan bog'liq bo'ladi, lekin narsa va hodisani idrok qilishdan oldin uni sezish lozim, shu bois sezgilar materiyaning sezgi a'zolarimizga ta'siri natijasidir. Sezgi axborotlarini qabul qilib, tanlab, to'plab, har bir sekundda axborotlar oqimini qabul qilib va qayta ishlab miyaga yetkazib beradi. Natijada tevarak - atrofdagi tashqi olamni va organizm o'z ichki holatini adekvat "mos" aks ettirishi hosil bo'ladi. Sezgi a'zolari tashqi olamning inson ongiga olib kiradigan yo'llaridan biridir.

Sezgilar tasnifi va turlari.

Sezgilar qaysi a'zolar yordamida hosil qilinishiga qarab, quyidagi turlarga, ya'ni ko'rish, eshitish, hid bilish, ta'm bilish, teri, muskul-harakat, organik sezgilarga ajratiladi. Ular sezgi a'zolari qayerda joylashganligiga qarab tavsiflanadi.

Jahon psixologiyasi fanining so'nggi yutuqlari hamda atamalariga binoan sezgilar quyidagicha klassifikasiya qilinadi. Ushbu tasniflanishning dastlabki ko'rinishi ingliz olimi **Ch.Sherringtonga** taalluqlidir. U reseptorning qayerda joylashganligiga qarab, sezgilarni uch turga bo'ladi.

✓ Tashqi muhitdagi narsa va hodisalarning xususiyatlarini aks ettirishgamoslashgan hamda reseptorlari tananing sirtqi qismida joylashgan sezgilar, ya'ni **ekstroreseptiv sezgilar**;

✓ Ichki tana a'zolari holatlarini aks ettiruvchi hamda reseptorlari ichki tana a'zolarida, to'qimalarda joylashgan sezgilar, ya'ni **interoreseptiv sezgilar**.

✓ Tanamiz va gavdamizning holati hamda harakatlari haqida ma'lumot (axborot, xabar) beruvchi muskullarda, bog'lovchi paylarda, mushaklarda joylashgan sezgilar, ya'ni **proprioseptiv sezgilar**.

Sezgilar tasnifi va bu boradagi tadqiqotlarni tahlil qilamiz. Dastlabki mulohazalar interoreseptiv sezgilar u borasida rus psixologi **A.R.Luriya** tadqiqot ishini olib borgan. Uning fikricha, interoreseptiv sezgilar asl, tub, ma'nodagi sezgilar emas, balki emosiyalar bilan sezgilar o'rtasidagi oraliq sezgilar sifatida namoyon bo'ladi. Psixologiya fanida mazkur sezgilar to'la o'rganilmaganligi sababli uni "*noma'lum hislar*" deb atalgan. Bu asosan ichki organlarning xastaliklarida vujudga keluvchi holatlarni diagnostika qilishda alohida ahamiyat kasb etadi.

Interoreseptiv sezgilar insonning kayfiyatida, emosional reaksiyalari o'zgarishida ko'zga tashlanadi, bolada esa xatti-harakatning keskin o'zgarishiga sabab bo'ladi. Chunki bola tana a'zolaridagi ichki holatini anglash, his qilish imkoniyatiga ega emas. Shuning uchun undagi xatti-harakatning umumiy o'zgarishi belgilardan buni sezish mumkin.

Interoreseptiv sezgilar organizmdagi ichki jarayonlarni o'zaro o'rin almashtirish muvozanatini ta'minlab turishning asosi hisoblanadi. Bu jarayonni bir so'z bilan aytganda, organizmdagi jarayonlarni o'zaro o'rin almashib turishning gemostazi (barqarorligi) deb ataladi. Shuningdek, mazkur sezgilar insonda yuzaga keladigan puls, zo'riqish, affekt holatlarini yo'qotish, tug'ilib kelayotgan mayllarni qondirish bilan bog'liq vazifani bajaradi. Natijada ichki tana a'zolarining faoliyatini izdan chiqarish holati yuz berishi mumkin.

Interoreseptiv sezgilarning fiziologik mexanizmlari intero-sepsiya bilan birgalikda **K.M.Bikov, V.N. Chernigovkiylar** tomonidan atroflicha o'rganilgan. Ularning fikriga ko'ra, bu narsalarning barchasi shartli reflektor faoliyati mexanizmlaridan kelib chiqadi

Proprioseptiv sezgilar gavdaning fazodagi holati to'g'risida signallar bilan ta'minlab turadi. Ular inson harakatining boshqaruvchisi hisoblanib va afferent asosini tashkil qiladi.

Pereferik reseptorlar muskullar, pay va bo'g'imlarda joylashgan bo'lib, maxsus tanachalar shakliga ega va ular Puchchini tanachalari deb ataladi.

Tanachalarda vujudga keluvchi qo'zg'atuvchilar muskullarning harakatlashuvi natijasida va bo'g'imlar holatining o'zgarishi, nerv tolalari yordamida, orqa miyaning orqa ustunidagi oq suyuqligiga etkaziladi. qo'zg'ovchilar Burdax va Goll yadrosining quyi bo'limlariga yetib keladi va undan po'stosti tugunchalaridan o'tib, bosh miya katta yarim sharining qoronqulashgan zonasida harakatlarini yakunlaydilar.

Sezgi turlari

Psixologiya fanida uchta katta guruhga ajratilgan sezgilar (ekstroreseptiv, proprioreseptiv, introreseptiv) o'z navbatida quyidagi turlarga ajratiladi:

- Ko'rish sezgilari;
- Eshitish sezgilari;
- Hid bilish sezgilari;
- Ta'm bilish sezgilari;
- Teri sezgilari;
- Muskel - harakat (kinestetik);
- Statistik sezgilar;

- Organik sezgilar;

Idrok sezgilarga nisbatan murakkab va mazmundor psixik jarayon bo'lib, barcha ruhiy holatlar, xususiyatlar, xossalar va inson ongining yaxlit mazmuni egallangan bilimlar, tajribalar, ko'nikmalar bir davrning o'zida namoyon bo'ladi, aks ettirishda ishtirok etadi.

Idrok sezgiga nisbatan bir muncha murakkabroq, to'laroq aks ettirish jarayoni bo'lib, sezgi a'zolarimizga ta'sir etib turgan narsa va hodisalarni butun belgi hamda xususiyatlari bilan butunligicha, ya'ni yaxlit aks ettirishdan iboratdir. Masalan, olmani ko'rgan paytimizda uning shakli, rangi, ta'mi, hidi va navi bilan birgalikda bir butun narsa tarzida idrok etamiz. Demak, idrok qilish jarayonida deyarli barcha sezgilarimiz qatnashadi.

Shuning uchun ham idrok sezgiga nisbatan ancha murakkab aks ettirish jarayonidir.

Odamga har bir daqiqada atrof-muhitdan juda ko'p narsa va hodisalar ta'sir etib turadi. Lekin odamga ta'sir etayotgan bu narsa va hodisalarning hammasi bir xil aniqlikda aks ettirilmaydi. Ulardan ayrimlari aniq yaqqol aks ettirilsa, boshqa birlari shunchaki juda xira aks ettiriladi, yoki umuman aks ettirilmaydi. Bu esa ana shu odamga ta'sir etayotgan narsalarga diqqatning qay darajada qaratilishiga bog'liqdir. Demak, diqqatimiz qaratilgan narsa va hodisalar aniq va to'la aks ettiriladi.

Diqqat tushunchasiga olimlar tomonidan bir qator ta'riflar keltirilganligini ta'kidlash mumkin. P.I.Ivanov tomonidan **diqqat** deb- ongni bir nuqtaga to'plab muayyan bir ob'ektga aktiv qaratilishga aytiladi. F.N.Dobrinin, N.V.Kuzmina, I.V.Straxov, M.V.Gamezo, N.F.Gonobolin va boshqalarning fikricha, diqqatning vujudga kelishi ongning bir nuqtaga to'planishi ong doirasining torayishini bildiradi, g'uyoki ong doirasi bir muncha tig'izlanadi.

E.B.Pirogovaning ta'kidlashicha, tomonidan diqqat individning hissiy, aqliy yoki harakatlantiruvchi faolligi darajasining oshirilishini taqazo etadigan tarzda ongning yo'naltirilganligi va biror narsaga qaratilganligidir. Diqqat shunday muhim jarayondirki, u odamning barcha faoliyatlarida albatta ishtirok qiladi. Eng sodda faoliyatdan tortib eng murakkab faoliyatni ham diqqatning ishtirokisiz bajarish mutlaqo mumkin emas. Shuning uchun diqqatning inson hayotidagi roli benihoya kattadir. Jumladan, fransuz olimi Kyuve geniallikni chidamli diqqat deb ta'riflashi, Nyutonning kashfiyot fikrni doimo shu masalaga qaratilish jarayoni, deyishi, **K.D.Ushinskiyning** *“diqqat ruhiy hayotimizning shunday yagona eshigidirki, ongimizga kiradigan narsalarning barchasi shu eshik orqali o'tib kiradi”* degan fikrlari uning ahamiyatini bildiradi. haqiqatdan ham diqqat eshigidan tashqarida qolgan narsa ongimizga yetib bormaydi.

Odam biror narsaga zo'r diqqat bilan kirishgan paytida uning tashqi qiyofasida ayrim o'zgarishlar ko'zga tashlanadi. Demak, diqqat odatda o'zining sirtqi ya'ni tashqi alomatlariga egadir.

Birinchidan, diqqat qaratilgan narsani yaxshi idrok qilish uchun unga muvofiqlashishga urinishdan iborat harakatlar (tikilib qarash, quloq solish) qilinadi.

Ikkinchidan, ortiqcha harakatlar to'xtaydi. Jiddiy diqqatning xususiyatlaridan biri qimirlamasdan jim turishdir. Masalan, auditoriya va teatr zalidagi jimlik diqqat vaqtidagi harakatsizlik natijasi bo'lib, bu jimlik odamlar ma'ruzachini yoki artistni zo'r e'tibor bilan tinglashayotganini anglatadi.

Uchinchidan, kuchli diqqat paytida kishining nafas olishi sekinlashib va pasayib qoladi.

Demak, diqqat paytida organizm reseptorlarimiz alohida holatda bo'ladi. Ammo bu holat diqqatning faqat tashqi ifodasi bo'libgina qolmay, balki uning ma'lum yo'nalishi va barqarorligini saqlab turuvchi shartlardan biri hamdir. Shuning uchun ko'pincha biror ishni bajarishdan avval organizmimizni shu ishga moslab muayyan bir holatda tutib olamiz.


Diqqat turlari

Odam ayrim narsalarga o'z diqqatini ongli ravishda o'zi hohlab qaratsa, boshqa bir narsalar diqqatni beixtiyor ya'ni bizning hohishimizdan tashqari jalb qiladi. Odam psixik faoliyatining muayyan ob'ektga yo'naltirilishi va to'planishida ifodalanadigan diqqat quyidagi turlarga bo'linadi.

- **Diqqatning aktivligiga qarab** - ixtiyorsiz, ixtiyoriy va ixtiyoriydan so'nggi diqqat.
- **Diqqatning ob'ektiga qarab** - tashqi va ichki diqqat.
- **Diqqatning faoliyat turlariga qarab** - individual, guruhliy va jamoaviy diqqat

Ayrim adabiyotlarda diqqatning ikkita va ayrimlarida uchta deb ko'rsatiladi. Ular ixtiyorsiz diqqat, ixtiyoriy diqqat va ixtiyoriydan so'nggi diqqat turlaridan iboratdir.

Diqqat turlarida insonda yuzaga keladigan holatlar quyidagi jadvalda aks ettirilgan.



Ixtiyorsiz diqqat deb to'satdan ta'sir qilgan biror sabab tufayli bizning hohishimizdan tashqari hosil bo'ladigan diqqatga aytiladi.

Odamning ko'z o'ngida paydo bo'ladigan juda yorqin rangli narsalar, o'zining tashqi ko'rinishi jihatidan odatdagi narsalardan keskin farq qiluvchi predmetlar, to'satdan paydo bo'lgan qattiq tovush, biror narsaning keskin harakati va shu kabilar ixtiyorsiz diqqatni yuzaga keltiruvchi sabablar bo'lishi mumkin. Masalan, hikoya o'qish mashg'uloti paytida to'satdan uchib o'tgan reaktiv samolyotning qattiq va bahaybat tovushi hammaning diqqatini beixtiyor o'ziga jalb qiladi.

Ixtiyorsiz diqqat odamning har turli ehtiyojlari va qiziqishi bilan bevosita bog'liq bo'lgan diqqatdir. Shuning uchun ham ayni chog'dagi ehtiyojlarimiz, qiziqishlarimiz bilan bog'liq bo'lgan narsalarning ta'siri ixtiyorsiz diqqatga sabab bo'ladi. Masalan, erkin o'yin paytida zaldan eshitib qolgan bolani qiziqtirgan musiqa ovozi uning diqqatini o'yindan darhol o'ziga jalb qilib oladi.

Ixtiyorsiz diqqatning nerv-fiziologik asosini orientirovka yoki bu nima? refleksi tashkil qiladi. Chunki tevarak-atrofimizdagi narsalarning salgina o'zgarishi bizda darhol orientirovka refleksini yuzaga keltiradi. Boshqacha qilib aytganda, "nima gap?" degan ma'noda atrofimizga razm sola boshlaymiz.

Ixtiyoriy diqqat deb-oldindan belgilangan qat'iy bir maqsad asosida va ongli ravishda diqqatimizni ma'lum bir narsa va hodisalarga qaratishimizga aytiladi.

Odamning ko'pchilik faoliyatlari asosan ixtiyoriy diqqatning ishtiroki bilan amalga oshiriladi. Shuning uchun barcha faoliyat turlarida, ya'ni o'qish, o'yin va mehnat faoliyatlarida ixtiyoriy diqqatning roli juda kattadir. Ixtiyoriy diqqat ixtiyorsiz diqqatga nisbatan uzoq vaqt mobaynida davom etadigan diqqat turi bo'lib, u zo'r berishlikni, ya'ni irodaviy kuch sarf qilishlikni talab etadi.

Ixtiyoriy diqqatning nerv fiziologik asosida miya yarim sharlarining po'stida vujudga keladigan optimal qo'zg'alish manbai bilan ikkinchi signallar sistemasining faoliyati yotadi. Ixtiyoriy diqqatning yuzaga kelishida nutqning roli g'oyat kattadir. Chunki ko'pchilik hollarda hoh ta'lim jarayonida bo'lsin, hoh mehnat jarayonida bo'lsin nutq orqali turli vazifalar qo'yish bilan ixtiyoriy diqqat ishga solinadi. Shuni aytish lozimki, ixtiyoriy diqqat har doim ixtiyorsiz diqqat bilan almashinib turadi. Ixtiyoriy diqqat vaqtida odam tez charchaydi, chunki ixtiyoriy diqqat odamdan hamma vaqt iroda kuchini sarflashni talab etadi. Iroda kuchini sarflash orqali, ya'ni odam o'zini majbur qilish orqali diqqatni safarbar qilishi odamni charchatadi. Ixtiyorsiz diqqatda esa hech qanday iroda kuchini ishga solish talab etilmaydi. Shuning uchun ixtiyorsiz diqqatda odam charchamaydi. Ana shu jihatdan olganda ta'lim va mehnat jarayonida ixtiyoriy diqqatning vaqti-vaqti bilan ixtiyorsiz diqqatga o'tib turishi yaxshi bo'ladi.

Ixtiyoriy va ixtiyorsiz diqqatdan tashqari uning yana bir alohida turini ixtiyoriydan so'nggi diqqatni ko'rsatib o'tish mumkin. Bu tushuncha psixologiyaga N.F.Dobrinin tomonidan kiritilgan.

Shaxs tevarak-atrofdagi narsa va hodisalarning faqat ayrim xossalarini ongda aks ettirib qolmaydi, balki ularning barcha xossalarini birgalikda bir butun holda ham aks ettiradi.

Psixologik adbiyotlarda idrok tushunchasiga turlicha ta'riflar uchraydi. Jumladan M.Vohidovning "Psixologiya" darsligida **idrok** deb sezgi a'zolarimizga ta'sir etayotgan narsa va hodisalarni yaxlit holicha aks ettirishga aytiladi, deb keltiriladi.

V.Karimovanning "Psixologiya" o'quv qo'llanmasida **idrok** bu bilishimizning shunday shakli, u borliqdagi ko'plab xilma-xil predmet va hodisalar orasida bizga ayni paytda kerak bo'lgan ob'ektni xossa va xususiyatlari bilan yaxlit tarzda aks ettirishimizni ta'minlaydi.

Keltirilgan ta'riflardan kelib chiqqan holda idrokka quyidigicha ta'rif berish mumkin: **Idrok**-deb sezgi a'zolariga bevosita ta'sir etib turgan narsa-hodisalar obrazlarini kishi ongida bir butun holda aks ettirilishiga aytiladi.

Kishi narsa-hodisalarning ayrim xossalarini sezadi. Uni bir butun holda idrok qiladi. Chunki narsa va xossa bir-biridan ajralgan holda mavjud bo'lmaydi. Odam narsalarni idrok qilayotganda uning ayrim xossalarini sezadi. Masalan: chaqmoq qandni idrok qilinadi, uning shirinligi seziladi. quyoshni idrok qilinadi, uning issiqligi seziladi va boshqalar.

Idrok qo'zg'atuvchilarning ayrim xususiyatlarini aks ettiruvchi sezgilardan farq qilib, narsani butunligicha, yaxlitligicha, uning hamma xususiyatlari bilan birgalikda aks ettiriladi. Shuning uchun idrok ayrim sezgilarning oddiy yig'indisidan iboratdir, degan xulosa chiqarib bo'lmaydi. Idrok o'ziga xos tuzilishga ega bo'lgan hissiy bilishning sifat jihatidan yangi yuksakroq bosqichidir.

Idrokning muhim tomonlaridan biri - uning xususiyatlarini turli jabhalar, vaziyatlar, sharoitlarda namoyon bo'lishidir. Idrokning muhim xususiyatlaridan biri - bu faol ravishda bevosita aks ettirish imkoniyatining mavjudligidir. Odatda insonning idrok qilish (persektiv) faoliyatini uning o'zlashtirilgan bilimlari, to'plagan tajribalari shuningdek, murakkab analitik-sintetik harakatlar tizimi zahirida yuzaga keladi.

Idrokning yana bir muhim xususiyati, uning narsa va hodisalarni umumlashgan holda aks ettirilishidir. Ma'lumki, inson psixikasiga kirib borayotgan ko'p qirrali, ko'p yoqlama amallari idrok qilish bilan cheklanib, chegaralanib qolmasdan, balki o'sha majmua aniq qism yoki hodisa sifatida baholanadi.

Idrokning navbatdagi xususiyati uning harakatchanligi va boshqaruvchanligidir. Masalan: toshko'mir yoruqlikda yoqdu sochadi, oq qog'ozdan ko'proq nur balqiydi. Lekin inson bu narsalarni "qora" va "oq" deb idrok qiladi, vujudga kelgan bevosita sub'ektiv taassurotlarga nisbatan o'zgartirishlar, tuzatishlar kiritadi.

Idrok jarayonida deyarli barcha sezgilarimiz ishtirok etsa ham idrok sezgilarimizning oddiy yig'indisidan iborat deb bo'lmaydi. Idrok jarayonida turli sezgilarimizdan tashqari odamning shu paytgacha orttirilgan turmush tajribasi ham ishtirok etadi. Odam o'z turmush tajribasida juda ko'p narsa va hodisalarni takror-

takror idrok qilgani tufayli odamning idroki anglanilgan xarakatlarga egadir. Shuning uchun yetarli turmush tajribasiga ega bo'lgan odam (ya'ni katta yoshli odamlar) idrok qilayotgan narsasi nima ekanligini anglashga yordam beradi. hech qanday turmush tajribasiga ega bo'lmagan odam, (ya'ni chaqaloq, bolalar) idrok qilayotgan narsasi nima ekanini hali mutlaqo bilmaydi.

Idrok jarayoni shunchaki oddiy aks ettirishdan iborat emas. Idrok jarayonida odamning diqqati, xotirasi, tafakkuri, xayoli, hissiyoti va irodasi ishtirok etadi. Chunonchi, odam diqqatini qaratmasdan (yo'naltirmasdan) birorta narsani ham mutlaqo idrok eta olmaydi.

Diqqat qaratilgandagina ta'sir etayotgan narsa va hodisalarni ravshan idrok etamiz. Idrok jarayonida odamning ilgari orttirgan turmush tajribasi ishtirok qilar ekan, binobarin idrok jarayoni odamning xotirasi bilan bog'liqdir.

Idrokda har doim xususan tanish jarayoni ishtirok etadi. Tanish jarayoni qatnashayotganini tufayli odam idrok qilayotgan narsalarini darrov anglab ola biladi. Mashhur rus fizologlaridan **I.I.Sechenovning** ta'kidlashicha, odam hozirgi idrokidan hosil bo'lgan obrazlar ilgari idrokida vujudga kelgan va xotirasida saqlanib qolgan obrazlar bilan taqqoslab ko'radi. Agar hozirgi idrokdan hosil bo'lgan obraz ilgari xuddi shu narsani idrok qilishdan vujudga keltirilgan obrazga

to'la mos kelsa, ayni choqda idrok qilayotgan narsasini taniydi. Aksincha, agar hozirgi idrokdan hosil bo'lgan obraz ilgari obrazga mos kelmasa, ya'ni ayni chog'da idrok qilayotgan narsani odam tanimasa idrok davom ettirila beradi. Idrok jarayonida nutq va tafakkurning qatnashishi shunda namoyon bo'ladiki, har bir idrok nihoyasiga borib, hukm shaklida, ya'ni chigal gap shaklida ifodalanadi. Chunonchi odamni yoki biror idishni idrok qilayotganimizda idrokimizni, "bu piyola" deb tugallaymiz. Narsalarning nomini atash bilan idrokimizning mazmunini ravshanlashtiramiz. Agar idrok jarayonida narsalarning nomini atay olmasak, ya'ni idrok qilayotgan narsalar bizga notanish qandaydir yangi narsalar bo'lsa, unday paytda idrok jarayonidagi tafakkur faollashib ketadi. Odam idrok qilayotgan narsasi nima ekanligi haqida o'ylay boshlaydi.

Idrok jarayonida xayolning qatnashishi shunda ko'rinadiki, odam o'zidan allanimalarni qo'shib, idrok qilayotgan narsasidan hosil bo'lgan obrazning mazmunini kengaytirib yuboradi. Masalan, osmondagi to'da-to'da bulutlarga qarab, ularning shaklini nimalargadir o'xshatish mumkin. Idrok jarayonida xayolning ishtirok qilishi, xususan, bolalarda yaqqol ko'rinadi.

Idrok jarayonida his-tuyg'ularning ishtirok qilishi shu idrok qilayotgan narsalarimizga nisbatan hosil bo'ladigan munosabatlarimizda ko'rinadi. Odam idrok qilayotgan hamma narsalarga nisbatan bir xilda munosabatda bo'lmaydi. Agar odam ilgari biror narsani idrok qilayotgan paytda qattiq xafa bo'lgan, kayfiyati buzilgan bo'lsa, shu narsani yana ikkinchi marta idrok qilganda yana hissiyotlarga nisbatan bo'lsa ham sodir bo'ladi. Bundan tashqari idrok hissiy holatning ishtiroki yana shunda ochiq ravshan ko'rinadiki, odam qattiq qo'rqinch hissini boshidan kechirayotgan paytda idroki yanglish bo'ladi, ya'ni kuchli hissiy holat ta'sirida ayrim narsalar boshqacha bo'lib ko'rinadi. Chunonchi kechasi

qorong'i ko'chada qo'rqib kelayotgan odamga ro'parasidagi to'nka pisib, poylab, o'tirgan odamga o'xshab ko'rinadi. Shuning uchun ham "qo'rqqanga qo'sha ko'rinar" degan xalq maqoli bejiz aytilgan emas. Aksincha, odamning kayfiyati choq, xursand paytida hamma idrok qilayotgan narsalari chiroyli va yoqimli bo'lib tuyuladi.

Xotira va xayol bilish jarayonlari sifatida.

Xotira biz ilgari idrok qilgan, boshdan kechirgan va bajargan ishlarimizni yodda saqlash, keyinchalik ularni eslash yoki xotirlash jarayonidir. Biz har kuni yangi narsalarni bilamiz, kun sayin bilimlarimiz boyib boradi. Xotira faoliyatida shaxsning g'oyaviy yo'nalishi katta o'rin egallaydi. Bu yo'nalish uning faoliyatini hayot sharoiti ta'sirida shakllantiradi. Kishi o'zining shu faoliyati uchun muhim bo'lgan voqea, hodisalarni yaxshi eslab qoladi. Aksincha, kishi uchun kam ahamiyatga ega bo'lgan narsalar yomon esda qoldiriladi va tezda unutib yuboriladi. Shu o'rinda xotira borasidagi ta'riflarga qaytsak, ko'pgina adabiyotlarda xotira tushunchasi quyidagicha ta'riflanadi. "Individning o'z tajribasida esda olib qolishi, esda saqlashi va keyinchalik uni yana esga tushirishi xotira deb ataladi". Lekin mazkur ta'riflarni tahlil qilgan professor **E.G'.G'oziev** tomonidan xotira tushunchasiga quyidagicha ta'rif beriladi. *"Xotira atrof-muhitdagi voqelik (narsa)ni bevosita va bilvosita, ixtiyoriy va ixtiyorsiz ravishda, passiv va faol holda, reproduktiv va produktiv tarzda, verbal va noverbal shaklda, mantiqiy va mexanik yo'l bilan aks ettiruvchi esda olib qolish, esda saqlash, qayta esga tushirish, unutish hamda tanish hissidan iborat psixik jarayon. Alohida va umumiylik namoyon qiluvchi ijtimoiy hodisa barcha taassurotlarni ijobiy qayta ishlashga yo'naltirilgan mnemik faoliyatdir"*.

Odam o'z hayoti davomida ilgari idrok qilgan narsa va hodisalarni tasavvur etibgina qolmay, balki hech qachon hayotida uchratmagan narsalarni ham tasavvur eta oladi. Boshqacha qilib aytganda, odam faqat ilgari idrok qilgan narsalarinigina eslash bilan cheklanib qolmay, balki shu paytgacha hech qaerda uchratmagan yangi narsalarini ham o'z hayotida yarata oladi.

Shuningdek, avlod-ajdodlarimizning hayotiga doir tarixiy kitoblarni o'qiyotganimizda yoki bo'lmasa, o'qituvchining uzoq chet el mamlakati haqidagi qiziqarli gaplarini eshitar ekanmiz, yuqoridagi narsalarga nisbatan tasavvurlar hosil bo'ladi. Xayol qilish jarayonida idrok qilingan obrazlar orqali hosil qilingan tasavvurlar va bunday tasavvurlarni ongimizda xotira orqali orttirilishi tufayli yuzaga keladi. Demak, xayol jarayonining bo'lishi uchun xotira tasavvurlarining bo'lishi shart. Shuning uchun xayolning rivojlanishi insonning bilim boyligi, turmush tajribasi bilan bog'liq.

Xotira turlari

Xotira insonning holati va faoliyatining barcha sohalarida qatnashishi tufayli uning namoyon bo'lish shakllari, holatlari, shart-sharoitlari, omillari ham xilma-xil ko'rinishga egadirlar. Odatda xotirani muayyan turlarga ajratishda eng muhim asos qilib uning tavsifnomasi sifatida esda olib qolish, esda saqlash, esga tushirish, unutish singari jarayonlarni amalga oshiruvchi faoliyatining xususiyatlariga

bog'liqligi olinadi. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, ayrim darsliklarda xotira turlari turlicha klassifikasiya qilinadi. Jumladan, **A.V.Petrovskiy** tahriri ostida chiqqan "Umumiy psixologiya" darsligida quyidagi klassifikasiya uchraydi:

- **Faoliyatda ko'proq sezilib turadigan psixik faollikning xususiyatiga qarab:** harakat, emosional, obrazli va so'z mantiq xotira.
- **Faoliyatning maqsadlariga ko'ra:** ixtiyorsiz va ixtiyoriy xotira.
- **Materialni qancha vaqt esda olib qolish va esda saqlash muddatiga ko'ra:** qisqa muddatli, uzoq muddatli va operativ xotira.

M.G.Davletshin tahriri ostida chiqqan "Umumiy psixologiya" o'quv qo'llanmasida quyidagi xotira klassifikasiyasi qayd qilinadi:

- ✓ **Psixik faolligiga ko'ra:** ixtiyoriy va ixtiyorsiz xotira.
- ✓ **Faoliyat maqsadiga ko'ra:** harakat, emosional, obraz va so'z-mantiq xotirasi.
- ✓ **Muddatiga ko'ra:** uzoq muddatli, qisqa muddatli va operativ xotira.

E.G'.G'oziev tahriri ostida chiqqan "Umumiy psixologiya" o'quv qo'llanmasida xotira turlari quyidagicha klassifikasiya qilingan.

1. Ruhiy faoliyatning faolligiga ko'ra:

- a) harakat yoki motor harakat xotirasi;
- b) obrazli xotira;
- v) his-tuyg'u yoki hissiyot xotirasi;
- g) so'z-mantiq xotira.

2. Ruhiy faoliyatning maqsadiga binoan:

- a) ixtiyorsiz;
- b) ixtiyoriy;
- v) mexanik.

3. Ruhiy faoliyatning davomiyligiga ko'ra:

- a) qisqa muddatli xotira;
- b) uzoq muddatli xotira;
- v) operativ (tezkor) xotira.

4. Ruhiy faoliyat qo'zqatuvchisining sifatiga ko'ra:

- a) musiqiy;
- b) eshitish xotirasi;

5. Ruhiy faoliyatning inson yo'nalishiga qarab:

- a) fenomenal;
- b) kasbiy.

Xayol deb odamning ongida ilgari bor bo'lgan vaqtli aloqalarning (assosiasiyalarni) qaytadan tiklanishi va bir-biri bilan yangicha qo'shilishi orqali narsa va hodisalarning yangi obrazlarini hosil qilishga aytiladi.

Xayol - obraz tasavvur yoki g'oya shaklida yangi narsaning yaratilishi, ong faoliyati, ya'ni ilgari idrok qilinmagan narsalarning obrazlarini mavjud tasavvurlar asosida miyada yaratishda ifodalanadigan faoliyatdir.


Xayolning inson hayotidagi o'rni juda kattadir. Istalgan mehnat faoliyatini oladigan bo'lsak, xayolning ishtirokisiz deyarli amalga oshirib bo'lmaydi.

Masalan, biror narsa yasash biror o'simlikni o'stirish uchun qo'lga kiritiladigan natijalarni oldindan bilish, ya'ni xayolda tasavvur etib ko'rish lozim bo'ladi. Shuning uchun xayol juda ko'p faoliyatlarning tarkibiy qismiga kiradi.

Kishining butun ruhiy hayoti shaxsning bilish faoliyati va emosional irodaviy holatlari bilan uzviy bog'liq. Xayol idrok xotira tafakkur kabi mantiqiy bilish jarayonlari bilan uzviy bog'liq holda rivojlanadi. Xayolning mahsuli shundaki, u orqali avvalgi tajribalar qayta ishlanadi. Xayol tafakkur bilan shunday bog'liq-ki, xayol ham, tafakkur ham muammoli vaziyatlardan kelib chiqadi va shaxs ehtiyojlariga asoslanadi. Tafakkurda fikrlar, tushunchalar asosida ifodalanadi.

Xayol turlari

Odatda biz tasavvur xayoli, ijodiy xayol, ixtiyoriy va ixtiyorsiz xayol deb xayolni bir necha turlarga ajratamiz. Aynan xayol turlarini quyidagi tarzda ifodalash muhim sanaladi.



Tasavvur xayoli deb o'tmishda bo'lib o'tgan yoki hozirda bor bo'lgan lekin bizning turmush tajribamizda shu paytgacha uchratmagan, ya'ni biz idrok qilmagan tasavvur va obrazlar yaratishga aytiladi.

Tasavvur xayolini odatda tiklovchi xayol deb ham yuritiladi. Tiklovchi yoki tasavvur xayolini inson hayotidagi roli g'oyat darajada kattadir. Agar tiklovchi xayol bo'lmaganda odam o'qiy xam olmagan bo'lar edi. Biz juda ko'p narsalarni ko'rmagan, ya'ni bevosita idrok qilmagan bo'lsak, ham ularni tasavvur eta olamiz: bunda biz boshqa odamlarning aytib bo'lgan so'zlari asosida o'qigan kitoblarimiz asosida xayoliy tasavvur va obrazlar yaratamiz. Masalan, bolalar kitobchalardan o'qib berilgan ertaklardagi qahramonlarni ularning bag'oyat botirliklarini, qo'rqqoqliklarini va bir-birlariga yordam berishlarini xayoliy tasavvur orqali aks ettiradilar. Tiklovchi yoki tasavvur xayoli jarayonida odam ko'z oldiga keltirayotgan obrazning ob'ekti haqiqatdan ham muayyan bir joyda bo'lganligini anglatadi. Tasavvur yoki tiklovchi xayol bog'cha yoshidagi bolalarda ham bo'ladi.

Masalan: ularga o'qib berilayotgan hikoyani eshitar ekanlar, hikoyadagi afsonaviy qahramonlar, ularning baland g'oyalar ustidagi qurilgan qasrlari ko'z o'ngilarida gavdalana boshlaydi.

Ijodiy xayol - deb tajribamizda bo'lmagan va voqelikning o'zida ham uchratmagan narsa va hodisalar haqida tasavvur hamda obrazlar yaratishdan iborat xayol turiga aytiladi.

Ijodiy xayol murakkab aks ettirish jarayoni bo'lib, odamning hayotida juda katta ahamiyatga egadir. Odam o'zining ijodiy xayoli orqali biror yangi, shu paytgacha ko'rilmagan narsa yaratadi. Masalan: Yozuvchi asari uchun tipik obraz yaratganda uning xayoli ijodiy bo'ladi. Tadqiqotchining biror tadqiqot ustida ishlaganida ham uning xayoli ijodiy bo'ladi.

Ijodiy xayol obrazlari so'zlarda yoki moddiy ob'ektlarda tasvirlanishi mumkin. Ijodiy xayol mahsuli, ya'ni tasavvur va obrazlari san'atning hamma turlarida arxitekturada, fan va texnika sohasidagi ixtirolarda namoyon bo'ladi. Shuni ham nazarda tutish kerakki, tasavvur xayoli bilan ijodiy xayol o'rtasidagi farq faqat nisbiy xarakterga egadir. Xuddi ijodiy xayol jarayonidagi kabi tasavvur xayoli jarayonida ham aslida narsalarning obrazlari yangidan ijod qilinadi. Ana shuning uchun xayolning bu ikki turini bir-biridan batamom ajratib bo'lmaydi.

Ijodiy xayolning maxsus turi orzudir. **Orzu** ijodiy xayolning, tilakning kelajakka qaratilgan shaklidir. Orzusiz kishi bo'lmaydi. Orzu odamning u yoki bu faoliyatiga undaydigan stimuly turtkich hisoblanadi. Lekin orzuning boshqa salbiy turlari ham bor. Masalan, odamni asosiy ish faoliyatidan boshqa ishga sudraydigan orzular ham bo'ladi. Shunday odamlar ham bo'ladiki, ular o'zlarining aniq faoliyatlarini orzu bilan almashtirib, tilak va istaklariga shirin orzudagina yetib yuradilar. Ularning "quruq xayolparastlar" deb yuritiladi.

Xayol qilish jarayoni hamma bilish jarayonlaridagi kabi ixtiyorsiz va ixtiyoriy xayol turlariga bo'linadi.

Ixtiyorsiz xayol deb - odam o'zining oldiga hech qanday maqsad qo'ymasdan, irodani ishga solmasdan, qandaydir o'z-o'ziga obraz va tasavvurlarni yaratishiga aytiladi.

Ixtiyorsiz xayol shu topdagi kuchli ehtiyoj tufayli maydonga keladi. Masalan: odam juda tashna yoki juda och bo'lgan paytida uning xayolida har turli taomlar, daryo va buloq suvlari paydo bo'la boshlaydi. Odamning ayni shu chog'dagi hissiy holati, ya'ni his-tuyg'ulari ham ixtiyorsiz xayolning maydonga kelishiga sabab bo'ladi. Chunonchi, vahima yoki qo'rqinch hissi paytida odamning xayoliga qo'rqinchli narsalarning obrazlari kela boshlaydi.

Odamning tush ko'rishi ham ixtiyorsiz xayol faoliyatlaridan hisoblanadi. Yuqorida aytib o'tganimizdek, odam uxlay boshlagan paytda bosh miya po'stining hamma joylari tormozlanmay, ayrim joylari ishlab turadi. Ana shu ishlab turgan joylaridagi nerv hujayralarida ilgari hosil qilingan obraz va tasavvurlar qayta tiklanib, odam tush ko'ra boshlaydi. Bunda miya po'stining eng asosiy markazlari (ikkinchi signallar tizimi) tormozlangan bo'lgani tufayli hech qanday nazorat

bo'lmaydi. Natijada obraz va tasavvurlar bir-biri bilan allaqanday munosabatlarga kirib, odam palapartish tush ko'ra boshlaydi.

Ixtiyoriy xayol jarayonlari betartib ravishda, emas balki muayyan bir jarayonda o'tadi. Bu tartib odamning ehtiyojlari, maqsadlari, hissiyotlari fikr hamda maslaklari bilan belgilanadi.

Ixtiyoriy xayol deb oldindan belgilangan maqsad asosida iroda kuchini ishga solib muayyan obraz va tasavvurlarni yaratishga aytiladi. Demak, ixtiyoriy xayol hamisha ma'lum maqsad va vazifalarni bajarish bilan bog'liq bo'ladi. Bunday maqsad va vazifalar boshqalar tomonidan qo'yilishi mumkin. Masalan, rassom o'zi ishlamoqchi bo'lgan suratning mavzusini o'zi belgilaydi. Yozuvchi yozmoqchi bo'lgan asarning mavzusini o'zi tanlaydi va o'zi badiiy obrazlarni yaratadi. Umuman san'at asarlarining hammasi ixtiyoriy xayol natijasida maydonga keladi.

Biroq shuni ham aytib o'tish kerakki, ixtiyoriy xayol ba'zan ixtiyorsiz xayolga o'tib ketishi mumkin. Shuning uchun ixtiyoriy xayol ixtiyorsiz xayoldan batamom ajralgan holda ro'y bermaydi. Ixtiyoriy xayol jarayoni hamisha beixtiyor qilinadigan xayol daqiqalarini o'z ichiga oladi. Masalan, rassomlar yoki kompozitorlar o'zlarining biror yangi asarlarini ixtiyoriy tarzda yaratayotganlarida ba'zan ixtiyorsiz ravishda ayrim fikrlarga berilib ketishlari mumkin.

Realistik xayol - turida voqelik aks ettiriladi, orzular amalga oshadi.

Fantastik xayol - amalga oshmaydigan xayol turidir

Tafakkur va nutq inson intellektini rivojlanishidagi roli.

Tafakkur inson aqliy faoliyatining yuksak shaklidir. Tafakkur orqali biz sezgi a'zolarimiz bilan bevosita aks ettirib bo'lmaydigan narsa va hodisalarni ongimizda aks ettiramiz. Umuman olganda tashqi muhitdagi narsa va hodisalar o'rtasida ko'z bilan ko'rib, quloq bilan eshitib bo'lmaydigan ichki munosabatlar hamda qonuniyatlar mavjud. Ana shu ichki bog'lanish hamda qonuniyatlarni biz tafakkur orqali bilib olamiz. Demak, **tafakkur** deb narsa va hodisalar o'rtasidagi eng muhim bog'lanishlar va munosabatlarning ongimizda aks ettirilishiga aytiladi. Aynan tafakkur orqali biz moddiy olamdagi narsa va hodisalarning mohiyatini bilish imkoniga ega bo'lamiz. Shu bois dunyoni bilishda bevosita sezish, idrok, tasavvur va bivosita tafakkur muhim rol o'ynaydi.

Tafakkur tushunchasining mazmun mohiyati psixologiya darsliklarida olimlar tomonidan turlicha talqin qilinadi. Jumladan, umumiy psixologiya darsliklarida tafakkurga berilgan ta'riflar turlicha bo'lib uning ikkita yoki uchta muhim xususiyati ta'kidlab o'tiladi, xolos. Jumladan, P.I.Ivanovning darsligida "tafakkur insonning shunday aqliy faoliyatidirki, bu faoliyat voqelikni eng aniq, to'liq, chuqur va umumlashtirib aks ettirishga (bilishga), insonni taqin ham oqilona amaliy faoliyat bilan shug'ullanishiga imkon beradi" deb ta'riflanadi. Ushbu ta'rifda tafakkurning to'la, aniq va umumlashtirilgan holda aks ettirishi ta'kidlab o'tiladi, xolos, lekin uning xarakterli xususiyatlari bevosita so'z yordami bilan ifodalanishi muallifning diqqat markazidan chetda qolgan.

M.V.Gamezo tomonidan "tafakkur voqelikning umumlashgan holda va so'z hamda o'tmish tajriba vositalarida aks ettirilishi" ekanligi bayon qiladi. U

tafakkurning umumlashgan soʻz vositasida va vositali atrof- muhit hodisalarini aks ettira olishni ta'kidlaydi.

A.V.Petrovskiy tahriri ostidagi darslikda tafakkurga quyidagicha ta'rif keltiriladi: "Tafakkur - ijtimoiy sababiy, nutq bilan chambarchas bogʻliq muhim bir yangilik qidirish va ochishdan iborat psixik jarayondir, boshqacha qilib aytganda, tafakkur voqelikni analiz va sintez qilish, uni bavoita va umumlashtirib aks ettirish jarayonidir".

Analiz, sintez, taqqoslash, abstraksiyalash va umumlashtirish, tasniflash va tizimga solish aqliy operasiyalarning asosiy turlaridir.

Analiz - shunday bir tafakkur operasiyasidirki uning yordami bilan biz narsa va hodisalarni fikran yoki amaliy jihatdan xususiyatlarini tahlil qilamiz. Analiz jarayonida butunning uning qismlariga va elementlariga boʻlgan munosabati aniqlanadi. Tahlil ob'ektlari amalda ajratib boʻlmaydigan elementlarga yoki belgilarga boʻlishda ifodalanishi mumkin. Allomalarimizning ta'kidlashicha, maymunning yongʻoqni chaqishining oʻziyoq boshlangʻich, oddiy analizdir. Oʻquvchi va talaba yoshlar turmushda va va dars jarayonida analiz yordami bilan koʻpgina ishlarni amalga oshiradilar, topshiriqlar, misol va masalalarni yechadilar. Demak, tabiat va jamiyatdagi bilim va tajribalarni inson tomonidan oʻzlashtirib olish analizdan boshlanadi.

Sintez - shunday bir tafakkur operasiyasidirki, biz narsa va hodisalarning analizda boʻlingan, ajratilgan ayrim qismlarini, boʻlaklarini sintez yordami bilan fikran va amaliy ravishda birlashtirib, butun holiga keltiramiz. Sintez elementlarning, narsa va hodisalarning qismlari va boʻlaklarini bir butun qilib hoʻshishdan iborat aqliy faoliyat ekanligi ta'rifdan koʻrinib turibdi. Analiz aqliy boʻlgani kabi sintez ham amaliy xarakter kasb etadi. Masalan, birinchi sinf bolasi oʻz harf xaltasidagi keltirilgan harflardan foydalanib, boʻgʻin, boʻgʻinlardan soʻz, soʻzlardan gap, gaplardan qisqa axborot, undan esa hikoya tuzadi.

Analiz va sintez oʻzaro bevosita mustahkam bogʻlangan yagona jarayonning ikki tomonidir. Agar narsa va hodisalar analiz qilinmagan boʻlsa, uni sintez qilib boʻlmaydi, har qanday analiz predmetlarni narsalarni bir butun holda bilish asosida amalga oshirilishi lozim.

Taqqoslash - shunday bir tafakkur operasiyasidirki, bu operasiya vositasi bilan ob'ektiv dunyodagi narsa va hodisalarning bir-biriga oʻxshashligi va bir-biridan farqi aniqlanadi.

Narsa va hodisalar oʻrtasidagi oʻxshashlik yoki farqni, teng yoki tengsizliklarni, ayniyat yoki ziddiyatlarni aniqlashdan iborat boʻlgan fikr yuritish operasiyasi, bilishning dastlabki va zarur vositasi boʻlib hisoblanadi. Ajdodlarimiz taqqoslashning ta'limdagi roli toʻgʻrisida shunday fikrlarni bildirgan edi. Taqqoslash har qanday tushunishning va har qanday tafakkurning asosidir. Olamdagi narsalarning hammasini taqqoslab koʻrish yoʻli bilan bila olmasak, boshqa yoʻl bilan bila olmaymiz, agar biz hech narsa bilan solishtirishimiz va farqini bilib olishimiz mumkin boʻlmagan biron bir narsaga duch kelganimizda edi, u holda biz shu narsa toʻgʻrisida hech qanday fikr qila olmagan boʻlar edik.

Abstraksiya - shunday fikr tafakkur operasiasidirki, bu operasiya yordami bilan moddiy dunyodagi narsa va hodisalarning muhim xususiyatlarini farqlab olib, ana shu xususiyatlardan narsa va hodisalarning muhim bo'lmagan ikkinchi darajali xususiyatlarini fikran ajratib tashlaymiz.

Umumlashtirish - tafakkurda aks etgan bir turkum narsalarning, o'xshash muhim belgilarning shu narsalar to'g'risidagi bitta tushuncha qilib, fikrda birlashtirish demakdir. Psixologiyada umumlashtirish muammosi bo'yicha yagona yo'nalishdagi nazariya mavjud emas. Shuning uchun psixologlar bu jarayonni turlicha talqin qiladilar, goho uni guruhlarga bo'lib o'rganadilar.

Klassifikasiyalash - bir turkum ichidagi narsalarning bir-biriga o'xshashligiga va boshqa turkumdagi narsalardan farq qilishiga qarab narsalarni turkumlarga ajratish tizimidir. **D.I.Mendelevni** "Elementlarning davriy tizimi" jadvali bunga yorqin misoldir. Bunda olim elementlarni atom og'irligi ortib borishiga, kimyoviy sifatlarning bir tipligiga va boshqa belgi va alomatlariga qarab tartib bilan joylashtirib chiqqan. O'rganish uchun qulaylik tug'dirish maqsadida, shuningdek, amaliy maqsadlarda ko'pchilik narsalarni guruhlarga, turkumlarga bo'lishga to'g'ri keladi. Ko'pchilik narsalarni hodisalarni guruhlarga bo'lish klassifikasiyalash yoki turkumlarga bo'lish deb ataladi. Masalan, kutubxonada kitoblar muqovasiga, farmoyishning mazmuniga va shu kabi belgilariga qarab turkumlariga bo'lish mumkin. O'quvchilarning odatda yoshi yoki jinsiy belgilari bo'yicha va shu kabilarga qarab turkumlarga bo'ladilar.

Sistemalashtirish - tizimga solish shundan iboratki, bunda ayrim narsalar, faktlar, hodisa va fikrlar muayyan tartibda makondagi, vaqtdagi tutgan o'rniga yoki mantiqiy tartibda joylashtiriladi. Shu sababli makon, xronologiya va mantiqiy belgilar asosida tizimga solish turlariga ajratiladi. Mebelning xonadagi joylashtirilishi, daraxtning boqqa o'tkazilishi, makoniy tizimga namuna bo'la oladi. O'tmishda bo'lib o'tgan voqealarning vaqtga qarab tizimga solishning namunasi bo'la oladi. Matematikaga, falsafaga, mantiqqa doir darsliklarda ilmiy materiallarning joylashtirilishi mantiqiy tizimga solishning namunasi.

Nutq — odamlar til orqali bir-biri bilan muomala va aloqa qilishning alohida usulidir. Odam o'z nutqi orqali o'zining bilimlari, fikrlari, hislari va istaklarini boshqa kishilarga aytib bera oladi va boshqa kishilarning fikrlarini o'zlashtirib oladi, boshqa kishilarning hislari va istaklarini bilib oladi. Odamlar o'zlarining faoliyatlari va kundalik hayotlarida bir-birlari bilan shu tarzda aloqa qilib turadilar. Nutq vositasi bilan aloqa bog'lash jarayonida har bir kishi bilimlari ning ko'p qismini boshqa kishilardan oladi. Nutq vositasi bilan aloqa bog'lash odamning doimiy ehtiyoji bo'lib, bu aloqa fikr olishga xizmat qiladi. Odam boshqa kishilar bilan nutq orqali muomala qilmay yashay olmaydi. Odam yakka o'zi qolganida, ko'pincha, xayolidagi suhbatdoshlar bilan «o'z ichida» gaplashadi. Odam o'ziga notanish bo'lgan bir yoki bir necha kishi o'rtasiga tushib qolsa, unda nimalamidir aytish yoki shu kishilardan nimalarnidir eshitish ehtiyoji albatta paydo bo'ladi. Bu ehtiyoj qondirilmay qolsa, odamda ma'yus qiladigan «o'ng'aysizlik» hissi tug'iladi. Odamning «aytadigan hech bir gapi» bo'lmagan taqdirda ham shunday ehtiyoj

paydo bo'ladi. Bunday hollarda u «nima qilishini» bilmay qoladi. Bunday hollarda unda «nimani gapirsam ekan?», «nimadan gap boshlasam ekan?», «qanday gap boshlasam ekan?» deb gap mavzuini qidirish boshlanadi. Uchinchi bobda aytilganidek, nutq tarixiy taraqqiyot jarayonida, ong bilan baravar, insonlarda til vositasi bilan aloqa bog'lash, bir-birlariga biron narsa aytish ehtiyoji tug'ilishi natijasida paydo bo'lgan. Kishi nutqi mehnat jarayonida o'sib borgan. Har bir kishining nutqi bolalik chog'idan boshlab o'sib boradi, buning sababi ham boshqa kishilar bilan aloqada bo'lish ehtiyojidir. Nutq to'g'risida, shu bilan birga, til to'g'risida gapirganimizda quyi dagilarga e'tibor berishimiz kerak. «Nutq» va «til» degan terminlar ko'pincha bir xil ma'noda ishlatiladi. Ammo bu terminlarning ma'nosini bir-biriga aralashtirib yuborish yaramaydi. Garchi nutq bilan til bir-biriga chambarchas bog'langan bo'lsa ham, lekin ularning ikkovi bitta narsa emas. Biz biror kishiga: «Siz qaysi tilda (yoki tillarda) gaplashasiz?» deb savol berganimizda, biz shu kishining nutqi, gapi bilan uning o'z nutqida qanday til (yoki tillar)dan foydalanishini aniq farq qilamiz. Har bir kishining yoshiga, bilimiga, umumiy izlanish saviyasiga qarab, uning nutqi o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'ladi. Ayrim kishilar kasbining xususiyatlari, shu kishilarning nimalarga qiziqishi, mijozi va shu kabi xususiyatlari ularning nutqlarida namoyon boladi. Har bir kishi bir yoki bir necha tildan foydalanib, o'zicha gapiradi. Har bir kishining o'z nutqi bor. Odam ongining alohida funksiyasi bo'lgan nutq psixologiya fani tomonidan o'rganiladi. Til esa ijtimoiy hodisadir. Til ayrim kishida mustaqil ravishda mavjuddir. Tilning ijodkori esa xalqning o'zidir, tarixan tarkib topgan millatning o'zidir. Rus tili, o'zbek tili, xitoy tili, nemis tili va hokazo deganimizda, biz mana shu ma'noda gapiramiz. Har bir avlod o'zidan oldin o'tgan avlodlar ishlab chiqqan tilga duch keladi va shu tilni egallab oladi, ya'ni o'zining nutq orqali qiladigan muomalasida shu til dan foydalanadi. Nutq bilan til bir-biridan farq qiladi, lekin ayni vaqtda ularni bir biridan ajratib bo'lmaydi; nutq ham, til ham bir-biriga bog'langan, ular birlikda mavjuddir. Bu birlik shundan iboratki, har bir til tarixiy taraqqiyot davomida odamlarning nutq vositasi bilan aloqa bog'lash jarayonida vujudga kelgan va o'sib borgan. Har bir tilning yashab turishi kishilarning shu tilda gaplashuvlariga bog'liq. Agar odamlar biror tilda gaplashmay qo'ysalar, bu til ham yo'q bo'lib ketadi: u «o'lik til» bo'lib qoladi. Biz «o'lik» tillar borligini shu til aks ettirilgan yozma yodgorliklardan bilamiz. Masalan, qadimgi grek (yunon), lotin tillari mana shunday «o'lik» tillardir. Til bilan nutqning birligi yana shunda namoyon bo'ladiki, har bir kishi o'z nutqida biror tildan foydalanadi, ba'zilari esa bir necha tildan foydalanadilar. Gapirish va boshqa odamlarning nutqini tushunish uchun til bilish, shu til sistemasini bilish, shu tilning tuzilishini bilib olish kerak.



Nazorat savollari

1. Xayol tushunchasining mazmunini izohlang?
2. Xayol jarayonlarining mohiyatini asoslang?
3. Xayol turlarining mazmuni nimalar bilan belgilanadi?

4. Tafakkur tushunchasining mazmunini izohlang?
5. Tafakkur operasialarini ajratib ko'rsating?
6. Tafakkur shakllari nimalarda ko'rinadi?
7. Xotira tushunchasining mazmuni nimalarda ko'rinadi?
8. Idrok tushunchasining mohiyatini ko'rsating?
9. Idrokning murakkabligi nimalardan ko'rinadi?
10. Sezgi qanday asosga ko'ra klasifikasiya qilingan?
11. Sezgilarning turlarini sanang?

22-MAVZU. SHAXS RIVOJLANISHINING INDIVIDUAL XUSUSIYATLARI VA ULARNING ROLI. TEMPERAMENT. XARAKTER. QOBILIYAT.



Reja:

1. Temperament to'g'risida umumiy tushuncha.
2. Temperamentning fiziologik asoslari.
3. Xarakter.
4. Qobiliyat va uning tasnifi.

Tayanch tushunchalar: Temperament, xarakter, qobiliyat, individuallik, fiziologik mexanizm, ekstraversiya, introversiya, melanxolik, sangvinik, flegmatik, xolerik, talant, iqtidor, daxo.

Temperament to'g'risida umumiy tushuncha

Insonning ruhiy olami beto'xtov harakatlar majmuasidan iborat bo'lib, biri ikkinchisini bevosita taqozo etadi va ular uzluksiz zanjir tizimiga o'xshash tarzda hukm suradi. Xuddi shu bois shaxs ruhiyatida tashqi atrof-muhit to'g'risidagi taassurotlar, o'tmish xotiralari, kelajak yuzasidan ijodiy xayollar, ezgu niyatlar, xohish istaklar, maqsad va tilaklar, mulohaza, fikr va muammo, hissiy kechinmalar, irodaviy sifatlar uzluksiz tarzda o'zaro o'rin almashtirib turishi evaziga ontogenetik dunyoga mustahkam negiz hozirlanadi. Ruhiy olam kechishi, uning sur'ati, mazmuni, shakli qo'lami, xususiyati, xislati, sifati, mexanizmi alohida, yakkahol insonda rang-barang tarzda namoyon bo'linish kuzatiladi. Shuning uchun bo'lsa kerak, insonlar tabiat hodisalariga, omillariga, ta'sir kuchlariga tez yoki sekin, yengil yoki mushkulot bilan javob qaytarishga moyillik ko'rsatadilar. Shuni alohida ta'kidlab o'tish kerakki, psixik faoliyatning dinomikasi nafaqat temperamentga, balki motivlarga, psixik holatlarga, his-tuyg'ularga ham bevosita bog'liqdir. Misol uchun, inson o'zi temperamentning qaysi tiliga taalluqli bo'lishidan qat'i nazar, o'z faoliyatiga layoqatli, mayli kuchli, intilishi qat'iy, qiziquvchan bo'lsa, uni tashkillashtirishda va nazardan qolishda uyushqoqlik, harakat sur'ati esa tezkor amalga oshadi, unga loqayd munosabatni bildirsa, ish sur'ati sekin va sust kechadi.

Har qanday vaziyatga qaramasdan, shaxsning qarindosh urug'lari to'g'risidagi, shuningdek, jahonda kechayotgan noxush xabarlar uning a'zoyi badanini larzaga keltiradi, labi quridi, rangi bo'zaradi, atrof-muhitga nisbatan mo'ljalini yo'qotadi. Psixologiyada temperamentga taalluqli individual dinomik xususiyatlar bilan motivlar va psixologik holatlar, hissiy kechinmalarning dinomik xususiyatlari o'rtasida muayyan darajasida tafovut mavjudligi alohida ta'kidlanadi. Ular orasidagi farqlarni ajratib ko'rsatish maqsadida qo'shimcha belgilar kiritiladi va o'ziga xos tarzda tavsiflab beriladi. Ularning ayrimlarini ajratib ko'rsatish maqsadga muvofiq.

1. Favqulodda temperamentning bir xil xususiyatlari, motiv, psixik holat va hodisalardan farqli o'laroq, aynan shu shaxsning o'zida, uning turli faoliyatlarida, xatti-harakatlarida, muomalasida ifodalanadi.

2. Temperament xususiyatlari tabiiy shartlanganlik omiliga taalluqli bo'lganligi tufayli inson hayoti va faoliyatining (umrining) butun davomida yoki uning muayyan bir bo'lagida (ta'sirga beriluvchanligi sababligidan qat'i nazar) barqaror, o'zgarmas va mustahkamdir.

3. Yakkahol shaxsga daxldor temperamentning turli xususiyatlari o'zaro bir-biri bilan g'ayriqonuniy ravishda birlashgan bo'lmasdan, balki ular o'zaro bir-biri muayyan qonuniyat asosida mujassamlashib, xuddi shu xususiyatlar uning tiplarini tavsiflovchi o'ziga xos tizilmani vujudga keltiradi.

4. Psixologiya fanida temperament xususiyatlari deganda, alohida bir shaxsning psixik faoliyati dinomikasini belgilovchi psixikaning barqaror, o'zgarmas individual-tipologik xususiyatlari majmuasi tushuniladi. Mazkur xususiyatlar turli shakl va mazmunga ega ega bo'lgan motivlarda, psixik holatlarda, maqsadlarda, faoliyatlarda nisbatan o'zgarmovchi, temperament tipini tasvirlovchi tuzilmani tashkil qiladi.

5. Psixologiya faning ijtimoiy tarixiy taraqqiyoti davrida temperamentga nisbatan bildirilgan mulohazalar, uning moddiy asosi to'g'risidagi talqinlar xilma-xil bo'lib, shaxsning psixologik xususiyatlarini o'ziga xos tarzda tushuntirish uchun xizmat qilib kelgan.

Temperament latincha "temperamentum" degan so'zdan olingan bo'lib, buning ma'nosi «aralashma» degan tushunchani anglatadi. Temperament to'g'risidagi dastlabki ta'limotni yunon olimi Gippokrat (eramizdan oldingi 460-356 yillarda yashagan) yaratgan bo'lib, uning tipologiyasi to hozirgi davrgacha qo'llanilib kelinmoqda.

Temperamentning fiziologik asoslari to'g'risida tushuncha.

Qadimgi yunon olimi Gippokrat ta'limotiga binoan, insonlarning temperament xususiyatlari jihatidan o'zaro bir-biridan tafovutlanishi, ularning tana a'zolaridagi suyuqliklarning (xiltlarning) turlicha nisbatda joylashuviga bog'liq ekanligi tasavvur qilinadi. Gippokrat ta'biricha, inson tanasida to'rt xil suyuqlik (xilt) mavjud bo'lib, ular o't yoki safro (yunoncha chole), qon (latincha sanguis yoki sanguinis), qora o't (yunoncha melas «qora», chole «o't»), balg'am (yunoncha «phlegma») kabilardan iboratdir. Uning mulohasicha; 1) o'tning xususiyatni-quruqlikdir, uning vazifasi-tana a'zolarida quruqlikni saqlab turish yoki badanni quriq tutishdir; 2) qonning


xususiyati- issiqlikdir, uning vazifasi tanani isitib turishdir; 3) qora o'tning xususiyati-namlikdir, uning vazifasi badan namligini saqlab turishdir; 4) balg'amning (shilimshiq moddaning) xususiyati-sovuqlikdir, uning vazifasi-badanni sovutib turishdan iboratdir. Gippokrat ta'limotiga muvofiq, har bir insonda shu to'rt xil suyuqlik mavjud bo'lib, uning bittasi ustuvorlik kasb etadi. Mazkur aralashma (latincha temperamentum) lardan qaysi biri salmoqliroq bo'lsa, shunga qarab insonlar temperament jihatdan farqlanadilar, chunonchi, xolerikda sariq o't, sangvinikda qon, melanxolikda qora o't, flegmatikda balg'am (shilimshiq modda) ustun bo'lishi ta'kidlanadi. Gippokratning to'rt xil moddalar (suyuqliklar) aralashmasi, ya'ni temperament tushunchasi va uning tipologiyasi (sangvinik, xolerik, flegmatik, melanxolik) ramziy ma'noda hozirgi zamon psixologiyasida ham qo'llanilib kelinmoqda.

Temperamentning ilmiy psixologik asoslari va uning fiziologik mexanizmlari keyingi ijtimoiy tarixiy taraqqiyotning bosqichlarida yaratiladi hamda bu borada ishlanilishlar davom ettirilmoqda. Temperamentning fiziologik asoslariga ulkan o'z hissini qo'shgan olimlardan biri rus fiziologi I. P. Pavlov (18-1936) hisoblanadi.

I. P. Pavlov hayvonlarning oliy nerv faoliyatini tadqiq qilayotganida itlarda shartli reflekslarning paydo bo'lishi, kechishi, davom etishi xususiyatlari insonlarnikidan farq qilish va bu hodisa temperamentda ham uchrashi mumkinligini kashf etadi. I. P. Pavlov temperament ham shartli reflektor faoliyatining individual xususiyatlarini keltirib chiqaruvchi omillar bilan bog'liq bo'lishi mumkin, degan xulosa chiqaradi. I. P. Pavlov ta'limoti bo'yicha, shartli reflekslar paydo bo'lishining individual xususiyatlari ro'yobga chiqishining sabablari nerv sistemasi xususiyatlari mohiyatidandir. Muallif nerv sistemasining uchta asosiy xususiyatiga alohida ahamiyat beradi, chunonchi:

- 1) qo'zg'alish jarayoni va tormozlanish (to'xtalish) jarayonining kuchi;
- 2) qo'zg'alish kuchi bilan tormozlanish kuchi o'rtasidagi muvozanatlik darajasi (nerv sistemasining muvozanatlashgani);
- 3) qo'zg'alishning tormozlanishi bilan almashinishi tezligi (nerv jarayonlarining harakatchanligi). Uning ko'rsatishicha, har bir hayvonning temperament ham mazkur xususiyatlarining u yoki bunisiga aloqador bo'lmay, balki ularning majmuaviy tarziga, qonuniy birlashuviga bog'liqdir.

I. P. Pavlov shartli reflektor faoliyatining individual xususiyatlari bilan temperamentga aloqador nerv sistemasi xususiyatlarining o'zaro qo'shiluvini nerv sistemasining tipi deb nomlaydi va uni to'rtta tipga ajratadi: a) kuchli, muvozanatli, epchil; b) kuchli, muvozanatsiz, epchil; v) kuchli, muvozanatli, sust; g) kuchsiz tip. Ijtimoiy turmushda hayot va faoliyat ko'rsatayotgan har qanday shaxs o'zining individual psixologik xususiyatlari bilan boshqa insonlardan ajralib turadi va bu farqlar uning xarakter xislatlarida o'z ifodasini topadi.



Melanxolik (yunon. Melas - qora, chole - o't, safro) - temperament turlaridan, psixik faollikning sust, tez ta'sirlanuvchanlik, hatto arzimagan narsalar uchun xam juda chuqur ta'sirotda berilishi bilan xarakterlanadi.

Sangvinik (yunon. Sanguis qon) - temperament turlaridan. Bu tur chaqqon, harakatchan, taassurotlari tez-tez o'zgarib turadigan, boshqa kishilarga nisbatan dilkashlik va mexribonlik qilish xislatlari bilan tavsiflanadi.

Flegmatik (yunon. flegma balg'am, shilimshiq modda) - temperament turlaridan biri. Bu harakatlarning sekinligi, barqarorligi, emosional holatlarning tashqi ko'rinishlari kuchli emasligida namoyon bo'ladi.

Xolerik (yunon. chole - safro, sarik o't) - temperament turi, u hissiyotning jo'shqinligi, kayfiyatning birdaniga tez o'zgarib qolishi, hissiyotning muvozanatsizligi va umuman harakatchanligi bilan ifodalanadi.

Xarakter deganda mazkur shaxs uchun tipik hisoblangan, faoliyat usullarida namoyon bo'ladigan, shaxsning turli sharoitlarga munosabati bilan belgilanadigan individual psixologik xususiyatlari yig'indisi tushuniladi. Xarakter xususiyatlarining namoyon bo'lishi har bir tipik vaziyat, hissiy kechinmalarning individual o'ziga xos xususiyati shaxs munosabatlariga bog'liq. Xarakterning intellektual, hissiy va irodaviy xislatlarini ajratish mumkin. Xarakter deganda shaxsda muhit va tarbiya ta'sirida tarkib topgan va uning irodaviy faoliyatida, atrofdagi olamga o'z-o'ziga bo'lgan munosabatlarida namoyon bo'ladigan individual xususiyatlarni tushunamiz. Xarakterning juda ko'p xususiyatlari odamning ish harakatlarini belgilovchi chuqur va faol moyillik hisoblanadi. Mana shu moyilliklarda xarakter xislatlarining undovchilik kuchi namoyon bo'ladi. Odam xarakter xislatlarining ana shunday undovchilik kuchi tufayli ko'pincha ob'ektiv sharoitlarga zid ish qiladi va mutlaqo maqsadga nomuvofiq harakat usullarini qo'llaydi. Xarakter xislatlari ma'lum tarzda harakat qismlariga, ba'zan esa sharoitga qarama-qarshi harakat qilishga undar ekan, ular hayotiy qiyin daqiqalarda yaxshiroq namoyon bo'ladilar va bu xarakterni, shuningdek barkamol avlodni tarbiyalashning muhim vazifasidir. Shaxsning qat'iyatlilik, tanqidiylik, fahm- farosat, kuzatuvchanlik kabi xislatlari intellektual, quvnoqlik, mehribonlik

hissiy-irodaviy sifatlarga kiradi. Odatda shaxsning munosabatlari xarakter xislatlarining individual xususiyatlarini ikki xilini aniqlash imkoniyatiga ega:

- ✓ Shaxs xarakterining xususiyati ro'yobga chiqadigan har qanday vaziyat hissiy kechinmalarning o'ziga xos xislati uning munosabatlariga bog'liq.
- ✓ Har qanday favquloddagi tipik (muhitdagi) xarakterning sifatlari hamda individual usullari shaxsning munosabatlariga taalluqlidir.
- ✓ Shaxs harakatlarining sifati va ularning oqilona usullari insonning irodasi, hissiyoti, diqqati, aqliy sifatlariga yoki psixik jarayonlarning individual xususiyatlariga bog'liqdir. Chunonchi, mehnatda ko'zga tashlanadigan tirishqoqlik, puxtalik mehnatga nisbatan ijobiy munosabatni aks ettirishga emas, balki boshqa omillarga:
 1. diqqatning to'planishiga;
 2. harakatlarning maqsadga yo'nalganligiga;
 3. irodaviy zo'r berishga;
 4. usullar mahsuldorligiga;
 5. aqlning ishtirokiga bog'liq.

Xarakter tarkibi

Shaxsning xakteri tuzilishi turli xususiyatlarning tasodifiy yig'indisidan iborat emas, balki o'zaro bir-biriga bog'liq, hatto tobe yaxlit tizimdan tarkib topadi. Xarakter xislatlarining muayyan qismidan xabardor bo'lishlik notanishlarni tashxis qilish imkoniyatini yaratadi. Misol uchun, shaxsning shuhratparastligi ma'lum bo'lsa, uning dili (ko'ngli) qoraligi yuzasidan taxmin qilish mumkin, yoki inson kamtar, mo'min, yuvosh xususiyatli bo'lsa, albatta u ko'ngilchan ekanligi ko'nglimizga keladi.

Odatda psixik xususiyatlarning o'zaro bog'liq tizimi simptomokomplekslar (omillar) deyiladi. "Simptom" yunon symptoma belgi, mos tushish, "kompleks" lotincha, aloqa, majmua degan ma'no anglatadi. Misol uchun, qarama-qarshi simptomokomplekslar haqida mulohaza yuritilsa, u holda insonlarda bu tizim o'ziga ishonish o'zidan mag'rurlanish, maqtanchoklik, o'zbilarmonlik, urushqoqlik, kek saqlash kabilar birikmasida yuzaga keladi. Boshqa toifadagi shaxslar o'zlarining kamtarinligi, ko'ngilchanligi, iltifotliligi, dilkashligi, haqqoniyligi bilan ajralib turadilar. Voqelikka shaxsning bir xil munosabati xarakter xislatlarining o'zaro bir-biriga bog'liqligini bildiradi.

Hozirgi zamon psixologiyasida shaxsning turli munosabatlari bilan belgilanadigan xarakter xususiyatlarining to'rtta tizimi farqlanadi.

- ✓ Jamoa va ayrim odamlarga bo'lgan munosabatlarini ifodalovchi xususiyatlar (yaxshilik, mehribonlik, talabchanlik va shu kabilar).
- ✓ Mehnatga bo'lgan munosabatni ifodalovchi xususiyatlar: (mehnatsevarlik, yalqovlik, vijdonlilik, mehnatga ma'suliyat yoki ma'suliyatsizlik bilan munosabatda bo'lishi kabilar).
- ✓ Narsalarga bo'lgan munosabatni ifodalovchi xususiyatlar: (ozodalik va ifloslik, narsalar bilan ayab yoki ayamasdan munosabatda bo'lish kabilar).

- ✓ Odamning o'z-o'ziga bo'lgan munosabatini ifodalovchi xususiyatlar (izzat-nafslilik, shuhratparastlik, mag'rurlik, o'zini katta olish, kamtarlik kabilar).

Bundan tashqari, kamroq ahamiyatga ega bo'lgan boshqa juda ko'p xususiyatlar ham mavjud: o'ziga ishonish, o'zbilarmonlik, o'ziga bino qo'yish, maqtanchoqlik.

Xarakterning tarkibi faqat ayrim xususiyatlarining o'zaro bog'liqligi bilan emas, balki bir butun xarakterga xos bo'lgan xususiyatlar bilan belgilanadi. Xarakterning xususiyatlari jumlasiga birinchidan, ularning chuqurlik darajasi kiradi. Shaxsning markaziy, asosiy munosabatlari bilan belgilanadigan xususiyatlarini biz xarakterni bir muncha chuqurroq xususiyatlari deb ataymiz. Masalan, barkamol shaxsda odamlarga, jamoa va mehnatga nisbatan vijdonan munosabatda bo'lish bilan belgilanadigan xususiyatlar chuqurroq xususiyatlar hisoblanadi. Ikkinchidan, xarakter kuchi yoki faolligi. Xarakter faolligi xarakter xususiyatlarining kishini biror narsaga qarshilik ko'rsatish darajasi bilan belgilanadi. Uchinchidan, xarakterning tarkibiy xususiyatlariga uning barqarorlik va o'zgaruvchanlik darajasi kiradi. Xarakter barqarorligi va o'zgaruvchanligi ham moslashish faoliyatining zarur shartlaridandir.

Agar tashqi sharoitning o'zgarishi bilan har gal xarakter boshqacha bo'lib, o'zgarib qoladigan bo'lsa, unday paytda odamning xatti-harakatlari tashqi sharoit ta'siriga nisbatan passiv javob reaksiyasiga aylanib qolgan, xatti-harakat batamom passiv moslashishga aylangan bo'lar edi. Odamning xarakter xususiyatlari juda xilma-xil hayot sharoitlarida ham qarshilik qiluvchi sharoit bo'lishiga qaramay uning xatti-harakatlarini boshqaradi.

Xarakter ma'lum darajada plastikdir (egiluvchandir). Xarakterning plastikligi ikki xil ma'noga ega, birinchidan, xarakterning barqarorligi singari muhim faol ta'sir qilishidir. Ikkinchidan, xarakter ma'lum darajada plastik bo'lganligi uchungina istalgan odamning xarakterini qayta tarbiyalay olamiz.

Kishiga mustahkamlanib, uning shaxsiy xususiyatiga aylanib qolgan iroda sifatlari xarakterning iroda bilan bog'liq bo'lgan xislatlaridan, bu sifatlari alohida ko'rinib emas, balki shaxsning fazilatiga aylanib qoladi, g'at'iyat, sabr-toqat, chidamlilik, dadillik, o'zini tuta bilish, mustaqillik, intizomlilik, ma'suliyatni his qilish, o'z-o'zini tanqid qilish axloqiy xislatlardir.

Qobiliyat va uning tasnifi.

Qobiliyat insonning shunday psixologik xususiyatidirki, bilim, ko'nikma, malakalarini egallash shu xususiyatlarga bog'liq bo'ladi. Lekin, bu xususiyatlarning o'zi bu bilim va ko'nikmalarga taalluqli bo'lmaydi. Malaka, ko'nikma va bilimlarga nisbatan odamning qobiliyatlari qandaydir imkoniyat tarzida namoyon bo'ladi. Qobiliyatlar imkoniyatlardan iborat bo'lib, biror bir ishdagi mahorat darajasi haqiqatdir. Bolada namoyon bo'ladigan musiqaga qobiliyati uning musiqachi bo'lishi uchun imkoniyatlar, maxsus ta'lim berilishi, qat'iylik, salomatligining yaxshi bo'lishi, musiqa asbobi, notalar va boshqa ko'pgina sharoitlar bo'lishi kerak. Bularsiz qobiliyatlar taraqqiy etmay turib so'nib ketishi mumkin.

Qobiliyatlar faqat faoliyatda namoyon bo'ladi. Shuning uchun ham faqat ana shu qobiliyatlarsiz amalga oshirilishi mumkin bo'lmagan faoliyatlardagina namoyon bo'ladi. o'quvchida ham zaruriy ko'nikma va malaka tizimi hamda mustahkam bilimlar tarkib topish uslublari yo'qligiga asoslanib, jiddiy tekshirib ko'rilsa, shoshilinch ravishda unda qobiliyatlar yo'q, deb xulosa chiqarish pedagogning jiddiy psixologik xatosi bo'ladi.


Masalan, Albert Eynshteyn o'rta maktabda uncha yaxshi o'qimaydigan o'quvchi hisoblangan va uning kelajakda genial bo'lishidan hech narsa dalolat bermas edi.

Qobiliyat bilim va malakalarning o'zida ko'rinmaydi, balki ularni egallash tizimida namoyon bo'ladi ya'ni, boshqacha qilib aytganda mazkur faoliyat uchun muhim bo'lgan bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirish jarayonida turli sharoitlarda qanchalik tez, chuqur, yengil va mustahkam amalga oshirishida namoyon bo'ladi.

Qobiliyatlar individual psixologik xususiyatlar bo'lishi bilan aql sifatleri xotira xususiyatlariga, hissiy xususiyatlar va shu kabilarni qarama-qarshi qo'yib bo'lmaydi, hamda qobiliyatlarni shaxsning bu xususiyatlari bilan bir qatorga qo'yish ham mumkin emas. Agar shu sifatlarning birortasi yoki ularning yig'indisi faoliyat talablariga javob bersa yoki bu talablar ta'siri bilan tarkib topsa bu shaxsning mazkur individual xususiyatlarini qobiliyatlar deb hisoblashiga asos bo'ladi.

Qobiliyat kishining psixologik va fiziologik tuzilishi xususiyatidir. qobiliyat bilim olish uchun zaruriy shart-sharoit bo'lib, shuning bilan birga u ma'lum darajada bilim olish mahsuli hamdir. Umumiy va maxsus bilimlarni o'zlashtirish, shuningdek, kasbiy ko'nikmalarni egallab olish jarayonida qobiliyat mukamallashib va rivojlanib boradi. qobiliyatga yaqinroq turadigan tushunchalar ko'nikma va malakadir. Ular faoliyat mexanizmini tashkil qiladilar. qamda ular qobiliyat bilan birgalikda mahoratga erishishni ta'minlaydilarki, buning natijasida mehnatda katta yutuqlar qo'lga kiritiladi. qobiliyatli, ammo noshut inson ko'p narsaga erisha olmaydi. qobiliyat ko'nikmada ro'yobga chiqadi.

Darhaqiqat, qobiliyatli kishining ko'nikma va malakalari ko'p qirrali va mukammallashgan bo'ladi. Shuning bilan birga ko'nikma va malalakar yetishmagan qobiliyatni bir muncha to'ldirish yoki undagi kamchilikni tugatish mumkin. Ko'nikmalarni umumlashmasi moxirlik deb ataladi. Moxirlik bu endi qobiliyatning o'zginasidir. Demak, qobiliyat ko'nikma va malakalarning paydo bo'lishi jarayonida shakllanadi.



Qobiliyatlar tasnifi

Psixologiya fanida qobiliyatlar quyidagicha tavsiflanadi:

1. Tabiiy qobiliyatlar odamlar va hayvonlar uchun xos bo'lib, idrok qilish xotirada saqlash, oddiy muloqotga kirisha olish shular jumlasidandir. Biologik jihatdan asoslangan bu qobiliyatlar asosini shartli reflekslar hosil bo'lish jarayoni tashkil etadi. Insondagi va yuksak darajada rivojlangan hayvonlardagi bu qobiliyatlar bir-biridan farq qiladi.

2. Maxsus insoniy qobiliyatlar ijtimoiy-tarixiy tabiatga ega bo'lib, ijtimoiy hayot va taraqqiyotni ta'minlaydi. Maxsus insoniy qobiliyatlar o'z navbatida umumiy va xususiy qobiliyatlarga bo'linadi.

3. Umumiy qobiliyatlar insonning turli faoliyatlari muvaffaqiyatini ta'minlovchi aqliy qobiliyatlar xotira va nutqning rivojlanganligi, qo'l harakatlarini aniqligi va boshqa xususiyatlardan iborat. Xususiy qobiliyatlar alohida olingan bir faoliyatning muvaffaqiyatini ta'minlaydi. Bu qobiliyatlar alohida muloqotning bo'linishini taqozo etadi. Masalan, matematika, texnika, badiiy ijodiy, sportga bo'lgan qobiliyatlar shular jumlasidandir.

Ayrim adabiyotlarda umumiy qobiliyatlar mohiyati turlicha talqin qilinadi. Jumladan, umumiy qobiliyat deganda muvaffaqiyatli ravishda bilim olishni ta'minlaydigan shaxsning yuksak intellektual taraqqiyoti tushuniladi. Biroq bunday tushuncha tor va noto'g'ridir, chunki intellektual taraqqiyot faqat ixtiyoriy faoliyat uchun umuman talab qilinadi, xolos. Umumiy qobiliyat faoliyatning hamma turlariga jumladan amaliy faoliyatga ham ta'sir qiladi, deb hisoblovchi psixologlar topildi. Ammo bu fikrda qarama-qarshilik mavjud, agar umumiy qobiliyat universal ahamiyatga ega bo'lgan ekan, unda qandaydir maxsus qobiliyatlar haqida gapirib o'tirishning hojati yo'q.



Tavsiya qilinuvchi adabiyotlar:

1. Davletshin M.G. Umumiy psixologiya. Toshkent. 2002 y
2. Джемс В. Психология.- М., 1991
3. Ильин Е. П. Психология воли. — СПб.: Питер, 2000 y.
4. Karimova V.M. Psixologiya.- Toshkent. 2002 y
5. Маклаков А.Г. Общая психология М.; “Питер” 2003 y.
6. Xaydarov. F.I., N.I.Xalilova. Umumiy psixologiya. Toshkent. 2009 y.
7. G'oziev E.G'. Umumiy psixologiya. 1-2 kitob. Toshkent-2002 y



Nazorat savollari

1. Temperament tushunchasining mohiyatini asoslang?
2. Oliy nerv faoliyati tipi va temperament o'rtasidagi bog'liqlikni ko'rsating?
3. Temperament xususiyatlariga ta'rif bering?
4. Temperament tiplarining mohiyatini izohlang?
5. Xarakter tushunchasining mazmunini izohlang?
6. Xarakterning fiziologik asoslarini nima tashkil qiladi?
7. Xarakter tipologiyasining mazmuni nimalarda ko'rinadi?
8. Qobiliyatlar tushunchasining mazmunini izohlang?
9. Qobiliyatlarning sifati va miqdor tavsifi nimalarda ko'rinadi?
10. Qobiliyatlar tuzilishini tarkibini ko'rsating?



TEST TOPSHIRIQLARI

1. Sezgi bu ...

- A) eng oddiy psixik jarayon bo'lib, narsa va hodisalar o'ziga xos xususiyatlarini ongimizda aks etishidir.
- B) o'tmishdagi voqea-hodisalarga munosabat.
- V) sezgi organlarimizga ta'sir etib, ongimizda to'liq aks etishi.
- G) esga tushirish, esda saqlash.
- D) oddiy elementar sezuvchanlik bo'lib, tashqi ta'sirni qabul qilish hisoblanadi.

2. Insonning barcha sezgilari qaysi sifatlarga qarab klassifikatsiya qilinadi?

- A) ekstroseptiv, introseptiv, proprioseptiv
- B) interaktiv, kommunikativ
- V) ekstroseptiv, perseptiv
- G) interoseptiv, perseptiv
- D) ekstroseptiv, kommunikativ

3. Ekstroseptiv sezgilarga qanday sezgilar kiradi?

- A) ta'm bilish; B) hid bilish; V) teri; G) ko'rish, eshitish; D) barcha javoblar to'g'ri

4. Eshitish sezgilarining sifati qaysi qatorda ko'rsatilgan?

- A) ovoz balandligi
- B) ovozning kuchi
- V) ovoz tebrasi
- G) kortiev markazlari
- D) ovoz balandligi va ovozning kuchi

5. Sezgi qonuniyatlari qaysi qatorda ko'rsatilgan?

- A) birlik; B) doimiylik; V) davomiylik; G) sezgi ostonasi; D) barcha javoblar to'g'ri

6. Sezgining kuchi nimaga bog'liq?

A) ta'sir kuchiga; B) himoya kuchiga; V) eshitish sezgisi; G) ko'rish sezgisiga;
D) his qilish sezgisiga

7. Interoseptiv sezilar bu ...

A) idrok va sezgining birligi; B) organik sezgilar; V) kinetik sezgilar; G) vestibulyar apparat; D) to'g'ri javob yo'q

8. Sezgi kuchi ta'sir etuvchi kuchiga logoritmik proporsionaldir mazkur qonun mualliflari qaysi qatorda ko'rsatilgan?

A) Sechenov, Davidov

B) Dubrovin, Pavlov

V) Veber-Fexner

G) Kuzmina-Lichko

D) Mexler-Kabanova

9. Idrok bu ...

A) sezgi a'zolariga bevosita ta'sir etib turgan narsa va hodisalarning obrazlarining kishi ongida bir butun holda aks ettirilishidir

B) shaxs tevarak-atrofidagi voqealarni aks etishi

V) bor narsani noto'g'ri anglash

G) yo'q narsani his qilish

D) sezgi a'zolariga ta'sir etib turgan narsa va hodisalar ayrimlarini aks etishi

10. Sezgi a'zolarimizga bevosita ta'sir etib turib, ongimizda bir butun holda aks etishiga ... deyiladi.

A) sezgi B) idrok V) xotira G) xayol D) tafakkur

11. Gallyusinasiya - bu ...

A) bor narsani noto'g'ri idrok qilish

B) shaxsning idrok qilish qobiliyati

V) yo'q narsalarni idrok qilish

G) idrokning shaxs va uning tajribasiga bog'liqligi

D) yo'q narsani noto'g'ri anglash

12. Yo'q narsalarni idrok qilish bu ...

A) idrok B) xayol V) gallyusinasiya G) illyuziya D) xotira

13. Narsalarning sharoiti o'zgarsada obrazining o'zgarmasligi bu...

A) idrok B) sezgi V) xotira G) gallyusinasiya D) idrok konstantaligi

14. Idrok konstantaligi bu...

A) narsalar sharoiti o'zgarsada obrazi o'zgarmasligi

B) shaxsning idrok qilish qobiliyati

V) idrokning shaxs va uning tajribasiga bog'liqligi

G) vaqtni idrok qilish

D) harakatni idrok qilish

15. Illyuziya bu...

A) bir nimani his qilib anglash

B) shaxsning idrok qilish qobiliyati

V) idrokning shaxsga bog'liqligi

G) bor narsani noto'g'ri, yanglish idrok qilish

D) yo'q narsani idrok qilish

16. Qaysi qatorda xotira tushunchasiga to'g'ri ta'rif berilgan?

A) miyadagi muvaqqiyat bog'lanishlar

B) miyada iz hosil bo'lishi

C) ilgari idrok qilgan boshdan kechirgan va bajargan ishlarimizni yodda saqlash keyinchalik ularni esga tushirishdan iborat jarayon

D) kundalik bilimlarni esda olib qolishga

E) zarur vaqtda kerakli materialni esga tushira olish qobiliyati

17. Qaysi qatorda xotira jarayonlari ko'rsatilgan?

A) esga tushirish

B) esda olib qolish

C) unutish

D) esda saqlash

E) barcha javoblar to'g'ri

18. Xotiraning nerv fiziologik asosini nima tashkil qiladi?

A) ikkinchi signallar tizimi

B) assosiasiyalar

C) bosh miyaning po'stloq qismi

D) ketma-ketlik assosiasiyasi

E) dinamik streotip

19. Qaysi qatorda assosiasiya tushunchasiga to'g'ri ta'rif berilgan?

A) miyada iz hosil bo'lishi

B) material izini yo'qolishi

C) esda qoldirish va unutish tezligiga ko'ra

D) xotiramizda mustahkamlangan va ongimizda qayd qilingan ayrim voqea-hodisalarning o'zaro bog'lanishdir biror buyumni esda olib qolish uni boshqa buyumlar bilan bog'lash orqali amalga oshiriladi

E) barcha javoblar to'g'ri

20. Fikr yoyiqligiga ko'ra tafakkur turlari qaysi qatorda ko'rsatilgan?

A) ko'rgazmali-harakatli, ko'rgazmali-obrazli

B) amaliy, nazariy, ixtiyoriy-ixtiyorsiz

V) konkret, abstrakt, realistik, autistik, intuitiv, diskursiv

G) reproduktiv, produktiv, vizual, fazoviy

D) ko'rgazmali-obrazli, ko'rgazmali-xarakat, so'z-mantiq

21. Topshiriq xarakteriga ko'ra tafakkur turlari qaysi qatorda ko'rsatilgan?

A) ko'rgazmali-harakatli, ko'rgazmali-obrazli

B) amaliy, nazariy, ixtiyoriy-ixtiyorsiz

V) konkret, abstrakt, realistik, autistik, intuitiv, diskursiv

G) reproduktiv, produktiv, vizual, fazoviy

D) ko'rgazmali-obrazli, ko'rgazmali-xarakat, so'z-mantiq

22. Fikrning orginallik darajasiga ko'ra tafakkur turlari qaysi qatorda ko'rsatilgan?

A) ko'rgazmali-harakatli, ko'rgazmali-obrazli

- B) amaliy, nazariy, ixtiyoriy-ixtiyorsiz
- V) konkret, abstrakt, realistik, autistik, intuitiv, diskursiv
- G) reproduktiv, produktiv, vizual, fazoviy
- D) ko'rgazmali-obrazli, ko'rgazmali-xarakat, so'z-mantiq

23. Temperament tushunchasining lug'aviy ma'nosi qaysi qatorda to'g'ri ko'rsatilgan?

- A) lotincha "aralashma"
- B) yunoncha "qorishma"
- V) yunoncha "aralashma"
- G) lotincha "nisbatlar aralashmasi"
- D) yunoncha "qismlarning nisbati"

24. Temperament borasidagi dastlabki ta'limot kim tomonidan yaratilgan?

- A) Gippokrat
- B) Galen
- V) I.P.Pavlov
- G) Lesgaft
- D) I.M.Sechenov

25 fikricha insonlarning temperament xususiyatlari jihatidan o'zaro bir-biridan tafovutlanishi ularning tana a'zolaridagi suyuqliklarning turlicha nisbatda joylashuviga bog'liq ekanligi tasavvur qilinadi?

- A) Galen B) U.Sheldon V) Lestgaft G) Gippokrat D) I.P.Pavlov

26. Gippokrat fikricha inson organizmdagi suyuqliklar nechta guruhga ajratiladi?

- A) 2ta B) 3 ta V) 5 ta G) 6 ta D) 4 ta

27. O'tning xususiyati qurug'likdir uning vazifasi tana a'zolarida quruqlikni saqlab turish yoki badanni quruq tutishdir. Mazkur ta'rif qaysi temperament tipiga taalluqli?

- A) xolerik B) sangivinik V) flegmatik G) melanxolik D) bu xarakter xususiyati

28. Qonning xususiyati issiqlikdir uning vazifasi tanani isitib turishdir. Mazkur ta'rif qaysi temperament tipiga taalluqli?

- A) xolerik B) sangivinik V) flegmatik G) melanxolik D) bu xarakter xususiyati

29. Qora o'tning xususiyati namlikdir uning vazifasi badan namligini saqlab turishdir. Mazkur ta'rif qaysi temperament tipiga taalluqli?

- A) xolerik B) sangivinik V) flegmatik G) melanxolik D) bu xarakter xususiyati

30. Balg'amning xususiyati badanni sovutib turishdan iboratdir. Mazkur ta'rif qaysi temperament tipiga taalluqli?

- A) xolerik B) sangivinik V) flegmatik G) melanxolik D) bu xarakter xususiyati

ASOSIY TUSHUNCHALARNING IZOHLI LUG'ATI

Avtokratlik – hokimlik, kishining buyruqbozlik, ko'rsatmalar berish va jazolash kabi shakllarda boshqalarga (masalan, o'qituvchining talabaga) nodemokratik usullardan foydalangan holda ta'sir etishga moyilligi.

Agressivlik – dushmanlik, boshqalarga, atrofdagilarga zarar yetkazish, tajovuz qilish, noqulaylik tug'dirish maqsadini amalga oshiruvchi shaxsning xususiyati.

Dolzarblashtirish – shaxsdagi mavjud bilim, malaka va ko'nikmalarni turli axloqiy shakllar va hissiy holatlarni qayta ishlab chiqish va ularni botiniy holatdan zohiriy harakatlarga aylantirish.

Aksiologiya – qadriyatlar to'g'risidagi falsafiy ta'limot, aksiologik qadriyatlar mohiyati.

Aksiologik yondashuv – insonparvarlik pedagogikasiga xos bo'lgan xususiyat, bunda inson ijtimoiy qadriyat va jamiyat rivojlanishining provard maqsadi sifatida qaraladi. Aksiologik tafakkur o'zaro aloqadagi ham o'zaro harakatdagi dunyo kontsepsiyasiga asoslanadi.

Amaliy tadqiqotlar – pedagogik jarayonning ayrim jihatlarini chuqur o'rganishga qaratilgan ishlar, pedagogik amaliyot qonunlarini ochish.

Anketalashtirish – anketa yordamida ijtimoiy, iqtisodiy, demografik, psixologik pedagogik va boshqa tadqiqotlar uchun dastlabki materiallarni yig'ish jarayoni.

Antropologiya – odamning biologik tabiatini har tomonlama o'rganuvchi fan.

Assimilyatsiya – yangi sharoitda tayyor malaka va ko'nikmalardan jiddiy o'zgarishsiz foydalanish

Autotrening – o'zini-o'zi ishontirish, shaxsning o'zini-o'zi boshqarishga qaratilgan maxsus mashqlar to'plami. Autotreningdan shaxsning o'z ruhiy holati va xulqini boshqarishda foydalaniladi.

Axborotli malaka – ta'lim va tarbiya masalalariga axborotlarni moslashtirish va talqin qilish malakasi.

Axloq – shaxsning jamiyatga va boshqa kishilarga nisbatan burchini belgilab beruvchi me'yorlar tizimi, ma'naviy xulq qoidalari, u ijtimoiy ong shakllaridan biridir.

Bayon qilish – o'qituvchi tomonidan o'rganilayotgan material mazmunini izchil so'zlab berish metodi.

Bilish faoliyati – idrok qilish hissi, nazariy fikrlash va amaliy faoliyat birligi.

Boshqarish – tashkil etish, qaror qabul qilishga qaratilgan faoliyat, obyektning o'z xizmat vazifasi doirasida nazorat qilish, tartibga solish, ishonchli axborotlar asosida tahlil qilish va yakun yasash.

Burch – muayyan axloqiy majburiyatlarni his qilish, uning zarurligini anglash.

Vazifa – maqsad va uni amalga oshirish bosqichlarining oydinlashtirilishi.

Verbal – ifodali, og‘zaki.

Gumanizm – 1) insonning insonga bo‘lgan mehri-muhabbati, uning shani,qadrini hurmat qilish, kishi manfaatlar uchun qayg‘urish g‘oyalari bilan sug‘orilgan va kishilar o‘rtasidagi tenglik, halollik, insoniy munosabat tamoyillariga asoslangan dunyoqarash; 2) insoniylik va insonparvarlik, insonlarning bunyodkorligiga ishonchi.

Davlat ta‘lim standarti – uzluksiz ta‘limning muayyan bosqichida shaxs (mutaxassis)ning tayyorgarlik darajasi va mazmuniga qo‘yiladigan minimum talablar.

Didaktika – ta‘lim va o‘qitish nazariyasi hamda o‘qitish jarayonida tarbiyalash mazmunini ifodalovchi pedagogikaning tarkibiy qismi.

Dolzarblikni asoslash – ta‘lim va tarbiya nazariyasi hamda amaliyotining istiqboldagi taraqqiyoti muammolarini o‘z vaqtida o‘rganish hamda hal qilish zarurligini ko‘rsatish.

Dunyoqarash – shaxsning tafakkur tarzi va yo‘nalishini aks ettiruvchi qarashlar, e‘tiqod hamda fikr-o‘ylar tizimi.

Idrok etish malakasi – boshqa subyektning xususiyatlarini – uning muloqoti va muloqotga hozirligini aniqlash uchun zarur bo‘lgan kasbiy – pedagogik malaka.

Ideal – oliy maqsad, biror narsaning namunasi, shaxs, guruhlarning xatti-harakatlari, intilishlari intihosi.

Ijtimoiy idrok etish – kishilar tomonidan ijtimoiy obyektlarning idrok etilishi, tushunilishi va baholanishi.

Izohlash, tushuntirish – og‘zaki izoh, yoritilishi lozim bo‘lgan turli materiallarni izohlash, isbotlash, tahlil qilish.

Ilmiy muammo (masala) – fan orqali hal qilinadigan asosiy ziddiyatlar.

Ilmiy yangilik – muayyan davrga nisbatan ma‘lum bo‘lmagan va pedagogikaga oid adabiyotlarda qayd qilinmagan nazariy, amaliy xulosalar, ta‘lim qonuniyatlari, uning tuzilmasi, mexanizmlari mazmuni, tamoyillari va texnologiyalari.

Individuallik – shaxsning betakror biosotsiologik xususiyatlari.

Intellekt – shaxsning turli faoliyat turlarini muvaffaqiyat bilan o‘zlashtirishini belgilaydigan tug‘ma va o‘zlashma barcha aqliy qobiliyatlar to‘plami.

Ishontira olish – axborot oqimining shaxs tomonidan tanqiddan holi, erkin ravishda o‘zlashishiga erishishni ko‘zlagan ruhiy ta‘sir etish metodi.

Ishonch hosil qilish – shaxsning muayyan qoida va talablarini ongli ravishda o‘zlashtirish vositasida tarbiyalash metodi. Tegishli ma‘lumotlar va argumentlarga asoslanib, shaxsning o‘z hukmi hamda xulosalari to‘g‘riligiga ishonchni yuzaga keltirish jarayoni va natijalari.

Ichki pozitsiya (mavqe) – shaxsning kundalik ehtiyoji bilan uzviy bog‘liq va hayotining muayyan davri faoliyatining asosiy mazmuni va yo‘nalganligini belgilovchi ijtimoiy ko‘rsatkichlari tizimi.

Istiqbolni belgilash malakasi – ijtimoiy va bilish jarayonlarini rejalashtirish va boshqarish.

Kalokagatiya – go‘zallik, olijanoblik hamda jismoniy va ma‘naviy boyliklar uyg‘unligi.

Kasbiy – pedagogik muloqot – pedagog va tarbiyalanuvchining o‘zaro zich ijtimoiy – psixologik aloqasi tizimi bo‘lib, uning mazmuni axborotlar ayriboshlash, tarbiyaviy ta‘sir o‘tkazish, kommunikativ vositalar yordamida o‘zaro munosabatlarini tashkil etish hisoblanadi.

Kasbiy tayyorgarlik – bo‘lajak mutaxassisning psixologik, psixofiziologik, jismoniy hamda ilmiy-nazariy va amaliy tayyorgarligi.

Kasbiy bilimdonlik – pedagogik faoliyat yuritish uchun zarur bo‘lgan nazariy va amaliy tayyorlik birligi.

Kibernetika – axborotlar almashish, ularni qayta ishlashni boshqarish haqidagi fan.

Kognitiv – bilish jarayoni.

Kollektiv – jamoa, umumiy maqsad yo‘lida shaxslarning o‘zaro munosabatlari, tashkiliyligi va intilishlari bilan bir-biriga monand turg‘un sotsial (ijtimoiy) guruh.

Kommunikatsiya – kishilarning o‘zaro muloqotlarida axborotlar almashish tavsifi.

Kommunikativ ko‘nikma – muomala qila olish, pedagogik texnika malaka va ko‘nikma tushunchasi.

Kommunikativ faoliyat – pedagogning tarbiyalanuvchilar, boshqa pedagoglar, jamoatchilik vakillari, ota-onalar bilan maqsadga muvofiq o‘rnatgan munosabatlari.

Konstruktiv faoliyat – u o‘zida konstruktiv mazmun (o‘quv materiallarini tanlash va joy-joyiga qo‘yish, pedagogik jarayonni rejalashtirish va tashkil etish), konstruktiv – operativ (o‘zining va talabaning xatti-harakatlarini rejalashtirish), konstruktiv – material (pedagogik jarayonning o‘quv-material bazasini loyihalashtirish) ni birlashtiradi.

Konflikt – qarama-qarshi qarashlar, fikrlar to‘qnashuvi, jiddiy ziddiyat, qizg‘in bahs.

Kreativlik – betakror qadriyatlar yaratuvchi, nostandart echimlar qabul qiluvchi individning botiniy qobiliyati.

Kuzatish – biror pedagogik hodisa bo‘yicha konkret faktik material olish maqsadini ko‘zlagan idrok etishning shakli.

Ko‘nikma – o‘rganish natijasida qo‘lga kiritilgan, beixtiyor, avtomatik tarzda bajariladigan harakat. Ko‘nikmalar biror harakatni nazoratsiz, avtomatik tarzda bajarish qobiliyatlaridir.

Ko‘rsatma – ehtiyojning mavjudligi va obyektiv vaziyat hamda uni qondirish bilan bog‘liq ravishda oldindan shaxslarning ma‘lum faolligini tayyorlash, ularni joylashtirish.

Malaka – shaxsning o‘zi egallagan bilimlari asosida ularning yangi sharoitdagi yangiliklar bilan birga, ma‘lum bir faoliyatni samarali bajarish qobiliyatidir.

Malaka tavsifnomasi – o‘qituvchining nazariy va amaliy bilimlariga qo‘yiladigan umumiy talablar.

Maqsad – faoliyat natijasini oldindan fikran belgilash.

Metod – 1) tabiiy va ijtimoiy hayot hodisalarini tadqiq qilish, bilish usuli; 2) harakat qilish usuli, tarzi.

Metodika – biror ishni tashkil qilishda maqsadga muvofiq qo‘llanadigan metodlar.

Metodologiya – 1) dunyoni ilmiy bilish metodi haqidagi ta’limot; 2) biror fanda, shu jumladan pedagogikada qo‘llaniladigan metodlar.

Motiv – ma’lum ehtiyojlarni qondirish uchun asos bo‘ladigan kishining ichki faoliyat mazmuni.

Motivatsiya – shaxsni faol xatti-harakatlarga undovchi sabablar, asoslar to‘plami bo‘lib, u ayni zamonda kishi xulqini fiziologik va psixologik boshqarishning dinamik jarayonini ham bildiradi, faoliyatning yo‘nalishi, faolligi, uyg‘unligi hamda turg‘unligini belgilaydi.

Muammoli o‘qitish – o‘quv mashg‘ulotini tashkil etish shakli bo‘lib, unda pedagog rahbarligida muammoli vaziyat yuzaga keltiriladi va uning hal qilinishida ta’lim oluvchilar faol mustaqil harakat qiladilar.

Muammoli vaziyat – o‘quv vaziyati bo‘lib, u mashaqqat bilan hal qilinadigan masala tufayli yuzaga keladi.

Muloqotning yetakchi tipi – rivojlanishning ma’lum bir davrida atrofdagi kishilar bilan muomalada yetakchilik qiladigan muloqot tipi bo‘lib, uning natijasida shaxsning asosiy sifatlari shakllanadi.

Nazariy bosqich – tadqiqot obyekti to‘g‘risidagi amaldagi va istiqboldagi tasavvurlar hamda ularga bo‘lgan talab o‘rtasidagi ziddiyatni engish.

Nazariy tahlil – pedagogik hodisalarning alohida jihatlari, belgilari, xususiyatlari o‘ziga xosligini aniqlash va tahlil etish.

Obyekt – insonning, subyektning bilish predmeti va faoliyati.

Odat – kishining ma’lum e’tiqodlar, qadriyatlar yoki axloqiy me’yorlardan kelib chiqib amalga oshiradigan ongli faoliyati.

Pedagog – tarbiyachi, o‘qituvchi, dars beruvchi.

Pedagogika – yosh avlod ta’lim va tarbiyasi haqidagi fan.

Pedagogikada antropologik yondashuv – odam to‘g‘risidagi barcha fanlar ma’lumotlaridan muntazam foydalanish va pedagogik jarayonni tashkil etish hamda amalga oshirishda ularni hisobga olish.

Pedagogikaning nazariy vazifasi – ilg‘or va yangi pedagogik tajribalarni o‘rganish.

Pedagogikaning texnologik vazifasi – diagnostik sath – pedagogik hodisalar holatini aniqlash; bashorat qilish sathi – pedagogik faoliyatni eksperimental tadqiq qilish va shu asosda pedagogik voqelikni yaratish modellarini o‘rnatish; loyiha sathi- pedagogik faoliyatning nazariy kontseptsiyasi, uning mazmuni va xarakteri asosida ularga muvofiq metodik materiallar (o‘quv reja, dastur, darslik va o‘quv qo‘llanmasi, pedagogik tavsiyanomalar) ishlab chiqish; yaratuvchilik sathi –

pedagogik fan yutuqlarini takomillashtirish va qayta rejalashtirish maqsadida ta'lim amaliyotiga tatbiq etish; reflektik tuzatma (korrektirovka) sathi – ilmiy tadqiqotlar natijalarining ta'lim va tarbiya amaliyotiga singib ketishini baholash.

Pedagogik jarayon – ta'lim masalalari, uning taraqqiyotini hal qilishga qaratilgan, maxsus tashkil etilgan pedagog va tarbiyalanuvchilarning maqsadli o'zaro munosabatlari.

Pedagogik jarayon tamoyillari – pedagogik faoliyatni tashkil etishning asosiy talablari bo'lib, u pedagogik jarayonning yo'nalishini ko'rsatadi va uning qonuniyatlarini ochib beradi.

Pedagogik ixtisoslik – ta'lim natijasi o'laroq bilim, malaka va ko'nikmalar majmuidan iborat bir kasbiy guruh doirasidagi faoliyat turi.

Pedagogik ixtisoslashish – pedagogik ixtisoslik doirasidagi faoliyatning bir turi.

Pedagogik malaka – muayyan toifadagi vazifalarni hal qilish imkoniyatiga ega bo'lgan mutaxassisning kasbiy pedagogik tayyorgarligi darajasi va turi.

Pedagogik mahorat – pedagogik jarayonni bilish, uni tashkil eta olish, harakatga keltira olish (A.S. Makarenko), pedagogik jarayonning yuqori samaradorligini belgilovchi shaxsning ish sifati va xususiyatlari sintezi.

Pedagogik muloqot – ta'lim oluvchilarning maqsadlari hamda ularning birgalikdagi faoliyatlari mazmunidan kelib chiqadigan o'zaro aloqalarni o'rnatish va rivojlantirishni, bir-birini anglash va qo'llab-quvvatlashni tashkil etishning ko'p qirrali jarayoni.

Pedagogik takt – bolalar faoliyatining turli doiralarida ular bilan muloqotda bo'lishning pedagogik tamoyili, o'lchovi, o'quvchilar bilan ularning shaxsiy xususiyatlarini hisobga olgan holda to'g'ri muloqotda bo'la olish malakasi.

Pedagogik texnika – 1) har bir ta'lim oluvchiga va jamoaga pedagogik ta'sir o'tkazishda samarali qo'llash uchun zarur bo'lgan malaka va ko'nikmalar majmuasi; 2) har bir ta'lim oluvchi va jamoaning faolligini pedagogik jihatdan ta'minlash uchun zarur bo'lgan malaka va ko'nikmalar.

Pedagogik texnologiya – 1) oldindan loyihalashtirilgan pedagogik jarayonni amaliyotda rejali va bir maromda tatbiq etish yoki pedagogik masalani echishga qaratilgan pedagogning uzluksiz o'zaro bog'langan harakatlari tizimidir; 2) ta'lim va tarbiya metodlarining u yoki bu to'plamini qo'llash bilan bog'liq bo'lgan pedagogning uzluksiz, o'zaro shartlangan harakatlari tizimidir; 3) pedagogning yutuqlariga kafolat beradigan aniq ishlab chiqilgan va qat'iy ilmiy loyihalashtirilgan pedagogik harakat; 4) ta'lim shakllarini optimallashtirishga qaratilgan, texnika hamda inson omillari, uning o'zaro hamkorligi asosida o'qitish jarayoni va bilimlarni egallash, yaratish, qo'llash hamda belgilashning tizimli metodidir.

Pedagogik tizim – shaxsni rivojlantirish va yaxlit pedagogik jarayonni birlashtirgan ta'limning o'zaro bog'langan tashkiliy tuzilmasi.

Pedagogik faoliyat – ta'lim maqsadlarini amalga oshirishga qaratilgan ijtimoiy faoliyatning alohida turi.

Pedagogning kommunikativ madaniyati – pedagogning kishilar bilan qisqa muddatda muloqot o‘rnata olishi, ular bilan muloqot o‘rnatishga bo‘lgan doimiy intilishi.

Pedagog nuqtai nazari (pozitsiyasi) – pedagogning dunyoga, pedagogik voqelikka va pedagogik jarayonga bo‘lgan intellektual va hissiy munosabati.

Pedagogik haqqoniylik – o‘qituvchining obyektivlik mezonini, uning ma’naviy tayyorgarlik darajasi.

Proektiv malaka – malakaning maxsus turi bo‘lib, kutilgan pedagogik natijalarni konkret ta’lim va tarbiya rejalarida aks ettiradi.

Preskreptiv – me’yoriy.

Psixologiya – 1) shaxsning obyektiv borliqni faol aks ettirish jarayonini o‘rganuvchi fan; 2) ma’lum bir faoliyat turining o‘zaro shartlangan psixik jarayonlar to‘plami; 3) psixika, xarakter xususiyati, ko‘ngil xazinasi.

Ratsionalizatsiya – metodlarni yoki biror ish – harakatni takomillashtirish.

Releksatsiya – kuchli hayajon va jismoniy zo‘riqishdan so‘ng engil tortish, tinchlanishning umumiy holati.

Retrospektiv – o‘tmishga murojaat etish.

Refleksiv malaka – pedagogga nisbatan qo‘llanadigan nazorat – baholash faoliyati.

Refleksiya – takrorlash, aks etish, o‘z harakatlari va holatlarini tahlil qilish.

Rivojlanishning ehtimollik nazariyasi – shaxs psixikasi rivojlanishining har bir davrini tasodifiy faktlar yig‘indisiga ko‘ra belgilashga asoslangan nazariya va u avvalgi rivojlanish davridagi erishilgan sathga nisbatangina bog‘liq bo‘ladi.

Rol ijro etish – qatnashuvchilarning yakka va guruh bo‘lib turli rollarda (sahnada) chiqishi, obrazga kirishi.

Ruhiy pedagogik tayyorgarlik – pedagogikaning metodologik asoslari va kategoriyalarini, shaxsning ijtimoiylashuvi va taraqqiyoti qonuniyatlari, ta’lim va tarbiyaning mohiyati, maqsadi va texnologiyalarini bilish.

Suggestiya – uqtirish, to‘la ishonch hosil qilish.

Suhbat – kuzatuv chog‘ida yetarli darajada aniq bo‘lmagan zarur axborotni olish uchun qo‘llanadigan tadqiqot metodi.

Tadqiqot obyekt – ziddiyat va muammoli vaziyat tug‘diruvchi, bilishga qaratilgan ilmiy tahlilga muhtoj obyekt.

Tadqiqot predmeti – bevosita o‘rganilishi lozim bo‘lgan va amaliy yoki nazariy jihatdan muhim ahamiyat kasb etadigan obyektning mohiyati, ma’lum bir tomoni, xususiyati.

Takt – misli ko‘rilmagan tarzda o‘zini tuta bilish.

Ta’lim – 1) shaxsning jismoniy va ma’naviy shakllanishining yagona jarayoni, sotsial etalonlarning ijtimoiy ong sifatida u yoki bu darajada qayd qilingan, tarixan shartlangan ideal timsollarga ongli yo‘naltirilgan ijtimoiylashish jarayoni; 2) muayyan bilimlarni egallash g‘oyaviy-axloqiy qadr, malaka, ko‘nikma, axloq me’yorlariga qaratilgan jamiyat a’zolarining ta’lim va tarbiyasi vazifasini bajaradigan nisbiy mustaqil tizim.

Ta'limning madaniy insonparvarlik vazifasi – kishining hayot to'siqlarini engishga yordam beradigan ma'naviy kuchi, qobiliyati, malakalari, tabiat va ijtimoiy hayotga moslashish vaziyatidagi xarakteri, ma'naviy mas'uliyatining shakllanishi, shaxsiy, kasbiy takomili hamda shaxsning o'zi tomonidan amalga oshirilishini ta'minlovchi imkoniyatlari, shaxsning intellektual, axloqiy erkinlikka, shaxsiy muxtoriyati shuningdek, baxtiga erishish uchun zarur bo'lgan vositalar shaxsning individual ijodiy taraqqiy etishi va ma'naviy imkoniyatlarining ochilishi uchun sharoitlar yaratishi.

Ta'lim turlari – sokratcha suhbat metodi, an'anaviy ta'lim, izohli-namunali (illyustrativ) ta'lim, bilimlarni mustaqil egallash, dasturlashtirilgan ta'lim, ta'limni algoritmlash jarayoni, differentsiatsiyali, individual ta'lim va boshqalar.

Tarbiya – 1) shaxsning ma'naviy va jismoniy holatiga muntazam va maqsadga muvofiq ta'sir etish; 2) pedagogik jarayonda ta'lim maqsadlarini amalga oshirish uchun pedagog va tarbiyalanuvchilarning maxsus tashkil etilgan faoliyati.

Taqlid qilish – biror harakat, qiliq, ahd, fikr va hissiyotni takrorlash, aynan o'zlashtirish.

Tafakkur – inson aqliy faoliyatining oliy shakli, insonlarni o'rab olgan dunyodagi o'zaro bog'langan narsa va hodisalarni bilish jarayoni, muhim hayotiy jarayonlarni his qilish va muammolarni hal qilish, ma'lum bo'lmagan voqea hodisalarni qidirish, kelajakni ko'ra olish. Tafakkur, tushuncha, hukm, xulosa shakllarida namoyon bo'ladi.

Temperament – 1) shaxsning psixik faoliyati dinamikasining turli jihatlarini bildiradigan turg'un individual xususiyatlarining qonuniy munosabatlari; 2) shaxsning dinamik xususiyatlari: intensivlik, tezlik, temp, psixik jarayonlar va holatlar ritmi.

Faoliyat – 1) ongli maqsad bilan boshqariladigan kishining ichki (ruhiy), tashqi (jismoniy) faolligi; 2) atrof-muhitning kishilar tomonidan maqsadga muvofiq qayta bunyod etilishi.

Faoliyatning yetakchi turi – bola hayotining muayyan davridagi psixik rivojlanishini yetarli darajada ta'minlovchi hamda keyingi taraqqiyotiga asos bo'luvchi faoliyatdir.

Fundamental – asosiy fundamental

Xayrixohlik – kishilarga ochiq ko'ngilli bo'lish, iltifotli, marhamatli bo'lish.

Shaxs – 1) kishilarning ijtimoiy xulqi, insonlar orasida o'zini tutishini aks ettiradigan ruhiy sifatlari majmuini bildiruvchi tushuncha; 2) turli-tuman sifatlarni tizimidagi kishining ruhiy, ma'naviy mohiyati; 3) ijtimoiy mohiyat kasb etgan va o'z-o'zini anglash qobiliyatiga ega bo'lgan kishi.

Shaxs dinamikasi – kishining ontogenetik rivojlanishini o'z ichiga olgan holda subyektning xususiyatlari va sifatining vaqtga nisbatan o'zgarish jarayoni.

Shaxsiy fazilat – shaxs tomonidan o'zining axloqiy, ruhiy va ishchanlik qobiliyatining ijtimoiy ahamiyatini, jamiyatdagi o'rnini anglay olish xususiyati.

E'tiqod – shaxs amal qiladigan bilim, tamoyil va ideallarning haqqoniyligiga qalban va asosli ishonch bilan bog'langan, uning atrof-muhitga hamda o'zining xatti-harakatlariga bo'lgan subyektiv munosabati.

Evratika – ilmiy tadqiqotning mantiqiy usullari va metodik qoidalari tizimi.

Empirik – tajribaga asoslangan.

Empirik bosqich – tadqiqot obyekti to'g'risida har tomonlama tasavvur hosil qilish, ta'lim amaliyoti, ilmiy bilimlar saviyasi va hodisalar mohiyatiga erishishga bo'lgan talab o'rtasidagi ziddiyat, ilmiy muammoni nomlash.

O'z-o'zini baholash –shaxsning o'z psixologik sifatlari, xulqi, yutuqlari va muvaffaqiyatsizliklari, qadr-qimmati, kamchiliklarini baholay olishi.

O'z-o'zini tarbiyalash – 1) shaxsga xos bo'lgan madaniyatning shakllanishi va rivojlanishiga qaratilgan izchil va ongli faoliyati; 2) shaxsning o'z jismoniy, ruhiy va axloqiy sifatlarini tinmay amalga oshirish.

O'qitish – ta'lim oluvchining bilish faoliyatini boshqarishga qaratilgan o'qituvchining faoliyati.

O'qitish – 1) ta'limning o'ziga xos usuli bo'lib, shaxsga nazariy va amaliy bilimlar berish jarayonida uning rivojlanishi ta'minlanadi; 2) o'quvchi va o'qituvchi, o'quvchining boshqa o'quvchilar bilan aloqasi natijasi o'laroq atrof-muhit, uning qonuniyatlari, taraqqiyot tarixi va ularning o'rganilish usullarini bilishning muntazam boshqarilish jarayoni.

O'qituvchining innovatsion faoliyati – sotsial ijtimoiy pedagogik fenomen bo'lib, ijodiy imkoniyatni aks ettirish, kundalik faoliyatdan chetga chiqishdir.

O'qitish vazifasi – ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlanish vazifalari.

O'quv-bilish faoliyati – insoniyat tomonidan to'plangan madaniy boylikni egallash bilan bog'liq faoliyat.

O'quv faoliyati – shaxsning yangi bilim, malaka va ko'nikmalarni egallash jarayoni.

Qanoat – ma'lum maqsadga erishish yo'lida ijobiy tuyg'u bilan bog'langan shaxsning psixologik holati.

Qiziqish – shaxs harakatiga sabab bo'ladigan faoliyat yo'nalashining ongli shakli.

G'ayri ixtiyoriylik – tashqi holat yoki shaxsiy kayfiyatlar ta'sirida dastlabki ishonchlarga moyil kishi xulqining xususiyati.

Halollik – shaxsiy va ijtimoiy majburiyatlarni, axloqiy me'yorlarni rostgo'ylik bilan saqlash.

Yaxlitlik – pedagogik jarayonning sintezlashgan sifati bo'lib, uning oliy darajadagi taraqqiyotini, unda faoliyat ko'rsatayotgan subyektlar, obyektlar faoliyatini ta'minlovchi jarayondir.

Yaxlit pedagogik jarayon – tarbiya jarayonida ta'lim va ta'lim jarayonida tarbiya berishning o'zaro singib ketgan, yaxlit holga kelgan jarayoni.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Avesto. / A.Mahkam tarjiması. T.: Sharq, 2001. – 385 b.
2. Abdurahmonov A. Saodatga eltuvchi bilim: (Din, falsafa, hayot, ma’naviyat va ma’rifat saboqlari). – T.: Movaraunnahr, 2002. – 720 b.
3. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. –T.: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1993. – 222 b.
4. Abu Rayhon Beruniy. Tarayhalar (Javohirot kitobidan). – T.: Meros, 1991. – 47 b.
5. Abdurauf Fitrat. Najot yo‘li. – T.: Ma’naviyat, 2003. – 256 b.
6. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. – T.: Cho‘lpon, 1994. – 182 b.
7. Abdulla Qodiriy. Tanlangan asarlar. – T.: Sharq, 2014. – 880 b.
8. Azizxo‘jaeva N.N. O‘qituvchi tayyorlashning pedagogik texnologiyasi. – T.: TDPU, 2000. – 52 b.
9. Alisher Navoiy. Tanlangan asarlar. 9-jild. – T.: Sharq, 2010. – 500 b.
10. Altshuller, G. S. Kak stat geniemi: Jiznennaya strategiya tvorcheskoy lichnosti / G. S. Altshuller, I. M. Vertkim. – Minsk, 1994. – 479 s.
11. Ananov, B. G. Chelovek kak predmet poznaniya / B. G. Ananov. – L. : Izd-vo Leningr. un-ta, 1968. – 339 s.
12. Asqarov A. O‘zbek xalqining kelib chiqish tarixi. – T.: O‘zbekiston, 2015. – 690 b.
13. Vaxterov, V. P. Osnovy novoy pedagogiki [Tekst] / V. P. Vaxterov. – Moskva: Izdanie Tovariщestva I. D. Sыtina, 1913. – 583 s.
14. Ventsel, K. N. Dom svobodnogo rebenka: Kak sozdat svobodnuyu shkolu [Tekst] / K.N. Ventsel. – M.: Zemlya i fabrika, 1923. – 58 s.
15. Bim-Bad B.M. Pedagogicheskaya antropologiya. – M.: URAO, 2003. – 208 s. Выготский L.S. Psixologiya. – Moskva: Mir knigov, 2000. – 1008 s.
16. Выготский L.S. Мышление i rech. – Moskva: Labirint, 1999. – 352 s.
17. Давыдов, V. V. Проблемы razvivayushchego obucheniya / V. V. Давыдов. – M. : Akademiya, 2004. – 288 s.
18. Derkach A.A. Akmeologiya. – M.: RAGS, 2004. – 304 s.
19. Dyui, Dj. Psixologiya i pedagogika myshleniya / Dj. Dyui. – M.: Mir., 1919. – 201s.
20. Jaloliddin Manguberdi. – T.: Sharq, 1999. – 274 b.
21. Johnson, D.W., Johnson, R.T. Cooperation and the use of technology. In J. M. Spector, M. D. Merrill, J. van Merriënboer, & M. Driscoll (Eds.), Handbook of research on educational communications and technology. – New York: Taylor & Francis, 2008. – P. 1017-1044.
22. Johnson, D.W., Johnson, R.T., Holubec, J. Cooperative Learning in the Classroom / D.W. Johnson, R.T. Johnson, J. Holubec. – Association for Supervision and Curriculum, 1994. – 110 p.

23. Johnson, D.W., Johnson, R.T. Learning together and alone: cooperative, competi-tive, and individualistic learning (5th ed.) / D.W. Johnson, R.T. Johnson. – Englewood Cliffs, New Jersey, USA: Prentice-Hall Publishing, 1999 .
24. Johnson, D.W., Johnson, R.T., Mech, D. Impact of Positive Interdependence and Academic Group Contingencies on Achievement / D.W. Johnson, R.T. Johnson , D. Mech // The Journal of Social Psychology, 1988. Vol. 128, Issue 3. – P. 345-352
25. Jabborov I. Antik madaniyat va ma’naviyat xazinasi. – T.: O‘zbekiston, 1999. – 221 b.
26. Zak, A. Z. Kak opredelit uroven razvitiya myshleniya shkolnikov / A. Z. Zak. – M. : Znanie, 1982. – 96s. / (Seriya «Pedagogika i psixologiya» ; vyr. 1).
27. Zankov, L. V. Razvitie shkolnikov v protsesse obucheniya / L. V. Zankov. – M. : Prosvetshenie, 1967. – 210s.
28. Ilyosov Ya. So‘g‘diyona. – T.: Sharq, 1994. – 330 b.
29. Imomnazarov M. Milliy ma’naviyatimiz asoslari. – T.: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2006. – 448 b.
30. Kan-Kalik, V.A. Uchitelyu o pedagogicheskom obshchenii [Tekst] / V.A. Kan-Kalik. – M.: Prosvetshenie, 1987. – 190 s.
31. Kagan,S. Sooperative learning. 2nd ed. San Clemente, CA:Kagan Publishing, 1994. – 187 p.
32. Kilpatrick, W.H. The Project Method: The Use of Purposeful Act in the Educative Process / W.H. Kilpatrick. – Teachers college, Columbia University, 1918. – 27 p.
33. Krackowizer, A.M. Projects in the Primary Grades / A.M. Krackowizer. – Phila-delphia: J.B. Lippincott Company, 1919. – 272 p.
34. Komenskiy, Ya. A. Pedagogicheskoe nasledie / Ya. A. Komenskiy, D. Lokk, J. J Russo, I. G. Pestalossii. – M. , 1987. – 416 s.
35. Komilov N. Tasavvuf yoki komil inson axloqi. – T.: Yozuvchi, 1996. – 272 b.
36. Korotaeva, Ye. V. Pedagogicheskie vzaimodeystviya i texnologii : (monograficheskie issledovaniya: pedagogika) / Ye. V. Korotaeva. – M. : Academia, 2007. – 256 s.
37. Kuzmin, Ye.S., Semyonov, V.Ye. Lichnost. Obshchenie: Slovar sotsialno-psixologicheskix ponyatiy [Tekst] / Ye.S. Kuzmina, V.Ye. Semyonova. – L.: Lenizdat, 1987. – 144 s.
38. Kultura, нравstvennost, chelovek. – T.: Fan, 1991. – 98 s.
39. Kun T. Struktura nauchnykh revolyusiy. – M.: Vldos, 2002. – 167 s.
40. Lay, V.A. Shkola deystviya: Reforma shkoly soobrazno trebovaniyam priro-dы i kultury [Tekst] / V.A. Lay. – SpB: izd-vo «Shkola i jizn», 1914. – 218 s.
41. Lichtwark A. Obungen in der Betrachtung von Kunstwerken. – Berlin: Verlag von Bruno Cassire, 1909. – 230 p.

42. Lipman Matyew *Philosophy goes to school*. – Philadelphia: Temple University Press, 1988. – 140 p.
43. Leontev, A. N. *Deyatel'nost. Soznanie, Lichnost* / A. N. Leontev. – M. : Politizdat, 1975. – 204s.
44. Leontev, A. N. *Potrebnost, motivy, emotsii* / A. N. Leontev. – M. : Pedagogika, 1971.
45. Lerner, I.Ya. *Problemnoe obuchenie* / I. Ya. Lerner. – M.: Znanie, 1974. – 64 s.
46. Maxmudxo'ja Behbudiy. *Istiqlol qahramonlari*. – T.: Ma'naviyat, 1999. – 280 b.
47. Maslou A. *Psixologiya byitiya*. // Per. s angl. O.O. Chistyakova. – Refbuk: Vakler, 1997. – 84 s.
48. Matyew Gareth. *Philosophy and the young child*. – Cambridge: Harvard Temple University Press, 1988. – 210 p.
49. Matyushkin, A. M. *Myshlenie, obuchenie, tvorchestvo* / A. M. Matyushkin. – M. : Izd-vo Mosk. psixol.-sos. in-ta ; Voronej : MODEK, 2003. – 720 s.
50. Matyushkin, A. M. *Zagadki odarenosti: problemy prakticheskoy diagnostiki* / A. M. Matyushkin. – M. : Shkola-Press, 1993. – 128 s.
51. Mejuev V. *Kultura i obrazovanie*// Alma mater. – M., 2004.- № 5. – S.5-9.
52. Mitina L.M. *Uchitel kak lichnost i professional (psixologicheskie problemy)*. – M.: Delo, 1994. – 215 s.
53. Maller, J.B. *Co-operation and Competition: An Experimental Study in Motivation* / J.B. Maller. – Teach. Coll., 1929.
54. May, M.A., Doob, L.W. *Competition and Cooperation* / M.A. May, L.W. Doob. – New York: Social Science Research Council, 1937.
55. Mayes, T., Freitas, S. *Learning and e-learning: The role of theory (Rethinking Pedagogy for a Digital Age: designing and delivering e-learning)* / edited by Helen Beetham and R. Sharpe. – New York, 2007. – P.13-25
56. McMillan, D.W., Chavis, D.M. *Sense of Community: A definition and theory*/ D.W. McMillan, D.M. Chavis // *Journal of Community Psychology*. 1986. Vol.14, Is-sue 1. – P.6-23
40. Mead, M. *Cooperation and Competition Among Primitive People* / M. Mead. – McGrawHill, 1937
41. Moskvina V.A., Moskvina N.V. *Osnovy neyropedagogiki*. – Orenburg: IPK OGU, 2000. – 135 s.
42. Musurmonova O. *Oila ma'naviyati – milliy g'urur*. – T.: O'qituvchi, 1999. – 200 b.
43. Novikova, L.I. *Pedagogika detskogo kollektiva. (Voprosy teorii)* [Tekst] / L.I. Novikova. – M.: Pedagogika, 1978. – 144 s.
44. Nishonova S. *Ma'naviyat darslari*. – T.: O'qituvchi, 1994. – 320 b.

45. Odob-axloq kitobi / Jadid adabiyoti namoyondalari: M.Behbudiy va boshqalar. – T.: Yangi asr avlodi, 2015. – 192 b.
46. Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar. – Qarshi.: Nasaf, 2000. – 79 b.
47. Ochilov M., Ochilova N. O‘qituvchi odobi. – T.: O‘qituvchi, 1997. – 132 b.
48. Ochilov.M. Muallim – qalb me‘mori. – T.: O‘qituvchi, 2001. – 429 b.
49. Pedagogicheskiy slovar. / Pod. red. V.I.Zagvyazinskogo, A.F.Zakirovoy. – M.: Akademiya, 2008. – 337 s.
50. Pervin, I.B. Kollektivnaya poznavatel'naya deyatel'nost i vospitanie shkolnikov [Tekst] / I.B. Pervin. – M.: Pedagogika, 1985. – 144 s.
51. Pinkevich, A.P. Pedagogika. T.2 [Tekst] / A.P. Pinkevich. – M.: Rabotnik pro-sveshcheniya, 1929. – 264 s.
52. Pirogov, N.I. Izbrannyye pedagogicheskie sochineniya [Tekst] / Sost. A.N. Alekseyuk, G.G. Savenok. – M., Pedagogika, 1985. – 496 s.
53. Polat Ye.S. Metod proektov. – M., 2001. – 189 s.
54. Podlasyy I.P. Produktivnaya pedagogika. – M.: Narodnoe obrazovanie, 2003. – 496 s.
55. Polyakov S.D. Texnologii vospitaniya. – M.: VLADOS, 2002. – 144 s.
56. Palloff, R. M., Pratt, K. Building learning communities in cyberspace: Effective strategies for the online classroom / R. M. Palloff, K. Pratt. – San Francisco: Jossey-Bass Publishers, 1999. – 292 p.
57. Park, C.W. The cooperative system of education. An account of cooperative educa-tion as developed in the College of Engineering, University of Cincinnati. – Washing-ton: Government Printing Office, 1916. – 48 p.
58. Parkhurst, H. Education on The Dalton Plan / N. Parkhurst. – New York: E.P. Dutton & Company, 1922. – 323 p.
59. Popkin, K., Lamb, H. Developing an Online Learning Community: A Framework for Identifying the Connections between Formal and Informal Participatory Activities / K. Popkin, N. Lamb. – Los Angeles, 2015. – P. 374-376
60. Rogov Ye.I. Lichnost uchitelya: teoriya i praktika. – Rostov-na-Donu.: Feniks, 1996. – 225 s.
61. Rodjers K. Vzglyad na psixoterapiyu. Stanovlenie cheloveka. – M.: Progress, 1994. – 480 s.
62. Rubinshteyn S.L. Osnovy obshchey psixologii. – SPb.: Piter, 2013. – 713 s.
63. Renzulli, J. S. The three-ring definition of giftedness: A developmental model forpromoting creative productivity. In R .J. Sternberg & J. E. Davidson (Eds.), Conceptions of giftedness, (2nd ed., pp. 246-280). New York: Cambridge University Press, 2005.
64. Schneider, H. Cooperative Course at Cincinnati; Results and Lessons of Two Years' Experience / H. Schneider. – Engineering Magazine. September, 1908. – P. 929-931.

65. Sharan, S., Sharan Y. Small group-teaching / S. Sharan, Y. Sharan. – Englewood Cliffs, NJ: Educational Technology Publications, 1976. – 237 p.
66. Slavin, R.E. Student teams and comparison among equals: Effects on academic performance and student attitudes. / R.E. Slavin. – Journal of Educational Psychology, vol. 70, 1978. – P. 532-538.
67. Slavin, R.E. Cooperative learning and Student Achievement / R.E. Slavin. – ASCD, 1988. – P. 31-33.
68. Snedden, D. Project as a Teaching Unit / D. Snedden. - School and Society. 1916. №4. – P.420-421.
69. Stevenson, J.A. The project method of teaching / J.A. Stevenson . – New York: The Macmillan Company, 1922. – 336 p.
70. Skatkin, M. N. Aktivizatsiya poznavatelnoy deyatel'nosti uchashixsya v obuchenii / M. N. Skatkin. – M., 1965. – 48 s.
71. Safo Ochil., Hoshimov K. O'zbek pedagogikasi antologiyasi. – T.: O'qituvchi, 1999. – 480 b.
72. Selevko G.K. Pedagogicheskie texnologii na osnove didakticheskogo i metodicheskogo usovershenstvovaniya. – M.: NII shkol'nykh texnologiy, 2005. – 288 s.
73. Serikov V.V. Obrazovanie i lichnost. Teoriya i praktika proektirovaniya pedagogicheskix sistem. – M.: VLADOS, 1999. – 90 s.
74. Situatsionnyy analiz ili Anatomiya keys-metoda. / Pod. red. Surmina Yu.P. – Kiev: sentr innovatsiy i razvitiya, 2002. – 320 s.
75. Slastenin V.A., Rodymova L.S. Pedagogika – innovatsionnaya deyatel'nost. – M.: Magistr, 1997. – 146 s.
76. Sulaymonova F. Sharq va G'arb. – T.: O'zbekiston, 1997. – 415 b.
77. Suxomlinskiy, V.A. Serdse otdayu detyam [Tekst] / V.A. Suxomlinskiy. – Ki-yeв, 1973. – 288 s.
78. Children and social competence: Arenas of action / Ed. by Hutchby I., Moran-Ellis J.; L.Wach.: Falmer press, 1998. – 143 p.
79. Sternberg, R. J. The theory of successful intelligence. Gifted Education International, 15, 4-21 Sternberg R.J. Conceptions of Giftedness, 2000.
80. Temur tuzuklari. / Forschadan A. Sog'uniy va X. Karomatov tarjimasini. – T.: G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1996. – 34 b.
81. Tolstoy, L.N. Pedagogicheskie sochineniya [Tekst] / sost. N.V. Veykshan (Kudrya-vaya). – M.: Pedagogika, 1989. – 544 s.
82. Torrance, E. P. The role of creativity in identification of the gifted and talented. Gifted Child Quarterly, 28, 153-156, 1984.
83. Ushinskiy, K.D. Problemy pedagogiki [Tekst]: sbornik / sost. E.D. Dneprov. – M.: Izd-vo URAO, 2002. – 592 s.
84. Ushinskiy, K. D. Pedagogicheskie sochineniya: v 6-ti tomah. T.5 / K. D. Ushinskiy. – M. : Pedagogika, 1990. – 528 s.
85. Fromm, E. Psixoanaliz i etika (osnovy gumanisticheskoy karakterologii) [Tekst] / E. Fromm. – M.: Respublika, 1993. – 415 s.

86. Xayrullaev M. O‘zbekistonda ijtimoiy-falsafiy fikrlar tarixidan lavhalar. – T.: O‘zbekiston, 1995. – 240 b.
87. Xayrullaev M. Ma’naviyat yulduzlari. – T.: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2001. – 408 b.
88. Xarlamov I.F. Pedagogika v voprosax i otvetax. – M.: Gardariki, 2001. – 256 s.
89. Xodjaev B.X. Modernizatsiyalashgan didaktik ta’minot vositasida umumta’lim maktabi o‘quvchilarida tarixiy tafakkurini rivojlantirish. – T.: “Fan va texnologiya” nashriyoti, 2015. – 280 b.
90. Xutorskoy, A. V. Didakticheskaya evristika: teoriya i texnologiya kreativnogo obucheniya / A. V. Xutorskoy. — M.: Izd-vo MGU, 2003. — 416 s.
91. Shamova, T.I. Aktivizatsiya ucheniya shkolnikov [Tekst]. – M.: Pedagogika, 1982. – 208 s.
92. Щуркова N.Ye. Vospitanie: novyy vzglyad pozitsiy kultury. – M.: Ped. obshchestvo Rossii, 1997. – 110 s.
93. Щуркова N.Ye. Novoe vospitanie. – M.: Ped. obshchestvo Rossii, 2000. – 128 s.
94. Elkonin, D. B. Vozrastnye osobennosti mladshix podrostkov / D. B. Elkonin : [pod red. D. B. Elkonina]. – M., 1967.
95. Yakimanskaya, I. S. Lichnostno-orientirovannoe obuchenie v sovremennoy shkole / I. S. Yakimanskaya. – M., 1996. – 96 s.
96. G‘oyibov N. Amir Temur davri ma’naviyati. – T.: G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 2001. – 48 b.
97. Habibullaev A. Navoiy pandnomasi: “Mahbub-ul-qulub”. – T.: Fan, 1996. – 82 b.
98. Hasanov S. Xorazm ma’naviyati darg‘alari. – T.: Adolat, 2001. – 233 b.
99. Haqqul Ibrohim. Tasavvuf va she’riyat. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti, 1991. – 184 b.
100. Homidiy H. Tasavvuf allomalari. – T.: Sharq, 2004. – 208 b.
101. Williams F. Ye. Creativity Assessment Packet (CAP) . D.O.K. Publishers. Inc. Buffalo. New York 14214, 1980.